

Jamol Jalolov

**CHET TIL
O‘QITISH
METODIKASI**

**Foreign
Language
Teaching
Methodology**

JAMOL JALOLOV

CHET TIL O'QITISH METODIKASI

Chet tillar oliy o'quv yurtlari
(fakultetlari) talabalari uchun
darslik

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi tasdiqlagan*

„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2012

Taqrizchilar: professor **S. Saidov**
professor **T. Sattorov**
professor **J. Yoqubov**

Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi.

Ma'lumki, chet tilni o'rgatish-o'rganish muayyan jihatlari bilan ona tili va ikkinchi tildan keskin farqlanadi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi.

Qo'lingizdagi kitob mana shunday farqlar bilan birga ta'lim muassasalarida chet til o'qitish usullari, chet til darslarini tashkillashtirish, o'tkazish va h.k. ko'plab metodik masalalarni yoritib bergan. Kitob chet ellar va mamlakatimiz nashriyotlarida chop etilgan darslik va qo'llanmalar hamda o'zbek maktablari tajribasini yoritadigan metodik manbalarga asoslanib yozilgan.

Darslikdan chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalarini, muallimlar, shuningdek, chet til o'qitish metodikasiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

**NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI**
Ahborot-resurs markazi

26999011

*Otam xoji Jaloliddin Qushnazar o'g'li
va Onam Tojiniso Sulton qizining
porloq xotiralariga bag'ishlayman.*

MUQADDIMA

Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalar-dan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa, ko'p tillilik (poliglossiya) ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar. „Idrokli yoshlarimizning ko'pchiligi uch til egasidir“¹. Ushbu tillar ta'lim nazariyasida maxsus nomlar bilan yuritiladi: ona tili, ikkinchi til va chet til.

Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o'taydigan birinchi tildir. Ruhshunoslar e'tirofiga binoan „tafakkur — verbal“, ya'ni fikrlash so'z bilan chambarchas bog'liq, so'z — tushuncha ifodalovchisi. Ona tili so'zlari zaminida o'zlashtirilgan tushunchalar ikkinchi yoki chet til o'rganish chog'ida o'zga til so'zlarining tovush va yozuvdagi timsolida gavdalanadi. Ona tili, ikkinchi til va chet tilda o'rganiladigan so'z (mas. non — хлеб — bread) miqdoran uchta, biroq ular ifodasida shakllanuvchi tushuncha esa yagona: „un mahsulotlaridan xamir qorib, tandir, o'choq yoki gazda pishiriladigan, yopiladigan yegulik, tirikchilik uchun zarur narsa“.

Xullas, tushuncha, tilshunoslar ta'biri bilan aytganda, umuminsoniy, baynalmilal hodisadir, so'zning fonetik va grafik timsoli esa milliydir. O'z tilida shakllangan tushunchalarni o'quvchi/talaba endi o'rganilayotgan o'zga til so'zlari bi-

¹ *G'afur G'ulom*. Ko'p tilni bilishning xosiyati // O'qituvchilar gazetasi, 1965-yil 16-sentabr („Toshkent oqshomi“ gazetasining 1989-yil 6-aprel sonida „Ko'p tilni bilish xosiyati“ nomi bilan qayta bosilgan).

lan fikran bog'laydi. Binobarin, til o'rgatish ruhshunosligining yirik mutaxassisi, professor Boris Vasilyevich Belyayevning „chet tilda tafakkurni shakllantirish“ga doir ilmiy mulohazasi¹ nomaqbuldir, zero, turli tilda ifodalangan fikr uyg'unligi kuzatiladi.

Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi. Ma'lumki, til kishilarning bir-birlarini yaqindan bilishlari, hurmat-e'zozlashlari, do'stlashishlarida tengi yo'q omil, beba-ho vositadir. O'rta va oliy o'quv yurtlarida boshqa tillarda ta'lim oluvchilar uchun ikkinchi til tushunchasi o'zbek tili demakdir.

Chet til — bu xorijiy mamlakat tili. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, fransuz) tillari va Sharq (arab, turk, urdu, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilmoqda. Ular ta'lim muassasalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan.

Uchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kechadi: *birinchidan*, ona tilida tafakkur shakllanadi, o'zga tillarni o'rganish ulardagi fonetika, leksika va grammatikaga xos xususiyatlarni his etish bilan bog'liqdir; *ikkinchidan*, o'rganish tartibi ona tilidan boshlanib, undan keyin ikkinchi til va, nihoyat, chet tilga o'tiladi; *uchinchidan*, ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi.

Qayd etilgan muhokamadan ayon bo'ladiki, uchala til orasida chet tilni o'rgatish-o'rganish muayyan jihatlari bilan keskin farqlanadi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi.

Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchining to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi.

Til tajribasi termini Yevropa tillarida chop etilgan metodik adabiyotlarda deyarli uchramaydi, chunki rus (Rossiya Federatsiyasi nazarda tutiladi), ingliz, nemis, fransuz maktablarida yagona ona tili chet til o'rganishda hisobga olinadi. O'zbekiston maktablarida esa ona tili va ikkinchi tildan hamda o'rganilayotgan chet tilning o'zidan to'plangan yaxlit til tajribasi xususida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir.

¹ Б. В. Беляев. Психология владения иностранным языком: Докт. дисс. — М., 1960.

O'quvchilarning til tajribasi uch tildan yig'ilgani bilim, ko'nikma va malakalar (kompetensiya) majmuasi (sintezi) bo'lib, uning hajmi, qo'llanish ko'lami, o'zaro bog'liqligi masalalari metodikaning til tajribasini hisobga olish prinsipi doirasiga kiradi.

Til tajribasini hisobga olish deganda, o'quvchi shu kungacha o'zbek, rus, chet til (ingliz, ispan, nemis yoki fransuz tili)dan olgan bilim, ko'nikma va malakasining hozir o'rganayotgan chet til materialini o'zlashtirishga salbiy (interferensiya) yoki ijobiy (transpozitsiya/fatsilitatsiya) ta'siri tushuniladi. Masalan, chet tildagi „artikl“ atalmish grammatik hodisani o'rgatish chog'ida, uning o'zbek tilida mavjud emasligi tufayli, mazkur grammatik kategoriyaga oid „artikl“ tushunchasi shakllantiriladi. Oqibatda o'quvchi til tajribasi endi chet tildagi „yangilik“ bilan boyiydi. Grammatikadan hozirgi, o'tgan va kelasi zamonlar (mas. Present Indefinite, Presente de Indicativo, Präsens, Présent)ni o'rganishda ularning qo'llanilishi (funktsiyasi), yasalishi (shakli) va ma'nosi (semantikasi) alohida metodik yondashishni talab etadi. Fe'l zamonining funktsiyaviy tarafi o'quvchilar uchun deyarli qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki grammatik hodisani „takrorlanib turadigan ish-harakatni ifodalashi“ o'zbek tilidan ma'lum. Bunday holat o'quvchilar ona tilisi tajribasidan olgan bilimlari yordamida chet til hodisasini egallashga imkon tug'diradi. Ushbu fe'l zamonining yasalishi (formasi) esa o'zbek va chet tilda butunlay farq qiladi. Chet tildagi ikki so'z (yordamchi va yetakchi fe'llar)dan tuziladigan zamon shakli (mas. Future Indefinite, Futuro Simple, Futurum I, Futur simple)ni o'rganishda o'quvchilar til tajribasi tarkibida mavjud ruscha (ikkinchi til)dan foydalanish ma'qul (буду+делать, будешь+ходить). Zero, o'quvchiga ona tilida fe'l zamoniy yasalishi chet til hodisasi (kelasi zamon)ni o'rgatishda usluban maqbul emas, bu o'rinda, ona tili tajribasi to'sqinlik qilishi (interferensiya) muqarrar.

Demak, o'quvchilarning til tajribasi chet til o'rganishda g'ov bo'lishi (salbiy ta'sir — *interferensiya*) yoki yordam berishi (ijobiy ta'sir — *transpozitsiya*) kuzatiladi. Binobarin, chet til muallimi o'quvchilarning ona tilisini, ikkinchi tilni va o'rganilayotgan chet tilni amaliy va nazariy puxta bilmog'i darkor. Shuningdek, o'qituvchining o'qitish metodikasidan atroflicha xabardor bo'lishi talab qilinadi.

Qo'lingizdagi kitob chet ellar va mamlakatimiz nashriyotlarida chop etilgan darslik va qo'llanmalar hamda o'zbek maktablari tajribasini yoritadigan metodik manbalarga asoslanib yozildi. Dasturiy¹ talablarga ko'ra, undagi barcha boblar uch qismga ajratildi.

Birinchi qism (I—VII boblar)da „Chet til o'qitish metodikasining nazariy asoslari“, ya'ni unda umumiy metodikaning ilmiy yutuqlari aks ettirildi. O'zbek maktablarida chet til o'qitish sohasidagi nazariy-uslubiy xulosalar bilan to'ldirildi.

Ikkinchi qism gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv hamda til materialini (leksika, grammatika, talaffuz)ni o'rgatish, nutqiy ko'nikma va malakalarni nazorat qilish singari (VIII—XV) boblardan iborat.

Chet til o'rgatishni tashkil etish yo'l-yo'riqlari (XVI—XX boblar)ni **uchinchi qism** o'z ichiga oladi. Metodikada ilk bor „Turli o'quv yurtlarida chet til o'qitish“ metodik masalalari (XX bob) ishlab chiqildi va mazkur qismda bayon qilindi.

Kitobning „Muqaddima“sidan keyin „Chet til o'qitish metodikasiga kirish“ nomli alohida mavzu bayon etildi.

Chet tillarni o'qitish metodikasining asosiy masalalarini qamrab olgan mavzular izchil joylashtirildi. Metodik bilimlar sodda tilda, munozarabop ilmiy qarashlardan xoli, barcha chet tillarni hisobga olgan holda ifodalandi.

Har bir bobning boshqalari bilan mazmunan uzviy bog'langanligini alohida uqtirib, takror eslatib o'tish joizki, kitobni boshidan oxirigacha berilgan tartibda o'qish tavsiya etiladi. Oldin o'rganilgan bob yoki mavzu keyingisini o'qiganda qo'l keladi, ya'ni ketma-ketlikka jiddiy rioya qilindi.

Bob yoki uning ichidagi mavzuni o'qishdan oldin matnning boshlanishida quyuc bo'yoq bilan yaqqollashtirib ko'rsatilgan kichik sarlavhalarni ko'zdan kechirib chiqilsa, ushbu bob yoki mavzuning mazmunini osonroq ilg'ab olish, o'qiganda, ularga albatta e'tiborni jalb etishga odatlanib boriladi. Chunki

¹ O'rta maktabda chet tillar o'qitish metodikasi kursi bo'yicha pedagogika institutlari programmasi. — Toshkent: O'zbekiston Maorif ministrligi, 1978; Ingliz tili o'qitish metodikasi. / Tuzuvchi J. J. Jalolov va b. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2003/2008; Nemis tili o'qitish metodikasi / Tuzuvchilar J.J. Jalolov, L. K. Iliyeva. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2003/2008.

kichik sarlavhalar mazmunni mujassamlashtiruvchi tayanch nuqtalar vazifasini o'taydi.

Yaxlit mavzu yoki bob yakunida talabalar uchun uning mazmunini tushunganlikni mustaqil nazorat qilib borish maqsadida muammoli „O'quv-metodik topshiriqlar“ni bajarish tavsiya qilindi.

Sahifaning quyi hoshiyasidan joy olgan adabiyot shu yerda muhokama etilayotgan masalaga bevosita daxldor ilmiy manbani ko'rsatadi.

Darslik oxirida tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati, bir tomondan, mazkur darslik vujudga kelishida inobatga olinganligidan darak bersa, ikkinchidan, talabalarga qo'shimcha o'qish uchun mo'ljallanganligiga ishoradir. Tavsiya etilgan metodik adabiyot nomi ro'yxatda ham, kitob ichidagi matnda ham u qaysi tilda yozilgan bo'lsa, shu tilda keltirildi.

Darslik matnida chet til o'qitish metodikasi sohasida astoydil xizmat qilgan mutaxassislar va boshqa sohadagi ayrim olimlar ism-sharifi avvalan to'liq yozildi. Soniyani, ismi va otasi ismining bosh harflari va familiyasi to'raligicha berildi. Birinchi bor ismlarni to'liq yozishdan muddao shu sohadagi yetakchi olimlarning nomi atalganda, faqat familiyasinigina aytish bilan cheklanmay, ularning ismi, otasining ismi va familiyasini to'la ishlatishga o'rgatiladi. Masalan: Igor Vladimirovich Raxmanov, Aleksandr Aleksandrovich Miroyubov, Valentina Samoylovna Setlin, Harold Palmer, Robert Lado, Irina Alekseyevna Zimnyaya, Hoshimjon Soynazarov, Reyngold Nikolayevich Kremer, Tojimat Qodirovich Sattorov kabilar.

„Chet til o'qitish metodikasi“ darsligi o'zbek tilida ilk tajriba ekanligi barcha mutaxassislarga ayon. Shu tufayli ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lishi tabiiydir. Kitobning ilmiy saviyasini yanada oshirishga qaratilgan chin maslahat va xolis amaliy-tanqidiy fikrlarni muallif mamnuniyat bilan qabul qiladi.

CHET TIL O'QITISH METODIKASIGA KIRISH

Chet til o'qitish metodikasi dasturining talablari. O'rta umumiy ta'lim maktablarida chet til o'qitish metodikasi fani erishgan yutuqlarni egallash talabalar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: (1) kelajak kasbiy faoliyatlariga puxta nazariy zamin tayyorlaydi; (2) ta'limning zamonaviy metodlari, tashkiliy formalari va vositalari bilan atroflicha tanishtiradi; (3) talabalarning olgan metodik bilimlarini amaliyotda samarali qo'llay olishlari uchun ko'nikma va malakalar hosil qiladi; (4) barcha fanlardan o'zlashtirgan nazariy bilim va amaliy malakalarini maktab ta'lim-tarbiya ishida ijodiy tatbiq etishga ko'maklashadi.

Metodika institut (universitet)da berilgan bilimlar yig'indisi bilan maktab tajribasi orasidagi „ko'prik“ vazifasini o'tovchi fandır. Leksiya va amaliy mashg'ulotlarda chet til o'qitish qonuniyatlari bayon etiladi, metodika faniga ta'limning xususiy nazariyasi sifatida qarash shakllantiriladi.

Talaba *metodika kursini* o'tar ekan, uch toifa mashg'ulotda ishtirok qiladi: Oliy o'quv yurti dasturi asosida *leksiyalar* majmuyini tinglaydi, *amaliy-metodik saboqlar* oladi va *o'quv-tarbiya (pedagogika) amaliyotidan* o'tadi. Birinchi ikkala mashg'ulotlarda ilm bilan mashg'ul bo'lishadi va uchinchi ish turida dars berishadi va darsdan tashqari tadbirlar o'tkazishadi.

Muallim-metodist tavsiyasi bilan va boshchiligida talabalar „Metodik papka“ tutadi. Unda yozgan leksiya daftari, seminar va laboratoriya mashg'ulotlaridan konspekti, pedagogika amaliyotida o'tgan darslarining rejalari, qo'lbola albomlar, ko'rgazmalilik, didaktik tarqatma materiallar jamlanadi. O'quv-metodik adabiyot, matbaa yo'li bilan chop etilgan va qo'lda yasalgan audiovizual (eshitish va ko'rishga mo'ljallangan) vositalar, amaliyot mobaynida yozilgan o'quv va tarbiyaviy rejalalar talabaning ish boshlashi uchun darkor „*Metodik papka*“ (*ingl. Student's Guide Book*)ning tarkibiga kiradi.

Ta'lim dasturi to'g'risida so'z yuritilganda, beixtiyor o'quv yurtining u yoki bu turi ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Mas. chet tillar bo'yicha o'rta umumta'lim maktablari yoki akademik litsey va kasb-hunar kollejlari yoxud chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) dasturlari haqida gap borishi mumkin. Ularning har birini aniq farqlay olish lozim.

O'rtta umumta'lim maktabi, o'rtta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalari dasturi oliy maktab dasturining asosini tashkil etadi. Ularning orasida uzviylikni ta'minlashga alohida e'tibor beriladi.

Tavsiya etilayotgan darslik maktab, listey va kolleжда chet tillar o'qitish metodikasi dasturiga asoslangan va ularning o'quv rejasidagi „chet til“ predmeti uning o'rganish manbayi hisoblanadi. Talabalarning *o'rganish obyekti* „metodika fani“, mazkur *fanning predmeti* esa „chet til“dir.

Maktab, listey va kollej chet til kursi ularda o'qitiladigan boshqa o'quv predmetlaridan mohiyati bilan tubdan farq qiladi. „Chet til“ tushunchasi quyidagicha sharhlanishi mumkin: „*chet til o'rganish*“ metodik termini ushbu tilda gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv ko'nikma va malakalarini egallash ma'nosini ifodalaydi.

Tabiat va jamiyatdagi har qanday obyekt (narsa va hodisa) o'zining ibtidosi va intihosiga ega bo'lganidek, nutq faoliyatining to'rtala turi ham chegaralangan me'yorda, ya'ni dastur mavzulari doirasida va maxsus tanlangan til materiali hajmida o'rganib boriladi.

Nutq faoliyati turlari — gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuvni o'rgatish va til materiali — leksika, grammatika, talafuzni o'rgatish natijasida o'quvchilarga chet tilda o'zaro axborot (informatsiya) almashish malakalari singdiriladi.

Nutq faoliyati turlari. Tirik mavjudot orasida faqat inson fikr yuritish qobiliyatiga ega. Tafakkur so'z, so'z birikmalari va jumalarni nutq faoliyatida qo'llash orqali sodir etiladigan murakkab psixik jarayondir.

Nutq faoliyatini qator fanlar tadqiq etadi. Tilshunoslik *nutq mahsuli* (tekst-matn)ning, psixologiya — *nutq jarayonining*, fiziologiya — *nutq mexanizmlarining* ilmiy tahlili bilan shug'ullanadi. Psixolingvistika — *nutqni idrok etish va hosil qilish* haqidagi nisbatan yangi fan.

Metodikada *nima uchun* (ta'lim maqsadi), *nimani* (ta'lim mazmunini), *qanday qilib* (ta'lim metodlari va prinsiplari asosida) hamda *kimga* (o'quvchiga) o'rgatish haqida ilmiy mulohazalar yuritiladi.

Monolog (yakkanutq) va dialog (juftnutq) shaklidagi nutq — gapirishning kichik turlaridir. Monolog — mavzu yordamida, dialog esa o'quv nutq vaziyati (O'NV) bilan bog'langan holda mashq qilinadi.

Nutq faoliyati ogʻzaki va yozma shaklda roʻyobga chiqadi. Ogʻzaki nutq gapirish va tinglab tushunish, yozma nutq oʻqish va yozuv turlaridan iborat.

Nutq faoliyatida *operatsion* (til materiali ishtiroki) va *motivatsion* (fikir bayoni) jihatlar aniqlangan. Leksika, grammatika va talaffuz birliklarini gapirish va yozuvda qoʻllash, oʻqish va tinglashda idrok etib tushunish nutqning operatsion aspektidir. Motivatsion aspektida *retsipiyent* (gapiruvchi va fikrni yozma bayon etuvchi) va *produtsent* (tinglovchi va oʻqib axborot oluvchi) oʻz fikrini boshqalarga yetkazadi yoki oʻzgalar fikrini tushunib oladi.

Nutq faoliyati turlari va til materiali oʻquv jarayonida yaxlit tarzda oʻrgatiladi. Deyarli har bir darsda (birinchi oʻquv yilining dastlabki mashgʻulotlari bundan mustasno) oʻquvchi tinglab tushunadi, gapiradi, oʻqiydi va yozadi. Bunda oldin oʻzlashtirilgan yoki hozir shu darsda oʻrganilayotgan til birliklari ishtirok etadi. Nutq faoliyati turlarining u yoki bu sinfda yoki taʼlim bosqichida tutgan mavqeyi turlichadir (XVII bobga qarang).

Nutqning uch tarafi — tuzilishi (grammatika), semantika (leksika) va „ifoda“ (talaffuz) *til materiali* tomonlari deb ataladi.

Taʼlim maqsadlari (III bob)dan kelib chiqqan holda nutq faoliyati turlariga moʻljallab til materiali tanlanadi, taqsimlanadi, tasnif qilinadi, taqdim etiladi, yaʼni oʻzlashtirishga tayyorlanadi (bu bosqichlar inglizcha metodikada *selection, distribution (grading), classification, presentation* deyiladi).

Chet til materialini *tanlash, taqsimlash, metodik tasnif va taqdim etish* dastur tuzuvchilar va darslik mualliflari tomonidan roʻyobga chiqariladi. Oʻquv materialini oʻrganish/oʻrgatish chogʻida oʻquvchi va oʻqituvchi ishtirok etadi, hamkorlikda ish koʻradi.

Til leksika, grammatika, talaffuz birliklarini yaxlit birlashtiruvchi ijtimoiy hodisa tarzida nutq faoliyatining „qurilish“ materiali sanaladi. Leksika birligi, grammatika birligi va talaffuz birligi gapirish, tinglab tushunish, oʻqish va yozuvda oʻrgatish/oʻrganish birliklari deb qaraladi. Ularning funksional, semantik va formal jihatlarini oʻzlashtirish uchun maxsus mashqlar bajarishni talab qiladi.

Til birligini tinglash, aytish, oʻqish va yozishda sezgilar (eshitish, nutqharakat, koʻruv va qoʻlharakat) ishtirok etadi. Ushbu birliklardan kelib chiqadigan mazmun (nutq) analiza-

torlar (eshitish, nutqharakat, ko'ruv va qo'lharakat) ishi natijasidir. Til birliklari sezgilar va analizatorlardan tashqari xotira va tafakkur bilan ham munosabatda bo'ladi.

Nutqda qo'llanadigan til birliklarining texnik tomoni va ushbu birliklarni mavhumlashtirish jihatlari metodikada tegishli „til texnikasi“ va „qoida“ terminlari orqali izohlanadi.

„Til texnikasi“ tushunchasi. Til o'qitish metodikasiga bag'ishlangan yozma manbalar va muallimlarning kundalik muloqotlarida „o'qish texnikasi“, „yozish texnikasi“ kabi terminlar tez-tez uchrab turadi. O'qish texnikasi deganda, harf/harf birikmasining tovush bilan munosabati, yozish texnikasida esa harfning yozilish qoidalari tushuniladi. Ushbu terminlar qatori „o'qilish qoidasi“, „yozilish qoidasi“ singari sinonimlar ham ishlatiladi. Bu ikki metodik termin qatoriga „talaffuz texnikasi“ni qo'shish o'rinlidir. Uni, boshqacha qilib, „artikulatsiya qoidasi“ deyish ham mumkin. Shunday qilib, til materialini egallashda aytish (talaffuz)ni, o'qishni va yozishni ham o'zlashtirish bilan mashg'ul bo'linadi va har uchalasini birlashtirib, yagona termin — „til texnikasi“ nomi bilan yuritiladi.

Til materiali (leksika, grammatika, talaffuz)ning nutq faoliyati turlari bo'lmish gapirish va tinglashda (eshitish-talaffuz etish), o'qishda (o'qilish, ya'ni harf-tovush munosabati) va yozuvda (yozilish) qoidalari *til texnikasi* demakdir. Til materiali, bir tomondan, real voqelikda mavjud hodisalar bo'lib, ularni sezgilar yordamida aytish, eshitish, ko'rish va yozish mumkin, ikkinchi tomondan esa, nutq faoliyati turlarida qo'llash va idrok etib tushunish mumkin. Birinchisi — til materialining texnikasini tashkil etadi, ikkinchisi — og'zaki va yozma nutqda fikr bayon qilish yoki o'zga shaxs fikrini idrok etib tushunish omili sifatida namoyon bo'ladi. Xullas, og'zaki dialog va monolog nutq tovushlar (fonemalar)dan tarkib topsa, yozma nutq harflar (grafemalar)ni o'z ichiga oladi. Ulardagi fonema-grafema munosabati o'qilish qoidalari majmuasini vujudga keltiradi.

Chet til qoidasi. Ona tili va ikkinchi til ta'limidagi qoidalar sistemali (uzviy) lingvistik mazmun kasb etadi. Chunki tilni tabiiy muhitda amaliy o'rganish va unga ajratiladigan vaqt (soatlar) miqdori mukammal qoidalar berish imkoniyatini yaratadi. Chet til o'rgatish sharoiti (sun'iy muhit va ajratilgan

kam soatlar) qoidalarni oddiylashtirish va sonini ozaytirish muammosini ko'ndalang qilib qo'yadi.

Til birligi, bir tomondan, sezgilar yordamida idrok etilsa, ikkinchi tomondan, faqat tafakkur hosilasi, mantiqiy jarayon natijasi bo'lib ro'yobga chiqadi.

Nutq faoliyati nazariyasidan ma'lumki, *faoliyat mazmuni harakatlar tashkil etadi* (akademik Aleksey Nikolayevich Leontyev). Subyekt harakati *oriyentir* (yo'llovchi) va ijro qismlaridan iborat. Mas. grammatik harakatlarni egallash nutqning grammatik shakllanishida avtomatlashgan malakaning hosil bo'lishi demakdir (prof. Valentina Samoylovna Setlin ilmiy kashfiyoti).

Harakat, o'z navbatida, operatsiyalardan tuziladi. *Operatsiya* harakatning ro'yobga chiqish vositasidir. Operatsiyalar sistemasi — harakat modeli, uni bajarish algoritmidir.

Til o'rgatish metodikasida algoritm bilan qoidani chalkashtirish yaramaydi. *Algoritm* deganda, oddiy operatsiyalarni muayyan izchillikda bajarish haqidagi aniq ko'rsatmani tushunamiz. Har qanday algoritm — bu qoidadir, lekin har qanday qoida algoritm emas. Qoida nomi bilan odatda nutqiy grammatik ko'nikma hosil qilish jarayonida qo'llaniladigan ko'rsatmalar yoki umumlashmalar majmuasini atash ma'quldir.

Chet til qoidasi nutq faoliyatini egallashni osonlashtiruvchi vositadir, qoida nutq materialini o'zlashtirish nuqtayi nazaridan ikkiga bo'linadi: Qoida — *umumlashma* (material nutqda o'rganilgandan so'ng) va qoida — *ko'rsatma* (material o'rganilishi oldidan beriladi).

Qo'llanilishi jihatidan qoidani uch guruhga ajratish maqsadga muvofiq: 1) *verbal* qoidalar (so'z yordamida ta'riflandi): a) darslikda yozilgan (verbal-grafik qoida) va b) muallim yoki o'quvchilar chiqaradigan qoidalar. Bularni verbal ta'riflanadigan qoidalar deb nomlash mumkin; 2) *vizual* qoidalar (so'z ishtirokisiz, ta'riflamay beriladigan qoidalar): sxema, jadval va simvol (mas. S + P + O) kabilar; 3) qoida — *analogiya* (so'z yoki biron belgi yordamisiz o'quvchilar tomonidan ixtiyorsiz holda yoki o'zlarining til tajribasiga ko'ra, ma'lum lisoniy tushuncha va qonuniyatni bildiruvchi „qoidalar“, mas. ot, sifat, gap, ega, kesim singari terminlarda ifodalangan tushunchalar yoki gapda so'z tartibi, so'z yasalishi hodisalarini bildiruvchi chet til qonuniyatlari va h.k.).

Qoida mazmuniga ko'ra uch darajada bo'ladi: 1) *dastlabki* yoki birlamchi qoida (til hodisasining biron fakti, mas. hozirgi zamon fe'lining 3-shaxs birlik shaklda yasalishi); 2) *ikkilamchi* yoki qiyosiy qoida — (a) bir tomonlama solishtirish, mas. inglizcha hozirgi zamon fe'lining 3-shaxs birligi va boshqa shaxslar shakllarining yasalishi, (b) ikki tomonlama solishtirish; 3) *yakuniy* qoida — sistemalashtirish, (a) biron hodisaning barcha shakllarini umumlashtirish — qisman sistemalashtirish, mas. hozirgi zamon fe'lining barcha shakllarda tuslanishi, (b) ushbu bosqichda hodisalarning barchasini umumlashtirish — dasturiy sistemalashtirish, mas. fe'llar uch zamonda qo'llanadi va (d) chet til o'qitish kursida o'rganilgan til hodisalarining barchasini umumlashtirish — nisbatan to'liq sistemalashtirish.

Uchala darajadagi qoidalar ham faqat maktab til materiali yuzasidan beriladi, ular tilni sistemaga solishdek lingvistik maqsadni ko'zlamaydi.

Chet til hodisalari haqidagi qoidalarning ona tili yoki ikkinchi tildagidan farqlari yana shundaki, ular o'quvchilar o'rganayotgan chet tilda emas, ona tilida beriladi, yod olinmaydi, daftarlarga yozilmaydi, alohida so'ralmaydi.

Mashqlar sistemasi. Chet til o'rganishni mashqlar bajarishdan iborat jarayondir deyilsa, mubolag'a yoki xato bo'lmaydi. Bu — mashqning dinamika (harakat) tarafi. Uning statika (holat) jihati — darslikda o'quv materiali tarzida tashkil etilganligidadir.

Statikadagi mashq deganda, chet til darsligida muayyan raqam yoki harf bilan belgilangan yoki maxsus ajratib ko'rsatilgan, ikki qismdan iborat, dars tarkibini tashkil etadigan o'quv-metodik kategoriya tushuniladi. Mashqning qismlari metodik adabiyotlarda „mashq talabi (sarlavhasi)“ va „mashq materiali“ deb yuritiladi. Mashq materiali darslikda yozilgan (harf, so'z, jumla, grafik matn) yoki o'quvchi nutqining mahsuli (tovush, so'z, jumla, og'zaki matn) bo'lishi mumkin.

Dinamikadagi mashq — chet tilda o'quvchi bajaradigan, harf yozish yoki tovushni talaffuz etishdan tortib, to matnni idrok etib tushunish yoki o'z fikrini bimalol bayon etishgacha bo'lgan o'quv amalidir.

Mashqlarning statikadagi ko'rinishi darslik muallifining ijod mahsulidir, dinamikada esa nutq ko'nikma va malakalari hosil qilish yo'lidagi amaliy xatti-harakatlar va urinishlardir.

„Mashq“ tushunchasining qisqacha ta’rif-tavsifidan so’ng „mashqlar sistemasi“ terminini ko’rib chiqamiz. Mazkur mavzu chet til metodistlari orasida to’xtovsiz munozaralarga sabab bo’lib keladi. Prof. Igor Vladimirovich Raxmanov barcha mashqlarni *til* va *nutq* mashqlari nomlari bilan ajratib yuritgan. Ayrim metodistlar asarlarida ikkala termin orasida „nutqqacha bo’lgan mashqlar“ nomini ham qo’llashadi. Prof. Vulf Abramovich Buxbinder *informatsion, operatsion* va *motivatsion* mashqlar haqida tadqiqot olib borgan. Sodda qilib, ularni bilim, ko’nikma va malaka berish mashqlari, deyish joizdir. I. V. Raxmanov tasnifi shveysariyalik tilshunos olim Ferdinand de Sossyur til va nutq dixotomiyasi ta’limoti ta’siri natijasi, deb qaralmog’i ma’qul. V. A. Buxbinder mashqlar nazariyasi psixolingvistika ma’lumotlariga asoslangan bo’lib, maktabda chet til o’qitish voqeligini aniqroq aks ettiradi.

O’zbekiston chet til metodistlarining 1970—80-yillarda bajargan ilmiy tadqiqotlarida (J. Jalolov, T. Sattorov, A. Soy-nazarov va b.) chet til mashqlar sistemasini o’zbekcha terminlar bilan *shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi* va *takomillashtiruvchi* mashqlar turlariga bo’linishi aniqlangan. Shakllantiruvchi mashq til materialini o’zlashtirishda, rivojlantiruvchi mashq nutqda til materialining qo’llanilishida va takomillashtiruvchi mashq chet tilda fikr bayon etish va o’zga shaxs fikrini idrok etib tushunish maqsadida bajariladi, ya’ni bilim olish, ko’nikmani egallash va malakani o’stirishga mo’ljallangan mashqlar, deb qaraladi. Nutqni egallash xususiyatiga ko’ra, aniqrog’i, sezgi va analizatorlarning ishtirokiga qarab, retseptiv va reproduktiv nutq mashqlari bajariladi.

Mashqlar sistemasi kichik sistemalar in’ikosidir. Ular nutq faoliyati turlari (gapirish, tinglab tushunish, o’qish va yozuv) mashqlari hamda til materiallari (leksika, grammatika, talaffuz) mashqlari nomlari bilan ataladi. Nutq jarayonida til materialini egallashda sezgilar ishini aks ettiruvchi retseptiv leksik, retseptiv grammatik va reproduktiv leksik hamda reproduktiv grammatik mashqlar ham bo’ladi.

Chet tilda og’zaki va yozma mashqlar bajariladi. Og’zaki mashq dialog va monolog mashqlariga hamda og’zaki bajariladigan leksik, grammatik va talaffuz mashqlariga bo’linadi. Yozma mashqlar fikrni yozuvda ifoda etish (yozma nutq)ni va yozish (yozuv texnikasi)ni o’rgatishga bag’ishlanadi.

O'qish mashqlari grafik matnni o'qib axborot olish va o'qish texnikasini o'zlashtirishga mo'ljallanadi.

Bayon etilganlarga yana shuni ilova qilish mumkinki, mashq va matn, mashq va she'r, mashq va harf/tovush, mashq va rasm kabi so'z birikmalari g'ayrimetodik tushunchalar sirasiga kiradi, chunki iboralardagi ikkinchi so'zlar mashqning materiali, ya'ni mashqning obyekt yoki mahsulidir. Ona tili va ikkinchi tilda bunday ta'birlar erkin qo'llanaverishi mumkin. Bunga sabab, ularni o'qitishda qoidalar muntazam tarzda singdiriladi, grammatik tahlil qilinadi, she'rlar ifodali o'qiladi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Metodika kursini o'tganda nimalarga erishishingizni tasavvur eting va qisqacha tushuntirib berishga urinib ko'ring.

2. Nutq faoliyati turlari, til materiali, til texnikasi, chet til qoidasi terminlari ifodalaydigan tushunchalarni tahlil qiling.

3. Maktab o'quvchisi chet til o'rganishi natijasida nutqiy faoliyat yuritishi yoki til haqida bilimlar olishi muammosini aniqlang.

4. Chet til o'rganish jarayonida mashqlar sistemasining ahamiyatini aniqlang va tushuntirishga harakat qiling.

Birinchi qism

CHET TIL O'QITISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

I BOB. METODIKA — CHET TIL O'QITISH NAZARIYASI

Chet til o'qitish metodikasining predmeti. Chet til muallimligini kasb-u kor sifatida tanlaganlar zimmasiga ushbu tilni o'qitish nazariyasidan mukammal xabardor bo'lishdek vazifa yuklanadi. O'qitish ilmini metodika fani yoritadi, „*methodiké*“ so'zi yunoncha bo'lib, „biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari majmuyi“ ma'nosini bildiradi.

Pedagogik muloqotda tez-tez uchrab turadigan „*metodika*“ terminining uchta ma'nosi bor. *Birinchisi*, o'quv predmetini bildiradi (mas. „ertaga birinchi dars — metodika“), *ikkinchisi*, ta'limning metodik usullari yig'indisini (mas. „o'qituvchimizning metodikasi menga yoqadi“) va *uchinchisi*, ta'lim nazariyasi va maxsus fan (mas. „bu qo'llanmada metodika yaxshi yoritilibdi“)ni ifodalaydi. Bu bobda „metodika“ so'zining uchinchi terminologik ma'nosi haqida fikr yuritiladi.

Chet til o'qitish metodikasi, prof. Mixail Vasilyevich Lyaxovitskiy ta'riflashicha, ta'limning maqsadlari, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet til yordamida ta'lim-tarbiya berish usullarini tadqiq etuvchi fandır.

Metodika fani, asosan, quyidagi uch yirik mavzuni o'rgatadi: chet til o'rgatishning nazariy muammolari, nutq faoliyati turlarini o'rgatish va chet til o'rgatishning tashkiliy masalalari.

Boshqacha qilib aytganda, metodika chet til o'rgatish ilmi bo'lib, „chet til“ni o'quv predmeti sifatida belgilaydi, muallim va o'quvchi faoliyatini o'rganadi va boshqa fanlar yutuqlarini o'zlashtirish va o'z qonuniyatlarini ishlab chiqish yo'llarini tadqiq etadi.

Sobiq Ittifoq chet til o'qitish metodikasi faniga atoqli tilshunos olim, akademik Lev Vladimirovich Shcherba asos solgan. Metodika ilmini rivojlantirish va uni yuksak pog'onalarga ko'tarishda L. V. Shcherbaning shogirdlari va izdoshlari

(I. V. Raxmanov, V. S. Setlin, A. A. Miroyubov, o'zbek olimlari va boshqalar)ning hissasi ulkandir.

Zamonaviy metodik qo'llanmalarda ushbu fanning o'rganish predmeti qilib chet til vositasida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish belgilanadi. Chet tillarni turli o'quv yurtlarida yoki muayyan tilni (mas. maktabda ingliz tilini) o'rgatish metodika nazariyasida farqlab qo'yilgan.

Metodikadagi asosiy tushunchalar. Har bir fanda o'z tushunchalar yig'indisi mavjud. Chet til o'qitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ta'lim sistemasi, ta'lim metodi, ta'lim prinsipi, ta'lim vositasi, metodik usul.

Pedagogika voqeligi hodisalarini sistemali-strukturali yo'nalishda o'rganish munosabati bilan „ta'lim sistemasi“ termini keng tarqaldi. Ushbu metodik kategoriyaning ma'nosiga muvofiq ta'lim jarayoni *sistema* deb qaralmoqda. Muayyan zamon va makon doirasida amalga oshiriladigan chet til o'quv jarayoni ochiq (aniq chegara qo'yilmagan) sistema hisoblanadi va nashr etilgan chet til „o'quv-metodik kompleksi“da o'z ifodasini topadi. Ta'lim sistemasi ko'zlanadigan maqsad, shakllanadigan mazmun va qo'llanadigan metod singari kategoriyalardan iborat (ularning har biri alohida boblarda yoritiladi).

Chet til *o'qitish metodi* deyilganda, chet til o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuyi tushuniladi.

Metod termini „ta'lim usullari yig'indisi“ va „ta'limning yo'nalishi“ ma'nolarida qo'llanadi. Birinchisi ta'lim nazariyasida ishlatilsa (mas. og'zaki nutq o'rgatish metodlari, talaffuz o'rgatish metodlari), ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratamiz. Mas. chet til o'qitishning tarjima metodi, to'g'ri metod, ongli-qiyosiy metod, an'anaviy metod, intensiv metod, audiovizual metod va h.k.

Prof. Yefim Izrailevich Passov fikricha, metod o'quv jarayonida qo'yilgan maqsad sari yo'naltirilgan va nutq faoliyati turlari bilan bog'liq prinsiplar sistemasidir. Demak, prinsiplar metodni shakllantiradi. Bu yerda keng ma'nodagi metodik yo'nalish haqida so'z boryapti.

O'quvchilarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda asos bo'ladigan metodik qonun-qoida prinsip termini bilan yuritiladi.

Prinsip tushunchasi bevosita o'quv jarayonini aks ettirgan

metodik hodisani ifodalaydi, metod esa prinsiplar yig'indisining mavhumlashtirilgan umumlashmasidir. Mas. og'zaki nutqning ilgarilashi prinsipi, til tajribasini hisobga olish prinsipi kabilar. Prinsiplar uch guruhni tashkil etadi: psixologik, didaktik va sof metodik prinsiplar (V bobga qarang).

Ta'lim vositasi termini metodikada ikki ma'noni ifodalaydi. Birinchi ma'nosi „ta'limning moddiy vositasi“ (darslik, o'qituvchi kitobi, texnika vositalari kabilar)ni bildiradi. Ikkinchi ma'nosi esa nutq faoliyati turiga taalluqlidir (mas. yozuv chet til o'rgatish vositasidir).

Metodik usul yanada kichik tushuncha bo'lib, „yangi so'zning ma'nosini ochish usullari“, „til materialini o'rgatish usullari“ singari birikmalarda uchraydi. (Ta'riflangan metodik terminlardan „metod va prinsip“ va „vosita“ V va VI boblarda kengroq yoritiladi.)

Umumiy va xususiy metodika. Fanlarda umumiy va xususiy chegaralanish kuzatiladi, mas. umumiy tilshunoslik va xususiy tilshunoslik, umumiy psixologiya va xususiy psixologiya. Chet til o'quv predmetini o'rgatish nazariy masalalari muhokama etilganda, umumiy metodika tushuniladi. Til materialini tanlash, taqsimlash, tasnif va bayon etish muammolari *umumiy metodikaning* vazifasiga kiradi.

U yoki bu chet tilni aniq pedagogik sharoitda o'qitishga doir ilmiy ma'lumotlar *xususiy metodikadan* izlanadi. Mas. o'zbek maktablarida xitoy tili o'qitish metodikasi yoki rus maktablarida arab tili o'qitish metodikasi.

Umumiy va xususiy metodikaning tarixi, nazariyasi va amaliy muammolariga tegishli fikr-mulohazalar metodika nazariyasi kursini tashkil etadi.

Xalqaro miqyosda yaqingacha tadqiq etilmagan „*Chet til o'qitishning qiyosiy metodikasi*“ o'zbek olimlari tomonidan ishlab chiqildi (q. Ingliz tili o'qitish qiyosiy metodikasi/Tuzuvchi J.J. Jalolov. — Toshkent: O'R OO'MTV, 2008). Unda turli o'quv yurtlarida chet til o'qitish muammolari ko'tariladi (XX bobga qarang).

Ushbu kitobda pedagogika fanlari tarkibidan o'rin olgan chet til o'qitishning umumiy metodikasi masalalari bayon etildi.

Metodika fanining ilmiy tadqiqot metodlari. Moddiy dunyo sir-asrorini bilish va ijtimoiy qonuniyatlarni ochish yo'lida turli fanlar yaratilgan. Hozirgi paytda fanshunoslar ikki ming atrofida fan mavjudligini e'tirof etishadi. Ilmiy tadqiqot metod-

lari bo'lmagan bironta fan yo'q. Ularning har qaysisi, jumladan, pedagogika va, o'z navbatida, chet til o'qitish metodikasi ham, fan sifatida o'zining ilmiy tadqiqot metodlari bilan ish ko'radi. O'qituvchining ijodiy ishlashida nafaqat fan yutuqlari va ilg'or ish tajribalaridan samarali foydalanish, shuningdek, o'quv jarayonida mustaqil ilmiy izlanishi ham zaruriy shartlardan biridir. Mustaqil tadqiqot amaldagi ilmiy-tekshirish metodlari yordamida o'tkazilishi mumkin.

Ilmiy tadqiqot metodlari ikkiga bo'linadi — nazariy metodlar va tajribaga asoslanadigan metodlar. Tadqiqotning *nazariy* metodlariga analiz/sintez, ilmiy faraz (gipoteza)lar qurish, modellashtirish tegishlidir. *Amaliy* (tajriba) metodlar orasida tajriba-sinov (eksperiment), tajriba o'tkazish, maqsadli kuza-tish kabilar ma'lum va ma'quldir. Bular umumiy yoki asosiy metodlar hisoblanadi. Ilmiy tekshirish metodlaridan yordam-chilari yoki xususiylari quyidagilardir: anketa (so'rov)lar o'tkazish, test bajarish, xronometraj qilish, suhbat kabilar.

Ushbu metodlarning alohida-alohida yoki birgalikda qo'llanishi tadqiqot turiga bog'liq. Hozirgi zamon fanshunoligida ilmiy tadqiqotlar uch turga bo'linadi: 1. Fundamental ilmiy tekshirishda fanning sof nazariyasi hal etiladi. 2. Amaliy tadqiqotda nazariyaning aniq elementlari ishlab chiqiladi. 3. Ishlab chiqarish uchun zaruriy materiallar tuzish/tayyorlashga doir tadqiqotda darslik, qo'llanma, audiovizual vositalar yaratish bilan shug'ullaniladi.

Fanshunolikda ta'kidlanishicha, tadqiqotning obykti va predmeti bo'ladi. Mas. o'rta maktabning biron-bir sinfida ispan tilini o'qitish — tekshirish obykti bo'lib, agar ushbu sinf o'quvchilariga o'qilish qoidasini yoki yangi so'zni o'rgatish tadqiq etilsa, u holda biz tekshirishning predmetiga duch kelamiz. Ko'rinib turibdiki, tadqiqot predmeti tadqiqot obykti-niing bir qismi yoki sohasidir.

Asosiy (nazariy) metodlardan analiz-sintez metodiga adabiy manbalar (mas. chet til o'qitishni retrospektiv (tarixan) o'rganish)ni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Tahlil metodi oldiga doimo tanqidiy yondashish, o'tgan davrdagi ijobiy va salbiy tomonlarni aniqlash maqsad qilib qo'yiladi. Erishilgan ijobiy natija hozirgi kundagi o'qitish tajribasiga tatbiq etiladi.

Tadqiqot jarayonida zamonaviy kibernetika metodlaridan, chunonchi, programmalashtirish, kompyuterlashtirishga katta

o'rin berilmoqda. Kibernetik analiz tilni o'rgatish jarayonini boshqarish hamda tilni egallash darajasining xolisona ko'rsatkichlarini topishga yordam beradi.

Chet til o'qitishdagi ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va yoyishdan ko'zlanadigan maqsad ham ijobiy natijalarni qo'lga kiritishga qaratiladi. Ilg'or ish tajribasi umumiy tarzda (chet til o'qitish tajribasi) yoki ayrim kichik soha (mas. dars boshlanishida til muhitini yaratish, murakkab grammatik hodisani amaliy o'rgatish kabi)larni analiz-sintez metodi yordamida tadqiq qilishdan iborat.

Asosiy (umumiy) tadqiqot metodlaridan ilmiy kuzatish pedagogik jarayonda ommaviy tus olgan bo'lib, metodik tadqiqotda xulosalar chiqarish, foydali axborot to'plash, kuza-tilgan hodisalarga oid yig'ilgan faktlarni tasniflash imkonini tug'diradi. Kuzatish har doim ma'lum maqsadga bo'ysundirilishi zarur. Oddiy kuzatish oqibatlarini nazorat ishlar, protokol material, test natijasi bilan to'ldirilishi mumkin. Chet til o'rgatishni tadqiq etishda ta'limiy tajriba o'tkazish va tajriba-sinov metodlari ko'pchilikning e'tiborini o'ziga tortgan.

Tajriba o'tkazish ommaviy ta'lim jarayonini tekshirish metodidir. Boshqa metodlardan tajriba o'tkazishning farqi shundan iboratki, juda ko'p maktablarda uzoq muddat davomida o'tkaziladigan tajriba o'zining o'ta ishonarli ma'lumotlari tufayli o'quv jarayonining modeli yanglig' namoyon bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotning umumiy (asosiy) metodlari ichida salmoqli o'rin tutadigan turi tajriba-sinovdir. Tadqiqot metodikasi sohasida barakali ilmiy natijalarga erishgan prof. M.V. Lyaxovitskiy tajriba-sinov haqida shunday fikr yuritgan: tekshirilayotgan metodik hodisa turli ko'rinishlarda ilmiy asoslanib, tajribaga qo'yilganda, tajriba-sinov sodir bo'ladi. Mas. leksik birliklar sinov guruhlarida tarjimasiz, nazorat sinflarda tarjima qilib o'rgatiladi. Ko'rinib turibdiki, leksik material bitta, o'rgatish metodikasi ikkita. Tajriba-sinov natijasi tarjimaning yaroqli yoki yaroqsizligini isbotlab beradi.

An'anaviy metodik kategoriyalarni tajriba-sinovdan o'tkazishda albatta yangicha yondashiladi, ya'ni boshqacha ko'rinishlarda tekshiruv o'tkaziladi.

Tajriba-sinov to'rt bosqichli metoddir. *Birinchi* bosqichda tajriba-sinov tashkil etiladi, shu maqsadda ilmiy faraz (gipoteza) olg'a suriladi. *Ikkinchi* bosqichda — rejalashtirilgan tartibda tajriba-sinov amalga oshiriladi. *Uchinchi* bosqichda — tadqiqot

natijasining miqdori va sifati aniqlanadi. *Toʻrtinchi* bosqichda — olingan maʼlumotlar isbotlab beriladi, ilmiy tahlil qilinadi. Ilmiy faraz (taxmin) qilingan metodik muammo, bir tomondan, yangilik hisoblanishi, boshqa tomondan, munozarali boʻlishi, binobarin, tajribadan oʻtishga muhtoj ekanligi tajriba-sinov metodining oʻziga xos xususiyatidir. Tajriba-sinov ilmiy farazning amalda sinab koʻrish vositasidir.

Tajriba-sinovning nazariyasini eksperimentator (tajriba olib boruvchi) yaratadi, ijrochi rovida muallim, tekshiriluvchilarni oʻquvchilar tashkil etadi, tajriba-sinov materiali sanalmish metodika hodisasi — obyekt va predmet deb ataladi.

Tajriba-sinov oʻzining belgilari eʼtibori bilan uch toifaga boʻlinadi: tadqiqotda tutgan oʻrniga koʻra yordamchi va asosiy tajriba-sinov, tajriba-sinovning oʻtishi nuqtayi nazaridan tabiiy va laboratoriya tajriba-sinovi va tajriba-sinov tashkil etilishiga qarab, bir martalik va takroriy tajriba-sinov.

Oʻzbek maktablarida chet til oʻqitish metodikasini yaratishga atalgan qator tadqiqotlarda tajriba-sinov qilish namunasini eslab oʻtish oʻrinlidir. Iqtidorli metodist-olim Hoshimjon Soynazarov¹ ilmiy ishlarida ingliz tili leksik birliklarini retseptiv planda (idrok etib tushinishda) til tajribasining koʻchish meʼyori eksperimental va nazariy asoslab berilgan. Yetuk metodist prof. Tojimat Qodirovich Sattorov² chet til grammatikasini faol oʻzlashtirish eksperimental metodikasini ishlab chiqqan.

Nemis tili sintaksisini oʻzbek auditoriyasida oʻrgatish boʻyicha ham ibratli tajriba-sinov oʻtkazilgan.³ Bir nechta ilmiy ishlarda chet tilni oʻrgatish sohasidagi bajarilgan tajriba-sinovlar ibratomuz namunalar darajasiga koʻtarilgan. Tajriba-sinov mavzusida metodistlardan Eduard Abramovich Shtulman⁴ chuqur ilmiy tadqiqot olib borgan.

¹ *X. Сайназаров*. Обучение лексике английского языка в старших классах узбекской школы: Канд. дисс. — Л., 1982.

² *Т. К. Саттаров*. Методическое содержание обучения активной грамматике английского языка в узбекской средней школе: Канд. дисс. — М., 1982.

³ *Р. Н. Кремер*. Обучение речевому синтаксическому навыку немецкого языка студентов национальных групп (на материале I курса языкового вуза): Канд. дисс. — Л., 1987.

⁴ *Э. А. Штудльман*. Методический эксперимент в системе методов исследования. — Воронеж: ВГУ, 1976.

Xullas, tajriba-sinov munozarali ta'limiy muammolarni yechish metodidir. Tajriba-sinov natijasida ta'lim metodlari va mazmuni takomillashtiriladi.

Ilmiy tadqiqotda yetakchi metodlardan yana biri kuzatish termini bilan ma'lum. Ayrim metodistlar kuzatish va tajriba to'plashni chalkashtirishadi. Tadqiqotning boshlanish davrida kuzatish mustaqil metod sifatida qo'llanadi, keyingi bosqichlarda yordamchi metod vazifasini o'taydi. Ilg'or ish tajribasini o'rganish, uni umumlashtirish va amaliyotga tatbiq etish ta'lim jarayonini takomillashtirish usulidir. Unga analiz qo'shilsa, metodga aylanadi. Kuzatish metod sifatida maqsadli, biror vazifani bajarishga qaratiladi. Shuningdek, kuzatish obyektlari oldindan aniqlangan bo'lishi kerak. Kuzatish odatda analiz sintez bilan o'zaro uzviy munosabatda bo'ladi. Kuzatish maqsadlari, obyektlari va joylari oldindan belgilanishi, dasturi tuzilishi va kuzatishda qo'shimcha metodlarning qo'llanishi hal etilgandagina undan kutilgan natijaga erishiladi.

Ilmiy tadqiqot ishlarida *xususiy* (yordamchi) metodlarning ham ahamiyati kattadir. Savolnoma o'tkazish boshqa metodlarga qo'shimcha qilib qo'llanilishi sababli, u yordamchi metod deyiladi. Savolnoma chet til o'qitish metodikasiga sotsiologiyadan o'tgan. Tadqiqotchi kerakli savollarni yozma ravishda savolnomaga kiritib, olingan javoblarni umumlashtirish yo'li bilan oldiga qo'yilgan vazifani bajaradi. Savolnoma o'tkazishning muhim shartlaridan biri savollarga javob qaytaruvchilarning ko'p sonli bo'lishidir.

Keyingi yillarda chet til o'qitishda testlar o'tkazish omma-viy tus oldi. Qisqa davr mobaynida o'quvchilar nutq ko'nikma va malakalarini nazorat qilishda test qulay bo'lganligidan uning tez va keng tarqalish sababini payqab olish mumkin. Testlar eksperiment oldidan va undan keyin o'tkazilishi amaliyotda sinab ko'rilgan. Tajriba-sinovdagi ilmiy farazning tasdiqlanish-tasdiqlanmasligida testning ahamiyati behad kattadir. Test texnika vositalari bilan yoki bosma materialni oddiy qo'llash bilan o'tkaziladi.

Navbatdagi tahlil talab yordamchi tadqiqot metodlaridan yana biri — xronometrajdir. Til o'rganishga yoki ayrim nutq birliklarini o'zlashtirishga sarflanadigan vaqt o'lchami xronometraj sanaladi. Xronometraj tadqiqot dasturiga binoan turli usul bilan o'tkaziladi. Mas. magnitofon tasmasiga yozish, tinglash va kuzatish chet til o'rganishda qo'llanadigan tadbirlardir.

Tadqiqot metodlaridan suhbat eng qadimiy va ko'pchilik fanlarda tarqalgan yordamchi metoddir. Suhbat o'quvchilar va muallimlar bilan o'tkaziladi. Suhbat chog'ida tadqiqotchi o'z maqsadlariga savol-javob yo'li bilan erishishga urinadi.

Chet til metodikasining fan sifatida shakllanishi va tobora yuksalishida boshqa fanlar metodlaridan ham samarali foydalanib, uning joriy tadqiqot metodlarini zamonaviylashtirilib borishning ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Metodika fanining asosiy ilmiy tushunchalari nomlarini ayting va ular yordamida metodikaning predmetini aniqlang.

2. Umumiy va xususiy metodikaning bir-biridan farqini tushuntirib bering.

3. Tadqiqot metodlari nomlarini atang, ularning turlarini va bir-biridan farqini anglab oling.

4. Tajriba-sinov metodi mohiyatini mufassal bayon eting.

II BOB. CHET TIL O'QITISH METODIKASINING RUHSHUNOSLIK, TA'LIMSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIK ASOSLARI

Metodikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Tabiat va jamiyat hodisalari o'zaro bog'langan va uzluksiz aloqada rivojlanadi. Fanlar obyektiv voqelik (tabiat va jamiyat)ning in'ikosi ekanligi uchun ularning hech biri boshqalaridan ajralgan holda mavjud emas. Hodisa va predmet ayni zamonda bir talay fanlarning tadqiqot manbayi bo'la oladi, mas. „til“ ijtimoiy hodisasini o'z nuqtayi nazaridan tilshunoslik (lingvistika), ruhshunoslik (psixologiya), ta'limshunoslik (didaktika) o'rganadi.

Ijtimoiy hodisa bo'lmish tilni o'qitish metodikasi boshqa yaqin fanlarning ijobiy tajribalaridan bahramand bo'ladi, ularning yutuqlarini o'ziga singdirib oladi. Chet til metodikasi erishgan zamonaviy natijalardan pedagogika fanlarining boshqa sohalarini ham foydalanishi so'zsiz, albatta.

Metodika ilmining qator fanlar bilan aloqadorligini atroflicha tadqiq etish uchun uning shu kunda qanday nazariy maqomga egaligi g'oyasini ochish talab qilinadi. Birinchi bobdan ma'lumki, „metodika“ terminini eshitgan yoki o'qigan kishi uni uchta tushuncha bilan fikran bog'laydi. Psixologiya tilida buni assotsiatsiya (lot. *associatio* — bog'lash, birlashtirish) deb odatlanilgan.

Muhokama qilinayotgan „chet til metodikasi“ termini kishi idrokida quyidagicha *assotsiatsiya* (bog‘lanish) uyg‘otadi: avvalan, tilni o‘rgatishga qaratilgan metod va metodik usullar yig‘indisi (mas. talaffuz o‘rgatish metodikasi) tushuniladi yoki o‘qitish metodlari haqidagi ilmiy bilimlar (ongli-qiyosiy metod, intensiv metod) va, nihoyat, mustaqil pedagogik fan (o‘zining tushunchalar majmuasi, ilmiy prinsiplari mavjud soha) ko‘z oldiga keladi.

Nisbatan mustaqil pedagogik fan hisoblanmish „Metodika“ bir qancha fanlar bilan turlicha bog‘langan. Ayrim fanlarga nisbatan metodika kichik sistema holatida (mas, didaktikaga taqqoslasak) yoki boshqa fanlar bilan munosabatiga ko‘ra qar-doshlik (yaqinlik) huquqida ish ko‘radi. Ikkinchi toifaga ona tili o‘qitish metodikasi, ikkinchi til o‘rgatish metodikasi kabilarni kiritish mumkin.

Metodikaning turli fanlar bilan aloqasini tekshirishdan oldin, bu fanlarning metodika kursidan ilgari talabalar o‘rganib chiqqanliklarini eslatib o‘tish foydadan xoli emas. Ular quyidagilar: didaktika (pedagogikaning ta‘lim nazariyasi bo‘li-mi), psixologiya va tilshunoslik metodikadan avval o‘rganilgan (tilshunoslikning ayrim nazariy sohalari bundan mustasno, mas. „Nazariy fonetika“, „Matn lingvistikasi“ kabilar). Meto-dikaning so‘nggi yillarda shakllanayotgan psixolingvistika fani bilan ham yaqindan aloqasi bor.

Til va tafakkur birligi, til va madaniyat, voqelikni bilish shakllari haqida metodika yaqin fanlar ma‘lumotlaridan oziqlanadi.

Shaxs kamolotiga ta‘lim-tarbiya jarayonida erishiladi. Ta‘limning asosiy funksional vazifasi obyektiv voqelikni bilish manbayi deb tan olingan amaliyotdir. Chet tilda amaliyot — gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuv, ularning mah-suli — o‘quvchilar uchun yangi ma‘lumot olish va undan o‘z hayotida foydalanishdan iborat.

O‘quvchi eshitish sezgisi yordamida til birligini idrok etadi, so‘ngra uni nutqharakat sezgisi yordamida og‘zaki ba-yon qiladi. Navbatdagi darslardan birida og‘zaki o‘zlashtirilgan til materiali yozib beriladi, ya‘ni qo‘lharakat hamda ko‘ruv sezgilari, shuningdek, analizatorlari, faoliyati chog‘ida yozish va o‘qish bosqichidan o‘tadi. Til birliklarini tinglab tushunish, gapirish, yozuv, o‘qish, ta‘limning ikkinchi yilida esa oldin o‘qish, keyin yozuvda o‘rgatilishi bilish nazariyasi qonu-

niyatlarini talabiga to'lig'icha rioya qilish namunasidir. Til birligi (tovush tomonini idrok etish va uni og'zaki aytish — bilish jarayonining jonli mushohada bosqichi. Grafik (o'qishdagi) va motor (harakat) idroki ham shu bosqichga kiradi. O'quvchilar birlik tovush va grafik shaklini va ular asosida semantika (ma'no)sini, ayni paytda, uning funksiyasi (tushuncha tarafigi)ni o'zlashtirganlaridan so'ng, ikkinchi bosqich — mavhum tafakkurga o'tiladi. Inglizcha *a pen* so'zini tushuntirish (taqdim etish) misolida aytib o'tilgan fikrlarni amaliy namoyish etish mumkin. Darslikda bu leksik birlik avval og'zaki, so'ngra yozma berilgan. Yozma shakli o'tilganida o'quvchilarga grammatik abstraksiya, metodika ta'biri bilan qoida-umumlashma berishga to'g'ri keladi: „Ingliz tilida ot oldida artikl qo'llanadi“. Qisqa ta'rif-qoida bilish nazariyasidagi mavhum tafakkur bosqichiga mos keladi. Endi o'quvchilar artiklni yangi so'zlar bilan mustaqil qo'llash ko'nikmasini egallaydilar, ya'ni mavhum tafakkurdan amaliyotga o'tish bosqichi kuzatiladi.

Nutq faoliyati turlarini egallashda ham bilish nazariyasi tatbiq etiladi. Metodikadan ma'lumki, yuqori sinf o'quvchilarida o'qib axborot olish malakasini hosil qilish maqsad qilib qo'yiladi. Olingan ma'lumot o'quvchilarga umumiy ta'lim va tarbiya berish hamda ularni atroflicha rivojlantirishga mo'ljallanadi. O'qish jarayonining o'zi, gnoseologiya tilida aytganda, jonli mushohadadir (ko'ruv sezgisi ishtirok etadi). Axborot olish, ya'ni o'qiganini tushunib yetish, mazmunini fahmlash mavhum tafakkur mahsulidir. Matndan o'zlashtirilgan axborot o'quvchilarning kelajagiga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi omil hisoblanadi, bu esa — amaliyotda foydalanish, deb tushuniladi.

Haqiqatni, obyektiv reallikni bilishning dialektik yo'li chet tilning operatsion (til) va motivatsion (nutq) tomonlarini egallash jarayoniga bevosita tatbiq etilishi misollar vositasida isbot qilindi.

Metodikaning ilmiy soha sifatida rivojlanishida ruhshunoslik, ta'limshunoslik va tilshunoslik fanlarining ulkan ahamiyatga molikligini yana bir bor uqitirishni lozim topdik.

Chet til o'qitishning ruhshunoslik asoslari. Chet til o'qitish metodikasi psixologiya (ruhshunoslik) bilan ikki taraflama — nutq psixologiyasi va pedagogik psixologiya bilan aloqa bog'laydi. Inson nutqi nutq fiziologiyasi (lingvofiziologiya)da va nutqning sodir bo'lishi hamda uni idrok etish psixoling-

vistikada ilmiy tadqiq qilinadi. Barcha tillarda nutq til materiali va nutq mexanizmlari vositasida yuzaga keladi.

Nutq inson bosh miyasi faoliyati boshqaradigan murakab ruhiy jarayondir. Miyaning analiz-sintez qila olishi zaminida birinchi va ikkinchi signal sistemalari faoliyat ko'rsatadi. Birinchi signal sistemasi eshituv, ko'ruv, hid va ta'm bilish va boshqa sezgilar yordamida tashqi dunyoni his etib, bilishga imkon beradi. Ikkinchi signal sistemasi esa til belgilari orqali voqelikni umumlashtirish asosida ish ko'radi. Birinchi signal sistemasi hayvonot dunyosiga ham taalluqli. Ikkinchi signal sistemasi esa birinchi signallar¹ signali bo'lib, so'z bilan ifodalanadi.¹ Inson, hayvondan farqli o'laroq, nutqni idrok etganida, uning mazmuniga e'tibor beradi.

Nutqning tovush va harfiy jihatlari uning tashqi (moddiy) tomoni deyiladi. Ichki tomoni esa nutqharakat, eshitish, ko'ruv va qo'lharakat timsollarida ifodalanadi. Har ikkalasi nutqiy dinamik stereotipni tashkil etadi. Stereotiplarning ishlashi til vositalari sifatida nutq mexanizmini hosil qiladi. Ona tilida belgilar stereotiplari va nutq mexanizmlari tafakkur va nutqning shakllanish chog'ida beixtiyor hosil bo'ladi va ong ishtirokisiz (aniqrog'i, deyarli ong ishtirok etmagan holda) faoliyat ko'rsatadi.

Chet tilni egallashda oldin o'rganilgan tillar asosida o'xshash elementlar (tovush, so'z, gap tuzilishi) mavjud nerv bog'lanishlari, yot elementlar esa — yangi bog'lanishlar paydo etilishi tufayli ikkilamchi belgilar sistemasi yordamida yaratiladi.

Chet til o'qitishning dastlabki bosqichida avvalambor tovush, so'z va gaplarning eshitish va nutqharakat timsollari vujudga keltiriladi, soniyan ko'ruv va qo'lharakat timsollari hosil qilinadi. Bu asnoda til birliklarining og'zaki va yozma shakllari salbiy ta'sirning oldini olish uchun zamon va makonda ajratib o'zlashtirish va keyinroq ularni biriktirishga erishiladi.

Sezgi va idrok obyektiv voqelikning in'ikosi shaklida analizatorlar orqali faoliyat ko'rsatadi. (Analizatorlar va sezgilar mushtarak nomlar bilan ataladi.)

Ko'ruv analizatori grafik (ko'riladigan, yozma) timsollar va mazmunan bog'lanishlarni sintezlashtiradi, ya'ni o'qish

¹ И. П. Павлов. Лекции о работе больших полушарий головного мозга (лекции 3, 11). — Полное собрание трудов, т. IV. — М. —Л., 1947. — 335—336- betlar.

uchun tegishli zaruriy psixik vositadir. Qo‘lharakat analizatori grafik (yozma) timsollar bilan mazmunan bog‘lashda ishtirok etadi. Qadimdan ma‘lumki, odamlar gapirish xususiyati va o‘ng qo‘lining ko‘proq ishlashi bilan ajralib turadi. (Amerikalik olimlardan P. Penfild va L. Roberts ma‘lumotiga ko‘ra, yer sharining 30 foiz aholisi chap qo‘l bilan yozadilar.)

Eshitish analizatorini mashq qildirishning chet til o‘rganishda ahamiyati katta, chunki u nutq oqimidagi fonemalar va ritm-melodiya hodisalarini farqlashda yetakchi rol o‘ynaydi. Eshitish analizatori nutqharakat analizatori bilan yaqin aloqada bo‘ladi. Artikulatsiya bilan eshitish o‘zaro bog‘liq, ikkala analizator bir-birining ishini nazorat qilib turadi. Nutq faoliyati turlarini sodir etilishida analizatorlar o‘zaro harakati quyidagi tartibda kuzatiladi: gapirishda yetakchi — nutqharakat, qo‘shimcha — eshitish, o‘qishda — ko‘ruv, qo‘shimcha — nutqharakat analizatori xizmat qiladi.

Chet til o‘rganishda psixik jarayonlar — diqqat, idrok, xotira, tafakkur kabilar hisobga olinadi. Ular haqidagi ma‘lumotlar psixologiya kursida o‘rganilgan. Chunonchi, *diqqat* — ongning muayyan obyektga yo‘naltirilganligini bildiradigan psixik faoliyat shakli. Uning ikki turi — ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat mavjud. Ixtiyoriy diqqatning ixtiyorsizdan farqi shundaki, birinchisida ong ishtirok etadi.

Narsa va hodisalar tashqi belgilarining inson ongida aks etish jarayoni *idrok* deyiladi. Shaxsning to‘plagan tajribasi bilan idrok bevosita bog‘liq bo‘ladi, bu hodisa ruhshunoslar tilida *appersepsiya* deyiladi. Ushbu hodisa tufayli chet til o‘rganishda til tajribasiga alohida e‘tibor beriladi.

Inson hayotida yig‘ilgan tajribaning in‘ikosi, o‘rin olishi va saqlanishi psixik jarayon sifatida *xotira* nomini olgan. Xotirada saqlashning aks hodisasi — esdan chiqarish yoki xotiradan ko‘tarilish deyiladi. Xotira qisqa muddatli (*operativ*) va uzoq muddatli (*doimiy*) bo‘ladi. Uzoq muddatli xotirada nutqda qo‘llashga tayyor turadigan til materiali saqlanadi. Qisqa muddatli xotira esa nutqda materialni tez va to‘g‘ri qo‘llashga xizmat qiladi. Xotiraning *ko‘ruv*, *eshitish*, *harakat* va *verbal* turlari mavjud. Verbal xotira so‘z bilan bog‘liq bo‘lib, boshqa turlari unga qo‘shilgandagina chet til o‘rganishda samaradorlikka erishiladi.

Til vositalarini egallash mushohada va idrokdan boshlanib, tafakkur tomon, so‘ngra amaliyotga yo‘naltirilgan bilish jarayoni ekanligi ruhshunoslikda aniqlangan. Fikr yuritish cho-

g'ida taqqoslash, tillararo va til ichki munosabatlarini aniqlash, shuningdek, til hodisasining obyektiv borliqqa bog'lanishini ochish kabilar *tafakkur* zimmasida turadi. Tafakkurning mavjud ilk shakllaridan birlamchisi — amaliyot. Shunga ko'ra tilga oid bilimlarni o'zlashtirish tilni o'rganishga qo'yiladigan dastlabki qadamdir, asosiy masala nutq amaliyotini egallashga borib taqaladi. Til materiali intuitiv tarzda, ong ishtirokisiz, avtomatlashgan darajada nutqda qo'llana oladigan bo'lgandagina, tilni his etishga erishiladi, ya'ni nutq malakalari hosil bo'ladi.

Tafakkur hodisasi tushunchalardan tarkib topadi, so'zlar esa tushunchaning moddiy shaklidir. Chet til o'rganishda leksika va grammatikada ifodalangan tillar (ona tili, ikkinchi til va chet til) tushunchalarining hajmi muvofiqlashtiriladi. Insonda biron narsani aytish yoki tushunishga ehtiyoj tug'ilgandagina, u fikrlay boshlaydi. Shuning uchun ham o'quvchilarni chet tilda gapirtirish mavzu yoki nutq vaziyatini taklif qilishdan boshlanadi.

Chet tilni o'rgatish ushbu tilda nutqning sodir bo'lishi yoki idrok etilishi jarayonini tashkil qilishdir. *Nutq* terminining ma'nosi *fikrning shakllanish va ifodalanish usulini* bildiradi. *Til esa fikrni ifodalash va hosil qilish vositasidir.* Fikrni ifodalash psixolingvistikada *(re)produktiv* nutq faoliyati deyiladi, bunga gapirish va yozuv kiradi. Ifodalangan fikrni (gapirish va yozuv mahsulini) idrok etish *retseptiv* nutq hisoblanadi. Fikr bayon etuvchi va idrok etuvchilar *kommunikant* nomi bilan yagona terminida umumlashtiriladi. Kommunikant, o'z navbatida, *(re)produzent* (gapiruvchi va yozuvchi — fikr bayon etuvchi) va *retsipiyent* (fikrni idrok etuvchi — tinglovchi va o'quvchi)larga ajratiladi.

Psixolingvistika muammolarini hal qilishda professorlar — Lev Semyonovich Vigotskiy, Nikolay Ivanovich Jinkin, Aleksey Alekseyevich Leontyev, Irina Alekseyevna Zimnyaya kabi atoqli ruhshunoslarning hissasi katta.

Bir va undan ortiq tilni biluvchilar fanda alohida terminlar bilan nomlangan: *monolingv* (bir til egasi), *bilingv* (ikki til biluvchi), *trilingv* (uch tilda fikr almashuvchi) va *poliglott* (ko'p tillarni biladigan odam). O'zbek maktablarida o'quvchilarning aksariyati bilingvlar bo'lib, chet tilni uchinchi til sifatida o'rgana boshlaydilar (trilingv bo'lish imkoniga egadirlar).

Chet tilni bilish turlari uchta — aktiv, passiv va aralash holda bo'lishi mumkin. *Aktiv* bilish deganda, barcha nutq faoliyati turlarini ona tilidagidek mukammal egallash nazarda tutiladi. *Passiv* bilish — og'zaki va yozma matnni tushuna

olishdir. *Aralash* holda bilish til materialining bir qismini aktiv, boshqa qismini passiv tarzda nutqda egallash tushuniladi.

Ruhshunoslikda chet tilni egallash ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir. Ko'nikma terminiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: *Ko'nikma* ongli holda bajariladigan faoliyatning avtomatlashgan tarkibiy qismidir. Ong ishtirokisiz avtomatlashgan faoliyat *malaka* deb ta'riflanadi. *Bilim* tushunchasi chet tildagi nutqda leksika, grammatika va talaffuzni o'zlashtirish va ularga oid sodda qoidalarni bilishni ifodalaydi.

Til o'rgatish ruhshunosligida nutqning leksik, grammatik va talaffuz ko'nikmalari va gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv malakalari to'g'risida ilmiy fikr bayon etiladi. Shuningdek, til texnikasi (o'qish, yozish, aytish, tanib olish) ko'nikmalari haqida ham fikr yuritish mumkin.

Ko'nikma va malaka masalalarini chet til metodistlaridan prof. Sergey Filippovich Shatilov g'oyat sinchkovlik bilan tadqiq etgan. Chet tillarni o'rganishda so'zning ma'nosi, birika olishi, grammatik shakl kabilarga oid bilimlar ularni nutqda qo'llanilishi paytida o'zlashtiriladi. Mavhum nazariy qoidalar bayon etish va yodlash tavsiya qilinmaydi. Bilim, shunday qilib, til texnikasi ham, ko'nikma tarkibida ishtirok etadi.

Ko'nikmalarning ko'chishi (o'tishi) chet til o'qitishda dolzarb muammo hisoblanadi. Ushbu ilmiy tushuncha ruhshunoslik va tilshunoslikda tadqiq etiladi.

Ruhshunoslikda ko'nikmaning ijobiy va salbiy ko'chishi haqida boy ma'lumot berilgan. Til tajribasi yangi o'zlashtirilayotgan hodisaga to'sqinlik qilishi yoki uni osonlashtirishga yo'llashi mumkin.

Salbiy ta'sir (interferensiya) o'z manbayiga ko'ra tillararo (ona tili, ikkinchi til, chet tilda) va ichki (chet tilning o'zida) namoyon bo'lishi mumkin. Interferensiya leksika, grammatika va talaffuzda uchraydi, nutq jarayonini tushunishga xalaqit beradi, hatto so'zlovchilarni bir-birini tushuna olmaydigan holatga tushirib qo'yadi. Interferensiya oqibatida qiyinchilik paydo bo'lishi, xatolar kelib chiqishi tabiiydir (qiyinchiliklar haqida „Tilshunoslik asoslari“ mavzuyida batafsil to'xtab o'tiladi).

Ruhshunoslik ma'lumotlaridan ko'rinadiki, chet til o'qitishda o'quvchilar psixologik xususiyatlarining inobatga olinishi metodik talablar doirasiga kiradi.

¹ H. R. Huse. The Psychology of Foreign Language Study. Chapell Hill, 1931, p. 42.

Chet til o'qitishning ta'limshunoslik asoslari. Barcha o'quv predmetlarini o'qitish nazariyalari ta'limshunoslik (didaktika) faniga asoslanishi, undan ilmiy „ozuqa“ olishi shubhasiz holdir. Chet til o'qitish ham ta'limshunoslikka asoslanadi. Birinchi navbatda, didaktik prinsiplarning chet til o'rgatishga tatbiq etilishi masalasi ko'ndalang turadi (chet til o'qitish metodlari va prinsiplariga bag'ishlangan V bobda bu mavzu mufassal yoritiladi).

Metodika mohiyat e'tibori bilan, avvalo, xususiy ta'limshunoslik sanaladi, ikkinchi tarafdin, aniq biror chet tilni o'qitishga taqqoslaganda u umumiy metodika fani hisoblanadi. Umuman tillarni o'qitishga doir ilmiy-amaliy mulohazalar yig'indisi lingvodidaktikani fan sifatida shakllantiradi (lingvo-ta'limshunoslik termini, 1960-yillar oxirida Pedagogika fanlari akademiyasi qoshidagi Milliy maktablarda rus tili o'qitish ilmiy tadqiqot instituti jamoasi tomonidan chop etilgan asarlarda uchray boshlagan).

Didaktika ta'limning umumiy nazariyasi, *metodika* muayyan o'quv predmetini o'qitish ilmi, *lingvodidaktika* tillarni o'qitish umumiy nazariyasi, *lingvometodika* aniq bir til (o'zbek tili, rus tili, ingliz tili, arab tili)ni o'qitish ilmi sifatida farqlanadi. Didaktik qonun-qoidalarni chet til o'qitishga moslab tatbiq etish yo'llarini yoritish maqsadida, eng avvalo, „chet til“ o'quv predmetining xususiyatlarini boshqa fanlardan farqlash kerak bo'ladi.

O'rta ta'limda o'qitiladigan predmetlarni shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin: fan asoslaridan saboq beradigan o'quv predmetlari (mas. kimyo, biologiya, fizika, matematika, tarix, ona tili); tarbiya berishga qaratilgan o'quv predmetlari (rasm, musiqa, ashula); amaliy faoliyatni o'rgatadigan o'quv predmetlari (jismoniy tarbiya, mehnat ta'limi); til o'quv predmetlari (ona tili, ikkinchi til, chet til). Fan asoslarini o'rgatuvchi predmetlarda o'quvchilarga asosan ushbu sohaga oid bilimlar bayon etiladi. Tarbiyaviy yo'nalishdagi predmetlar o'quvchilarda nafasat va go'zallikni tarkib toptiradi. Faoliyatni o'rgatish predmetlari jismoniy chiniqish, mehnat qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Lingvo-ta'limshunoslik obyekti bo'lmish ona tili, ikkinchi til va chet til o'quv predmetlarini tahlil etganda, ular orasida mushtaraklik va keskin tafovut borligi namoyon bo'ladi.

Tillar orasidagi umumiylik shundan iboratki, har uchala-

sini o'rganishda ham o'quvchi nutq faoliyati bilan mashg'ul bo'ladi. Ushbu tillarda shakllangan nutq ko'nikma va malakalari tufayli boshqa fanlar va sohalarga oid bilimlar (axborotlar) o'zlashtiriladi. Akad. L. V. Shcherba so'zi bilan aytganda, til o'quv predmetlari muloqot (kommunikativ) vazifasini bajaradi¹.

Maktab sharoitida ona tili o'qitish o'zga tillarni o'rgatishdan shu bilan sezilarli farq qiladiki, tillarning kommunikativ funksiyasi va ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati, umuman qaralganda, barchasiga tegishli, biroq bunday funksiyalarning bajarish me'yori har bir tilda turlicha. Mas. „Ona tili“ o'quv predmetini o'rganish chog'ida o'quvchilar uchun uning kommunikativ va ta'limiy-tarbiyaviy funksiyalari bir xilda ro'yobga chiqadi.

Chet tilda esa muloqot, amaliy qo'llanish yetakchi funktsiya bajaradi, ta'lim va tarbiya vazifalari unga bog'liq holda ro'yobga chiqadi. Chunki ona tilini o'quvchi maktabgacha amaliy egallaydi. Endi ona tilida yozuv va o'qish malakalari shakllanadi va og'zaki nutq malakalari takomillashtiriladi. Ta'limiy tomoni (til nazariyasi asoslari sistematik kursi) maxsus e'tibor bilan o'rgatiladi.

Ikkinchi tilda ham amaliy malakalar avval qisman (yoki yetarli) hosil qilingan, nazariy bilimlar, albatta, ona tilidagidan kamroq hajmda bayon etiladi. Chet til o'rgatishda esa har bir ish boshidan boshlanadi, kommunikatsiyaning butunlay yangi lisoniy sistemasi shakllantiriladi. Ta'lim berishga mo'ljallangan qoidalar (oddiy nazariy bilimlar) amaliy ko'nikma va malakalarni egallashni tezlatish (intensifikatsiya) va yengillatish (optimizatsiya) maqsadlariga bo'ysundiriladi. Amaliy maqsadning ro'yobga chiqishi bevosita ta'lim-tarbiyaga o'z ta'sirini o'tkazadi, o'quv jarayonidagi nutqni amaliyot (kommunikatsiya)da axborot olish/berish birlamchi vazifaga aylanadi.

Tillarning asosiy o'quv maqomidagi yana bir xususiyati shundaki, ona tili tajribasi ikkinchi til o'rganishda, so'ngra ularning ikkovi chet tilni egallashda ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mavjud ko'nikmalarning yangi hodisani o'zlashtirishga salbiy ko'chishi (interferensiya) ko'proq kuzatiladi. („Ruhshunoslik asoslari“da mazkur masala kengroq ta'riflangan.)

Ta'limshunoslikda o'quv predmetini nima uchun (qanday

¹ *Л. В. Щерба. Преподавание иностранных языков в средней школе. Общие вопросы методики. 2-е изд. — М.: Высшая школа, 1974.*

maqsadda), nimani (ta'lim mazmunini), qanday qilib (metod va prinsiplar) va kimga (o'quvchiga) o'rgatish muammolari tadqiq etiladi.

Ta'lim maqsadi ijtimoiy munosabatlar sistemasi (jamiyat)-ning buyurtmasidan kelib chiqadi. Fanshunoslikda, shuningdek, ta'limshunoslikda ham, maqsad tasavvurdagi faraziy natijadir. Kelajak kishisini oldindan tasavvur etish bilangina ta'limning maqsadi belgilanadi. Chet til o'qitish maqsadlari shaxsning atroflicha rivojlanishi doirasi bilan chegaralanadi.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib, chet til o'qitishdagi amaliy (kommunikativ), umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar kuzatiladi (III bobga qarang).

O'qitish nazariyasining navbatdagi masalasi *ta'lim mazmuni* mavzusiga tegishlidir. Ta'limshunoslik qoidalariga ko'ra, chet til o'qitishning xususiyatlariga monand ta'lim mazmuni aniqlanadi. Ilmiy izlanishlar ko'rsatishicha, chet til ta'limi mazmuni nutq malakalari, nutq mavzusi va til materialidan tarkib topadi (IV bobga qarang).

O'qitish *metodlari va prinsiplari* ta'limshunoslikda ishlab chiqilgan. Chet til o'rgatishda ular o'ziga xos usulda tatbiq etiladi (V bobni o'qing).

Nihoyat, chet til metodikasi ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari — *muallim va o'quvchi* faoliyati to'g'risidagi ta'limshunoslik yutuqlaridan foydalanadi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan metodik qonun-qoidalar ishlab chiqiladi. Didaktik ma'lumotlar bunda asos bo'ladi (XVI, XIX boblarga qarang).

Chet til o'qitish metod va prinsiplari, ushbu mavzu muqaddimasida ta'kidlanganidek, ta'limshunoslikka asoslanib yaratiladi. Bu o'rinda yetakchi didaktik prinsiplardan hisoblanuvchi ongillilikni qisqacha sharhlash maqsadga muvofiqdir. *Ongillilik* prinsipi fan asoslarini o'qitadigan o'quv predmetlariga yaqinroq turadi. Biroq, chet til o'quv predmetini o'rgatish ham bu prinsipni chetlab o'ta olmaydi.

Chet til o'rgatish tajribasida va chop etilgan ilmiy manbalarda ongillilik prinsipi talqinida asta-sekin evolutsion o'zgarishlar yuz berdi. O'tgan asrning 40- yillar oxiri va 50- yillar davomida chet tilda ongillilik bilim va nazariy materialning sistema sifatida o'rganilishi targ'ib qilindi. O'sha davrda chiqqan metodik qo'llanmalar mazmuni shundan dalolat beradiki, chet til grammatik, leksik va fonetik materiallari birinchi navbatda

chuqur nazariy qoidalar orqali taqdim etilar edi, mashg'ulotlar bilim berish niyatida o'tkazilar edi. O'tgan asrning 50- yillar oxiri va 60- yillar boshlanishiga kelib, onglilik metodistlar tomonidan butunlay boshqacha talqin etila boshlandi. Chet til o'rganishda mazmun birlamchi, shakl esa ikkilamchi qilib qo'yildi. Oldin og'zaki va yozma matnni tushunib, keyin undagi til hodisalariga diqqatni qaratmoq zaruriyati tashviq qilindi. Shakl intuitiv holda, ong ishtirokisiz o'rganilishi mumkin, degan metodik yo'l tutildi. Onglilik prinsipi, ko'rinib turibdiki, chet tilda nutq mazmunini tushunish bilan bog'lanmoqda. Aslida esa nutqni egallash jarayoni hisobga olinmagan.

Oltmishinchi yillarning ikkinchi yarmida chet tilni ongli o'rganish o'quvchilar tomonidan nutq mazmunini tushunish hamda nutqning tarkibiy qismidagi til birliklarini anglab yetish ilmiy tarzda asoslab berildi.¹

Ushbu ilmiy talqinga ko'ra, ayrim zaruriy qoidalar, ya'ni nazariyaning elementlari amaliy maqsadni ko'zlab bayon etiladi va tilni o'rganish jarayonini tezlashtiradi va o'quvchilarga osonlik tug'diradi. Onglilik prinsipi zaminida ishlab chiqilgan ongli-qiyosiy metod ta'kidlab o'tilgan uchala metodik yondashishda ham qator o'zgarishlar bilan saqlanib kelinadi. Hozirgi metodikada qiyoslash o'quvchilar tomonidan emas, balki ularning til tajribasini hisobga olgan holda darslik va dastur tuzuvchi metodistlar va o'qituvchilar tarafidan amalga oshiriladigan metodik tadbirdir. Darsda o'quvchi chet til hodisasini anglab oladi, biroq tillarni qiyoslash bilan band etilmaydi („Tilshunoslik asoslari“ga qarang).

Chet til o'qitishning metodologik, ruhshunoslik va ta'limshunoslik asoslarini o'rganish, uning tilshunoslik asoslari ham mavjudligidan dalolat beradi.

Chet til o'qitishning tilshunoslik asoslari. „Chet til o'qitish“ termini, avvalroq qayd etilganidek, chet tilda nutqni o'rgatish ma'nosini bildiradi. Til deganda, muayyan jamoa ongida o'rin olgan kod (belgi)lar vositalari va ularning qo'llanish qoidalari yig'indisi tushuniladi (inglizcha — *language*, ispancha — *lengua*, nemischa — *Sprache*, fransuzcha — *langue*). Tilning asosiy vazifasi kishilik jamiyatida aloqa vositasi bo'lib, u belgilar sistemasidan tarkib topadi. Til tafakkurni

¹ Общая методика обучения иностранным языкам в средней школе. / Под ред. А. А. Миролюбова, И. В. Рахманова, В. С. Цетлин. — М.: Просвещение, 1967.

rivojlantiruvchi, avloddan avlodga o'tadigan madaniy-tarixiy merosni yetkazish vositasi hamdir. Til bo'lmasa, nutqiy aloqa bo'lmaydi, muloqot bo'lmasa, jamiyat ham, binobarin, odam ham bo'lmasligi aniq. Nutq — tilning bevosita voqeligidir.

Chet til o'qitishni tashkil etish uchun til va nutq tushunchalarining farqiga yetish g'oyat muhimdir. Tildagi birliklar, ayniqsa, leksika, hajman ko'p miqdorni tashkil etadi, kishi nutqida esa ikki-uch ming atrofida so'z qo'llanadi. Yozuvchilar esa o'z asarlarida 20—25 mingtagacha so'z ishlatadilar. Ayrim tillarning lug'aviy boyligi yarim milliongacha yetadi. Chet tilda o'quvchilar mingtacha so'zni 'aktiv egallaydilar. Til ijtimoiy, nutq esa individual hodisadir. Til, sodda qilib aytganda, birliklar va ularning aloqasi sistemasidir, nutq esa og'zaki va yozma matndir. Tilni faqat nutq orqali o'rganish mumkin. Tilda harf/tovushdan tortib, to morfema, so'z, so'z birlikmalari, gap va matngacha bo'lgan lingvistik belgilar, nutqda esa ushbu belgilarni qo'llash tufayli axborot yetkazish imkoniyati bordir. Nutq doimo yo mahsulot, yo jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Matn lingvistikasi atalmish tilshunoslikning sohasi nutq birligi sifatida gapni emas, balki matn (makro- va mikromatn)ni tan oladi.

Tilshunoslikda „til va nutq“ dixotomiyasi olimlarning o'nlab-yuzlab avlodi uchun tadqiqot manbayi, qizg'in ilmiy bahslarga azaliy va abadiy sabab bo'lib kelmoqda.

Metodika tilshunoslik yutuqlaridan ijobiy foydalanadi. Mas. strukturani tadqiq etadigan lingvistik yo'nalish namoyandalari ijod etgan *nutq namunasi* tushunchasi metodikaga tezda singib ketdi. Nutq namunasi chet til o'rgatishda asosiy birlik maqomini kasb etadi. Nutq namunasi tilning leksik, grammatik va talaffuz tomonlarini mujassamlashtiradi va qo'llash yoki idrok etish uchun tayyor hodisa hisoblanadi. Til hodisasi sifatida nutqda yaxlit birlik darajasida qo'llanadi, uning tarkibidagi lisoniy kichik birliklar alohida-alohida mashq qilinadi. Til hodisalarini kompleks o'rganish va element (unsur)laridan qiyinchilik tug'diradiganlarini maxsus mashqlarda qaytarish va mustahkamlashga erishiladi.

O'rganilayotgan tilning qiyinchiliklari tilshunoslikning tillar aloqasi (kontakti) nomli tarmog'i ilmiy natijalaridan ma'lum bo'ladi. Quyida til hodisalarining ta'limdagi qiyinchiliklarini aniqlash va tasniflash haqida to'xtab o'tamiz.

Inson o'z hayotida uzluksiz paydo bo'lib turadigan turli

qiyinchiliklarni yengish bilan mashg'ul bo'ladi, insonning kamolotga yetishida qiyinchiliklarga sabr-toqat bilan, aql ishlatib bardosh berishi va ularni yengib o'tishi hal qiluvchi ahamiyatga molik. Chet til qiyinchiliklarini yengib, nutq faoliyati turlarini egallash maktab o'quvchilari tajribasida uchraydigan tabiiy hodisadir.

Chet til qiyinchiliklari nutqda qo'llanadigan til birliklarining funksional jihatdan, formal (shakl) va semantik (ma'no) tomonlarini egallashda sodir bo'ladi. Til birligi yo *funksional* (tushuncha darajasida, qo'llanishda), yo *formal* (yasalishda, strukturada), yo bo'lmasa *semantik* (ma'no bildirishda) qiyin bo'lishi mumkin. Ushbu tomonlarning yagona yaxlit birlikda mujassamligidan qat'i nazar, har biri qiyin yoki oson o'rganilishi mumkin.

O'rganiladigan til materiali birliklari metodistlar nuqtayi nazaridan ikkita katta — qiyin va oson toifalarga bo'linadi. Oson birliklar jumlasiga o'quvchilar til tajribasidagi til hodisalariga mushtarak (o'xshash)lari kiritiladi. Mas. ona tili yoki ikkinchi tilda mavjud so'zlar bilan bir o'zakli (internatsional) chet til leksikasini ko'rsatish mumkin: tennis — *tennis*, dollar — *dollar*, biznes — *business* kabilar; grammatika jabhasida ham oson hodisalar yetarli miqdorda topiladi. Mas. fe'l zamonlarining funksional jihatlari yoki sifatning oddiy darajasi; talaffuz materiallari orasida ham anchagina nisbiy o'xshashliklar mavjud: [p], [t], [k], [s], [tʃ] kabi fonemalar. Ko'rsatib o'tilgan va boshqa til tajribasidagi umumiylik hosil qiladigan hodisalarni metodika tilida *potensial til materiali* (potensial leksika/grammatika/talaffuz birliklari) termini bilan ifodalash mumkin. O'quvchilarda ichki imkoniyat, ya'ni tegishli til tajribasi mavjudligi tufayli potensial birliklarni kam vaqt sarflab o'rganishning iloji bor. Potensial hodisalarni ham tasniflash yoki tipologiyalash (toifalashtirish) mumkin.

Qiyin materialni metodik tipologiyalashtirish til o'qitish samaradorligini oshirishga bevosita daxldor. Qiyinchilik bilan o'zlashtiriladigan til materialini o'qitishda xatolarning kelib chiqishi muqarrardir. Demak, xatolar qiyinchilik bilan — oqibat va sababiyat munosabatida bo'ladi. Binobarin, qiyinchiliklarni bartaraf etish orqali xatolar oldi olinadi.

Qiyinchiliklarni oldindan aniqlab olish tadbirlari qator bosqichlardan iborat. Dastlab o'quvchilar ongida aloqaga kiradigan til materiali (leksika, grammatika, talaffuz hodisalari)

qiyosiy tahlil etiladi. Til tajribasining tarkibiy qismlari (ona tili, ikkinchi va chet til) taqqoslanadi. Qiyoslashdagi metatil (asosiy til) muammosi til materialining reproduktiv yoki retseptiv o'zlashtirilishiga bog'liq. Chet til hodisasi reproduksiyada o'rganilsa, metatil qilib ona tili (funksiya, semantika, forma) tanlanadi. Ona tilidan keyin ikkinchi til hodisalari, uchinchi o'rinda chet til birliklari qiyosiy tahlilga jalb etiladi, aks holda — retsepsiyada chet tilning o'zi metatil vazifasini o'taydi. Sof tilshunoslik uchun metatilning farqi yo'q. Lingvodidaktikada esa buning tafovuti katta. Chunki o'quvchi gapirish va yozuvda funksiyadan semantikaga, so'ngra, shaklga qarab fikran harakat qiladi. Retseptiv nutq (tinglash va o'qish)da esa tilning formal tarafiga tayanib, semantika va funksiya keltirib chiqariladi.

Aloqaga kirayotgan tillardagi mushtaraklik va tafovutlarni ochishda qiyoslash (*kontrastiv*) bosqichi natijalari kifoya qilmaydi. Undan keyin *komparativ* (til ichki qiyoslanishi) tahlil o'tkaziladi. Tilning ichki hodisalari orasidagi salbiy ta'sir (interferensiya) ochiladi. Ikkala (*kontrastiv* va *komparativ*) qiyoslash statik (holatdagi) qiyinchiliklar tipologiyasini, boshqacha qilib aytganda, lingvistik tipologiyani yaratadi.

Muallimlar ish tajribasi ko'rsatishicha, statik tipologiya bilan cheklanish amaliyotda o'zini to'liq oqlamaydi. Ayrim qiyin hisoblangan hodisalar oson o'rganiladi, ba'zilari esa, aksincha — statik tipologiyada qiyin deyilgan birlik o'quv jarayonida yengil o'zlashtiriladi. Xullas, til materialini yana bir bosqichda tekshirib ko'rishga ehtiyoj seziladi.

Til materiali qiyinchiliklarini oldindan aytib berishda uchinchi — *diagnostik* bosqichdan o'tiladi. Xatolarning paydo bo'lish mexanizmi qo'shimcha o'rganiladi. Xatolarni dinamika (harakat)dagi qiyinchiliklar, deb atash ham mumkin. Metodikada tarqalgan „xatolarning oldini olish“ tushunchasi mantiqan noto'g'ri, chunki qiyinchiliklar oldi olinadi, xatolar bartaraf etiladi. Qiyinchilik bor ekan, uning soyasi yanglig' xatolar hamroh bo'la beradi. Qiyinchilik yo'qolsa, uning oldi olinsa, o'z-o'zidan xatoni bartaraf etish chorasi ko'rilgan bo'ladi. Chet til o'qitish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar maxsus tasniflashtiriladi.

Endi to'rtinchi bosqichda — statikadagi (qog'ozdagi, ya'ni nazariy, o'ylab topilgan) qiyinchiliklar til materialini o'rganish chog'idagi xatolar bilan sinchiklab solishtiriladi. Statik va dinamik qiyinchiliklar qo'shma tahlili u yoki bu til birli-

gining haqiqatan qiyin yoki osonligidan darak beradi. Oqibatda qiyinchiliklarning *lingvodidaktik tipologiyasi* yaratiladi.

Maktab hayotida ushbu qiyinchiliklar tipologiyasi ma'lumotiga zid holatni uchratish mumkin. Oson hisoblanmish birlik to'satdan qiyinchilik tug'diradi, ya'ni xatoga olib boradi. Ilmiy tekshirishlarga ko'ra, o'quv jarayonidagi tashkiliy sabab ham xatolarga yetaklashi mumkin ekan. Mas. o'quvchining diqqat bilan o'tirmasligi, dars qoldirishi (davomatining pastligi) va muallimning metodik noto'g'ri ish tutishi sababli material puxta o'zlashtirilmaydi. Tashkiliy sabablarga binoan xatolar kelib chiqadi. Demak, interferension (*ta'siriy*) va *tashkiliy* qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Barcha qiyin hodisalar darslikda va muallim tashabbusi bilan tavsiya etiladigan maxsus mashqlarda ishlab chiqiladi. Muallim e'tibori qiyin hodisalarni o'quvchilarga ko'proq mashq qildirish va takrorlashga qaratiladi. O'quvchilar harakati va diqqati qiyinchilikni yengishga jalb etiladi.

Xatolar to'g'risida gap faqat ta'lim jarayonida borishi mumkin. Darslik mashqlarida esa qiyinchiliklarga nazariy hisob-kitob qilingan. Xatoga nisbatan qiyinchilik birlamchidir, xato uning hosilasi ekanligini unutmash kerak.

Til qiyinchiliklari muammolarini tilshunoslar, ruhshunoslar, ta'limshunoslar turlicha tadqiq etishgan. Metodika fani mutaxassisleri mavjud ma'lumotlarni e'tiborga olib, nutq faoliyati turlarining har birida o'z qiyinchiliklari borligini e'tirof etishadi.

Reproduktiv tarzda nutq faoliyatini egallash til materialini, avvalan, qo'llashni (funksiyasini), soniyan, ma'nosini (semantikasini) va, nihoyat, formasini (yasalishini, tuzilishini) o'rganish tartibini taqozo etadi. Retseptiv egallashda boshqacha yo'l ko'rsatiladi: yasalishi, ma'nosi va qo'llanilishi o'zlashtiriladi. Mas. beshinchi sinf o'quvchisi (birinchi yil chet til o'qiyapti) muallim aytadigan nutq namunasini idrok etib tushunadi, tinglab tushungandan keyin o'zi aytadi (gapiradi). Og'zaki retsepsiyada nutq birligining tovush shakli bilan tanishadi, og'zaki reproduksiyada uning qo'llanilishini o'rganadi. Shuning o'zigina til materialini nutq faoliyati turlarida o'zlashtirishning xususiy muammolarini hal etish zarurligidan dalolat beradi. Jumladan, lingvodidaktik tipologiya nutq faoliyati turlari bo'yicha alohida-alohida yaratilishi talab etiladi.

Tajribadan ma'lumki, maktab o'quvchilari nutq faoliyatining to'rtala asosiy turini o'rganadilar. Ta'limning dastlabki

bosqichida ogʻzaki nutqning ilgariyasi prinsipiga muvofiq ish tutiladi. Leksik yoki grammatik birlik oldin ogʻzaki, soʻng yozma shaklda oʻzlashtiriladi.

Joriy metodik anʼanaga koʻra materialni ogʻzaki va yozma oʻrganish oʻrtasidagi tanaffus bir necha (beshtagacha) dars orasida yoki bir darsning ichida boʻlishi mumkin. Taʼlimning yuqori bosqichida til materiali retseptiv oʻrganilishi, faqat lek-sikaning yarmi keyinchalik reproduktiv tarzda ham oʻzlashtirilishi metodik jihatdan odat tusiga kirgan.

Taʼlim bosqichi va prinsiplariga binoan umumtaʼlimiy maktab til minimumiga kirgan barcha hodisalar nutq faoliyati turlarida quyidagi sharoitlarda oʻrgatiladi:

I. *Tinglab tushunishda* oʻzlashtiriladigan til materiali olti toifaga boʻlinadi:

1. Oʻrganilayotgan til materiali boshqa nutq faoliyati turlarida ishtirok etmaydi. Gapirishda keyinroq ishlatiladi, yozuv va oʻqishda yana ham keyinroq, biroq shu oʻquv yilida oʻrganiladi.

2. Tinglab tushunish uchun berilgan til materiali gapirishda ham aytiladi, yozuv va oʻqishda keyingi darslarda qoʻllanadi.

3. Tinglab tushunishda oʻzlashtirilgan birlik shu darsning oʻzida gapirish materiali hisoblanib, keyingi oʻquv yilida yoziladi va oʻqiladi.

4. Tinglab tushunish va gapirishda qoʻllanadigan birlik yozuv va oʻqishda bir necha sinfdan keyin ishtirok etadi.

5. Tinglab tushunishda oʻtilgan material chet til oʻqitish maktab kursida boshqa nutq faoliyati turlariga kiritilmaydi.

6. Audiomatnda uchraydigan material shu darsning oʻzida (birinchi oʻquv yilidan tashqari) qolgan uchala nutq faoliyati turida ham ishlatiladi.

II. *Oʻqishda* oʻrganiladigan til materiali oltita toifani tashkil etadi:

1. Reprodukativ nutqqa umuman kiritilmaydi (tinglab tushunishda qoʻllaniladi).

2. Oʻqishdan boshqa birorta nutq faoliyati turiga kiritilmaydi (oʻquvchilar lugʻat boyligiga kirmaydigan „novokabular-vokabulardan tashqari leksika“).

3. Grafik matndagi mazmuni shakllantirish uchun zarur soʻzlar, keyingi darslarda yangi soʻz sifatida yana qaytadan oʻrgatiladi (agar lugʻat minimumida hisobga olingan boʻlsa).

4. Taqlid yoʻli bilan oʻrganiladigan sheʼr va ashulaning yangi soʻzlari, oʻquvchilar ogʻzaki nutqi yoki yozuviga kiritilmaydi.

5. O'qish texnikasi mashqlariga kirgan yangi so'zlar, nutq faoliyati turlarida qo'llanadigan maxsus yangi material sifatida o'rgatiladi (agar lug'at minimumida hisobga olingan bo'lsa).

6. O'qishdan keyin tinglash va gapirishda mashq qilindigan so'zlar, yozuvda mashq qilinmaydi.

III. *Gapirishda* ishtirok etadigan til materiali, boshqa barcha nutq faoliyati turlarida ham o'rganiladi. Ular aktiv leksika va grammatika nomi bilan yuritiladigan til materialidir.

IV. *Yozma* fikr bayon etish uchun alohida til materiali berilmaydi, chunki yozuv chet til o'qitish maqsadi emas, u ta'lim vositasidir. Og'zaki nutqda o'rganiladigan til birliklarining bir qismigina yozuvda mashq qilinadi.

Nutq faoliyati turlarida til materialining chegaralanib qo'llanilishi faqat chet til uchun emas, balki ona tili va ikkinchi tilga ham taalluqli metodik qonuniyatdir. Shuning uchun ham retseptiv va reproduktiv nutq haqida, aktiv va passiv til materiali to'g'risida metodik qoidalar chiqarilgan.

Nazariy va eksperimental tadqiqotlar ko'rsatishicha, til materiali nutq faoliyati turlarida chegaralanib ishlatilishdan tashqari har bir til birligining qo'llanishi, ma'nosi va shakli, hatto shaklning tovush va grafik tomonlari ham ajratilgan holda, turli darslarda o'zlashtirilishi mumkin. Materialni nutq faoliyati turlarida farqlab o'rgatish prinsipi til materialining metodik tipologiyasini yaratish chog'ida hisobga olinadi.

Barcha qiyinchiliklar ikkita katta guruhga bo'linadi: *hokim* va *tobe qiyinchiliklar* nomini oladi.

Birinchi guruhga kirgan hokim qiyinchiliklar eng murakkab birliklardan tarkib topadi. Ularni o'zlashtirish chog'ida mashqlar bilan bir qatorda tushuntirish va qoidalar beriladi (mas. artikl).

Ikkinchi toifadagi tobe qiyinchiliklar kamroq qoida va tushuntirish yo'li bilan o'zlashtiriladi, asosan, mashq bajarish orqali qiyinchiliklar oldini olish mumkin. O'quvchilar til tajribasining ijobiy ko'chishi yoki o'qituvchi nutqiga taqlid qilish vositasida o'zlashtiriladigan til birliklari ushbu guruhga taalluqlidir.


Xulosa qilib aytganda, qiyinchiliklarning tipologiyasi quyidagicha yaratiladi:

1. Sodir bo'lish sababiga ko'ra interferension (ta'siriy) va tashkiliy qiyinchiliklar (ona tili, ikkinchi til va chet tilning o'z salbiy ta'siri natijasida vujudga keladigan qiyinchiliklar shu turga kiradi).

2. Tilni retseptiv va reproduktiv egallash bilan bog‘liq qiyinchiliklar. Ular funksional, semantik va formal qiyinchiliklar deb ataladi.

3. Qiyinchiliklar oldini olish omillari nuqtayi nazaridan ular hokim va tobe qiyinchiliklarga bo‘linadi.

Chet til o‘qitishning tilshunoslik asoslari quyidagi chizmada aks ettiriladi:¹



Nutq strukturasi (tuzilishi) quyidagilarni o‘z ichiga oladi: og‘zaki dialog — dialog (juftnutq), suhbat, munozara; og‘zaki monolog (yakkanutq) — hikoya qilish, ertak va topishmoq aytish, ma‘ruza, leksiya; yozma monolog — xat, ariza, tabrik, reja, konspekt, referat, maqola kabilar.

O‘quv-metodik topshiriqlar

1. Ruhshunoslik fanidan metodika qanday ilmiy ma‘lumotlar olishini aniqlab ayting.

2. Ta‘limshunoslik, lingvota‘limshunoslik va lingvometodika terminlari haqida bilimingizni sinab ko‘ring.

3. Qiyinchiliklar tipologiyasini sinchiklab o‘rganing va aytib bering.

¹ М. Я. Демьяненко, К. А. Лазаренко, С. В. Кислая. Основы общей методики обучения иностранным языкам. — Киев: Вища школа, 1976. — 34- bet.

III BOB. CHET TIL O'QITISH MAQSADLARI

Har qanday maqsad ehtiyoj tufayli paydo bo'ladi. Maqsad tushunchasi rejalashtirilgan natija, tasavvurdagi oqibat ma'nosini anglatadi. Chet til maktabda nima uchun o'qitiladi, degan savolga chet tilni amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarda o'rganadilar, deb javob qaytarish mumkin. Ta'lim maqsadlari ijtimoiy buyurtma — topshiriq bo'lib, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish va tarbiyalashga qaratiladi.

Chet til ta'limi maqsadlari metodik adabiyotlarda keng muhokama qilinib keladi. O'tgan asr oltmishinchi yillarining ikkinchi yarmiga kelib, amaliy, ta'limiy va tarbiyaviy maqsad terminlari davr talabiga muvofiq sharhlab berildi.¹ Saksoninchi yillarda uchala nomga qo'shimcha rivojlantiruvchi maqsad² termini paydo bo'ldi. Ushbu tushuncha-terminning chuqur tahlili sermahsul metodistlardan prof. Galina Vladimirovna Rogova³ tomonidan amalga oshirilgan.

Shunday qilib, chet til to'rt maqsadda o'qitiladi. Birinchisi — amaliy maqsad — ustuvor.

Chet til o'qitishning amaliy maqsadi. „Amaliy“ atalmish metodika termini hozirgacha muallimlar orasida birdan ortiq assotsiatsiya (fikran bog'lanish)ga sabab bo'lib, turli hajmdagi va shakldagi tushunchalar uyg'otmoqda. Amaliyotni „og'zaki nutq“ yoki „gapirish“ deb yuritish kabi xato fikrlar ham mavjud. Chet tilni amaliy egallash, o'zgarar nutqini tushunish va o'z fikrini bayon etish degan to'g'ri umumiy ta'rif ham uchraydi. O'rta ta'lim kursida chet til amaliy tarzda o'rganilishining yakuniy maqsadi o'qib ma'lumot olish demakdir. Maktab, litsey va kollejni tugatuvchilar yakuniy maqsadga ko'ra o'qishdek nutq faoliyati turini chet tilda egallashadi. Oraliq maqsad esa turlicha bo'ladi. Ta'lim bosqichi yoki alohida sinflarda nutq faoliyati turlaridan gapirish oraliq maqsadda

¹ Общая методика обучения иностранным языкам в средней школе. / Под ред. И. В. Рахманова, А. А. Миролюбова, В. С. Цетлин. — М.: Просвещение, 1967. — 19—31- betlar.

² Программы средней школы. Иностранные языки. — М.: Просвещение, 1983. — 2- bet.

³ Г. В. Рогова, И. Н. Верещагина. Методика обучения английскому языку на начальном этапе в средней школе. — М.: Просвещение, 1988. — 34—37- betlar.

o'rganilishi mumkin. Mas. boshlang'ich davrda og'zaki nutqni maqsad maqomida o'rganadilar. Shu bilan birga, o'qish va yozuv ham o'rganiladi, biroq ularga vosita deb qaraladi.

Endi terminlar ziddiyati — „maqsad“ va „vosita“ni ta'riflash ehtiyoji tug'iladi. Nutq aloqa vositasi ekan, u (nutq — nutq faoliyati turlari majmuyi)ni o'rganish ta'limning umumiy amaliy maqsadiga kiradi. Biror nutq faoliyati turi yakuniy yoki oraliq maqsad darajasida xususiy amaliy maqsadni ifodalaydi. Mas. gapirish chet til o'qitishning birinchi davrida xususiy oraliq, yetakchi amaliy maqsadda o'rganiladi, yuqori sinflarda uning o'rnini o'qish egallaydi. Hamma sinflarda tinglab tushunish yordamchi xususiy amaliy maqsadda o'rganiladi.

Yozuv nutq faoliyati turi sifatida barcha sinflarda chet til o'rgatish vositasi bo'lib keladi. „Vosita“ terminining ma'nosi „boshqa nutq faoliyati turlarini egallashda yordamchi“ demakdir. Mas. gapirish yoki o'qish mashqidan keyin, ularda o'zlashtirilayotgan til materiali yozuvda mustahkamlanadi, takrorlanadi.

Chet til metodikasidagi *maqsad* termini quyidagicha izohlanishi mumkin. Nutq faoliyatining turi maqsad maqomini olishi uchun, albatta, *birinchidan*, uning o'z ta'lim mazmuni (nutq mavzuyi, nutq malakalari, til materiali) mavjudligi, *ikkinchidan*, til materiali dastavval shu nutq faoliyati turida o'rganilishi, *uchinchidan*, unga vaqt va kuchning asosiy qismi sarflanishi va, nihoyat, *to'rtinchidan*, mashqlarning aksariyati ushbu nutq faoliyati turida bajarilishi shart. Mas. gapirish birinchi pallada maxsus mavzu va til materiali asosida o'rgatiladi, yuqori sinflarda esa o'qish aynan mana shunday mavqega molik. Boshlang'ich davrning gapirish mavzulari va leksik-grammatik materiali o'qish va yozuvda takrorlanadi, mustahkamlanadi.

Tavsiya etilgan metodik mezonlar amaliy maqsadning talqini uchun kifoyadir. Nutq faoliyati turini o'rgatishda agar to'rtala uslubiy mezonga rioya qilinmasa, u maqsad darajasidan mahrum bo'ladi, ta'lim vositasi qatoridan joy oladi. Chet til artiklini misol qilib ko'rsatish mumkin. Artikl grammatik hodisasi quyidagi tartibda nutq faoliyati turlarida o'rganiladi: tinglab tushunish → gapirish → yozuv → o'qish. Ulardan birinchi va ikkinchisi (tinglab tushunish va gapirish) ta'limning xususiy maqsadi, qolgan ikkitasi (yozuv va o'qish) — ta'lim vositasi.

O'z-o'zidan mantiqiy savol tug'iladi: nima uchun til materiali barcha nutq faoliyati turlarida o'zlashtiriladi? Masala

shundaki, obyektiv voqelikdagi istalgan hodisani, shu jumladan, chet til birliklarini o'zlashtirishda qancha ko'p analizator ishtirok etsa, uning dinamik stereotipi shunchalik mustahkam bo'ladi.

Ta'lim maqsadini tushunib yetish — o'qitishning umumiy yo'nalishi (**strategiyasi**)ni bilib olishga yordam beradi. Maqsad dars va mustaqil ishlar bajarish chog'ida ko'plab aniq vazifalarni o'tash yo'li bilan ro'yobga chiqadi. Vazifalarni hal etish — ta'lim **taktikasini** tashkil etadi. Ta'limiy vazifalar o'quvchilar bajaradigan amaliy ishlardan iborat (tushunish, fikr bayon etish, til birligini o'rganib olish va h.k.).

Chet tilni egallash (amaliy maqsadga erishish) ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni hal etish bobida asos va sharoit vazifasini o'taydi. Qisqasi, chet tilni amaliy maqsadda o'rganish ushbu til yordamida kerakli axborot olish va boshqalarga yetkazish ma'nosini anglatadi. Olingan axborot (informatsiya) o'quvchilar bilim saviyasini oshirish (ta'limiy maqsad) va ularni tarbiyalash ishiga xizmat qiladi.

Chet til o'qitishning umumta'limiy maqsadi. O'quvchilarga chet til uchinchi til sifatida o'rgatiladi. Majburiy o'quv predmetlaridan bo'lmish chet til, boshqa fanlar qatorida umumiy ta'lim berishda o'z ulushini qo'shadi. Chet til o'rganish natijasi ham, jarayoni ham umumta'limiy ahamiyatga molikdir. Chunki chet til vositasida olinadigan axborotdan tashqari, uni o'rganish jarayonida qo'llanadigan til birliklari tafakkurni rivojlantiradi, nutqning ifoda planidagi yangi hodisalar o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lib, ularning til tajribasini boyitadi.

Til materialida o'quvchilar ona tiliga mos kelmaydigan hodisalarga duch kelishadi. Mas. grammatikada fe'l zamonining murakkab shakli, leksikada polisemiya (ko'p ma'nolilik)ning ushbu tilga xos ko'rinishlari, talaffuzda ona tili yoki ikkinchi tilda uchramaydigan fonetik birliklar shular jumlasidandir. Juda ko'p lisoniy hodisalar turli tillarda o'xshash bo'ladi. Tillardagi mushtaraklik va tafovutlarni bilib olish o'quvchi bilim saviyasining oshishiga yordam beradi.

O'quvchilar tili o'rganilayotgan mamlakat(lar) madaniyati, san'ati, tarixi, adabiyoti, urf-odatlarini, an'analardan voqif bo'lishadi. Xalq madaniyati xazinasi sifatida tilning *kumulativ vazifasidan* bahramand bo'lishadi.

O'rganilayotgan chet tilning kommunikativ vazifasini

egallashda o'quvchilar mazkur til ko'zgasida o'z ona tili (va ikkinchi til)ni „tomosha“ qilish baxtiga muyassar bo'ladilar.

Til o'rganishning ilk bosqichida leksik, grammatik va talaffuz birliklarini og'zaki nutq jarayonida o'zlashtirishga ko'proq e'tibor beriladi. Yuqori bosqichda chet tildagi grafik va audiomatndan axborot yig'ish o'quvchilarda hayotiy yangiliklarni bilish ishtiyoqini kuchaytiradi.

Xullas, maktab o'quvchisi chet tilni umumta'limiy maqsadda o'rganar ekan, u ikki xil mazmundagi ta'limiy ma'lumot olishga erishadi. Birinchi turdagi axborot o'rganilayotgan chet til (leksik, grammatik va talaffuz) materialini izohlab beruvchi qoidalar, tushunchalar va tilning o'ziga xos hodisalari to'g'risidagi ma'lumotlardan tashkil topadi. Til haqida o'zlashtiriladigan oddiy bilim chuqur nazariy sistemadan butunlay farq qiladi. Chet til o'qitishni nazariylashtirishga yo'l qo'yilmasligi kerak. Sodda nazariya nutq ko'nikmalarini shakllantirish uchungina yetarli bo'lishi metodik qonuniyat hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda e'tirof etilgan va muallimlar tan olgan „chet tilda nutqni o'rgatamiz“ (chet til haqidagi bilimlar yig'indisini emas), degan metodik shiorni esdan chiqarmaslik kerak.

Chet tildan ko'ra ona tili va ikkinchi til o'qitilishida ularga oid umumta'limiy axborotlar kengroq hajmda o'zlashtiriladi. Zero, birinchi va ikkinchi navbatda o'rganiladigan tillarni o'qitish tabiiy sharoitda o'tadi va ularga ajratilgan o'quv rejasidagi dars soatlari miqdori ancha ko'p. Shunga muvofiq umumta'lim ahamiyatiga molik nazariy, lingvistik ma'lumotlar ona tili va ikkinchi tilda bemalol o'rganila beradi. Tillarni o'qitishda tilshunoslikka doir bilimlar nisbatini quyidagi hayotiy lavha bilan qiyoslab o'tish o'rinlidir. Shahar qancha katta bo'lsa, transport haydovchilar ko'cha harakati qoidalarini shunchalik mukammalroq bilishi talab etiladi. Mas. Nyu-York, Tokio, Seul, Moskva, London kabi shaharlarda aholi soni haddan tashqari ko'p va zich, ko'chalardagi avtomobil va piyodalar miqdori ham shunga yarasha. Demak, transport boshqaruvchi hamda piyodalar nihoyat ko'p sonli ko'cha harakati haqidagi va boshqa axborotni xotirada saqlashi zarur. Yoki Toshkent, Kobul, Tbilisi shaharlarida yuqoridagilarga nisbatan kamroq bilimga ega haydovchi transportni boshqara oladi. Qishloq yoki kichik shaharlarda transport boshqaruvchi yanada ozroq axborot sohibi bo'lishi mumkin.

Tilni „boshqarish“ qoidalarida ham mazkur misolga monandlik seziladi, ya'ni ona tilida nazariy bilim maksimal miqdorda, o'rtacha muhitda — ikkinchi tilda tilshunoslik asoslari qisqartirilib, chet tilda — chegaralangan sharoitda minimal hajmda sodda nazariya, ya'ni oddiy o'quv qoidalarini bilish tavsiya qilinadi.

Chet tilga oid ta'limiy material hajmi torligiga qaramay, yaratilgan sharoitga yarasha ish yuritiladi.

Ta'limiy maqsadda chet til o'rganishning o'quvchi mantiqiy tafakkurini baholi qudrat rivojlantirishga va xotirasini yaxshilashga hamda ularning bilim saviyasi va umumiy madaniyatini ko'tarishga nafi tegadi. Chet til o'rganish tufayli o'quvchilar til hodisalarini nutqdagi real faktlar sifatida o'zlashtiradilar. Chet tilni nutq muloqoti darajasida o'rgana borib, o'quvchi til vositalari (ifoda plani) zaminida uning mazmun planini fahmlab oladilar. Demak, umumta'lim obyekti uchta: til hodisasi, tushuncha va qoidalar va nutq (matn) mazmuni. Ularning muayyan hajmi va o'lchovlari bor.

Nutq faoliyati yuritish, natijada axborot almashish, chet til o'quv predmetini o'qitish oldida turadigan ko'p qirrali yagona maqsaddir. Lekin nutqda qo'llanadigan materialning o'zi ko'nikmaga aylanuvchi bilim, undan hosil bo'ladigan mavhumot shaklidagi bilim esa sodda-sodda qoidalar (mavhumotlar) tizmasidir.

Bir so'z bilan, qoidalar, til birliklari va matnlar mazmunini bilish chet tilda umumta'lim olish hisoblanadi.

Umumta'lim chet tilni amaliy bilish chog'ida ro'yobga chiqadi. Amaliy bilish tarbiya berish uchun ham asosiy yo'l sanaladi.

Chet til o'qitishning tarbiyaviy maqsadi. Ta'lim va tarbiya hamjihatligi qadim zamonlardan kishilarga ma'lum. Ta'lim o'choqlari, so'zsiz, tarbiyaga ham e'tiborni qaratadi, tarbiyalash yoki tarbiyalanish tushunchasini ta'limsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inglizcha yagona *education* so'zining ma'nosi ta'lim va tarbiyani o'z ichiga olishi ramziy misoldir. O'quvchilarni tarbiyalash borasida maktab o'quv predmetlarining o'z o'rinlari bor. Chet til o'qitishda to'rt maqsaddan biri tarbiya berishdir. Chet til muallimlari va metodist-olimlari bu masalaga hamisha birdek katta e'tibor berib keladilar. „Иностранные языки в школе“ („Maktabda chet tillar“) jurnalida chet tilning tarbiyaviy ahamiyatini yorituvchi materiallar ko'plab chop etilgan. Ayniqsa, ko'zga ko'ringan metodist prof. Inessa

Lvovna Bim yozgan ushbu sohadagi maqolalar (1976, № 4, 1984, № 3 kabilar) diqqatga sazovordir. Har bir metodika qo'llanmasida chet tilning tarbiyaviy tomoni alohida yoritiladi.

Metodika fanida chet til o'qitishning tarbiyaviy maqsadi qisqacha shunday ta'riflanadi: o'quvchilarga g'oyaviy-siyosiy tarbiya berish, ularda aqliy mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, o'quvchilarning bilish faolligini oshirish. Tarbiyaviy maqsad asosan ikki yo'l bilan ro'yobga chiqariladi. Birinchisi, o'quvchilarning bevosita chet til o'rganish jarayonida tarbiyalanishi kuzatiladi. Mas. chet til darslari boshlangan sentabr oyining dastlabki kunlarida o'quvchilarning aksariyati o'rganilayotgan tilni tinglab tushunishadi va o'zlari gapirishga zo'r ishtiyoq bilan kirishadilar. Ilk darslardayoq chet tilcha salomlashish, xayrlashish, tevarak-atrofdagi predmet va hodisalar nomlarini bilish, she'r va ashula aytish, o'yinlar bajarish, tili o'rganilayotgan xalq va mamlakatga oid ma'lumotlarni olish kabilarga juda qiziqishadi. Yangi o'quv predmetini o'rganishga faol safarbarlik ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Shularning o'zi ham o'quvchilarning bilim marralarini egallashga qiziqishlari va aqliy mehnatga intilishlaridan dalolat beradi.

Chet til o'qitishda tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishning ikkinchi metodik usuli ushbu til materialida tarbiyaviy jihatlardan foydalanish hisoblanadi. Mas. o'zaro chet tilda og'zaki muloqot chog'ida suhbatdoshiga hurmat bilan qarash, odob doirasiga kiradigan so'z va iboralarni qo'llash (rahmat, marhamat qiling kabilar), birgalashib she'rlar, dialoglar aytish, o'zi va sheriklari xatti-harakatini odob bilan chet tilda sharhlay olish singari yumushlar o'quvchini madaniyat sari yetaklaydi.

Chet til audiomatni va grafik matnidan olinadigan yangilik — ma'lumotlar tarbiyalashning tengi yo'q metodik vositalaridanidir. Matnlar mazmuni dastur nutq mavzulariga mos kelishi hamda o'quvchilar ma'naviy ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo'lishi talab etiladi.

Chet til o'qitishning dastlabki yillarida mikromatnlar asosida yangi axborot yetkazilsa, yuqori bosqichda badiiy, siyosiy, madaniy-sport mavzulariga oid adabiyotlardan parchalar o'qishga beriladi va ulardan olinadigan ma'lumotlar o'quvchi tarbiyasiga bevosita daxldor va foydali bo'ladi.

G'oyaviy-siyosiy tarbiya beradigan darslik va o'qish kitobidagi parchalar (matnlar) bir talay. Buyuk mutafakkirlar, ma-

daniyat arboblari, olimlar, fazogirlar, mehnat qahramonlari haqidagi matnlar mazmuni o'quvchilarni tarbiyalashda ijobiy natijalar bermoqda. Taqvimlarda ajratib ko'rsatilgan sanalarga oid grafik va audiomatnlarning ham tarbiyaviy ta'siri kattadir. Ingliz, nemis va fransuz tilida chiqarilgan respublika metodistlarining kitobidan¹ foydalanish ham tavsiya etiladi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garak ishlarida, chet til kabinetida uyushtiriladigan o'quv tadbirlari jarayonida ham tarbiyaviy maqsad amalga oshirib boriladi.

Chet ellik mehmonlar, mamlakatimiz o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan xorijiy talabalar, elchixon vakillari bilan o'tkaziladigan do'stona uchrashuvlar, internatsional (baynalmilal) do'stlik klubi (IDK)da olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarning ahamiyati cheksiz.

Tarbiya turlariga oid xilma-xil ishlar o'tkazilishi chet tilning bu jabhada muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Darslik matnlari tarbiyada birlamchi vosita sanaladi. Mas. o'zbek maktablarining sakkizinchi sinfi uchun 1974 va keyingi yillarda nashr etilgan ingliz tili darsligining oltinchi darsi (paragrafi)da mashhur amerika yozuvchisi O'Henry (O.Henri) qalamiqa mansub *The Last Leaf* hikoya matni o'qishga berilgan. Rassomlikni havas qilgan yosh kambag'al qiz xasta bo'lganida rahm-shafqat namunasini ko'rsatgan qariya (Berman) qizning sog'ayib ketishida o'z hayotini qurbon qilishi sodda va ishonarli badiiy bo'yoqlarda tasvir etilgan. Matnni o'qigan o'spirin yoki qiz insonparvarlikni tushunib yetadi. Ularning qizga rahmi keladi, qariya Berman shaxsiga nisbatan hurmati ortadi. Kishilik jamiyati uchun g'oyat muhim va manfaatli rahm-shafqatdek umuminsoniy qadriyatni jisman his etish o'quvchida insoniylikni tarbiyalashga yo'l ochadi.

Qisqasi, chet til o'qitish jarayonida o'quvchilar tarbiyasiga munosib e'tibor beriladi.

Chet til o'qitishning rivojlantiruvchi maqsadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, rivojlantiruvchi maqsad chet til o'qitish metodikasida yangi qabul qilingan ilmiy kategoriyadir. Binobarin, ushbu maqsad haqida yetarli metodik ma'lumotlarni topish mushkul. Metodik qo'llanmalar orasida G.V.Rogova va

¹ A. P. Uporova, Y. N. Podgurskaya, S. S. Mirsagatova. Chet tillarni o'qitishda kalendar va unutilmas sanalardan foydalanish. — Toshkent: O'qituvchi, 1987.

I. N. Vereshchagina hammualliflikda yozgan kitobda rivojlantiruvchi maqsadga oid qisqacha ma'lumot keltirilgan.

Ta'limning to'rtinchi maqsadi sifatida paydo bo'lgan „rivojlantiruvchi“ metodik termini davrga hamnafasdir. Mazkur maqsadning nomi ta'limshunoslikda mashhur bo'lgan „rivojlantiruvchi metod“ tushunchasi zaminida taqlid yo'li bilan vujudga keldi. Til o'qitishda bunday nom bilan ataladigan metod yo'q, biroq chet til o'qitishning rivojlantiruvchi maqsadi nomi bilan bu termin ilmiy-metodik muomalaga kiritildi.

„Rivojlantiruvchi maqsad“ tushunchasi o'quvchi shaxsining aqliy, hissiy va motivatsion (ichki turtki) tarafmi rivojlantirishni ifodalay boshladi. Demak, chet til o'qitishda o'quvchilarning aqliy saviyasini quyidan yuqoriga ko'tarish, aqliy jihatdan ravnaq toptirish, mazmunan yuksaltirish, ijobiy ma'noda aqlan yanada ulg'ayishini ta'minlash ushbu maqsadning ro'yobga chiqishida ko'zlanadigan birinchi vazifadir. Ikkinchidan, chet til o'rganishda rivojlantiruvchi maqsad o'quvchilarning his-tuyg'ularini kamol toptirish, tashqi ta'sirni sezgilar va analizatorlar yordamida idrok etib tushunishni ravnaq toptirishni nazarda tutadi. Uchinchidan, rivojlantiruvchi maqsadning o'quvchilar oldiga qo'yadigan vazifalari qatoriga yana faoliyat ko'rsatish yo'lida ichki turtki (ruhshunoslik termini bilan aytganda, motivatsiya)ni avj oldirish, faol ishga tushirish kabilar ham kiradi. Xullas, rivojlantirish aql, hissiyot, motivatsiyani yuqori pog'onalarga ko'tarish ma'nosida qabul qilindi.

Chet tilni amaliy egallashda ta'lim berish, tarbiyalash va, oqibat natijada, shaxsning atroflicha kamolotga erishishiga ko'maklashishdek muqaddas va murakkab pedagogik choratadbirlar amalga oshiriladi.

Ruhshunoslar va ta'limshunoslar e'tirof etishlaricha, o'quvchilarga ta'lim jarayonida yetarli miqdorda qiyinchiliklarni yengib borish o'rgatilsagina, ularning tafakkurini tezkorlik bilan rivojlantira olish mumkin. Shaxsning kamoloti faqat tafakkur rivoji bilan emas, balki uning his-tuyg'ulari ravnaqi bilan ham bog'liqdir.

Chet til metodikasi ilmida o'quvchining ichki kechinmalari (emotsiyasi) va ichki turtkisi (motivatsiyasi)ni ro'yobga chiqarish muhim ekanligi nazariy asoslab berilgan. Oqibatda chet til o'rganish motivatsiyasi oshadi, o'quv jarayoni to'laqonli mazmun kasb etadi. Shularning barchasi chet til dasturida rivojlantiruvchi maqsadning o'rin egallashiga sabab bo'ldi.

O'quv dasturining uqtirish xatida, chet til o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlari tilni amaliy egallash chog'ida uyg'unlashgan holda yuzaga chiqadi, deb bejiz ta'kidlanmagan.

O'quvchilarning o'quv faoliyatida ko'nikma va malakalarining hosil bo'lish darajasiga ko'ra shaxsning ijtimoiy faolligi aniqlanadi. Ta'limshunoslik ilmida o'quv ko'nikma va malakalarining to'rtta toifasi tasnif etiladi. Ular tashkiliy, aqliy, axborot va muloqot o'quv ko'nikma va malakalari deb atalishi mumkin.

Chet til ta'limida tashkiliy o'quv ko'nikma va malakalari o'quv-metodik vositalar asosida hosil qilinadi. Bu jarayon maktab tajribasi isbotidan o'tgan quyidagi usullarni taqozo etadi: chet til o'rgatishda muallim bilan o'quvchi, muallim bilan sinf (guruh), o'quvchi bilan sinf (guruh), o'quvchi bilan o'quvchi birga ishlashi tavsiya etiladi. O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda lingafon yordamida mashg'ulot o'tkazish, ularning ovozlari yozish va eshitish, uyda o'qish va uy vazifalarini (asosan yozma shaklda) bajarish ko'nikma va malakalarini hosil qilish alohida ahamiyatga molikdir. O'quvchilar olgan ko'nikma va malakalarini o'zlari tekshirib ko'rishlari, nutqdagi kamchilik va xatolarini o'zlari to'g'rilab borishlari, o'z nutqlarini o'zlari eshitib kuzatishlari mumkin. Bu ishda nazorat metodikasining sinalgan usuli testlardan foydalanish oqibatida kutilgan natijalarga erishiladi. Hozirgi maktab tajribasiga kompyuterlarning kirib kelishi o'z-o'zini nazorat qilishda barakali samaralar bera boshladi. Bularning hammasi o'quv jarayonida tashkiliy ko'nikma va malaka hosil qilishga mo'ljallangan tadbirlardir.

Aqliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin. Nutq faoliyatini egallashda til birliklarining mavhumot tomonlari (qoidalar) o'quvchilar tafakkuri mahsuli sifatida o'zlashtiriladi. Mas. o'rganilayotgan nutq namunasi ishtirokida sodda nazariy tushuncha va ta'riflar vujudga keltiriladi. Til hodisasi moddiylikdan mohiyat (g'oyaviylik) sari siljish, burilish yasaydi. Til hodisalarini bir-biridan farqlash, umumlashtirish, ajratish, qo'shish, sistemalashtirish kabi aqliy amallar bajariladi. O'qilish qoidalarini o'rgatishga mo'ljallangan so'zlar ustunlari yoki qatorlarini o'quvchilar o'qiganlarida so'zlardan qoidaga qarab ularning aqliy harakati ta'minlanadi. Konkretlikdan abstraksiyaga o'tish o'rganiladi. Leksikada ot, sifat, ravish va boshqa til birliklarining

yasalishi, antonimiya va sinonimiya, polisemiylarning o'rganilishi aqliy takomilga qadam qo'yishdir. Grammatik hodisalarni o'zlashtirish (mas. ot ko'plik shakli yasalishi, fe'l shakllari, modal fe'lning qo'llanilishi), ular haqida mavhumotlarni o'zlashtirish o'quvchi shaxsining rivojiga samarali ta'sir etadi.

Nutq faoliyati jarayonida, mas. o'qigan yoki tinglagan matndan axborot olishga, ya'ni mazmuni tushunishga yo'llovchi savollarga javob berish, olingan axborotga o'z munosabatlarini bildirish va h.k. aqliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptiradi.


Axborot ko'nikma va malakalarini shakllantirish aksariyat holda o'qib ma'lumot olish davrida yuz beradi. Darslik va o'qish kitoblari, yuqori bosqichda qo'shimcha tarzda vaqtli matbuot materiallarini o'qish bolalarga yangi va qiziqarli axborot olish manbayi sanaladi. Axborot olishdan tashqari o'quvchilar matnoldi savollariga javob izlash, lug'atdan foydalanish, sahifa quyi hoshiyasidagi tilga oid izohlarni o'rganib borish, grammatik ma'lumotnomadan foydalanish kabi qiziqarli mashg'ulotlar bilan band bo'lishadi. Mazkur o'quv amallari o'quv-axborot ko'nikma va malakasini egallashga ko'maklashadi.

O'quv ko'nikma va malakalarining to'rtinchi toifasi muloqotga oiddir. Nutq faoliyati turlari (gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuv) bilan mashg'ul bo'lish, psixolingvistika ta'biri bilan aytganda, kommunikatsiya (muloqot) demakdir. Chet tilda gapirganda, o'quvchi og'zaki fikr bayon etishning ajoyib usullaridan foydalanadi. Mas. chet tilda isbotlash, ishontirish, ma'qullash yoki ma'qullamaslik, yoqlash yoki qarshi fikr aytish singari ko'plab o'quv ko'nikma va malakalari shular jumlasidandir.

Yuqorida ta'rif-tavsif etilgan tashkiliy, aqliy, axborot va muloqot o'quv ko'nikma va malakalarini shakllantirish yo'li bilan o'quvchilarni faollashtirishga erishiladi. Rivojlantiruvchi maqsad nutqiy harakatlar tufayligina yuzaga chiqadi. Uning ta'limiy maqsaddan jiddiy farqi shundaki, o'quv ma'lumotlari olish bilan ta'lim fikran bog'lanadi, ma'lumotning mazmuni va uni olish jarayoni esa ko'nikma va malakalarni rivojlantiruvchi maqsad doirasiga kiradi. *Ta'lim rivojlanishning tarkibiy qismi* sanaladi.

Chet til o'rgatishning amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari uzviy bog'langan tizim hosil qiladi.

O'quvchilar oldiga qo'yiladigan chet til o'qitish maqsadlarini chizma tarzida quyidagicha tasavvur etish mumkin.¹



O'quv-metodik topshiriqlar

1. Chet til o'qitish maqsadlarining nomlarini ayting. Ularning o'zaro bog'liqligini aniqlang.
2. Gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuvning maqsad va vosita ekanini tushuntiring.
3. Til hodisalari va ularga oid mavhumotning hamda matn mazmunining o'qitish maqsadlari bilan munosabatini sharhlab bering.

IV BOB. CHET TIL O'QITISH MAZMUNI

1-§. Ta'lim mazmunining nazariy masalalari

Chet til o'qitish metodikasining fan sifatida o'z nazariyasi, amaliyoti va tarixi bor. Chet til o'qitish mazmunining ham ta'lim mazmuni tarkibiga kiruvchi ilmiy kategoriyasi, o'z

¹ Г. В. Рогова, И. Н. Верещагина. Методика обучения английскому языку на начальном этапе в средней школе: Пособие для учителя. — М.: Просвещение, 1988. — 37-бет.

nazariy va amaliy tomonlari, tarixiy manbalari bo'lib, tadqiqotchilar e'tiborini jalb qilib kelmoqda.

Ta'lim mazmunini o'rganish shuni ko'rsatadiki, chet til o'qitish mazmunining nazariy tomonlari metodist olimlar tarafidan¹ faol tekshirilib kelinsa-da, mazkur metodik tushuncha turlicha talqin etilmoqda.

O'quv jarayonida nimani o'rgatish masalasining mohiyatiga oid mutaxassislarning turli, ko'pincha bir-biriga qarama-qarshi fikrlari izohlab kelinmoqda. Bu borada ikki muammo mavjud: birinchisi — nima o'rgatiladi, savoliga javob berishda, aksariyat olimlar ta'lim mazmuni o'rgatiladi, degan aslida to'g'ri, ammo umumiy javobni qaytaradilar. „Nimani — ta'lim mazmunini“ muammosining hal etilishi dolzarbligicha qolmoqda.

Chet til o'qitish mazmunining tarkibiy qismlarini tadqiq etish muhim nazariy izlanishlar sirasiga kiradi. O'qitish mazmuni qanday qismlardan tashkil topishi o'qitish maqsadlariga uzviy bog'liq holda hal etiladi. Maqsad odatda mazmunni belgilaydi, ya'ni mazmun ta'lim chog'ida o'zlashtiriladigan o'quv-metodik hodisa bo'lsa, uning mahsuli erishiladigan maqsad sari olib boradi. Chet til o'qitishning amaliy maqsadi (nutq faoliyati turlarini egallash)da muayyan til materialini qo'llash hamda til birliklari nutq ko'nikma va malakalarining shakllanishida ishtirok etishida aniq chegaralar qo'yish kabi metodik jumboqlar yechiladi.

Demak, nutq faoliyati doirasi aniqlanadi. Ushbu doira metodikada nutq mavzulari nomini olgan. Nutq mavzulari, nutq malakalari va til materialini chet til o'qitish mazmunini shakllantirishda teng huquqli tarkibiy qismlar bo'la oladi. Metodika fanida „chet til o'qitish mazmuni“ murakkab termi-

¹ *Г. В. Рогова. Содержание обучения иностранному языку. // Иностранные языки в школе, 1974, № 3; Д. Д. Джалалов. К характеристике опыта учащихся и содержания обучения иностранному языку. // Вопросы оптимизации преподавания русского языка, литературы и иностранных языков в школах Узбекистана: Сб. трудов УзНИИПН. — Ташкент, 1980; Ш. И. Шатиришвили. Основы содержания обучения иностранным языкам в национальной школе. — Тбилиси: Изд-во Тбилисского ун-та, 1981; Содержание обучения иностранным языкам в средней школе. Организация речевой деятельности. — М.: Педагогика, 1984; Б. А. Лангдус. Проблемы содержания обучения языку в языковом вузе. — М.: Высшая школа, 1986; Д. Д. Джалалов. Проблемы содержания обучения иностранному языку. — Ташкент: Фан, 1987.*

nini tadqiqotchilar turli hajmdagi tushunchalar bilan fikran bog'lab keldilar. „O'qitish mazmuni“ doirasiga, yuqorida nomlari keltirilgan tarkibiy qismlardan tashqari, yana bir qancha tushunchalarni qo'shib yuborishmoqda. Mas. matnlar, mashqlar, ona tiliga yot chet til tushunchalarini ham ayrim mualliflar asarlarida (q. Umumiy metodika ...) uchratish mumkin. Ba'zi metodistlar til va nutq materialini alohida qismlar shaklida (mas. G. V. Rogova) tavsiya etishadi. Metodistlar orasida ko'pchilik bilim, malaka va ko'nikma kabi ta'limshunoslikdagi kategoriyalarni ham chet til o'qitish mazmuniga kiritib kelishdi.

Metodika manfaatiga zid va ilmiy jihatdan nomaqbul hisoblanuvchi shunga o'xshash bir tomonlama yondashishlarning muxtasar tanqidiy tahlili talab qilinadi. Quyida shularga to'xtab o'tiladi. Matnni o'qitish mazmuniga kiritmaslikni osonlikcha isbotlash mumkin. Nutq mavzulari deganda, ularning mazmuni, ya'ni mavzudan kelib chiqadigan axborot hisobga olinadi. Mavzu axborotni taxminan chamalaydi, lekin o'z ichiga olmaydi, u axborot uchun umumiy ko'rsatkich bo'ladi. Mavzu yuzasidan og'zaki va yozma matnlar hosil qilinadi. Matnda axborot beriladi yoki olinadi. Demak, axborot matn mazmunidir, matn esa mavzuning namoyon etilishidir. Xulosa qilib aytganda, ta'lim mazmuniga „Mavzular“ kiritiladi, matn va undan ko'zlanadigan axborot hosilalardir. Mavzu — sababiyat, matn — oqibat, o'z navbatida, matn — sababiyat, axborot esa oqibatdir. Xulosa shuki, mavzu chet til o'qitish mazmuniga muhim tarkibiy qism sifatida kiritiladi.

Chet til o'qitish jarayonida mashqlar bajarish orqali amaliy maqsadga erishiladi. „Mashq“ termini ikki ma'noda qo'llanilyapti: birinchisi — nutq faoliyati turlarini egallash jarayonidagi metodik amallar bo'lsa, ikkinchisi — o'qitish mazmunini darslik va boshqa o'quv qo'llanmalarida metodik tashkil etilgan holatdagi o'quv birligidir. Mashqlar yig'indisi sistemalashtiriladi. Binobarin, mashq amaliy maqsadda bajariladigan o'quv materiallari va vazifasidir. Mashq materiallari o'qitish mazmunidan olinadi. O'qitish mazmuni mashqning asosi, manbayi, obyektidir. Mashq biror mavzuda til materialini ishlatib, nutq faoliyati turini egallash yo'lidagi aqliy — nutqiy odimdir, ya'ni o'qitish mazmuni tarkibiy qismlari qatorida emas, balki ularni amaliyotda o'rganish vositasi maqomida turadi.

Ona tilida mavjud bo'lmagan chet tilning tushunchalariga kelganda, shuni aytish lozimki, bu tushunchalar yaxlit holda

uchramaydi. Soyada jon bo‘lmaganidek, til tushunchalari ham o‘zi mustaqil birlik emas, ular til hodisasidan sun‘iy, ya‘ni xayolan yaratilgan mavhumotlardir, boshqacha qilib aytganda, leksik, grammatik, talaffuz birligining tafakkurdagi timsolidir. Mas. inglizcha grammatik birlik *speaks* eshitish, aytish, o‘qish (ko‘rish) va yozish mumkin bo‘lgan, sezgilar yordamida idrok etish yoki qo‘llanish predmeti hisoblanadigan tilning moddiy hodisasidir. Undan fikran hosil qilingan „fe‘lning hozirgi zamon uchinchi shaxs birligidagi shakli“ deyiladigan mavhumot — qoida moddiy emas, balki fikrlash „mahsuli“, xolos, uni yodda saqlash mumkin. Qisqasi, *speaks* — tabiiy, u haqdagi qoida esa — sun‘iy birlik. Birinchisi jism (shartli aytganda), ikkinchisi uning soyasi (ramziy ma‘noda). Xulosa — chet til tushunchalari (ona tilidagi tushunchalarga o‘xshaydimi yoki farq qiladimi, undan qat‘i nazar) mustaqil holda o‘qitish mazmuni tarkibiga kiritilmaydi. Til birligi va qoida birgalikda yagona til hodisasini tashkil etadi.

Navbatdagi munozara „til va nutq birliklari“ termini doirasida o‘tkaziladi. Har ikkalasi ham nutqdagi til hodisasini anglatadi. O‘quvchilar til birligi yoki nutq birligi hodisalarini ikkita alohida o‘quv materialini qilib o‘rganmaydilar. Tilshunoslar til birligi bilan ish ko‘radilar. Uning tadqiqotchisi shu tilda nutqni egallamagan bo‘lishi ham mumkin. Nutq faoliyati ijrochisi esa til birligini nazariy o‘rganmagan bo‘lishi ham mumkin. Demak, o‘quvchi nazariyotchi emas, u — amaliyot sohibi, chet tildagi nutqni talab doirasida o‘rganadi. Til birliklarini bilim sifatida emas, balki ko‘nikma va malaka bilan omuxta tarzda egallaydi. O‘qitish mazmuniga „til materialini“ nomli qism kiritilishi nazariy va amaliy jihatdan oqlanadi.

Munozarali metodik tushunchalardan yana biri — bu „bilim, malaka, ko‘nikma“ terminlari tizmasidir. Ta‘limshunoslikda turg‘un va asosli ushbu tushunchalar chet til o‘qitish mazmuniga tasodifan kirib kelgan. Sababi, aksariyat o‘quv predmetlarida (fan asoslari o‘rganiladiganlarida) uchala tushunchani qabul qilish ma‘qul topilgan. Chet til faoliyat o‘rgatuvchi o‘quv predmeti bo‘lganidan, bilimni o‘qitish mazmunida qism deb tan olish g‘ayriilmiy hisoblanadi. Nutq ko‘nikmasi tarkibida bilim singdirilgan bo‘ladi. Shuning uchun darsda chet tilda bilimlar atayin bayon etilmaydi, o‘quvchilarga ular haqida ma‘ruzalar o‘qilmaydi, bilimni ataylab tekshirish mashg‘ulotlari o‘tkazilmaydi, uning o‘zlashtirilishi ko‘nikma

(va malaka)da nazorat etib boriladi. Ko'nikma va malakaning chet til o'qitish mazmuniga kiritilishini esa barcha nufuzli metodistlar ma'qullaydi. Ko'nikma malaka uchun o'ziga xos pog'ona bo'lganidan, yakuniy malaka hisobga olinadi.

Bayon etilgan ilmiy-metodik fikr-mulohazalarni hisob-kitob qilib, shuni ta'kidlash joizki, *chet til o'qitish mazmuni tarkibi* „nutq mavzulari“, „nutq malakalari“ va „til materiallari“dan iborat. Demak, o'qitish mazmuni uch (**mavzu, malaka, material**) tarkibli metodik tushunchadir.

Uch tarkibli o'qitish mazmunini metodist olim o'z ijodiy faoliyatida yaratadi, muallim o'quv sharoitida uni o'quvchilarga amaliy faoliyatda o'rgatadi, o'quvchilar esa muallim rahbarligida darslik yordamida o'zlashtiradilar.


Chet til o'qitish mazmuni tushunchasini mana bunday ta'riflash mumkin: muayyan mavzular doirasida chet til birliklarini qo'llab, nutq malakalarining shakllanishini ta'minlashga mo'ljallangan metodik hodisa. O'qitish mazmunining qismlari keyingi paragraflarda mufassal ko'rib chiqiladi.

O'qitish mazmuni umumiy va xususiy bo'lishi mumkin. Mamlakatimiz o'rta maktablari uchun mavzular, malakalar va til materiallari minimumi ilmiy-metodik mezonlarga binoan tanlanadi. Ajratilgan soatlarga qarab, u yoki bu respublika maktablari uchun mavzu, malaka va til materiallari miqdoran o'zgartiriladi, buni metodika tilida kompressiya (ixchamlashtirish) deyiladi. Chet til o'qitish sharoitiga ko'ra bajariladigan bunday metodik tadbir tashkiliy kompressiya deyilishi ma'qul. Metodik manbalarda (Jalolov J., 1987) *kvantitativ* kompressiya (miqdoriy tanlash) nomi berilgan, bu tushuncha quyidagicha ta'riflanishi mumkin: chet til ta'limi maqsadiga ko'ra o'qitish mazmunini tanlash tadbirlari va natijasi. Undan tashqari, o'quvchilarning til tajribasiga ko'ra umumiy minimumning oson va qiyinlari ajratib olinadi. O'quv materiallari taqsimoti jarayoni ham hisobga olinadi. Yanada kichraytirilgan (*kvalitativ* yoki sifat) kompressiyasi nomini olgan bunday metodik chorani — mazkur maktab o'quvchilari uchun alohida e'tibor va kuch talab qiladigan o'quv materialini qayta tanlash (ajratib olish) jarayoni va mahsuli deb qaraladi. Til materiallari ichida leksikani, grammatikani, talaffuzni alohida-alohida o'rgatish mazmuni ajratiladi.

Til birliklari tanlangandan so'ng ularning tasniflash (tipologiya), taqsimlash va taqdim etish bosqichlaridan o'tishi til materialini o'rgatish mazmuniga olib keladi.

Demak, chet til o'qitish mazmuni tushunchasi (nutq mavzulari, nutq malakalari va til materiali)ning har biri, o'z navbatida, kvalitatif (sifat) kompressiyasidan o'tishi, shundan keyingina o'quvchilar o'rganishi uchun taqdim qilinishi kabilarni anglatadi.

Quyidagi sxemada chet til o'qitish mazmuniga kiradigan qismlar va kichik qismlar tasvirlangan (o'qitish mazmuni ta'lim maqsadlariga bo'ysunishi va o'qitish metod (va prinsip)lari orqali o'quv jarayonida o'rganilishi ko'rsatiladi).



O'quv-metodik topshiriqlar

1. Chet til o'qitish mazmuni terminini qanday tushunchalar ifodalashini bilib oling.

2. Metodik tushunchalardan matn, mashq, ona tilida yo'q chet til tushunchalari o'qitish mazmuniga alohida qism bo'lib kira olmasligini isbotlab bering.

3. Chet til o'qitish mazmunining tarkibiy qismlari nimalardan shakllanishi va ular, o'z navbatida, qanday kichik qismlardan tashkil topishini aniqlang.

2-§. Chet til o'qitish mazmunining tarkibiy qismlari

Nazariy mulohazalarga ko'ra (1-§ da) chet til o'qitish mazmuni nimalardan iboratligi ravshanlashdi. Ta'lim jarayonida o'rganiladigan/o'rgatiladigan o'quv materiali uch tarkibli (mavzular, malakalar, material) bo'lishi faqat ilmiy-metodik tahlil uchungina zarur. O'quv jarayonida esa uchala qism yaxlit o'zlashtirish manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim mazmuni, jumladan, chet til o'qitish mazmuni, obyektiv voqealikdagi tabiiy va ijtimoiy sohalarda to'plangan tajribalar „okeani“dan tomchilar o'quvchilarga singdiriladi. Astronomik masshtabdagi tajriba „uchquni“ — chet til o'qitish mazmuni o'quvchilar tasavvurida g'oyat ulkan dasturiy o'quv materialidir. Boshqacha qilib aytganda, tanlangan o'qitish mazmuni o'quvchilar ko'zi bilan — maksimum (eng ko'p hajmda) o'rganish, o'qituvchi nazarida esa — minimum (eng kichik hajmda) o'rgatish materialidir.

Chet til o'qitish mazmunini o'quvchilar o'zlashtirishlari xususiyatlarini e'tiborda tutib tanlanadi, taqsimlanadi, tasniflanadi va o'rganish uchun taqdim etiladi. Tanlash, tasnif, taqsimot va taqdimot bosqichlari muayyan metodik mezonlar yordamida amalga oshiriladi.

Til materiali tayyorlash va o'zlashtirish bosqichlaridan o'tadi. Tayyorlash bosqichining tanlash davrida o'quvchilar ona tili va ikkinchi tildagi tajribalari hisobga olinmaydi. Tasnif, taqsim va taqdim esa o'quvchilar til tajribasidan kelib chiqadi.

Ushbu paragrafda chet til o'qitish mazmuni tarkibiy qismlari — nutq mavzulari, nutq malakalari va til materiallari to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

Nutq mavzulari. Chet til o'qitish maqsadlaridan kelib chiqib, nutq mavzulari tanlanadi. Mavzular ekstralingvistik (tildan tashqari) ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, metodikada hozirgacha, dadil aytish mumkinki, mukammal tadqiq etilganicha yo'q. Bunga birinchi va asosiy sabab — fanda mavzular yig'indisi jamlanmaganligidadir. Bu ajablanarli hol emas, chunki mavjud gnoseologik ta'limotdan ma'lumki, mutlaq haqiqat bo'lishi mumkin emas. (Vaholanki, ushbu e'tirofning o'zi — mutlaq haqiqat yo'q, deyilishi — mutlaq emas, ya'ni o'z-o'ziga zid fikrga o'xshab ketadi. Bir nuqtayi nazardan mutlaq haqiqat hisoblanadigan ma'lumot boshqalar tomonidan bemalol inkor etilishi mumkin. Inkorni inkor etish qonuni falsafa kursida o'rganilgan. Mas. „Nuriddin Akrom o'g'li

Muhiddinov 1917- yilda tugʻilgan“ degan fikr hijriy yil hisobida inkor qilinishi muqarrar va maqbul.)

Nutq mavzularining metodikada mukammal ishlanmaganligi maʼlum. Shunga qaramay, chet til dasturlarida davr talabiga maʼlum maʼnoda javob bera oladigan „Mavzular“ tizimi tavsiya etilgan.

Oʻrta maktabda chet til oʻrganish chegaralangan tematik minimum (va shuningdek, situativ minimum) bilan taʼminlanadi. Maktab dasturiga mavzular kiritilishida „oʻquvchi va uning tevarak-atrofi“ metodika mezoniga suyanib ish koʻriladi. Soddaroq qilib aytganda, oʻquvchi, avvalan, oʻzi haqida, oʻziga yaqin kimsalar va narsalar haqida chet tilda (oʻrtoqlari, muallim, oila aʼzolari va sinfi, maktabi, uyiga oid) fikr bayon etishi, soniyani, uzoqroq atrof masofa haqida (qishlogʻi yoki shahriga oid) fikr yurita olishi va, nihoyat, oʻz vatani va tili oʻrganilayotgan mamlakat haqida axborot bera va ola bilishi talab qilinadi. Ushbu mavzularning metodik tasnifi uchta yirik nomni tashkil etadi: „Oʻquvchi tevarak-atrofi“, „Vatanimiz“, „Tili oʻrganilayotgan mamlakat(lar)“.

Mazkur uch mavzuning chet tilda nutq uchun tanlanishi quyidagi ilmiy-metodik mezonlarga asoslanadi.

Birinchidan, oʻquvchi chet tilni ilk bor oʻrgana boshlashi davrida hech qanday til birliklarini bilmaydi. *Mezon*: til notanish, mavzu tanish.

Ikkinchidan, ogʻzaki nutq mavzularida chet tilda faoliyat oʻrgatiladi, chunki tinglab tushunish va gapirish boshqa nutq faoliyati turlariga asos boʻladi, ogʻzaki nutq yetakchi faoliyat vazifasini oʻtaydi. *Mezon*: ogʻzaki nutq mavzulari birinchi oʻrinda turadi.

Uchinchidan, mavzular nutq faoliyati turlaridan gapirish (va tinglab tushunish) va oʻqish (va tinglab tushunish) uchun ajratiladi. *Mezon*: ogʻzaki nutq mavzulari oʻqish va yozuv uchun asos boʻladi, oʻqish mavzulari (yuqori sinflarda) faqat tinglab tushunish uchungina tatbiq etiladi (oʻqish mavzulari boʻyicha gapirish va yozish shart emas).

Toʻrtinchidan, nutq faoliyati turlaridan tinglab tushunish va yozuvning oʻz mavzusi yoʻq. *Mezon*: gapirish va oʻqish mavzulari tinglab tushunishga toʻliq daxldor, gapirish mavzulari chet til oʻqitish kursida yozuv uchun tegishli hisoblanadi.

Beshinchidan, oʻqish mavzusidagi leksik birliklar (taxminan shu sinf (sinflar) minimumining teng yarmi) gapirishda

qo'llanadi, yozuvda qo'llanishi shart emas. *Mezon*: o'qilgan matnning mazmunini tushunganlik darajasi og'zaki nutq mavzulari asosida tekshirib ko'riladi.

Oltinchidan, og'zaki nutq mavzulari bilan yonma-yon nutq vaziyatlari ham beriladi. Nutq vaziyatlari, mavzular bilan bir qatorda, dialog nutq (juftnutq) uchun taalluqli, monolog (yakkanutq) esa gapirish va yozuvga tegishli. *Mezon*: nutq mavzulari qatorida nutq vaziyatlari ham tanlanishi kerak.

Yettinchidan, nutq mavzulari va nutq vaziyatlarini tanlash jarayonida olinadigan axborotlar taxminan hisobda bo'lishi kerak. Mas. „o'zing haqingda gapirib ber“, deyilganda, mavzu chegarasi belgilab qo'yilishi kerak, ya'ni „sen o'quvchisan, o'z haqingda inglizcha/ishpancha/nemischa/fransuzcha gapirib ber“ deyilsa, „men o'quvchiman, beshinchi sinfdaman, yoshim 11 da“ kabi axborotlar yakkanutqda bayon etiladi. Mabodo juftnutq talab etilsa, o'qituvchi tomonidan yoki darslik mashqidan nutq vaziyati ma'lum qilinishi kerak: „Biringiz o'qituvchi, qani o'quvchilar bilan suhbatlashing-chi“, qabilida ish tutiladi. Demak, mavzu umumiy nutq yo'nalishi bilan bog'liq, aniq axborotni kichik mavzu („sen o'quvchisan“ kabi) yoki nutq vaziyati yordamidagina oldindan belgilab qo'yilishi mumkin. *Mezon*: mavzu va vaziyat nutq axborotini oldindan belgilovchi tayanch hisoblanadi.

Sakkizinchidan, o'quv dasturida og'zaki nutq mavzulari va kichik mavzular to'la, nutq vaziyatlari esa ayrim namunalarda keltiriladi. O'qish mavzulari esa janrlar yoki matn turlari nomlari bilan ko'rsatiladi, xolos. Mas. siyosiy, ilmiy, madaniy, sport va h.k. mavzularida matnlar o'qilishi kerakligi ta'kidlanadi.

Yozma matnni darslik muallifi yoki o'qish kitobi tuzuvchisi chet tildagi manbalardan tanlaydi, moslashtiradi (adaptatsiya qiladi). Shuning uchun adabiy janrni ko'rsatish kifoya. Og'zaki matnni o'quvchi yaratadi, binobarin, mavzu va vaziyat uning nutqidan oldin tavsiya etiladi. *Mezon*: mavzular (gapirish va o'qish mavzulari) nutq faoliyati turlariga qarab belgilanadi.

To'qqizinchidan, nutq mavzulari birinchi o'rinda berilishiga, asosan, ikki sabab mavjud: bir tomondan, chet tilda olinadigan axborot „binosi“ — mavzulardir, boshqa tomondan qaralganda, til materialini tanlash ham ko'p jihatdan mavzular bilan bog'liq bo'ladi. *Mezon*: chet tildagi axborot

mavzularning ichki tomonini tashkil etadi, binobarin, mavzu va axborot bir masalaning ikki tomonidir.

Ta'lim qayerda, qachon va qanday tarzda berilishidan qat'i nazar, avvalo, axborot singdirish demakdir. Ta'limshunoslik ma'lumotlariga binoan, o'qitish — muayyan hajmdagi axborot berish demakdir.

Axborot haqidagi ta'limotni chuqur tahlilga kirishmagan holda, falsafada aytiladigan „Axborot — in'ikos jarayonining bir ko'rinishidir“ degan ta'rif-tavsifni keltirish yetarlidir.

O'quvchilar olishi va yetkazishi mumkin bo'lgan axborotlarni ham metodik tasniflash imkoni mavjud. Chet tilda beriladigan axborot o'quvchilar qiziqishiga mos, umumta'lim va tarbiyaviy yo'nalishda, mavzular doirasi va til materiali asosida hamda ularning umumiy saviyasini ko'tarishga qaratilgan bo'lishi talab qilinadi.

Xullas, mavzu — tashqi ko'rsatkich, axborot esa — ichki tomon sifatida chet til o'qitishning mazmunida yagona tarkibiy qismni tashkil etadi.

Mavzularga tegishli xususiy metodik mezonlardan tashqari chet til o'qitish mazmunini tanlashning umumiy mezon (prinsip, kriteriy)lari ham fanda ishlab chiqilgan. Ulardan nazariya va amaliyotda keng qo'llanib kelinayotganlari uchta.¹

Chet til o'qitish mazmunini tanlashning *birinchi* umumiy mezoni o'quv dasturida e'tirof etilgan „maqsadlarni amalga oshirish uchun yetarlilik“ nomi bilan yuritiladi. Mezonning ma'nosi shundan iboratki, tanlab olingan mazmun nutq malakalarini hosil qilish uchun xizmat qiladi. Mavzu va til materiali shakllanmish malakani ta'minlovchi omillardir.

O'qitish mazmunini tanlashda „mazmunni o'zlashtirish uchun o'qitish sharoiti, imkoniyatlari mavjudligi“ *ikkinchi* mezondir. Sharoit (sinfda o'quvchilar soni, darslarning haftalik miqdori) o'quvchilarga o'qitish mazmunini egallash imkonini yaratishga ko'maklashadi.

Uchinchi mezon sifatida chet til o'qitish mazmunini tan-

¹ Теоретические основы методики обучения иностранным языкам в средней школе. / Под ред. А. Д. Климентенко, А. А. Мирюловой — М.: Педагогика, 1981. — 89 — 90-бетлар. (Ayrim qo'llanmalarda umumiy mezon (prinsip) ikkita ko'rsatilgan: Гез Н. И., Ляховицкий М. В., Мирюлов А. А. и др. Методика обучения иностранным языкам в средней школе: Учебник. — М.: Высшая школа, 1982. — 55-бет)

lashdagi „o‘zlashtirishning retseptiv va reproduktiv xususiyatlarini hisobga olish“ qabul qilingan.

Psixolingvistikadagi nutqning sodir bo‘lishi va uni idrok etish haqidagi nazariy mulohazalarga ko‘ra aktiv va passiv til materiali ajratiladi, mavzularda ham ularni farqlab o‘rganiladi.

Nutq malakalari. Chet til o‘qitish mazmunining ushbu qismi o‘quv dasturlarida turli nomlar bilan bayon etiladi. „Malakalarga qo‘yiladigan talablar“, „Nutq malakalariga bo‘lgan talablar“ va „Chet tilda nutq faoliyati turlarini egallash ko‘rsatkichlari“ kabi iboralar ko‘pchilikka ma‘lum. Yakuniy (o‘rta maktabni tugatish davrini hisobga olib) yoki oraliq (har bir sinf uchun alohida) ko‘rsatkichlar ishlab chiqilgan. Odatda dasturning uqtirish xati (kirish qismi)da yakuniy va oraliq ko‘rsatkichlar beriladi. Oraliq ko‘rsatkichlarida oldingi sinf(lar) hisobga olinadi.

Chet tilda nutq faoliyati turlarini egallash ko‘rsatkichlari gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuvni nazarda tutadi. Mas. „Maktab o‘quvchisi nutq mavzulari doirasida o‘zlashtirilgan til materiali asosida chet tildagi nutqni tinglab tushunishni o‘rganishi kerak“. Ko‘rinib turibdiki, tinglab tushunishni egallash ko‘rsatkichi umuman olingan. Agar beshinchi sinf o‘quvchisi dastur materialida so‘zlangan muallim yoki diktor nutqini hamda darsni olib borish bilan bog‘liq o‘qituvchi ko‘rsatma-buyruqlarini tushuna olishlari kerak deyilsa, oraliq (V sinf uchun) ko‘rsatkichga duch kelinadi.

Og‘zaki nutqning ikki ko‘rinishi — yakkanutq va juftnutq bilan bog‘liq alohida ko‘rsatkichlar o‘quv dasturida o‘z aksini topadi. O‘qishda ham shu holatni kuzatamiz. Yozuv esa faqat gapirish ta‘lim maqsadi bo‘lgan sinflardagina ko‘rsatkichli bo‘ladi. Yuqori sinflarda yozma mashqlar quyi sinflar og‘zaki nutq mavzulari doirasida bajariladi.

Nutqni egallash ko‘rsatkichlari har sinfda o‘rin olishi dasturdan ma‘lum. Binobarin, dastur nutq ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma‘lumotnoma hisoblanadi.

Malaka terminining chet til o‘qitish metodikasida sharhlashida turli nuqtayi nazardan yondashishadi. Mas. ta‘limshunoslikda bu tushunchalar „birlamchi malaka“, „ko‘nikma“ va „malaka“ tarzida talqin etiladi. Chet til metodikasida konikma va malaka o‘ziga xos tatbiq etilgan.

Quyida ko‘nikma va malakalarning mufassalroq tahlili beriladi. Ruhshunoslikka oid keng tarqalgan ta‘riflardan biri,

ko'nikmani „ongli avtomatlashgan harakat“¹ sifatida baholaydi. Xuddi shu ta'rifni boshqa ibora bilan ta'limshunoslikda uchratish mumkin: ko'nikmaga „u yoki bu harakatda bilimlarni ongli va to'g'ri qo'llash“², degan qarashlar ham bor. Yana boshqa mualliflar ko'nikmani „u yoki bu aqliy harakatni bir xil sharoitda ko'p marta takrorlash natijasida hosil qilinadigan ongli faoliyatdagi avtomatlashgan qism“ shaklida ta'riflaydilar, malakani esa „o'zga sharoitda qo'llanadigan ko'nikmaning harakat usuli“³ deyishadi. Ruhshunoslik va ta'limshunoslikda mavjud nuqtayi nazarlardan birining ta'rificha, malaka insonning olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy faoliyat chog'ida sobitqadamlik bilan va ijodiy qo'llay olish qobiliyatidir.

Ko'nikma va malaka haqidagi ta'limotni chet tillar o'qitishga tatbiq etib, ko'nikmani nutq faoliyatining avtomatlashgan qismi deyishni va nutq faoliyati turlarining leksik, grammatik va talaffuz ko'nikmalari tushunchasini tavsiya etish mumkin. Nutq faoliyatining o'zi malaka deyilishi maqsadga muvofiqdir.

Ulkan ruhshunos olim, prof. Nikolay Ivanovich Jinkin ijodiga mansub nutq mexanizmlari nazariyasiga⁴ asoslanib chet tillar metodikasi yorqin iste'dodlaridan prof. V. S. Setlin nutqning grammatik mexanizmi tushunchasini kashf etdi⁵. Metodist olim ilmiy konsepsiyasiga ko'ra *nutqning grammatik mexanizmlari* uch qismdan iborat: 1) grammatik harakatlarni egallash; 2) tayyor materialni o'zlashtirish va 3) grammatik materialga oid umumlashmalarni o'rganib olish. Uchalasidan ustuvori grammatik harakatlarni o'zlashtirishdir. Grammatik harakat deganda, V. S. Setlin nutq malakalarining ongli avtomatlashgan qismi — ko'nikmalarni nazarda tutadi. Ushbu harakatlar, ruhshunoslar va psixolingvistlar e'tiroficha, aqliy operatsiyalardan tarkib topadi. Harakatni bajarish usuli operatsiyadir. Operatsiyalar yig'indisi harakatni hosil qiladi.

¹ С. Л. Рубинштейн. Основы общей психологии. — М.: Учпедгиз, 1946. — 47-бет.

² Основы дидактики. / Под ред. Б. П. Есипова. — М.: Просвещение, 1967. — 93-бет.

³ Педагогика школы. / Под ред. Г. И. Шукиной. — М.: Просвещение, 1977. — 128-бет.

⁴ Н. И. Жинкин. Механизмы речи. — М.: Изд-во АПН РСФСР, 1958.

⁵ В. С. Цетлин. Основы методики обучения грамматике французского языка в средней школе: Автореф. докт. дисс. — М., 1966.

Til materialini qo'llash natijasida nutq malakalari hosil qilinadi.

Til materiali. O'qitish mazmunining mazkur qismi leksik, grammatik va talaffuz nomli kichik qismlardan iborat. O'quv dasturida leksika va grammatika har bir sinfning materiali sifatida sanab o'tiladi. Grammatika nomma-nom keltiriladi. Hatto aktiv va passiv grammatika ajratib ko'rsatiladi.

Leksika faqat miqdoran aniqlanadi. Qaysi leksik birliklar u yoki bu sinfda o'rganilishi chet til leksik minimumidan olinib, darslikda taqdim etiladi. O'zbek maktablari uchun ingliz, nemis, fransuz tillaridan leksik minimumlar yaratilgan.

Ispan tilidan maktab lug'ati¹ nashr etilgan, xolos. Til materiali talaffuz birliklarini ham o'z ichiga oladi. O'quv dasturining sinflarga ajratilgan bo'limlarida talaffuz materiali taqdim etiladi. Yuqori sinflarda yangi birliklar talaffuzi ko'nikmalarini rivoj toptirish maqsadida mashqlar bajarib turish tavsiya etiladi.

Dasturda til materiali orasida tipovoy va tayyor jumlar ro'yxati beriladi. Ular og'zaki nutq ta'lim maqsadi hisoblanadigan sinflar materiali qatorida keltiriladi.

Yozish va o'qish texnikasi nomi bilan yuritiladigan til texnikasi materiali birinchi (ikkinchi, ayrim tillarda uchinchi) o'quv yilida beriladi.

Og'zaki nutq o'qitish maqsadi bo'lgan sinflarda faqat tinglab tuhunish uchungina mo'ljallangan qator jumlar beriladi.

Leksika va grammatika birliklari fikr bayon etish (aktiv) va o'zga shaxs nutqini idrok etib tushunish (passiv) kabi ikki guruhga bo'linadi.

Leksika o'zlashtirilishiga ko'ra uch toifaga bo'linadi: real, potensial va vokabularga kirmaydigan leksik material. *Real* leksika aktiv yoki passiv o'zlashtiriladigan birliklardan iborat. *Potensial* leksika idrok etish chog'ida ma'nosini o'quvchilar mustaqil fahmlay oladigan yangi birliklardir. *Vokabulardan tashqari* so'zlar esa o'qish yoki tinglab tushunishga oid matnlardagi mazmunni ifodalashda ishtirok etadigan, biroq o'quvchilar nutqiga boshqa safar kiritilmaydigan leksik birliklardir.

Til materiali orasida ko'proq munozarabopi tipovoy jumlarlardir. Uning nomini turli mualliflar „gap“, „model“ „struktura“,

¹ S. A. Rizayev, E. R. Ro'ziqulov. Ispancha-o'zbekcha lug'at. — Toshkent: O'qituvchi, 1977.

„nutq namunasi“ kabi terminlar bilan almashtirib ham ishlatadilar.


Til materiali bahsida bir qator metodik terminlarni farqlashga to‘g‘ri keladi. Chet *til materiali* deganda, ushbu tilda mavjud barcha leksik, grammatik, talaffuz materiali hisobga olinadi. *Til minimumi* deganda esa, til materiali ichidan o‘quv jarayoniga zarur va yetarli miqdorda tanlab olingan qismi (mikrosistema) tushuniladi. Ular leksik, grammatik va talaffuz minimumlari nomini olgan. O‘quvchilar uchun ular til (leksik, grammatik va talaffuz) materialidir. O‘qituvchi uchun yoki til nuqtayi nazaridan ushbu til hodisalari yig‘indisi leksik, grammatik va talaffuz minimumlaridir.

Chet *til birligi* nomli metodik hodisa qator kichik tushunchalardan iborat. Quyida ular sanab o‘tiladi: 1. *Lug‘at birligi* — o‘zak so‘z; yasama so‘z; 2. *Leksik birlik* — o‘zak so‘z; yasama so‘z (uning tarkibidagi so‘z yoki so‘z yasovchi elementlar ajratib o‘rganilmagan taqdirda); so‘z yasovchi element (affiks); turg‘un so‘z birikmasi; gap (og‘zaki nutqning ilgarilashi sharoitida qismlarga bo‘linmay o‘rgatiladigan) — tipovoy jumla; gap — tayyor jumla; 3. *Grammatik birlik* — morfologiya hodisasi; sintaksis hodisasi. 4. *Talaffuz birligi* — fonetik minimumdagi tovush-fonemadan tortib to‘ jumlar intonatsiyasi (ohangi)gacha; 5. *Orfografiya* (imlo) birligi — harf; harf birikmasi; so‘z; so‘z yasash, shakl yasash va gap yasash elementlari; so‘zning o‘zgaruvchan va o‘zgarmaydigan shakllari.

Birgina misol keltirish o‘rinlidir: „O‘qituvchi“ nashriyoti 1975-yilda chop etgan o‘zbek maktablari lug‘at minimumida 1645 ta lug‘at birligi bo‘lib, ulardan 1304 tasi leksik birlik maqomini olgan. O‘quvchilarning ingliz tilidan oladigan tajribasi tufayli 341 ta lug‘at birligi, ona tili va ikkinchi tildagi tajriba munosabati bilan yana 193 ta lug‘at birligi leksik birlik darajasini yo‘qotadi. Shunday qilib, 1645 ta lug‘at birligidan o‘quvchilarning real lug‘at boyligi huquqini olgan 1111 ta leksik birlikni, potensial tarzda 534 ta lug‘at birligini tashkil etadi.

Til materiali kichik qismlari (Leksika, Grammatika va Talaffuz) mazkur darslikning VIII, IX, X boblarida yanada batafsilroq yoritiladi.

Quyida til materialini o‘rgatishga metodik tayyorlash yo‘llari chizmada ko‘rsatilgan:



O'quv-metodik topshiriqlar

1. Chet til o'qitish mazmunining tarkibiy qismlarini bayon qiling.

2. Metodik terminlar „mavzu“, „vaziyat“, „malaka“, „ko'nikma“, „til materiali“ va „til minimumi“ni ifodalaydigan tushunchalar talqinini bayon eting.

3. Qaysi nutq faoliyati turlari bo'yicha mavzu va vaziyat berilishi maqsadga muvofiqligini muhokama qiling.

3- §. Til materialini o'rgatish mazmuni

Chet til o'qitish metodikasida keng tarqalmagan, biroq uch til o'qitiladigan maktablar uchun dolzarb masala bo'lmish „Til materialini o'rgatish mazmuni“ o'zbek maktablari uchun yuksak ahamiyat kasb etadi, respublika metodistlari tomonidan muayyan darajada tadqiq etilgan.

Til materiali tushunchasi ikki xil talqin etilmoqda: 1) muayyan tildagi leksik, grammatik, fonetik va boshqa birliklar majmuyi; 2) o'quv maqsadlarida tanlab olingan, metodikada til minimumi nomi bilan atalgan, biroq o'quvchilar uchun „chet tilning materiali“ hisoblanadigan birliklar yig'indisi. Ushbu kitobda ikkinchi ma'nodagi metodik tushuncha haqida gap boradi.

Metodika tushunchalaridan uchtasini bir-biridan keskin farqlash kerak: „*chet til o'qitish mazmuni*“, uning tarkibidan „*chet til materialli*“ va undan ajratib olinadigan qiyin hodisalar majmuyi, „*til materialini o'rgatish mazmuni*“, ya'ni umuman tilni emas, balki „til materialini xususan o'rgatish mazmuni“ haqida fikr yuritiladi. Demak, leksik minimumdan leksikani o'rgatish mazmuni, grammatik va talaffuz minimumlaridan ularni o'rgatish mazmunini ajratib olish, o'rganishda maxsus mashqlar bajarish, binobarin, tegishli vaqt va kuch sarflanishi shart bo'lgan til hodisalarini tanlash masalasi turadi.

O'qitish mazmuni tarkibiy qismlari barcha umumta'lim maktablar uchun, ona tili (yoki til tajribasi)dan qat'i nazar, bir xildir. Grammatika yoki talaffuz minimumi, mavzular yoki nutq malakalari kabilar umumiydir.

Umumta'lim maktabining tashkiliy sharoitlari o'xshash bo'lsa, o'quvchilarning ona tilisi qaysi til bo'lishidan qat'i nazar, o'qitish mazmuni ham o'xshashdir. Tashkiliy sharoitga (soat miqdoriga) qarab, farq leksik minimum hajmida bo'ladi. Grammatika va talaffuz minimumlari tashkiliy muhitga bog'liq emas, chunki til minimumini tanlashda o'quv yurtining turi, o'qitish maqsadlari va ajratilgan soatlar hisobga olinadi. Til minimumini o'rgatishga tayyorlash (tasniflash, taqsim va taqdim bosqichlari)da va o'quvchilarga uni o'rgatish chog'ida ularning til tajribasi, albatta, nazarga olinadi. Demak, tanlash chet tilning ichki xususiyatiga, tayyorlash va o'rgatish o'quvchilar til tajribasiga bevosita bog'liq.

O'quvchi til tajribasiga suyanib, til minimumidan til materialini o'rgatish mazmuni ajratib olinadi. (Leksika minimumi bu qoidadan istisno. Leksika minimumi til o'rgatish soatlari miqdoriga binoan, turli maktablarda bir xil bo'lib, kichik yoki katta hajmda tanlanishi mumkin.)

Til materialining sifat jihatdan kamaytirilishi, minimizatsiyasi (kvalitativ kompressiya) „chet til materialini o'rgatish mazmuni“ yaratilishiga sabab bo'ladi.

Leksikani o'rgatish mazmuni. Leksikaning aktiv va passiv o'rgatiladigan ikki toifasi ma'lum. O'quvchi o'z fikrini chet tilda bayon etayotganida va o'zgarlar nutqida qo'llanganda tushuniladigan lug'at *aktiv* deyiladi. *Passiv* so'zi esa idrok etib tushunishga mo'ljallangan lug'atni ifodalaydi. Aktivi reproduktiv, passivi retseptiv lug'atdir. Ikkalasi ham maxsus mashqlarda o'zlashtiriladi. Har ikkalasi ham o'quvchining *real* (ongida mavjud) lug'atini tashkil etadi.

O'quvchi hali o'rganmagan, unga notanish lug'atga duch keladiki, ona tili yoki ikkinchi tilning formal-semantik tomoniga mushtarakligi tufayli, uni bilib olishning ichki imkoni bor leksik birliklar *potensial* lug'at deyiladi. Potensial lug'atni og'zaki (audiomatnda) yoki yozma (grafik matnda) taqdim etilishi orqaligina bilib olish mumkin. O'quvchi matnni idrok etganda, so'z ma'nosini mustaqil fahmlab yetsa, ushbu so'z potensial lug'at sanaladi. Ichki imkoniyatli so'zlar lug'atiga quyidagilar kiradi: baynalmilal so'zlar (*tennis* — tennis; *business* — biznes; *club* — klub); konversiya (turli so'z turkumlariga mansub, ammo shakli bir xil so'zlar: *work* — ishlamoq; ish; *about* — yaqinida; haqida); tanish so'zlardan tuzilgan qo'shma so'zlar (*book+shop, pen+friend*); so'z yasovchi elementlari tanish so'zlar (*work, write, sing* — *worker, writer, singer*). Ichki imkoniyatlar lug'atining yana boshqa qatlamini ma'nosi kontekstdan fahmlanadigan so'zlar tashkil qiladi.

O'rganilgan (real) va potensial lug'at o'quvchilarning *vokabular* leksikasi deyiladi. Ulardan tashqari novokabular lug'at bo'ladi. Matn mazmunida bir marta qo'llanib, boshqa mashqlarda ataylab mustahkamlanmaydigan ayrim so'zlar *novokabular* lug'at deyiladi.

Vokabular leksika nutqda uch guruh birliklarga ajratib o'rganiladi: oson, nisbatan qiyin va eng qiyin so'zlar. Birinchisiga potensial lug'at kiradi, ular nisbatan oson o'zlashtiriladi. O'quvchi to'plagan til tajribasi ularni o'rganishda qo'l keladi. Potensial lug'at quyidagi kichik toifalarga bo'linadi: 1) shakli va ma'nosi chet tilda, ona tili va ikkinchi tilda mushtarak so'zlar (*club* — klub; *tennis* — tennis); 2) shakli va ma'nosi ikkinchi til va chet tilda o'xshash so'zlar (*literature* — литература; *culture* — культура, *history* — история); 3) chet til konversiyasi usulidagi so'zlar (*work* — ishlamoq; ish; *far* — uzoq; uzoqda; *on* — ustida; -da); 4) qismlari oldin o'rganilgan o'quvchiga tanish qo'shma so'zlar (*bookshop, schoolboy, homework*); 5) o'zak va affiks qismlari tanish yasama so'zlar (*work+er; difficult+y; celebrate* — *celebration*); 6) to'liq shakli tanish qisqartma so'zlar *UK* — *the United Kingdom*; *RUz* — *the Republic of Uzbekistan*; *the USA* — *the United States of America*.

Ikkinchi toifaga ona tili va ikkinchi til tajribalariga suyanmay o'rganiladigan funksiya (qo'llanilishi), semantika (ma'nosi) jihatidan leksik xatolarga sabab bo'lmaydigan so'zlar kiradi. (mas. kitob — *book*; yozmoq — *write*; choy — *tea*).

Ushbu soʻzlarning maʼno doirasi (ayrim maʼnosigina emas) ikkala tilda monand keladi. Oʻrganishga koʻmaklashadigan tomoni maʼno doirasidagi umumiylik. Biroq bu leksik qatlam nisbatan qiyin hisoblanadi.

Eng qiyin leksik qatlam semantik, funksional va formal qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan toifadir. Uchala til boʻyicha tajriba mutanosibliги jihatidan eng qiyin leksika quyidagicha tasniflanadi: koʻp maʼnoli soʻzlar; tarkibiy qismlari oldin oʻrganilmagan yasama soʻzlar; „soxta“ oʻxshash soʻzlar (*magazine* — jurnal; *champion (champions) of peace* — tinchlik tarafdorlari); funksional (yordamchi) soʻzlar — predlog, artikl, koʻmakchi/yordamchi feʼllar va h.k.

Nisbatan qiyin va eng qiyin leksik birliklar leksikani oʻrgatish mazmunini tashkil etadi. Leksikani oʻrgatish mazmuni deganda, qiyinligi tufayli maxsus mashqlar talab etadigan va izohlash yoʻli bilan oʻrgatiladigan, leksik minimumning muayyan bir qisminigina tashkil etadigan soʻzlar tushuniladi. Qiyinchilik soʻzning shaklida, maʼnosida yoki qoʻllanishida kuzatiladi. Binobarin, soʻz funksional, semantik, formal jihatdan qiyin yoki ulardan biri yoinki ikkitasi, hatto uchala tarafi ham qiyin boʻlishi mumkin.

Leksik material shaklan hamda maʼno jihatidan umumlashtirilishi mumkin. Mas. notoʻgʻri (nostandart) feʼllarning oʻtgan zamon va oʻtgan zamon sifatdoshi shakllari til oʻrganishning ilk davrida yakka-yakka leksik birliklar tarzida oʻrganiladi, keyinchalik ularning miqdori osha borgach, shakllar mushtarakligi oydinlashadi: *spoke* — *wrote*; *grown* — *known* — *thrown*. Umumlashma (sodda qoida) oʻzlashtirilgandan keyin, oʻrganiladigan feʼlning oʻxshash shakllari oʻta qiyinchilik tugʻdirmaydi, chet tilda hosil boʻlgan tajriba koʻmagida ularni mustaqil tanlash sharoiti vujudga keladi. Qissadan hissa shuki, oʻqitish mazmuniga kirgan feʼl shakli haqidagi umumlashma navbatdagi yangi shaklan oʻxshash feʼl hodisalarini potensial til birligi sifatida oʻrganishga zamin yaratadi. Retseptiv egallashda ular potensial hodisa, chunki ularni faqat tanib olish mumkin, biroq reproduksiyada oʻrganish uchun mustaqil qoʻllash koʻnikmasini maxsus shakllantirish talab etiladi. Maktabda chet til leksikasini oʻrgatish tajribasi koʻrsatishicha, koʻp maʼnoli soʻzlarni taqdimot chogʻida umumlashtirib berish ayrim maʼnolarni ajratib oʻrgatish ishidan oʻqituvchini xalos etadi. „Koʻp maʼnoli soʻzlarni umumlashtirib oʻrgatish usuli“ni

yetuk o'zbek chet til metodist olimi marhum Hoshimjon Soynazarov ilmiy kashf etgan¹. Ushbu ilmiy g'oyaga binoan fe'l shakllarini o'rganishda ikki va undan ortiq misol keltirilgandan so'ng yangi o'rganilayotgan mushtarak shakllar oldingilari asosidagi mavhumotga tayanib, mustaqil (potensial tarzda) o'rganiladi. Retseptiv leksikani o'rgatish mazmunida til birligi mavqeyini birinchi so'z egallaydi. Reproduktiv nutqda esa nostandart fe'lning har bir zamon shakli alohida til birligi darajasida qo'llanadi.

Ko'p ma'noli so'zni taqdim etishda ham umumlashtirib o'rgatish tavsiya etiladi. H. Soynazarovning ilmiy qarashlaricha, ko'p ma'noli so'zning barcha ma'nolari alohida leksik birlik bo'lib, har bir yetakchi ma'no esa leksikani o'rgatish mazmuniga kiritiladi. Leksik birlikda „so'z-ma'no“ olinadi, leksikani o'rgatish mazmunida „ma'noning invarianti“ (so'zning mavhumlashgan ma'nosi) beriladi. Ko'p ma'noli inglizcha so'z: „to go“ bunga yaqqol misol bo'la oladi. Uning „bormoq“, „ketmoq“, „yurmoq“, „ishlamoq“ kabi bir necha o'nlab ma'nosi ma'lum. Ma'nolarning birinchi uchtasi yagona tushuncha atrofiga umumlashtirilishi mumkin, to'rtinchi ma'no esa bu doiraga kirmaydi. Birinchi ma'nolar (bormoq, ketmoq, yurmoq) leksikani o'rgatish mazmunida bitta birlik, leksik birlik darajasida esa uchta hisoblanadi. Leksik birliklar va leksikani o'rgatish mazmuni birliklari teng emas (bir xil emas), degan ilmiy xulosa H. Soynazarovga mansubdir.

Grammatikani o'rgatish mazmuni. Til materialini o'rgatish mazmuni tarkibidagi grammatikani o'rgatish mazmuni tushunchasiga maxsus qoidalar va tegishli mashqlar bilan o'rgatiladigan grammatik hodisalarning bir qismi kiradi. Har bir grammatik hodisaning bir, ikki yoki uch (funksiya, semantika, forma) tomoni grammatikani o'rgatish mazmunidan joy olishi mumkin.

Chet til grammatik birliklari qiyinchilik tug'dirishi jihatidan uch toifaga bo'linadi: 1) sinfdan sinfga o'tgan sari ular bo'yicha xatolar miqdori oshib boradigan eng murakkab grammatik hodisalar; 2) turli sinflarda xatolar miqdori har xil bo'lgan o'rtacha qiyin grammatik hodisalar; 3) nutqni egallash chog'ida xatolar uchramaydigan yoki xato miqdori kamayib boradigan grammatik hodisalar.

¹ X. Сайназаров. Обучение лексике английского языка в старших классах узбекской школы: Канд. дисс. — Л., 1982.

Maktab tajribasidan ma'lumki, ayrim hodisalar til tajribasining ijobiy ko'chishi munosabati bilan qiyinchiliksiz o'rganiladi. Mas. otning ko'plikda qo'llanilishi, qaratqich kelishigining funksiyasi, predloglar ma'nosi va boshqalar. Muallimning eslatmasi (soddagina umumlashma qoida) ko'magida xatosi tez bartaraf etiladigan boshqa grammatik hodisalar ham mavjud. Biroq grammatik xatolar orasida shundaylari kuza-tiladiki, ular turg'un („yashovchan“) bo'ladi va sinfdan sinfga „ko'chib yuradi“. Ularni batafsil tushuntirish talab etiladi.

Grammatik hodisalarni ko'nikmaga aylantirish chog'ida quyidagi guruhlar ajralib chiqadi: 1) leksik usulda o'rgatiladigan grammatik hodisalar; 2) leksika-grammatika darajasida o'rganiladiganlari; 3) grammatika-leksika tarzida beriladiganlari; 4) sof grammatik hodisalar.

Grammatik minimumdagi o'quvchilar ona tiliga nomaqbul hodisa „artikl“ni o'rgatish o'ta murakkabligini muallimlar yaxshi bilishadi. Noaniq artikl (mas. inglizcha) o'quvchilar reproduktiv nutqida uch ma'noda qo'llanadi: 1) noma'lum narsa (kimsa)ni ifodalashda; 2) sohadagi istalgan biror predmet (hodisa)ni ifodalashda; 3) shaxs/predmet kim/nima ekanligini ifodalashda. Shaklan o'rganishda artikl quyidagi qiyinchilikni keltirib chiqaradi; „a“ shakli mazmun va shakl birligi hosil qilib, ajratilmasdan o'zlashtiriladi. Ikkinchi shakli „an“ qaysi bir funksiyada qo'llanmasin, uni o'rganish qiyin kechadi. Qisqasi, chet til artikli o'quvchilar uchun to'rtta (bitta formal va uchta funksional) birlik bo'lib, ular grammatikani o'rgatish mazmuniga kiradi. Binobarin, mazkur artiklni o'rgatishda kamida to'rtta grammatik mashq bajaritirish shart.

Eng qiyin grammatik hodisalarni o'rgatish, albatta, ongli mashq bajarish va qoidalar berishni taqozo etadi (bu to'rtinchi guruh birliklariga taalluqli yengilroq grammatik birlikni o'zlashtirishda esa qoidasiz mashq bajariladi).

Grammatikani o'rgatish mazmuni o'quv dasturida tavsiya etiladi.

Chet til grammatikasini o'rgatish mazmuni uchta metodik mezonga ko'ra — ona tili va ikkinchi tildan to'plangan o'quvchi grammatik tajribasini hisobga olib, chet tilning o'zidan yig'iladigan tajribaga asoslanib va grammatik hodisalar taqdimoti tartibini nazarga olib tanlanadi. Ushbu ilmiy mezonlar o'zbek maktablarida chet til grammatikasini o'rgatish masalalarini

mukammal tadqiq etgan metodist olim T. Q. Sattorov qalamiga mansub. Uchinchi mezon biroz izoh talab qiladi. Avval inglizcha hozirgi (umumiy) zamonning birinchi va ikkinchi shaxslardagi shakli o'rganiladi (chunki nutq mavzulari mazmuni „o'zim haqimda“, „sen haqingda“ va keyinchalik „u haqda“ chet tilda og'zaki fikr yuritishni taqozo etadi). So-niyan, uchinchi shaxs birlik shakli mashq qilinadi. Ushbu fe'l shakli g'oyat qiyinchilik bilan o'zlashtiriladi: oldin o'rganilgan (*speak, read, go*) shakli (*speaks, reads, goes*) bilan muqobil assotsiatsiyaga kiradi. Salbiy ta'sir oqibatida ikkala shakl chalkashtiriladi. O'quvchida oldingi shakllar ko'nikmasi o'r-nashib qoladi. Natijada o'quvchi uchinchi shaxs qo'shimchasini tushirib qoldirib xatoga yo'l qo'yadi. Uchinchi shaxs birlik shakli grammatikani o'rgatish mazmuniga kiritiladi. Maktab sharoitida o'tkazilgan eksperiment chog'ida hozirgi umumiy zamon fe'lining uchinchi shaxs shakli birinchi navbatda o'rga-tib ko'rildi. So'ngra boshqa shakl berildi. Natijada o'quvchilar uchinchi shaxs shakli (*speaks, reads, goes*)ni birinchi va ikkinchi shaxslarga ham tatbiq eta boshlashdi. Oldin hosil bo'lgan ko'nikma yangisidan ustun turishi — bu yerda ham o'z oqibatini ko'rsatdi. Keltirilgan misolda grammatikaning taqdimoti tartibi hal qiluvchi vazifani o'tashi yaqqol o'z isbotini topdi.

Talaffuzni o'rgatish mazmuni. O'rganilayotgan chet til talaffuzidagi barcha fonetik material ikki turkumga bo'linadi — maktabda o'rganish majburiy bo'lgan talaffuz birliklari va maktab sharoitida o'rganish shart bo'lmagan talaffuz hodisa-lari. „Majburiy“ talaffuz minimumi, o'z navbatida, yana ikkiga bo'linadi, birinchi guruhda talaffuzini mashq qilish shart hi-soblanadigan birliklar, ikkinchisi — maxsus mashqlar talab qilmaydigan talaffuz birliklari. Birinchi guruh birliklari talaf-fuzni o'rgatish mazmunini tashkil etadi. Mas. inglizcha (ne-mischa) [tʃ] tovushi rus, tojik va o'zbek o'quvchilari uchun qiyin emas, chunki bu tovush ona tili talaffuz normasida, demak, o'quvchi lisoniy tajribasida mavjud hodisa. Qozoq o'quvchilari uchun juda qiyin birlik, chunki ularning ona tili talaffuziga u yot hodisadir. Yoki [dʒ] fonetik birligi o'zbek, tojik o'quvchilariga oson, ruslarga nihoyatda murakkab. Hatto ingliz tilidagi g'oyat qiyin tish oralig'i (interdental) tovushlari turkman, boshqird, arab o'quvchilari uchun qiyinchilik tug'dirmaydigan fonetik hodisadir.

Misollardan ko‘rinib turibdiki, chet til talaffuz minimumi barcha maktablar uchun yagona, biroq o‘quvchilar til tajribasiga asoslanib, turli maktablar uchun talaffuz o‘rgatish mazmuni alohida-alohida shakllantiriladi.

Chet til talaffuzini o‘rgatish mazmuni, odatda, o‘quvchilar ongida aloqaga kiradigan tillar fonetik sistemalarini qiyoslash, o‘quvchilar xatolarini o‘rganish, qiyinchiliklar tipologiyasini yaratish natijasida aniqlanadi.


Chet til metodikasi ilmida talaffuz qiyinchiliklarining turlari quyidagicha tasniflashtirilgan: 1. Tovushning alohida talaffuzida ro‘y beradigan *artikulatsion* qiyinchilik. 2. Agar ikki tovush (yoki tovush birikmasi bir-biri bilan muqobil assotsiatsiya qo‘zg‘asa, chalkashtirilsa (mas. cho‘ziq va qisqa, jarangli va jarangsiz), unday holda *oppozitsion* qiyinchilik yuz beradi. 3. Tovushlar so‘z boshida (anlaut), o‘rtasida (inlaut) va oxirida (auslaut) yoki bir-biriga yondosh kelganda muayyan talaffuz murakkabligi — *pozitsion* qiyinchiliklar haqida gap boradi. Mas. o‘zbek o‘quvchilariga so‘z oxiri va boshidagi qator (ikki va undan ortiq yonma-yon) undoshlar g‘oyat qiyin hisoblanadi. 4. Tovushlarni tinglab idrok etish chog‘ida ularni farqlash bo‘yicha qiyinchiliklar sodir bo‘ladi, ular *akustik* qiyinchiliklar nomini olgan (Jalolov 1972).

Jadvaldan (73-betda) ravshanki, chet til fonetik sistemasidan tanlangan talaffuz minimumining qiyinchiliklar „g‘alviri“dan o‘tkazilishi talaffuz o‘rgatish mazmunining vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

Ma‘no o‘zgartiruvchi fonetik hodisalarga katta ahamiyat beriladi. Mas. cho‘ziq — qisqa unli, jarangli — jarangsiz undosh, bir tovushning ko‘p ma‘no ifodalashi kabilar. Ingilizcha [ə] tovushi — *are, a, her, or, of*; [z] — *is, has, does* (*where’s = Where is, Where has, Where does*).

Nutqda tez-tez qo‘llanadigan birliklar o‘zgaruvchanlikka moyil bo‘ladi. O‘zbekcha „Muhammad“ so‘zi, mas. quyidagi shakllarda qo‘llanadigan bo‘lib qolgan: Mamat (= Mamatqul — Muhammad+qul); Mamad (= Mamadali — Muhammad+ali); Mama (= Mamajon — Muhammad+jon); Mat (= Matkarim — Muhammad+karim); Nurmat (Nur+Muhammad); Mad (= Madrahim — Muhammad+rahim); Ma (= Marayim — Muhammad+rahim). Qiyoslang: Muhammad — Mamad — Mamat — Mama — Mad — Mat — Ma.

Asosiy o‘zak (arabcha „hmd“) yo‘qolib, faqat „Ma“ old



qo'shimchasi qolgan. (Ushbu arabiy o'zakdan Ahmad, Mahmud, Muhammad, Hamid va boshqalar yasalishi o'z vaqtida N. G. Chernishevskiy e'tiborini tortgan.)

Misollardan inglizcha funksional so'zlar va o'zbekcha atoqli ismlarning jonli nutqda o'zgarishga yuz tutishi va bu hol har ikkala yozuvda ham aks etganligi ko'rinib turibdi. Ularning talaffuzida birmuncha qiyinchiliklarga duch kelinadi.

Chet til talaffuzini o'rgatish mazmuni ham grammatikada bo'lganiday, o'quv dasturlarida taqdim etiladi.

Talaffuz o'rgatish mazmunining taqsimoti esa leksika va grammatikaning o'rganilishi tartibiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Tajriba ko'rsatishicha, talaffuz birliklari birinchi o'quv yilida to'liq o'rganilishi majburiy emas, chunki leksik-grammatik birliklar uning taqsimlanishini belgilaydi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Til materiali, til minimumi va til o'qitish mazmuni terminlarini tushunib oling.

2. Til materialini o'rgatish mazmuni tushunchasining tarkibiy qismlarini izohlab bering.

3. Chet til o'qitish mazmuni va til materialini o'rgatish mazmuni nimalardan iboratligini tahlil qiling.

4. Real, potensial va novokabular leksika terminlarining farqini aniqlang.

V BOB. CHET TIL O'QITISH METODLARI VA PRINSIPLARI

„Metod“ va „prinsip“ tushunchalariga doir. Ta'limshunoslik o'qitishning umumiy nazariyasi sifatida ushbu terminlar keng qo'llanadigan fandır. Didaktlar (ta'limshunoslar) „metod“ terminini bilim, malaka, ko'nikmani egallash, o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo'lidagi muallim va talabning ish usuli ma'nosida izohlaydilar. Mazkur ta'limiy tushunchaning sonsiz-sanoqsiz ta'rif-tavsiflarga egaligi mutaxassislarga ma'lum. Fan asoslarini o'rgatadigan o'quv predmetlari uchun mo'ljallangan ta'limning umumiy metodlari ishlab chiqilgan. O'quv predmetining xususiyatlari hisobga olinib, metodikada chet til o'qitish metodlari yaratilgan.

Ta'limni tadqiq etadigan fanlar (ta'limshunoslik va xususiy metodika)da „prinsip“ termini ham o'ziga xos tushunchalarni ifodalaydi. Prof. Y. I. Passov ta'biricha, „prinsip — o'qitish jarayoni atalmish binoning poydevoridir“. Tabiatda prinsiplar yo'qligi, faqat qonunlar borligi haqida bilish nazariyasida ma'lumotlar keltiriladi. Prinsip „asos bo'ladigan yo'l-yo'riq, qonun-qoida“ ma'nosida ishlatiladi. Ta'limshunoslikda xilma-xil prinsiplar tizmasi bayon etiladi. Chet til o'qitish metodistlari ta'limshunoslar tadqiqotlaridan samarali foydalanishadi, biroq ularning borligini o'zgarishsiz, befarq holda tan olaverishmaydi, ya'ni o'quv predmetini hisobga olib, ularni tatbiq etishadi. Chet til o'qitish metodikasida turli mualliflar tomonidan bir necha o'nlab prinsiplar olg'a surilgan.

Chet tillar o'qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan, prinsiplar esa nisbatan yangiroq metodik terminlardandir. Chunki ilgari prinsiplar sof didaktik tushuncha, deb kelingan. Ta'limshunoslik prinsiplari til metodikasida

ishlatiladi, ammo o'qitish maqsadlari, mazmuni va shart-sharoitlari bevosita nazarga olinadi. Barcha o'quv predmetlarida ham didaktik prinsiplardan foydalanishadi. Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy birinchi marta XVII asrda kashf etgan prinsiplar hozirgi kungacha dolzarbligini saqlab kelmoqda, to'g'ri, ularning ta'rif va talqinida qator o'zgarishlar yuz berdi.

Chet til o'qitish metodikasida „metod“ termini asosan uch ma'noni bildiradi: *birinchidan*, metodika tarixidagi butun bir yo'nalish (tarjima metodi, to'g'ri metod, qiyosiy metod, aralash metod); *ikkinchidan*, yuqoridagi yo'nalish tarkibiga kiruvchi o'qitish sistemasi (mas. Fransua Guen metodi, Harold Palmer metodi, Maykl Uest metodi va b.lar); *uchinchidan*, muallim va o'quvchining o'zaro bog'langan faoliyati usuli (tanishish, mashq qilish va qo'llash metodlari). Chet til o'qitish tarixida birinchi va ikkinchisi, odatda, „tarixiy“ metodlar nomi bilan, uchinchisini esa „chet til o'qitish jarayonida metodlar“ termini bilan yuritiladi.

Metodikada tarixiy metodlar ma'lum prinsiplardan tashkil topadi, prinsiplar yig'indisi muayyan metodni hosil qiladi. Jarayon metodlari esa o'qitish yo'llari orqali yuzaga chiqadi, binobarin, o'qitish metodlari va o'qitish prinsiplari alohida-alohida muhokama etiladi.

O'qitishda didaktik, psixologik va metodik prinsiplar qo'llanilishi mumkin.

1-§. Chet til o'qitish metodlari

Chet til o'qitish tarixida metodlar. Tarixan metodlar to'rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga „tarjima“, „to'g'ri (yoki tarjimasiz)“, „qiyosiy (yoki ongli-qiyosiy)“, „aralash“ so'zlarini aniqlovchi sifatida qo'shib aytiladi. Shunday qilib, chet til o'qitishning bir necha asrlik tarixidagi barcha metodlar ushbu to'rt toifaga to'plangan. Ularning har birini qisqacha tahlil qilish talab etiladi, chunki bugungi metodikada ularning ayrim xususiyatlari muayyan shaklda qo'llanilmoqda. (Metodlar tarixi atoqli metodist, prof. I. V. Raxmanov tomonidan chuqur o'rganilgan¹)

¹ *И. В. Рахманов. Очерк по истории методов преподавания новых иностранных языков: Автореф. докт. дисс. — М., 1949; Основные направления в методике преподавания иностранных языков в XIX—XX вв. / Под ред. И. В. Рахманова. — М.: Педагогика, 1972.*

Tarjima metodi. Ushbu metodning nomi, odatda, „tarjima metodlari“ termini bilan ko‘plikda ishlatiladi. Nomiga ko‘ra ma‘nosini bilib olish qiyin emas: chet til materialini ona tiliga tarjima qilinadi. Yevropada, avvalan, yunon tili, keyinchalik lotin tili o‘rgatilganda tarjima tushunish usuli qilib olingan. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asr davomida fransuz tili, XX asrda esa ingliz tili va, nihoyat, nemis tili, tarjima orqali o‘rganib kelindi. Musulmon dunyosida esa asosan arab tili, qisman fors tili chet tillar sifatida o‘rganilar edi. O‘lik (mas. lotin) va jonli tillar tarjima metodi bilan o‘rgatilib, bu jarayon mantiqiy tafakkurni rivojlantirish omili hisoblab kelindi. Arab tili esa islom dini asarlarini o‘rgatish vositasi bo‘lib, uni ko‘pchilik talabalar quruq yodlash orqali o‘rganishar edi. Oliy diniy o‘quv yurtlarida arab, fors, turkiy va b. tillar o‘rganilgan.

Tarjima metodlari orasida eng ko‘p tarqalganlari „grammatika-tarjima metodi“ va „matn-tarjima metodi“ nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Birinchisining namoyandalari so‘z va gap tarjimasini grammatika qoidalarini o‘rgatish uchun tatbiq etganlar, ikkinchisining tarafdorlari esa matnni o‘qish va uning mazmunini tushunishda tarjimadan foydalanishni maqsad qilib olishgan. Ikkala tarjima metodini qo‘llashdan faqat ta‘limiy maqsad ko‘zlangan. Chet til retseptiv tarzda o‘rganilgan. O‘z davrining tilshunoslik va ruhshunoslik ma‘lumotlariga asoslanib, chet til o‘qitish metodlari ishlab chiqilgan.

Ayrim muallimlar hozirgacha tarjima metodlari usullaridan noo‘rin foydalanishmoqda. Mas. matnni og‘zaki tarjima qilish g‘ayrimetodik usuldir. Matnning ayrim jumalari yoki bir-ikki bo‘lagini muayyan maqsadda tarjima qilish man etilmaydi. Lug‘atdan foydalanib, yangi so‘zlarning ma‘nolarini ochish maqsadida tarjima qilishga mo‘ljallangan kichik matnlar berilishi mumkin. Bu yerda matnni tarjima qilishdan ko‘zlanadigan metodik muddao lug‘atdan foydalanishni o‘rgatishdir.

To‘g‘ri metod. Metod nomining kelib chiqishiga asosiy sabab shundan iboratki, to‘g‘ri metodda o‘qitish chog‘ida ona tilini chetlab o‘tib, chet til so‘zi bilan predmet orasida bevosita assotsiatsiya (fikran bog‘lanish) o‘rnatishga urinib ko‘rilgan. Chet til grammatikasini o‘rgatishda ham xuddi shunday metodik yo‘l tutilgan: grammatik ma‘no bilan forma o‘rtasida bevosita bog‘lanish hosil qilmoqchi bo‘lishgan. To‘g‘ri metodning dunyoga kelish sababini chet tillarni amaliy o‘r-

ganish maqsadidan qidirish joizdir. O'tgan asrning oxirlariga kelib, G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Amerika Qo'shma Shtatlarida chet til o'qitishni isloh qilish natijasida ushbu metod kashf etilgan. Keyinchalik bu metod Osiyo, Afrika va boshqa qit'alarga ham tarqalgan.

Ona tili ishtirokisiz chet tilni o'rgatishga intilishlar to'g'ri metod, induktiv metod, tabiiy metod kabi terminlar bilan yuritila boshlangan.

Ushbu metodlardan ko'zlanadigan asosiy maqsad chet tilni amaliy jihatdan o'rgatishdir. Ona tilini o'rganish shart-sharoitlari bu metodda o'zgarishsiz qabul qilina bergan.

To'g'ri metodning zamonaviy ko'rinishlaridan ikkitasi — audiolingval va audiovizual metodlari ko'p tarqalgan. Audiolingval metodning asoschilari (mashhur Amerika metodistlari Charlz Karpenter Friz va Robert Lado) fikrlariga binoan chet til amaliy va ta'limiy maqsadda o'rganiladi. Til materiallaridan chet til jumalari (nutq namunalari)ni tanlash va o'rgatishga muhim o'rin beriladi. Nutq faoliyati turlarini o'rganish tartibi quyidagicha kechadi: tinglab tuhinish → gapirish → o'qish → yozuv. Og'zaki nutq chet tilda aloqa vositasi sifatida, yozma nutq esa og'zaki nutq materialida asosida o'rgatiladi.

Muallimlar audiolingval metodning bir qancha ijobiy xossalarini maktab tajribasidan biladilar. Chunonchi, nutq namunalari til o'rgatish birligi darajasida qo'llanilishi, og'zaki nutqning ilgarilashi, og'zaki nutq materialida o'qish va yozuvning o'rgatilishi V–VII sinflarda tegishli o'zgarishlar bilan qabul qilingan.

Audiolingval metodning ayrim qonuniyatlari bizning sharoitga to'g'ri kelmasligi maktab darsliklarida hisobga olingan. Mas. nutq namunalari ong ishtirokisiz va hech qanday qoidalar berilmasdan o'rgatilishi undagi g'ayriilmiy ko'rsatmalardir. Aktiv va passiv til materialini farqlagan holda, ularning o'zlashtirilishiga befarq qarashadi, bu ham noto'g'ri metodik yo'l-yo'riqdir.

Audiolingval metoddan qator jihatlari bilan farq qiladigan audiovizual metod namoyandalari (P. Guberina, P. Rivan) metodik ko'rsatmalariga binoan leksik materialni tanlashga alohida e'tibor berilgan. (Eslang: audiolingval metodda esa nutq namunalari ahamiyat berilgan.) Hayotiy mavzularda erkin fikr yuritish uchun 1500 so'z tanlangan. Turli texnikaviy vositalarga ta'lim jarayonida katta o'rin beriladi.

Ikkala metodning umumiyligi (to'g'ri metod tarkibiga kirishi)dan tashqari tafovutlari ham bor. Mas. audiovizual metodda og'zaki nutq, yozuv va oxirgi navbatda o'qish o'rgatiladi. O'qish yozuvdan keyin o'rgatiladi. Bizning maktablarda ushbu metodning ayrim tomonlaridan ijodiy foydalaniladi. O'rta maktabda birinchi yili chet til o'qitishda yozuv o'qishdan oldin, keyinchalik o'qish yozuvdan oldin va yuqori sinflarda o'qish barcha nutq faoliyati turlaridan oldin o'rgatiladi.

To'g'ri metodlarning reproduktiv (H. Palmer) va retseptiv tarzda (M. Uest) chet til o'rgatish metodlari ham metodika tarixida sezilarli iz qoldirgan. Ular haqida VII bobda maxsus ma'lumot beriladi.

Aralash metod. Ushbu metod ikki katta metodik yo'nalishlarning ilmiy-amaliy tomonlarini o'ziga singdirib olganligi ko'rinib turibdi. Aralash metodlar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tarjima va to'g'ri metodlar qorishmasi sifatida vujudga keldi. Aralash metod haqida uning namoyandalari daniyalik ruhshunos K. Flagstad, nemis tilshunosi E. Otto, nemis metodisti F. Aronshteyn, nemis tilshunosi G. Paul kabilarning ilmiy ishlaridan ma'lumotlar olish mumkin (VII bobni o'qing).

Aralash metodning yana bir boshqacha ko'rinishi to'g'ri metod va qiyosiy metod prinsiplarining qorishmasi sifatida vujudga keldi. Ushbu zamonaviy aralash metodning namoyandalari metodistlar amerikalik P. Hegboldt, belgiyalik F. Klosse, germaniyalik A. Bolen va rus chet til o'qitish ruhshunosi B. V. Belyayev tadqiqotlaridan ma'lum va mashhurdir.

Aralash metodning har ikkala yo'nalishi ham o'zining maxsus prinsiplariga ega emas, muayyan metodga ko'proq yon bosishi, shu bilan birga ikki metod qonun-qoidalarini omuxta tarzda qo'llanilishi ularga xos xususiyatlardandir (aralash metod ijodkorlari haqida VII bobda ma'lumot berilgan).

Qiyosiy metod. Uning to'liq nomi „ongli-qiyosiy metod“ deyiladi. Bu metodning asoschisi akad. L. V. Shcherba bo'lib, metodni hozirgi davr chet til o'qitish jarayoniga moslashtirgan, metod asoschisi ishini samarali davom ettirgan Pedagogika fanlari akademiyasi muxbir a'zosi prof. I. V. Raxmanov bo'lgan.

Ongli-qiyosiy metod bo'yicha chet til o'rgatilganda didaktik ongillik prinsipi asosida ish ko'ra boshlashgan. Ushbu metodning qiyoslash, ona tiliga suyanib ish ko'rish, nutq faoliyati

turlarini bir yo'la o'rgatish singari xususiy prinsiplari o'tgan asrning qirqinchi va elliginchi yillarida shakllanadi va keng ko'lamda amaliy qo'llanadi. Chet til o'qitishning amaliy, ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlari ilmiy asoslab berilgan. Bu esa metodning birinchi ko'rinishi edi.

O'tgan asrning oltmishinchi yillaridan hozirgacha bo'lgan vaqt ichida ongli-qiyosiy metod zamonaviylashtirildi, uning prinsiplari yangi talablarga muvofiq tadqiq qilindi. Jumladan, qiyoslash o'quvchilarning dars paytidagi yumush tarzida emas, balki mashqlar sistemasini tuzishda metodist va muallim vakolatiga kiradigan ishdir.

Ongli-qiyosiy metodning birinchi ko'rinishida qoida asosida mashq bajarilar edi, zamonaviy ko'rinishida mashq jarayonida amaliy ruhdagi qoida umumlashtiriladi. O'quvchi qiyoslash, qoidani yodlash va aytib berish, nazariy bilimlar yig'ish bilan maxsus shug'ullanmaydi.

Ushbu metod prinsiplari tafsilotlari bilan 2-§ da tanishasiz.

Chet til o'qitish jarayonida metodlar. „Metod“ terminini ifodalaydigan birinchi tushuncha — chet til o'qitish metodikasidagi tarixiy yo'nalish (tarjima, to'g'ri, aralash, qiyosiy metodlar)ning muxtasar bayoni yuqorida keltirildi. Ikkinchi ma'nodagi (o'qitish sistemasini — Palmer, Uest, Guen metodlari) tushuncha chet til o'qitish metodikasi tarixida (VII bobda) yoritiladi. Muallim/o'quvchi faoliyati usuli ma'nosidagi „metod“ terminining uchinchi jihati quyida muhokama qilinadi.

Chet til o'qitish jarayonida amaliy foydalaniladigan metodlar uchta: tanishish, mashq qilish va qo'llash. Ushbu uch termin metodik tadqiqotlarda turli nomlar bilan yuritib kelindi. Ko'pchilik tan olgan va o'qitishda bevosita mushohada qilish mumkin bo'lgan mazkur metodlar o'quvchi nuqtayi nazaridan nomlangan. O'quvchining chet til o'rganishdagi vazifasi o'quv material (ya'ni til material) bilan tanishish, ko'nikma va malaka hosil qilish maqsadida mashq qilish hamda o'z fikrini bayon etish chog'ida, ya'ni nutqiy muloqotda tildan foydalanishdan iborat.

Chet til o'qitish sistema, deb qaralganda, unda ikki tomon — o'rgatuvchi va o'rganuvchi ishtirok etadi. Muallim zimmasiga o'quvchining o'rganish faoliyatini tashkil etish — *tashkiliy vazifa* yuklanadi. O'quvchi bajaradigan uchala ishni — tanishish, mashq qilish, qo'llashni muallim tashkil qiladi. Darsdan tashqari mustaqil bajariladigan ishlarga oid ko'nikma va malakalar hosil qilish ham muallimning tashkiliy vazifasiga kiradi.

Muallimning navbatdagi vazifasi *ta'lim-tarbiya berish*dir. Ta'limiy vazifa deganda tushuntirib yoki ko'rsatib berish, bayon etish, izohlash, to'g'rilash orqali o'quvchiga til materialini o'rgatish anglanadi. Chet til materialini muallim o'rgatadi yoki darslik/magnitofon yozuvidan o'rganish yo'lini ko'rsatadi, o'quvchida qiyinchilik sezilsa, murakkab til hodisasini lo'nda qilib sharhlab beradi.

Nazorat qilish muallim vazifalaridan uchinchisidir. O'quvchilar yangi material bilan tanishayotgan paytlarda ularning tushunganlik darajasini aniqlaydi. To'g'ri-noto'g'ri mashq bajarayotganini kuzatadi. Til materialini qo'llash chog'ida nutq faoliyatining bajarilishini nazorat qiladi. Mas. ovoz chiqarmay o'qilgan matnning mazmunini tushunish uchun o'quvchilar undagi leksik birliklarni o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Agar o'quvchi materialni esdan chiqargan bo'lsa, muallim o'sha leksik materialni takrorlashni tashkil qiladi.

O'quvchilar vazifalarni tanishish, mashq qilish va qo'llash metodlari orqali amalga oshirish mumkinligi yuqorida qayd etildi. Har bir metodning o'ziga xos xususiyatlari bor.

Tanishish o'quv materialini o'rganishdagi birinchi qadamdir. Til birligini o'rganishga kirishar ekan, o'quvchi uning shakli (tovush tomonini og'zaki nutqda aniq-ravshan eshitish yoki grafik timsolini yozma matndan ko'rib o'qiy olish), ma'nosi (predmet, hodisa, harakat bilan fikran bog'lash) va qo'llanilishi (boshqa birliklar bilan qo'shilishi, qanday holatda ishlatilishi) bilan tanishadi. Shakl, ma'no va qo'llanish har bir leksik yoki grammatik birlikda o'rganiladigan uch tomondir. Ular bilan tanishish o'quv birligini o'zlashtirishning boshlanishi demakdir.

Ushbu birlik xotirada saqlanishining asosiy shartlaridan biri uni eshitish va ko'rish sezgilari yordamida idrok qilishdir. Shu paytda til birligi mashq qilish bosqichidan o'tadi. *Mashq qilish* yo'li bilan o'rganilayotgan til hodisalari mustahkamlanadi, ularga oid dinamik stereotip shakllanadi. Ushbu dinamik stereotip nutq jarayonida operatsiya maqomida ishga tushadi.

Amaliy muloqot maqsadida til materialini qo'llash uchinchi bosqich hisoblanadi. *Qo'llash* davrida axborot almashish (ya'ni malaka hosil qilish) mashqlari bajariladi.

O'quvchilarning tanishish, mashq qilish va qo'llash vazifalari metodika tilida o'qitish metodlari, deb yuritiladi. Ular „o'qitish jarayonida qo'llanadigan metodlar“ nomi bilan ham ataladi. Bu metodlar ta'lim maqsadlarini ro'yobga chiqarish

vositalari bo'lishi bilan birga, ularga o'quv materialini o'zlashtirish bosqichlari tarzida ham qarash mumkin.

„Tanishish“ metodidan foydalanish mobaynida so'z, so'z birikmasi, grammatik hodisa, matn kabilar o'rganiladi. Ularni o'quvchi eshitishi, ko'rishi, birvarakay eshitib ko'rishi mumkin. Idrok etganda ularni sezgilar orqali payqash va mazmunini o'qib olishdek bir yo'la ikki tomonlama ish bajariladi. Muallim esa narsa/hodisani ko'rsatib, chet tilda, mas. inglizcha aytadi. Ayrim soddada tushuntirish — izoh berish ham muallim vazifasiga kiradi. Predmet yoki hodisani ko'rsatishda rasmlar, flanelegraf, magnit taxtasi kabilar keng qo'llanadi. Texnika vositalarining ovozli, namoyish etadigan, ko'rsatib ovoz eshittiradigan turlaridan samarali foydalanish mumkin.

O'quv materiali bilan tanishish davrida mashq qilish bosqichiga tayyorgarlik ko'riladi. Mashq qilishda mashqlar miqdori va sifatiga, ya'ni nechta va qanday mashq bajarish masalasiga alohida e'tibor beriladi. Mashq qilish chog'ida o'quvchi o'zlashtirayotgan ko'nikma muallim nazorati ostida bo'ladi. Nazorat qilishning eng tejimli usuli test o'tkazishdir.

O'quvchining o'zini o'zi nazorat qilish va xatolarini mustaqil bartaraf etishga o'rgatish katta ahamiyatga molik.

Malakalar hosil qilishning hal qiluvchi bosqichi o'quv materialini qo'llash hisoblanadi. O'quvchilarning og'zaki va yozma fikr almashishlari jarayonida qo'llash metodi qo'l keladi. Oldin o'rganilgan material endi axborot yetkazish/olish maqsadiga bo'ysundiriladi.


Metodlar faoliyat ko'rsatkichi, o'z navbatida, metodik harakatlar (usullar) orqali amaliyotda ishlatiladi. Mas. leksikaning ma'nosini tarjimasiz ochish usuli (harakati), matndan axborot olish usuli, grammatik birlikni leksik o'rgatish usuli (qoida bermasdan yaxlit hodisa tarzida), talaffuzni taqlid yo'li bilan o'rgatish va h.k. Aniq usullar majmuasi jarayon metodini tashkil etadi. Metodik usul o'quv materialini o'rgatish/o'rganishda yaqqol ko'rinib turadigan amallarni bildiradi.

Metodik adabiyotlarda metodlarni „namoyish etish, tushuntirish va mashq“ nomlari bilan¹ berish yoki metodlar miqdorini yettitagacha yetkazish hollari² uchraydi. Qanday nomlar

¹ *M. В. Ляховицкий. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. — М.: Высшая школа, 1982. — 72—73-betlar.*

² *Теоретические основы методики обучения иностранным языкам в средней школе. — М.: Педагогика, 1981. — 122—123-betlar.*

yoki ular nechta bo'lishidan qat'i nazar, metodlar tanishtirish, ko'nikma hosil qilish va malaka berishga yo'naltiriladi.



O'quv-metodik topshiriqlar

1. Metodik terminlardan „metod“ va „prinsip“ qanday tushunchalarni qamrab olganini o'rganing.
2. „Tarixiy va jarayon metodlari“ga kiruvchi nomlarni atang va ularning xususiyatini bilib oling.
3. „Tanishish“, „mashq qilish“, „qo'llash“ haqida fikringizni bayon etishga tayyorlaning.

2- §. Chet til o'qitish prinsiplari

Chet til o'qitishda didaktik prinsiplar. Asrlar osha minglab pedagoglar taklif etgan qoidalar va qarashlar didaktik (ta'limiy) prinsiplar maqomida umumlashtirildi va ilmiy asoslandi. O'qitish tajribasidan kelib chiqadigan va turli davrlar sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan didaktik prinsiplar tizmasi yaratildi. Ularning nomlanishi va mohiyatida tafovutlar borligiga qaramay, hozirgi zamon ta'limshunosligida mustahkam o'rin egalagan quyidagi didaktik prinsiplar aksariyat pedagog va metodistlarga ma'qul va manzur: tarbiyaviy ta'lim, onglik, faollik, ko'rgazmalilik, sistemalilik (izchillik), individual yondashish, (bilimlarni) puxta o'zlashtirish, o'quvchi kuchiga moslik kabilar.

Ta'limshunoslikda ommalashgan mazkur prinsiplarning har bir o'quv predmetida o'ziga xos tatbiq etilishi tabiiydir.

Tarbiyaviy ta'lim prinsipi o'sib kelayotgan avlodni har

tomonlama kamolotga yetkazish vazifasini ro'yobga chiqarishni nazarda tutadi. Chet til o'quv predmeti oldida turadigan maqsadlardan biri tarbiya berish ekanligi ma'lum (III bobga qaralsin).

Ta'lim mazmuniga ko'ra o'quvchilar chet til vositasida o'zlashtiradigan axborot va chet til o'rganish mobaynida oladigan aqliy va nutqiy ko'nikma va malakalar ularning tarbiyasiga bevosita daxldor.

Boshqa o'quv predmetlarida bo'lganidek, chet til o'rganish jarayonida ham o'quvchilarni tarbiyalash maktabning asosiy vazifalaridan sanaladi. Ona-Vatanga sadoqat, tabiatga muhabbat, kishilarga hurmat, yaxshilik qilish, adolatparvarlikka intilish, baynalmilal his-tuyg'u singari ijobiy xususiyatlarni singdirish chet til o'rganishda muhim o'rin egallaydi.

Onglilik prinsipi metodika ilmida turli hajmdagi tushunchani ifodalagan. Mas. 1950- yillar metodikasida „onglilik“ deganda, til materialiga oid qoidalarni o'rganish yoki tarjima qilish ma'nosini anglatar edi. Ona tiliga qiyoslash ushbu prinsipda tayanch tushuncha edi. Shu munosabat bilan „ona tiliga suyanish“ prinsipiga asos solingan. „Suyanish“ ma'nosi, boshqacha qilib, „tarjima“ deb tushunilar edi. Chet til haqida haddan ziyod qoidalar shunchalik ildiz otgan ediki, harf/tovushdan tortib matngacha barcha til materiali nazariy bilimlarni namoyish etishga bo'ysundirilar edi. Qoidani bilish umumta'limiy maqsad bilan bir pog'onada edi, ya'ni chet til sistemasini chuqur anglab yetishga intilishgan. Xullas, chet tilni emas, balki u haqdagi mavhumotlarni o'rganishdek g'ayrimetodik (bugungi nuqtayi nazardan qaraganda, albatta) qonuniyat hukm surar edi.

XX asrning 60- yillaridan boshlab onglilik prinsipi chuqur ilmiy va eksperimental tarzda tadqiq etildi va ushbu termin ma'no doirasining yangicha talqini vujudga keldi.

Hozirgi kunda onglilik prinsipi chet til o'rgatish jarayoniga mana bunday tatbiq etilmoqda: *birinchidan*, o'quv materialining tub mohiyatini tushunib yetish (falsafiy ma'noda mazmun va shakl birligiga erishish), ya'ni chet tildagi jumla va nutqning mazmunini anglash, *ikkinchidan*, til materialini qoidada emas, balki nutq amaliyotida ongli (malakali) qo'llay olish, axborot almasha olish va, nihoyat, *uchinchidan*, „avvalo nutq va keyin sodda qoida“ atalmish mezonga itoat qilib ish ko'rish, til tajribasidagi muvofiqlik (analogiya) va induktiv yo'l tutish (til hodisasini qo'llash, so'ngra mavhumotga o'tish) kabi metodik tadbirlar onglilik prinsipi doirasiga kiradi.

Bayon etilganlardan ko‘rinib turibdiki, onglilik prinsipiga asoslanish — bu ona tilining tutgan mavqeyini nazardan chetda qoldirmaydi. Aksincha, ona tili chet til o‘rganishda asqotadi, biroq nutq birlamchi, nazariya (mavhumot) undan hosila, ya’ni u ikkilamchi. Ko‘zlanadigan maqsad — ma’no va mazmunni anglab yetishdir. Amaliy (kommunikativ) vazifalarni (mas. aytish, so‘rash, o‘qish, yozish kabilarni) bajarishda o‘zlashtirilgan ko‘nikmani malakada ishlata bilish haqida gap boryapti. Nihoyat, onglilik tushunchasi o‘quvchilarning til o‘rganishdagi ijodiy tashabbuskorligi, mustaqilligini oshirishga borib taqaladi. Quruq yodlash yoki faqat to‘tiqush yanglig‘ taqlid yo‘li bilan takrorlash, qoidalarni nutqdan ajratib o‘zlashtirish kabi metodik xatolardan qutulish o‘quvchini onglilik sari yetaklaydi.

Faollik prinsipi chet tildagi nutqda astoydil qatnashish bilan chambarchas bog‘liq. Avvalo shuni bilish lozimki, tashqi faollik — ko‘p jumla aytish, ong ishtirokisiz bajariladigan mashqlar miqdori faollikning yetakchi ko‘rsatkichlari emas. Og‘zaki va yozma nutqni ijodiy egallashda, nutq faoliyati yuritishda o‘z ehtiyojini qondirishga intilish masalasi turadi. Faollikning asosiy belgilari xohish-istak, qiziqish, fikran intilish kabi ruhshunoslik tushunchalarida namoyon bo‘ladi.

Chet til o‘rganishga kirishar ekan, o‘quvchi uni qiziqib egallay boshlaydi. O‘quvchining muvaffaqiyatga erishish darajasi uning faollik holatiga to‘g‘ri bo‘lishi tajribadan ma’lum. O‘rganilayotgan til o‘quvchiga quvonch bag‘ishlasa, faollik oshadi, aks holda sustkashlik sodir bo‘lib, qiziqish so‘na boradi.

Faollik aqliy, hissiy va nutqiy kabi uch ko‘rinishdan iborat. Nutqni egallash hissiy quvonch va aqliy kamolot keltirgandagina faollik uchqunlari yashnay beradi.

O‘quv-tarbiya o‘choqlarining barcha turlarida faollik prinsipiga rioya qilib ish ko‘riladi. „Faollik“ terminining ma’nosi shunchalik kengayib ketdiki, hatto metodist-olimlar orasida ushbu so‘zni metod bilan birlashtirishgacha yetib borganlar topiladi. Fanda „aktiv metod“ termini¹ paydo bo‘ldi. Holbuki, barcha metodlar faqat faollikni talab etadi, qoloq yoki sust metodlarni, albatta, hech kim tavsiya etmaydi. Faollik tushunchasi bilan metod emas, balki prinsip fikran bog‘lanishi mumkin.

¹ И. Ф. Кожков. Активный метод обучения иностранным языкам в школе. — Минск, 1970; Об опыте использования активных методов обучения иностранным языкам. // Тезисы докладов X Республиканской научно-методической конференции. — Алма-Ата, 1983.

Shuning uchun ham darsda har bir o'quvchining nutqiy ishtiroki maxsus hisobga olinmog'i kerak: xor bilan ishlash, sinf/guruhning birgalashib ishlashi, juft bo'lib suhbatlashish, individual ishlarda o'quvchilar qobiliyatini e'tiborga olish kabi metodik tadbirlar keng joriy etiladi.

Nutq faoliyati turlari va til materiali bo'yicha mashqlar istalgan me'yorda bajarilishi faollik darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

Qiyinchilikni yengish, chet tildagi nutqda xato qilishdan cho'chimaslik, o'quvchi nutqining uning shaxsiy hayotiga daxldorligi, xilma-xil ish tartiblarini qo'llash (o'quvchi-o'quvchi, muallim-o'quvchi, muallim-sinf, o'quvchi-sinf va h.k.), o'yin va lisoniy musobaqalar o'tkazish kabilar faollikni kuchaytirish omillaridandir.

Ko'rgazmalilik prinsipi chet tillar o'qitishda munosib o'rin egallaydi. Ko'rgazmalilik ayrim o'quv predmetlarida faqat ko'rish bilan assotsiatsiyaga kiradi. Chet tilda ko'rish va eshitish sezgilari orqali idrok etiladigan tashqi va ichki ko'rgazmalilik tushuniladi. Til materialini tushunish, o'zlashtirish va qo'llash maqsadlarini ro'yobga chiqarish uni maxsus namoyish etish va nutqda qo'llash ko'rgazmalilik yordamida amalga oshiriladi.

O'quvchi ona tilini tabiiy predmet va hodisalar og'ushida o'rganishi, chet tilni egallash esa sun'iy sharoitda kechishi tufayli bunda ko'rgazmalilikning zarurligi yanada oshadi.


O'quvchilarning tinglab tushunishini osonlashtirishda muallim nutqidan tashqari diktor nutqi ham eshishga qo'yiladi. Auditiv (eshitiladigan) texnika vositalaridan sinfda, chet til xonasida va uyda yetarli foydalanish tavsiya etiladi.

Til materialini mashq qilish va nutqda qo'llash jarayonida ko'rishga mo'ljallangan vositalar (slyaydlar, diafilmlar, kino-filmlar) o'rinli ishlatiladi.

Ko'rgazmalilik ikki yirik guruhga bo'linadi: tashqi (predmetga oid) va ichki (lisoniy) ko'rgazmali vositalar. Tashqi ko'rgazmalilik tasvirda, mas. predmet, rasm, jadval yoki harakat tarzida va ichki ko'rgazmalilik esa til imkoniyatlaridan kelib chiqadigan ko'rgazmalilikdir. Ichki ko'rgazmalilik tovush/harfni namoyish etishdan boshlab, matndagi mazmun (kontekst)gacha bo'lgan qator til vositalaridan iboratdir. Yangi so'zning matndagi ma'nosini fahmlab olish, so'z yoki forma yasash elementlari yordamida til birligini tushunib olish, til tajribasidan foydalanish til ko'rgazmaliligini tashkil etadi. Predmet va til bilan bog'liq ko'rgazmalilik o'rganilayotgan o'quv materiali-

ning xususiyati va o'qitish bosqichiga qarab muallim tomondan farqlab qo'llaniladi. Prof. G. V. Rogova barcha ko'rgazmali vositalarning quyidagi tasnifini keltiradi.¹

KO'RGAZMALILIK



Mazkur tasnifni metodist G. V. Rogova ruhshunos prof. B. V. Belyayevning² ko'rgazmalilikka oid tavsiyalariga asoslanib tuzgan. Chet til o'qitishda qo'llanadigan ko'rgazmalilik haqida boshqa mutaxassislar ham qimmatli ilmiy mulohazalar yuritishgan.³ Ta'lim jarayonida ishlatiladigan vositalar haqida VI bobda mufassal to'xtab o'tiladi.

Puxta o'zlashtirish prinsipi chet tilda o'ziga xos talqin etiladi. Turli metodik sistemalarda ushbu prinsipdan turlicha foydalanilgan. Chet til birliklari (so'z, so'z birikmasi, nutq namunasi)ni o'quvchining xotirasida saqlanishi, nutq faoliyatida ulardan xohlagancha foydalanishi puxta o'zlashtirishni ta'minlay oladi. O'quv materialini analiz, sintezlash, qiyoslash, mulohaza yuritish yordamida ta'sirchan taqdimoti, tanishishdan keyin materialni ko'rish, eshitish, harakat (nutqharakat va qo'lharakat) analizatorlari ishtirokida ko'plab mashq qilish va chet til nutqida ijodiy qo'llash (fikir bayon etish va o'zga-

¹ G. V. Rogova. *Methods of Teaching English*. — M.: Просвещение, 1975. — 51-bet.

² Б. В. Беляев. *Очерки по психологии обучения иностранным языкам*. — М.: Просвещение, 1965. — 85-bet.

³ В. А. Артемов. *Психология обучения иностранным языкам*. — М.: Просвещение, 1969. — 226-bet. (Prof. V. A. Artyomov ko'rgazmalilikni tasnif etishda ularni bir-biridan farqlaydigan belgilarni aniqlagan.)

larni tushunish) hamda o'rganilgan materialni o'zlashtirish darajasini nazorat qilib borish bilan puxta o'zlashtirishga erishiladi.

Til birliklarini puxta o'zlashtirishda mashqning ahamiyati ulkandir. (Kitobning kirish qismidagi „Mashqlar sistemasi“ nomli mavzuga qarang.)

O'quv materialini puxta o'zlashtirish deganda, chet tildagi nutqda til birliklari bo'yicha barqaror ko'nikma va malakalar hosil qilish tushuniladi. (Qoida yoki nazariy bilimlarni mustahkam egallash fan asoslarini o'rgatuvchi o'quv predmetlari uchungina taalluqlidir.)

Yakka-yakka (individual) yondashish prinsipini qo'llashda har bir o'quvchining qobiliyati hisobga olinadi. Shu bilan bir paytda jamoa bilan ishlash ham inkor etilmaydi, albatta. Ruhshunoslikdan ma'lumki, kishilar orasida ekstravertlar va introvertlar bor. Ekstravert deganda, „ochiq odam“, ya'ni muloqotchi, suhbatchi, gaplashishga moyil odam tushuniladi. Uning aksi esa introvertdir, ular gaplashishga unchalik intilmaydilar. Chet til o'rgatishda introvertlarni gapirish mashqlarini bajarishga faolroq jalb etish tavsiya etiladi. Ekstrovertlarning e'tiborlari esa o'qish va tinglab tushunishga qaratiladi.

Ta'limshunoslikdagi yakka-yakka yondashish prinsipi muallim oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi: har qaysi o'quvchining tabiati, nimalarga qodirligi, qiziqishi, kim bilan oshnachilik qilishi, nimalarga salbiy munosabatda bo'lishini muallim bilmog'i lozim. Mas. chet tildagi juftnutq mashqini bajarishda kimlarni sherik qilishdek psixopedagogik tadbir yaxshi/yomon natija berishi mumkin. Yoki tarqatma material beriladigan paytda o'quvchining barcha xususiyatlari inobatga olinadi.

Muallim darsga tayyorgarlik ko'rayotganida ham o'quvchilarning ijobiy va salbiy tomonlari e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Ularning bilim darajasidagi tafovutlari alohida hisobga olinadi.

Prinsiplar ichida *sistemalilik* chet tilda butunlay ayricha ma'no kasb etadi. Fan asoslarini o'rgatishda ilmiy bilimlar sistemali bayon etiladi. Chet til o'quv predmeti esa bilimlar yig'indisini o'rgatmasligi hammaga ayon. Nutq birlamchi, sodda mavhumot uning hosilasi ekanligi mezon qilib olinadi.

Chet til muallimi til materialini sistemali emas, balki „nutq uchun zarur va kifoya“ qonuniyatiga rioya qilib o'rgatadi. Mas. harflar alfavit tartibida berilishi shart emas. Og'zaki nutqda o'zlashtirilgan leksik birlikni yozish uchun muayyan

harf beriladi. Binobarin, 26 ta harf birinchi o'quv yili taqdim etilishi ham majburiy emas. (IV sinf ingliz tili (Toshkent, „O'qituvchi“, 1982) darsligiga qarang.) Grammatik hodisalar ham grammatik sistemada taqdim etilmaydi. Grammatikani o'rgatish tartibi nutq ehtiyojiga qarab belgilanadi. Leksikadan bir misol. „O'zak so'z oldin, yasama so'z keyin degan qoida metodika uchun g'ayriilmiy hisoblanadi. Birinchi o'quv yilida yasama so'z *teacher* (*teach+er*) o'rganilgan, keyingi sinflardan birida (mas., VIII sinfda) *teach* o'zak so'zi taqdim etilgan. Leksika taqsimotida sistema hal qiluvchi omil emasligini *founder* so'zi o'rganilishidan anglasa bo'ladi. Uning negizi (*found*) umuman olinmasligi mumkin.

Til birliklari sistemali taqdim etilmaganidek, ulardan yaratiladigan mavhumotlar ham sistema holda berilmasligi o'z-o'zidan ma'lum. Mas. „artikl“ tushunchasi nutqiy materialda uchrashiga qarab taqdim etiladi, umumiy nazariyadan o'quvchilar bexabarlar. Chunki qoida (mavhumot) nutq ko'nikma va malakalarning shakllanishida yordamchi ta'limiy vosita sanaladi.

Chet tilda nutq malakalari sistemasini yaratish yoki egallash ushbu prinsip mohiyatini ifodalaydi. Gapirish, tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozma axborot berish sistemasi dasturda tavsiya etiladi. Savolga javob qaytara olish, o'zga shaxs nutqini idrok etib tushuna olish va h.k. muntazam mashq qilinadi.

Didaktik prinsiplardan *oson-qiyinlik* yoki *o'quvchi kuchiga moslik* tushunchalarining ham chet til o'qitishda o'zgacha tatbiqi kuzatiladi. Bilim beradigan o'quv predmetlari mavzulari yoki tushunchalarini o'rgatishda „osondan qiyinga“ qonuniyatiga rioya qilinadi. Chet til o'qitishda bunday talab qo'yilishi mumkin emas. Mas. inglizcha tish oralig'i jarangli/jarangsiz tovushlarining talaffuzi o'quvchilarga o'ta qiyindir. Biroq nutq jarayoni ehtiyojiga qarab, u dastlabki o'rganiladigan hodisalar qatoridan joy oladi (aniq artiklda ushbu tovush ishtirok etadi).

Mabodo tish oralig'i undoshi keyinroq o'rgatilsa, nimaga erishish mumkin? Hech narsaga erishilmaydi, chunki bu tovushlar qachon o'rganilishidan qat'i nazar, doimo qiyinchilik tug'diradi. Xullas qiyin-oson material taqsimot mezonini bo'la olmaydi. Bunga sabab, nutq malakasi hosil qilish, ya'ni faoliyat o'rgatish davrida til birligi tobe tushunchadir.

Nutq faoliyatini egallash jarayonini tezlashtirish (intensifikatsiya) yoki samaradorligini oshirish (optimizatsiya) maqsadida qiyinchiliklar o'quvchi kuchiga mos holda „taqsimlab“

taqdim etiladi. Ya'ni qiyinchilik taqsimlanadi. Qiyin hodisa kichik birliklarga bo'linadi. Mas. inglizcha fe'lining hozirgi umumiy zamon shakllari ikkiga bo'linib, uchinchi shaxs birlik alohida va qolgan barcha shaxslar alohida o'rgatiladi. Interferensiya nazariyasiga ko'ra ikkalovi bir yo'la taqdim etilsa, o'zaro chalkashlik sodir bo'ladi. Yana bir misol. So'zlarning tovush va yozuvdagi timsoli sun'iy ajratib o'rgatiladi. (Og'zaki nutqning ilgarilashi mezonini eslang.)

Qisqasi, o'quvchi qobiliyati nuqtayi nazaridan va o'qitish shart-sharoitiga ko'ra, qiyinchiliklarni taqsimlab o'rgatish prinsipi ro'yobga chiqariladi.

Chet til o'qitishning psixologik prinsiplari. Yuqorida ta'limshunoslikka oid prinsiplar tavsifi ko'rib chiqildi. Til o'rganish aqliy faoliyat bo'lganligi tufayli, uning psixologik asoslari mavjud. Aqliy faoliyat ruhshunoslikda ilmiy tekshiriladi. Shu munosabat bilan chet til o'qitishning psixologik prinsiplarini tadqiq etish ehtiyoji tug'iladi.

Ilmiy manbalarda chet til o'qitishning ikkita psixologik prinsipi ishlab chiqilgan¹. Psixologik prinsiplar „verbalizatsiya“ va „korrelatsiya“ nomlarini olgan.

Chet til o'qitishning psixologik prinsiplaridan *verbalizatsiya* ma'no doirasiga quyidagilar kiradi: o'zga til amalda faqat og'zaki nutq orqali o'rganiladi, ya'ni og'zaki nutq ta'lim maqsadi bo'lsagina begona tilni o'zlashtirishga yo'l ochiladi. Shunday qilib, tilda verbalizatsiya prinsipi og'zaki nutq o'rgatishni taqozo etadi.

Psixologik prinsipning ikkinchisi — korrelatsiyadir. *Korrelatsiya* prinsipi terminini mana bunday tushunish mumkin: chet til materiali (leksika, grammatika va talaffuz)ning muayyan chegarasi aniqlanadi, birinchi galda nutq malakalarini hosil qilish uchun mo'ljallangan til birliklari majmuyi shakllanadi. Nutq mavzulari leksikani tanlashda belgilovchi metodik mezon vazifasini o'taydi. Til hodisalariga oid mavhumotlar nutq malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi, ular yod olinmaydi va h.k. Chet til qoidasini yod olmaslik masalasi ruhshunoslikda isbotlangan.²

¹ Г. Е. Ведель. Психология и основы методики преподавания иностранных языков (на материале немецкого языка). — Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та, 1974. — 26—32-бетлар.

² Н. И. Жинкин. Психологические особенности спонтанной речи. / ИЯШ, 1965, № 4, 8—9-бетлар.

Chet til o'qitishda boy psixologik ma'lumotlardan foydalanish odat tusiga kirgan. Biroq psixologik prinsiplar shu ikkalasi bilan chegaralanadi.

Til o'qitishning tilshunoslik asoslari (II bob) birmurcha tadqiq etilganligiga qaramay, metodika fanida hozirgacha chet til o'qitishning lingvistik prinsiplari masalasiga qo'l urilgan emas. Ular o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Metodika prinsiplari mohiyatini yoritishda psixologik va lingvistik qonun-qoidalarga suyanib ish ko'riladi.

Chet til o'qitish metodikasi prinsiplari. Chet tillar o'qitish metodikasida prinsiplarni tadqiq etish, ularni ilmiy-nazariy asoslab berish masalalari ko'plab metodistlar e'tiborini tortib keladi. Chet el va mamlakatimiz metodikasi manbalarida bu sohada munozarali fikrlar yoritilgan. Avvalan, chet til o'qitish metodikasi prinsiplarini olg'a surish mezonlari haqida fikr yuritiladi. Birinchisi — bu mezon chet tildan boshqa o'quv predmeti metodikasiga tatbiq etish o'rinsizligi, ya'ni ushbu predmetning o'zigagina xosligi mezoni. Ikkinchisi — chet til metodikasida shakllangan prinsipga oid ilmiy tushunchalarning hatto yaqin fanlarga ham daxli yo'qligi, mazkur sohanigina aks ettira olish mezoni. Mas. qiyinchiliklarni cheklash prinsipi boshqa fanlarni o'qitishda ham ishtirok etishi mumkin. Shu bois ta'limshunoslik yoki ruhshunoslik prinsiplari chet til metodikasida ushbu fanning xususiyati inobatga olingan holda tatbiq etiladi, xolos. Birgina misol: qiyinchiliklarni cheklash prinsipining chet tilda boshqa tomoni ham namoyon bo'ladi, ya'ni osondan qiyinga prinsipi bevosita qabul qilinmasdan (tish oralig'i undoshi o'rgatilishini eslang), qiyinchiliklarni taqsimlab berish orqali ro'yobga chiqadi.

Soniyan, mazkur mezonlar asosida metodik prinsiplar tadqiq etiladi. Chet til o'qitish metodikasi prinsiplari mazmunan va shaklan bir xil emas. Ayrimlari umumlashgan (mas. nutqiy yo'nalganlik prinsipi), boshqalari tor ma'noda (mas. og'zaki nutqning ilgarilashi prinsipi) qo'llanadi, qolganlari esa ushbu predmet mohiyatiga o'ta xosligi bilan (mas. grammatikani o'rgatish prinsiplari) ajralib turadi. Binobarin, chet til o'qitish metodikasining umumiy, xususiy va maxsus prinsiplari ishlab chiqilgan. Ushbu prinsiplarni farqlash va izchil asoslash fanda oxirigacha to'liq yetkazilmaganligini ta'kidlab o'tish joizdir.

Metodikaning *umumiy prinsiplari* quyidagilardan iborat: 1) chet til o'qitishning nutqiy yo'nalganlik prinsipi; 2) chet

tilni chegaralab (farqlab) va yaxlit o'rgatish prinsipi; 3) mashqlarga asosiy o'rin berish prinsipi; 4) til tajribasini hisobga olish prinsipi.

Ilmiy manbalarda birinchi nomdagi prinsip barcha mutaxassislar tomonidan yakdil tan olingan. Ikkinchi prinsipni prof. G. V. Rogova va boshqalar tavsiya etgan. Uchinchi prinsip prof. M. V. Lyaxovitskiy tadqiqotlarida uchraydi. To'rtinchi prinsip aksariyat metodistlar tarafidan ma'qullanishi bilan birga, uning nomlanishida jiddiy farq seziladi. Rus tilida chop etilgan yoki rus maktablari tajribasini aks ettiradigan ilmiy adabiyotlarda „ona tilini hisobga olish prinsipi“ termini qabul qilingan. O'zbek maktablarida chet til o'qitish tadqiqotchilari asarlarida u „til tajribasini hisobga olish prinsipi“ deb ishlatiladi. O'quvchilar chet tildan avval ona tili va ikkinchi til o'rganishlari sababli bu prinsipga shunday nom berilgan.

Umumiy prinsiplar quyidagicha sharhlanishi mumkin. Nutqiy yo'nalganlik prinsipiga ko'ra chet tilni aloqa vositasi sifatida egallash, ya'ni o'quv dasturidagi mavzular doirasida nutqiy ko'nikma va malakalar hosil qilish maqsadida ta'lim jarayoni tashkil etiladi. Chet tilni amaliy egallashga nutqiy mashqlar tufayli erishiladi. Til materialini o'rgatuvchi mashqlar miqdori juda ko'payib ketsa, nutqiy yo'nalganlikka putur yetadi. Leksik, grammatik, talaffuz mashqlarining davomi chet tildagi nutqda ularni qo'llash bilan yakunlanadi. Til birliklarini o'zlashtirish nutq faoliyatini egallashga bo'ysundiriladi. Pirovard natija chet tilda axborot olish/berish bilan tugallanishi amaliy yo'nalganlik prinsipining asosiy shartidir.

Nutqiy yo'nalganlik prinsipi talabiga binoan chet til o'rganuvchilar gapiruvchi, o'quvchi, tinglovchi, yozuvchi sifatida nutq faoliyatida ishtirok etadilar.

Ikkinchi prinsipga ko'ra chet tildagi nutq farqlanib, til materiali esa yaxlit tarzda o'rganiladi. Chunki gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv o'ziga xos xususiyatga molik. Og'zaki nutq (gapirish va tinglab tushunish), yozma nutq (o'qish va yozuv), gapirish (yakkanutq va juftnutq), o'qish (ovozli va ovozsiz), ovozsiz o'qish (mazmunni umumiy tarzda yoki to'liq tushunish), yozuv (yozish, imlo, yozma fikr bayon etish)ni farqlab o'rgatish ushbu prinsip mazmunini tashkil etadi.

Qayd etilgan nutq faoliyati turlari yoki ularning tarkibiy qismlari ta'limning turli bosqichlarida o'z chegarasi (sifat va

miqdor o'lovchi) mavjud. Ularni farqlab o'rgatish deganda, bir-biridan butunlay ajratib tanlash emas, balki har birining muayyan ko'rsatkichi borligi tushuniladi, ya'ni ular o'zaro bog'liq holda o'rganiladi. O'quv dasturi va darsliklar bularni hisobga olib tuziladi.

Muhokama qilinayotgan prinsipning ikkinchi qismi yaxlit o'rgatishga bag'ishlanadi. Yaxlitlik (integratsiya) til materialini o'zlashtirishga taalluqli metodik hodisa. Leksika, grammatika va talaffuz birliklari tarqoq holda emas, balki yaxlit tarzda, ya'ni leksikada grammatika, leksika va grammatika asosida esa talaffuz o'rgatiladi. Ajratib o'rgatish hollari ularning qiyinchiligini bartaraf etish uchungina kerak. Yaxlitlik tinglab tushunish va gapirishni mashq qilishda, o'qish va tinglab tushunish, o'qish va yozuvni o'rganishda ham kuzatilishi tabiiy. Tajriba ko'rsatishicha, har bir darsda (birinchi yilning dastlabki mashg'ulotlari bundan mustasno) o'quvchi gapiradi, tinglaydi, o'qiydi va yozadi. To'rtala nutq faoliyati turi bo'yicha bajariladigan mashqlar miqdoran bir xil emasligi muallimlarga ma'lum.

Ta'lim jarayonida uzviy aloqa o'rnatilishi til materialini o'rganishga, chegaralash esa nutq faoliyati turlarini egallashga ko'proq daxldor prinsipdir.

Uchinchi metodik prinsip talqini, o'z nomidan ravshanki, chet til o'qitishda mashqlar bajarish asosiy ish usuli ekanini tasdiqlaydi. Til materialini, til texnikasi, nutq faoliyati turlari, o'zlashtirish bosqichlari kabilarni nazarga olib mashqlar bajariladi: leksika, grammatika, talaffuz mashqlari, gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv mashqlari, yozish va o'qish texnikasi mashqlari, ko'nikma va malaka hosil qilishga mo'ljallangan mashqlar.

Umumiy prinsiplar ichida til tajribasini hisobga olish alohida ahamiyatga molikdir. O'quvchi hozirgacha o'zlashtirgan ona tili va ikkinchi til hamda chet tilning o'zidan o'rganilgan hodisalar yangi material taqdimoti chog'ida ko'maklashuvchi yoki qarshilik ko'rsatuvchi omil bo'lishi mumkin. O'quvchi ongida aloqaga kiradigan uchala til operatsiya, harakat va faoliyat darajalarida to'qnashadi. Boshqacha qilib aytganda, oldin o'zlashtirilgan til mavhumoti, ko'nikmasi va nutq malakasi o'rganilayotgan tilga salbiy/ijobiy ta'sir qiladi. Qisqasi, to'planagan til tajribasi istiqbolda ko'zlanadigan nutq ko'nikma va malakalarini egallashda hisobga olinmog'i lozim.

Nutq malakalarining ijobiy (transpozitsiya) yoki salbiy (interferensiya) ko'chishi haqidagi ma'lumotlar mashqlar sistemasini tuzishda hisobga olinishi shart bo'lib, o'quv jara-yonida ular haqida o'quvchilarga bayonot berilmaydi. Oz yoki ko'p kuch va vaqt sarflanishi til birligining oson yoki qiyin-ligi bilan belgilanadi („Til materialini o'rgatish mazmuni“ pa-ragrafi (IV bob)ga qarang).

Yuqoridagi fikrlardan qisqacha xulosa shuki, chet til o'rgatish metodikasi umumiy prinsiplari ushbu chet tilning mohiyatini ifodalash, boshqa predmetlardan uning keskin far-qini ko'rsatish va o'qitish yo'l-yo'riqlarini aniqlashga jiddiy yordam beradi.

Chet til o'qitishning xususiy prinsiplariga kelganda, ular bayon etilgan umumiy prinsiplar bilan mazmunan tutashgan bo'lib, torroq ma'nodagi metodik hodisalarni aks ettirishini ta'kidlash darkor. *Xususiy prinsiplar* tizmasi quyidagilardan ibo-rat: 1) nutq namunasi asosida chet til o'rgatish; 2) til mashq-larini nutq amaliyoti bilan bog'lash; 3) nutq faoliyati turlarining o'zaro munosabati; 4) og'zaki nutqning ilgarilashi; 5) chet tilda tabiiy nutqqa yaqinlashish; 6) ibtidoiy bosqichni jadallash-tirish. Chet tillar o'qitish metodikasi fanida xususiy prinsiplar haqida g'oyat tarqoq va bir-biriga zid ma'lumotlar keltiriladi. Muhokama qilinayotgan xususiy prinsiplar M. V. Lyaxo-ovitskiyning taklifi va tasnifi asosida ko'rib chiqildi.

Xususiy prinsiplarning birinchisi „nutq namunalari asosida chet til o'rgatish“ni tashviqot qiladi. Xalqaro miqyosda chet til o'qitish metodikasida nutq namunasi asos birlik sifatida tan olish oqilona yo'l deb qaraladi. Leksika, grammatika va talaffuz birliklari nutqiy namunalarda o'zlashtirilishi ommaviy tus olgan.

Nutq namunalari ilmiy asosda tanlanadi, taqsimlanadi va mashqlar sistemasida taqdim etiladi. Nutq namunasi og'zaki nutqning ilgarilashi prinsipida, avvalan, tayyor jumla mavqeyiga, soniyan, undagi tarkibiy qismlar almashtirilib, o'rganilayot-ganda tipovoy jumla maqomiga molik bo'ladi. Mas. *I see a pen*, dastavval, o'rganilishida yaxlit (tayyor) jumla tarzida olinadi. So'ngra nutq namunasi (*I see a book, You see a pen/book, I read book*)ning qismlari o'zgartirilganda, tipovoy jumla huquqini oladi. Endi yangi leksik birlikni o'quvchi nutq namu-nasida mustaqil qo'llay oladigan payt keldi. Nutq namunasi so'roq va bo'lishsiz shakllari birinchi bor muallim nutqida tinglab o'rganiladi. Birdan ortiq misolga ega til hodisalari yuza-

sidan mavhumot keltirib chiqariladi, endi boshqalari o'quvchilarning o'zlari tomonidan nutqda qo'llay boshlanadi. Mas. *I see a pen/I read a book* nutq namunasiga taqlidan *I like a book, I write a letter* kabilar mustaqil yaratiladigan jumla-lardir. *Qoida*: ega birinchi, kesim ikkinchi, to'ldiruvchi esa uchinchi o'rinda keladi. *Metodik qonuniyat*: nutq namunasi tanish, so'zlar yangi, so'zlar tanish, nutq namunasi yangi. Har ikkalasi notanish bo'lishi mumkin emas. Notanish hodi-sani ushbu sharoitda muallim taqdim etadi.

Jahon metodikasida nutq namunasining chet til o'rgatish birligi huquqi tan olingan. (Turli mualliflar ushbu termini o'zlari istagan so'zlar bilan yuritishadi: struktura, konstruksiya, model, tipovoy gap/jumla va boshqalar.)

Alqissa: chet tilda og'zaki nutq shaklini o'rgatishda (ruh-shunoslikda „verbalizatsiya“ prinsipida) nutq namunasini o'z-lashtirishdan ish boshlanadi. Audiolingval metodning muhim prinsiplaridan ekanligini eslang. Zamonaviy chet til darsliklari-ning aksariyati ushbu prinsipga asoslanib tuzilgan.

Xususiy prinsiplarning ikkinchisi til mashqlarini nutq ama-liyoti bilan bog'lash masalasiga oid. Til materialini o'rganish kutiladigan maxsus maqsad bo'lmay, chet tildagi nutqni egal-lash zaruriyatiga tobe vosita, deb tushuniladi.

Xullasi kalom, dasturdagi leksikaning to'liq ro'yxatini bi-lish tilni egallash emasdir aslo, balki leksikani nutqda qo'l-lashni bilish qat'iyon talab etiladi.

Til birligining taqdim etilishi (tanishish) bosqichi albatta mashq qilish (ko'nikma shakllanishi) va qo'llash (malakaga erishish) pog'onalaridan ko'tarilish uchungina kerak.

Mashq qilish til birligi taqdimotidan boshlanib, jonli mu-loqot bilan tugallanishi til materialini nutq amaliyotida o'r-ganishni ifoda etuvchi ushbu xususiy prinsipning yagona tala-bidir. Mazkur mavzu chet til o'qitishning amaliy maqsadi (III bob)da ko'rib chiqilgan.

Nutq faoliyati asosiy turlarining o'zaro munosabati muam-mosi prinsiplardan birida qaraladi. Gapirish, tinglash, o'qish va yozuv bir-biri bilan uyg'unlashib ketadi. O'quvchi gapirganida qo'llagan birliklarni tinglab va o'qib tushuna oladi, yozuvda ham ishlata biladi. O'qish til materialini o'quvchi tinglab tushuna oladi. Ko'rinib turibdiki, til materiali ma'lum nutq faoliyati turidan boshqasiga o'tib yuradi.

Gapirish materiali o'qish va yozuvda mustahkamlanadi. O'qish va tinglash matnlari leksikasining bir qismi (teng yarmi) gapirishda takrorlanadi. (VIII sinf ingliz tili darsligiga qarang.) Idrok etib tushunilgan grafik yoki audiomatndan keyin gapirish mashqlari bajariladi. To'rt sezgi/analizator nutq faoliyatida qatnashsagina puxta dinamik stereotip hosil qilinishini eslang.

Muhim xususiy prinsiplardan hisoblanmish og'zaki nutqning ilgarilashi tushunchasi audiolingval metodga ham mansubdir. Prinsipning to'liq nomi „til materialini mashq qilishda og'zaki nutqning ilgarilashi“, deb ataladi. Keyingi paytlarda yana boshqacha qilib, og'zaki nutqning o'qish va yozuvdan oldin yurishi nomi bilan ham atalmoqda.

Og'zaki nutqdan keyin yozma nutq mashqlarini bajarishning qator qulayliklari bor, tovush timsoli grafik shakldan ajratib o'zlashtiriladi, nutqharakat sezgi/analizatori va qo'lharakat sezgi/analizatori alohida-alohida ishga tushadi. Og'zaki va yozma retsepsiya va reproduksiya avval bir-biridan ajratiladi va keyinchalik birlashib, o'zaro mustahkamlanadi. Ilgarilash prinsipi maktab chet til darsliklarida har xil metodik ko'rinishga asoslanib ishlab chiqilgan. (Darslik tarkibidagi „O'qituvchi kitobi“ prinsip g'oyalardan voqif etadi.)

Navbatdagi xususiy prinsip „chet tilda tabiiy nutqqa yaqinlashish“ deb ataladi. Chet tilni o'z ona tillari maqomida biladiganlarning nutq faoliyatida ham mutlaq o'xshashlik bo'lmasligi barchaga ma'lum.

Bir tilda so'zlashuvchilarning ayniqsa talaffuzida tafovut yaqqol bilinadi. Boshqa birliklarda va nutq faoliyati turlarida ham ushbu til egalarining umumiylikka erishishlari amri maholdir. Modomiki shunday ekan, o'quvchilarning chet til ko'nikma va malakalari o'sha tildagiga taxminan o'xshash bo'lishi turgan gap. O'rtada muammo paydo bo'ladi, qanday talaffuzni o'rgatish kerak? Metodika ilmida bunga bop javob topiladi: chet til talaffuziga taxminiy yaqinlashish vazifasi turadi. Agar chet til fonetik hodisasi ma'no o'zgartirishga sabab bo'lsa (mas. ingliz so'zi oxiridagi (auslaut) jarangli undoshning jarangsizlanishi), ushbu tovush me'yorda to'g'ri talaffuz etilishi shart qilib qo'yiladi. So'zning boshqa qismida (anlaut, inlaut) kelganda, unga kamroq ahamiyat beriladi, chunki u ma'no o'zgartirmaydi.

Tabiiy nutqqa yaqinlashish prinsipi grammatik yoki leksik birlikni o'rgatishda ham xuddi shunday talqin etiladi. Mas. o'quv-

chilar yakkanutq yoki juftnutqda qatnashayotganlarida yo'l qo'yishgan ba'zi grammatik xatolar, nutq mazmuni talabiga javob bergan taqdirda, o'quvchi bahosini muallim pasaytirmaydi, chunki fikr bayon etish/almashish chet til o'qitishda yagona maqsad, til xatosi keyin to'g'rilanishi mumkin bo'lgan hodisadir.

O'quvchi nutqining chet tildagi nutqqa taxminiy yaqinlashishi uning xato qilib qo'yishdan xavfsirashi, to'g'ri ayta olish/olmasligidan xavotirlanishi kabi psixologik to'siqlarni yengishi uchun katta yo'l ochadi, erkin gapirish va bamaylixotir muloqotga kirish imkoniyatini yaratadi.

Xususiy prinsiplardan muhokama etiladigan so'nggisi „ibtidoiy bosqichni jadallashtirish“ nomini olgan. Aniqroq qilib aytganda, chet til o'qitishning dastlabki bosqichida jadal ishlash demakdir.

Boshlang'ich bosqichda o'quvchilar chet til bilan haftada, keyingi sinflarga nisbatan, ko'proq shug'ullanadi. Chet til kursining (jadal/intensiv) mashg'ulotlari samaradorligi yuqori ekanligi tajribadan ma'lum. Og'zaki nutqni jadal egallash dars soatlarining tez-tez takrorlanishiga bevosita bog'liq. Haftada to'rt-besh marta dars o'tilishi gapirish ko'nikma va malakalarining shakllanishida hal qiluvchi omildir. Albatta, boshqa tomonlar (mas. sifatli darslik, o'qituvchi metodik malakasi) ham ahamiyatga molikdir.

Umumiy va xususiy prinsiplar qatorida chet til o'qitish maxsus prinsiplarini bilish ta'lim jarayonini boshqarishda qo'l keladi. Maxsus prinsiplar metodik qo'llanmalarda to shu vaqtgacha ilmiy andazalanganicha yo'q. Ularni yirik metodistlar ilmiy tadqiqotlaridan terma usulda o'rganib olish mumkin. *Maxsus prinsiplar* til materiali (leksika, grammatika, talaffuz) yoki nutq faoliyati turlari (gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuv), ta'lim (texnikaviy/notexnikaviy) vositalari asosida sistemalashtirilgan. O'zbek maktablari uchun ham chet til o'qitish maxsus prinsiplari tizmasi tadqiq etilishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlarda chet til grammatikasini (V. S. Setlin) va leksikasini o'rgatish (V. A. Buxbinder), chet tilda o'qishni o'rgatish (S. K. Folomkina), chet til o'rgatishda tovush yozuvidan foydalanish (M. V. Lyaxovitskiy) bo'yicha maxsus prinsiplar mukammal ishlab berilgan.

Maxsus prinsiplar mufassal bayoni chet til o'qitish vositalari va nutq faoliyati turlarini o'rgatish haqidagi boblarda bayon etiladi.

Chet til o'qitish prinsiplari

Didaktik prinsiplar

Tarbiyaviy ta'lim

Onglilik

Faollik

Ko'rgazmalilik

Puxta o'zlashtirish

Individual yondashish

Sistemalilik

Oson/qiyinlik

Psixologik prinsiplar

Verbalizatsiya

Korrelyatsiya

Metodik prinsiplar

Umumiy prinsiplar

Xususiy prinsiplar

Maxsus prinsiplar

Chet til o'qitish metodikasi prinsiplari

Umumiy prinsiplar

Nutqiy yo'nalganlik

Chegaralab va yaxlit o'rgatish

Mashqlar bajarish

Til tajribasini hisobga olish

Nutq namunasi asosida chet til o'rgatish

Til mashqi va nutq amaliyoti bog'liqligi

Nutq faoliyati turlarining o'zaro munosabati

Og'zaki nutqning ilgariyasi

Chet tilda tabiiy nutqqa yaqinlashish

Ibtidoiy bosqichni jadallashtirish

Xususiy prinsiplar

Grammatikani o'rgatish (V.S. Setlin prinsiplari)

Leksikani o'rgatish (V.A. Buxbinder prinsiplari)

O'qishni o'rgatish (S.K. Folomkina prinsiplari)

Chet til o'rgatishda nutq yozishni qo'llash (M.V. Lyaxovitskiy prinsiplari)

Maxsus prinsiplar

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Chet til o'qitishda qo'llanadigan prinsiplarni nommanom ayting.
2. Chet til o'qitish metodikasi prinsiplari nechta va qanday guruhlarni tashkil etishini bilib oling.
3. Ayrim prinsiplar haqida o'z fikringizni bayon etishga tayyorlaning.

VI BOB. CHET TIL O'QITISH VOSITALARI

1-§. O'qitish vositalari tasnifi

Ko'hna zamonlardayoq ota-bobolarimiz farzandlarini hisobga o'rgatish chog'ida rangli toshlar, hayvon suyaklari kabi narsalardan foydalanilgani insoniyat tarixidan ma'lum. Qadimgi „hisob o'rgatish“ vositalaridan tortib, to o'qitishning texnika vositalari ixtiro qilingunga qadar (XX asrning boshida gramplastinka chiqarilgan) ming yilliklar davomida odam bolasi ta'lim oldi, o'rgandi, tarbiyalandi. XX asr texnika inqilobi zamoni deyiladi. Chet tillarni o'rgatishda ham tovush yozish asboblari (fonograf)dan foydalanish davri boshlandi. O'tgan asr o'quv-tarbiya jarayonini texnikalashtirish bilan tarixiy ahamiyatga molik.

Chet tilni o'qitish vositalari o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish manfaati yo'lida ishlatiladigan barcha o'quv qurollarini o'z ichiga oladi.

Har bir faoliyat yurituvchida ish quroli bo'lganidek (mas. dehqon — ketmon, o'roq; ishchi — bolg'a; adib — qog'oz, qalam), o'quvchi va muallim ham tegishli o'quv qurollari (o'qitish vositalari) bilan ta'minlanadi. Qalam, ruchka, daftar, o'chirg'ich, chizg'ich kabilar aksariyat o'quv pred-metlariga taalluqli bo'lganligidan, chet til o'quv qurollari ro'yxatiga kiritilmaydi.

Fanshunolikdagi narsa va hodisalarga sistemali-strukturali yondashish nuqtayi nazaridan chet til o'qitish uch tarkibli ta'limiy tushunchadir: muallim — o'qitishning tashkilotchisi, o'qitish vositalari, o'quvchi — ta'limga oluvchi. Mazkur didaktik nazariyaga binoan o'quv vositalari muallim va o'quvchi o'rtasidagi ta'limiy ko'prik bo'lib, unda o'quv jarayoni o'z ijrosini topadi.

Chet til muallimi o'quvchilarga ta'lim berish chog'ida o'quv vositalarini jo'yali qo'llash yo'l-yo'riqlarini chuqur

bilishlari talab etiladi. Shuning uchun ham o'qitish vositalarining ta'limiy tasnifiga ehtiyoj seziladi.

Chet til o'qitish maqsadlarining ro'yobga chiqishida foydalaniladigan vositalarning metodik tasnifi quyidagicha: 1) bajara-digan vazifasiga ko'ra asosiy va qo'shimcha (yordamchi) o'quv qurollari turlari; 2) kimga mo'ljallanganligiga qarab muallim yoki o'quvchilar qo'llaydigan o'quv qurollari; 3) axborot keladigan yo'l (analizator)ga nisbatan — eshitish, ko'rish, eshitib-ko'rish nomlaridagi; 4) texnika ishtirokini hisobga olib, an'anaviy (notexnik) va zamonaviy (texnik) atalmish o'quv qurollari; 5) ishlab chiqarilishi nuqtayi nazaridan — ommaviy va mahalliy o'quv qurollari mavjud.

Ilmiy manbalarda nomlari keltiriladigan *asosiy* o'quv qurollariga dastur, darslik (o'quvchi kitobi va muallim kitobi, o'qish kitobi) kiritiladi. O'quv-metodik komplektning tarkibidagi boshqa vositalar *yordamchi* hisoblanadi. O'qitish vositalarining bunday shartli bo'linishi maktab hayotida o'zini unchalik oqlamaydi. Ayrim maorifchilar qo'shimcha vositalarni qo'llash majburiy emas, degan fikrga boradilar. Undan tashqari o'zbek maktablari uchun qo'shimcha vositalar majmuasi hozircha ishlab chiqilmaganligiga ham shu bahona bo'lsa kerak. Binobarin, barcha zaruriy o'quv qo'llanmalarini asosiy va yordamchi nomlari bilan yuritilishi ma'qulroq ko'rinadi.

Muallim va o'quvchilarga mo'ljallangan vositalar yuzasidan ham metodik munozaraga chek qo'yilmagan. Chunki bevosita muallimda bo'ladigan o'quv dasturi va muallim kitobi bilvosita o'quvchilarni nazarda tutadi. Yoki til o'rganuvchilarga bevosita beriladigan o'quvchi kitobi, o'qish kitobi, maktab lug'ati o'qituvchi tomonidan har doim hisobga olinadi. Muallim ixtiyorida turadigan, o'quvchi darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llaydigan vositalar — tovush yozuvi, rasmlar, diafilm, diapozitiv, kinolavha kabilar muallim yoki o'quvchi nomi bilan bir tomonlama bog'lanmaydi, chunki ular o'quvchi uchun mo'ljallanib, o'qituvchi ixtiyori bilan ishlatiladi.

Analizatorlar ishtirokidan kelib chiqqan nomlardagi eshitish, ko'rish va eshitib-ko'rish vositalari an'anaviy o'quv qurollari tarkibiga kiradi. Demak, bular asosiy qurollar doirasidan tashqaridadir, texnikaviy va notexnikaviylarning tobe tushunchalaridir.

Texnikaviy va notexnikaviy turlar ichida hamma o'quv vositalari sanab o'tiladi. Bularda analizatorlar ishini nazarda

tutuvchilari ham, asosiy va yordamchi vosita hisoblanmishlari ham uchraydi. Muallimga mo'ljallangan vositalar bundan mustasno.

Ommaviy o'quv qurollari deganda, bosmaxona yoki zavod (fabrika)da tayyorlanadigan, respublika miqyosida taqsimlanadigan (asosiy va yordamchi) vositalar tushuniladi. „Mahalliy“ termini esa, maktabda yoki tuman/shahar hududida ishlab chiqilgan, jumladan, o'quvchi/muallim kuchi bilan yasalgan qurollarga tegishlidir, mas. yasama (qo'lbola) tayyorlangan jadval, rasm, o'yinchoq kabilar.

Xulosa shuki, chet til o'qitish vositalari quyidagi tartibda tasniflanadi: asosiy va yordamchi o'quv qurollari, ular tarkibiga texnikaviy (zamonaviy) va notexnikaviy (tarixiy yoki an'anaviy) va bularning ikkalasida ham eshitish, ko'rish va eshitib-ko'rish — o'qitishning audiovizual vositalari (O'AVV) mavjud. Eshitish, ko'rish va eshitib-ko'rish vositalari, o'z navbatida, yanada kichik toifalarga bo'linadi. Chet til o'qitish metodikasi masalalariga bag'ishlangan darslik va qo'llanmadan tortib, to ilmiy maqolalar, metodik xat, ishlanma va tavsiya kabilargacha chop etiladigan materiallar metodik adabiyot deyiladi. Muallimga mo'ljallanadigan bunday metodik manbalar o'quv vositalarini hisobga olgan holda tayyorlanadi.

O'qitish vositalari tarkibiga kiritiladigan har bir turini quyidagi „Asosiy va yordamchi vositalar“ mavzularida muxtasar ta'rif-tavsifi bilan yoritiladi.

Aytilgan mulohazalarga qo'shimcha qilib, shularni ta'kidlash kerakki, o'qitish vositalari birinchi o'quv yilidan oxirgi yilgacha bir me'yorda qo'llanmaydi. Ularning ayrimlari ko'proq, qolganlari siyrakroq ishlatiladi.

Dastur muallim uchun to'liq kurs davomida, o'quvchi kitobi har bir sinf uchun, muallim kitobi ham sinflar bo'yicha qo'llanadi. Asosiy o'qish kitobi, lug'at birinchi va ikkinchi yilda zarur emas. Rasmlar albomi, osma rasmlar va didaktik tarqatma material kabilar boshlang'ich bosqich uchun ayniqsa qo'l keladi. Chet tilda gazetalar, ma'lumotnoma, qo'shimcha o'qish kitoblari yuqori sinflarda qo'llanadi.

Dars bosqichiga qarab, o'qitish vositalari farqlanadi. Tarqatma material o'quv birliklarini takrorlash va mustahkamlashga, flanelegraf esa yangi so'zlarning ma'nosini ochishga, ma'lumotnomalar grammatik hodisalarni takrorlashga mo'ljallanadi.

O'qitish vositalari tasnifi jadvalda keltiriladi.

| O'qitish vositalari | | O'quvchi uchun | Muallim uchun |
|---------------------|---------------------|--|---|
| O M M A V I Y | Asosiy vositalar | 1. O'quvchi kitobi 2. O'qish kitobi | 1. Dastur 2. Muallim kitobi |
| | Yordamchi vositalar | 3. Fonogrammalar 4. Fotogrammalar (Videogrammalar) 5. Didaktik qirqma material 6. Rasmlar albomi 7. Bosib chiqarilgan mashqlar 8. O'qish kitobi (qo'shimcha) 9. Lug'atlar 10. Ma'lumotnomalar 11. Chet tilda gazetalar | 5. Videofonogrammalar 6. Didaktik tarqatma material 7. Flanelegraf uchun material 8. Osma rasmlar 9. Osma jadvallar 10. Programmali mashqlar 11. Laboratoriya ishlari 12. Sinfidan tashqari ishlar uchun qo'llanma |
| MAHALLIY | | O'yinchoqlar, rasmlar, jadvallar..., magnit yozuvlari, radioeshittirish, teleko'rsatuv, videokassetalar... | |
| Metodik adabiyotlar | | | Kitoblar, jurnallar, to'plamlar... |

O'quv-metodik topshiriqlar

1. „O'qitish vositalari“ deganda nimani tushunasiz?
2. Ommaviy va mahalliy o'quv vositalarini farqlang.
3. O'quv qurollari tasnifi haqida fikr yuriting.
4. „Tarixiy“ va „zamonaviy“ terminlarini tushunib oling.

2-§. O'qitishning asosiy vositalari

O'quv dasturi va darslik chet til o'rgatishning asosiy vositalarini tashkil etadi. Dastur respublika Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan metodistlar tuzgan davlat hujjatidir. Darslik ham vazirlik tasdiqlaydigan, biroq mualliflar nomidan

nashr etiladigan o'quv vositasidir. So'nggi yillarda „darslik“ termini ifodalaydigan ma'no doirasi birmuncha kengaydi. Darslikning tarkibida uch kitob beriladi: 1. O'quvchi kitobi; 2. Muallim kitobi; 3. O'qish kitobi. Ular darslik ilovalari emas, balki bevosita tarkibiy qismlari sanaladi. Shunday qilib, ushbu paragrafda to'rtta nomdagi (dastur, o'quvchi kitobi, muallim kitobi, o'qish kitobi) o'quv vositalarining atroflicha tahlili keltiriladi.

Dastur. Hujjatning to'liq nomi „O'rta maktablar uchun chet tillar (ingliz, ispan, nemis, fransuz tillari) bo'yicha dastur“ tarzida qabul qilingan. Sharq tillaridan ham dasturlar tayyorlangan. Ushbu o'quv vositasida chet til o'qitishning maqsadlari va vazifalari, o'quv jarayonini tashkil qilish shakllari (dars, darsdan tashqari ishlar, mustaqil ishlar) haqida umumiy ko'rsatmalar beriladi.

Dastur sahifalari „Uqtirish xati“ bilan ochiladi. Unda chet til o'qitish amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarining o'quv jarayonida ro'yobga chiqishiga doir metodik yo'llanma beriladi. Har bir sinf va ta'lim bosqichlarida qo'yiladigan o'quv vazifalari (oraliq maqsadlar) izohlanadi. Og'zaki nutqning ilgarilashi prinsipiga ko'ra o'qitilishi tushuntiriladi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda ta'limning texnikaviy vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Predmetlararo aloqalar ahamiyati ta'kidlanadi. Ona tili, ikkinchi til va chet til aloqasi, bir tomondan, chet til va tarix, geografiya, adabiyot va hatto tabiiy fanlar orasida aloqa, ikkinchi tarafdin, zarurligi uqtiriladi.

O'quv rejasiga asoslanib, chet til o'qitish kursiga ajratiladigan dars soatlari ko'rsatiladi. Ular sinflar bo'yicha taqsim qilib beriladi. Haftalik, shuningdek, yillik soatlar miqdori turli tashkiliy sabablarga ko'ra o'zgaruvchan bo'ladi. Uqtirish xatida chet til ta'limi mazmuni ham o'rin egallaydi. O'rta maktab kursi yakunida o'zlashtirish talab qilinadigan o'qitish mazmuni umumlashtirilgan holda sanab o'tiladi: nutq faoliyati turlarini egallash ko'rsatkichlari (ko'nikma va malaka), nutq mavzulari, til materiallari. Bularning qisqacha tahlili dasturning asosiy qismida sinflar bo'yicha kengaytirilib, aniq-ravshan bayon etiladi.

Nutq faoliyati turlari ko'rsatkichlari, nutq mavzulari va til materiallari sinfma-sinf sanab o'tiladi. Til materialida leksik, grammatik va talaffuz hodisalari (leksik faqat miqdoran), til

texnikasi — o‘qish va yozish hamda tipovoy va tayyor jumla- lar ro‘yxati keltiriladi.

Dastur ilovasida audiovizual vositalar, ko‘nikma va mala- kalarni nazorat qilishga oid tavsiyalar, ayrim adabiyotlar ro‘yxati keltirilishi mumkin.

Xullas, dastur uch qism (uqtirish xati, asosiy qism — sof dastur va ilova)dan tuzilgan bo‘lib, unda ta‘lim maqsadlari va mazmuni bayon etiladi. O‘qitish metodlari unda yoritilmaydi (metodik tavsiyalar esa, „O‘qituvchi kitobi“dan joy oladi). Dastur darslik tuzish va o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil qilishda dasturulamal hisoblanadi.

Dasturni muallim bajaradi, o‘quvchi esa uni o‘zlashtiradi.

O‘zbek maktablari uchun dastur tayyorlashning o‘z tarixi bor. 1968- yilda ilk bor dastur loyihasi (rus tilida) e‘lon qilingan. Loyiha muhokama va munozaralardan o‘tkazilib, 1970/71- o‘quv yilidan maktablarda joriy qilindi va 1999- yil- gacha shu dastur zaminida tuzilgan darsliklar amalda qo‘l- lanildi. 1999- yilda yangi o‘quv dasturi tasdiqlandi va uning asosida bosqichma-bosqich yangi darsliklar yaratildi. Hozirgi paytda dastur va darsliklar mazmuniga zamonaviy o‘zgar- tirishlar kiritib kelinmoqda. (1968- yilga qadar o‘zbek maktab- larida Rossiya uchun mo‘ljallangan dasturlarning mahalliy- lashtirilgan nusxalaridan foydalanib kelingan.)

Darslik. Darslik umumiy termin bo‘lib, o‘quvchi, muallim va o‘qish kitoblari yig‘indisidir.

O‘quvchi kitobi (darslikning muhim tarkibiy qismi) haqida gap borganda, uning mazmuni, tuzilishi va bezatilishi tahlil qilinadi.

O‘quvchi kitobining asosini mashqlar tashkil qiladi. Ki- tobda turli ilovalar berilishi mumkin. (Mashqlar haqida ushbu kitob boshlanishida material berilgan.) Mashq tarkibiga til mate- riali, mavzu, matn, til texnikasi, til mavhumoti va tasviriy be- zaklar kiradi. Mashq ko‘nikma va malaka hosil qilishda barcha tar- kibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Tasviriy bezak materiali mashq- dan ajralgan holda bo‘lishi mumkin emas. Qoida (mavhumot) ushbu mashqdagi til hodisasi bilan uzviy bog‘lab o‘rganiladi.

Mashqning talabi va materiali bor. Talab yuz foiz mashqda beriladi, material esa ochiq yoki xufiya tarzda bo‘lishi mumkin. Mashqning xufiya tarzidagi materialiga misollar: „Rasmga qarab, chet tilda gapirib bering“, bu yerda nutq nazarda tuti- ladi. Yoki „Sifatning qiyosiy va orttirma darajalarini qo‘llab,

gaplar tuzing“, bunda til birligi oldin o‘rganilganligi hisobga olinib, til tajribasidagi leksik-grammatik birliklarni qo‘llash tavsiya etiladi va h.k.

O‘quvchi kitobi hozirgacha darslik deb kelinadi. Metodik termin („darslik“) o‘zagi arabcha „dars“ va turkiy qo‘shimcha „-lik“ qismlaridan tuzilgan. O‘quvchi kitobida darslarning birinchi soatidan oxirgisigacha majmuasi beriladi. Darslar choraklarga ajratilgan bo‘ladi.

Dars termini ikki ma‘noni ifodalaydi: 1) o‘quvchi kitobidagi akademik soat (=45 minut)ga mo‘ljallangan o‘quv materialini mashqlar vositasida taqdim etiladi; 2) sinfda 45 minut davom etadigan o‘quv jarayoni tushuniladi.

Birinchi ma‘noda chet til darsligi (o‘quvchi va muallim kitoblari), o‘z navbatida, ikki tushunchaga ajraladi: 1) bir soatlik o‘quv materialini va 2) ikki va undan ortiq miqdordagi qo‘shilgan darslar guruhi (paragraf). „Dars“ termini chet tillarda *lección* (isp.), *leçon* (fr.), *Lektion* (nem.), *lesson* (ingl.), *ypok* (rus) so‘zlari orqali ifodalanadi. Biroq nemis tilida ushbu so‘z darslar guruhi ma‘nosida keladi, bir soatlik dars materialini esa *Stunde* deyiladi.

Har bir dars ikki toifa — sinf va uy mashqlarini o‘z ichiga oladi. Sinf mashqlari imkon boricha to‘rtala nutq faoliyati turida bajariladi, uy mashqlarining deyarli hammasi yozma bajarishga mo‘ljallanadi.

O‘quv yilining boshida (sentabr oyining birinchi haftasida) muallim o‘quvchilarga o‘quvchi kitobi yuzasidan „sayohat uyushtirishi“ tavsiya etiladi. Tanishtirish davrida asosiy qism va ilovalarning tafsiloti bayon etiladi. Kitobdan foydalanish yo‘llari tushuntiriladi. Raqamlar, harfiy belgilar, bosma harflar turlari ifodalaydigan tushunchalarni o‘quvchilar o‘rganib olishlari kerak.

Dars o‘tish yo‘l-yo‘riqlari haqida muallim kitobidan batafsil ma‘lumot olinadi.

Muallim kitobi. Ko‘rib chiqilgan o‘quvchi kitobi asosida til o‘rganuvchi faoliyat ko‘rsatadi, muallim kitobi esa o‘rgatuvchi tomonidan o‘quvchi faoliyatini boshqarishni tashkil etishga mo‘ljallanadi. Ta‘lim barcha tillarda olib boriladigan maktablar uchun 5—9- sinflar darsligi tarkibida muallim kitoblari ham (ingliz tilida) chop etilgan. Muallim kitobi, ko‘pincha, ikki-uch bo‘limdan tashkil topadi. Avvalambor, o‘quvchi kitobi ilmiy asoslanadi, soniyan, darslarning metodik ishlanmalari joy oladi va, nihoyat, chorak va yillik rejalar, til materialini ro‘yxatlari ilova qilinishi mumkin.

Dars o‘tish metodik tavsiyalari maslahat tariqasida beriladi. Amalda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalari farqlanishi munosabati bilan darsdagi mashqlar miqdori va sifati qisman qayta ko‘rib chiqilishi muallimga havola. Muallim kiritadigan o‘zgartirish til materialining yangi birliklarini qo‘shish emas, balki taqdim etilgan til hodisalarini o‘rgatish usullarini almash-tirish bilan bog‘liq.

O‘qish kitobi. Metodikada ushbu termin ikki ma’noda ishlatiladi: 1) o‘quvchilar darsdan tashqari o‘qiydigan kitob; 2) o‘quvchi kitobining davomi sifatida tuzilgan o‘qish kitobi. Har ikkalasi ham axborot olish maqsadida o‘qiladi. Biroq ik-kinchisi darsda o‘rganiladigan til materialini hisobga oladi. (Birinchisi o‘quvchi kitobiga bog‘liq emas, darslik komplektiga kirmaydi, uni „qo‘shimcha o‘qish kitobi“ desa bo‘ladi.) Demak, muhokamadagi o‘quv vositasini darslikka „asosiy o‘qish ki-tobi“ deyish o‘rinlidir.

Asosiy o‘qish kitobi uyda mutolaa qilinadi. Mutolaa natijasi darsda tekshiriladi. O‘qilgan materialni gapirib berish, u haqda savol-javob qilish, mazmunini yozma ifoda etish kabi nazorat usullaridan foydalaniladi.

Muallim ko‘magida o‘quvchilar mutolaa kitobidan foyda-lanish malakasini egallaydilar. Matndan yangi va foydali axborot yig‘ish, mutolaa davrida lug‘atdan foydalana olish kabi yo‘l-yo‘riqlar o‘quvchiga oldindan o‘rgatiladi.

Amaliy maqsad sari intilishda o‘qish kitobining ahamiyati beqiyosdir, chunki darslikdagi matnlar kifoya qilmaydi.

O‘quv-metodik topshiriqlar

1. „Darslik“ tushunchasini metodik tahlil eting.
2. Dastur va darslik orasidagi munosabatni aniqlang.
3. „O‘quvchi kitobi“ va „mashq“ terminlarini izohlang.

3-§. O‘qitishning yordamchi vositalari

Yordamchi vositalar, yuqorida ta’kidlanganidek, texnikaviy va notexnikaviy toifalarga bo‘linadi. Texnikaviy vositalarni, o‘z navbatida, uchga bo‘lish mumkin: fonogrammalar, fotogram-malar va videofonogrammalar. Fonogrammalariga gramplastinka va magnit tasmasiga yozilgan jonli nutq kiradi. Videogramma (fotogramma)da slaydlar, diafilmlar, ovozsiz kinofilmlar va kodopozitivlar bo‘ladi. Videofonogramma esa ovozli kinofilmlar,

videoyozuv yoki fonogrammalar bilan videogrammalar birlashtirilgan yozuvlarni nazarda tutadi.

Ta'limda texnika vositalaridan ommaviy tus olgani fonogrammadir. Fonogramma yordamida darsda chet til muhiti yaratiladi. O'quv jarayoni ko'rgazmali kechadi. Har bir o'quvchi o'z qobiliyatiga yarasha mashqlar bajaradi.

Tovush yozish apparatlari yordamida eshitish sezgisi/analizatori orqali o'quv axboroti yetkaziladi. O'rganilayotgan o'quv materialini proyeksion apparat yordamida ko'ruv sezgisi/analizatori orqali ko'rsatilishi fotogramma yordamida amalga oshiriladi.

Ko'ruv va eshitish sezgisi/analizatori orqali tovush-yorug'lik texnikasi yordamida axborot bir paytning o'zida videofonogrammadan foydalanib ko'rsatiladi va tinglashga qo'yiladi.

Kiyevlik marhum metodist, prof. M. V. Lyaxovitskiy fonomaterialdan foydalanishning oltita maxsus prinsiplarini puxta tadqiq etgan:¹ 1) ovozli nutqni oldin tinglash prinsipi (chet til o'rgatish tinglab tushunishdan boshlanadi); 2) ko'p marta takrorlash prinsipi (tovush yozuvi takroran tinglanishi mumkin); 3) nutq oqimi bo'linishi va to'xtab olish prinsipi (nutq parchalarga ajratilishi va pauzada o'quvchi mashq bajarishi mumkin); 4) nutq namunasiga taqlid qilish prinsipi; 5) qiyoslash, o'zini nazorat etish va to'g'rilash prinsipi; 6) nutq faoliyatini boshqarish prinsipi.

Fonogramma turlari yakkanutq va juftnutqni rivojlantirishda qo'llanadi. M. V. Lyaxovitskiy fonogrammaning sakkiz turini sanab o'tadi. (Ular haqida ta'limning texnika vositalari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarida ma'lumot berilgan).

Fonomashqlar jadvali M. V. Lyaxovitskiy tomonidan tavsiya etilgan:

| Nutq shakllari | Mashqlar turlari | Qo'llash maqsadi |
|----------------|------------------|-------------------------------|
| 1. Yakkanutq | Tayyorlov | Tinglab tushunishni o'rgatish |
| 2. Yakkanutq | Nutqiy | Tinglab tushunishni o'rgatish |
| 3. Juftnutq | Tayyorlov | Tinglab tushunishni o'rgatish |
| 4. Juftnutq | Nutqiy | Tinglab tushunishni o'rgatish |
| 5. Yakkanutq | Tayyorlov | Gapirishni o'rgatish |
| 6. Yakkanutq | Nutqiy | Gapirishni o'rgatish |
| 7. Juftnutq | Tayyorlov | Gapirishni o'rgatish |
| 8. Juftnutq | Nutqiy | Gapirishni o'rgatish |

¹ Qarang: M. B. Ляховицкий. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. — М: Высшая школа, 1981. — 76—77-бетлар.

Fonogrammaning birinchi turi, ayniqsa, boshlang'ich bosqichda zarurdir. Tinglab tushunishni o'rgatishda avval so'zlar, so'z birikmalari, keyin jumlarar eshitishga qo'yiladi. Ikkinchi turda bog'lanishli (ravon) nutq eshitiladi.

Uchinchi turida chet tildagi juftnutq tinglanadi. Sodaroq dialoglar bajariladi. To'rtinchi turida „tabiiy“ dialog tinglanadi. Nutq tezligi oshiriladi. Ikkinchi/uchinchi o'quv yillarida bu ish jadal boshlanadi. Beshinchi turi grammatik materialni o'rganishda ko'proq qo'l kelib, tovush yozuviga taqlid qilish vositasida o'zlashtiriladi. Oltinchi turida gapirish mashq qilinadi. Hikoya qilish yoki matn mazmunini so'zlab berish chog'ida o'zlashtirish darajasi nazorat qilib boriladi. Yettinchi turida juftnutq ko'nikma va malakalarini shakllantirishga e'tibor beriladi: Diktorlar suhbatiga (juftnutqqa) taqlidan mashq o'tkaziladi. Sakkizinchi turi sof nutq malakalarini egallash maqsadida bajariladi. „Tabiiy“ nutq odatdagi tezlikda egallanadi. Ushbu juftnutq o'zgacha nutqiy vaziyatlarda ham mashq qilinadi.

Qayd etilgan sakkizta fonogramma muayyan sharoitni hisobga olib, hamma sinflarda ham qo'llanishi mumkin.

Fonogrammalar talaffuz fonomashq, grammatik fonomashq va leksik fonomashq tarzida o'quvchilar guruhi bilan yoki alohida-alohida bajarilishi mumkin.

Yordamchi o'quv vositalari orasida notexnikaviy turlari ham mavjud. Ular audiovizual an'anaviy vositalar deyiladi.

Ko'rgazmali qurollar to'plami. Rasmi qo'llanma (albom)da narsa, mavzuga oid va sujetli tasvirlar to'planadi. Ulardan til materialining taqdimoti bosqichidan to nutq malakalarini nazorat qilishgacha foydalanish mumkin. Ular nutq vaziyatini yaratishga yordam beradi. Chop etilgan hamda o'quvchilar o'zlari chizgan rasmlar ham tavsiya etiladi.

Flanelegraf (magnit taxtasi) uchun applikatsion (yopishtiriladigan) materialdan muallimlar yoppasiga foydalanishadi. Uning ahamiyati ayniqsa dastlabki bosqichda beqiyosdir.

Tarqatma material. Rasmlar va kartochkalarni o'quvchilar orasida tarqatib, muallim turli o'quv-metodik vazifalarni bajaradi. Til materialini mustahkamlash, nutq ko'nikma va malakalarini o'stirish, ularni nazorat qilishda tarqatma material muhim o'rin egallaydi.

Chet til o'qitishda samarador vositalardan diafilmlar va kinolavhalar maktabda ommalashgan. Ular bilan markazlashtirilgan holda ta'minlanadi yoki joylarda yasama (mahalliy) o'quv qurollaridan ham foydalanishadi.

Respublika maktablarida texnika vositalaridan foydalanish sohasida muallimlar talay tajribalar to'plashgan. Shulardan biri Qo'qon shahridan nemis va ingliz tili muallimi, pedagogika fanlari nomzodi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi Erkin Ergashevdir. Tajribali pedagog 23- va 29- maktablarda uzoq yillar davomida qilgan ishlari yakunini maxsus kitob holida nashr etgan.¹

O'qitish vositalari saqlanadigan va qo'llanadigan joy — chet til xonasidir. Chet til xonasida dars o'tiladi va mustaqil ishlar bajariladi.

Audiovizual vositalardan nnumli foydalanish bir qator afzalliklarga ega, chunonchi, birinchidan, ta'lim jarayonini jadallashtiradi, ikkinchidan, o'quv materialini o'zlashtirish samarasini oshiradi, uchinchidan, muallimning ta'lim jarayonini boshqarishini osonlashtiradi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. O'qitishning yordamchi vositalari nimalarni o'z ichiga olishini muhokama qiling.
2. Fonogrammalardan foydalanish prinsiplarini ayting.
3. Muallim va o'quvchi uchun alohida mo'ljallangan o'qitish vositalarini sanab bering.

VII BOB. CHET TIL O'QITISH METODIKASI TARIXI

Chet tillarni o'rgatish tarixiga oid ma'lumotlar ko'hna zamonlarga borib taqaladi. Turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar o'zaro qo'shnichilik munosabatlari o'rnatilishi bilan bir paytda bir-birining tilini, u orqali urf-odatini, hayot tarzini o'rgana boshlashgan. Savdo va madaniy aloqalar jonlanishi tufayli chet tillarni amaliy va ta'limiy maqsadlarda o'rganish yo'lga qo'yila borgan. Qadimiy Suriya va Misr, Yunoniston va Rumoda madaniyat taraqqiyoti davrlarida o'zga xalqlar tillarini o'rganish odatga aylangan.

O'rta asrlar adabiy yodgorliklari va Yevropa tillariga kirib kelgan xorijiy so'zlar shundan dalolat beradiki, xalqlar o'z-galar tilini o'rganish borasida ajoyib tajribalar orttirgan.

Ma'lumki, sharq musulmon mamlakatlarida arab, fors, tur-

¹ E. Ergashev. Chet til o'qitish jarayonida texnika vositalaridan foydalanish. — Toshkent: O'qituvchi, 1984.

kiy tillarda soʻzlashuvchi xalqlar ushbu tillarning ikkitasi yoki uchalaridan ham xabardor boʻlishga intilishgan. Toʻgʻri, birdan ortiq til bilish yoppasiga anʼana tusini olgan emas. Koʻp tillilik (poliglossiya) hodisasi ziyolilar orasida tarqalgan. Jahon tarixida barchaga ayonki, bobokalonlarimiz Abu Nasr Forobiy (bir necha oʻnlab tillarni bilgan), Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy („algoritm“ ilmiy termini uning nomidan olingan), Abu Rayhon Beruniy (qadimiy hind tili — sanskritdan arabchaga ilmiy kitoblarni erkin tarjima qilgan), hazrat Alisher Navoiy (zullisonayn shoir), ulardan keyin yashab, ijod qilgan koʻplab buyuk yurtodoshlarimiz chet tillarni bilish xosiyatini targʻib va tashviq qilishgan. Osiyo va Yevropa qitʼalarida xorijiy tillarni oʻrganish masalalari metodika tarixida koʻrib chiqilgan.

Keyingi ikki asr davomida gʻarbiy Yevropa tillarini oʻrganish metodikasi ilmiy manbalarda atroflicha tadqiq qilingan. Afsuski, sharq tillarini oʻrganish tarixiga oid nufuzli ilmiy-metodik tadqiqot yaratilgan emas.

Mashriqdan magʻribgacha, Yevropadan Amerikagacha boʻlgan hududlarda yashovchi xalqlarning chet til oʻrganish tarixi bir necha jildlik metodik asarlar uchun yetgulik va arzigulik ilmiy ummondir. Tadqiqotchilar qalamiga mansub turli tillarda mavjud risola va maqolalardan foydalanib, ushbu bobda chet til oʻqitishning muxtasar tarixi yoritiladi.

Yuqorida (V bobda) taʼkidlanganidek, chet til oʻqitish metodikasida talqini berilgan „metod“ terminining ikkinchi maʼnosi „oʻqitish sistemasi“ ushbu bobning mazmunini tashkil etadi. (Birinchi maʼnosi „yoʻnalish“ — tarjima, toʻgʻri, qiyosiy va aralash metodlar va uchinchi maʼnosi — „oʻquvchi/muallim faoliyati usuli“ V bobda koʻrib chiqildi.) Metodika tarixida, shuningdek, sobiq Ittifoq va respublikada chet til oʻqitish metodikasi tahlil qilinadi.

1-§. Chet til oʻqitish metodlari tarixi

Chet til oʻqitish tarixida metodlar (V bob, 1-§ ga qaralsin) toʻrt nom bilan maʼlum va mashhur: tarjima, toʻgʻri, aralash va qiyosiy. Ushbu metodlar muayyan metodistlar ilmiy asarlari va oʻquv qoʻllanmalarida oʻz taʼrif-tavsifini topgan, yaʼni oʻsha davr chet til oʻqitish tajribasi maʼlum darslik asosida roʻyobga chiqarilgan va yetuk metodist-olim yoki muallim ilmiy qarashlarida nazariy asoslangan.

Ushbu paragrafda toʻrtala metod bilan til oʻrgatilganda

ko'zlangan o'qitish maqsadlari, mazmuni va prinsiplari sanab o'tiladi va har bir metodning ulkan namoyandalari ijodiga qisqacha ta'rif beriladi.

Tarjima metodi. Asosan ular ikki ko'rinishda bo'lib, grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlari nomi bilan yuritiladi.

Grammatika-tarjima metodi nuqtayi nazaridan chet til umumta'limiy maqsadda o'rganilgan. Grammatik mashqlar til o'rganuvchining mantiqiy tafakkurini o'stirish maqsadida bajarilgan. Grammatik bilimlarni bayon etish avjiga chiqqan.

Ushbu metod bo'yicha chet til o'qitish mazmunida sistemali grammatik nazariya asosiy o'rinni egallagan. O'qiladigan matnlar grammatikani o'rganishga mo'ljallangan.

Metodning asosiy prinsiplari quyidagilar:

1. Til o'rgatish yozma nutqqa asoslangan.
2. O'rganish predmeti qilib grammatika olingan, leksika ham unga tobe ravishda tanlangan. Grammatik mashqlar bajarish asosiy ish usuli bo'lgan.
3. Avvalan, grammatik qoida yod olingan, soniyani, qoidalar asosida gaplar tuzish tavsiya qilingan.
4. Grammatik shakl va so'zlarning ma'nosi so'zma-so'z tarjima vositasida ochib berilgan.
5. So'zma-so'z tarjima va quruq yodlash yo'li bilan til materiali o'zlashtirilgan.
6. So'zlarni kontekstdan tashqarida, yakka-yakka yodlash bilan chegaralangan.

Ko'rinib turibdiki, mazmun e'tibordan chetda qolgan, til formal jihatdangina o'rganilgan. Shuning uchun bu metod sintetik metod deb ham yuritilgan. Grammatika-tarjima metodi tarafdorlari (mas. inglizlik G. Ollendorf) yaratgan o'quv qo'llanmalarida tuzilishi tilga mos, mazmunan esa bir-biriga: qovushmaydigan gaplarga, ya'ni „sun'iy“ tilga duch kelinadi.

Matn-tarjima metodining maqsadi ham umumiy ta'lim berishga qaratilgan, lekin e'tibor grammatika-tarjima metodidagidek mantiqiy tafakkurni o'stirish emas, balki til o'rganuvchining umuman aqliy rivojiga qaratilgan.

O'qitish mazmunida ham tafovut mavjud, chunonchi, bog'lanma matnlarni o'qish tavsiya etilgan.

Matn-tarjima metodining prinsiplari quyidagilar:

1. Yozma nutq asosida chet til o'qitilgan.
2. Bog'lanma va ko'pincha asl nusxadagi matn olingan.

3. Matnni o'rganishda analiz qilishga ko'p kuch va vaqt sarflangan.

4. So'z va grammatik shakl ma'nosini ochish usuli — tarjima.

5. Til materiali tarjima va yod olish orqali o'rganilgan. Bu metod ayrim adabiyotlarda leksika-tarjima metodi termini bilan ham yuritilgan.

Ushbu tarjima metodining tarafdorlari (mas. fransiyalik Jan Jozef Jakoto (Jacotot, 1770—1840) matnni tarjimasi bilan yodlashni tavsiya qilishgan.

Grammatika-tarjima metodidagi sxolastik (quruq safsata) tomonlarga nisbatan matn (leksika) tarjima metodi birmuncha ilg'or metodik sistema hisoblanadi. Chunki grammatikani quruq yodlashdan tilni aks ettiradigan matnlarni o'rganishdek hayotiy zaruriyatga keskin burilish yasaldi.

Tarjima metodlarining ba'zi usullaridan hozirgi chet til: o'qitish amaliyotida ham foydalaniladi, mas. til hodisalarining ma'nosini ochishda tarjimadan va kontekstdan foydalanishga alohida e'tibor berish lozim.

Tarjimasiz metod. Mazkur metodning turli ko'rinishlari tarixdan ma'lum. Ularni ikki yirik guruhga ajratish mumkin: tabiiy va to'g'ri metodlar.

Tabiiy metodning sobitqadam muxlislari fikricha, chet tilni o'rganish ona tilini egallash sharoitiga monand bo'lishi kerak. Metodning bosh maqsadi chet tilda gapirishni o'rgatish. Kundalik hayotiy mavzularda gapirishni o'rganish orqali o'qish va yozishni o'rganib olishga imkoniyat yaratiladi, degan g'oya amaliy maqsad tarzida shakllangan.

Tabiiy metod tarkibiga kiritilgan prinsiplardan eng muhimi — til muhitini yaratishdir. Olg'a surilgan metodik prinsiplarni amalda qo'llash bobida turli yondashuvlar paydo bo'lgan. Metod namoyandalarining ijodiy faoliyatida buni yaqqol sezish mumkin.

M. Berlis metodi (M. Delphinus Berlitz). M. Berlis — Amerika Qo'shma Shtatlarida 1878- yilda chet til o'qitish kurslari tashkil etgan va darsliklar tuzgan chet til o'qitish metodikasi tarixida atoqli metodist olim.

M. Berlis Yevropa tillari va ayrim sharq tillari darsliklarini yaratgan, ammo vatani Germaniyada uning ishi yurishmagach, AQShga ko'chib boradi va o'zining birinchi maktablarini ochadi. Tilni amaliy maqsadda o'rgatishni vazifa qilib qo'yadi. M. Berlis sistemasining asosiy metodik mulohazalarini uning darsliklari muqaddimasidan o'qib olish mumkin:

1. Til materialini idrok etish immanent tarzda, tarjimasiz bo'lishi kerak. So'z bilan narsa (hodisa, harakat) fikran bevosita bog'lanishi, ona tili so'zlari bilan aloqa o'rnatilmasligi hamda grammatik tushunchalarni kontekstda, ong ishtirokisiz (induktiv holda) ona tili bilan qiyoslamasdan idrok etish.

2. Muallimga taqlid qilish orqali til materialini mustahkamlash.

3. Chet til o'rganishda ona tili ishtirok etmasligi.

4. Til hodisalari (leksik va grammatik birliklar)ning ko'rgazmalilik (narsa, tasvir, xatti-harakat, sharhlash) yordamida ma'nosini ochish.

5. Yangi materialni avvalo og'zaki taqdim etish.

6. O'quvchilarni nutq faoliyatiga undovchi muallim va o'quvchi juftnutqi (suhbati) boshqalaridan maqbul ish uslubi ekanligi.

Qayd etilgan ilmiy-metodik ko'rsatmalarni M. Berlis o'quv vositalarida nazariy asoslashga uringan. M. Berlisning quyidagi o'quv qo'llanmalari mashhur bo'lgan:

Erstes Buch für den Unterricht. Riga, 1926; Deutsches Buch für den Erwachsene. Zweiter Teil, 13, Aufl., Berlin, 1929; Illustrated Book for Children. English. Riga, 1924.

F. Guen metodi (Francois Guoin, 1831—1898). Tabiiy metod vakillaridan fransuz metodisti F. Guen chet tilni ona tili o'rganishga o'xshab, amaliyotda egallash tarafdori bo'lgan. U metodikada birinchi bo'lib leksikaning mavzular (uydagi hayot, maktab, jamiyat, tabiat) bo'yicha tasnifini kashf etgan.

Chet til o'rgatishda quyidagi metodik qonun-qoidalarni taklif qilgan:

1. Odam o'z ehtiyojidan kelib chiqib til o'rganadi.

2. O'rgatish birligi qilib so'z emas, gap tanlanadi.

3. Til o'rganishda og'zaki nutq birlamchi hisoblanadi.

F. Guen, xuddi M. Berlisga o'xshab, ko'rgazmalilik, ona tiliga tayanmaslik, grammatikaning leksikaga tobeligi kabi shartlarni quvvatlaydi.

F. Guen o'z sistemasida chet til lug'at boyligini uchta katta toifaga ajratadi: obyektiv, subyektiv va ifodali tushunchalarni bildiruvchi so'zlar. Birinchi guruhga obyektiv dunyoga oid tushunchalar, mas. hayot, jamiyat, tabiatga tegishli; ikkinchisida inson ruhiga taalluqli tushunchalarni ifodalovchi so'zlar: *tushunmoq*, *xohlamog*; uchinchi toifada birinchi va ikkinchilarni birlashtiruvchi tushunchalar: *chiroy*, *do'stlik* va h.k. Uchalasiga

qo'shimcha kundalik turmushga oid material — salomlashish, ob-havo haqida suhbat singari tushunchalarni ifodalovchi so'zlar. Ushbu so'zlar seriyalarda (hozirgi metodik tushuncha „nutq vaziyati“ga taxminan to'g'ri keladi) o'rgatiladi. Leksikani seriyalarda o'rgatish F. Guenning yana bir metodik kashfiyotidir.

F. Guenning ilmiy asari (L'art d'enseigner et d'étudier les languag Paris, 1880) va o'quv qo'llanmasi (Erstes Übungsbuch für das Deutsche) metodika tarixida o'rganilgan.

M. Valter metodi (Max Walter). Tabiiy metodlar doirasida chet til o'rgatish bilan shug'ullangan nemis metodisti M. Valter metodik sistemasi yuqorida bayon etilganlarni o'z ichiga oladi va leksik materialni o'rgatish usullari bilan ulardan ajralib turadi.

Darslarni M. Valter shu darajada tomoshaga, o'yinga aylantirib o'tadiki, keyinchalik nemis metodistlaridan F. Aronshteyn askiyanoma qilib, u haqda „M. Valter o'quvchilariga Myunxen pivosidan ichkizmaydimikan“, degan ekan.

O'zining metodik tadqiqotida leksikaning ma'nosini ochishga qaratilgan quyidagi usullarni sanab o'tadi: 1) narsa yoki uning tasviri (rasm)ni namoyish etish, xatti-harakatni ko'rsatish; 2) sinonim, antonim va chet tilda ta'riflash; 3) notanish so'zni so'zlar yoki jumla (kontekst)da taqdim etish (bu F. Guen seriyalariga yaqin).

M. Valter so'z boyligini mustahkamlashga oid ko'pdan-ko'p mashqlar tavsiya etib, e'tiborni mashqlardagi so'zlarni guruhlashtirishga tortadi: mas. antonim va sinonim so'zlarni topish, bir o'zakli so'zlarni tanlash va mavzuga doir so'zlar to'plash kabilar.

Chet til o'qitish metodikasiga oid quyidagi asarlar M. Valter ijodiga mansub:

Zur Methodik des neusprachlichen Unterrichts. 2. Aufl., Marburg, 1912; Die Reform des neusprachlichen Unterrichts auf Schule und Universität, Aufl., Marburg i/H.N.Y., Elwert'sche Verlagsbuchhandlung, 1912; Aneignung und Verarbeitung des Wortschatzes im neuspachlichen Unterricht. 2. Aufl., Marburg, Verl. N. Y., Erwert, 1914.

Tabiiy metodning aksariyat prinsiplari to'g'ri metodikadan jiddiy tafovut qilmasligi sababidan ularning batafsil tahlili quyida keltiriladi.

To'g'ri metod tabiiy metod zaminida vujudga kelgan. Ona tili ishtirokisiz chet tildagi so'z va grammatik shakl to'g'ri-

ridan-to'g'ri ma'nosi bilan fikran bog'lanishi „to'g'ri“ so'zining metodik terminga aylanishiga olib kelgan. Metodning tadqiq qilinishida ruhshunoslar, tilshunoslar va chet til muallimlari va metodistlari ishtirok etishgan.

To'g'ri metod bilan chet til o'qitishdan, tabiiy metoddan bo'lganidek, amaliy maqsad ko'zlanadi. Dastavval amaliy yo'nalish og'zaki nutq bilan bog'langan tushuncha edi, keyinchalik o'qish ham ushbu tushuncha doirasiga kiritila boshlandi.

O'tgan asrning ikkinchi yarmida mamlakatlar o'rtasida tijorat, mustamlakachilik, texnikaning rivoji davlatlar orasida siyosatning o'zgarishiga sabab bo'ldi. Chet tillarni o'rganishga bu, albatta, ta'sir qilmay qolmadi. Tilni amaliy egallashga ehtiyoj ortdi. Oldin chet til zodagonlar uchun ermak mashg'ulot bo'lsa, endi aholi orasida o'rta hol kishilar ham chet tildan bahramand bo'la boshlashdi. XIX asrning 80-yillarida chet tillar o'qitish islohoti boshlandi. Tarjima metodi o'rniga to'g'ri metod ishga tushdi.

H. Suit (Henry Sweet). XIX asr oxirida va XX asr boshlanishida ko'zga ko'ringan ingliz tilshunosi H. Suit bir qator asarlarini chet tillar o'qitish masalalariga bag'ishladi. Jumladan, 1899- yilda u „Tillarni amaliy o'rganish“ nomli kitobini (ingliz tilida) chop ettirdi. Bir nechta darsliklar ham yaratgan H. Suit amaliy va nazariy maqsadda chet til o'rganish tashabbuskori sifatida maydonga chiqdi. Birinchisi og'zaki nutqni tushunish, o'qish, gapirish va yozuv, ya'ni amaliyot deb qaraladi, ikkinchi maqsad til tarixi va etimologiyani o'rganishni taqozo etadi.

O'z metodik mulohazalarini H. Suit quyidagi tarzda umumlashtirgan:

1. Chet til fonetikaga asoslangan holda o'qitiladi.
2. Jonli adabiy til asos qilib olinadi.
3. So'z emas, gap til birligi hisoblanadi.
4. Matn va gap, gap va so'z munosabatlari kontekst bilan bog'liq. Gapni matndan tashqarida, so'zni gapdan ajratib o'rgatmaslik lozimligi uqtiriladi.
5. Bog'lanma matn asosida til o'qitish va grammatik tahlil o'tkazish tavsiya qilinadi.
6. Matnga bog'lab grammatik qoidalar beriladi.
7. Til o'rganishda ruhshunoslikdagi assotsiatsiya (fikran bog'lanish) qonuniga rioya qilinadi. (Mas. avvalo, tilda ko'p qo'llanadigan hodisalar o'rgatiladi.)

Islahot davri vakillaridan H. Suitning jiddiy farqi shunda bo'ldiki, u matnni o'rgatishga ahamiyat berdi.

Yangilangan to'g'ri metod tushunchasi paydo bo'ldi. To'g'ri metod o'zgarib, rivojlanib, yangilanib bordi. XX asrning birinchi yarmida to'g'ri metod ikki yo'nalishda takomillashdi: reproduktiv metodika (H. Palmer, L. Blumfeld) va retseptiv metodika (M. Uest) ishlab chiqildi. An'anaviy grammatika asosida til o'rgatish o'rniga uni nutq namunalari o'rgatishni Ch. Friz, R. Lado tajribaga olib kirishdi. Yangilangan to'g'ri metod ta'lim jarayonida texnika vositalaridan foydalanishni taqozo etdi. Zamonaviy tilshunoslik va ruhshunoslik ma'lumotlari to'g'ri metodga yangicha tatbiq qilina boshlandi.

H. Palmer metodi (Harold Palmer, 1877—1949). Ulkan ingliz metodisti H. Palmer ingliz tilini chet til sifatida o'rgatish bilan uzoq muddat faol shug'ullangan. Bu olim yuksak ilmiy mahorat bilan yozgan nazariy asarlari, darslik va qo'llanmalari tufayli jahon chet til o'qitish metodikasida o'chmas iz qoldirgan. (Uning siyosiy qarashlariga emas, faqat metodik merosiga baho beriladi.)

H. Palmer ingliz tilini (chet til maqomida) erkin egallashni maqsad qilib qo'ygan: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv malakalarini egallashni nazarda tutgan. Og'zaki metod termini H. Palmer nomi bilan bog'liq. Og'zaki nutqni egallash uchun H. Palmer quyidagilarni tavsiya etgan:

1. Til qiyinchiliklarini tasnif etish (talaffuz, imloviy, etimologik, semantik, sintaktik qiyinchiliklar).

2. Og'zaki nutqni ikki yo'nalishda o'rgatish: tinglab tushunish va gapirish.

3. Passiv til boyligini shakllantirish, so'ngra uni reproduktiv nutqda faol qo'llash.

4. So'zlarning ma'nosini ochishda ko'rgazmalilik, tarjima, chet tilda izohlash, matn mazmuni (kontekst)dan foydalanish.

5. Nutqiy parchalarni yodlab o'zlashtirish.

6. So'zlarni muayyan mezonlarga binoan tanlash.

7. Mavzularga oid matnlarni tanlash, lug'at-minimum tuzish va o'qish turlarini aniqlash.

H. Palmer metodiga ko'ra chet til o'qitish mazmunini belgilashga maxsus ilmiy yondashish kerak. Til o'rgatish uchun oddiy adabiy nasr va so'zlashuv nutqini tavsiya qiladi. Jonli so'zlashuv nutqidan boshlab, keyin o'qishga o'tiladi. Matnlarga qo'yiladigan metodik talablarni ishlab chiqqan.

Metodikada birinchi marta leksik birlik (*lexicological unit*) tushunchasini kashf etdi va uning shakli, ma'nosi va qo'llanishi haqida fikr yuritib, ergon (V. Gumboldtdan o'zlashtirgan) tushunchasini metodik izohladi. (Ergon deganda H. Palmer xohlagan leksik birlik bilan ifodalanadigan tushunchani nazarda tutadi. Ma'lumki, leksik birlik to'rt tushunchani, ya'ni so'z, so'zlar guruhi, affiks va turg'un birikmani o'z ichiga oladi.) Ergon masalasi H. Palmer kashf qilgan ichki almashtiriluvchi jadvallardan foydalanishda muhimligini ta'kidlaydi. (H. Palmer jadvallari hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.) Jadvaldagi har qaysi gapda turli ustunda to'rttadan ergon berilgan:¹

| | | | |
|-----------|--------|------|----------|
| He | sees | a(n) | letter. |
| She | takes | the | card. |
| Who | reads | this | name. |
| My friend | writes | that | address. |

Agar bir ergon almasha, yangi gap tuzilaveradi:

He sees a letter. He takes a letter. He reads a letter...

H. Palmer leksik birliklarni tanlash prinsiplarini tadqiq etgan va amalda sinab ko'rgan. U chet tilni retseptiv va reproduktiv egallashni maslahat beradi. O'qish og'zaki nutq o'rganishga tobe qilib qo'yiladi. H. Palmer metodik prinsiplarining ayrimlari mana bunday nomlangan: 1. Tilni aktiv va passiv o'rganish. 2. Tilni ongli va ong ishtirokisiz o'rganish. 3. Qiyinchiliklarni chegaralash.

H. Palmerning metodika tarixida o'rganib kelinayotgan asarlari orasida quyidagilar alohida ajralib turadi, chunonchi, o'quv qo'llanmalari: *Beginner's English-French Dictionary; Colloquial English, Part One. 100 Substitution Tables. Cambridge, 4th ed., 1930; Graded Exercises in English Composition. Books 1-4, Tokyo, 1928; A Grammar of English Words. Edinburgh, 1962; The First Six Weeks of English. Tokyo, 1934; The First Six Weeks of Reading. Tokyo, 1931; New Method Series English Practice Books. Books 1-3, 2nd ed., Longmans, 1960 (1st ed., 1938); The Sequential Series. Tokyo, 1929; The Standard English Readers. Books 1-4. Tokyo, 1934; Systematic Exercises in English Sentence-Building. Tokyo, 1924; The Standard English Reader for Girls. Tokyo, 1931; Thousand-Word English; Palmer H. E., Martin G. V. English Through Questions and Answers. Books 1-4, To-*

¹ *H. E. Palmer. „Systematic Exercises in English Sentence-Building. — Tokyo. 1924“* kitobidagi 3-jadvalning bir qismi.

kyo, 1930-1933; Palmer H. E., Palmer D. English Through Actions. Tokyo, 1924.

H. Palmerning metodik asarlaridan quyidagilar o'z ahamiyatini hanuzgacha saqlab kelmoqda: *The Principles of Language Study*. London, 1926, *The Scientific Study and Teaching of Languages*. 3rd ed., London, 1922; *The Oral Method of Teaching Languages*. Cambridge, 4th ed., 1943; *The Teaching of English*. London, 1930; *The Teaching of Oral English*. London, Longmans, 1961; *The Grading and Simplifying of Literary Material*. Tokyo, 1932; *Classroom Procedures and Devices in Connection with English Teaching*. Tokyo, 1927; *a Grammar of Spoken English. On a Strictly Phonetic Basis*. London, W. Heffer and Sons, 1924; *How to Use The New Method Practice Books*. London, Longmans, 1938; *The New Method Grammar*. London, Longmans, 1964; Palmer H. E., Harman H. A. *The Teaching of English to Soldiers*. N. Y., London, 1943; Palmer H. E., Redman H. V. *This Language-Learning Business!*, 1932.

To'g'ri metodning reproduktiv ko'rinishlaridan AQShda ommaviy tarzda foydalana boshlashgan. Yirik tilshunos *Leonard Blumfeld* (Leonard Bloomfield, 1887—1949) chet til o'qitish metodikasiga ta'sirini kuchli o'tkazgan. Uning metodik mulohazalariga ko'ra amaliy maqsadda chet til o'rgatish og'zaki nutqdan boshlanadi, taqlid va quruq yodlashga e'tibor kuchaytiriladi va h. k. Xullas, tabiiy metod prinsiplariga qaytish tavsiya qilingan.

L. Blumfeldning metodik qarashlari uning ikki asarida yoritilgan. (*An Introduction to the Study of Language*. N. Y., 1914; *Outline Guide for the Practical Study of Foreign Languages*. Baltimore, 1942.)

Charlz Friz va Robert Lado metodi (Charles Carpenter Fries, 1887—1967, Robert Lado). Yangilangan to'g'ri metodlar orasida amerikalik tilshunos Ch. Friz va metodist R. Lado yaratgan audiolingval metod metodika tarixida alohida o'rin egallaydi.

Friz-Lado metodi haqida yuqorida qisqa ma'lumot berilgan. R. Lado va Ch. Friz hamkorlikda anchagina asarlar yozgan bo'lib, ularning metodik ijodiga mansub o'quv qo'llanmalari qatoriga quyidagilar kiradi: *English Pattern Practices*. Ann Arbor, 8th ed., 1962; *Lessons in Vocabulary*. Ann Arbor, 3rd ed., 1959; *English Sentence Patterns*. Ann Arbor, 7th ed., 1962; *English Pronunciation*. Ann Arbor, 4th ed., 1960.

Friz kitoblari: Teaching and Learning English as a Foreign Language. Ann Arbor, 4th ed., 1948 (1st ed., 1945); American English Grammar. N. Y., 1940; A. New Approach to Language Learning. „Teaching-English as a Second Language“ ed. by N. B. Allen. N. Y., 1965; (Fries Ch., Fries A. Foundations for English Teaching. Tokyo. Kenkyusha English Language Exploratory Committee, 1961; (Fries Ch., Traver A. English Word Lists. A Study of Their Adaptability for Instruction. American Council on Education, 1940.

R. Lado metodik asarlari: Language Testing. London, 1961; Linguistics across Cultures (Applied Linguistics for Language Teacher). Ann Arbor, 1957; Patterns of Difficulty in Vocabulary. „Teaching English as a Second Language“ ed. by H. B. Allen. N. Y., 1965; Language Teaching. A Scientific Approach. N. Y., 1964.

Friz-Lado metodida ogʻzaki nutqni oʻrgatishga katta ahamiyat berilib, oʻqish va yozuv masalalari esa eʻtibordan chetda qolgan.

Georgiy Lozanov metodi. Sofiya suggestologiya institutida yaratilgan suggestiv (ixlos qoʻyish) metodi oʻz ijodkori — bolgariyalik doktor G. Lozanov nomi bilan ataladi. Psixoterapevt prof. G. Lozanov metodi boʻyicha til oʻrganuvchilar adabiy asarlardagi tarixan tanish lavhalar va hozirgi turmush tarzini tasavvur etib, rollarga kirgan holda nutq faoliyati yuritadilar. Yaratilgan til sunʼiy muhiti kishilarni nutqiy muloqotga undaydi, avval muallim rahbarligi va ishtirokida, keyinchalik ular mustaqil nutq mashqlarini bajarishadi.

Dars jarayonida ixlos qoʻyish (eʻtimod) ilmiy muammolari G. Lozanovning „Suggestologiya“ kitobida va keyingi ilmiy asarlarida tahlil qilingan.

Intensiv metod nomi bilan jahon mamlakatlarida keng tarqalgan metodik sistemaning til oʻqitish tajribasi va nazariyasi eʻtiborga loyiqdir.

Intensiv metod bilan faol shugʻullangan metodistlardan prof. Galina Aleksandrovna Kitaygorodskaya, prof. Lamara Shalvovna Gegechkori va boshqalarni eslatish mumkin.

G. A. Kitaygorodskaya metodik mulohazalari uning yirik asarlari (Методика интенсивного обучения иностранным языкам. — М.: „Высшая школа“, 1982; Методические основы интенсивного обучения иностранным языкам. — М.: Изд-во МГУ, 1986)da batafsil yoritilgan. Ushbu nazariy

kitoblar muallif yaratgan o'quv qo'llanmalari asosida o'tkazilgan eksperimental tadqiqot natijasidir.

Fransuz tili materiali asosida katta yoshdagilarga og'zaki nutqni jadal o'rgatish metodikasini L. Sh. Gegechkori tadqiq etgan. Uning monografik asari (К проблеме интенсификации процесса обучения взрослых иноязычной речи. — Тбилиси: Изд-во Тбилисского университета. 1975, va undan keyingi kitob hamda maqolalari)da sobiq Ittifoqda intensiv (jadal) metod ilk bor yoritib berildi.

Intensiv metod chet til kurslarida, ommaviy maktabda esa uning ba'zi metodik usullari qo'llanadi.

M. Uest metodi (Michael West). Ulkan ingliz metodisti M. Uest chet til o'qitish masalalariga bag'ishlangan yuzga yaqin ilmiy asarlar muallifi sifatida jahon metodikasida mashhur (siyosiy dunyoqarashi tahlil doirasiga kirmaydi).

To'g'ri metodning retseptiv yo'nalishi asoschilaridan bo'lgan M. Uest og'zaki nutq va o'qishni o'rgatish hamda o'quv lug'atlarini tuzish muammolarini hal qilishda ilmiy xizmatlari katta.

Og'zaki nutqni o'rgatish masalalarida M. Uest metodik muhohazalari H. Palmernikiga ko'p tomoni bilan o'xshab ketadi, ya'ni ushbu sohada ularning asarlarida fikrdoshlik kuzatiladi.

Dunyo metodikasi tarixida o'qishni o'rgatish masalalari bo'yicha M. Uest ibratomuz tadqiqotlar olib bordi, purmazmun asarlari butun jahonga yoyildi.

M. Uest tuzgan o'quv qo'llanmalari quyidagilar:

Easy English Dialogues. For Learning English as Behaviour. Books London, 1963; Improve Your English. London, Longmans, 1957 (1st ed. 1948); Green Primer. London, 1959; Red Primer. London, 1959, New Method Readers (Standard Edition). Readers 1-7. London, 1957-1958; Companions to Readers 1-5. (Standard Edition). London, 1959; New Method Series Compositions. (Standard Edition). Books 1-5. London, 1959; New Method Readers (Alternative Edition). Readers 1-7. London, Longmans, 1958; New Method Series Compositions (Alternative Edition). Books 1-5. London, Longmans, 1958; (West M., Bannerjee H. C.) English Words for All Occasion. London, Longmans, 1933; General Service List of English Words. London, Longmans, 1957; The New Method Conversation Course, Learn to Speak by Speaking. Books 1-11. London, 1944; The New Method Conversation Course: Blank Companions, London, 1938; Look

and Speak. Books I–II. London, 1936; The New Conversation Course. Supplementary Books. London, 1936.

M. Uestning metodikaga oid asarlaridan eng yiriklari quyidagilardir:

Bilingualism. Calcutta, 1926; How to Use the New Method Readers. A Teachers Handbook. London, N. Y., Longmans, 1934; Language in Education. London, 1929; On Learning to Speak a Foreign Language. London, 1941; How Much English Grammar? // English Language Teaching, V. 7, 1952, N1; Learning English as Behaviour. // English Language Teaching, V. 15, 1960, N3; Learning to Read a Foreign Language. London, 5th ed., 1960; Teaching English in Difficult Circumstances. London, Longmans, 1960; The Teaching of English. A Guide to the New Method Series. London, 1959/60. How to Use the New Method Conversation Course. London, 1941.

Mazkur asarlarni yozar ekan, M. Uest bengal bolalariga ingliz tili o'rgatish tajribasidan samarali foydalanadi. Ko'p sonli o'quvchilarni o'qitish jarayonlarini izchillik bilan kuza-tadi, tajribalar o'tkazadi, natijalarini nazariy umumlashtiradi.

M. Uest metodik va o'quv qo'llanmalarni arab tilida gapiruvchilarga (O'rta Sharq mamlakatlarida) ingliz tilini o'rgatish uchun ham qo'llagani metodika tarixidan mutaxassislariga ma'lum.

M. Uest metodik sistemasining chet til o'qitish maqsadiga ko'ra o'qishni o'rganish hamda o'quvchilarning bir qismi uchun gapirish va yozuv malakalarini egallashni tavsiya etadi.

Bengal bolalariga ingliz tilini o'rgatish bilan mashg'ul bo'lgan M. Uestning siyosiy dunyoqarashi millatchilik ruhida sug'orilganligi tufayli, chet tillardan birini, uning fikricha, ingliz tilini miqdoran mayda millatlar albatta o'rganishlari shart, degan fikrni olg'a suradi. Shu munosabat bilan inglizcha kitoblarni va vaqtli matbuotni o'qib, umumiy mazmunini, ya'ni yuzaki o'zlashtirishni chet til o'qitish maqsadiga kiritadi.

Chet til o'qitish kursini tashkil etish borasida M. Uest quyidagi metodik fikr-mulohazalarni o'rta tashlaydi.

1. Tilning retseptiv (idrok etib tushunish) tomonini bir-lamchi hisoblaydi (bunda Uest daniyalik ulkan tilshunos Otto Yespersen (Otto Jespersen) metodik qarashlariga ergashadi).

2. Har qanday gap yoki matnni o'qish chog'ida o'quvchi muayyan topshiriqni bajarishi, ya'ni uni puxta tushunib oli-shi talab qilinadi.

3. O'quvchilar til o'rganishdan qoniqish hosil qilishlari uchun ularga ikki turdagi o'qish kitobi tavsiya etiladi. Birinchi — darsdagi yangi material va ikkinchi — o'zlashtirilgan til materiali asosida tuzilgan o'qish kitobi o'rganiladi.

4. Matnlar mazmuni o'quvchilar yoshi, didi va qiziqishiga mos bo'lishi kerak.

O'qishga beriladigan matnlarni kitoblardan sharoitga moslashtirib (adaptatsiya qilib) berish metodika tarixida M. Uest ilmiy kashfiyoti, deb tan olingan. Adaptatsiya (moslashtirish) terminini M. Uest ikki ma'noda ifodalagan: avvalo, asl nusxadagi matn materiali qisqartiriladi, soniyani, uning tili sodalashtirib (o'quvchi bilimi saviyasiga moslashtirib) beriladi.

Tilni o'rganishda M. Uest o'zining vatandoshi H. Palmer metodik nazariyasini quvvatlab, chet tilni ona tiliga monand usulda egallash g'oyasiga sodiq qoladi. O'qishni o'rgatish metodik sistemasini to'g'ri metod yo'lidan olib borishni atroflicha asoslab bergan.

M. Uest ikki turdagi o'qishni taklif etgan: birinchisida o'quvchi so'zlarga razm solib, ularni diqqat bilan o'qiydi, uni ba'zan „so'zma-so'z o'qish“ deb ham ataydi, ikkinchi turda o'quvchi muayyan fikrni matndan axtaradi, ya'ni axborot olish maqsadida o'qiydi. M. Uest ikkinchi turdagi o'qishni ravon o'qish, axborot axtarib o'qish, deb nomlaydi.

O'zining metodik sistemasida M. Uest darsliklarga qo'yiladigan talablarni ham chuqur tahlil etadi. (Zamonaviy darsliklar mualliflari ulardan hozirgacha samarali foydalanib keli-shadi.)

M. Uest metodi dunyo mamlakatlari bo'ylab tarqalgan, uning ko'p sonli muxlislari bor. AQSHda Ch. Xendshin (Ch. H. Handschin) „o'qishning yangi metodi“ nomi bilan atalgan o'qitish sistemasida M. Uest prinsiplarini yanada rivojlantiradi, ba'zi o'zgartishlar ham kiritadi. Mas. Ch. Xendshin aktiv va passiv grammatika tushunchalarini farqlab beradi. Metodik mulohazalarini Ch. Xendshin o'zining ilmiy asarlarida yoritgan (mas. Modern Language Teaching. N. Y., 1940).

Aralash metodlar. Chet tillar o'qitish islohoti davom etar ekan, ommaviy maktablarda tarjimasiz (tabiiy va to'g'ri) metodlar kutilgan natijani bermaganligi sezilib qoldi. Oldingi qo'llangan metodik yo'l-yo'riqlardan omixta qilib dars o'tish boshlandi. Aralash, ya'ni omixta metodlar vujudga keldi. Mas. Rossiyada chet til o'qitish maqsadi va metodlariga A. I. Tomson

(„O‘rta o‘quv yurtlarida chet tilni o‘rganish haqida“gi) maqolasida¹ o‘z mulohazalarini e‘lon qiladi. Unda, jumladan, olg‘a surilgan chet tilni umumta‘limiy va amaliy maqsadlarda o‘qitish g‘oyasi metodika tarixida yuksak baholanadi. O‘qitish metodlari borasida ham o‘z davriga nisbatan ilg‘or fikrlar bayon etgan. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ham aralash metod bilan o‘qitish an‘anaga aylanadi.

K. Flagstad (Chr. Flagstad). Daniyalik ruhshunos K. Flagstad tugal metodik sistema yaratmagan bo‘lsa-da, chet tillarni o‘qitish metodikasi bilan astoydil shug‘ullangan. O‘z metodik e‘tiqodini „Til o‘rgatish ruhshunosligi“² asarida bayon etgan. O‘qitish maqsadi tushunchasini K. Flagstad bevosita muhokama qilmaydi. Biroq uning mulohazalari tahlili shunday xulosaga yetaklaydiki, u chet tilni umumta‘limiy yo‘nalishda o‘rgatishni ma‘qul ko‘radi.

Ta‘lim mazmuni masalalariga kelganda, K. Flagstad chet tilni bilim (axborot) olish uchun emas, balki estetik nuqtayi nazardan (oliftagarchilik ma‘nosida) o‘rganilishi tarafdori bo‘lgan. Tanlanadigan matnlarning o‘quvchilar qiziqishiga to‘liq to‘g‘ri kelishi shart emasligini uqtiradi. Matnlar uchun sevgi, turmushga chiqish, oziq-ovqat, kiyim-kechak, tug‘ilish, tarbiyalanish, kambag‘allik, boylik, kasallik kabi mavzularni tavsiya etadi.

Ona tilining ishtiroki to‘g‘risida K. Flagstad to‘g‘ri metod tarafdorlarining fikriga (ona tilini qo‘shmaslikka) qarshi chiqadi va qay me‘yorda bu metoddan foydalanish tadbirlarini maslahat beradi, chunonchi, so‘z ma‘nosini ochishda tarjima vosita ekanligini tan oladi.

E. Otto (Ernst Otto). „Yangi chet tillarni o‘qitish metodikasi va didaktikasi“ (1925-yilda nemischa nashr etilgan) kitobida tilshunos prof. E. Otto o‘zining metodik qarashlarini bayon etgan.

Chet til o‘rganishdan maqsad tili o‘rganilayotgan xalq (mas. nemislar) madaniyatini o‘zlashtirish, deb qaraydi (millatchilik ruhi ochiq seziladi).

Uning qo‘pol metodik xatolaridan biri ona tili va chet tilni

¹ А. И. Томсон. Об изучении иностранных языков в средне-учебных заведениях. // Педагогический сборник. — СПб., 1891. № 9—10.

² Chr. Flagstad. Psychologie der Sprachpädagogik. Leipzig u. Berlin, Verl. von B. G. Teubner, 1913.

o'rganishda farqni anglay bilmasligidadir. (To'g'ri metod vakillariga ergashadi.)

O'qitishning yakuniy maqsadi matnlarni o'qish ekanligini oshkor aytadi (hozirgi metodikada ham shunday).

F. Aronshteyn (Ph. Aronstein). Nemis metodisti va filologi F. Aronshteyn o'zining (1922, 1926- yillarda nemischa chop etilgan) ikkita kitobidan iborat monografik asarida chet til o'qitishning umumiy masalalari va ingliz tilini o'qitish haqida fikr bayon etgan. Umumta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni yoqlab chiqqan. Turli sistemalarga mansub tillarni o'qitishda ongillik zarurligi, chunonchi, qiyoslash maqbulligini ta'kidlaydi.

F. Aronshteyn birinchilar qatorida til materialini aktiv-passivga va nutqni retseptiv va reproduktiv faoliyatlarga ajratish tarafdori bo'lgan.

Piter Xegboldt sistemasi (Peter Hagboldt). Pedagoglik faoliyatini Belgiyadagi M. Berlis maktabida nemis tili muallimligidan boshlagan. U Amerikaga ko'chib borib, o'rta maktab va kollejda ishlagan, Chikago universitetida ijodiy va pedagogik faoliyatining so'nggi o'n yilini o'tkazgan. Prof. P. Xegboldt chet til o'qitish tajribasini quyidagi nazariy asarlarida umumlashtirgan: *How to Study Modern Languages in High School*. Chicago, 1925; *How to Study Modern Languages in College*. Chicago, 1925; *Language Learning*. The University of Chicago Press. Chicago, Illinois, 1935; *The Teaching of German*. Chicago, 1940. Yana bir nechta nemischa amaliy qo'llanmalar tuzgan.

O'qitish maqsadida amaliy va umumta'limiy yo'nalishni quvvatlaydi. Gapirish, tinglab tushunish, yozuv va o'qishni amaliy maqsadga kiritadi (rus tilida nashr etilgan asari: *Изучение иностранных языков*. — М.: „Учпедгиз“, 1963, 132-betda amaliy maqsad yoritilgan).

O'qitish mazmunini bayon etganda u faqat til materiali to'g'risida so'z yuritgan (mavzular va malakalar haqida og'iz ochmagan).

O'qitish prinsiplariga quyidagilarni kiritgan: 1) nutq faoliyati turlarining o'zaro aloqasi va ko'nikmalarning nutq faoliyati turidan boshqasiga ko'chishi; 2) tilni aktiv va passiv egallashni farqlash; 3) assotsiativ aloqalarni va analogiyani qo'llash; 4) o'rgatish vositasi sifatida tarjimadan foydalanish; 5) oldindan payqash va qo'shimcha qilish (o'qish chog'ida so'z, gapning ayrim qismi, tanish grammatik shakllar va hatto butun bir qatorni oldindan fahmlash va o'zicha qo'shish hodisasi nazarda tutiladi).

Til o'rgatishning psixologik masalalari, mashqlar sistemasi, o'qilgan matnni tushunganlikni nazorat qilish kabi foydali maslahatlar bergan.

Fransua Klosse sistemasi (Francois Closset). Belgiyalik yirik metodist F. Klosse o'zining chet tillar o'qitish tajribasini *Didactique des langues vivantes* (4 éd., Paris-Brusseles, 1965) kitobida umumlashtirgan. Uning fikricha, chet til o'qitish uch maqsadda ro'yobga chiqadi: amaliy — og'zaki nutq, o'qish va yozuv malakalarini o'stirishga zarur lug'at boyligini va asosiy grammatik tushunchalarni o'zlashtirish; tarbiyaviy — bola qobiliyatini o'stirish; umumta'limiy — tili o'rganilayotgan mamlakat hayoti va madaniyati bilan tanishish. O'quv yurtiga qarab, ushbu maqsadlar turli maromda tatbiq qilinadi. Bu vazifalarni bosqichma-bosqich (yilma-yil) bajarish tafsilotlarini ishlab chiqqan. F. Klosse tadqiqotlariga ko'ra, tilda ko'p qo'llanadigan 3000 so'z matn mazmunining 95 foizini tushunish imkonini beradi.

Chet til o'qitishda bir emas, bir necha metodlar ishlashi va o'rganilayotgan til va o'qitish sharoiti hisobga olinishi tarafdori bo'lgan. To'g'ri metodni rad etib, o'zini aralash metod tarafdori deb e'lon qiladi. Aralash metodni gohida aktiv, gohida esa oqilona metod nomi bilan yuritgan.

F. Klosse fikricha, chet til o'qitishda quyidagi metodik qoidalarga rioya qilinmog'i lozim:

1. O'quvchining faollikka intilishini qo'llab-quvvatlash.
2. E'timod va xayrxohlik muhitini yaratish.
3. O'quvchilar shaxsiy tashabbusiga dalda berish.
4. Taqliddan ko'ra onglilikni afzal ko'rish.
5. Mavzularni va qo'llanmalarni tanlashda o'quvchilar manfaatini ko'zlash.

F. Klosse o'qitish sistemasining ajoyib xulosalaridan biri til nazariyasiga oid. Uningcha, tilni butunlay induktiv (ong ishtirokisiz) yoki taqlid yo'li bilangina o'rganib bo'lmaydi, shu bilan birga, beriladigan til mavhumoti yordamchi vazifani bajaradi, xolos.

Til materiali (leksika, grammatika, talaffuz) va faoliyati turlarini o'rgatish bo'yicha F. Klosse usullarining bizdagi oltmishinchi yillar metodikasi yo'nalishiga mos tushadigan joylari talaygina.

Adolf Bolen (Adolf Bohlen). Nemislarga ingliz tili o'rgatishga oid tadqiqotlar muallifi A. Bolen to'g'ri metodning

„muloyim shakli“ (eine gemilderte Form)ni asoslashga urinib ko‘rgan.¹

O‘qitish maqsadlarini ilmiy tekshirar ekan, chet til o‘r-gatishda to‘rtta vazifani belgilaydi: 1) amaliy egallash; 2) til orqali xalq ruhi bilan oshno bo‘lish; 3) madaniyatiy o‘rganish; 4) tarbiya olish.

O‘qitish prinsiplari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular asosan to‘g‘ri metodga muvofiq keladi: 1) eng murakkab leksik va grammatik hodisalar ona tili vositasida tushuntiriladi va nazorat qilinadi; 2) yangi material avval og‘zaki o‘rganiladi; 3) so‘z kontekstda (jumalalarda) o‘zlashtiriladi; 4) grammatika induktiv (oldin til materiali nutqda, keyin qoida) o‘rganiladi va h.k.

Metodist A. Bolenning talablaridan muhimlari o‘z dolzarbligini hozirgacha saqlab kelayotganlari mana bunday ifodalangan: haftalik dars soatlari sonini ko‘paytirish, sinfda o‘quvchilar miqdorini kamaytirish va muallimlarning til makalarini oshirish uchun chet elga yuborib turish.

A. Bolen metodika tarixida birinchi bo‘lib, chet til o‘qitishning uch bosqichi — ibtidoiy, o‘rta va yuqori bosqichlarini aniqlab, ularni asoslab berishga harakat qilgan.

B. V. Belyayev metodi. Sobiq Ittifoqda aralash metod ruhshunos prof. B. V. Belyayev asarlarida o‘z talqinini topdi (Очерки по психологии обучения иностранным языкам. Изд. 2-е. — М.: „Просвещение“, 1965). Muallif o‘zi ishlab chiqqan chet til o‘qitish sistemasini ongli-amaliy metod termini bilan yuritdi. Mazkur nomdan ravshanki, B. V. Belyayev til birliklarini anglab o‘rgana boshlash va og‘zaki nutq mashqlarida amaliy qo‘llashni tavsiya etadi.

B. V. Belyayev metodining asosini quyidagi ilmiy mu-lohazalar tashkil qiladi:

1. Chet tildagi tafakkur ona tilidagidan farq qilgani uchun tafakkur xususiyatlarini chet tilda o‘zlashtirishni maslahat beradi (Yuqorida ushbu nazariyaning soxtaligini „tafakkur — baynalmilal“, degan asosli psixologik ta’limotga ko‘ra tanqid qilinganini eslang).

2. O‘quvchilar til materialini faol-ijodiy (produksiyada) egalashlari uchun tafakkurda u bevosita aks ettirilishi talab qilinadi.

¹ A. Bohlen. Methodik des neusprachlichen Unterrichts, 4 Aufl, Heidelbergr Quelle-Meyer, 1963 (1 Aufl — 1930, Leipzig, Quelle-Meyer, II—1955, III—1958)

3. O'quvchilar chet tilda ona tilidagidan bo'lakcha fikrlashga o'rganadilar.

4. Ona tiliga, ya'ni tarjimaga kam murojaat etish, chet tildagi nutqni ko'proq mashq qilish orqali fikrlashni o'rganish mumkin.

5. So'z ma'nosini ochishda tarjima o'rniga uzundan-uzun tushuntirish — izohdan foydalanmoq kerak bo'ladi.

6. Til — ijtimoiy hodisa, nutq — yakka shaxsga aloqador.

7. Nutq ko'nikmadangina iborat emas, u doim ijodiy faoliyatdir.

B. V. Belyayev barcha metodlarni tanqid ostiga oladi. Shu bilan bir vaqtda, uning fikrlaridan u aralash metod tarafdori ekani ma'lum bo'ladi. Ushbu metodik sistema sof nazariya bo'lib, u maktab tajribasida va o'quv qo'llanmalarida maxsus eksperimental dalillar bilan asoslangan emas.

Rossiyada sharq va g'arb tillarini o'rgatish tarixidan. Uyg'onish davrida, boshqa Yevropa mamlakatlarida bo'lganidek, bu diyorda ham lotin tili o'qitilgan. Rossiyada metodik tafakkur boshqa mamlakatlardagi chet til ta'limi ta'siri ostida shakllandi va rivojlandi. XVIII asrga kelib, jonli tillar o'rganila boshlandi. Rus podshosi Pyotr I farmoyishiga binoan sharq tillarini o'rganishga ham e'tibor berildi.

Chet tilni o'qitish uning amaliy ahamiyatiga qarab tanlanar edi. Mas. Irkutskda xitoy tili o'rgatilgan, janubiy guberniyalarda yunon tili va sharqiy hududlarda esa arab tili o'qitilgan. 1741- yili Fanlar Akademiyasi qoshida xitoy tili maktabi ochilganligi diqqatga sazovor. Bunday maktablarda muhojirlar muallimlik qilgan. Irkutskda ochilgan mo'g'il tili maktabida ishlagan ikkita muallim rus tilini bilishmagan, tarjimon yordamidan foydalanib, til o'rgatishgan.

Rossiyada tillarni o'rganishga qiziqish ortib borganligiga qaramay, ommaviy miqyosda chet til o'rganish o'ta past darajada bo'lgan. Uning asosiy sabablaridan biri yerli xalq vakillaridan chet til muallimlari yo'qligi, muhojirlar (sohibi lisonlar) esa mahalliy tilni bilmasdan o'z ona tillarini (ruslar uchun chet til) o'rgatishgan.

Muallimlar ish tajribasining tarixiy tahlili ko'rsatishicha, chet til to'g'ri metod qonun-qoidalari bo'yicha o'qitilgan. 1888- yilda chet tillarni o'qitish rejaları loyihasi ishlab chiqilgan. Unda e'tibor og'zaki nutqni o'stirishga qaratilib, o'qishni o'rgatish vazifasi ham yuklatilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida chet til o‘qitishda to‘g‘ri metod qo‘llash bilan birga umumta‘limiy vazifalar ham qo‘yilgan. Chet til va ona tilini qiyoslash ta‘limiy ma‘noni ifodalagan. Ayrim mutaxassislar adabiyot o‘qishning o‘quvchilar umumiy bilim saviyasini oshirishi haqida munozaralar yuritishgan.

Ushbu mavzu yoritilishida metodlar nomlari qayd etilmasligi tasodifiy hol emas. Rossiyada XX asrning o‘ttizinchi yillarigacha yirik chet til o‘qitish metodistlari haqida tarixiy ma‘lumot yo‘qligiga sabab shundaki, bu sohada ilmiy maktablar bo‘lgan emas, G‘arb va Sharq mamlakatlarida shakllangan chet til o‘qitish metodlaridan qisman o‘zgartirishlar bilan foydalanishgan. Xullas, o‘sha paytda chet tillar tarjima, keyinchalik to‘g‘ri metodlar asosida o‘qitib kelingan. Chor Rusiyasining o‘lkasi hisoblangan Turkiston (jumladan, hozirgi O‘zbekiston hududi)da g‘arb tillari miqdoran kam o‘qitilgan. Chet tillar XIX asrning oxirgi choragidan o‘qitila boshlangan. Rus gimnaziyalari va real bilim yurtlaridagina chet til o‘rgatilgan, xolos. Undan oldin va o‘sha paytda sharq tillarini o‘rganish yerli xalqlarga xos bo‘lgan.

Metodik ilmiy markazlar bo‘lmagan, H. Palmer yoki M. Uest mavqeyidagi metodistlar yetishib chiqmagan. Ma‘lumki, ilmiy metodik maktab yaratgan metodistlardan H. Palmer Yaponiyada, M. Uest Hindistonda ingliz tili o‘rgatish bilan faol shug‘ullanishgan. (O‘zbekistonda chet til o‘qitish tarixi ushbu bobning 3- §ida yoritiladi.)

Qiyosiy metod. To‘liq nomi ongli-qiyosiy metod deb ataladi (Yuqorida V bobning 1- §iga qaralsin.) Quyida qiyosiy metodning yirik namoyandalari ijodi qisqacha tahlil etiladi.

O‘tgan asrning o‘ttizinchi yillarida ongli-qiyosiy metod shakllana boshlaydi. (Ungacha grammatika–tarjima metodi bilan chet til o‘qitib kelingan.) Dastur, darslik, o‘quv qo‘llanmalari tayyorlanadi. Metodik adabiyotlar orasida L. V. Shcherba, K. A. Ganshina, I. A. Gruzinskaya, A. A. Lyubarskaya, G. V. Goldshteyn va R. K. Rozenberg va M. Svetkova asarlarini ko‘rsatib o‘tish joizdir. „Иностранные языки в школе“ jurnali ta‘sis etiladi.

1947- yilda L. V. Shcherbaning „Преподавание иностранных языков в средней школе“ (ikkinchi nashri 1974-yil) kitobi Moskvada nashr etiladi.

Ongli-qiyosiy metod amaliy, ta‘limiy va tarbiyaviy maq-

sadda chet til o'qitish jarayonida qo'llanadi. Amaliy maqsad retseptiv va reproduktiv nutq malakalarini taqozo etadi. Ta'limiy maqsadga ko'ra ona tili va chet tilni taqqoslash oqibatida chet tilni anglab yetish mumkin, degan noto'g'ri metodik vazifa qo'yiladi. Kommunistik tarbiya berish ham maqsad darajasiga ko'tariladi.

Ta'lim mazmuni ushbu metodga binoan matnlar mavzulari va til materiali tushunchalarini o'z ichiga oladi.

1950- yillarda I. V. Raxmanov metodik asarlari, M. S. Setlin (1950; 1955) fransuz tili o'qitish, V. D. Arakin (1950; 1958) ingliz tili o'qitish, L.S. Andreyevskaya-Levenstern va O. E. Mixaylova (1958) fransuz tili o'qitish metodikalaridan qo'llanmalari nashr etiladi. Ularda ongli-qiyosiy metodning asosiy prinsiplaridan bo'lmish ikki tilni taqqoslashga e'tibor qaratiladi. Bu davrda shakllangan ongli-qiyosiy metodni shartli ravishda „Shcherba-Raxmanov metodi“ deyish mumkin.

1960-yillar boshlarida ongli qiyosiy metodning yangilanish, zamonaviylashish davri boshlandi. V. S. Setlin o'zining „Методика обучения грамматическим явлениям французского языка в средней школе“ nomli bebaho metodik asarini e'lon qildi. 1967-yili yirik metodistlar guruhi yaratgan „Общая методика обучения иностранным языкам в средней школе“ nomli monografik asar chop etildi. (Shu davrdan boshlab chiqqan asosiy metodik qo'llanmalar ro'yxati ushbu darslikka ilova qilindi.)

1961- yildan XX asr oxirigacha chet til o'qitish jarayonida qo'llanilgan metodni zamonaviylashtirilgan ongli-qiyosiy metod yoki shartli nom bilan „Raxmanov va uning izdoshlari metodi“ deb yuritish mumkin. So'nggi yillarda kommunikativ metod joriy etilmoqda.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Tarjima metodlari turlarini aytib bering.
2. Tabiiy metod namoyandalari M. Berlis, F. Guen, M. Valter sistemalarini sinchiklab o'rganing va tahlil qilib bering.
3. To'g'ri metod asoschilari H. Palmer, Ch. Friz, R. Lado va M. Uest ijodini puxta o'rganib, muhokama qiling.
4. Aralash metodlar namoyandalari (K. Flagstad, P. Xegboldt, F. Klosse) metodik ijodini tahlil eting.
5. Tarjima, tarjimasiz, qiyosiy va aralash metodlarning orasidagi farqlarni aniqlang.

2-§. Sobiq Ittifoq chet til o'qitish metodikasi tarixi

Sobiq Ittifoq davri chet til o'qitish metodikasi tarixiy-ilmiy adabiyotda besh bosqichga bo'linadi. Ushbu bosqichlarni aniqlashni A. A. Mirolyubov¹ quyidagicha amalga oshirgan: I bosqich — 1917—1923; II bosqich — 1924—1931; III bosqich — 1932—1946; IV bosqich — 1947—1959; V bosqich — 1960—91-yilgacha. S. F. Shatilov² birinchi bosqichni tushirib qoldirgan holda to'rt bosqichli davrlashtirishni tavsiya qilgan: ikkinchi bosqichni (1924—1930) qisman o'zgartirib, uchinchi (1931—1944), to'rtinchi (1944—1961) va beshinchi bosqich (1961—1991-yilgacha bo'lgan davr)ni qamrab olgan.

Chet tillar o'qitish metodikasi tarixini bosqichlashtirish nazariyasi muayyan ilmiy mezonlarga asoslanadi, chunonchi, o'qitish maqsadida sodir bo'lgan o'zgarishlar va metodika fanida yig'ilgan ilmiy ma'lumotlar hisobga olinadi.

Birinchi bosqich (1917—1923). Chet tillar o'qitish metodikasining ushbu bosqichi hokimiyatning og'ir ahvolda kechayotgan davriga to'g'ri kelgan. Muallimlar mutlaqo yetishmasdi. Maktabda o'quv predmeti sifatida chet tilning qolish-qolmasligi hal qilinayotgan edi. Chet tilni amalda o'rgatish samarasi past edi. Buning o'ziga xos sabablari bor edi, albatta. Ijtimoiy sabab — o'sha paytlarda chet mamlakatlar bilan diplomatik, savdo va madaniy aloqalar buzilgan edi. Tashkiliy sabab — kadrlar yetarli emas edi. Asosiy sabablardan yana biri chet til o'quv predmetining umumta'lim maqsadi munozarali masala edi.

Ayrim maktablarda chet til o'rniga sun'iy til — esperantoni o'qitishga urinishlar qilingan. Maorifning joylardagi muassasalari o'quv predmetlari, dasturlar va darsliklarni tanlash masalasini mustaqil hal qilishar edi.

Muallim o'z mayliga ko'ra to'g'ri yoki grammatika-tarjima metodini va mavjud darslikni qo'llab, chet til o'rgata berar edi. Chet til o'rgatishning birinchi bosqichidagi murakkab sharoitda chet til o'qitish zaruriyati hamda uning amaliy va umumta'limiy ahamiyati yoqlab chiqildi va ilmiy isbotlab berildi.

¹ A. A. Миролубов. История методики обучения иностранным языкам в СССР: Автореф. докт. дисс. — М., 1973. — 3-бет; R. A. Zaripova. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llama — Toshkent: O'qituvchi, 1986. — 57-бет.

² С. Ф. Шатилов. Методика обучения немецкому языку в средней школе. — Л.: Просвещение, 1977. — 272-бет.

Ikkinchi bosqich (1924—1931). 1924- yilda chet til umumta'lim maktablarida to'la huquqli predmetlar orasidan joy egalladi. Dars beruvchilarni hisobga olib, nemis tili o'qitila boshlandi. Chet tilda o'qishni o'rgatish asosiy vazifa qilib olindi.

Bu davrda L. V. Shcherbaning (rus tilida) „Chet tillarning umumta'lim ahamiyati to'g'risida“ nazariy maqolasi¹, „Chet tillarni qanday o'rganmoq kerak“ nomli risolasi² va bir qator boshqa metodik adabiyotlar nashr etildi.

Uchinchi bosqich (1932—1946). 1931—1932- yillarda qabul qilingan maktab to'g'risidagi qarorlar chet tillarni o'qitishda jiddiy burilish yasashni nazarda tutgan. Maktab oldiga „har bir bitiruvchining biror chet tilni bilishini ta'minlash“ vazifasi qo'yildi. Ingliz va fransuz tillarini o'qitish keng tus oldi. Chet tilga ajratiladigan soatlar miqdori ko'paytirildi. Chet til muallimlari tayyorlaydigan o'quv yurtlari tarmog'i kengaytirildi.

O'sha davrda aralash metodning mohiyatiga ruhshunoslik, ta'limshunoslik, tilshunoslik fanlari erishgan yutuqlar ta'sir ko'rsatdi. O'quv materialini ongli egallash muhimligi haqidagi fikr ta'kidlandi.

Atoqli ruhshunos prof. Lev Semyonovich Vigotskiy ilmiy tadqiqotlarida chet til o'rganishni ona tilini egallash jarayoniga o'xshatish nomaqbulligi isbotlab berildi, ya'ni chet til hodisalarini anglab o'rgana boshlash, nutqni egallash ongllilik bilan bog'lanishi ma'qulligi asoslangan. Ruhshunoslikda aktiv va passiv nutq farqlanishi masalasi hal qilindi. Bu borada tilshunos L. V. Shcherba g'oyalari hisobga olindi. Mamlakatda aralash metod vujudga kelishiga ular turtki bo'ldi.

Chet til o'qitish maqsadiga ko'ra o'qishni va gapirishni o'rgatish vazifalari aniqlandi. 1945- yilda maktab uchun lug'at minimumi yaratildi. Grammatikani tanlash ham tadqiq etila boshlandi. Jahon metodikasida birinchi bor o'qilish qoidalari (Z. M. Svetkova va boshqalar tomonidan) ishlab chiqildi. Qoidalar asosida imlo va yozish texnikasini o'rgatish masalalari (N. P. Tennova va boshqalar tomonidan) tadqiq etilishi metodikaga muhim hissa bo'lib qo'shildi. An'anaviy aralash metodda o'sha davrgacha yaxlit so'z qismlari ajratilmasdan o'rgatilar edi.

¹ Л. В. Щерба. Об общеобразовательном значении иностранных языков. — В сб. Вопросы педагогики, вып. 1. — М., 1926.

² Л. В. Щерба. Как надо изучать иностранные языки. — М., 1929.

1930- yillar o'rtalarida yuqoridagi g'oyalar bilan sug'orilgan darsliklar paydo bo'ldi. Biroq ular davriga nisbatan-gina mukammal deyishga arziydi. Chet til o'qitish metodika-sining keyingi rivojlanish bosqichlarida darsliklar va metodik qo'llanmalar takomiliga katta e'tibor berildi.

To'rtinchi bosqich (1947—1959). „Chet tillarni o'rganishni yaxshilash to'g'risida“gi hukumat (1947- yil 3- oktabrda e'lon qilingan) qarori bu bosqichni boshlab bergan sana hisoblanadi. Urushdan keyin chet tillarni o'rganishni yaxshilash tadbirlari ko'rildi: muallimlar tayyorlash, darslik va qo'llanmalar tuzish, chet tilda qator fanlarni o'qitadigan maxsus maktablar ochish choralari belgilandi.

Ta'limning ongllilik prinsipini chet tilga befarq tatbiq qilish ongli-qiyosiy metod shakllanishiga olib keldi. Ona tiliga tayanish nomi bilan (uni hisobga olish emas) metodik prinsip ishga tushirildi.

1950- yillarning oxiriga kelib, L. V. Shcherbaning shogirdi I. V. Raxmanov va ko'plab boshqa izdoshlari tashabbusi bilan ongli-qiyosiy metod yaratilishida yo'l qo'yilgan xatolar tan olindi va ular tuzatila boshlandi. Nutq faoliyati turlarini bir vaqtda o'rgatish, qoidalarni til materialini o'zlashtirishga ko'maklashuvchi vosita deb qarash, tarjima va tarjimasiz mashqlar nisbatini aniqlash masalalari tadqiq qilindi. Afsuski, to'plan-gan nazariy ma'lumotlar darsliklarda o'z ifodasini yetarlicha topmadi, muallimlar ommasiga chuqur singdirilmadi. Nazariya va amaliyot birligi ta'minlanmadi. Oqibatda oltmishinchi yillarda bo'lib o'tgan qizg'in metodik munozaralar tarix sahifalarida qolib ketdi.

Beshinchi bosqich (1960 — 1991-yilgacha bo'lgan davr). 1950- yillar oxirida jurnallar sahifalari¹ chet tillar o'qitishga doir muhohasaviy ma'lumotlarga to'lib ketdi. Chet til meto-dikasi muhham fikrlar o'rmoniga kirib qolganday bo'ldi. Biroq hukumatning 1961- yil 28- mayda „Chet tillarni o'rganishni yaxshilash to'g'risida“ chiqargan qarori masalani oydinlash-tirishga yordam berdi.

1961—1962- o'quv yilidan e'tiboran 25 tadan ortiq o'quvchi bo'lgan sinflarni chet til darslarida ikki guruhga ajratib o'qi-tish, ota-onalar ixtiyori bilan boshlang'ich sinflar va bog'-

¹ Qaralsin: Иностранные языки в школе. 1957, 2, 3, 6- sonlari; Советская педагогика. 1958, 3-soni.

chalarda chet tillarni o'rgatish, chet til maxsus maktablarini ko'paytirish, o'quv-metodik kitoblar va audiovizual vositalar bilan ta'minlash tadbirlari belgilandi.

Ongli-qiyosiy metod zamonaviylashtirildi (I. V. Raxmanov va boshqalar¹).

O'quvchilar oldiga gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv malakalarini hosil qilishdan iborat zamonaviy vazifalar qo'yildi. O'z navbatida, bunday vazifalarga muvofiq o'quv dasturlari va darsliklar tuzilib ishga tushirildi. Bu davrda tinglab tushunish (*rus.* аудирование)ni o'rgatish masalalari ilk bor tadqiq qilindi. Nutq namunalari, asosida gapirishni o'rgatish maqsadga muvofiq deb topildi (Ch. Friz na R. Lado metodiga qaralsin). Yakkanutq va juftnutqni o'rgatish xususiyatlari metodik jihatdan farqlab berildi. M. V. Lyaxovitskiy va boshqa metodistlar tomonidan chet til o'qitishda ta'limning texnikaviy vositalaridan foydalanish metodik prinsiplari ishlab chiqildi. Chet til grammatikasini o'rgatish masalalari V. S. Setlin, S. F. Shatilov va boshqa metodistlar tomonidan chuqur tahlil qilib berildi. Leksikaning metodik tasnifi masalasi mukammal hal etildi (V. L. Buxbinder va boshqalar). O'qishni o'rgatish metodik usullari va prinsiplari atroflicha ko'rib chiqildi (S. K. Folomkina va boshqalar). Chet til darsliklari nazariyasi umumlashtirildi (I. L. Bim va boshqalar). O'quv-metodik komplekt yaratish tajribasi yo'lga qo'yildi (V bobga qaralsin). Chet tilda gapirishni o'rgatish nazariy asoslab berildi (E. I. Passov). Gapirish va tinglab tushunishni o'rgatishning psixologik asoslari ishlab chiqildi (I. A. Zimnyaya). Bir necha tillarni o'qitish metodikasiga oid nazariy asarlar yaratildi (V. I. Shyarnas). Milliy maktablarda chet tillarni o'qitish muammolari ilmiy tarzda o'rganildi (R. Yu. Barsuk, Sh. I. Shatirishvili, M. G. Asvatsatryan va boshqalar). Mazkur muammolarning hal etilishi O'zbekistonda chet til o'qitilishiga katta ta'sir o'tkazdi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Sobiq Ittifoq chet til o'qitish metodikasi tarixi qanday bosqichlarga bo'linishini aytib bering.

2. Beshinchi bosqich xususiyatlarini tahlil eting.

¹ „Biz ongli-qiyosiy metod tarafdorimiz...“, deb yozgan edi prof. I. V. Raxmanov. Qaralsin: Очерки по методике обучения немецкому языку (для педагогических вузов). — М.: Высшая школа, 1974. — 6-bet.

3. So'nggi bosqichda qaysi masalalar chuqur ko'rib chiqilganligiga e'tibor bering.

4. 1940-yillardan boshlab chet tillar o'qitishning qanday metodidan foydalanilgan? Zamonaviylashtirilgan ongli-qiyosiy metod mohiyatini izohlashga harakat qiling.

3- §. O'zbekistonda chet til o'qitish tarixi

Dunyoning barcha burchagida bo'lganidek, O'zbekiston hududida ham, ona tilidan tashqari o'zga xalqlar tillarini bilish kishilar orasida qadimdan taomil bo'lgan. Birdan ortiq tilni bir yo'la bilish tarixi mukammal o'rganilmagan ijtimoiy hodisaligi ma'lum. Biroq tarixiy shaxslar haqidagi ma'lumotlardan aniqlanadiki, barcha zamonlarda chet tilni o'rganish ehtiyoji sezilib turgan. Buyuk mutafakkirlikning birinchi mezonini zullisoniylik yoki ko'p tillilik (poliglossiya) hisobdanadi, oddiy xalqqa ham bu belgi xosdir. Bolalikdan o'zbeklar tojik tilini¹, tojiklar o'zbek tilini egallashi qadimdan an'ana bo'lgan.

O'zbekistonda yashovchi xalqlar bir-birlari tillarini bilishgan, tillar ularni yaqinlashishlari omili, quda-andachilik sababchisi bo'lgan. O'zbek xalqi ma'nan va jisman baynalmilalligi sir emas.

Qo'shnilar tilini bilishdan tashqari uzoq yurtlar tili o'rganilganligi ham tarixdan ma'lum. Yurtimiz aholisi orasida arab, fors tillari o'z davrida keng tarqalgan. Davlatdan dinni ajratish davriga kelib (XX asrda), arabiygo'ylar kamayib ketgan.

Yevropa tillarini o'rganib qaytganlar, rus tilini bilganlar ancha miqdorni tashkil etgan. Ushbu ilmiy masala tadqiqotchilarini kutib turibdi.

XIX asrning yetmishinchi yillarida Yevropa tillari o'qitila boshlangan. (Qisqacha ma'lumot VII bobning 1-§ ida ham keltirilgan.)

O'zbekistonda chet til o'qitish tarixi birmuncha tadqiq etilgan². Metodist Rimma Aleksandrovna Zaripova respublikada chet til o'qitish tarixini olti davrga ajratgan: I davr — XIX

¹ Mas. Amir Temur bolalikdan turkiy va tojik tilida erkin gapirgan. Qarang: A. Ю. Якубовский. Тимур и его время. — В кн. „История народов Узбекистана“, том I, часть VII, глава I. — Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1950. — 345-bet.

² R. A. Zaripova. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma. — Toshkent: O'qituvchi, 1986. — 67—119-betlar. (Darslikda shu ma'lumotdan foydalanildi.)

asrning yetmishinchi yillaridan 1917- yilgacha; II davr — 1917- yildan 1930- yillar boshlarigacha; III davr — 1930- yillar va 1940- yillarning birinchi yarmi; IV davr — 1910- yillar oʻrtasidan 1960- yillar boshlarigacha; V davr — 1960- yillardan 1970- yillarning boshlarigacha; VI davr — 1970- yillar boshidan keyingi vaqtni oʻz ichiga oladi. (Oʻzbekiston mustaqil boʻlgandan soʻng yangi davr boshlandi.)

Oʻzbekistonda chet til oʻqitish tarixini davrlashtirish haqida quyidagilarga eʼtibor berilmogʻi kerak: *birinchidan*, „chet til oʻqitish metodikasi“ respublikada 1950- yillar oʻrtalaridan ilmiy tadqiq etila boshlandi. „Oʻzbekiston metodikasi“ tushunchasi shu davrga taalluqli. Undan oldin Respublikada original darslik va qoʻllanmalar, ilmiy metodik adabiyotlar ishlangan emas; *ikkinchidan*, metodika maxsus ishlab chiqilmagan ekan (rus maktablari metodikasidan foydalanilgan), uni davrlashtirish gʻoyasi nomaqbuldir, chunki davrlashtirish bevosita metodik sistemaga tegishli; *uchinchidan*, respublika maktablarida chet til oʻqitish uning metodikasi qanchalik ishlangani bilan bogʻliq boʻlganidek, sobiq Ittifoqda chet til oʻqitish metodikasi davrlaridan farq qiladigan oʻziga xos bosqichlar belgilandi.

I. V. Raxmanov va A. A. Mirolyubovlarning tadqiqotlari doirasidagi tarixiy maʼlumotlarni maʼqullagan holda, respublika hududida chet til oʻqitish tarixini shartli uch bosqichga boʻlish tavsiya etiladi: I bosqich — 1924- yilgacha; II bosqich — 1924—1960; III bosqich — 1961- yildan boshlanadi.

Bunday davrlashtirishni quyidagi ilmiy mezonlar asosida dalillash oʻrinlidir. 1917- yilgacha oʻzbek oʻquv yurtlarida chet til ikki maqomga ega boʻlgan: birinchisi — sharq tillari diniy oʻquv muassasalarida oʻrganilgan; ikkinchisi — yevropa tillari ruscha oʻquv yurtlarida oʻrgatilgan. Demak, oʻzbeklar uchun maxsus oʻquv vositalari nashr etilgan emas. 1924- yildan eʼtiboran (respublika tashkil etilgandan boshlab) maxsus oʻquv rejalari doirasida chet til oʻqitila boshlandi. Biroq 1961- yilga qadar oʻzbek sinflari, guruhleri yoki oʻrta va oliy maktablari xususiyatlarini hisobga oladigan oʻquv qoʻllanmalari muntazam chiqarilgan emas. Tarixda ilk bor 1961—1964- yillarda 5—8- sinflar uchun ingliz, nemis, fransuz tillari darsliklari tayyorlandi va maktab hayotiga joriy etildi. Uchala mezon, yaʼni 1) oʻquv rejalari ishlanmaganligi, 2) oʻquv rejasiga chet til kiritilgan, biroq oʻquv vositalari chiqarilmaganligi va 3) oʻquv vositalarini nashr etish yoʻlga qoʻyilganligini hisobga oladi.

(O'zbek maktablarida chet til o'qitish metodikasi tarixi ilk bor ushbu kitobda baqadrihol umumlashtirildi.)

O'zbekistonda chet til o'qitish masalalari mavjud ilmiy manbalarda chuqur yoritilmaganligi sababli quyida u haqda mufassalroq to'xtab o'tiladi.

Turkiston rus podsholigi tomonidan bosib olinishi oqibatida o'lkada xalq maorifining o'ziga xos ikki tarafdin sistemasi rivojlandi. Bir tomondan, masjid va madrasalar qoshidagi boshlang'ich musulmon maktablarining keng tarqalgan tarmog'i ishlashda davom etar edi. Ularda o'qitishning asosiy mazmuni islomiyat ta'limotlaridan iborat edi. Ikkinchi tomondan, Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilingandan so'ng bu o'lkada rus maktablari ochila boshlandi. 1867- yilga kelib, ularning soni 10 ga yetgan edi. Akad. Vasiliy Vladimirovich Bartold fikricha, o'lka general-gubernatori Kaufman „musulmon ruhoniylari va musulmon tashkilotlarini, shu jumladan, o'quv muassasalarini ham inkor etish yo'lini tutar edi“.¹

Rusiyazon aholining ko'plab ko'chib kelishi va paydo bo'layotgan mahalliy burjuaziya ehtiyojlari maorif sistema-sining qayta qurilishini talab qilmoqda edi. O'lkada rusiyazonlar uchun o'rta o'quv yurtlari paydo bo'la boshlaydi.

1906- yil oxiriga kelib, o'lkada o'qishlar rus tilida olib boriladigan beshta erkaklar va beshta ayollar gimnaziyalari, ikkita real o'quv yurtlari, muallimlar seminariyasi, Toshkent kadetlar korpusi va bir qator boshqa o'quv yurtlari ishlatilmoqda edi. Shular bilan birga to'rt yillik rus-tuzem maktablari paydo bo'la boshlaydi. Bulardagi o'qitish maqsadi keyinchalik o'lkadagi turli tashkilotlarda ishlash uchun mahalliy aholi orasidan rus tilini egallab olgan shaxslarni tayyorlashdan iborat edi. Bu maktablar „ijtimoiy-siyosiy qiyofasi tufayli mavjud bo'lgan barcha kamchiliklarga qaramasdan, Turkiston aholisi orasida boshlang'ich ta'lim asoslarini boshlab berdi“².

Biroq, bunday o'zgarishlar yuz berganida ham xalq maorifida mahalliy aholini kamsitish kuzatilar edi, to'liq ma'lumot ruslargagina berilar edi. Mahalliy aholining hatto boy oilalaridan gimnaziya yoki real o'quv yurtlarini bitirib chiqqan kishilar hali kam uchrar edi.

¹ В. В. Бартольд. История культурной жизни Туркестана. Соч. том II, ч. I. — М.: Изд-во восточной литературы, 1963. — 297- bet.

² С. Р. Раджабов. К истории советской школы в Узбекистане. — Ташкент: Учпедгиз, 1955. — 10- bet.

Yerli aholining to'liq o'rta va oliy ma'lumotli bo'lishi uchun ta'limiy to'siqlardan biri yevropa tillari edi. Fransuz va nemis tillari chor Rusiyasida faqat sinfiy imtiyozgina bo'lmay, balki milliy imtiyoz ham edi. Bu tasodifiy hol emas, chunki chekka o'lkalardagi mehnatkash aholi qo'sh — sinfiy va milliy — zulm ostida edi. Shunday qilib, Turkiston o'lkasida chet tillar, asosan, rus aholisining imtiyozli tabaqalari tomonidan o'rganilar edi. Bu tillar gimnaziyalarda, real o'quv yurtlarida, kadetlar korpusida va tojirlar o'quv yurtida o'qitilar edi. Bundan tashqari Toshkentda katta yoshdagi aholi uchun chet tillar kurslari ochilgan edi.

„Туркестанские ведомости“ gazetasi 1908-yilda nemis tili kursi ochilganligidan xabar beradi. 1910-yilda chet tillarni o'rganish bo'yicha yana bitta kurs ochiladi. Nihoyat, ofitserlar uchun Varshava kursiga o'xshash chet tillar kursi ochilishi masalasi qo'yiladi. Bularning hammasi faqat ruslarga mo'ljallangan ta'limiy imtiyozlar edi.

Turkistonda chet tillarni o'rganishning XIX asr oxiridagi o'ziga xos xususiyati — ingliz tili kiritila boshlanishi bo'ldi. Bu til ofitserlar kurslarida o'qitilar edi. Bu tushunarli, chunki Sharqda ishlash uchun ofitserlar tayyorlanar, u yerda ingliz tilini bilish tamomila zarur edi. Ba'zi o'quv yurtlarida ingliz tili nemis tili bilan almashtirila boshlandi. Turkistondagi o'quv yurtlariga ingliz tilining kiritilishini Buyuk Britaniya ta'siri doirasida bo'lgan Eron, Afg'oniston kabi mamlakatlar bilan savdo aloqalari mavjud ekanligi bilan tushuntirish mumkin. Ma'lumki, Sharq mamlakatlari haqidagi asarlarning ko'pchiligi ingliz tilida yozilgan. Shuning uchun ingliz tiliga bo'lgan e'tibor turli doiralardan tomonidan qo'llab-quvvatlangan.

XIX asrning yetmishinchi yillaridagi chet til metodikasida o'zga tildagi matnlarni o'qish va tarjima qilishni o'rgatishga mo'ljallangan grammatika-tarjima metodining qisman o'zgarigan ko'rinishi paydo bo'ldi. XIX asr oxiriga kelib chet tillar o'qitishning maqsad-vazifalari va mazmuni o'zgaradi, bu, ayniqsa, tojirlar o'quv yurtlarida yuz berdi. O'quv dasturida ingliz tili o'rganishga quyidagi talablar qo'yilgandi: 1) klassik adabiyotdan parchalar o'qish; 2) o'qilgan matnni og'zaki va yozma so'zlab berish hamda mavzu bo'yicha ingliz tilida suhbat olib borish; 3) inglizlar keng qo'llaydigan grammatikani o'rganish; 4) ingliz tilidan tarjima qilish¹. Tojirlar o'quv yurtlari

¹ ЦГА УзССР, ф. И—64 оп. 1, д. 2237, л. 34.

faqat matnni o'qish va tarjima qilishni biladigan mutaxassis-larni emas, balki og'zaki nutqni egallagan va o'rganilayotgan tilda xat yozishga qodir kishilarni tayyorlab chiqarishi kerak bo'lgan. Bu talablarga, tabiiyki, grammatika-tarjima metodi orqali erishish mumkin emas.

XIX asrning oxiriga kelib og'zaki nutqni egallashga yo'llovchi to'g'ri metod tarqaldi. 1900- yilda to'g'ri metodni ma'muriy yo'l bilan joriy etmoqchi bo'lishdi.

Rossiyada to'g'ri metodga bo'lgan qiziqish tasodifiy hol emas edi. 1881- yilda chet tillar o'qitish metodikasi sohasida islohot o'tkazishga birinchi marta rasmiy suratda urinib ko'rildi va uning ta'siri O'zbekistonga ham sezildi.

Turkistonda o'sha davrning mashhur muallimi S. M. Gramenitskiy o'z maqolasida¹ to'g'ri metodning ijobiy tomonlarini aytib, ona tilidan olingan bilimga tayanishdan butunlay voz kechishga qat'iy qarshi chiqadi. Faqat zarurat bo'lgandagina qoidani tushuntirish lozimligi haqidagi g'oyani ta'kidlaydi. S. M. Gramenitskiyning fikrlari pedagogika jamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Muallimlar masalasida bir necha so'z aytib o'tish lozim. Toshkentdagi Alekseyev tojirlar o'quv yurtida fransuz tilini Parijda Oliy tojirlar institutini tugatgan kishi, ingliz tilini — angliyalik, nemis tilini esa ilgari Maorif vazirligida ishlagan nemis muallimi o'qitar edi. Chet til muallimlari Moskva, Peterburg va boshqa shaharlardagi dorulfununlarni, ba'zilari esa chet tillar kurslarini bitirib chiqqan kishilar edi.

Aholisi shafqatsiz zulm-istibdod ostiga olingan chor imperiyasining chekka o'lkalarida ham 1917- yildagi hammaga ma'lum Oktabr o'zgarishlari yuz berdi. Maorif va madaniyat sohasida yangi-yangi vazifalar paydo bo'la boshladi.

Turkiston Xalq maorifi vazirligi umumiy mehnat maktabiga tatbiq etish uchun „...boshlang'ich maktabda mahalliy til; o'rta maktabda — o'quvchilarning mayliga ko'ra fransuz, nemis, ingliz tillaridan biri majburiy“, deb buyruq chiqardi.² Buyruq Turkistonda chet tillarning yoyilishiga yo'l ochdi. Chet tillar o'qitish mahalliy aholi orasida o'rta maktabda emas, balki oliy o'quv yurtlaridan boshlandi. 1918- yilning yozida

¹ С. М. Граменицкий. О методах преподавания языков. // Туркестанские ведомости, 1908, № 81.

² Основные принципы единой трудовой школы. Народное образование в СССР. — Сб. документов за 1917—1973 гг. — М., 1974.

Turkiston xalq dorulfununi qoshida chet tillar instituti tashkil qilindi. 1930- yilda Oʻrta Osiyo Radiomarkazida ingliz tili sirtqi kurslari ochildi. Yoshlar tashkiloti Oʻrta Osiyo Byurosining tashviqot boʻlimi Toshkent shahridagi muassasalarga chet til oʻrganishni istovchilar roʻyxatga olinishini eʼlon qildi.

Oliy oʻquv yurtlarida chet tillar yanada jadal surʼatlar bilan oʻqitila boshlandi. 1921- yilda Oʻrta Osiyo davlat dorulfununi tinglovchilari orasida oʻzbeklar ham bor edi.

1931- yilda tashkil etilgan Toshkent chet tillar ikki yillik kursi maktab va Oliy oʻquv yurtlarini kadrlar bilan taʼminlay olmasligi tamomila ravshan edi. Bundan tashqari bu kurslarda mahalliy millat vakillari yoʻq edi. Oʻzbekiston oʻquv yurtlari esa xuddi mana shunday tubjoy oʻqituvchi kadrlarga muhtoj edi. 1934- yilda ikki yillik kurslar kechki pedagogika instituti qoshida muallimlar instituti huquqiga ega boʻlgan chet tillar fakultetiga aylantirildi. Unga mahalliy aholidan ham talabalar qabul qilindi. Agar 1935- yilda Toshkent kechki pedagogika instituti chet tillar fakultetida hammasi boʻlib uchta oʻzbek oʻqigan boʻlsa, 1936- yilning oxiriga kelib ularning soni 25 taga yetdi. Fakultetda jami 236 kishi oʻqiyotganini hisobga olganda, bu raqam unchalik katta emasligi koʻrinadi, albatta.

1941- yilning yanvar oyida Oʻzbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti maktablarda chet tillar oʻqitishni yaxshilash toʻgʻrisida qaror qabul qildi. Unga koʻra 1941—1942- oʻquv yilida 5-sinfdan boshlab barcha shahar maktablarida, 1944- yilga kelib esa barcha qishloq maktablarida chet tillar kiritilishiga erishish vazifasi koʻrsatildi. Chet tillardan qoniqarsiz baho olgan oʻquvchi va talabalarni keyingi sinf yoki kursga oʻtkazish man qilindi. Toshkent pedagogika instituti va kechki pedagogika instituti qoshidagi chet tillar fakultetlari zaminida Toshkent chet tillar pedagogika institutini ochish moʻljallangan edi. 1938- yilda RSFSR da nashr etilgan maktab dasturi qayta ishlab chiqilgach, Oʻzbekistonda 1940- yildan boshlab u ishga tushirildi.

Biroq markazda ishlab chiqilgan dasturlarni Oʻzbekiston maktablari sharoitiga moslashtirishga birinchi urinishlarni muvaffaqiyatli deb boʻlmaydi. Chamasi, bunga sabab dasturlarni mahalliyashtirish masalalari metodikada umuman koʻrilmasligida boʻlsa kerak.

Ammo bunday moslashtirilgan dastur bilan ishlab boʻlmashligini hayotning oʻzi koʻrsatdi. „Chet tillar oʻrgatishni

yaxshilash to'g'risida" hamda „Chet tillar o'qituvchilari tayyorlash haqida“gi (1947- yil) markaziy hukumat qarorlari chet tillar o'qitishni yo'lga qo'yishda sezilarli bosqich bo'ldi. O'zbekiston hukumati 1948- yilda „Chet tillar o'qitishni yaxshilash to'g'risida“ va „Chet til muallimlari tayyorlashni tashkil etish haqida“ qaror qabul qildi. Toshkent chet tillar institutini ochish taklif qilindi va bu institut 1948- yilda tashkil etildi. 1949- yili institut qoshida sirtqi bo'lim, 1960- yilda esa kechki bo'lim ochildi.

1959- yilga kelib, O'zbekiston Maorif vazirligi ma'lumotiga qaraganda, chet tillar respublikadagi maktablarning 37 foizida o'qitilgan.

1950- yillarda rus maktablari uchun chet til bo'yicha nashr etilgan dastur va darsliklarni o'zbek maktablarining xususiyatlariga monand moslashtirish ishlari davom ettirildi. Muallimlar O'zbekiston maktablarida ishlashga doir dastlabki metodik maqola va ko'rsatmalar oldilar. Mas. 1959- yilda „Дополнительное самостоятельное чтение на иностранном языке в школах Узбекистана“ qo'llanmasi bosmadan chiqdi. Shunday qilib, maktab faqat o'quv qo'llanmasi emas, balki metodik adabiyot ham ola boshladi.

1948- yildagi 370 talabadan hammasi bo'lib 15 tasigina mahalliy millat vakillari, shundan 12 tasi o'zbeklar edi. 1956—1957- o'quv yilida 1163 talabadan 632 kishi yerli aholiga mansub bo'lib, ulardan 545 tasi o'zbeklar edi. Boshqa oliy o'quv yurtlarining chet tillar fakultetlarida ta'lim olayotgan mahalliy millat vakillari soni ham ko'paydi. Ular orasida ilmiy daraja va unvonlarga ega bo'lgan muallimlar paydo bo'la boshladi. O'sha davrda qiyosiy tilshunoslikdan Ya. R. Benyaminov, X. S. Barnoxo'jayeva, o'zbek maktablarida ingliz tili o'qitish metodikasidan ham (E. A. Anisimova, I. Y. Vagina tomonidan) kandidatlik dissertatsiyalari yoqlandi.

Bu faktlar 1950-yillarda qiyosiy tilshunoslik va o'zbek maktablarida chet til o'qitish metodikasi sohasida ilmiy ishlarni keng ko'lamda boshlab yuborish uchun birinchi marta shart-sharoit yaratilganligidan dalolat beradi. O'qitish metodikasi ilmiy maktabini yaratish uchun zamin hozirlangandi. O'qitishning xususiy masalalarini yorituvchi metodik ishlar paydo bo'la boshlaydi.

1957 va 1959- yilda o'zbek maktablarida chet til o'qitish xususiyatlariga bag'ishlangan maqolalar to'plamlari bosilib

chiqdi. Ularda predloglar, soʻz tartibi, feʼl shakllarini oʻrganishda sodir boʻladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yoʻllari koʻrsatib berilgan.

Oʻsha sharoitda chet tillar oʻqitish fidoyisi nemis zabon mutaxassis Stepan Semyonovich Galyantning oʻquvchilar bilimi, koʻnikma va malakasi bir xil darajada boʻlmagan sinflarda ishlash toʻgʻrisidagi maqolasi muhim voqea boʻldi¹. Bu Oʻzbekistondagi oʻsha davr uchun dolzarb edi, chunki chet til oʻrganmagan yoki yetarli darajada oʻqimagan oʻquvchilar koʻplab topilar edi. Bu maqolalar xususiy metodik muammolarga taalluqli boʻlgan, biroq yaxlit xususiy metodika hali shakllanmagan edi. Chet tillar oʻrganishni istovchilar uchun kurslar ochilishi oltmishinchi yillardagi chet til oʻqitish sohasida jiddiy oʻzgarish boʻldi. Chet tillar institutida va fakultetlarida mahalliy xalqlar vakillarining soni oshdi. Agar 1961—1962- oʻquv yilida Toshkent davlat chet tillar pedagogika instituti (TDChTPI)da oʻqiyotgan 1377 talabadan 997 tasi, yaʼni 72 foizga yaqini oʻzbeklarni tashkil etgan boʻlsa, 1970—1971- oʻquv yiliga kelib institutda 2672- talaba oʻqidi, ulardan 2267 kishi, yaʼni 84 foizi oʻzbeklar edi. 1962- yilda TDChTPI qoshida ikki yillik oliy pedagogik kurslar, 1969- yildan Oʻrta Osiyo oliy oʻquv yurtlarining chet til muallimlari malakasini oshirish fakulteti ishlay boshladi. Bu kurslar yuqori malakali kadrlar tayyorlashning nufuzli oʻchogʻiga aylandi.

Chet tillarni oʻrganish toʻgʻrisidagi 1961- yil hukumat qarori respublikada chet tillarni oʻrganishni tashkil qilishda va kadrlar tayyorlashda haqiqiy burilish boʻlibgina qolmay, balki oʻqitish maqsadlarini aniqlash sohasida ham yangi davrni boshlab berdi. Jamiyatning sotsial talabi oʻzgarishi munosabati bilan chet tillar oʻqitishning maqsadi til oʻqiyotganlarning ogʻzaki nutqini oʻstirishdan va tarjimasiz oʻqishdan iborat boʻlib qoldi.

Oʻzbek maktablari uchun chet tillardan original darsliklar (1961—1964) nashr etildi. Ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borishga katta eʼtibor berildi. Oltmishinchi yillar oʻzbek maktablari chet tillar oʻqitish metodikasini shakllantirish uchun muhim davr boʻldi. Til materialini, jumladan, grammatik materialni tanlash muammosi hal etildi. Bu ilmiy izlanishlar

¹ С.С. Галаянт. Организация уроков в классах с неодинаково подготовленными учащимися. — В сб. „Вопросы методики преподавания иностранных языков“. — Ташкент: Учпедгиз, 1957.

xususiy dasturning kelgusida grammatika qismini yaratish uchun zamin yaratdi.

Ushbu davrda talaffuzni o'rgatish sohasida ham tekshirishlar olib borish keng tus oldi. Darsliklarda ingliz, nemis va fransuz tillari tovushlari o'zbek tili tovushlari bilan qiyoslandi. Buni nemis tilidagi unli tovushlarni o'zlashtirish uchun qiyoslash mashqlari o'tkazilishini tavsiya qilgan marhum metodist Ahmad Qodirovich Mamajonovning tekshirishlari ham tasdiqlaydi.¹

Metodistlar grammatika o'qitish metodikasini ishlab chiqishga, ayniqsa, faol kirishishdi. 1965- yilda birinchilardan bo'lib o'zbek olimi Hamid Boyqo'ziyev² ingliz tili sodda gapida so'z tartibini o'zlashtirish bo'yicha mashqlar sistemasini taklif qildi. Shunisi muhimki, tavsiyalar O'zbekiston maktablarida o'tkazilgan tajribalarga asoslangan edi.

Yetmishinchi yillarning boshida chet til o'qitish mazmunini belgilashda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Shu yillarda o'zbek maktablari uchun original dastur yaratildi. Dastur loyihasi 1968- yilda e'lon qilingan edi³. Unga sobiq SSSR Pedagogika Fanlari Akademiyasi tomonidan tayyorlangan dastur loyihalari asos qilib olindi. Dasturda ikki vazifa — og'zaki nutqni va o'qishni o'rgatish nazarda tutiladi.

Maktablarning ish xususiyatlarini e'tiborga oluvchi chet tillar o'qitishning o'ziga xos mazmuni tarkib topdi. Bu chet tillar o'qitish metodikasi yuzasidan O'zbekistonda keng quloch yoygan katta ilmiy-tekshirish ishining natijalaridan biri bo'ldi, deyish to'g'ri bo'ladi.

O'zbekistonda chet til o'qitish metodikasi masalalarini ilmiy tadqiq qilishda o'tgan asrning yetmishinchi yillari sermahsul davr bo'ldi. O'tgan asrning elliginchi va oltmishinchi yillarida faqat ayrim metodik izlanishlar olib borilgan bo'lsa, endi maktab metodikasi sohasida qator nomzodlik dissertatsiyalari til materiali va nutq faoliyati turlarini o'rgatishga ba-

¹ А. К. Мамажонов. Как улучшить произношение учащихся на уроках немецкого языка. — Сб. „Из опыта работы преподавателей иностранных языков в школах Узбекистана“. — Ташкент: Средняя и высшая школа, 1964. — 45-бет.

² Х. Байкузиев. Методика обучения строю простого предложения английского языка в восьмилетней школе Узбекистана: Канд. дисс. — М., 1965.

³ Программы по иностранным языкам для узбекской школы. (Проект.) / Отв. ред. Д. Д. Джалалов. — Ташкент: Укитувчи, 1968.

g'ishlandi (Д. Д. Джалалов. Постановка английского произведения в узбекской школе: Автореферат канд. дисс. — М., 1972; Т. Эминов. Методика обучения синтаксису немецкого языка в V—VII классах узбекской школы. Автореферат Канд. дисс. — М., 1973; М. Ю. Салиева. Особенности учета русского языка при обучении английскому в школах с узбекским языком обучения (V—VII классы): Автореферат канд. дисс. — М., 1976; Б. С. Раджапов. Обучение монологической устной речи на английском языке в V—VII классах узбекской общеобразовательной школы. Автореферат канд. дисс. — М., 1977; И. Э. Тарсина. Пути преодоления структурно-грамматических трудностей при чтении на немецком языке в старших классах узбекской школы: Автореферат канд. дисс. — М., 1978).

Oliy o'quv yurtlarining o'zbek va qoraqalpoq guruhlarida chet tillarni mutaxassislik sifatida o'qitish metodikasiga oid nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi (Л. Р. Беньяминов. Методика преподавания английских временных форм Past Indefinite и Past Continuous в узбекской студенческой аудитории: Автореферат канд. дисс. — М., 1970; А. Парпиев. Методика обучения английским модальным глаголам и их эквивалентам во взрослой аудитории с узбекским языком: Автореферат канд. дисс. — Ташкент, 1975; А. Курбанбаев. Методика обучения немецким предлогам студентов первого курса каракалпакской аудитории (на факультете иностранных языков): Автореферат канд. дисс. — Киев, 1975).

O'tgan asrning saksoninchi yillarida ilmiy tekshirishlar izchil davom ettirildi. Maktabda chet til o'qitish muammolarini yoritadigan nomzodlik dissertatsiyalari tayyorlandi (Х. Сайназаров. Обучение лексике английского языка в старших классах узбекской школы: Автореферат канд. дисс. — Л., 1982; Т. К. Саттаров. Методическое содержание обучения активной грамматике английского языка в узбекской средней школе: Автореферат канд. дисс. — М., 1982; М. М. Мамаджанова. Формирование рецептивных грамматических навыков английского языка у учащихся на начальном этапе обучения: Автореферат канд. дисс. — М., 1982; Ю. Э. Темиров. Экспериментальное исследование эффективности переводных упражнений при обучении грамма-

тическому строю английского языка (начальная ступень школьного обучения): Автореферат канд. дисс. — Киев, 1983).

Oliy o'quv yurtida fransuz va nemis tili o'qitish metodikasidan nomzodlik dissertatsiyalari yoqlandi (H. Бакаев. Методика обучения пониманию форм прошедшего времени французского глагола при чтении литературы по специальности (в национальных группах исторических факультетов пединститутов Узбекской ССР): Автореферат канд. дисс. — Киев, 1985; P. Н. Кремер. Обучение речевому синтаксическому навыку немецкого языка студентов национальных групп (на материале I курса языкового вуза): Автореферат канд. дисс. — Л., 1987; M. С. Дадаходжаева. Формирование ритмико-интонационных навыков, высказывания на начальном этапе языкового вуза (при контакте немецкого языка с узбекским): Автореферат канд. дисс. — М., 1987 va b.).

Metodik tadqiqotlardan tashqari chet tillar materialida pedagogika masalalariga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyalarini respublika chet til muallimlari va metodistlari himoya qilishgan (R. A. Zaripova — 1969; T. B. Hamdamov — 1973; M. Bobojonova — 1975; B. Jabborov — 1975; A. P. Uporova — 1979; D. A. Fozilova — 1979; E. Ergashev — 1983; A. Mamadaliyev va b.).

Respublika tarixida, hatto O'rta Osiyoda, chet til ixtisosidan birinchi bo'lib Abduzuhur Abdumajidovich Abduazizov ingliz va o'zbek tili fonetikasini qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan (Moskva — 1974). O'tgan asrning saksoninchi yillarida chet tillar filologiyasidan respublika mutaxassislari tomonidan yana bir nechta doktorlik, o'nlab nomzodlik dissertatsiyalari yoqlangan. Ular orasida Muxtor Eshonxonovich Umarxo'jayev (nemis tilidan birinchi fan doktori), Jamoliddin Bo'ronov, O'tkir Qurbonovich Yusupov, Qahramon Sattorovich Taymetov, Qudrat Musayevlarning doktorlik tadqiqotlarini eslash kifoya. O'tgan asrning 90-yillarida chet tillar mutaxassislari o'qitish metodikasidan professorlik ilmiy unvoni (J. Jalolov, A. Saidov) sohiblari bo'lishdi.

Mustaqillik yillarida (2012-yilgacha e'tiboran) chet til mutaxassislari filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilishdi (N. Avazboyev, D. Ashurova, A. Bushuy, M. Xolbekov, Sh. Safarov, G. Boqiyeva, H. Orziqulov, B. Rizayev, B. Tursunov, M. Rasulova, G'. Hoshimov, S. Rahimov, M. Baqoyeva, B. Samadov, N. Otajonov, J. Yoqubov, Z. Sodiqov) va ingliz tili o'qitish metodikasidan doktorlik dissertatsiyasi yoqlashdi (T. Sattorov, G. Mahkamova), o'zbek tili materialida fan doktori bo'lishdi (N. Turniyozov, G. Zikrillayev, M. Mamatov, Q. Mamatov, I. Mirzayev) hamda xorijiy tilla filologiyasi va o'qitish metodikasidan o'nlab fan nomzodlari yetishib chiqdi.

Yuqorida nomlari keltirilgan va boshqalar ilmiy tadqiqotlari chet til o'qitish metodikasining O'zbekistonda xususiy sohasi yaratilishi va respublika o'rta maktablari va oliy o'quv yurtlarida chet til o'qitish metodikasi ilmiy maktabi shakllanishiga imkoniyat tug'dirdi.

O'zbekiston chet til metodistlari sobiq Ittifoq miqyosida salmoqli ilmiy masalalarni ko'tarib chiqish va hal qilishga erishdilar (ular haqida ushbu darslikning „Ikkinchi qismi“dagi tegishli boblarda ma'lumotlar keltiriladi).

Respublika chet tillar o'qitish metodikasida orttirilgan, amaliy va nazariy tajriba darsliklar, metodik qo'llanmalar, o'quv dasturlari tuzishda asqotganligi ko'pchilikka ma'lum.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. O'zbekiston hududida 1924-yilgacha chet tillar o'qitishda mavjud bo'lgan tarixiy ma'lumotlarni o'rganib chiqing va qisqacha izohlab bering.

2. 1924—1960-yillarda respublikada chet tillar o'qitilishining asosiy xususiyatlarini tahlil qiling.

3. 1960-yildan keyingi bosqichda chet tillar o'qitish qaysi tomonlari bilan oldingi davrlardan ijobiy farq qilishini muhokama qiling.

4. Metodika va tilshunoslikka oid respublika chet til muallimlari va metodistlari tayyorlagan ilmiy ishlar haqida fikr yuring.

Ikkinchi qism

CHET TILDA NUTQ FAOLIYATI TURLARINI O'RGATISH

VIII BOB. LEKSIKANI O'RGATISH

„Leksika“ va unga aloqador tushunchalar haqida

Ruhshunoslar e'tirof etishlaricha, inson bolasi kishilik jamiyati orttirgan tajribani so'z orqali o'zlashtiradi¹, chunki *tafakkur so'z yordamida sodir bo'ladi*. So'z til birligi sifatida tushuncha(lar)ni ifodalaydi. Tildagi so'zlar majmuyi leksikani sistema sifatida tashkil etadi.

So'zning hissiy (*tashqi*) va ma'noviy (*ichki*) tomonlari bor. „Hissiy“ termini so'zning „qo'zg'ovchi“ ekanligidan darak beradi. Ko'ruv va eshitish sezgilari yordamida uni ko'ramiz (o'qiyimiz) va eshitamiz (tinglab tushunamiz). Uni aytishimiz (nutqharakat sezgisi orqali) va yozishimiz (qo'lharakat sezgisi yordamida) mumkin. So'z yozilgan yoki aytilgan paytda, uni ko'rish yoki eshitish mumkin. So'zning ichki (ma'noviy) jihati deyilganda, mazmun va tushuncha nazarda tutiladi. Ma'no deganda, o'zi ifodalayotgan narsa yoki hodisaga bog'lanishi tushuniladi. Tushuncha esa — narsa va hodisaning muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli. Tushuncha qiyoslash, tahlil, mavhumlashtirish, sintez, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar tufayli shakllanadi. Mas. „oq“ tushunchasi ispan, ingliz, nemis, fransuz, fors va rus tillarida „bianco, white, weiß, blanc, safed, белый“ shakllaridagi so'zlar orqali ifodalanadi. Ifodalanadigan tushuncha bitta, so'z esa yettita. Har bir so'z, agar u termin bo'lmasa, yana bir necha ma'no bildirishi mumkin, mas. oq qog'oz, oqlar, oqqa

¹ Общая психология. / Под ред. А. В. Петровского, 2-е изд. — М.: Просвещение, 1977, 165-бет, (3-е изд. — 1986, o'zbekcha nashr — Toshkent: O'qituvchi, 1992).

ko'chirmoq, oq suvoq, oqlanib chiqmoq kabilardagi „oq“ turli ma'noda kelyapti.

Ma'noni tilshunoslik o'rganadi, tushunchani esa ruhshunoslik tadqiq etadi. So'zning ma'nosi — tilga oid termin, uni lug'atdan topish mumkin. So'z mazmuni — nutqqa taalluqli, lug'atdan topilmaydi, kishining tajribasi yoki bevosita vaziyatdan ma'lum bo'ladi. Mas. „besh“ so'zining ma'nosi lug'atda keltirilgan. Nutqda qo'llanishiga qarab, uni o'quvchi, „o'qishdagi — yutuq“ baho bilan, avtobus kutuvchi transport marshruti bilan, bozorchi (xaridor va sotuvchi) narsaning narxi — so'm, dollar bilan fikran bog'lashi mumkin va h.k.

So'zning to'rtta shakliy — tovush (fonetikada), yozilish (grafikada), tuzilish (leksikologiyada) va grammatika (morfologiyada) tomonlari o'rganiladi.

Hozirgi zamon hind-yevropa tillarida leksika yarim million-gacha so'zdan tashkil topadi. Tilda 400—500 ta so'z yordamida muloqot yuritish mumkin. Ma'lumotli odam og'zaki va yozma fikr bayon etish uchun 3000—5000 ta so'z ishlatadi. O'qib va tinglab tushunishda unga qaraganda ancha ko'p so'zni biladi. Buyuk shoir va yozuvchilar ijodida 20—25 ming so'z qo'llanadi (mas. A. Navoiy, U. Shekspir, A. S. Pushkin, A. Qahhor kabilar).

So'zlarni turli nuqtayi nazardan tasnif etganda: leksik-grammatik toifada (so'z turkumlari), so'z yasash usullariga ko'ra (sodda, qo'shma, yasama), vazifasiga binoan (mustaqil va yordamchi), mavzu va terminlar guruhi, semantik doirasi kabilar hisobga olinadi.

Tashqi olam inson ongida narsa va so'z timsollari tarzida shakllanadi. Ikkinchi signal sistemasi sifatida so'z predmet va hodisa timsolini qo'zg'aydi, mas. „non“ so'zini eshitganda yoki o'qiganda ko'z oldimizda „yegulik“ paydo bo'ladi.

Leksikani o'rgatishda tildagi tushunchalarning o'zaro munosabati turlarini nazarda tutish zarur: *birinchidan*, tobelik, ya'ni tor va keng tushuncha mavjud, mas. ayol, erkak → odam; qiz, o'g'il → farzand; *ikkinchidan*, mos kelish — ikki tushuncha mazmunan farq qiladi va ular hajman mos keladi, mas. tashrif buyurmoq — kelmoq; tavallud topdi — tug'ildi; *uchinchidan*, qisman to'g'ri kelish — bir tushuncha ikkinchisini qisman qamrab oladi, mas. olim — metodist; pedagog —

musiqachi; *to'rtinchidan*, o'zaro bog'lanmaydigan tushunchalar, ular orasida mazmunan va hajman hech qanday umumiylik bo'lmaydi, mas. sumalak va qalam; navro'z va algoritm.

Ona tili va chet til tushunchalari taqqoslanganda to'liq o'xshashlik, qisman mos kelish va butunlay farq qilish holatlari kuzatiladi, ularning ayoniy tasviri quyida keltiriladi:

| Tushunchalar munosabati | O'zbekcha | Inglizcha | Ispancha | Nemischa | Fransuzcha | Ruscha |
|-------------------------|--------------------------------|---------------------------|----------------------------|--------------------------|----------------------------------|-------------------------------|
| To'liq o'xshash | suv | water | agua | Wasser | eau | вода |
| Qisman o'xshash | qo'l | 1.arm 2.hand | 1.brazo 2.mano | 1. arm 2. hand | 1. bras 2. main | рука |
| Butunlay farq qiladi | shan-balik — — — — | — lunch — — — | — — siesta — — | — — — Herr — | — — — grand déjeuner | суббот- ник — — — |

Chet til leksikasini o'rgatishda to'liq o'xshash tushunchalarni ona tili so'zlari bilan, qisman o'xshashlarni so'z birikmasi orqali va butunlay farq qiladigan so'zlarni esa o'sha tildagi so'z bilan yoki tavsifiy tushuntirish yordamida taqdim etiladi.

So'zning *moddiy ifodasi* (fonema, grafema va morfemalardan iboratligi), *mazmuni* (ma'no yoki signifikat), narsa, hodisa va ular orasidagi munosabatlarni ifodalashi (uning *denotatlari*) kabilar uning tabiatan murakkabligidan dalolatdir.

Quyidagi misollarga e'tibor bering:

| O'zbekcha | Inglizcha | Ispancha | Nemischa | Fransuzcha | Ruscha |
|------------------|------------|-------------|-----------------|----------------|--------|
| bormoq kelmoq | go come | ir verir | geher kommen | ailer venir | идти |

Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, o'zbek va chet til-larda harakat yo'nalishining signifikati aniq ifodalangan, rus tilidagi fe'lda signifikat yo'q, faqat matn ma'nosida u ifodalanishi mumkin.

Yangi soʻzni eslab qolish va qoʻllash chogʻida ilgari oʻzlashtirilgan soʻzlar bilan uni fikran bogʻlash, yaʼni *assot-siativ aloqaga kiritishning* muhim ahamiyati bor.

Psixolingvistlar tomonidan assotsiatsiyalarning beshta turi aniqlangan; 1) oʻxshashlik (sinonimiya); 2) teskari maʼnolilik (antonimiya); 3) teng maʼnoda bogʻliqlik, mas. stol — stul (mebel); 4) maʼno kengayishi: stol — mebel, olma — meva; 5) bir-biriga bogʻlanganlik: kasallik — oʻlim (sabab-oqibat); askar — lashkar (butunning bir boʻlagi); chit — paxta (narsa — xomashyo); termoq — paxta (harakat — obyekt); terimchi — paxta (ijrochi — obyekt).

Leksikaga oid ilmiy maʼlumotlarning qisqacha bayoni keltirildi. Keyingi paragrafda leksikani oʻrgatishga metodik tayyorlash haqida soʻz yuritiladi.

1-§. Leksikani metodik tayyorlash

Til materialini, jumladan, leksikani oʻrgatish metodikasi ikki bosqichda oʻtadi. Birinchisi metodist tayyorlab, muallim bilishi shart boʻlgan metodik jarayondir. Unda leksika tanlanadi, metodik tashkil (taqsim) qilinadi, tasnif etiladi, darslikda (statik holda) taqdim etiladi. Har toʻrtala tadbir oʻqituvchini hisobga olib roʻyobga chiqariladi.

Leksikani oʻrgatishning ushbu statik bosqichi keyingi dinamik bosqich, yaʼni leksik koʻnikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi. (Ushbu bobning 2-§ iga qaralsin.)

Leksikani tanlash. Metodikada „tanlash“ termini ifodalaydigan tushuncha muallimlarga tanish. Lekin ushbu tushunchaga ilmiy-metodik taʼrif berilgan emas. Fanda ishlab chiqilgan mezonlar asosida til makrosistemasidan oʻquvchi oʻrganishi uchun moʻljallanadigan mikrosistema yaratish hodisasi *metodik tanlash* deb ataladi. Metodist leksikani tanlashga kirishar ekan, quyidagi metodik tushunchalardan foydalanib ish koʻradi: „tanlash manbayi“, „tanlash mezonlari“, „tanlash birligi“.

Tanlash manbayi deganda, shakllanayotgan leksik minimumni til sistemasidan „tanlab“ olish tushuniladi. Odatda, lisoniy minimum, jumladan, leksika oʻrganilayotgan tildagi nutqdan tanlanadi. Aniqrogʻi, aktiv minimum badiiy asarlardagi juftnutqdan yoki soʻzlashuv-adabiy nutqning yozilgan fonogrammasidan tanlanadi.

Passiv minimum esa, yozma adabiyotdan olingan termalar (parchalar) asosida tanlanadi. Aktiv leksika jonli nutqdan olinib, o'quvchi og'zaki nutqida, passiv esa yozma manbalardan tanlanib, o'quvchi yozma nutqida qo'llashga mo'ljallanadi. Tanlash manbayini ayrim mualliflar tanlash tadbiri tushunchasi doirasiga kiritadilar.

Chet til leksikasi maktab minimumining aktiv qismi 1000 tacha leksik birlikdan tashkil topadi. Shu asosda yana maktab o'quv sharoitiga moslab passiv leksik birliklar tanlanadi. Lug'at boyligi hajmi o'quv soatlari miqdoriga bevosita bog'liq bo'ladi.

Til o'qitish metodikasida ma'lumki, eng ko'p qo'llanadigan birinchi minglikdagi so'zlar o'rtacha qiyinchilikdagi matnning 80 foizi mazmunini tushunib olish imkonini beradi, ikkinchi minglik 8—10 foiz, uchinchi 4 foiz va to'rtinchi va beshinchi minglik bu imkoniyatni atigi 2 foizga oshiradi. Asosiy ikki mingta so'z matndan 85—90 foizgacha axborot olish uchun kifoya. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, bu yerda gap mavjud ilmiy mezonlarga binoan maxsus tanlanadigan leksika haqida boryapti.

Tanlash mezonlari deganda, leksikaning qiymatini aniqlashda qo'llanadigan o'lchov va ko'rsatkichlar tushuniladi. Uch toifa mezonlar bir-biri bilan bog'langan holda qo'llanadi: hisob-kitob mezonlari, metodik¹ va tilshunoslik mezonlari.

Hisob-kitob mezonlari so'zlarning qo'llanishiga oid odilona ko'rsatkichlarga erishish vositasi bo'lib, ular tarkibiga ko'p qo'llanish va keng tarqalganlik mezonlari kiradi. Ko'p qo'llanish terminining ma'nosi olingan manbada so'zlarning jami ishlatilish miqdorini bildiradi. Keng tarqalganlik deyilganda esa, ushbu so'zni o'z ichiga olgan manbalar soni nazarda tutiladi. Ikkalasi birga qo'shib foydalanilganda ijobiy natija berishi fanda isbotlangan. Shunga ko'ra keng tarqalganlik mezoni birinchi hisoblanadi. Unga qo'shimcha tarzda so'zlarning naqdligi (qo'llanishga tayyor turishi) mezoni (*fr. disponibilité*)dan foydalanish mumkin (bu mezon birinchi bor M. Uest tomonidan ishlatilgan, o'tgan asrning elliginchi yillarida uni

¹ Qarang: В. С. Цетлин, Н. В. Павлова. Словарь наиболее употребительных слов французского языка. 5-е изд. — М.: Русский язык, 1992. — 5—12- betlar.

fransuz metodistlari R. Mishea va J. Gugeneym audiovizual metodda yanada ijodiy takomillashtirishgan). Uning asl mohiyati gapiruvchi ongida naqd (ixtiyorida) turadigan soʻzlarni tanlash mezonì demakdir.

Ikkinchi toifadagilar esa oʻqitish maqsadi va nutq mavzularini moʻljallab qoʻllaniladigan mezonlardir. Ular orasida mavzularni hisobga olishdan tashqari tushunchalarni tasvirlash va semantik ahamiyatdagi mezonlarni uchratish mumkin.

Qolgan tanlash mezonlari uchinchi guruhga kiradi. Ular mana bunday nomlarda qabul qilingan mezonlar: soʻzlarning birikishi, soʻz yasash imkoniyati, koʻp maʼnolilik, uslub jihati-dan chegaralanmaganlik, sinonimlarni chegaralash (yakka-lash) va gap tuzishdagi ishtiroki. Birikish mezoniga koʻra tanlangan soʻz boshqalari bilan iloji boricha koʻproq birikmaga kira oladigan boʻlishi talab qilinadi. Soʻz yasash mezoniga binoan ulardan hosila birliklar miqdori koʻp sonli boʻlishi kerak. Koʻp maʼnoli soʻzlarni tanlashga ham alohida eʼtibor beriladi. Uslubda chegaralanmaganlik degani, tor doirada qoʻllanadigan emas, balki nutq faoliyati turlarining barchasida va turli mavzularda ishlatiladigan soʻzlarni tanlash mezonì tushuniladi. Sinonim soʻzlardan ayrimlarigina yoki sinonimik qatorning bir aʼzosigina tanlanadi. Chet til jumllarining tuzilishi uchun zaruriy hisoblanadigan yordamchi soʻzlarni tanlash ham tavsiya etiladi.

Aktiv lugʻatni tanlashda birinchi va ikkinchi guruhdagi mezonlar va uchinchisidan sinonimlarni chegaralash, soʻzlarning birikishi, soʻz yasash imkoniyati va koʻp maʼnolilik mezonlari asos boʻladi.

Passiv lugʻatni tanlash chogʻida esa birinchi guruh mezonlari va semantik qiymatga egalik va soʻz yasash imkoniyati, koʻp maʼnolilik hamda mavzuiy aloqadorlik mezonlaridan foydalaniladi. Lugʻat minimumni shakllantirish jarayonida koʻrsatilgan mezonlar oʻzaro bogʻliq boʻlishi shart. Ushbu mezonlar „gʻalviridan oʻtgan“ soʻzlar maktab oʻquv dasturi uchun leksik til materialì sifatida tavsiya etiladi.

Tanlash birligi fanda uzluksiz bahslarga sabab boʻlgan metodik tushunchadir. Ushbu birlikka tegishli metodik talablar qoʻyiladi: *birinchidan*, tanlash birligi mezonlar va tanlash tadbiriga mos tushishi kerak, *ikkinchidan*, ular xolisona amallar asosida ajratib olinishi zarur. Xullas, tanlash birligi

qilib, soʻzlar, ularning leksik-semantik va leksik-frazeologik variantlari hamda nutq klisesi (qolip-jumla) muayyan maʼnoda olinadi. Bir maʼnodagi soʻz yoki soʻzga teng keladigan turgʻun birikma leksikaning tanlash birligi sanaladi (maʼno lugʻatda koʻrsatiladi, soʻz mazmuni ushbu maʼnoning nutqiy faoliyatda yuzaga chiqishidir, tushuncha esa tafakkurda shakllanadi).

Har bir tanlash birligi mustaqil lugʻat maqolasi sifatida leksik minimumda oʻz aksini topadi. Lugʻatdagi maqolalar chet tildan ona tiliga tarjimai bilan beriladi. Aktiv va passiv leksik birliklar alifbo tartibida lugʻatdan joy oladi. Passiv lugʻat maʼlum bir leksikografik belgi (mas. oldida yulduzcha) bilan farqlanadi. Xufiya (potensial) leksika lugʻatda berilmaydi.

Tanlash birligi ilmiy aniqlangach, tanlash mezonlari vositasida oʻquv qoʻllanmasi mavqeyida „Lugʻat (yoki leksik) minimum“ tuziladi.

Miqdor va sifat jihatidan oʻquv dasturi talabiga javob beradigan lugʻat minimum darsliklar va qoʻllanmalar tuzish uchun „qurilish“ materiali vazifasini oʻtaydi. Tanlangan leksik material metodik tasnif, taqsimot va statik taqdimot bosqichlaridan oʻtadi, dinamik taqdimotdan boshlab oʻquvchilar koʻnikmasini hosil etishga xizmat qiladi.

Lugʻat minimumning oʻqitish maqsadlariga koʻra taqsimotiga oid masalalarning muxtasar tahlili quyida bayon etildi.

Leksikaning taqsimoti. Ilmiy adabiyotlarda ushbu tushuncha (ruscha manbalarda „методическая организация“) „metodik tashkil qilish“ degan termin bilan ifodalanadi. Til materialini tanlashdan koʻra taqsimlash masalasiga kamroq ilmiy eʼtibor berilgan.

Oʻquv materialining taqsimoti fan asoslari oʻrgatiladigan oʻquv predmetlarida osondan qiyinga va boshqa didaktik prinsiplarga binoan amalga oshiriladi. Chet tilda faoliyat oʻrganilishi munosabati bilan leksik material chet til metodikasi qonun-qoidalari doirasida taqsimlanadi.

Leksikaning taqsimoti ikki bosqichda amalga oshiriladi: 1) aktiv va passiv leksik minimumlarga ajratiladi, yaʼni ogʻzaki nutq oʻqitish maqsadi hisoblanadigan taʼlimning birinchi va ikkinchi bosqichlarida aktiv, yuqori bosqichda oʻqish uchun passiv leksika farqlanadi, passiv leksikaning yarmi ogʻzaki nutqda ham taqdim etiladi; 2) reproduktiv va retseptiv tarzda egallanadigan leksika darslik tuzish chogʻida sinflar minimumlari shaklida ajratib chiqiladi.

Ikkinchi bosqichdagi taqsimot, o'z navbatida, yana kichik miqdordagi guruhlariga ajratiladi: 1) leksika nutqiy mavzular atrofida darslik paragraflariga taqsimlanadi; 2) bir soatlik dars uchun so'zlar miqdori belgilanadi; 3) darsning mashqlari materiali sifatida leksik birliklar tarqatiladi.

Bir soatlik dars chog'ida ko'pi bilan sakkiztagacha leksik birlik o'rgatilishi ko'zda tutiladi. Grammatik hodisa o'rgatiladigan darsda, iloji boricha, yangi leksika berilishi tavsiya etilmaydi (yoki leksika o'ta oz miqdorda taqdim etilishi mumkin).

Leksik birliklarning xususiyatiga qarab, taqsim miqdori aniqlanadi. Undan tashqari idrok etib tushunish yoki fikr bayon etish uchun leksikaning qo'llanishida ham tafovut mavjud, binobarin, taqsim miqdori ham farq qiladi.

Ta'kidlangan taqsimot tartibini belgilashda metodik mezonlarga amal qilmoq zarur. Sodda qilib, taqsimot mezonlarini quyidagicha tavsiflash mumkin: 1) leksikani nutq faoliyati shakli (reproduktiv va retseptiv)ga qarab ajratish, ya'ni nutq talabiga ko'ra taqsimlash yoki o'qitish maqsadini nazarda tutish; 2) nutqiy mavzularni e'tiborga olish; 3) o'quvchilar til tajribasini hisobga olish; 4) til ichki interferensiyasini bartaraf etishni ko'zlash; 5) yangi grammatik hodisani tanish leksik birliklarda, yangi leksikani o'rganilgan grammatika vositasida berish; 6) leksik qiyinchiliklarni bo'lib (chegaralab) o'rgatish.

Ushbu taqsimot mezonlarini quyidagicha tahlil etish mumkin: „nutq talabiga ko'ra taqsimlash mezoni“ deganda, gapirish uchun aktiv leksikadan o'quv materiali berish va o'qish uchun passiv minimumdan olish tushuniladi. „Nutqiy mavzularni e'tiborga olish mezoni“ga ko'ra, birinchi navbatda, o'quvchi tevarak-atrofi haqida chet tilda fikr bayon etishni o'rganadi. Demak, „maktab“, „sinf“, „uy“ kabi kichik mavzular dastlabki leksik birliklarni „ergashtiradi“. Binobarin, „ruchka“, „kitob“, „o'quvchi“, „muallim“, „men“, „ber“, „mening“, „ism“ kabilar boshlang'ich darslarning leksikasi bo'lishi muqarrar.

„O'quvchilar til tajribasini hisobga olish mezoni“ bo'yicha, avvalambor, qiyinchiliklarni yakalab bartaraf etishga mo'ljallangan hajmdagi leksikada taqsimlansa, chet tilda ma'lum tajriba orttirilgach, leksika nutqiy mavzularga birlashtirilib, ulgurji berilishi ham mumkin. Shu munosabat bilan boshida chet tilcha „ruchka“, „qalam“ birga o'rgatilmaydi, vaqti kelib

„qovun“, „tarvuz“, „meva“ kabilar bir darsga ham kiritilishi mumkin. „Til ichki interferensiyasini bartaraf etish mezoniga“ binoan fikran o‘zaro chalkashlik keltirib chiqaradigan birliklar birvarakay berilmasdan, bir-biridan zamon va makonda ajratiladi, mas. „tog‘a“, va „amaki“ yoki „u“ so‘zi (olmoshi)ning rodlardagi shakllari birga taqdim etilsa, chalkashlikka sabab bo‘ladi. Beshinchi mezonga ko‘ra grammatik va leksik qiyinchilik ajratilishi tavsia etiladi. „Qiyinchiliklarni tarqatib o‘rgatish mezoniga“ talabi doirasida taqsimlash orqali yangi birlik yuzasidan puxta ko‘nikma shakllangunga qadar boshqa birlik berilmay turadi.

Taqsimot mezonlariga itoat qilishning yaqqol misollaridan biri sifatida fe‘lning harakat nomi shakli birinchi shaxs shaklidan ancha keyin berilgani ma‘qul. Chunki nutq zarurati avvalo „o‘zim haqimda“ gapirishni taqozo etadi.

Dastur tuzuvchilar va darslik mualliflari ilmiy-metodik tadqiqotlar natijalariga amal qilib, taqsimot tadbirini bajaradilar.

Leksikaning tasnifi. Til materialini metodik tayyorlashning ushbu bosqichida metodist olimlar o‘quvchilarning til tajribasini sinchiklab tekshiradi va o‘rgatiladigan birliklarini oson/qiyin guruhlarga ajratadilar.

Metodik tasnif (ruscha adabiyotlarda „методическая типология (классификация)“) deganda, til birliklarini o‘zlashtirishda sodir bo‘ladigan qiyinchiliklar tufayli ularni turli toifalarga ajratib chiqish tadbirlari tushuniladi. Demak, tasnif termini beixtiyor qiyinchilik hodisasi bilan fikran bog‘lanadi. Metodik tasnifga bo‘lgan hayotiy ehtiyoj nima bilan isbotlandi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bir so‘z bilan javob berib, o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni darajalarga bo‘lib chiqish niyatida tasnif zarurligini eslatish kifoya.

Xorijda va vatanimizda til materiali tasnifi masalasi metodistlar e‘tiborini doimo jalb qilib keladi. Metodikada o‘tgan asrning oltmishinchi yillaridan tasnif bilan faol shug‘ullanishga kirishilgan va muhim tadqiqotlar o‘tkazilgan.

O‘ttizinchi yillarda amerikalik chet til o‘qitish ruhshunosi H. Hyuz¹ ona tili bilan taqqoslash orqali chet til leksikasini oson/qiyin toifalarga bo‘lish haqida fikr bayon etgan edi. Mashhur metodistlardan H. Palmer tasnifi fanda keng ma‘lum

¹ H. R. Huse. The Psychology of Foreign Language Study. Carolina Press, 1931; H. R. Huse. Reading and Speaking Foreign Language, Carolina Press, 1945.

va ko'pchilikka manzur bo'lib, tilni egallashda shakl, ma'no va qo'llash yuzasidan qiyinchiliklarni tadqiq¹ etgan. Yana bir buyuk metodist Ch. Friz esa so'zning gapdagi vazifasi va birikishi xususiyatidan kelib chiqib, jamiki so'zlarni to'rt guruhga tasnif etgan²: yordamchi so'zlar, o'rinbosar so'zlar, inkor bor-yo'qligini bildiradigan so'zlar va narsa, harakat, sifatni ifodalovchi so'zlar.

Dastlabki ikki guruh, Ch. Friz fikricha, aktiv o'zlashtirishda eng murakkab so'zlardir. Atoqli metodist R. Lado leksikani tillararo interferensiyaga bog'lab tasniflagan³.

Leksikaning tasnifi masalasini ilmiy tekshirgan olimlar (V. A. Buxbinder, S. V. Kalinina, L. Z. Yakushina, M. S. Latushkina, N. V. Nikolayev, A. A. Zalevskaya, M. A. Pedanova, Y. V. Gnatkevich, H. Soynazarov va boshqalar) turli nuqtayi nazarlardan turib, chet til leksikasining toifalarini aniqlaganlar.

Leksikani tasniflash borasida I. V. Raxmanov⁴ birinchilardan bo'lib, ilg'or ilmiy g'oyalar bilan chiqqan. 1960-yillarda leksikani farqlab o'rgatishning ayrim masalalari metodik tadqiq qilindi, mas. uzun va qisqa so'zlar, ko'rgazmalilik yordamida hamda ko'rgazmali qurollarsiz taqdim etiladigan so'zlar, oldin o'rganilganlari bilan bog'liq va bog'liq bo'lmagan so'zlar, fonetik va ma'no jihatlariga yaqin so'zlar va h.k.

O'tgan asrning oltmishinchi yillari oxiri va yetmishinchi yillari boshida bu sohada yaxlit tadqiqotlar paydo bo'lib, ularda metodik tasnif haqidagi ilmiy ma'lumotlar umumlashtirildi va tasnif mezonlari o'rtaga tashlandi. Leksikani nutq faoliyati turlarida o'zlashtirish va aktiv/passiv lug'atni o'rganish farqlanadigan bo'ldi. O'sha davr manbalari ichida „Umumiy metodika“ (1967) kitobida ushbu muammo haqidagi nazariy fikrlar umumlashtirildi.

Metodik tasnif bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda ikki yo'nalish ko'zga tashlanadi: birinchisi — alohida so'z xususiyatiga

¹ H. Palmer. Grammar of English Words. London-New York, 1954; H. Palmer. Interim Report on Vocabulary Selection. London, 1936.

² Ch. Fries. The Structure of English. New York, 1952.

³ R. Lado. Language Testing. New York, 1961.

⁴ И. В. Рахманов. Методика обучения немецкому языку в VIII—X классах. — М.: Изд-во АПП РСФСР, 1956, VII bobning 4- bo'limiga qaralsin.

bog‘liq va tilning ichki va tillararo interferensiyasi yuzaga keltiradigan qiyinchiliklar aniqlandi. Ikkinchi yo‘nalishda esa aktiv/passiv lug‘atga xos so‘zlardagi qiyinchiliklar o‘rganildi.

Hozirgi davrga kelib, leksikaning tasnifi umummetodik miqyosda tadqiq etilmoqda. Nutq faoliyati turlarini egallashda amal qilinadigan alohida nutq operatsiyasiga qarab, qiyinchiliklarni aniqlash natijasida leksik tasnif ishlab chiqilmoqda. Operatsion yondashish oqibatida tasnif qilingan leksika mashqlari amaliy qo‘llash uchun mo‘ljallanadi. Nazariyadan amaliyotga qadam tashlanadi.

Nutqni idrok qilish va uni sodir etish jarayonlarida leksikani qo‘llash operatsiyalari turlicha bo‘lishi metodik asoslangan. Undan tashqari xufiya lug‘at boyligining ham o‘ziga xosligi aniqlandi. Ushbu leksika o‘quvchilar til tajribasida ilgari uchramagan, ular ilk bor duch kelayotgan leksik birliklarni maxsus tasnif qilish zarur.

Nutqiy leksik operatsiyalarning gapirishga oid turini bu birliklarning birikishi (so‘z birikmalari) va ularning jumla tarkibida qo‘llanishi (gap tuzish) tarzida ta‘riflash mumkin. Nutqni idrok etish chog‘ida esa boshqa amal bajariladi: og‘zaki/yozma nutq idroki paytida o‘quvchilarda hosil qilingan eshitish/ko‘ruv timsollarini tanlay olish, akustik/grafik tayanchlarni eshitganda/ko‘rganda ajrata olish kabilar. Ularni mashqlarda ishlatish uchun mayda operatsiyalarga ajratish darkor.

So‘zning reproduktiv nutqda qo‘llanishiga xos ishlar quyida tahlil etiladi. **Birinchi operatsiya:** zarur so‘zning tovush shakli eslanadi, ya‘ni tanish leksik birlik ishga tushadi. Ushbu birlik uzoq muddatli (doimiy) xotiradan qisqa muddatli (operativ) xotiraga o‘tkaziladi (ma‘lumki, o‘zlashtirilgan so‘z doimiy xotirada saqlanadi, nutq esa qisqa muddatli xotira ishtirokida sodir bo‘ladi). So‘zni eslash chog‘ida uni paradigmatic tartibdan sintagmatik holatga o‘tkazishdek murakkab jarayon kuzatiladi. Mas. gapirmoq, gapirish, gap, gapiraman, gapiradi kabilar xotirada „qatlam“ shaklida saqlanadi. Jumlagi kiritish yonmayon keladigan so‘zga bog‘lab joylashtirish demakdir (Men inglizcha gapiraman, u ispancha gapiradi va h.k.). So‘zning oson qiyinligini uning ko‘p ma‘noliligi, ona tili va chet tilda ma‘no doirasi tor/kengligi, ma‘nodosh (sinonim)lari bor/yo‘qligi belgilab beradi.

Ikkinchi operatsiya: soʻzning sintaktik va leksik birikish darajasini aniqlash. Leksik birikish deganda maʼnoviy munosabatga kirish, sintaktik birikish esa muayyan soʻz tartibining taqozo etilishidir. Ikkala holat ona tiliga mos kelsa, amal osonlashadi. Soʻzning birikishi farq qilganda, amal qiyin kechadi.

Uchinchi operatsiya: jumladagi boʻsh joyni toʻldirish. Bemalol birika oladigan soʻzni ishlatish erkinroq kechadi, birikish imkoniyati chegaralangan soʻzni ishlatishda qiyinchilik seziladi.

Nutqni idrok etish operatsiyalari passiv lugʻat materialida bajariladi. Oʻqish (soʻzning grafik timsoli)ni idrok etish operatsiyalari quyidagilardan iborat:

Birinchi operatsiya leksik birlikning yozma (grafik) timsolini idrok etish. Bunda soʻzning qisqa/uzunligi (qisqa soʻz oson idrok qilinadi), grafema (harf, harf birikmalari)ning tanish/notanishligi, ona tilidagi soʻz shakliga oʻxshash/nooʻxshashligi kabilar muhim ahamiyatga molikdir.

Ikkinchi operatsiya: leksik birlik belgilarini aniqlash. Bunda yozuv (grafik) belgilari (harf birikmasi) va tuzilish — maʼno belgilari (oʻzak, yasama soʻz) nazarda tutiladi. Soʻzdagi morfemalarning tanishligi qiyinchilikni bartaraf etish omillaridanidir. Koʻp boʻgʻinli soʻzni idrok etish qiyinchilik bilan kechadi.

Uchinchi operatsiya: leksik birliklarni farqlash va oʻxshatish. Morfema (oʻzak, affiks) yaxshi tanish boʻlsa, oʻquvchi oson idrok etib tushunadi. Soʻz tarkibi maʼnolarini ochish oson boʻlsa, uni tanib olish yengillashadi, agar oʻzak yoki affiks maʼnosini ochish murakkablik qilsa, tanib olish, yaʼni farqlash yoki oʻxshatish qiyinlashadi.

Toʻrtinchi operatsiya: idrok qilinadigan shaklni maʼnosi bilan bogʻlash (fahmiga yetish, tushunib olish), oʻz navbatida, butun jumlani (yoki jumladan katta matnni) tushunib yetish. Soʻzning koʻp maʼnoliligi tushunishga xalal yetkazish ehtimoli bor. Tub yoki majoziy maʼno tufayli soʻzni tanib olish qiyinchiligi turlicha boʻladi. Shakl va maʼnoning oʻquvchi ongida aloqada boʻladigan tillarda oʻxshash yoki tafovutli boʻlishi oson/qiyin tanib olishga sabab boʻladi.

Xufiya (potensial) soʻz boyligi tasnifiga kelganda, uni qaysi manbada oʻrganilishini va oʻquvchilar til tajribasidan

tashqaridagi ushbu soʻzlarni idrok qilish jarayonida sodir boʻladigan operatsiyalarni hisobga olish zarurligini alohida taʼkidlash lozim. Xufiya leksikaga oid ish quyidagilardan iborat: 1) grafik timsollar yigʻindisini idrok etish; 2) idrok etilganlarni tanish grafik timsollar bilan fikran aloqaga kiritish (ona tili va chet tilda oʻzlashtirilgan til birliklari ishga solinadi).

Qisqasi, leksik qiyinchiliklarning operatsiyalar amali choʻgʻida namoyon boʻlishi tufayli ularni operatsion yondashish orqali tasniflash mumkin (leksik birliklar haqidagi maʼlumotlarni IV bobning 3-§ idagi „Leksikani oʻrgatish mazmuni“ mavzusidan yana bir karra oʻqib oling).

Chet til leksikasi tasnifida ona tili bilan bir qatorda ikkinchi tilga oid oʻquvchi tajribasi hisobga olinmogʻi zarur.

Leksikaning metodik tasnifi ilmiy manbalarda bir tekis taʼriflangan emas. Birmuncha chalkash va ziddiyatlarga moʻl metodik tadqiqotlar ham yoʻq emas. Binobarin, aniq bir chet tilni oʻrganish uchun tayyorlanadigan til materiali tasnifi, jumladan, leksika tasnifi, odatda, darslik mualliflari vakolatiga havola etiladi.

Shuni alohida taʼkidlash lozimki, oʻzbek oʻquvchisi uchun inglizcha leksika tasnifi yoki ispancha, nemischa, fransuzcha leksika tasnifiari rus, tojik va boshqa oʻquvchilarinikidan batamom farq qiladi. Demak, metodik tasnif xususiy metodika fanining vazifasiga kiradi.

Metodik tasniflangan leksik birliklar til oʻrgatish jarayonini tashkil qilishda, bajariladigan mashqlar sistemasida hisobga olinadi. Leksik koʻnikmalarni shakllantirishning samaradorligi tasnif sifatiga bogʻliq boʻladi.

Oʻquv-metodik topshiriqlar

1. Leksikani tanlash mezonlarini tahlil eting.
2. Taqsimot bosqichlari haqida mulohaza yuriting.
3. Leksikaning tasnifi qanday amalga oshirilishini oʻrganing.
4. „Tanlash birligi“, „tasnif“, „mezonlar“, „leksik qiyinchilik“, „operatsion yondashish“ terminlarini muhokama qilishga tayyorlaning.
5. Soʻzning „shakli“, „maʼnosi“ va „qoʻllanilishi“ tushunchalarini oʻzlashtiring.

2-§. Leksik ko'nikmalarni shakllantirish

Chet tilda leksik materialni tanlash, uning tasnifi va taqsimoti tadbirlari metodistlar tomonidan bajarilgach, ularning natijasi o'qitish amaliyotiga joriy etiladi. Bu ish o'quv-metodik vositalarni yaratuvchilar zimmasiga yuklanadi.

O'rgatishga tayyorlangan leksik material yuzasidan darsda va boshqa mashg'ulotlarda muallim ishtiroki va rahbarligida o'quvchilar leksik ko'nikmalarni egallaydilar. Quyida, avvalambor, leksik ko'nikma termini tahliliga to'xtalib, soniyan, ko'nikma hosil qilish bosqichlari haqida metodik mulohaza yuritiladi.

„Leksik ko'nikma“ terminini metodist olimlar ilmiy izohlab berishgan. S. F. Shatilov¹ „leksik ko'nikma“ning ikki qismdan iborat metodik tushunchaligini, ya'ni nutqda so'zni qo'llash va nutq jarayonida so'z yasash deb ta'riflaydi. Olim fikricha, bu nutqiy leksik ko'nikma bo'lib, undan tashqari lisoniy leksik ko'nikma ham shakllanadi. So'zni tahlil etish jarayoni, so'z yasash, so'z birikmasini tuzish kabilar leksik materialni ong ishtirokida qo'llashdek lisoniy leksik ko'nikma nazariy isbotlangan. Demak, leksikaning nutqiy va lisoniy ko'nikmalari ma'lum.

Leksikani o'rganishdan asosiy maqsad o'quvchilarga chet til nutq ko'nikma va malakalarini singdirishdir. Leksik materialni egallash uch bosqichdan o'tadi. Birinchi bosqich yangi so'z bilan tanishishdan boshlanadi, ikkinchi bosqich tanishilgan leksikani nutq jarayonida qo'llay boshlashga qaratiladi, ya'ni bu materialni dastlabki mustahkamlash davridir va uchinchi bosqichda esa o'rganilayotgan so'z nutq faoliyati turlarida ko'nikma hamda malaka tarkibida o'zlashtiriladi. Leksik birlik yuzasidan bajariladigan ushbu ish bosqichlarini metodlarga taqqoslash mumkin: tanishish, mashq qilish va qo'llash.

Leksikaning taqdimoti. Tanishish (prezentatsiya) bosqichida so'zning shakli, ma'nosi va qo'llanishi yuzasidan ish bajariladi. Chet til leksikasini o'rgatishda an'anaviy va funksional usullar mavjud². So'zning ma'nosini ochish (semantizatsiya) an'ana-

¹ С. Ф. Шатилов. Методика обучения немецкому языку в средней школе. — Л.: Просвещение, 1977, 97-бет.

² Е. И. Пассов. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. — М.: Русский язык, 1989. — 132—133 va 137—138-бетlar.

viy usul bo'lib, funksional metodikada u maxsus bosqich deb qaralmaydi. Chet tildagi so'z taqdim etilishidan oldin ona tilidagi shunga monand so'z esga solinadi. Bunga kinolavha (3—5 daqiqalik) yoki mazmundor rasmni namoyish etish orqali erishiladi. Namoyishdan so'ng, ona tili tajribasiga asoslanib, chet tildagi so'z matnda yoki yakka taqdim etiladi.

Yangi so'z ma'nosi bilan tanishish, ma'lumki, ikki usulda ijro etiladi: tarjimasiz yoki tarjima vositasida. Tarjimasiz usulda ikki toifa — ichki va tashqi ko'rgazmalilikdan foydalanib kelinadi (V bobning 2-§ idagi „Ko'rgazmalilik prinsipi“ga oid berilgan ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi).

Yangi leksik birlikning ma'nosini egallash chog'ida qo'llanadigan metodik usullar quyidagi omillarga bog'liqdir: so'zning xususiyati; aktiv/passiv leksikaga oidligi; ta'lim bosqichi va o'quvchilar saviyasi; yangi so'zning taqdim etiladigan shakli (eshitib yoki o'qib idrok etish); yangi birlikni tanishtirish joyi (dars, uy, darslik, lug'at) kabilar.

Taqdimot jarayoni quyidagicha tashkil etiladi. Yangi so'z tarjimasiz usul bilan o'rgatilganda narsa, rasm, xatti-harakat namoyish qilinib, taxminan mana bunday topshiriqlar beriladi: so'z ma'nosini fahmlab oling, mas. kitob ko'rsatiladi va uning nomi chet tildagi jumlada aytiladi. Tarjimasiz usul yana antonim, sinonim, so'z yasash elementlari, kontekst, ta'riflash orqali ham amalga oshiriladi, mas. chet tilda „katta“ so'zi o'rganilgan, „kichik“ so'zi jumlada aytilgach, uning ma'nosini fahmlab olish tavsiya etiladi va h.k. Tarjimasiz metodik usul narsa nomini, uning hajmini, gapni yoki harakatni ifodalovchi so'zlarni taqdim etishda erkin qo'llaniladi. O'quvchilarning tushunganligini nazorat qilishda tarjimasiz vositalar ishga solinadi. Mas. narsa yoki uning tasvirini ko'rsatish (kitob, qalam, ko'cha), chet tilda „ha“, „yo'q“ javobini berish, harakatni namoyish qilish orqali ma'noni fahmlaganlik tekshiriladi.

Tarjimadan foydalanish, zarurat bo'lganda, taqiq etilmaydi. Tarjimaning ikki turi odat bo'lgan. Birinchisi — oddiy, so'zma-so'z tarjima, ikkinchisi esa tarjima-izoh deyiladi. Kontekstdan ajratib olingan yangi so'zning bevosita tarjimasi keltiriladi yoki ayrim hollarda tarjima izohlanadi, mas. *afternoon* — tushdan keyingi soat 12 dan 6 gacha bo'lgan vaqt. So'z o'rgatishda noiloj hollardagina tarjimaga murojaat etiladi.

Mavhum tushunchalarni o'rgatishda tarjimadan foydalangan ma'qul. Ona tilida mos keladigan so'z topilmaganda tarjima-izoh beriladi.

Yangi so'z ma'nosini mustaqil tarzda o'rganish usuli ham maktab tajribasida keng tarqalgan. O'qish malakasini egallash chog'ida yangi so'zlar (ko'pincha, yoddan ko'tarilgan leksik birliklar ham) lug'at yordamida o'rganiladi. Lug'at yordamisiz xufiya (potensial) so'zlarni mustaqil o'rganish, ularning ma'nosini fahmlab olish tavsiya qilinadi.

Leksik birlikning ma'nosi bilan tanishish uni o'zlashtirish yo'lidagi birinchi bosilgan ta'limiy qadam, xolos. Yangi so'zning birikish xususiyatlarini o'rganib olish maxsus ikkinchi bosqichni taqozo etadi. Ushbu bosqichda so'zlarni takrorlash, jonli nutqda qo'llash mashqlari bajariladi.

Leksika mashqlari. Ko'nikma hosil qilish bobida ushbu bosqich muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tushunchani ham jarayon metodi sifatida, ham ma'nosi ochilgan leksik birlikni nutqda ishlatish deb izohlash mumkin.

Aslida leksikani o'rgatishning har uchala bosqichi (tanishtirish yoki taqdim etish, mashq bajarish va qo'llanilishi) tegishli mashqlarda ro'y beradi.

So'z o'zlashtirishda ma'noni ochish birinchi odim, xolos, ikkinchisi, muhimrog'i, nutq oqimida uni ishlatishga qaratilgan tadbir — leksik birlikning so'z birikmalari va jumalarda ishtiroki va oqibat natijada ko'nikma hosil qilish bosqichidir.

Leksik birlik ko'nikmaga kirishi uchun bajariladigan mashqlarda uni ikki xil ishlatish usuli mavjud: o'rganilayotgan so'z bir joyda turli birliklar bilan ishlatiladi yoki har xil o'rinlarda yangi-yangi so'z birikmalari hosil qilib takrorlanadi. Demak, so'zni belgilangan yoki o'zgarib turadigan joylarda ishlatib, mashq bajarish orqali leksik ko'nikma shakllantiriladi.

Leksik mashqlar informatsion va operatsion qismlardan tashkil topadi. Birinchi qismi ko'rsatma berish va ijro namunasi bo'lib, tilga oid qoida bilan hamda nutq amaliyotini birlashtiruvchi oraliq mashqlardan iborat. Ikkinchisida, operatsion mashqlarda leksik material asosida nutq harakatlari egallanadi. Mashqdagi muayyan element — leksik operatsiyani egallash doimo asosiy vazifa qilib qo'yiladi. Mas. „Matnni o'qing, ajratib ko'rsatilgan so'z (so'z birikmasi, gap)ga e'tibor bering“ mashqidagi birliklar shular jumlasidandir.

Ko'nikmaga erishish murakkab jarayon bo'lganligidan, har bir yangi so'z bir nechta (miqdori so'zning xususiyatiga bog'liq) mashqda yoki mashqlar majmuyida takror-takror ishlatiladi. Har bir mashq tegishli operatsiyani egallab olishga mo'ljallanadi.

Mashqlarning asosiy turlari quyidagilar: 1) real lug'at boyligini o'zlashtirish, lug'at tarkibini kengaytirish va ularni fahmlash (payqash) orqali bilib olish ko'nikmalarini hosil qiladigan mashqlar; 2) retseptiv (tinglab va o'qib tushunish) va reproduktiv (gapirish, qisman yozuv) leksik mashqlar; 3) leksik birlikning har xil turlari (so'z, turg'un so'z birikmasi, nutq klisesi)ni o'rganish mashqlari.

Mashq turlari, o'z navbatida, yana kichik guruhlarga bo'linadi: joyiga ko'ra (sinf, uy), shakli va usuliga qarab (og'zaki yoki yozma, yolg'iz yoki xor bilan, mustaqil yoki muallim rahbarligida), ona tiliga munosabati nuqtayi nazaridan (chet tilda yoki ona tili va chet tilda), amallarni mustahkamlashga oid (biriktirish, o'zgartirish — reproduksiyada, tanlash, guruhlash, o'xshatish, farqlash — retsepsiyada), tuzilishi jihatidan (bir turdagi yoki har xil birliklar ishtirokida), yordamchi vositalar qo'llash bilan (ko'rgazmalilik, texnika vositalari, programmashtirish elementlari yordamida), o'zlashtirish bosqichlaridan kelib chiqib (dastlabki egallash, mashq qilish, amaliyot, takrorlash, nazorat qilish) va h.k. mashqlari bajariladi.

Boshlang'ich bosqichda, asosan, og'zaki, kontekstli, bir tilli (chet tilda) mashqlar sinfda, muallim boshchiligida, xor bilan, rasmlardan foydalanib bajariladi.

O'rta bosqichda mashqlarning katta qismi uyda, yozma shaklda, muallim bevosita boshqarmaydigan fonogramma holida, kontekstli va kontekstdan tashqari, yakka tarzda, ikki tilda bajarishga mo'ljallanadi.

Yuqori bosqichda leksik mavhumotlarga suyanib, kontekstdan tashqarida va kontekstda, ichki imkoniyatli potensial lug'atni boyitish, yangi so'z ma'nosini fahmlab olish, leksik operatsiyalarni ong ishtirokisiz erkin qo'llay olish kabi mashqlar bajarilishi tavsiya qilinadi.

Potensial lug'at boyligi haqida alohida to'xtash zarur. Bu lug'atni o'zlashtirish to'g'risida emas, balki uni shakllantirish va kengaytirish, naqd (real) leksik bilimlarga, aniqrog'i, ko'-

nikmalarga tayanib, retseptiv nutq faoliyatida uchraydigan leksikaning katta qatlamini tushunish, yangi soʻz maʼnosini mustaqil fahmlash boʻyicha koʻnikmalar hosil qilish borasida gap yuritiladi.

Soʻz yasash, konversiya, internatsional leksika, soʻz birikmalari, koʻp maʼnolilik kabilar potensial lugʻat manbayi boʻlib xizmat qiladi. Til tajribasi tufayli oʻquvchi ushbu leksik birliklarni tanib olish imkoniyati bor boʻlgani uchun mustaqil idrok etib tushunish koʻnikmasini egallaydi.

Mustaqil oʻrganishda yana bir foydali pedagogik usul — lugʻat va maʼlumotnomalardan yangi leksik birlik maʼnosini topishdir.

Leksika koʻnikmalarini shakllantirishda mashq qilish bosqichidagi asosiy ishlar quyidagilar:

1. Soʻz, soʻz birikmasi va gapni aytish (oʻqituvchi yoki diktor nutqiga taqlidiy aytish). Ushbu usul amali chogʻida muallim topshirigʻi mana bunday tartibda boʻlishi kuzatiladi: „Mendan keyin takrorlang va eslab qoling“. Diktor nutqini tinglash paytida esa „Eshiting, orasida takrorlang va eslab qoling“ qabilida oʻquvchilar topshiriq oladilar. Mazkur mashq xor bilan va yakka tartibda oʻtkaziladi. Esda saqlab qolishga, albatta, koʻrsatma berilishi shart. Diktor nutqiga ergashib, xor bilan qaytarish samara berishi muqarrar, biroq yolgʻiz takror aytilishi ham (boshqalar ichida aytadi) ijobiy natijalar garovidir.

2. Yangi soʻz ishtirokida soʻz birikmalarini ogʻzaki tuzish. Muallim quyidagicha topshiriq beradi: Soʻz(lar)ni eshiting va u(lar)ni soʻz birikmasida ayting. Mas. birinchi oʻquv yilida oʻrganilayotgan *book* soʻzi mashq qilinyapti. Muallim soʻzlar guruhini aytadi: *English, Uzbek, Russian, read, see, my*. Oʻquvchilar navbatma-navbat birikmalar tuzadilar: *English book, read a book, my book, Uzbek book...* . Soʻz birikmalari yasash koʻnikmasi/operatsiyasi nutq yuritishni oʻrganishning muhim tarkibiy qismi boʻlganligidan, muallim rahbarligida bunday mashq qilish juda foydalidir.

3. Soʻzni turli nutq namunalarida qoʻllash. Muallim topshirigʻiga binoan bajariladigan ish turidir. Mas. „Ayting *I see a...*“. „Savolga javob qaytaring...“. „Oʻrtogʻingizdan (qilishni) soʻrang“. „Aytilgan fikrni quvvatlang yoki inkor eting“ kabilar. Nutq oqimida soʻzni turli birikmalarda ishlatishni mashq qilishga erishiladi. Topshiriqlar guruh boʻlib, juft boʻlib, yolgʻiz bajarilishi mumkin.

4. Soʻzni koʻrish orqali idrok etish, matn maʼnosiga bogʻlab biriktirish va oʻqish. Muallim/diktora ketidan yoki mustaqil mashq qildirish mumkin. Topshiriqlar turlari: „Menga quloq solib, oʻqing...“, „Diktorni eshitib va undan keyin oʻqing...“, Avval ichingizda, soʻng ovoz chiqarib oʻqing“ kabilar. Soʻzning tovush timsoli oʻrganilgach, uning yozuvdagi (grafik) shakli oʻzlashtiriladi.

5. Leksik birlikni bosma matnga tayanib, mashqda oʻzlashtirish. „Berilgan matndan falon mavzuga oid soʻzlarni toping va ularni oʻqing“ singari topshiriqlar turlari bajariladi.

6. Soʻzni yozish. Topshiriqlar: „Soʻzni doskadan/kitobdan koʻchirib va eslab qoling“. Muallim tushuntirib beradi va yozishdan yagona muddao ushbu soʻzni eslab qolish ekanligini uqtiradi.

7. Yozma vazifalarni sinfda va uyda bajarish. Topshiriqlar namunalari: „Tushirib qoldirilgan soʻzni topib yozing“, „Berilgan harflardan soʻz tuzing“, „qavs ichidagi soʻzlarning tegishlisini qoʻyib, gaplarni koʻchirib“ va h.k. Mashq qilish chogʻida oʻquvchilarga oqilona usullardan foydalanish yoʻllarini oʻrgatish kerak, toki ular oz kuch va vaqt sarflab, samarali natijalarni qoʻlga kiritinlar.

Mashq qilish bosqichida qoʻllanadigan ushbu usul va topshiriqlar taʼlimning dastlabki yillariga koʻproq mos keladi. Boshqa bosqichlarda ham ulardan foydalansa boʻladi.

Leksik operatsiyalarning nutqda erkin qoʻllanishi (rus. „автоматизация“) darajasiga erishmoq uchun taqdimot va mashq qilish bosqichlari bilan chegaralanish kifoya qilmaydi (A. N. Leontyev taʼbiricha, „mustahkamlangan operatsiyalar“ koʻnikma, deb qaraladi). Soʻzni lugʻat birligi, oʻquv birligi, leksik birlik yoki maʼno (semantik) birligi hisoblashdan tashqari, zamonaviy metodikada unga funksional jihatdan qoʻllanish birligi, yaʼni nutqiy faoliyat birligi, deb qarash odat tusiga kirgan. Demak, leksikaning taqdimoti, uni mashq qilish bilan chegaralanmasdan, albatta, funksional — qoʻllanish vazifasini oʻtashiga erishmoq zarur. Xullas, soʻzni nutqda va nutq uchun oʻzlashtirish, yaʼni leksik koʻnikmani shakllantirish (avtomatizatsiya)dan keyingi bosqich — ushbu koʻnikmani takomillashtirish nuqtasiga yetkazish, leksikani malakada qatnashtirish masalasi koʻndalang turadi.

Leksikaning qo'llanilishi. Ta'lim maqsadlaridan ko'zlanadigan vazifa chet til leksikasini o'rgatish jarayonining ko'nikmalar hosil qilish pallasida yakuniy ish hisoblanmish leksikaning qo'llanilish darajasiga erishishdan iborat. Ushbu kichik mavzu nomida ishlatilgan „Qo'llanilish“ termini (ruscha adabiyotlarda „употребление“, „оперирование“, „функционарование“) so'zning reproduktiv va retseptiv nutqda kelishi ma'nosini ifodalaydi. „Qo'llash“ deyilsa, „fikir bayon etish“ nazarda tutiladi, „tanib olish“ tushunchasi esa „o'zga shaxs nutqini idrok etish“ bilan bog'liq. Qisqasi, „qo'llanilish“ deganda, til birligi (mas. leksik birlik)ning nutq faoliyatining to'rtala turida ham ishlatilishi tushuniladi (rus „оперирование“).

Leksikaning qo'llanilishi ko'nikma hosil qilishda oxirgi bosqich bo'lib, ma'nosi ochilgan va nutqda ishlatila boshlagan so'zning nutq jarayonida erkin ishlatilishi — ko'nikmalardan malakaga o'tish davriga to'g'ri keladi. Mashq qilishdan nutq amaliyotiga qadam qo'yish — fikr bayon qilishda ong ishtirokisiz leksikani ishlatish tushuniladi.

Endi o'quvchi muallim yordamisiz so'zni nutqda mustaqil ishlatishni o'rganadi. So'zni esda saqlash muddati (ruhshunoslikda „qo'llanilishning latent davri“) takrorlash orqali erishiladigan metodik hodisadir. Til o'rganuvchi istalgan so'zni bamaylixtir nutqda ishlatish bilsa, latent davri ta'minlangan hisoblanadi, uni puxta o'zlashtirilgan, desa bo'ladi.

Fikir bayon etish va tushunishda o'quvchi so'zni bemalol qo'llasa yoki tanib olsa, bu leksik ko'nikma shakllanganligidan dalolatdir. Bunday darajaga leksik, lisoniy va nutq mashqlarini bajarish orqali erishiladi.

O'zlashtirganlik ko'rsatkichi leksikani nutqda erkin qo'llay yoki tanib olishdan iborat. Egallash (o'zlashtirish) ko'nikma darajasida bilish demakdir. Oddiy „bilish“ deganda, so'z ma'nosini yodda saqlash yoki shaklini tanib olish holati ko'zda tutiladi. Bilishning oqibati — egallash, ya'ni til birligining nutqda qo'llanilishi demakdir.

Leksikani egallaganlikni nazorat qilish esa atayin surishtirish, maxsus so'rash orqali emas, balki bevosita nutq faoliyatida amalga oshiriladi. Mavzu yoki O'NV yuzasidan gapirganda, o'qib/tinglab tushunganda o'quvchining leksik ko'nikmasini tekshirish uchun yetarli sharoit tug'iladi.

Chet til leksikasini o'rganishdan maqsad nutq yuritish bo'lishiga qaramay, tanishish (prezentatsiya, taqdimot) va mashq qilish (trenirovka, aktivizatsiya) davrida leksik birlik ustida ishlash birlamchi vazifa edi, qo'llanilish (оперирование) bosqichiga chiqilganda, nutq birlamchi, leksika esa vosita, ya'ni „qurilish materiali“ sifatida nutqiy xizmat qiladi. Binobarin, leksik ko'nikmalarning nutq malakalari tarkibiga kirishi tabiiy holdir. („Nutq faoliyati turlarini o'rgatish“ (XI—XIV) boblarida bu masalaga yana to'xtab o'tiladi.)

Leksikani o'rgatish prinsiplari. Leksik materialni o'rgatishga qo'yiladigan dasturiy talablar maxsus metodik prinsiplar ishlab chiqishni taqozo etadi. Mazkur masala yuzasidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqotga¹ binoan quyidagi prinsiplarga amal qilinadi:

1. Chet til o'rgatishda lug'atni oqilona chegaralash prinsipi: tanlash birliklari tarkibi va tabiati qat'iy belgilab olinadi; tanlash mezonlari majmuyi leksik birliklar xususiyatlarini to'liq hisobga olish uchun xizmat qiladi; tanlash birliklari mezonlar bilan muvofiqlashtiriladi.

2. Til o'qitishda leksik birliklar taqdimoti muayyan maqsadga qaratilganligi prinsipi: leksik operatsiyani mustahkamlash uchun qo'llanadigan birliklar aniq ko'nikmani hosil qilishga mo'ljallanadi va boshqa birliklar bilan uyg'un holda ishlatiladi.

3. Leksik birliklarning lingvistik xususiyatlarini va ularni o'zlashtirishga aloqador psixologik tabiatini hisobga olish prinsipi: taqdimot va mashq qilish davrlarida leksik birliklarning mavhum tushuncha ifodalaydiganlari ta'riflash vositasida, nar-saga tegishlilari ko'rgazmalilik yordamida, sistema hosil qiladigan (ma'nodosh, teskari ma'noli, mavzuga oid, mas. dunyo tomonlarini — sharq, g'arb, janub, shimolni ifodalovchi) leksik birliklar qiyoslash va guruhlash yo'li bilan, funksional (yordamchi) so'zlar esa kontekstda beriladi.

4. Ta'limning didaktik va psixologik qonuniyatlarini hisobga olish prinsipi: har bir leksik birlik taqdimot, mashq qilish va qo'llash bosqichlarida borgan sari kengaytirilib, ya'ni ma'no doirasi, tovush va yozish timsollari va turli birikmalarda, kontekst hamda guruhlarda qo'llanilishi izchillik bilan o'rgatib boriladi.

¹ В. А. Бухбиндер. Основы обучения лексике в средней школе (на материале немецкого языка): Автореф. докт. дисс. — М., 1972. — 31—32-бетлар. (Dissertatsiyaning 449—462-betlari.)

5. Naqd (real) lugʻat boyligini, yangi soʻz maʼnosini asoslangan tarzda fahmlashni taʼminlash va xufiya lugʻatni shakllantirishda oʻzaro bogʻliqlik prinsipi: har uchala vazifa faol, bir-biriga bogʻliq va izchil bajariladi.

6. Maʼnoviy (semantik) umumlashtirishga suyanib ish koʻrish prinsipi: leksik birlik mazmun planini tahlil etish yoʻli bilan birliklar oʻrtasidagi va koʻp maʼnoli birlikning semantik variantlari orasidagi oʻxshashlik hamda tafovut belgilarini aniqlashga erishiladi. Bunday tadbir soʻz maʼnosini ochish, binobarin, oʻquvchilar nutqida leksik birlikni oʻrinli qoʻllash va toʻgʻri tushunishni osonlashtirishga yoʻllaydi.

7. Nutq malakalarini oʻstirish va shu jarayonda leksikani egallashni birga olib borish prinsipi: leksikani egallash jarayoni materialni oʻzlashtirish va koʻnikmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Maktab tajribasida muallimlarga ayon asosiy shart-sharoitlar ushbu prinsiplar doirasida amal qilmoqda¹, ularni quyidagicha umumlashtirish mumkin.

1. Leksik koʻnikmani shakllantirish ishi uning taqdimotini kontekstda roʻyobga chiqarilishi bilan chambarchas bogʻliq (yaʼni yolgʻiz, ajratilgan soʻz ustida ishlash usulini suiisteʼmol qilmaslik maqsadga muvofiqdir).

2. Soʻzning maʼnosini ochish ogʻzaki nutqning ilgarilashi tarzida sodir boʻladi. (Leksikaning maʼnosini yozma matnda fahmlash bundan mustasno.)

3. Reproduktiv nutqda soʻzlarni biriktirishga eʼtibor kuchaytiriladi (retsepsiyada birikmalarni tayyor holda idrok etilishi maʼlum).

4. Har bir leksik birlikni hamma analizatorlar (koʻruv, eshitish, nutqharakat va qoʻlharakat)dan „oʻtkazish“ kutilgan marraga tezroq olib boradi.

5. Metodik tasnifdan kelib chiqib soʻzning taqdimot usullarini qoʻllash oqilona yoʻldir.

6. Ichki va tashqi koʻrgazmalilikni leksik taqdimotga jalb etishda oʻquvchilar yoshi, material xususiyati, oʻqitish maqsadi va bosqichlarini hisobga olgan maʼquldir.

7. Qoʻyilgan vazifaga qarab, mashqlar tanlash va bajarish qatʼiy qoidaga aylanmogʻi kerak.

¹ Qarang: *E. И. Пассов. Основы методики обучения иностранным языкам.* — М.: Русский язык, 1977. — 144—145-betlar.

8. Soʻzni imkon boricha takrorlash va boshqa soʻzlar bilan birlashtirishga erishish lozim.

9. Leksik birlikni bilish/egallash darajasi alohida soʻrash usuli bilan emas, balki nutqda qoʻllash pallasida nazorat qilib boriladi.

10. Koʻp maʼnoli soʻzning bir maʼnosigina ushbu darsda oʻrgatilishi odat tusini olgan.

11. Lugʻat minimumdan tashqari (novakabulyar) soʻzlarni oʻrgatishga muallim ehtiyotkorlik bilan yondashadi.

Oʻquv-metodik topshiriqlar

1. „Leksik koʻnikma“ termini ifodalaydigan metodik tushunchani oʻzlashtiring.

2. Leksik koʻnikmalarni shakllantirish bosqichlarini tahlil qiling.

3. Leksik taqdimot usullarini mustaqil tavsiflashga harakat qiling.

4. Leksikani mashq qilish pallasida bajariladigan ishlarni muhokama etishga tayyorlaning.

5. Leksikaning qoʻllanilishiga va uni oʻrgatish prinsiplariga oid maʼlumotlarni oʻqib oling.

3-§. Leksik mashqlardan namunalar

Yuqorida mashqlar nazariyasiga oid mulohazalar yuritildi. Quyida bevosita maktab, litsey, kollej tajribasida bajariladigan amaliy mashqlar sirasiga kiradigan namunalar keltiriladi.

Leksik birliklarni tinglash mashqlari:

1. Soʻzni tinglash va tovush tarkibini oʻrganish (soʻz gapda va yolgʻiz taqdim etiladi). 2. Muallim chet tilda nomini aytayotgan narsani koʻrish. 3. Muallim chet tilda aytayotgan harakatni bajarish. 4. Oldin oʻrganilgan soʻzga maʼno jihatidan mos keladigan soʻzning tovush tarkibini tinglab tahlil qilish. 5. Yangi soʻzni mavzuga oid boshqa soʻzlar orasidan tinglaganda, tanib olish. 6. Aytilgan soʻzlarni mavzularga tegishlisini topish. 7. Soʻz taʼrifidan uning maʼnosini fahmlab olish. 8. Tinglangan jumladagi soʻzlar miqdorini aniqlash. 9. Urgʻu bilan ajratib aytilgan soʻz/soʻzlar maʼnosini ona tilida aytish. 10. Ikki jumlada aytilgan maʼnodosh soʻzlarni ona tilida farqlash. 11. OʻNVda qoʻllangan yangi soʻz maʼnosini ona tilida yozish. 12. Audiomatndagi soʻzlar ifodalagan narsalarni (yoki

tasvirini) tinglangan tartibda joylashtirish. 13. Eshitilgan soʻzlarni soʻz turkumlariga ajratish. 14. Oʻzak va yasama soʻzlarni tinglab, ajratib yozish. 15. Tovush timsoli tanish soʻzning audiomatndagi yangi maʼnosini fahmlab olish va h.k.

Leksik birliklarni koʻrish mashqlari:

1. Soʻzlarni alfavit tartibida yozish. 2. Soʻz/soʻzlarni harfiy tahlil etish. 3. Tushirib qoldirilgan harf/harf birikmasini qoʻyish. 4. Muayyan oʻqilish qoidasini/qoidalarini namoyish qiluvchi soʻzlarni oʻqish. 5. Qoidadan mustasno soʻzlarni oʻqish. 6. Berilgan soʻzlarni oʻqish. 7. Qoʻshma soʻz/soʻzlar tarkibini ajratib yozish. 8. Maʼlum soʻz qaysi soʻz turkumiga mansubligini aniqlash. 9. Ona tili bilan bir oʻzakli soʻzlarni matndan topish. 10. Soʻz yasash elementlarini farqlash orqali soʻz maʼnosini ochish. 11. Soʻzning oʻzagi va affiksini topish bilan soʻz maʼnosini aniqlash. 12. Affikslariga koʻra soʻzlarni guruhlash. 13. Turli belgilarga (mavzuga taalluqlilik, maʼnodoshlik, tub yoki yasama, konversiya kabi xususiyatlarga) qarab, soʻzlarni toifalarga boʻlish. 14. Gaplarda koʻp maʼnoli soʻzlarni tanib olish. 15. Mavzuga tegishli yoki unga daxlsiz soʻzlarni ajratish. 16. Ona tili va chet tilda bir oʻzakli soʻzlarning maʼnosini lugʻatdan tekshirib koʻrish. 17. Ona tili va chet tildagi soʻzlarning maʼno doirasini lugʻatdan topish. 18. Gapdagi yangi soʻzni belgilash. 19. Soʻz ishtirokida yasalgan birikmalarni topish. 20. Eshitilgan soʻzni yozma matndan topish. 21. Berilgan vazifaga moslab matndan soʻzlarni koʻchirish. 22. Ona tiliga mos yoki undan farq qiladigan soʻz birikmalarini matndan koʻchirish. 23. Ona tilida aytilgan soʻzni chet tildagi matndan topish. 24. Matnda belgilangan/ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni ona tiliga oʻgirish va h.k.

Leksik birliklarni aytish va yozish mashqlari:

1. Koʻrib turgan narsalar (yoki ularning tasviri) nomini chet tilda aytish va yozish. 2. Rasmga oid maʼlum soʻzlarni chet tilda aytish va yozish. 3. Berilgan mavzuga taalluqli soʻzlarni aytish va yozish. 4. Soʻzni qoʻllab, ogʻzaki va yozma gap/gaplar tuzish. 5. Harakat, hodisa va narsani sharhlab berish. 6. Tayanch soʻzlarni qoʻllab, rasmni tasvirlash. 7. Rasmni/nutq mavzusini tasvirlash. 8. Berilgan tayanch soʻzlar ishtirokida yozma/ogʻzaki fikr bayon etish. 9. Muallim/diktor


aytgan soʻz/soʻzlar bilan gap/gaplar tuzish. 10. Bosh harfni koʻrib/eshitib soʻzlarni aytish/yozish. 11. Muallim aytib turgan soʻzlarni/gaplarni yozish/aytish. 12. Yangi oʻrganilayotgan soʻzlar bilan soʻz birikmalari/gaplar tuzish va h.k.

Retseptiv/reproduktiv leksik mashqlar:

1. Muallimga/diktorga taqlidan soʻz/soʻz birikmasi yoki gapni takrorlash.
2. Muallim aytgan soʻzni soʻz birikmasida gapda qoʻllash.
3. Aytib turilgan materialni yozish va qaytarish.
4. Gapda matndan tanish/notanish soʻzlarni topish.
5. Gapni kengaytirish (boshi va oxiriga soʻzlar qoʻshish).
6. Vazifaga koʻra matndan soʻzlarni topish.
7. Matndagi boʻsh joylarni toʻldirish.
8. Tagi chizilgan/ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga savol tuzish.
9. Oʻqilgan matnni yangi soʻz ishtirokida gapirib berish.
10. Berilgan juftnutqni yakkanutqqa aylantirish.
11. Oʻqilgan/tinglangan matnga savollar tuzish va h.k.

Oʻquv-metodik topshiriqlar

1. Leksik mashqlarning guruhlarini tahlil eting.
2. Namunadan ayrimlarini amaliy bajaring.
3. Oʻz tajribangizda (oʻrta va oliy maktabda oʻqish chogʻida) qoʻllanadigan mashqlarni taqqoslang.
4. Qoʻshimcha tarzda qanday leksik mashqlarni tavsiya qila olishingizni oʻylab koʻring.



IX BOB. GRAMMATIKANI O'RGATISH

„Grammatika“ tushunchasiga doir. O'qiganda yoki o'zga shaxs nutqini tinglaganda „grammatika“ terminini uchratgan kishi uni turli ma'nolarda tushunishi mumkin. Buning sababi bor. O'rta maktab ona tili kursida „grammatika“ deganda, tilshunoslikning bir sohasi, bo'limi tushuniladi. Chet til o'qiganda esa unga nutqning grammatik tomoni, deb qaraladi. Ilmiy manbalarda bayon etilgan turli-tuman ma'lumotlarni chet til o'qitish maqsadiga tatbiq etib, „grammatika“ so'zini ikki tushuncha bilan chegaralash mumkin: 1) nutqning grammatik tomoni — tilning gapirish, tinglash, o'qish va yozuvda uchraydigan grammatik hodisalari (mas. nutq namunasi; fe'ning shaxs shakli; artikl) va 2) til hodisalarini ta'riflovchi mavhumotlar (mas. ega gapda birinchi o'rinni egallaydi; otning birlik shakliga (chet tilga oid) ko'plikda falon qo'shimcha qo'shiladi).

Nutqning „grammatik mexanizmi“ni egallash, grammatik ko'nikma hosil qilish va boshqa terminlar metodik adabiyotlar sahifalarida tez-tez uchrab turadi. „Mexanizm“ termini fanda hodisalarning haraktdaligini ifodalash uchun qo'llanadi (N. I. Jinkin „Nutq mexanizmlari“ ruscha kitobi (1958) nomiga e'tibor bering). „Nutq faoliyatida grammatik elementlarni qo'llash“ ma'nosini ixcham izohlash uchun „grammatik mexanizm“ (V. S. Setlin) terminini ishlatish o'ng'aydir.

Grammatik mexanizmni egallash jarayonini V. S. Setlin uch qismga bo'ladi: 1) grammatik harakat (amal)ni egallash; 2) tayyor materialni o'rganish; 3) grammatik umumlashmani o'zlashtirish.

Nutqning grammatik mexanizmida grammatik harakatlar yetakchi o'rin egallaydi. Nutqning grammatik jihatdan avtomatlashgan ko'nikmalarini hosil qilish *grammatik harakatni* egallash deyiladi. Grammatik *tayyor materialni o'rganish* deganda, grammatik shakllarni eslab qolish tushuniladi. Ta'rif, qoida, tushunchani esda saqlash va qo'llash *umumlashmani o'zlashtirish* demakdir.

Tayyor materialni o'rganish chet tildagi birliklarni bilib olish, grammatik harakatni egallash — ko'nikma hosil qilishdir. Material sifatida yordamchi so'zlar va grammatik morfemalar o'rganiladi, ko'nikma tarzida esa so'zning o'zgarishi, so'z birikmalari va gap tuzilishi o'zlashtiriladi.

Grammatik material tushunchasi grammatik hodisaning shakli, degan gap emas. Shakl termini ma'nosi doirasiga gap yoki so'z birikmasi tuzilishi, so'zlarning tarkibiy qismlari, yordamchi so'zlar, so'z yasovchi va shakl (forma) yasovchi ko'rsatkichlar kabilar kiritiladi. („Grammatik hodisa shakli“ tushunchasi mantiqan nomaqbul bo'lib, „so'zning grammatik shakli“ termini esa usluban o'rinli hisoblanadi.

Xullas, chet til grammatikasini o'rgatish haqida mulohaza yuritilganda, grammatik mexanizmlarni egallash anglashiladi.

Aktiv va passiv grammatika muammosi metodikada uzoq davr bahslarga sabab bo'lgan. I. V. Raxmanov aktiv va passiv material terminlarini reproduktiv va retseptiv tarzda nutqni egallashga bog'lab qo'llagan¹.

Aktiv grammatika deganda, reproduktiv (va, shuningdek, produktiv) nutqda qo'llanadigan grammatik hodisalar nazarda tutiladi. Ayrim manbalarda aktiv grammatika „gapirish grammatikasi“ deb ham yuritiladi.

Passiv grammatika tushunchasi doirasiga, L. V. Shcherba² metodik ta'limotiga binoan, idrok etib tushunish (o'qish, tinglash)da qo'llanadigan grammatik hodisalar va ularga oid mavhumotlar kiradi. „Passiv“ termini faqat o'quv materialiga taalluqli, o'quvchi faoliyati esa ta'limda doimo aktiv bo'lishi zaruriyati ruhshunoslik va ta'limshunoslikda uzil-kesil e'tirof etilgan.

Ma'lumki, nutq faoliyatining ikki turini L. V. Shcherba (1931-yilda³) nazariy asoslab bergan edi. Uning nazariyasi mamlakatimizda va xorijda⁴ chet til o'qitish metodik tafakkuri rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Tilni passiv (retseptiv) va aktiv

¹ *И. В. Рахманов*. Проблемы рецептивного и репродуктивного овладения иностранным языком в средней школе. — М.: Изд-во АПН РСФСР, 1954. — 10-бет; *И. В. Рахманов*. Методика обучения немецкому языку в VIII—X классах. — М.: Изд-во АПН РСФСР, 1956. — 220—221-бетлар.

² *Л. В. Щерба*. Очередные проблемы языковедения. // Известия АН СССР, т. IV, вып. 5, ОЛЯ, 1945.

³ *V. S. Friedle*. Scherba and the Status of Foreign Languages in the USSR and the USA.//„The Modern Language Journal“, 1962, N7.

⁴ *Л. В. Щерба*. О тройном аспекте языковых явлений и об эксперименте в языкознании. // Известия АН СССР. Отделение общественных наук, 1931.

(reproduktiv) o'zlashtirish masalasiga P. Xegboldtning kitobida¹ maxsus qism bag'ishlangan. Passiv grammatikani Ch. Xendshin² „recognitionnal grammar“ deb atagan, H. Dunkel³ uni „visual grammar“ termini bilan, M. Uest⁴ esa „grammar for recognition“ deb nomlagan.

Ko'p sonli metodik tadqiqotlarda passiv grammatikani „o'qish grammatikasi“ termini bilan yuritishadi. Hozirgi metodika uchun passiv grammatika tushunchasi kengroq bo'lib, u „o'qish va tinglash grammatikasi“ deyilgani ma'qul.

Chet til grammatikasini o'rgatish metodikasi metodistlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlarda⁵ mufassal ishlab chiqilgan. Metodika kursi bo'yicha chiqarilgan deyarli barcha maxsus qo'llanmalarda „Grammatikani o'rgatish“ bobi alohida o'rin oladi (ushbu darslikning „Adabiyotlar“ nomli ilovasidagi kitoblar ro'yxatiga qarang). Chet til grammatikasini o'rgatishga bag'ishlangan metodik risolalar⁶ hamda diplom ishlari⁷ mavjud.

¹ P. Hagboldt. Language Learning. Chicago. 1935.

² Ch. Handschin. Modern Language Teaching. New York, 1940.

³ H. Dunkel. Second Language Learning. Boston, 1948.

⁴ M. West. How Much English Grammar? „English Language Teaching“, vol. VII, Autumn, 1952, N1.

⁵ B. C. Цетлин. Основы методики обучения грамматике французского языка в средней школе: Докт. дисс. — М., 1965; И. М. Берман. Проблемы пассивной грамматики (на материале английского языка): Докт. дисс. — М., 1966; С. Ф. Шатилов. Основные проблемы методики обучения грамматическому аспекту устной немецкой речи в восьмилетней школе: Докт. дисс. — Л., 1972; М. М. Гохлернер. Поэтапное формирование грамматических механизмов речи на иностранном (немецком) языке: Канд. дисс. — Киев-Харьков, 1968; Т. К. Самтаров. Методическое содержание обучения активной грамматике английского языка в узбекской школе: Канд. дисс. — Ленинабад — Ташкент, 1982; va boshqalar.

⁶ B. C. Цетлин. Методика обучения грамматическим явлениям французского языка в средней школе. — М.: Изд-во АПН РСФСР, 1961; А. А. Ждан, М. М. Гохлернер. Психологические механизмы усвоения грамматики родного и иностранного языков. — М.: Изд-во МГУ, 1972; Н. Б. Соколова. Обучение грамматике в средней школе и вузе. (Текст лекций для студентов старших курсов.) — М.: МГПИИЯ, 1979; Особенности обучения иноязычной лексике и грамматике в узбекской школе. — Ташкент: УЗНИИПН, 1976.

⁷ A. E. Tirkashev. Chet til grammatikasini o'rgatish: Diplom ishi. — TDChTPI. — Toshkent, 1984.

(Ushbu bobni yozishda mazkur metodik manbalardan ijodiy foydalanildi.)

1-§. Grammatikani metodik tayyorlash

Grammatikani tanlash. Leksikaga oid oldingi paragrafda o'rganilgan metodik ma'lumotlar ushbu mavzu (grammatika)ni o'zlashtirishda ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi muqarrar. Ijobiy tomoni shundan iboratki, xuddi leksikada bo'lganidek, bu yerda ham tanlash haqida so'z yuritilyapti. Salbiy ta'sir masalasiga kelganda, shuni ta'kidlash kerakki, leksikaning tanlash birligi qilib, so'zlar, ularning leksik-semantik va leksik-frazeologik variantlari hamda nutqiy qolip (klishe)-larning muayyan ma'nosi olinadi. Grammatikaning tanlash birligi esa butunlay o'zgacha metodik tushuncha bo'lib, grammatik hodisaning yasalishi, ma'nosi va qo'llanishi alohida-alohida grammatik birlik hisoblanadi, hatto mikroqo'llanish, mikroma'no va mikroshakl tushunchalari ilmiy tadqiq qilingan¹, mas. chet til fe'lining hozirgi zamon shaxs shaklining har qaysisi alohida grammatik ma'noni ifodalashi mumkin. Ushbu fe'l zamonining bir qancha qo'llanish holatlari ham bor. Demak, mikroshakl, mikroma'no va mikroqo'llanish grammatika tanlash birligi deb tan olinadi. (Ayrim metodik manbalarda² tanlash birligi terminini tanlash obykti nomi bilan noto'g'ri yuritish hollari ham uchraydi.)

Grammatikaning tanlash birligi aniqlangach, tanlash manbayini topish zarurati tug'iladi. O'quvchi og'zaki nutqi uchun grammatik hodisalar chet tilni ona tili sifatida gapiruvchilar (sohibi lisonlar) jonli nutqidan va o'sha tildagi badiiy asarlar qahramonlari nutqidan tanlab olinadi. So'zlashuv adabiy til — aktiv grammatikaning tanlash manbayidir.

O'quvchilar yozma nutqi (o'qish) uchun passiv grammatik minimum yozma matnlardan tanlanadi. Yozma nutq uslubini aks ettiruvchi grammatik hodisalar saylab olinadi.

Aktiv va passiv grammatik minimumlar, leksikadagidek, o'ta keskin tafovut qilmaydi (aktiv minimum passivga kiradi),

¹ *T. K. Samtarov.* Методическое содержание обучения активной грамматике английского языка в узбекской средней школе: Автореф. канд. дисс. — М., 1982. — 7-бет.

² *Н. Б. Соколова.* Обучение грамматике в средней школе и вузе. — М.: МГПИИЯ, 1979. — 19-бет.

5—7- sinflar uchun aktiv va yuqori sinflar va litsey hamda kollejlilar uchun faqat passiv grammatik minimum tanlanadi va unga amal qilinadi.

Grammatik minimumni shakllantirishda nutq mavzulariga va leksik minimumga bevosita bog‘lab ish tutiladi, mavzu va leksika birlamchi dasturiy tushunchalar bo‘lib, grammatika ularga bo‘ysundiriladi.

Grammatikani tanlayotganda inobatga olinadigan metodik mezonlar tavsifi quyida keltiriladi.

Aktiv grammatik minimumni tanlash mezonlari:

1. Grammatik hodisàning og‘zaki va yozma nutqda keng tarqalganligi mezonì. Barcha grammatik material ichidan kishilar nutqida tez-tez uchraydigan hodisalar „terib“ olinadi.

2. Namuna bo‘la olish mezonì. Ushbu mezonga ko‘ra tanlangan grammatik birliklar asosida, ularga andaza sifatida qarab, ko‘pdan ko‘p yangi grammatik hodisalarni hosil qilish imkoniyatini yaratish talab etiladi. Demak, imkon boricha katta miqdordagi leksika qo‘llanilishini ta‘minlay oladigan hodisalar mazkur minimumga kiritiladi (mas. suffiks yordamida ot, sifat, ravishning yasalishi). 3. Ma‘nodosh hodisalarni yakkalash mezonì. Qiyinchiliklarning oldini olish maqsadida grammatik sinonimiya tarkibidagi eng ko‘p qo‘llanadigan va uslub jihatidan xolis birlik saylab olinadi, ya‘ni grammatik sinonim hodisalar sira-sidan biri tanlanadi.

Keng tarqalganlik esa, namuna (andaza) bo‘la olish mezonlariga ko‘ra, aktiv grammatik minimumga og‘zaki nutqda ko‘p qo‘llanadigan va leksikaning talay qismini qamrab oladigan grammatik hodisalar kiradi. Og‘zaki nutqda o‘tgan zamondagi ish-harakatni ifodalash uchun fe‘lning quyidagi zamon shakllari ishlatiladi: **Present Perfect** (*ingl.*), **Pretérito perfecto de Indicative** (*isp.*), **Perfekt** (*nem.*), **Passé composé** (*fr.*). Binobarin, ular aktiv minimumdan o‘rin egallaydi. Qolgan grammatik hodisalar esa leksik yo‘l bilan o‘zlashtiriladi, ya‘ni so‘zga o‘xshab qoidasiz o‘rganiladi yoki passiv minimumga o‘tadi, Mas. ingliz, ispan, fransuz tillaridagi otning ko‘plik sonini yasovchi qo‘shimchasi aktiv minimumda, birlikda esa qoida berilmasdan, leksik tarzda o‘rganila beradi: *ingl.* **child — children;** *isp.* **el sintrabajo — los sintrabajo;** *fr.* **journal — journaux.** Yana bir yaqqol misol. Ingliz tilida egalik tushunchasi ikki shaklda ifodalanadi: **my book — a book of mine.** Ushbu ma‘nodosh

birliklardan maktab aktiv grammatika minimumiga birinchisi tanlanadi. Yoki *ingl. Past Perfect, isp. Pretérito Perfecto, nem. Plusquamperfekt, fr. Plusque-parfait* ogʻzaki nutqda unchalik koʻp tarqalgan emas, biroq kitobiy yozma nutqda koʻp qoʻllanadi. Demak, ular aktiv grammatik minimumga kirmaydi, balki passiv grammatik minimumdan joy oladi.

Uchinchi mezoniga binoan aktiv minimumga uslubiy xolis maʼnodosh grammatik hodisalar kiritiladi. Bu holat oldingi ikki mezonni oydinlashtiradi. Chet tilda ishonchni ifodalaydigan maʼnodosh grammatik hodisalardan modal feʼllar: *nem. muster, ingl. must, fr. devoir* aktiv minimumga, qolgan ifoda vositalari (*nem. haben+zu+Infinitiv, sein+zu+Infinitiv; ingl. have to+Infinitive*) passiv minimumga kiradi.

Passiv grammatik minimumni tanlash mezonlari:

1. Nutqning kitobiy yozma uslubida keng qoʻllanish mezonlari.

2. Koʻp maʼnolilik mezonlari.

Mazkur ilmiy metodik mezonlar asosida passiv minimumga kitobiy uslubga oid qator grammatik maʼnodagi hodisalar kiritiladi (Ushbu masala I. M. Bermanning „Passiv grammatika muammolari“ (ruscha, 1967) nomli purmazmun tadqiqotida batafsil yoritilgan).

Keng qoʻllanish mezonlari boʻyicha grammatik hodisalarning koʻp maʼnolilari ichidan „mikromaʼnolari“ tanlanishi mumkin (metodik termini T. Q. Sattorov ilmiy muomalaga kiritgan).

Grammatik materialni tanlashda mezonlar amali bir-biri bilan uzviy bogʻliq boʻladi. Baʼzilari yetakchi, boshqalari qoʻshimcha vazifa oʻtaydi.

Nutq faoliyati turlari har xil hajmdagi til materialiga muhtojdir. Ularning ichida eng koʻp til materialini talab etadiganlari oʻqish va tinglashdir. Gapirish va yozuv malakalarida qoʻllanadigan material hajmi nisbatan katta emas. (Tanlangan minimumdagi barcha til hodisalari retseptiv nutqda, ularning faqat aktiv qismigina reproduktiv tarzda oʻzlashtiriladi).

Chet til grammatik materialini oʻrganishga tayyorlash tadbirlari jiddiy eʼtibor talab qiladi, chunki oʻqitish samarasi mazmunning tanlab olinishiga, taqsimlanishiga va metodik tasnif etilishiga bevosita bogʻliqdir. Shunday ekan, tanlash yuqoridagi mezonlarga muvofiq boʻlishi lozim.

Grammatikaning taqsimoti. Til materialini o'quv jarayoniga tayyorlashda navbatdagi vazifa tanlangan minimumni taqsim etishdir. Ma'lumki, tanlash birligi sifatida grammatik hodisaning ma'nosi, qo'llanilishi va yasalishi olingan edi (nutqning hosil etilishida ma'no, idrok etishda shakl birlamchi hisoblanadi). Grammatik ma'noni ifodalovchi: morfemalar (prefiks; suffiks; qo'shimcha; o'zak so'z — qo'shimchasiz shakl); yordamchi so'zlar (ko'makchi fe'l; artikl; predlog; bog'lovchi; olmosh; ma'nosi to'liq yoki qisman yo'qolgan (desemantizatsiya bo'lgan) fe'llar va boshqalar); gapda va birikmada so'z tartibi; sintaktik fonetika hodisalari.

Grammatik materialning taqsimoti funksional (ya'ni nutqdagi vazifasiga ko'ra) yondashishni talab etadi. Grammatika gapdan kichkina bo'lmagan kommunikativ (nutqiy muloqot) birliklarda taqsim etiladi. Nutq namunasi bunday taqsimot birligi vazifasini bajaradi.

Nutq namunasi nutqning hamma tomoni — leksika, grammatika, talaffuz va grafik jihatlarini o'zida mujassamlashtiradi, binobarin, nutq namunasi grammatik materialni taqsim qilishda o'zlashtirish birligi hisoblanadi.

Reproduktiv tarzda chet tilni egallashda ayniqsa nutq namunasiga asoslanib ish ko'rish kutilgan natijalarni bermoqda. Nutq namunasi o'tgan asrning oltmishinchi yillarida boshqa termin bilan metodikaga kirib kelgan. U paytda „model“ (modellashtirish) tushunchasi metodik tadqiq qilingan¹. Hozirgacha joriy o'quv dasturlarida „tipovoy jumla“ (darsliklarda „nutq namunasi“) grammatik birlik sifatida tan olingan.

Grammatika metodikada ikki usul bilan — qoidada yoki nutq namunasi yordamida taqsimlanar edi. Uchinchi usul „leksik yondashish“ bo'lib, grammatik hodisa yolg'iz berilganda, ya'ni birgina misolda uchragan paytda, u qoidasiz, leksika sifatida o'rganishni taqozo etadi. Zamonaviy metodik talabga muvofiq grammatikani taqsimlash usuli „aksar nutq namunasi sifatida, zarur bo'lgandagina, qoida ham qo'llash“ ma'qul topiladi.

Taqsimot jarayoni uch bosqichdan iborat: umumiy izchillikni aniqlash, sinflar bo'yicha taqsimlash va o'quv yiliga

¹ И. В. Рахманов. Модели и их использование при обучении иностранному языку. // ИЯШ, 1965, №4.

taqsim qilish. Har bir bosqichning o'z metodik mezonlari ishlab chiqilgan.

Umumiy izchillik nutq ehtiyoji uchun grammatik hodisalarning zarurligi mezon bilan o'lchanadi. Mas. chet tildagi umumiy hozirgi zamon va hozirgi zamon davom fe'lini taqsim qilishda nutq jarayoni uchun eng zarur birinchi hodisa (hozirgi umumiy zamon) hisoblanadi. Boshlang'ich bosqich uchun, odatda, eng kerakli grammatik hodisalar tanlab taqsimlanadi.

Grammatikani sinflar bo'yicha taqsimlashda, zaruriyatdan tashqari, grammatikaning leksika bilan o'zaro aloqasini hisobga olish mezonidan foydalaniladi. Leksikaning birlamchiligi nazarga olinadi, bu hol grammatik birliklar taqsimotiga o'zaro ta'sir ko'rsatishi muqarrar.

Uchinchi bosqichda o'ta murakkab taqsimot jarayoniga duch kelinadi. O'quvchi til tajribasining ijobiy va salbiy ko'chish hollari aniqlanadi. Bu metodik tadbir qiyinchiliklarning oldini olish omilidir, ya'ni nutqni egallashda yuz berishi kutiladigan grammatik xatolarning oldini olishga qaratilgan mezonidir. U nutqda sodir bo'ladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish nomi bilan ataladi.

Birinchi va ikkinchi bosqich uchun taqsimot o'quv dasturida hal etiladi.

Uchinchi bosqich taqsimoti darsliklarda o'z aksini topadi. O'quvchilar til tajribalari xususiyatlarini sinchkovlik bilan e'tiborga olib, muayyan grammatik mikrobirlik (shakl, ma'no, qo'llanish) izchilligi belgilanadi. Tillararo va til ichki interferensiyasi nazariy va amaliy (o'qitish jarayonini o'rganish) tahlili natijalaridan foydalanib grammatika taqsimoti tadbirlari ko'riladi. (II bobning „Chet til o'qitishning tilshunoslik asoslari“ mavzusiga qarang.)

Tanlangan til materialining tillararo va til ichki muqoyasasi tahlili taqdimot natijasi bilan qo'shib, tasnif bosqichining ro'yobga chiqishiga zamin hozirlaydi.

Grammatikaning tasnifi. Leksik material tasnifida ta'kidlanganidek, grammatikada ham o'rganiladigan hodisalar turlarga ajratiladi. Oson/qiyin o'zlashtirish tafsilotlari izchil qarab chiqiladi. Qiyinchiliklarni aniqlash va uning oqibatida tasnif qilish ushbu hodisalarni o'rgatish mashqlarining tizimini yaratishga, o'rgatishning metodik usullarini ishlab chiqish va materialni

o'zlashtirish vaqtini belgilashga imkon yaratadi. Grammatik material tasnifi — o'zlashtirish jarayonidagi qiyinchiliklar tasnifi deyilsa ham bo'ladi.

Qiyinchiliklarni aniqlash, ma'lumki, ko'p bosqichli metodik tadbirdir: nutqiy xatolar tahlili, o'quvchi ongida aloqaga kiradigan (chet til, ona tili va ikkinchi) tillarni qiyoslash va ikkala natijani solishtirish. Xatolar tahlili, qiyoslash va solishtirish amallari grammatik ma'no, shakl va qo'llash yuzasidan bajariladi.

Ilmiy-metodik izlanishlar dalolat berishicha, o'zbek va rus tillari hamda chet tillar muqoyasasi tahlili o'xshash grammatik hodisalar anchagina kuzatiladi. Mas. 1) o'quvchi o'rganayotgan uchala tilda ham monand gapdagi so'z tartibi, so'z birikmasi shakli, so'z yasalishi andazasi kabilar mavjud (formal o'xshashlik); 2) uchala tilda ham tasdiq, so'roq, inkor, modallik kabi grammatik ma'nolar borligi aniq (ma'noviy umumiylik); 3) ish-harakat takrorlanib turishini, davom etishini, tugallanganligini bildiradigan fe'l zamonlari qo'llanadi (qo'llanilishdagi moslik).

Mantiqshunoslar ilmiy izlanishlaridan ma'lum bo'ladiki, tafakkur — umuminsoniy hodisadir, binobarin, grammatik shakllar musharakligi ham tabiiydir. O'zbek tili grammatik hodisalari ichida o'rganilayotgan g'arbiy va sharqiy tillarga monandlari anchagina topiladi (ularni tadqiq qilish hozircha talab darajasida emas).

O'quvchi o'rganayotgan uchala tilda grammatik o'xshashliklar mavjudligi muallimni xom xayollarga chalg'itmasligi kerak. O'xshash ekan, degan bilan ish bitmaydi. Chunki tafovut qiladigan hodisalar juda ko'pligi bilan turli chalkashliklar, binobarin, qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Shu qiyinchiliklarni tasnif etish nihoyatda dolzarb metodik masaladir. Birinchi tasnif chet til grammatikasining og'zaki nutq va o'qish uchun ajratilishida namoyon bo'ladi („O'qish va gapirish grammatikasi“). Bu ish grammatik minimumda hal qilingan. Sinflar bo'yicha grammatik materialning tasnifi muammosi o'quv dasturida yetarli darajada ijobiy hal qilingan. Dars jarayonida grammatik birliklarni o'zlashtirish qiyinchiliklari tasnifi xususiy metodikada amaliy ishlab chiqiladi.

Grammatik qiyinchiliklarning tasnifida tillararo va til ichki interferensiyasi oqibati e'tirof etiladi. Tillararo qiyinchiliklar

manbayini, mas. chet tildagi gapning ikki tarkiblilik, fe'l ishlatilishi shartligi, so'z tartibining turg'unligi, fe'l shakllarining yasalishidan izlash mumkin.

Til ichki qiyinchiligi sabablari ham o'rganilgan, mas. shakldoshlik (*ingl. -ed* o'tgan zamon shaklini, o'tgan zamon sifatdoshini, otdan yasalgan sifatni ifodalashda ishtirok etadi); ko'p ma'nolilik („bo'lmoq“, „ega bo'lmoq“ fe'llariga monand fe'llar Yevropa tillarida yetakchi mustaqil ma'noda kelib, murakkab zamonlar yasashda esa yordamchi fe'l va modal fe'l sifatida ishlatiladi); tovush va yozishda shakldosh, biroq ma'nosi bo'lakcha grammatik hodisalar, mas. (perfekt yasalishidagi yordamchi fe'llar).

Grammatik hodisalarni ma'no va qo'llanilishiga oid metodik turlarga bo'lish mumkin: 1) rus tilida va chet tilda o'xshash hodisalar (modal fe'l va fe'lning noaniq shakli ishtirokida tuzilgan birlik); 2) ma'no hamda qo'llanilishi doirasi mos kelmaydigan hodisalar (fe'l zamonlari misolida tafovut yaqqol seziladi); 3) ona tilida (yoki chet tilda) yo'q grammatik hodisalar (artikllar, fe'lning murakkab zamon shakllari — chet tilga xos, ona tiliga esa yot grammatik materialdir); 4) ona tili va chet tildagi o'xshash grammatik hodisalar (mas. davom fe'li ingliz va o'zbek tillarida qo'llanilishi bir xildir).

Shakllar yasalishi nuqtayi nazaridan grammatik hodisalar quyidagicha tasniflanadi:

1. Rus tili va chet tilda o'xshash grammatik hodisalar (kelasi zamondagi fe'lning murakkab shakllari). 2. O'zbek va chet tilda o'xshash birliklar (fe'lning hozirgi umumiy zamon). 3. Yasalishida farq qiladigan grammatik hodisalar (mas. chet tildagi shaxsi topilmas gaplar).

Ushbu tasniflar har bir chet til uchun yana kichik turlarga bo'linib, muayyan til hodisalari misolida tekshiriladi.

Qiyinchiliklarni yengish borasida maxsus bajariladigan aqliy operatsiyalarni egallash talab etiladi. Mas. qiyoslash, tuzish, qo'shish, tanlash, almashtirish, andazaga ko'ra tuzish kabilar shular jumlasidandir.

Reproduktiv va retseptiv nutqni egallashda reproduktiv harakatlar — fikr bayon etish maqsadiga muvofiq gapning tuzilishiga oid aqliy harakatlar, so'zlarning shakllari tuzilishiga oid grammatik amallar (harakatlar)ni ajratish mumkin.

Fransuz tilidagi *passé composé* fe'l zamonini og'zaki nutqda qo'llash ko'nikmasini egallash uchun (V. S. Setlin fikricha) o'quvchi quyidagi aqliy harakatlar va operatsiyalarni egallagan bo'lishi talab etiladi:

1. Aynan shu fe'l zamonini qo'llash kerakligini aniqlash (mas. „Mening opa-singillarim Moskvaga kelishdi“ gapida).

2. Ushbu fransuzcha fe'l zamonida shaxs va sonni (uchinchi shaxs ko'plikni) qo'llashni belgilash.

3. Yordamchi fe'lni va uning shaxs shaklini (*elles sont*) tanlash.

4. Yordamchi fe'lni *participe passé (arrivé)* bilan bog'lash. Mazkur shaklni yozma nutqda o'rganib olish uchun yana ikkita operatsiyani qo'llash kerak.

5. Egani ifodalaydigan olmosh yoki otning jinsi aniqlanadi.

6. Yozuvda *participe passé* ega bilan jins va sonda muvofiqlashtiriladi: *Mes soeurs sont arriées. Retseptiv tarzda nutqni egallash chog'ida operatsiya va harakat majmuyining qo'llanilishi shakldan ma'noga qarab boradi: hodisani idrok etish, shakl belgilarini farqlash va shaklni tegishli ma'no bilan fikran bog'lash tartibiga rioya qilinadi.*

Grammatik material tasnifi tegishli ko'nikmalarni hosil qilish jarayonini oqilona tashkil etish uchun „poydevor“ vazifasini bajaradi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Ta'limiy terminlardan „grammatika“ haqida mulohaza yuriting.

2. Aktiv va passiv grammatikaga ta'rif bering.

3. Grammatikani metodik tayyorlashning ahamiyatini isbotlab bering va uning bosqichlari nomlarini ayting.

4. Tanlash birligi, tanlash mezonlari, tanlash manbayi haqida fikr yuriting.

5. Grammatik material taqsimoti va tasnifi mezonlarini sanang hamda ularning muhokamasiga tayyorlaning.

2-§. Grammatik ko'nikmalarni shakllantirish

Grammatik hodisalar nutqiy grammatik ko'nikmalar hosil qilish maqsadida o'rgatiladi. Malaka tarkibida ko'nikmani shakllantirish uchun grammatik material uch bosqichdan

o'tkaziladi: 1. Taqdimot bosqichi yangi grammatik birlikni tanishtirish (nutq namunasida taqdim etish), o'rni kelganda, uni tushuntirish va dastlabki grammatik amallarni bajarishdan iborat. 2. Grammatika mashqlarini bajarish. Bu bosqich asosan ko'nikma hosil qilishga qaratiladi. 3. Grammatik hodisani nutq faoliyati turlarida qo'llanilish bosqichi. Nutqda grammatik ko'nikmalar qo'llanib, ularning malakaga aylanishi ustida ish olib boriladi.

Birinchi va ikkinchi bosqichlar bevosita grammatikani o'rgatish tadbiridir, uchinchi bosqich ham grammatik ko'nikma, ham nutqiy malakaga oid.

Grammatikaning taqdimoti. Nutq namunasida taqdim (prezentatsiya) qilinayotgan grammatik hodisa bilan o'quvchilar ta'limning quyi va o'rta bosqichlarida og'zaki, o'rta va yuqori bosqichlarda esa yozma shaklda tanishadilar. Grammatik hodisa nutq namunasida, qoida tarzida, nutq namunasi va qoida qo'shma holda yoki leksik birlik sifatida taqdim etiladi. Chet tildagi nutq namunalari ro'yxati tilshunoslar va metodistlar tomonidan tegishli modellar sifatida rasmiylashtirilgan qoidalar ikki turda — qoida-ko'rsatma va qoida-umumlashma nomlari bilan fanda ma'lum.

Qoida-ko'rsatma grammatik hodisani nutqda qo'llash yoki o'qish va tinglab tushunishda tanib olish uchun mo'ljallanadigan aqliy harakatga oid bo'lib, nutq masalalarini tadqiq etadigan psixolingvistika fanida bu programma — algoritm deyiladi. Qoidani bayon etish oldindan yo'llovchi asos bo'lib, nutqning ijrosini ta'minlashga qaratiladi. Boshqacha qilib aytganda, qoidani nutqiy amaliyotning nazariy qanoti, deb ta'riflash mumkin. Mas. aniqlovchini tanib olish uchun aniqlanmish (ot) hamda artiklga e'tibor beriladi, aniqlanmish otdan oldin yoki otdan keyin keladi (bu tilga bog'liq).

Qoida umumlashma nutqni egallash jarayonida tarqoq holda o'rganilgan grammatik materialga oid oddiy nazariy ma'lumotdir. Qoida doimo lo'nda, dona-dona ifodalangan, maqsadga qaratilgan bo'lishi va grammatik hodisani qo'llash yoki tanib olishga yo'llamog'i lozim.

Qoida bilan model — bir xil mohiyatdagi metodik tushuncha. Modeldan foydalanish harfiy timsollarning kishi ongida muhrlanishini ta'minlaydi. So'z bilan ifodalanadigan (verbal) mavhumot esa diskursiv (ya'ni hodisa haqida mulohaza

yuritish, nazariy tushunchalarni o'ylab ish ko'rish) tarzda kechadi. Nutq namunasi esa unga monand jumlar (faqat ichki qismlarini almashtirish yo'li bilan) yaratish andazasi vazifasini o'taydi, bunda verbal diskursiv mavhumot ishtirok etmaydi, balki analogiya (taqlid) qilish sodir bo'ladi. Diskursivlikni, imkon boricha, cheklash tavsiya qilinadi.

Qoida verbal, ya'ni so'z bilan ifodalanadi, model esa harfiy timsollar bilan ifodalangan, mas. $S+P+O$ mavhumotdir. Model muallimlarga mo'ljallanadi, o'quvchilar esa ushbu modelga asoslangan nutq namunasi bilan ish ko'radilar (mas. $S+P+O$: *I see a pen; Yo leo uno carta; Ich habe ein Buch; J'ai une soeur*). Berilgan nutq namunasining andazasiga binoan (Men qalamni ko'ryapman) qator jumlar yasaladi: Men ruchkani/kitobni. ...

Grammatik materialning taqdimoti chog'ida induktiv yoki deduktiv yo'ldan boriladi. Induksiya paytida — taqdimot misoldan boshlanib, mavhumotga o'tiladi, deduksiya esa qoida (yoki unga teng nutq namunasi) berilib, so'ngra misollar mashq qilinadi. Birdan ziyod misol paydo bo'lgan taqdirdagina qoida-umumlashma chiqariladi. Birgina yolg'iz grammatik hodisa qoidasiz, leksika darajasida o'rganila beradi. Ko'p qo'llanadigan grammatik hodisalarda ham yolg'iz misol leksik tarzda beriladi. O'quvchilarni yangi grammatik hodisa bilan tanishtirish yo'llarini tanlashda qator metodik omillar hisobga olinadi:

1. Grammatik hodisaning tabiatiga bog'liqlik omili. Shaklning o'xshashligi, ma'noning oson ochilishi kabilar induktiv usuldan foydalanishni taqozo etadi. Mas. sifatning ingliz va nemis tillaridagi qiyosiy va orttirma darajalarining yasalishi — shaklida aniq belgilar borligi, ya'ni shakl bir xilligi va ma'nosini bilib olish osonligi induksiyaning talab etadi.
2. Ona tili va chet til hodisalari o'rtasidagi mushtaraklik va tafovut omili. Mushtaraklik induksiyaning, tafovut deduksiyaning qo'llashni shart qilib qo'yadi. Ikkinchisida, mas. „artikl“ hodisasini o'rgatishda, qoida berilmasligi mumkin emas, chunki u ona tiliga yot grammatik material sirasiga kiradi.
3. Chet tildan to'plangan tajribaga suyanish omili. Fe'l zamonlaridan birining oldin o'zlashtirilishi keyingisiga zamin bo'la oladi va h.k.
4. Yangi hodisaning mikrobirliklarini turli usulda o'rganish omili. Mas. fe'l zamonlarining yasalishi va ma'nosi induksiya, qo'llanishi deduksiya yoki aksincha taqdim etilishi mumkin.

Induktiv va deduktiv usullarni qo'llash oqilona me'yorda bo'lmog'i lozim. Uning uchun yuqoridagi omillarni puxta o'ylab, ish ko'riladi.

Nutq namunasi taqdimoti chog'ida muallim uni talaffuz etadi. Namunani o'quvchilar yaxlit idrok etishadi. Tovush shakli va grammatik tuzilishidan kelib chiqib, muallimning hodisani takrorlash miqdori ko'p yoki oz bo'lishi mumkin.

Yangi taqdim qilinayotgan namunani o'quvchilar yaxlit tarzda aytish mashqini birgalikda va yakka-yakka bajaradilar. Agar jumla og'zaki nutqning ilgarilashini hisobga olib o'rganilsa, uni leksik tarzda qo'llay boshlashadi. Nutq namunasidagi tarkibiy qismlarning yozma timsoli tanish bo'lsa, muallim izoh berib boradi. Ayrim shakliy tahlilga ham yo'l qo'yiladi. Oldin o'rganilganlari bilan taqqoslash mavhumot darajasida emas, nutq amaliyotida, ya'ni ushbu hodisalarni aytib yoki yozib bajariladi. Qator namunalar o'rganilgandan so'ng grammatik umumlashma chiqariladi. Mas. fe'l zamonlari yasalishidagi sodda yoki murakkab shakllarni alohida-alohida va bir paytda umumlashtirish mumkin.

Taqdimot bosqichi tashkiliy jihatdan uchta izchil metodik tadbirni qamraydi: tanishtirish (prezentatsiya), idrok etib tushunganlikni nazorat qilish va yangi hodisani tanib olish hamda aytishga oid dastlabki mashqlar bajarish.

Tanishtirish quyidagicha ijro etiladi. Og'zaki nutqning ilgarilashi davrida muallim yangi hodisani aytib, o'quvchilarni taqlid qilishga chorlaydi. Keyingi bosqichlarda yangi hodisa grafik timsolga asoslanib taqdim etiladi. Uni aytish bilan bir paytda sinf doskasiga yozib berish yoki o'quvchilar grafik timsolini kitobdan ko'rib borishlari ham mumkin. Tanishishning ikkinchi qismida taqdim etilgan hodisani o'quvchilar tushunganliklari nutq jarayonida muallim tarafidan nazorat qilib boriladi. Tushunganlik darajasini tekshirib borish, dastlabki mashqlar bajarish bilan keyingi bosqichga o'tishning muvaffaqiyati uchun zamin tayyorlanadi.

Grammatik ko'nikma hosil qilishning boshlanishida uchinchi qism hisoblanmish dastlabki mashqlar bajarishning alohida ahamiyatini ta'kidlamoq lozim. Idrok eta boshlash ham ko'nikma shakllanishiga qo'yilgan birinchi qadam bo'lib, unda yagona eshitish sezgisi/analizatori ishlaydi, xolos. Taqlid qilganda ong ishtirokisiz muallimga ergashiladi. O'zlari mashq qila boshla-

ganda, anglash boshlanadi va takror aytishlar tufayli nutqiy grammatik avtomatizm shakllana boradi. Uchinchi bosqichda dastlabki mashqlarning izchil bajarilishi yangi hodisani mustahkamlash garovidir.

Nazariyotchilar¹ fikrlariga ko'ra, o'quvchilarning ovoz chiqarib aytishlaridan o'zlashtirish, aqliy amallarni/tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirish boshlanadi. Aytish amallari bajarilishi ko'nikmani shakllantirishning ibtidosidir. Intihoda esa yangi hodisaning malakada qo'llanilishi kutiladi. Taqdimot bosqichiga oid mulohazalar umumlashtirilib, quyidagi metodik tartibini tavsiya qilish mumkin:

1. Birinchi metodik usulga muvofiq nutq namunasi nutqiy vaziyatda ishlatilib, unda yangi hodisaning yasalishi, ma'nosi va qo'llanilishi namoyish etiladi. Ongli o'zlashtirishga erishish uchun o'quvchilarga muallim mana bunday topshiriq beradi: tinglang va bajaring (jumlar chet tilda aytiladi). 2. Ba'zi izoh (mavhumot) bilan yangi hodisani og'zaki namoyish etish. Topshiriq: Menga quloq soling va aytadigan chet tildagi gaplarimni tushunib oling. Tushunganlik darajasini tarjima vositasida nazorat qilish mumkin. 3. Hodisaning taqdimoti tegishli tushuntirish (sodda mavhumot) va tarjima yordamida amalga oshiriladi. Muallim topshirig'i: quloq soling va chet tilda, mas. „gapira olaman“, „gapira oladi“ deyilganda, falon so'zdan keyingi falon fe'lga e'tibor bering (misol chet tilda aytiladi). Aksariyat grammatik hodisalar ushbu yo'l bilan taqdim etiladi.

Grammatik hodisani o'zlashtirishda uni ko'nikma holiga yetkazishni majozan kosmik kemanding raketa bilan fazoga uchirilishiga taqqoslash mumkin. Yerdan kemani raketa ko'tarib orbitaga olib chiqadi — raketa ko'nikma tarkibidagi qoida yanglig' vazifani o'taydi, orbitaga chiqqan kemadan raketaning ajralishi esa malakaga aylangan til hodisasi uchun qoidaning zarur emasligiga qiyos etgulik holatdir. Xullas, ko'nikma hosil qilgan o'quvchi anglab mashq bajaradi. Malaka, ma'lumki, avtomatlashgan ko'nikmadir, unda nutq (gapirish, yozuv) hosil bo'ladi yoki tinglab (o'qib) tushuniladi.

Chet til grammatik hodisalariga oid ko'nikma maxsus mashq bajarish bosqichida shakllantiriladi.

¹ П. Я. Гальперин. Умственные действия — основа формирования мысли и образа. // Вопросы психологии, 1957, № 6.

Grammatika mashqlari. Taqdim etilgan grammatik hodisalar chet tilda ko'nikmaga aylantirilishi uchun endi mashq qilish davri boshlanadi. Avvalo, ko'nikma haqida qisqacha metodik izoh: grammatik ko'nikma deganda, nutqda morfologik-sintaktik hodisalarni to'g'ri va avtomatlashgan tarzda qo'llashni va tanib olishni ta'minlovchi operatsiyalar va amallar tushuniladi. Morfologik ko'nikmada shakllar yasalishi va qo'llanishi, operatsiya va amallari to'g'risida gap boradi (otning qo'shimchalari, fe'lga oid qo'shimchalar, ot oldida qo'llanadigan grammatik birliklar, mas. artikl, predlog va h.k.). Sintaktik ko'nikmaga esa so'z tartibi, so'z birikmalari yasalishi kabilar kiradi. Grammatik materialning qo'llanish ko'nikmasiga so'zlarni o'zgartirish va so'zlarni o'rniga qo'yish kiritiladi.

O'quvchilar o'zlashtirishni boshlagan grammatik hodisalar mashq qilish yo'li bilan ularning nutq faoliyatiga kiritiladi. Bu davrda sof chet tilcha tabiiy nutq haqida gap yo'q, balki o'quv nutqi, tabiiy nutqqa taqlid qilish mashqlari bajariladi.

O'quvchilarning nutq ko'nikmalari shakllanishi chog'ida grammatik hodisalarni „muhrlash“ jarayoni yuz beradi. Mashq qilish bosqichi asosan uch qismni tashkil etadi: 1. Grammatik hodisalarni taqlidiy aytishni o'rganish, har qanday grammatik amal o'zining andazaga suyanishi bilan chegaralanadi. Taqlidiy mashq qilish keyingi qismga ulanib ketadi. 2. Taqlidiy o'rganilgan hodisa tarkibida o'zgartishlar sodir etib, mashq qilish boshlanadi. Tanish material, imkoniyat ko'tarishiga qarab, yangi grammatik hodisani puxta o'zlashtirishga xizmat qildiriladi. 3. Oldin o'rganilgan va bugun taqdim etilgan grammatik hodisalar birgalikda og'zaki va yozma fikr bayon etish uchun qo'llanadi. Nutqiy yo'nalganlik mashq qilishning ushbu pallasiga mansubdir.

Zikr etilganlar bilan bir qatorda nutqni idrok etib tushunish mashqlari ham bajariladi. Ayniqsa yangi hodisani o'qishda mashq qilish ahamiyati beqiyosdir.

O'qishni egallashda grammatikani quyidagi tartibda mashq qilish mumkin:

1. Matnda grammatik hodisani tanib olish (mas. matnni o'qing, falon grammatik hodisani topib ayting/ko'chiring). Yasalish alomatlarini aytib berish ham mumkin. 2. Grammatik hodisani taxminlab bilish imkoniyati mavjud. (Mas. matn yoki mikromatn (jumla)ni o'qib, tushirib qoldirilgan qismini topib

aytish/yozish.) 3. O'xshash grammatik hodisalarni farqlash. Matnni o'qib, to'g'ri va noto'g'ri fe'llarni ko'chirish, turli jumlalardagi fe'l zamonlari farqini topish kabilar. 4. O'rgani-
layotgan grammatik hodisa o'qilayotgan matnni tushunishga imkon yaratadi. (Matnni o'qing va falon grammatik hodisaga e'tibor bering hamda ushbu hodisani qo'llab, matn mazmu-
nini gapirib bering.) To'rtinchi toifadagi mashq qilish usuli sof nutq mashqlarini bajarish muqaddimasidir.

Grammatik materialni mashq qilish tadrijan amalga osha-
digan tadbir bo'lib, og'zaki, matnga tayanib va yozma mashq qilinadi.

Og'zaki mashq qilish. 1. Taqlidan aytish. Mas. Siz ham xuddi shunday qilishingizni yoki shunday narsalarni ko'ri-
shingizni ayting. (Muallim: *I see a pen. I speak English.* O'quvchi: *I see a pen too. I speak English, too*). 2. O'rin almashtirish. Mas. o'rtog'ingizdan kitobni berishni (olishni, ochishni, o'qishni) so'rang. 3. Aytilganni o'zgartirish: savolga javob qaytarish, savol berish, fikrga qo'shilish yoki e'tiroz bildirish. Mashq qilishning ushbu turi darak va so'roq, bo'lishli va bo'lishsiz gaplarni o'rganishda qo'l keladi.

Bosma matnga tayanib mashq qilish. 1. Ovoz chiqarib o'qish/aytish: matnni o'qish, tinglab o'qish. O'qiyotganda muayyan grammatik hodisani qo'llanilishiga oid qo'shimcha topshiriq bajariladi. 2. O'rin almashtirish: namunadan yoki biron qismi almashtiriladigan jadvaldan foydalanib gaplar tuzish, o'qish va jadval yordamida savollarga javob qaytarish. Zaruriy grammatik hodisani qo'llash muallim tomonidan qo'shimcha topshiriq sifatida tavsiya etiladi. 3. O'qilgan narsani o'zgartirib aytish: darslikdagi savollarga javob topish, berilgan javoblarga savol tuzish. 4. O'qib tahlil qilish, tinglash, o'qish va solishtirish, rasmga qarab o'qish va berilgan grammatik hodisaning ishlatilishini izohlash.

Yozma mashq bajarish: gaplarni ko'chirish va kerakli hodisaning tagiga chizish; o'qib ko'chirish; qoldirib ketilgan hodisani qo'yib yozish; faloncha gapni mavzuga moslab yozish; qavs ichidagi so'zlar ishtirokida savollar tuzish.

Grammatikaning qo'llanilishi. Taqdim etilgan va mashq qilingan hodisalar ustida ishlash davom ettirilib, grammatik ko'nikma hosil qilinadi. O'quvchilar grammatik operatsiyalarni o'zlashtirishgach, endi grammatik amallarni egallash bilan

mashg'ul bo'lishadi. Grammatik materialni o'rganishda birliklarni yodlab olish va operatsiyalarni bilib olish bilan chegaralanilmaydi, balki o'rganilayotgan grammatik hodisalar bilan nutqiy amallarni egallashga erishiladi. Ma'lumki, amallar nutq faoliyatini hosil qiluvchi yoki idrok qilinishini ta'minlovchi vositalardir. Dastlabki ko'nikmani hosil qilish, ya'ni grammatik hodisaning qo'llanilish bosqichi boshlanadi.

Mashq qilish bosqichida o'zlashtirilgan ushbu grammatik ko'nikmaning yangi sharoitda xatosiz qo'llanilishiga oid topshiriqlar bajariladi. (Yangi sharoit tushunchasining¹ qamrovi keng bo'lib, yangi topshiriq, yangi faoliyat turi, yangi ko'nikma/malakani egallash, yangi mavzu/vaziyat yuzasidan fikr bayon etish kabilarni o'z ichiga oladi.) Topshiriq turlari muayyan grammatik birlikni aytish va gapirish, eshitish va tinglab tushunish, o'qib chiqish va o'qib tushunish, yozish va yozuv kabilardan iborat.

Grammatikaning qo'llanilishi borasida gap ketganda, muayyan grammatik hodisani reproduktiv nutqda qo'llay bilish va retseptiv nutqda tanib olish tushuniladi, bunda qo'llash va qo'llanganni fahmlash nazarda tutiladi.

Qo'llanilish bosqichida o'quvchi grammatik birlikdan fikr bayon etish va o'zganing fikrini tushunish maqsadida foydalanadi. Grammatik ko'nikmaning nutqiy malakaga to'la „singib ketishi“ kuzatiladi. Malaka darajasida, odatda, e'tibor nutqning mazmuniga qaratiladi, til material, jumladan, grammatika haqida so'z yuritilganda esa taqdimot va mashq qilish davridagi faoliyat nazarda tutiladi.

Grammatikani o'rgatish prinsiplari. Grammatik til material (leksikani va talaffuzni o'rgatish prinsiplariga aloqador mavzularga qarang) ham muayyan uslubiy prinsiplarga ko'ra o'rgatiladi². Chet til grammatikasini o'rgatishda quyidagi prinsiplarga suyanib ish ko'rish tavsiya etiladi.

¹ *Е. Н. Кабанова-Миллер. О переносе в процессе учения. // Советская педагогика, 1965, №1. 48- bet.*

² *Qarang: В. С. Цетлин. Основы методики обучения грамматике французского языка в средней школе: Автореф. докт. дисс. — М., 1966; Г. В. Рогова. Методика обучения английскому языку. (На англ. яз.) — Л.: Просвещение, 1975; Т. К. Самтаров. Методическое содержание обучения активной грамматике английского языка в узбекской средней школе: Автореф. канд. дисс. — М., 1982.*

I. Grammatik mexanizmlarni shakllantirish prinsipi. Chet til grammatikasini o'rgatish deganda, nutqning grammatik mexanizmlarini shakllantirish tushuniladi. Chet tildagi nutqning grammatik mexanizmlari uch tarkibli bo'lib, yuqorida ta'kidlanganidek, ko'nikma, material va umumlashmadan iborat.

Grammatik mexanizmlarni egallashda nutq faoliyatining avtomatlashgan tarkibiy qismlari qatorida grammatik ko'nikmalar alohida o'rin tutadi. Grammatik ko'nikmalar og'zaki/yozma nutqning reproduktiv va retseptiv ko'nikmalari tarzida shakllanadi.

Grammatik ko'nikma amallari qoidaga tushadigan umumlashmalardan tashkil topadi, ya'ni ularning tarkibida grammatik mavhumotlar albatta bo'ladi.

Grammatik ko'nikmalarni hosil qilishda umuman ko'nikmalarni rivojlantirishning qonuniyatlari, ya'ni amallarni bajarish (mashqlari zarurligi, ko'nikmalarning avtomatlashuvi, ularni faoliyat tarkibiga kiritish, interferensiya va transpozitsiya kabilar hisobga olinadi.

Chet til grammatik ko'nikmasini shakllantirish metodikasini ishlab chiqishda nutq faoliyati turlarining xususiyatlari va ona tili, ikkinchi til hamda chet til grammatik qurilishi orasidagi munosabatlar bilan bog'liq qiyinchiliklar e'tiborga olinadi.

Nutqning grammatik mexanizmlarini o'rgatishda, bir tomondan, o'quvchilarning ona tiliga suyanishlari, ikkinchidan, chet tildagi nutq jarayonida ona tilining salbiy ta'sirini bartaraf etish lozim: a) qoida ona tilida ta'riflanadi, unda grammatik hodisalarning ma'nosi hamda qo'llanilish hollari ifodalanadi. Grammatik ko'nikma tarkibidagi amallar majmuyi yordamida o'zlashtiriladigan fikrlash operatsiyalarini o'rgatuv chog'ida ona tili zarurdir; b) reproduktiv ko'nikmalarni rivojlantirishda ona tilining salbiy ta'sirini bartaraf etishga ona tili tufayli sodir bo'ladigan grammatik amallar va fikrlash operatsiyalarini almashtirish, o'zgartirish sistemalari va tanlash usullarini ishlatish orqali erishiladi. Bu mashqlar tanlashda hamda qoidalar mazmunida o'z aksini topadi. Ona tilining salbiy ta'siridan kelib chiqadigan qiyinchiliklarning oldini olish uchun tarjimali va tarjimasiz mashqlar bajariladi; d) chet tildagi nutq jarayonidan ona tilining ishtirokini bartaraf etishga fikrlash operatsiyalarining kamayib borishi va qo'llanmay qo'yili-

shi tufayli erishiladi. Buning uchun nutqiy namunalari va ko'rgazmalilikdan foydalanish, chet tilda O'NVni tasvirlash (reproduktiv ko'nikmalarni egallashda) va grammatik elementlarni tanib olish va farqlashga qaratilgan fikrlash operatsiyalariga mos gapni ona tiliga tarjima qilish (retseptiv ko'nikmalarni o'rganishda) yordam beradi. Grammatikaga oid fikrlash operatsiyalarining kamayib borishi bilan asta-sekin tarjimaga o'rin qolmaydi.

Chet tildagi nutqning grammatik mexanizmlarini o'rgatish mazmunining ikkinchi tarkibini — yordamchi so'zlar, fleksiylar tashkil etadi. Uni o'zlashtirish ham aniq va mustahkam timsollar hosil qilishni talab etadi. Bu ish ko'nikma amallarini egallash bilan birga olib boriladi, shuningdek, materialni eslab qolish, xotirada saqlash, yoddan chiqarmaslik imkonini yaratishga qaratiladi.

Nutqning grammatik mexanizmlarini egallashning uchinchi tarkibi — umumlashmalar material va amallar asosida o'zlashtiriladi. Umumlashmalar induktiv yo'l bilan o'rganiladi. Tushunchalarni o'rganib olish ikki bosqichli jarayondir: a) o'quvchilar mashq bajarganda amaliy qoidalarni tushunib oladilar; b) grammatik amallarni va nutqda ishlatiladigan materialni umumlashma tarzida bilib oladilar.

II. Kommunikativ yo'nalganlik prinsipi: a) grammatik ko'nikma nutq faoliyati turlarining tarkibida o'zlashtiriladi; b) ko'nikmani hosil qilishning dastlabki bosqichidagina maxsus grammatik mashq rejalashtiriladi.

III. Grammatikani amaliy o'rganish prinsipi. Og'zaki yoki yozma nutq uchun zarur va, shu bilan birga, yetarli grammatik hodisalargina o'rganiladi. Chet til darslarining boshlanishidayoq narsalarning nomini atash ehtiyoji tug'iladi, ya'ni „ruchka“, „kitob“, „parta“ kabi so'zlarni chet tilda aytishga to'g'ri keladi. Demak, ot oldida „artikl“ atalmish grammatik hodisani qo'llash zarur bo'ladi. Til o'rganuvchi tegishli mashqlarda grammatik amallarni egallaydi.

IV. Grammatikani strukturada o'rganish prinsipi. Chet til grammatik birliklari, avval aytilganidek, nutq namunasi (jumla)da taqdim etiladi va mashq qilinadi. Grammatikani o'rgatishda strukturaviy yondashish metodikada atroflicha asoslangan ta'limiy tadbirdir. Unga ko'ra yangi leksik birlik tanish nutq namunasi, notanish namuna esa o'zlashtirilgan leksik material

asosida taqdim etiladi. Nutq namunasi ham qoida maqomini oladi, biroq unga verbal (soʻz bilan) taʼrif berilmaydi.

Grammatikani qoidaviy (ongli), amaliy va strukturaviy maqomlarda oʻrgatish bir-biriga uzviy bogʻlangan metodik tadbirlardir. Har qaysi yondashuvda grammatik hodisaning lisoniy xususiyatidan kelib chiqiladi. Mas. ilk marta taqdim etilayotgan jumla qoidasiz, metodik termin bilan ataganda, leksik tarzda oʻrganiladi. Nutq namunasi tarkibiy qismlari oʻzgarishi bilan tegishli umumlashma bayon etiladi. Koʻnikmalarni rivojlantirishda grammatik amallarni boshqarib turadigan „operativ“ (V. S. Setlin termini), yaʼni amaliy qoidalar berib boriladi. Qoida mazmuni va tuzilishini muayyan koʻnikmaning algoritmi belgilaydi.

V. Grammatikani nutqiy vaziyatda oʻrgatish prinsipi. Chet til taʼlimida uni situativ yondashish (amerika metodikasida *role playing*) deb yuritiladi. Oʻquvchilar yashayotgan/oʻqiyotgan hayotiy muhit bilan bogʻlab mashqlar bajarish ijobiy samaralar beradi. Mas. sinfdagi narsalar kimlarniki ekanligi qaratqich kelishigi yoki egalik olmoshini oʻrgatishda qoʻl keladigan vaziyatdir. Hozirgi (umumiy) zamoni mustahkamlash maqsadida har kuni bajariladigan ishlar haqida oʻquvchilar chet tilda fikr bayon etadilar. Qisqasi, dasturiy grammatik materialning barchasi oʻquvchi turmushiga bevosita bogʻlab oʻrgatiladi.

VI. Grammatikani ongli oʻzlashtirish prinsipi. Onglilik deganda, nazariy qoidalarni quruq yodlatish emas, balki oʻrganilayotgan nutq namunasi (jumla)da maʼlum lisoniy unsurlarga oʻquvchining diqqat-eʼtibori qaratilishi koʻzda tutiladi. Ushbu grammatik hodisani gapirish yoki yozuvda qoʻllay bilish, oʻqish yoki tinglash chogʻida taniy olish koʻnikmasi hosil qilinadi. Oʻquvchi eʼtibori qaratilayotgan hodisa yuzasidan oddiy qoida berilishi ongli oʻzlashtirishning keng tarqalgan usulidir. Yangi grammatik birlikni tez va oson oʻrganib, nutqda qoʻllashga erishishning maqbul yoʻli amaliy yoʻnalishdagi qoidalarni bilib olishdir. Misol tariqasida birinchi oʻquv yili uchun nashr etilgan ingliz tili (J. Jalolov va boshq. 4-sinf uchun. — Toshkent: „Oʻqituvchi“, 1982) darsligidan oʻrin olgan grammatik hodisalarni oʻrgatishga moʻljallangan 21 ta qoida umumlashma keltiriladi.

Birinchi yil ingliz tili oʻrganishda bayon etiladigan grammatik qoidalar:

| № | Qoida ta'rifi | Dars |
|----|---|--------------|
| 1 | Ingliz tilida ot oldida artikl qo'llanadi: a pen. | L.4 |
| 2 | Atoqli ot oldida artikl qo'llanmaydi: Ann. | L.7 |
| 3 | Gapda so'z tartibi: I see a pen. | L.8/10 |
| 4 | Bo'lishsiz gapda don't qo'shiladi: I don't see a book. | L.9 |
| 5 | Buyruq gapda so'z tartibi: Give me a pen. | L.12 |
| 6 | Noaniq va aniq artikllar: a— the. Ma'lum predmet haqida gapirilganda aniq artikl qo'llanadi: the pen. | L.15 |
| 7 | Ko'makchi fe'l: The pen is in the desk. | L.18 |
| 8 | So'roq so'zi bilan boshlanadigan gapda so'z tartibi: Where is the book? | L.19 |
| 9 | Gapning so'roq shaklida is ega oldida qo'llanadi: Is the pen on the table? Javobida: Yes, it is. | L.24 |
| 10 | Bo'lishsiz javob: (Is the pen in the desk?) — No, it is not. | L.25 |
| 11 | Gapning bo'lishsiz shakli: The pen is not on the desk. | L.29 |
| 12 | Kishilik olmoshlari he (erlar uchun), she (xotin-qizlar uchun), it (jonsiz narsalar uchun). | L.34 |
| 13 | Is your brother in the yard or in the park? so'roq gapiga to'liq javob qaytariladi: No (My brother) is in the yard. | L.37 |
| 14 | Inglizcha „maktabda“ (o'qishda), „uyda“, „ishda“ deganda at predlogi qo'llanadi: at school, at home, at work. | L.40, 41, 42 |
| 15 | Inglizcha are, am fe'llari ishtirokida gaplar. | L.44 |
| 16 | Otlarga ko'plikda- s qo'shiladi: jarangli (pens, boys) va jarangsiz (books, streets) o'qiladi. | L.61 |
| 17 | Ot oldida sifat kelganda, artikl o'rni o'zgaradi: a new film, the new film. | L.87 |
| 18 | Kishilik va egalik olmoshlari: he-his, she-her | L.95 |
| 19 | Have fe'li so'roq gapda ega oldiga qo'yiladi: Have you a bike? Javobi: Yes, I have (No, I have not). | L.96 |
| 20 | III shaxs birlikda has qo'llanadi. | L.97 |
| 21 | Bo'lishsiz gapda have/has boshqa fe'llardan farq qiladi: (I don't see a car). I have a bike. — I have no bike. | L.98 |

Didaktikadagi onglilik prinsipining chet til grammatikasini o'rgatishda o'ziga xos tatbiqi mazkur amaliy qoidalar ta'rifi-dan ayon bo'ldi. Bu yerda qoida bevosita nutqiy amaliyotdan hosila o'laroq unga xizmat qiladi. Qoidalardan sistematik kurs berilmaydi. Nutq birliklarini anglab yetishga kifoya qiladigan ta'limiy qoidalarni o'zlashtirish grammatikani ongli o'rganish prinsipini aks ettiradi.

Xullas, grammatikani o'rgatishda onglilik prinsipi quyidagicha talqin etiladi (V. S. Setlin): a) jumla tuzilishida ishtirok etadigan til birliklarini o'quvchi anglab yetadi, ular nafaqat gaplarning, shuningdek, so'z guruhlarini, so'z va uning grammatik qismlarini ham qo'llashni o'rganadilar; b) grammatik ko'nikmalarni egallash chog'ida o'quvchilar grammatik amallarni fahmlaydilar. Fikrlash operatsiyalari sistemasidagi tahlil va xulosalardan qaysi amalni bajarish, qaysi ma'noni tanlash, qaysi grammatik elementni qo'llash kabilar bilan mashg'ul bo'ladilar. Fikrlash operatsiyalari amallarni o'zlashtira borgan sari zaruriyatini yo'qotadi, endi amallar avtomatlashuv darajasiga yetadi, ya'ni ko'nikma hosil bo'ladi; d) amallarning „mag'zini chaqish“ uchun qoida-ko'rsatmalardan foydalaniladi. Analogiya kifoya qilmagan hollarda beriladigan qoida-ko'rsatmalar til tajribasidan tanish tushunchalar yordamida bayon etiladi; e) grammatikani o'rgatishdagi onglilik tushunchasi amallarni fahmlashda ko'ruv tayanchidan foydalanishni ham aks ettiradi.

VII. Grammatikani farqlab o'rgatish prinsipi. Metodikada aktiv va passiv til materiali tushunchasi keng istifoda qilinadi. So'zlashish (gapirish) va o'qish grammatikasi atalmish shartli nomlar bilan ma'lum bo'lgan ikki toifa grammatik hodisalar farqlanadi.

Aktiv va passiv birliklarning o'zlashtirilishiga qarab, ular reproduktiv va retseptiv nutq uchun farqlanadi. Reproduksiya va retsepsiya uchun alohida-alohida grammatik amallar (V. S. Setlin tomonidan) ajratilgan. Mas. retseptiv nutqda grammatik birlikni idrok etib fikran ajratish, gap tuzilishni tanib olish, gap bo'laklarini va so'zlarning grammatik ma'nosi ko'rsatkichlarini aniqlash va ular asosida tushunish kabi amallar bajariladi.

Grammatikani farqlab o'rgatishning yana bir tomoni mavjud, ya'ni o'ta qiyin hodisalarning taqdimoti va mashqlariga ko'p kuch va vaqt sarflanadi. Ular lisoniy mashqlarni ko'proq talab qiladi. O'ta qiyin hodisalarning toifalari metodistlar (fransuzcha — V. S. Setlin, inglizcha — T. Q. Sattorov, nemischa — S. F. Shatilov) tomonidan aniqlab chiqilgan.

Yuqorida qayd etilgan umumiy prinsiplardan tashqari chet til grammatikasini o'rgatishning xususiy prinsiplari ham (V. S. Setlin tomonidan) ishlab chiqilgan.

1. Reproaktiv va retseptiv grammatik ko'nikmalarning algoritmlaridan tanib olish va topib olish qismlari farqlanadi.

Ona tilining roli ikkala turdagi ko'nikmalarda turlichadir. Ko'nikmalarni rivojlantirish mashqlarida ushbu xususiyatlarga e'tibor qaratiladi. Amallarni bajarish mashqlari oldidan beriladigan qoida va izohlar mazmunini reproduktiv va retseptiv ko'nikmalarning algoritmlari belgilaydi.

2. Amallar bajarish mashqlari reproduktiv va retseptiv turlarga bo'linadi. Reprodktiv grammatik mashqlar amallarining farqiga qarab, yana kichik turlarga ajraladi (almashtirish va o'zgartirish amallarini, formal belgilariga ko'ra tanlash amallarini va ma'nosiga qarab tanlash amallarini o'zlashtirishga qaratilgan mashqlar). Retseptiv grammatik mashqlar esa tanib olishga mo'ljallangan (murakkab farqlash va oddiy farqlash) va tushunishga yo'llovchi mashqlarga bo'linadi.

3. O'quvchilarning grammatik ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida grammatik amallarni to'g'ri bajarishni ta'minlovchi operativ qoidalar qo'llanadi. Ushbu qoidalarning mazmuni va tuzilishi, ularning tushuntirib borilishi tegishli ko'nikmalarining algoritmiga qarab belgilanadi. Reprodktiv ko'nikma algoritmining tanib olish qismi grammatik ma'noga (yoki O'NV)ga oid qoidalarda ifodalanadi, topib olish qismi esa almashtirish, o'zgartirish, formal belgilariga qarab tanlash amallariga oid yo'llanma shaklida beriladi. Retseptiv ko'nikma algoritmining tanib olish qismi ajratib olish va farqlash amallariga ko'rsatma tarzidagi izoh ko'rinishida bo'ladi, algoritmining topib olish qismi esa grammatik ma'noga oid yo'llanma holda ifodalanadi.

4. Reprodktiv grammatik ko'nikmalarni rivojlantirishda mana bunday ketma-ket ish turlari bajariladi: namunani ko'rsatish; grammatik amallar va materialni ko'rsatish va tushuntirish; almashtirish va o'zgartirish amallarini mashq qilish; so'zlarning morfologik va fonetik xususiyatlariga qarab grammatik materialni mashq qilish. Bajariladigan ishlar yakunida grammatik elementlarni ma'nosiga ko'ra tanlab ishlatish mashq qilinadi. Buning sababi shundaki, ushbu mashqlar chog'ida reproduktiv grammatik ko'nikmaning barcha amallarini egalash mumkin.

Retseptiv grammatik ko'nikmalarni hosil qilish paytida, avvalo, tanib olish, so'ngra tushunish mashqlari bajariladi.

Grammatik materialni o'zlashtirish jarayoni ko'nikmani egallash bilan muvoziy ravishda kechadi. Ayrim hollarda mate-

rial grammatik ko'nikmadan oldin o'rganiladi, bunda materialni o'rganish mashqi amallarni egallashdan avval bajariladi.

5. Aktiv grammatik minimum bo'yicha boshlanishida reproduktiv, keyin retseptiv ko'nikmalar shakllantiriladi, chunki reproduktiv ko'nikmadan retseptivga ko'chish osonroq, aksincha, retseptivdan reproduktiv ko'nikmaga o'tish qiyinroq bo'ladi. Reprodktiv ish turlari izchillikni talab qiladi, unga retseptiv almashtirilsa, interferensiya qo'zg'aydi, u esa har ikkala ko'nikmaning amallari sistemasini o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi.

6. Bajariladigan ish turlari nisbati, mashq turlarining hajmi va o'rni, grammatik elementlarning ma'nosini ochish va ularni qo'llash usullariga kelsak, ular grammatik hodisalarning xususiyati va qiyin/osonligiga qarab turlicha bo'ladi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Grammatik ko'nikmani hosil qilish bosqichlarini tahlil qiling.
2. Grammatik hodisa bilan o'quvchini tanishtirish yo'llarini o'rganing.
3. Mashq qilish bosqichi qismlarini muhokama qiling.
4. Grammatikani o'rgatish prinsiplarini ta'riflang.

3-§. Grammatik mashqlardan namunalar

Chet til grammatikasini o'rgatish tizimi (V. S. Setlin ta'limotiga binoan) grammatik ko'nikma hosil qilish, grammatik materialni o'zlashtirish va umumlashmani o'rganishni o'z ichiga oladi. Bular, o'z navbatida, ko'nikmani shakllantirishga va materialni o'zlashtirishga mo'ljallangan mashqlar bajarishni taqozo etadi (tushuntirish esa amallarni anglash va tushunchalarni bilishga qaratiladi). Xullas, mashqlar material, amallar va umumlashmalarga daxldor qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'lidagi vositadir. Quyida chet til grammatikasini o'rgatishga mo'ljallangan mashqlardan ayrim namunalar beriladi.

1. Idrok etilayotgan matndan o'rganilayotgan grammatik hodisani topish.

2. Yangi grammatikani boshqa tanish hodisalardan farqlash.

3. Eshitilgan/o'qilgan grammatik hodisaning nomini aytish.

4. Grammatik jihatdan gapni oddiy tahlil qilish.

5. Muallim hikoyasini tegishli grammatik hodisani ishlatib davom etish.

6. O'quvchi (muallim) aytgan grammatik hodisani gapda qo'llash.

7. Grammatik materialni sistemalashtirish (mas. hozirgi, o'tgan, kelasi zamonlarga gap tuzish).

8. Nutqiy vaziyatda grammatik hodisani erkin qo'llash.

9. Rasmni hozirgi (o'tgan, kelasi) zamonda chet tilcha tasvirlash.

10. Tegishli grammatik hodisani qo'llab, savol-javob qilish.

11. Didaktik tarqatma materiallarni grammatik mashq uchun ishlatish (individual yondashish).


12. Qiyin grammatik hodisani o'z ichiga olgan jumla (abzas)ni tarjima qilish va h.k.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Berilgan mashqlarning ayrimlarini amalda bajarang.

2. Mashqlarning grammatik material o'rgatishga daxldorlik darajasini aniqlang.

3. Qo'shimcha grammatik mashqlar to'plang.



X BOB. TALAFFUZNI O'RGATISH

Chet til talaffuzini o'rgatishning mohiyati. Til materialining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan talaffuzga alohida e'tibor beriladi. Chunki chet tilda fikr bayon etish uchun aytiladigan jumla tovushlarini talaffuz etish va ularni birlashtirish hamda tegishli nutq ohangi (intonatsiya)ni bilish talab etiladi.

Talaffuz eshitish (akustik), aytish (motor) va ma'no bildirish (semantik) kabi uch qismdan iborat. Ularning har bir tilda o'ziga xos ijro xususiyati mavjud. Tilning fonetik jihatini o'zlashtirish, ya'ni talaffuz ko'nikmasini egallash nutqiy muloqotning muhim shartlaridandir.

Ta'lim sharoitida chet tilda benuqson talaffuzga erishmoq mumkinmi, degan savol tug'iladi. Metodistlar javobi aniq: o'quvchilar chet tilda taqribiy (approksimatsiyalashgan) talaffuzni o'rganishadi (to'g'ri talaffuz ona tili va ikkinchi tilda o'rganilishi mumkin). Approksimatsiya g'oyasiga binoan, bir tomondan, fonetik materialni hajman chegaralashga hamda, ikkinchidan, ayrim tovushlar talaffuzining sifati til sohibinikidan pastroq bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Muayyan chet til tovushining ma'no o'zgarishiga sabab bo'lishi, ya'ni fonematik rol o'ynashi ma'lum, shunday holda uning talaffuzida taxminiy yaqinlashish (approksimatsiya)ga erishish yuqori darajada bo'lishi tavsiya etiladi, mas. ingliz tilidagi unli tovushning qisqa-cho'ziqligi, so'z oxiridagi undosh tovushning jarangli-jarangsizlashuvida yuksak taqribiylikka intilish zarurdir, aks holda mazmunga putur yetadi.

Talaffuzdagi taqribiylik, avvalan, o'rta ta'lim sharoiti, ya'ni chet til o'rganishning sun'iy muhiti bilan belgilansa, soniyan, talaffuz leksika va grammatikaga nisbatan murakkabdir.

Chet tilda nisbatan ravon va yetarli tezlikdagi talaffuzni egallash asosiy talabdir. Bu, birinchidan, suhbatdoshlar birbirlarini anglashlarini ta'minlasa, ikkinchidan, nutqning o'rtamiyona sur'atini ko'nikma tarzida egallashni taqozo etadi (ma'lumki, chet tildagi nutq sur'ati bir daqiqada 110—150 ta so'zni ayta olish demakdir: ingliz va fransuz tillarida o'rtacha 130—150 ta so'z, nemischada esa 110—130 ta so'z talaffuz etilishini ilmiy tajribalar isbotlagan).

O'quvchi nutqi tushunarli bo'lishi uchun nafaqat ma'no ifodalovchi tovushlar (fonemalar) talaffuzini o'rganishi, shu-

ningdek, keng iste'moldagi sodda va qo'shma gaplarning asosiy ohangini (urg'usi, vazni, to'xtami (pauzasi), melodikasi kabi-larni) ham o'zlashtirib olishi kerak. Demak, talaffuz ko'nik-masi artikulatsiya (aytish) va intonatsiya (nutqiy ohangni qo'l-lash) operatsiyalaridan tashkil topadi.

Nutq birliklari faqat tovush timsollarida mavjudligini va talaffuzning leksika va grammatika ko'nikmalari bilan birga qo'shib ketganligini nazarda tutib, nutqda ularni yaxlit egallash odat tusiga kirgan. *Talaffuz ko'nikmasi* deganda, nutq birligining tegishli tovushlar orqali ro'yobga chiqishini ta'min-lovchi yaxlit lisoniy amal tushuniladi.

Chet til talaffuzini qaysi sinflarda yoki ta'lim bosqichlarida o'rgatish masalasi turli tortishuvlarga sabab bo'lgan. Alohida bir sinf yoki bosqichni ajratish metodika mantig'iga zid bo'lur cdi. Chunki talaffuzni egallash nutq ko'nikma va malakalariga tobedir. Muayyan maktab uchun tuzilgan o'quv-metodik vositalarning mazmuni talaffuz minimumining taqsimotini o'ziga xos holda ro'yobga chiqaradi. Biroq barcha maktablar uchun umumiy qonuniyat sifatida quyidagi tartib qabul qili-nadi: tovushlarning aksariyati ta'limning boshlang'ich davrida taqdim etiladi, o'rta bosqichda yangi tovush birikmalari, urg'u va intonatsiyani o'rgatish davom etadi, o'rta yoki yuqori bos-qichda barcha talaffuz hodisalari yuzasidan ko'nikmani rivoj-lantirish, binobarin, talaffuz ko'nikmasini shakllantirish bo'-yicha chet til o'qitishning ibtidosidan intihosigacha ish olib boriladi. Til materiallaridan leksika va grammatikani o'zlash-tirish chog'ida eshitish-talaffuz ko'nikmasi shakllantiriladi.

1-§. Talaffuz materialini metodik tayyorlash

Talaffuz minimumini tanlash. Chet til fonetik (talaffuz) minimumi leksika va grammatika minimumlariga bog'liq holda tanlanadi. Til materiali odatda aktiv va passiv minimumlardan iborat. Fonetika (talaffuz) minimumida aktiv va passiv tu-shunchalari bir oz boshqacha talqin etiladi. Aktiv va passiv talaffuz minimumlari bir paytning o'zida o'rganiladi. Ular murakkab nutqiy malakaning tarkibiga kirib, og'zaki nutqning gapirish (aytish-talaffuz ko'nikmasi) va idrok etib tushunish (eshitish ko'nikmasi) jihatlarida namoyon bo'ladi.

Aktiv va passiv talaffuz minimumlari quyidagicha farqlanadi: aktiv minimumda taqribiylikka yo'l qo'yiladi, passivda esa bunday holga duch kelinmaydi. Talaffuzning aktiv minimumi doirasida chegaralangan fonetik material yuzasidan ish ko'riladi, passivda esa o'rganilayotgan chet til fonemalarining variantlari ham uchraydi.

Talaffuz minimumi muayyan turdagi o'quv yurtlari uchun, mas. o'rta maktablar uchun, o'quvchilarning til tajribasidan qat'i nazar, umumiy bo'ladi. Chunonchi, o'rganilayotgan chet tilning tovushlari, tovush birikmalari, fonetik hodisalari va intonatsiya tuzilishi talaffuz minimumini tashkil etadi. (Ayrim tadqiqotchilarning o'quvchi ona tilisi (yoki til tajribasi)da chet til talaffuz birliklariga monand birliklarni minimumga kiritmasliklari metodik mantiqqa xilof ekanligi quyida isbotlab beriladi.)

Chet til leksik-grammatik materiali ichidagi barcha fonetik birliklar talaffuz minimumidan joy olishi muqarrar. Lekin o'rganilishi oson bo'lgan talaffuz birliklari alohida mashqlarda maxsus o'rgatilmaligi ham metodikada ma'lum, chunki ular talaffuzni o'rgatish mazmuni tarkibiga kirmaydi. Binobarin, minimum til tajribasini hisobga olmaydi, talaffuzni o'rgatish mazmunida esa muayyan qiyinchilik sababli o'zlashtirishga maxsus vaqt va kuch talab etadigan hodisalar yig'iladi.

Chet til *talaffuzini o'rgatish mazmuni* (TO'M)dan o'rin olgan barcha birliklar turli me'yordagi qiyinchilik bilan o'zlashtirilishini nazarga olib, ularning tasnifi ishlab chiqildi: artikulatsion, oppozitsion, pozitsion va akustik jihatdan qiyin hodisalar (IV bobda keltirilgan ma'lumotni eslang).

Fonetik birliklarning tahlili shuni ko'rsatadiki, har bir maktab uchun o'quvchilarning til tajribasiga muvofiq alohida TO'M shakllantiriladi. Uni tanlash manbayi umumiy talaffuz minimumidir.

Talaffuz minimumi quyidagi metodik mezonlarga muvofiq tanlanadi: (1) nutqiy muloqot ehtiyojiga fonetik birlikning mutanosibligi; (2) tanlashga mos keladigan uslub; (3) talaffuzning normativligi; (4) keng tarqalganlik.

Birinchi mezonga ko'ra ma'noni farqlovchi fonemalar va intonemalar tanlanadi, chunonchi, talaffuz minimumiga barcha fonemalar kiritiladi (ularning variantlari kirmaydi). Intonemalarga kelganda, mazkur mezon amali doirasida ikki

manzara kuzatiladi, birinchidan, intonemalar miqdori o'rganiladigan gap turlari bilan chegaralanadi, ikkinchidan, sintaktik ma'no ifodalaydigan gaplargina tanlanadi, xolos. Intonatsiyaning asosiy sintaktik ma'nolariga quyidagilar kiradi: 1) fikr yaxlitligi (tugal yoki tugal emasligi); 2) muloqot maqsadi (bayon, savol, xohish); 3) muloqot vazifasi (ma'lum/yangi, tema/rema).

Tanlashda uslubning mos kelish mezoni bo'yicha talaffuzning to'liq uslubi, ya'ni kitobiy, akademik uslub asos qilib olinadi (so'zlashuv uslubi maqbul emas). Kitobiy uslub bir qarashda sun'iyroq ko'rinadi, biroq u o'rta ta'lim uchun mos keladi.

Talaffuzning normativligi mezoni uslub mezoniga yaqin bo'lib, dialektal (shevaga oid) talaffuzni fonetik minimumga kiritmaslik o'lchovi vazifasini o'taydi. Fonetik namuna sanalmish adabiy talaffuzni o'rganish tavsija etiladi.

Keng tarqalganlik mezoni ham uslub va normativlikka o'xshab ketadi. Nutqda keng qo'llanadigan fonetik birliklar tanlab olinadi va talaffuz minimumiga kiritiladi.

Ushbu tanlash mezonlariga ko'ra o'rganilayotgan chet tilning fonetika sistemasidan talaffuz minimumi tanlab olinadi. Mezonlarga rioya qilishda u yoki bu chet tilning fonetik xususiyati e'tiborga olinadi.

O'quvchilar ona tilisi (yoki til tajribasi)ni hisobga olish mezoni esa TO'Mni aniqlashga yordam beradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, TO'Mda talaffuz qiyinchiliklarigina jamlanadi. Biroq TO'Mga kirmaydigan talaffuz minimum birliklari (tovush, tovush birikmasi), fonetik hodisa va intonatsiya butunlay e'tibordan chetda qolmaydi. Ular ko'p miqdorda mashq talab qilmaydi. Ularning taqdim bosqichidan o'tishi o'zlashtirish uchun kifoya.

Inglizcha talaffuzni o'rgatish mazmuni misol tariqasida keltiriladi:

I. Tovushlar: Unlilar: qisqa [i, e, æ, ɔ, u, ʌ, ə]; cho'ziq [i: α:, ɔ:, u:, ə:]; diftonglar [ei, ai, ou, iə, εə, ɔi, au, uə]. Undoshlar [θ, ð, f, v, r, w].

II. Fonetik hodisalar. Undoshlar tizmasining talaffuzi: 1) so'z boshida [sk, sp, st, fl, fr, kl, pj, pl, kw, θr, tr, tw, sw, br, dr, str, stj, spr]; 2) so'z oxirida [ks, ps, sk, ts, st, ns, kt, jt, jn, sn, tn, tl, pl, nd, dz, gz, nz, lz, bz, mz, dn, bl, vz, vm, ld, lm, vd, dz, mp, nt, lts, ndz,

sks, nsl, blz, kst, snz, dnz, dnt, tls, nts, plz, mps, prl, sts, ldz, lmz, ksts, ldrn, nslz, dnst, ldrnz]; 3) so‘z o‘rtasida [ldr, pgl, ntl, ndf, ndm, kst, vnt]. 4) So‘z oxirida jarangli undoshlar [b, d, g, z, d₃, 3, v].

Ushbu TO‘M ro‘yxatidan ko‘rinadiki, unlilar hammasi monoftonglar — 12 ta, diftonglar — 8 ta) va undoshlardan oltitasigina tanlangan, xolos (undoshlar aslida 24 ta).

Undoshlar tizmasidan (consonant clusters) TO‘Mga faqat boshlang‘ich bosqich uchungina xoslari keltirildi.

TO‘M tarkibidagi fonetik birliklarning ko‘pchiligi oppozitsion [i:—i], [ɔ:—ɔ], [u:—u], [a:—ʌ], [ei—ai], [iə—εə] [ou—oi], [uə—u], [au—ou], [e—æ] qiyinchiliklar keltirib chiqarish mumkin.

Akustik qiyinchiliklarga misollar: [f—p], [r—l], [v—w], [θ—s], [t, f], [ð—z, v, d, l, r, w]; *read—red, pupil—people, three—tree.*

O‘zbek maktablari o‘quvchilarining TO‘Mga kirmaydigan talaffuz materiali (ular minimumda bor): 1. Tovushlar [n, j, l, n, p, t, k]; 2) unli-diftong [ɔə]; 3) barcha unli va undoshlarning variantlari. 2. Fonetik hodisalar: 1) aspiratsiya [p, t, k]; 2) unlilar tizmalari (TO‘M tarkibiga kiradigan intonatsiya materiali o‘quv dasturidan joy olgan).

Talaffuz materialining taqsimoti. Leksik va grammatik material taqsimotida birinchi masala aktiv va passivga ajratish edi. Talaffuzda fonetik material taqsimotining o‘ziga xos xususiyati bor. Tinglanadigan (passiv) va aytiladigan (aktiv) talaffuz birliklari birin-ketin emas, balki bir paytda o‘zlash-tiriladi, tinglaganda ichki nutq va aytganda tashqi (ovozli) nutq sodir bo‘ladi.

Talaffuz materiali taqsimlanganda nutq ehtiyojiga qat‘iyan bo‘ysundiriladi. Leksik-grammatik taqsimot uning ketma-ketligini belgilovchi omil hisoblanadi. Shu bois bir sinf uchun chiqarilgan turli darsliklarda talaffuz birliklarining taqsimoti turlicha ekanini kuzatish mumkin, mas. rus yoki o‘zbek maktablari o‘quvchilari o‘rganadigan dastlabki fonetik material solishtirilsa, taqsimotdagi farq keskin ekanligi yaqqol ko‘rinadi. Tafovutning asosiy sababi taqdim etilayotgan nutq namunasidadir. Qaysi namuna berilsa, o‘shandagi tovush, tovush birikmasi, fonetik hodisa, intonatsiya o‘rganilishi shart.

Ma'lumki, chet til o'rgatishning birinchi yilida talaffuz materialining aksariyat birliklari taqsimlanadi. Hatto ayrim darsliklarda birinchi (va ikkinchi) chorakdagina yangi fonetik material taqsimlangan. Tadqiqotchilar isbotlashlaricha, fonetik birliklarning asosiy qismi birinchi o'quv yilida taqsim etilishi qonuniy holdir, chunki bu davrda o'quvchilarning talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish yuzasidan jadal ish olib boriladi. Lekin talaffuz materiali shu yilda yuz foiz taqsimlanadi, deyish g'ayriilmiy mulohazadir.

Fonetik materialni taqsimlashda quyidagi ilmiy-metodik mezonlarga amal qilinadi: 1) nutqiy yo'nalganlik; 2) qiyinchiliklarni tarqatib berish. Mezonlar turli darsliklarda turlicha amal qiladi. Umumiylik shundan iboratki, qabul qilingan leksik-grammatik taqsimot talaffuz taqsimotini oldindan belgilab beradi. TO'Mning umumiy ro'yxati keltiriladi va TO'Mning sinflarga taqsimlanishi qisqacha tahlil etiladi. TO'Mning katta qismi birinchi o'quv yili uchun taqsimlanadi. Keyingi sinfda esa undoshlar tizmasiga oid anchagina yangi birliklar beriladi. Fonetik birliklardan ayrimlari undan keyingi sinflar til materialiga kirishi ham mumkin, mas. inglizcha diftong [uə], undosh [ʒ], so'z oxirida keladigan jarangli undosh [dʒ]. Ular shu sinfda o'rganiladigan leksik birliklarda uchraydi. Talaffuz birligini o'rgatish uchungina atayin leksik birlik jalb etilmaydi, aksincha leksika (shuningdek, grammatika) fonetik materialga nisbatan „hokim“ hisoblanadi.

Fonetik birlik qiyin/osonligining taqsimot tartibiga daxli yo'q. Chunki talaffuzi qiyin hodisalar, qachon o'rganilishidan qat'i nazar, osonga aylanib qolmaydi. Biroq qator qiyinchiliklarning yig'ilib qolishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Qiyinchiliklarni bo'lib berish taqsimotning mezonlaridandir. Mazkur mezon talabiga binoan muqobil assotsiatsiya uyg'otadigan, oqibatda qiyinchilikka olib keladigan hodisalar tarqatib beriladi, mas. *work—walk, farm—form*. Bunday akustik jihatdan murakkab birliklar bir darsda berilmasligi kerak. Bir so'zda bir necha qiyin tovushlar bo'lsa, ularning taqsimoti quyidagicha hal qilinadi: ushbu tovushlardan ayrimlari boshqa so'z tarkibida, albatta, zarur nutqiy birliklarda taqdim etiladi, mas. chet tilda „universitet“ so'zidagi qator qiyin unlilar boshqa so'zlarda taqdim etilgach, keyinchalik bu leksik birlik beriladi. Chet til va ona tili (shuningdek, ikkinchi til) fonetik sistemalarning

muqoyasasi va o'qitish tajribasi ko'rsatishicha cho'ziq va qisqa unlilar oppozitsion qiyinchilik keltirib chiqaradi. Ularning juftlari bir vaqtda emas, boshqa-boshqa darslarga taqsimlanadi.

Talaffuz materiali, grammatika singari har yoqlama (universal) taqsim qilinmaydi, balki til materiali nutq uchun yaxlit tarzda taqsimlanadi.

Talaffuz materialining tasnifi. Eng qulay metodik yo'l talaffuz ko'nikmasini hosil qilish uchun fonetik material uslubiy mos holda tasniflanadi.

Chet til o'qitish metodikasida ikki xil tasnif ishlab chiqilgan. Birinchisi, fonetik minimumga kiritilgan barcha birliklarni oson/qiyinga ajratish orqali talaffuz o'rgatishning oqilona metodik usullarini topishga yo'llaydi. Bunda ona tili talaffuz ko'nikmasiga asoslanib, chet til talaffuzini o'rgatish bo'yicha ilmiy izlanishlar natijalari keltiriladi. O'rta maktabda chet til o'qitish metodikasi darsligi (ruscha, Moskva, 1982, mualliflaridan S. K. Folomkina)da ingliz, nemis, fransuz tillari tovushlarining rus maktablari uchun uch toifa qiyinchiliklari farqlab berilgan. Ushbu tillardagi tovushlar artikulyatsion va akustik murakkabliklari jihatidan (1) ona tiliga yaqin, (2) ona tiliga o'xshash va (3) ona tiliga yot bo'lgan hodisalar sifatida tasniflanadi. Nutq qiyinchiliklaridan tashqari, oppozitsion va pozitsion guruhlar ham amaliy ishlab chiqilgan. Bu tasnif o'zbek metodistlari xizmatining mahsuli bo'lib, keng ilmiy metodik jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Jumladan, Moskvada 1981-yil chop etilgan sobiq SSSR Pedagogika Fanlari Akademiyasi yetakchi ilmiy xodimlari qalamiga mansub „O'rta maktabda chet tillarni o'qitish metodikasi nazariy asoslari“ nomli (ruscha) monografik asarda o'zbek metodist olimlari tadqiqotlaridan bevosita foydalanib, talaffuz materialining tasnifi keltiriladi.

Ikkinchi tasnifga ko'ra TO'Mni tashkil etadigan qiyin birliklarga ma'lum to'rt (artikulyatsion, pozitsion, oppozitsion va akustik) guruhga bo'linadi.

Tasnif mazmunidan ayonki, unda tovush, tovush birikmasi va fonetik hodisalar qamrab olingan. Intonatsiya (ohang) tasnifi alohida turni tashkil qiladi.

Har bir chet til talaffuz materiali bilan ushbu mavhumlashtirilgan tasnif turlarini amaliy jihatdan aniqlash talab

etiladi. Chet til fonetik sistemasidagi birliklar o'quvchi ona tilisini (til tajribasini) hisobga olgan holda tasnif etiladi.

Muayyan tildagi talaffuz birliklarining metodik tasnifi talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish yuzasidan o'tkazilgan taqdimot, mashq qilish va qo'llanilish bosqichlarida e'tiborga olinadi.

Ushbu paragrafda iste'molda bo'lgan ilmiy terminlar izoh talab qiladi. Eng kichik tushunchani ifodalovchi metodik termin „talaffuz birligi“dir. U tovush, tovush birikmasi, fonetik hodisa va intonatsiya (ohang)ni o'z ichiga oladi. „Fonetik hodisa“ esa tovushning so'z/bo'g'indagi o'rni (mas. so'z oxiridagi jarangli undosh), tovushlar oppozitsiyasi (qisqachoz'ziq unli) kabilarni ifodalaydi. Eng yirik tushunchani bildiruvchi termin „fonetik sistema“dir. Ona tili, ikkinchi va chet tillarning fonetik sistemalari nazarda tutiladi.

Fonetik sistema obyektiv mavjud yig'indi, til sistemasining bir qismidir. Fonetik material esa ushbu sistemadan kishi bilishi mumkin bo'lgan birliklar majmuasidir, uni subyektiv yig'indi deyish mumkin. Fonetik materialda asosiy birliklar va ularning variantlari bo'lib, ikkinchilari faqat muallimlarga tegishli (chunki muallimlar taqribiy talaffuzni emas, to'g'ri, aniqrog'i normativ talaffuzni egallashlari kerak).

Fonetik materialdan o'quvchilarga mo'ljallangan fonetik minimum tanlanadi, bu o'quvchilar uchun fonetik material hisoblanadi. Fonetik minimumdan, o'z navbatida, talaffuzni o'rgatish mazmuni ajratib olinadi.

Terminlar orasida quyidagilar ma'nodosh hisoblanadi: fonetik/talaffuz materiali/minimumi, fonetik/talaffuz birligi, nutqning talaffuz/fonetik jihati, fonetik/talaffuz mashqi, artikulyatsiya/aytish, fonetik/talaffuz hodisalari, fonetik/talaffuz qiyinchiliklari, tovush/fonema, taqribiy/approksimatsiyalashgan talaffuz.

Fonetikani o'rganish va talaffuzni o'rganish so'z birikmasi farqli ma'noda qo'llanadi. Birinchisi faqat chet til mutaxassislariga, ikkinchisi o'quvchilarga daxldor. Darslikdagi o'qilish qoidasi (harf-tovush munosabati)ni o'rgatishga qaratilgan mashqlarni bilib-bilmay fonetik mashq deyish g'ayrimetodik fikrdir.

Talaffuzga oid terminlarni umumiydan xususiyga qarab iyerarxik usulda joylashtirganda, mana bunday tartib hosil

bo'ladi: fonetik sistema → fonetik/talaffuz materiali → fonetik/talaffuz minimumi → talaffuzni o'rgatish mazmuni → fonetik/talaffuz birligi.

Talaffuzga doir tushunchalarni o'zlashtirib, talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishga kirishgan muallim metodik jihatdan savodli ish tutgan bo'ladi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Taqribiy (approksimatsiyalashgan) talaffuzni egallash haqida yoritilgan metodik ma'lumotni tahlil qiling.

2. Fonetik/talaffuz minimumini tanlash prinsip (mezon) larini muhokama qilishga tayyorlaning.

3. Talaffuzni o'rgatish mazmuni (TO'M)ga doir mulohazalaringizni bayon eting.

4. Fonetik materialning taqsimoti va tasnifini qisqacha tavsiflab bering.

2-§. Talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish

Talaffuz materialining taqdimoti. Talaffuzni o'rgatish chog'ida ko'p narsa o'quvchilarni talaffuz birligi bilan „tanishtirish“ tushunchasining metodik izohini bilishga bog'liq. Tanishtirish deganda, fonetik birlikni muallimning aytishi va o'quvchilarning eshitishi tushuniladi. Talaffuz birligini yolg'iz, so'zda yoki gapda taqdim etish usullari muammosini xolisona hal qilish talaffuz ko'nikmasini shakllantirishda muhimdir. Ushbu usullarning o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari bor.

O'zbek maktablarida chet tildagi talaffuzni o'rgatishda muallim umumiydan xususiyligga qarab faoliyat yuritishi, o'quvchi esa xususiyligdan umumiyga o'tishi tajribada isbotlangan optimal metodik yo'ldir.

Ingliz tili materiali asosida o'tkazilgan eksperimental tadqiqot ko'rsatishicha, tovushlarni talaffuz qilish jarayonida o'quvchilar quyidagi tartibda ish tutishlari ma'qul: 1. Tovushlarni yolg'iz aytish: „o'xshamaydigan“ undoshlar [θ, ð, r, w, f, v] „o'xshamaydigan“ unlilar [ɔ, u, ou, ai, εə, uə] „yaqin“ unlilar [æ, ɔ:, a:, u:, ʌ, ə:, ə] 2. So'zda aytish: so'z oxiridagi jarangli undoshlar [b, d, g, z, v, ð, dʒ, ʒ]; „o'xshash“ unlilar [i:, i; e; ei; ai, au, ɔi]; oppozitsion qiyinchilik tug'diradigan tovushlar (unlilar va undoshlar);

3. Jumlada aytish: „o‘xshash“ undoshlar [m, ʒ, g, j, b, s, z, n, d, p, t, k] (bundan so‘z oxirida uchraydigan jarangli undoshlar istisno); „o‘xshash“ undoshlar [b, d, g, z] (so‘z oxiridagi [dʒ] dan tashqari).

Keltirilgan tartib faqat tovushning dastlabki taqdim etilishiga taalluqlidir. Keyingi bosqichlarda ya‘ni ko‘nikma va malaka hosil qilish jarayonida tovushning qo‘llanilishi nutq amaliyoti bilan chambarchas bog‘lanadi.

Xullas, taqdim etish usullari uchta: yolg‘iz, so‘zda va jumlada aytish va eshitish. Talaffuzni o‘rgatish usullari tovushning oson/qiyinlik darajasi bilan bog‘liq. Chunonchi, o‘quvchi ona tilisi (yoki til tajribasi) nuqtayi nazaridan „o‘xshash“, „yaqin“, „o‘xshamaydigan“ birliklarni farqlash mumkin.

Yolg‘iz aytiladigan unli va undoshlar o‘ta qiyin, so‘zda aytiladigan unli, undosh fonetik hodisalar o‘rtacha qiyinlikda bo‘lib, jumlada aytiladigan unli va undoshlar oson fonetik birliklarni tashkil etadi.

Qiyin hisoblanadigan yangi tovush talaffuzining o‘rgatilishi quyidagi ta‘limiy bosqichlardan o‘tadi.

1. Muallim ijrosida nutq namunasining aytilishi va o‘quvchilar tomonidan eshitish bosqichi. O‘quvchilar diqqati jumla mazmunini va undagi yangi so‘zning ma‘nosini tushunib olishga qaratiladi. Yangi tovushni muallim, avvalo, jumlada, so‘ngra so‘zda aytadi, o‘quvchilar tinglab idrok etishadi.

2. Fonetik birlikning sintetik (yaxlit) tarzda idrok etishdan analitik (qismlarga bo‘lib) tinglashga o‘tiladi. Muallim so‘zdagi yangi tovushni ajratib aytadi hamda uning artikulyatsiyasini lo‘nda qilib tushuntirib beradi, ya‘ni qisqa qoida-ko‘rsatmani bayon etadi. (Talaffuzga doir qoida haqida quyida ma‘lumot beriladi.) Muallim ko‘rsatmasiga binoan o‘quvchilar nutq organlarini mazkur tovushni aytishga tayyorlaydilar. Muallimning talaffuzi va tushuntirishlari bunga ko‘maklashadi. Ikkinchi bosqich — tovushni ovoz chiqarib aytishga tayyorgarlik — uni ichki nutqda aytishni ta‘minlaydi.

3. Eshitib idrok etish va ichda aytishdan ovoz chiqarib talaffuz qilishga o‘tish bosqichi. Yangi tovush namunasini muallim aytib ko‘rsatadi, o‘quvchilar birgalikda va yakka-yakka bo‘lib takrorlaydilar. Shunday qilib, tahlil va taqlid yo‘li bilan yangi tovushning yolg‘iz holdagi talaffuzi o‘rganiladi.

4. Yangi tovushni boshqalari bilan biriktirib aytish bosqichi. Tovush o'rganilgan tovushlar bilan birikmalarda aytiladi. Imkon boricha unli va undosh birikmalari mashq qilinadi.

5. Yangi tovush so'zda aytiladi. Muallimdan ibrat olib, o'quvchilar xor va yakka-yakka bo'lib talaffuz etadilar. Mabodo so'zda ikkita yangi tovush bo'lsa, ulardan biri avval puxta o'zlashtiriladi, so'ngra ikkinchisi aytiladi (qiyinchiliklarni tartib berish mezoniga amal qilinadi). Oxirida so'z talaffuz qilinadi. Bu bosqich tovushning ma'no anglatish xususiyati (fonema)ni o'rgatishga bag'ishlanadi.

6. Endi yangi tovush jumla tarkibida talaffuz etiladi. Muallim boshlaydi, o'quvchilar taqlidan qaytaradilar. So'zning tovush va ma'no ifodasi bevosita jumlada shakllanadi. Bu bosqichda jummalarni aytish — axborot almashish darajasida mashq qilish demakdir.

7. Yangi o'zlashtirilgan tovushni mustahkamlash bosqichi. Turli talaffuz sharoitida, ya'ni kichik va katta kontekstda, shuningdek, yolg'iz, so'zda va gapda o'rganilayotgan tovush erkin qo'llanadi.

8. O'quvchilar til tajribasida mavjud tovushlar bilan yangi tovushni chalkashtirmasliklari uchun mashqlar bajarish lozim (ona tili va ikkinchi til tovushi bilan qiyoslash va ilgari o'zlashtirilgan chet tildagi tovushlar bilan solishtirish kabilar). Qiyoslash va solishtirish yolg'iz, so'zda va jumlada aytiladigan tovushlar asosida mashq qilinadi. Ushbu yakuniy bosqichda ham muallim rahnamoligida mashqlar bajariladi.

Bajariladigan mashqlar tegishli nutq vaziyatlarida o'tadi. Ulardan kuzatiladigan birlamchi maqsad axborot olish yoki yetkazish sanaladi, qo'shimcha vazifa muayyan tovushni aytish hisoblanishi mumkin.

Tavsiya etilgan yangi tovush talaffuzini o'rgatishning sakkiz bosqichli taqdimot pallasini quyida inglizcha [w] fonetik birligi orqali namoyish etiladi.

Muallim *What is your name?* jumlasini aytadi. Mashqda *what* so'zini bir necha bor takror talaffuz qiladi. Jumla mazmuni va so'z ma'nosi ochilgandan keyin, ushbu so'zdagi yangi tovushni bir necha bor ajratib aytadi. Muallim talaffuzida tovush namunasini tinglash orqali o'quvchilarda tovushning dastlabki eshitish tasavvuri paydo bo'ladi. Muallim oddiygina qilib tovushning artikulyatsiyasi haqida amaliy

ko'rsatma beradi: lablar dumaloq holda oldinga cho'chchaytiriladi. Shu paytning o'zida tovushni takror-takror aytib ko'rsatadi. O'quvchilar muallim taklifi bilan lablarini talaffuz holatiga keltirishni mashq qilishadi.

Muallimga taqlidan ergashib o'quvchilar tovushni xor bilan va yolg'iz aytadilar, ya'ni tovush artikulatsiyasi amalini egallaydilar.

Yangi tovushni muallim, so'ngra o'quvchilar [wə] tovushlar birikmasida aytadilar. Endi so'z ishtirokida mashq bajariladi (keyinchalik *twelve, twenty* so'zlari taqdimoti davrida, avvalo, *we, wel, wen, twel, twen ...* kabi undosh+unli, undosh+undosh birikmalarni aytish maqsadga muvofiqdir).

Navbatdagi bosqichda yangi tovush jumla tarkibida o'rganiladi. Muallim unda rahbarlik qiladi.

Yangi tovush ishtirokida qiyoslash-solishtirish mashqini bajarish bilan oxirgi bosqich yakunlanadi. Ilgari o'rganilgan *give* so'zidagi [v] undoshi bilan yangi tovush qiyosan talaffuz etiladi. O'quvchilarning e'tibori ikkala undosh orasidagi farqni, ya'ni lab ishtirokini ilg'ab olishga qaratiladi; [v] tovushini aytganda pastki lab va yuqoriqi tishlar qatnashadi, [w] tovushida esa faqat lablar harakatga keladi (oddiy ko'rsatma-qoida yordamida nutq organlari faoliyati uyg'unlashtiriladi).

Ona tili (yoki ikkinchi til) tovushlari bilan chet tildagi tovushni solishtirish mashqi o'tkaziladi. Ularning farqini fahmlab olish uchun muallimning [w] — [v, u] tovushlarini birikki namunali talaffuzi kifoya qiladi.

Yangi tovushning mustahkamlanishiga *What is your name?* jumlasini og'zaki nutq mashqlarida aytilishi tufayli erishish maqbuldir. O'quvchilar savol-javob mashqlari bajarishganda (— *What is your name? — My name is N.*) ushbu tovushni yakuniy mustahkamlashga qo'shimcha imkoniyat tug'iladi.

Yangi tovush taqdimoti sakkiz bosqichli bo'lishidan cho'chchimaslik kerak. Birinchidan, kam sonli o'ta qiyin tovushlarga bunchalik ko'p bosqichli taqdimotga loyiq, xolos. Qolaversa, ularning amaliyotda bajarilishi aytarli ko'p vaqt talab qilmaydi. Har bir bosqich navbatdagisi bilan o'quvchilarga unchalik sezdirmasdan almashinadi. Bir tovushni taqdim etish oldin o'rganilgan talaffuz, leksik va grammatik materiallarni takrorlash va nutqiy mashqlarni bajarish jarayonida kechadi.

Qiyin tovushni taqdim etish davrida muallim talaffuziga taqlidi va artikulatsion tahlili keng qo'llanadi.

Chet tildagi yangi tovushning taqdimoti taqlidiy va tahliliy ish turlarini talab etadi. Ular metodika ilmida talaffuz o'rgatishning imitatsiya (taqlid) va analiz (tahlil) metodlari nomlari bilan yuritiladi (bu o'rinda „metod“ usul ma'nosini ifodalamoqda).

Taqlidiy metod — tabiiy va sodda. Lekin u tilni, jumladan, uning talaffuz tomonini ongsiz o'zlashtirishga asoslanadi. Fonetik birliklarni anglab yetmasdan yaxlit tarzda biron-bir namunaga binoan (mas. muallimga ergashib) o'zlashtirish metodiga taqlid nomi berilgan. Tovushlar monandligi (analogiya)ga suyanib, uning fahmiga bormasdan idrok etilsa yoki aytilsa, taqlidiy o'rganish sodir bo'ladi.

Taqlid muallimdan ibratli talaffuzni, o'quvchidan o'tkir eshitish qobiliyatini talab qiladi.

Tahliliy metod, aksincha, ong ishtirokida ish ko'rishni taqozo etadi, natijada bir yo'la o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi. Talaffuz birliklarini anglab, fahmiga yetib idrok etish va aytish tahlil orqali bajariladi. O'quvchi til tajribasidagi fonetik birlikka o'xshamaydigan chet tildagi tovush yoki talaffuz hodisasini o'rgatishda muayyan mavhumot (qoida, tahlil)ni qo'llash maqbuldir.

Ma'lumki, biror namunaga asoslanish tufayligina ko'nikmani shakllantirish mumkin. Namunaviy talaffuz muallim (yoki ayrim hollarda, mas. intonatsiyani namoyish etganda, diktor) nutqida kuzatiladi. Namuna o'quvchilar uchun suyanchidir. Faoliyat muqaddimasida doimo kimgadir suyanish kerak bo'ladi. Biroq suyanchiq — muvaqqat vositadir, u mustaqillik sari borishga yordamchi pog'ona bo'lishi mumkin. Mustaqil faoliyat ko'rsatish ongliklik bilangina amalga oshadi. Binobarin, chet tildagi talaffuzni egallashga tahliliy metod yordamida erishiladi. Taqlidiy metod amal qilganda o'quvchi til tajribasida to'plangan ko'nikmaga tayaniladi, demak, ko'nikmaning ijobiy ko'chish holatiga duch kelinadi.

Taqlidiy metod yolg'iz o'zi qo'llanilishi mumkin, qachonki mavjud talaffuz ko'nikmasi ijobiy ta'sir etganda, biroq tahliliy metodning bir o'zi hech qachon yetarli bo'lmay, hamisha taqlid ishtirok etadi.

Tovush qiyinchiligi darajasi uni tinglaganda qoldiradigan eshituv taassuroti bilan o'lchanadi. Qiyinchilikning quyidagi

belgilarini ko'rsatish mumkin: eshitganda ona tili (yoki ikkinchi til) tovushlaridan hamda o'rganib olingan chet tildagi yaqin tovushdan farqining yaqqolligi; ko'rish va nutqiy a'zo muskullari sezgilariga qay darajada suyanib ish tutish imkoniyati; nutq organlarining ona tili (yoki ikkinchi til)dagi harakat tarzi chet tildagi tovush talaffuzi uchun mos kelishi hamda ikkalasining tafovutini tez fahmlay olish kabilar.

Chet tildagi tovushning taqdimotida uning bilan tanishtirish turlicha bo'lishi mumkin: ba'zi tovushlarga eshituv taqlidini, ayrimlariga ko'ruv tahlili va boshqalariga aytilishining verbal tahlili singari metodik yo'l-yo'riqlar qo'llanadi. Shu munosabat bilan taqlid yoki tahlil metodlaridan foydalanish zaruriyati kelib chiqadi.

Tovushlarning qaysi toifaga kirishi talaffuz o'rgatish metodini belgilovchi omil bo'ladi. Mas. o'xshash fonetik birliklarni o'rgatayotganda tahlilga hojat sezilmaydi, ular taqlidan o'zlashtiriladi. Yoki chet tilning talaffuz birligi o'quvchilar til tajribasidagidan jiddiy tafovut qilsa, shubhasiz, tahlil metodi qo'l keladi.

Taqlid metodidan „o'xshash“ undosh va unililar taqdimotida foydalaniladi. Ikkinchi toifadagi tovushlar — „o'xshamaydigan“ unli va undoshlar tahlil yo'li bilan taqdim etiladi. Uchinchi turdagi fonetik birliklar — „yaqin“ unililar taqdimoti tahlil-taqlid metodi yordamida amalga oshiriladi, to'rtinchi qismdagi tovushlar — „yaqin“ undoshlar esa taqlid+tahlil metodlari bilan o'rgatiladi.

Tovush birikmalari va fonetik hodisalarning taqdimoti alohida izoh talabdir. Ularni o'rgatishda qo'llaniladigan metodlar o'ziga xos tartibni yuzaga keltiradi.

Tahlil metodi quyidagilarni o'rgatishda amal qiladi: 1) so'z oxiridagi jarangli unililar; 2) undoshlar tizmasi (biroq so'z ichida ikki undosh qator kelgan holatda taqlid ishlatiladi). Unli va undoshlar oppozitsiyasi tahlil+taqlid qo'shma metodi ko'magida o'rgatiladi.

So'z o'rtasida uchraydigan ikki undosh tizmasini va qator kelgan unililarni o'rgatish chog'ida taqlid metodining afzalligi bilinadi.

Mazkur metodik yondashish til materialini og'zaki shaklda taqdim etilishini nazarda tutadi. Yozuv paydo bo'lishi bilan uning talaffuzini o'rgatishga yordami tegadi.

Soʻzlarning grafik timsoli taqdimoti tufayli quyidagi fonetik hodisalarning oʻrganilishi osonlashadi va jadallashadi: undoshlar tizmasi, soʻz oxiridagi jarangli undosh, unlilar choʻziqligi (choʻziqlikni bildiruvchi ikki nuqta (:)) belgisi yordam qiladi) undoshlar oppozitsiyasi, akustik qiyinchilik tugʻdiradigan fonetik hodisa kabilar. Shunday hollarda grafik timsolga tayanish metodi amal qiladi.

Demak, talaffuz taqdimoti chogʻida, asosan, taqlid, tahlil, tahlil+taqlid, grafik timsolga tayanish singari metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Tahlil tushunchasi mavhumot bilan fikran aloqaga kirishi mumkin. Mavhumot deganda qisqa va sodda bayon etiladigan talaffuz qoida-koʻrsatmasi koʻzda tutiladi.

Shuni takror eslatish joizki, har qanday verbal koʻrsatma talaffuz namunasini namoyish qilish bilan birga, amaliyot bilan sodda nazariya qoʻshib olib boriladi. Xuddi grammatikada izohlanganidek, talaffuzga oid qoidalar ham nazariy fonetika maʼlumotlaridan butunlay farq qilgan holda sof amaliy vazifani oʻtaydi.

Quyidagi inglizcha qiyin undoshlar va unlilar talaffuziga oid maktab tajribasi isteʼmolidagi qoidalarni keltirish oʻrinlidir: [θ—ð] — biroz yoyilgan tilning uchi tishlar orasidan chiqariladi, oraliqdan havo sirgʻalib oʻtadi (havoning chiqishini kaftingizni tutib bilsangiz boʻladi). Jarangsiz va jarangliligi, bunga qoʻshimcha qilinishi mumkin.

[f—v] — yuqori lab va pastki tishlar birlashadi, ular oraligʻidan havo oʻtib turadi.

[w] — lablar dumaloq holda oldinga choʻchchaytiriladi. Undan keyin keladigan unli talaffuzi [w] talaffuziga ulanib ketadi.

[r] — qalam yoki ruchka chekkasini salgina tishlab, oʻzbek tili (r) undoshini ayting. Shirin, shakar soʻzlaridagi (r) tovushi bunga asos boʻladi. Inglizcha [r] talaffuzida til uchi titramaydi, deb qoʻshimcha qilinadi.

[iə] — [i] unlisini kuchliroq va [ə]ni kuchsizroq ayting, soʻngra ikkalasini bir tovush [iə] sifatida talaffuz eting.

[uə] — [u] unlisini ayting. Endi murakkab unli [uə]ni ayting. Birinchi qismi kuchliroq, ikkinchisi kuchsizroq talaffuz etiladi.

[eə] — [ɛ] va [ə]ni ayting, ikkalasini qo'shib [eə] ayting. O'zbekcha (EYA) bilan chalkashtirmang.

[ou] — birinchi qismi [ɔ]ga o'xshamaydi, [o] deyiladi. Endi [u]ni ayting, ikkalasini qo'shing [ou] va h.k.

Qiyoslash ham ma'lum darajada tahlil hisoblanadi, mas. *John* — jon, *had* — had, *sing* — sing(lim). Bu yerda qoidaga zaruriyat sezilmaydi.

Chet til o'rgatish chog'ida yuqorida ta'rif berilgan talaffuzni o'rgatish usullari (yolg'iz, so'zda, jumlada) hamda metodlari (taqlid, tahlil, taqlid+tahlil, tahlil+taqlid, grafik timsolga tayanish)ni bilish muallim pedagogik faoliyatini boyitadi va o'quvchilarga chet tildagi talaffuzni o'rgatish ishini jadallashtirishga nafi tegadi.

Talaffuz birliklarining taqdimoti masalasiga umumiy yakun yasab, shunday xulosa chiqarish mumkinki, chet tildagi talaffuzni o'rgatish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi: 1) fonetik birliklarni idrok etish va aytishga mo'ljallab artikulasiya hamda eshitish nutqiy a'zolarini ishga solish (sozlash); 2) talaffuzni dastlabki mustahkamlash; 3) talaffuzni yanada mustahkamlash va takomillashtirish.

Leksik va grammatik ko'nikmalarni shakllantirish pallasida taqdimotdan keyin leksik, grammatik birlikning mashq qilish hamda qo'llash bosqichlaridan o'tishi tavsiya etilgan. Ushbu bosqichlar talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishda ham bo'lishi aniq, lekin fonetik birlik leksik va grammatik birliklar tarkibida mashq qilinadi hamda qo'llaniladi. (Binobarin, ikkala bosqich bu yerda maxsus yoritilmaydi.)

Talaffuz birliklarini o'qish texnikasini o'rgatishda jumladan, fonetik transkripsiyadan foydalanishda ham mashq qilish, ham qo'llash bilan birvarakay shug'ullaniladi. Biroq u paytda fonetik mashqlar nomi bilan yuritilmaydigan, o'qish texnikasi (yoki o'qilish qoidalari)ni o'rgatishga mo'ljallangan mashqlarga duch kelinadi.

Til materialini egallashga qaratilgan mashqlar orasida talaffuzni o'rgatadigan maxsus fonetik mashqlar sistemasiga to'xtalish zarur.

Fonetik mashqlar. Fonetik mashqlarni bajarish oqibatida chet tildagi talaffuz ko'nikmasini hosil qilishga erishiladi. Mashq deganda, muayyan tarzda tashkil etiladigan va biror amalni qayta-qayta bajarishga, uni egallab olishga hamda

bajarish usullarini takomillashtirishga yo'naltirilgan aqliy harakat tushuniladi¹.

Chet til o'qitish metodikasida mashqlar nihoyat keng muhokama qilingan, lekin bu munozarabop o'rinlari ko'p metodik muammodir. Ilmiy izlanishlar va pedagogik voqelik ma'lumotlariga tayanib, fonetik mashqlar sistemasini quyidagi nazariy mulohazalar doirasida tuzish (ishlab chiqish) va o'tkazish (bajarish) tavsiya etiladi:

1. Talaffuz qiyinchiliklarini inobatga olib, fonetik mashqlarni artikulatsion, pozitsion, oppozitsion va akustik mashqlarga bo'lish mumkin.

2. Nutqiy muloqotning ikki tomonlama jarayonligini nazarga olinsa, fonetik mashqlar retseptiv va reproduktiv toifalardan iboratligi ma'lum bo'ladi.

3. Nutqiy ko'nikmalarining hosil bo'lish bosqichlarida shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi fonetik mashqlar bajariladi.

O'zbek maktablari ingliz tili darsliklari materiallari asosida ishlab chiqilgan fonetik mashqlardan quyida namunalar keltiriladi.

Shakllantiruvchi mashqlar.

Retseptiv shakllantiruvchi mashqlar. Boshlang'ich davrda chet tildagi nutqni eshitish qobiliyatini o'stirishga katta e'tibor beriladi. Tovushlarning farqiga borishning ahamiyati metodikada ishonchli dalillar bilan isbotlangan². Maxsus eshitish mashqini bajarmasdan o'quvchilar o'z talaffuz xatolarini seza olmaydilar. Shuning uchun ham eshitish qobiliyati pastligi talaffuzda yo'l qo'yiladigan xatolarning sabablaridan sanaladi. Quyida eshitish va nutq tovushlarining farqiga yetish ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltirilgan mashqlardan ayrimlari ko'rib chiqiladi:

1. Eshitgan so'zingizdan [æ] (falon) tovushni ajrating. Mas. *I see a hat* jumlasidagi *hat* so'zini eshitib, tovushini

¹ И. Д. Салистра. Очерки методов обучения иностранным языкам. Система упражнений и система занятий. — М: Высшая школа, 1966. — 40-бет.

² В. Ф. Занглигер. Формирование иноязычного фонематического слуха на начальном этапе обучения английскому языку в средней школе: Канд. дисс. — М., 1967; G. E. Hutter. Children's Evaluations of their Own Articulation of Selected Sounds. Ohio State University, 1966.

farqlab beradi, tovush birinchi marta eshitalishida uning soʻzda nechanchi oʻrindaligini aytadi.

2. Falon tovushni oʻz ichiga olgan soʻzni ajrating: *I see a hat*. Gapda soʻzning oʻrnini aytadi.

3. Gapda falon tovush necha marta ishlatilganligini ayting: *I see a hat and a cap*. Oʻquvchilar soʻzning gapda necha marta va qaysi oʻrinlarda (4,7) aytilganligini topadilar.

4. Soʻzlarda aytilgan tovushlar juftini eshiting va ularni farqlang (kichik oppozitsiya): *seat—sit*. Bir xil tovushni eshitganlarida, oʻquvchilar jim oʻtirishadi: *seat, seat*, turli tovushlarni eshitganlarida: *seat—sit*, ular qoʻllarini koʻtaradilar.

5. Quyidagi uch soʻzni eshiting va [i:] tovushi necha bor talaffuz etilganligini aniqlang: *seat—sit—seat* (murakkab oppozitsiya).

6. Quyidagi toʻrt soʻzni eshiting va ularda falon tovushni necha marta (qaysi oʻrinlarda — raqam bilan) talaffuz etilganligini aniqlang: *seat—sit—seat—seat* (toʻrttalik oppozitsiya),

7. Eshiting va qaysi tovushlar soʻzlarni farqlab turishini (oʻrinlarini aytib) aniqlang: *see—tree* (birdan ortiq muammoli tovushlarning oppozitsiyasi).

8. Eshiting va soʻzlarni bir-biridan farqlovchi unlilarni aniqlang (ularning oʻrni raqam bilan aytiladi: *people—pupil*); (akustik qiyinchilik oppozitsiyasi).

9. Eshiting va soʻz oxiridagi undoshlarga eʼtibor bering: *hat—had* (jarangli va jarangsizlar til ichki oppozitsiyasi), qaysi soʻzda jarangli va qaysinisida jarangsiz undosh talaffuz etilganini aytadilar.

10. Eshiting va quyidagi tovushlarga eʼtibor bering: [r], [w] — (R), (V), inglizcha va oʻzbekcha undoshlarning oʻrnini belgilaydilar (tillararo oppozitsiyani farqlash).

Reproduktiv shakllantiruvchi mashqlar. Chet tildagi nutqiy birliklarning dastlabki talaffuz qilish koʻnikmalarini shakllantirishga moʻljallanadi.

1. Tovushni yolgʻiz, soʻngra soʻzda va gapda qaytaring (muallim aytadi, oʻquvchilar takrorlaydilar).

2. Tovushlar birikmalarini qaytaring (soʻz boshida, oxirida va ichida).

3. Farqlash maqsadida tovushlarni qaytaring: choʻziq va qisqa.

4. Soʻzlar — *lamp, cap, bed* tarkibidan ajratib, unlilarni takrorlang: [æ—æ—e].

5. Lablar harakatini kuzatib, soʻzlarni ayting: *book, robe, father*.

6. Unlilar (undoshlar) oppozitsiyasini ayting. Oldin unlilarni (undoshlarni) alohida, soʻngra soʻzlarni ayting.

7. Soʻz oxiridagi undoshlarni ajratib alohida ayting: *robe, bag, live*. Soʻzning oxirida jarangli yoki jarangsiz undosh kelishini aytib bering.

8. Soʻzlardagi unlilarni almashtirib ayting: *too, day, read, my*. Ilgari oʻrganilgan soʻzlarni aytishadi: *tie, do, red, may*.

9. Soʻzlardagi undoshlarni almashtiring: *too, day, bad*. Oʻrganilgan soʻzlarni aytadilar: *do, may, hat*.

10. Soʻzning boshida (oxirida, oʻrtasida) kelgan unlini ajratib ayting (mas. *play*. Oʻzbekcha soʻz oxirida „y“ qoʻllanilishi munosabati bilan, odatda oʻquvchilar [e] bilan [j] tovushlarini xato qilib ajratadilar).

11. Soʻzdagi tovushlar miqdorini sanang (mas. *play* soʻzidagi uchta tovush oʻrniga toʻrtta hatto beshta tovushni [plej], [palei] deb, xato qiladilar. Ona tilining salbiy taʼsiri koʻrinib turibdi).

12. Jarangli undosh (choʻziq, qisqa, murakkab unli) bilan tugaydigan soʻzlarni ayting (mas. oʻquvchilar *bed, bag, pens, live, see, tree, four, play, go, my* soʻzlarini aytadilar).

13. Falon tovush ishtirokida faloncha soʻz ayting.

Rivojlantiruvchi mashqlar.

Ushbu turdagi mashqlar talaffuzda egallangan dastlabki koʻnikmani mustahkamlash uchun bajariladi. Ularda oʻquvchilar kichik-kichik sheʼrlar, tez aytishlar, ayrim maqol va matallarni yod oladilar. Shuningdek, ashula, oʻyin, topishmoqlar kabilarni ham oʻrganishadi. Darslikda tavsiya etilgan juftnutq (dialog) va yakkanutq (monolog)larni oʻrganish ham yaxshi natijalar beradi.

Ikki, uch va toʻrt tovushni qiyoslash mashqlari ham tavsiya etiladi. Har bir zidlovda yagona muammoli tovush taqqoslanadi, xolos. Bunday mashqlar darslikda oʻqish uchun berilgan soʻzlar materialida bajariladi. (Bu mashqlar koʻproq oʻqish texnikasini oʻrgatishda qoʻllanilishi tufayli oʻquvchilarga

notanish soʻzlarni ham qamrab oladi.) Sof fonetik mashqlarda faqat oʻrganilgan soʻzlargina ishtirok etadi.

Oppozitsion va pozitsion qiyinchiliklarni bartaraf etishga moʻljallangan ushbu mashqlar, birinchidan, til ichki interferensiyasi oldini olish, ikkinchidan, soʻz oxirida jarangli aytiladigan undoshlar talaffuzini mustahkamlash, uchinchidan, qisqa va choʻziq unlilarni chalkashtirmaslik, toʻrtinchidan, unlilar interferensiyasiga yoʻl qoʻymaslik va, beshinchidan, ikkita dan ortiq unlilar orasida interferensiya hodisasining kelib chiqmasligi kabi maqsadlarni koʻzlab bajariladi.

Fonetik hodisalardan undoshlar tizmasi, undosh va unli birikmasi, unlilarning qator kelishi oʻquvchilar oʻrgangan materialida bajariladigan mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

Takomillashtiruvchi mashqlar.

Ogʻzaki yoki yozma nutqni rivojlantirish jarayonida bunday mashqlar talaffuz koʻnikmasining avtomatlashuvi uchun moʻljallanadi. (Tovushni taqdim etish va mashq qilish (mustahkamlash) bilangina kifoyalanish yetarli emas, shuningdek, qoʻllanilish bosqichidan ham oʻtkazish kerak.) Ogʻzaki nutqda qoʻllanilish mashqlariga quyidagilar kirishi mumkin:

1. Rasmda ifodalangan narsalar nomlarini aytish va ular ishtirokida gaplar tuzish. Oʻquvchilarga tegishli qiyinchiliklar keltirib chiqaradigan fonetik birliklarni oʻz ichiga oladigan soʻzlar aytiladi.

2. Boʻsh joylarni toʻldirib gaplarni aytish. Qiyin sanaladigan fonetik birliklarni oʻz ichiga oladigan soʻzlar tushirib qoldirilgan boʻladi.

3. Falon tovush bilan soʻzlarni eslash va ular ishtirokida gaplar tuzish.

4. Berilgan namunaga koʻra gaplar tuzish. Qavs ichida almashtiriladigan soʻzlar (mas. otlar) koʻrsatiladi (aniq artikldagi inglizcha tish oraligʻi undoshi mustahkamlanadi).

5. Muayyan tovush birikmalarini oʻz ichiga oladigan soʻzlarni aytib, gaplar tuzish.

6. Savol-javob mashqi bajarish. Qiyin tovushlar ishtirokida javobni talab etadigan savollar beriladi.

7. Tovushlar miqdori ortib boradigan soʻzlarni aytish. Muallim bir tovushni talaffuz qiladi, oʻquvchi uning ishtirokida soʻz aytadi. Ikkinchi oʻquvchi tovush qoʻshib aytadi (mas. birlik sondagi inglizcha ot aytilsa, unga koʻplik qoʻshimchasini,

inglizcha fe'l aytilsa, uning III shaxs birligini talaffuz qilish tavsiya etiladi va h.k.). Aytilgan soʻzlar bilan boshqa oʻquvchilar gaplar tuzadilar.

Oʻqishni oʻrgatish bilan bogʻliq holda ham talaffuz mashqlari bajariladi. Mas. kerakli fonetik birlik ishtirok etgan soʻzlarni oʻqish. Berilgan soʻzlar muallim koʻrsatgan tovushlarga eʼtibor berib oʻqiladi. Yoki yana bir misol: matn ichidagi soʻzlarni oʻqish mashq qilinadi. Turli jadvallarda soʻzlarni oʻqish ham shu toifadagi mashqlarga kiradi.

Talaffuz koʻnikmasini takomillashtirishda yozuv mashqlarining ham xizmati boʻladi: koʻchiring va oʻqing; jarangli va jarangsiz undoshlar bilan tugaydigan soʻzlarni ikkiga ajratib yozing hamda oʻqing; soʻzlarni toʻldirib yozing va oʻqing kabilar.

Fonetik mashqlardan koʻrinib turibdiki, talaffuzni oʻrgatishga maxsus yoʻnaltirilgan va maxsus boʻlmagan ikki guruh mashqlarni bajarish orqali chet tildagi talaffuz koʻnikmasini shakllantirish mumkin.

Maxsus hisoblanmaydigan fonetik mashqlar jumlasiga quyidagilar kiradi: leksik va grammatik koʻnikmalarni hosil qilishga qaratilgan, oʻqish va gapirish chogʻida bajariladigan, chet tilda yod olinadigan oʻquv materialini oʻrganish mashqlari.

Talaffuzni oʻrgatishgagina moʻljallangan mashqlarda xatolar oʻz vaqtida toʻgʻrilanadi, maxsus boʻlmagan mashqlarni bajarishda esa undagi asosiy maqsadga erishilgandan keyin talaffuzdagi xato toʻgʻrilanadi.

Intonatsiya mashqlarini bajarishda muallim (yoki diktor) nutqidan tashqari muallimning qoʻlharakati ham katta yordam beradi.

Talaffuzni oʻrgatish prinsiplari. Chet til oʻrganish jarayonida uning talaffuzini egallash oʻziga xos xususiyatlari bilan, avvalan, leksik va grammatik materialni oʻrganishdan, soniyan, ona tili talaffuzini oʻrganishdan keskin farq qiladi. Talaffuz quyidagi maxsus prinsiplar asosida oʻrgatiladi:

1. Chet til va oʻquvchilar biladigan til(lar) fonetik sistemalarining qiyosiy tahlili maʼlumotlaridan foydalanish. Chet tilni oʻrgana boshlagan oʻquvchining til tajribasida puxta oʻzlashtirilgan talaffuz koʻnikmasi yangi fonetik birliklarni oʻrganib olishga koʻpincha xalaqit beradi. Ona tilidagi akustik-

artikulatsion odatga moslashgan o'quvchi eshitayotgan va aytilyotgan fonemalar va intonemalarni farqlay olmaydi. Shuning uchun qiyosiy tahlil ular orasidagi tafovut va monandlikni ochib berishga yordamlashadi.

2. Chet tildagi talaffuzning nutqharakat va eshitish timsollarini bir paytning o'zida hosil qilish. Talaffuz chog'ida eshitish va nutqharakat (sof talaffuz) ko'nikmalari ajralmas birlikni tashkil etadi. Ovoz chiqarib aytish eshitish analizatori tomonidan nazorat qilinadi. Binobarin, talaffuz etiladigan birlikning akustik (eshitish) timsoli gapiruvchining xotirasida mavjudligini taqozo etadi.


3. Talaffuzni o'rgatishda ma'lum metodlardan oqilona foydalanish. Talaffuz qoidalari doimo nisbiy ta'riflanadi, chunki artikulatsion (tovush hosil qiluvchi) holatlarning ko'pi ta'rif-tavsifga to'liq tushmaydigan harakatlardir. Uning ustiga talaffuz mavhumotlari aksariyat hollarda o'ta sodda, bir-ikki jumla bilan ifodalanadigan qoida-ko'rsatmalardan iboratdir. Bu esa chet tildagi tovushlarni ona tilidagidek aytish imkoniyatini tiklab beradi.

Tahlil metodini talab etadigan fonetik birliklar miqdoran chegaralangan bo'lib, odatda, taqliddan kengroq foydalanish tavsiya etiladi. Biroq yagona taqlid metodi istalgan natijani doimo beravermaydi. Binobarin, ayrim hollarda taqlid va tahlil birga qo'shilgandagi samaraning o'rni kattadir. Yozuvning paydo bo'lish darsidan boshlab, grafik tayanch yordamga keladi. Talaffuz o'rgatish metodlarining beshalasi asosida chet til talaffuzining taqdimoti ro'yobga chiqariladi.

4. O'rganilayotgan chet tilning muhim talaffuz xususiyatlarini hisobga olish. Talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishda til tajribasi va chet til fonetik normasini bilgan muallimgina kutilgan natijani qo'lga kirita oladi. Talaffuz o'rgatishning umumiy (universal) yo'llari bo'lmaydi. Har bir chet til, o'quvchining ona tilisi talaffuziga qarab, xususiy metodik yondashishni talab qiladi. O'zbeklar uchun inglizcha til oraliq'i undoshi qiyin, biroq u boshqird, turkman, arab o'quvchilariga oson. Inglizcha burun tovushi o'zbeklarga oson, ruslarga qiyin. Ruschada undoshlar unli oldida yumshoq aytiladi, ingliz (nemis, fransuz) tilida yumshoq talaffuz etilmasligi rus o'quvchilari uchun qiyinchilik tug'diradi. Inglizcha va fransuzcha so'z oxiridagi jarangli undosh talaffuzi rus, o'zbek va nemis

o'quvchilariga qiyindir. Nemischa va inglizcha cho'ziq va qisqa unli o'zbek, rus, fransuzlar uchun katta qiyinchilik tug'diradi. Nemischa va fransuzcha ochiq va yopiq unilarning oppozitsiyasi o'zbek, rus, ingliz o'quvchilari uchun yot hodisadir. Fransuzcha sof va burun tovushlari oppozitsiyasi o'quvchilarga qiyin. O'zbek va rus o'quvchilari uchun ingliz va nemis tillaridagi qo'sh urg'u (so'zda ikkita urg'u) butunlay notanish fonetik birlikdir. Chet tillardagi yetakchi va yordamchi so'zlarning talaffuzda qo'shib ketishi ham o'ta qiyin hodisalardan. Jumalarning intonatsion tuzilishi esa g'oyat ko'p vaqt va kuch talab qiladigan talaffuz birliklaridan sanaladi. Buning uchun chet til darslarining barchasida talaffuz ustida ish olib borishga to'g'ri keladi. (*Fonetic drill (rus. зарядка)* o'tkazish tajribasi bejiz o'ylab topilgan emas.)

5. Talaffuzni o'rgatishda ta'limning texnikaviy vositalaridan keng foydalanish. Fonetik material o'zlashtirilishi muallim talaffuzi bilangina chegaralanmaydi. O'quvchilar muallimning jonli nutqini, uning magnit yozuvidagi nutqini hamda o'zga shaxslar (diktor) nutqini eshitadilar. Undan tashqari o'zlarining chet tildagi nutqini ham magnitofon yozuvida eshitsalar, talaffuz ko'nikmalarini hosil qilishni jadallashtirgan va sama-



rasini oshirgan bo'ladi. (Biroq muallim talaffuzi doimo o'quvchilar uchun namuna bo'lib qola beradi.)

6. Talaffuz materialining taqdimot usullarini farqlab qo'llash. Chet til fonetik birliklarining qiyinchilik darajasiga qarab, ularni jumlada, so'zda va yolg'iz taqdim etish metodik odat tusini olgan. O'quvchi tovushni jumla, so'z va alohida holda eshitadi, biroq aytishda ayrimlarini yolg'iz, boshqalarini so'zda va qolganlarini jumlada o'rganadilar.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga doir metodik terminlarni atroflicha tahlil qiling.

2. Talaffuzni o'rgatish metodlari va usullarining nomlarini aytig va ularni qo'llash shartlarini ta'riflab bering.

3. Talaffuzni o'rgatish prinsiplarini nomma-nom sanab o'ting.

4. Fonetik mashqlar sistemasini muhokama qilishga tayyorgarlik ko'ring.

XI BOB. TINGLAB TUSHUNISHNI O'RGATISH

Tinglab tushunish nutq faoliyati turi va malaka sifatida

Suhbatdoshlar, insoniy odatga ko'ra, navbati bilan gapirish va bir-birini tinglab tushunishga harakat qilishadi. Hayotiy tajribadan ma'lumki, o'z fikrini og'zaki bayon etish (gapirish) ko'pchilik yoqtiradigan nutq faoliyatining turidir. O'zga shaxsni tinglab tushunish orqali turli axborot olinadi. Nutqiy muloqotda bo'lish odam uchun zaruriy ehtiyoj sanaladi. Tinglash jarayonida so'zlovchining ifoda etmish mulohazalarini qisman yoki to'la-to'kis tushunib yetmaslik hollari bo'lib turadi. Buning asosiy sababi tinglab tushunishni o'rgatishga yetarli e'tibor berilmasligidadir.

Nutqni *tinglab tushunish* deganda, ovozli nutq (gapirish) chog'ida quloq solish, idrok etish va fahmlash anglanadi. Umuman „nutq“ deganda gapirish, tinglab tushunish, o'qib tushunish va yozuv tushuniladi. Aslida „gapirishni tinglab tushunish“ degan ma'qulroq.

Chet til o'qitish metodikasi tarixiga nazar tashlasak o'tgan asrning 60-yillariga kelib, tinglash nutq faoliyatining turi

sifatida atroflicha tadqiq etila boshlandi¹. Avvallari unga gapirishning uzviy qismi deb qarab kelingan edi. Chet til darsida tinglab tushunishga atayin mashqlar berilmas edi. Ma'lum bo'lishicha, gapirishni o'rganishdan ko'ra tinglab tushunishga erishish qiyinroq kechadi. Ushbu sohaga oid bir-biriga yaqin ikki termini farqlash talab qilinadi: „tinglash“ — quloq solish (Oz so'zla — ko'p tingla) va „eshitish“ — eshitish sezgisi (quloq) yordamida tovushni qabul qilish (Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit). Tinglovchi tushunishga intiladi, eshituvchi tinglaganini tushunmasligi ham mumkin.

Eshitish qobiliyatiga mo'lik shaxs muayyan axborotni tushunish maqsadida so'zlovchiga quloq soladi, ya'ni tinglash, aniqrog'i tinglab tushunish sodir bo'ladi. Eshitdingmi, deyilganda, tinglab tushunganlikni aniqlamoqchi bo'linadi. Xullas, „tinglab tushunish“ birikmasi o'zgarlar nutqini (jonli tarzda yoki mexanik yozuvdagisini) idrok etish hamda mazmunini fahmlab yetish ma'nosini ifodalaydi. Tinglash va tushunish (fahmlash) vaqt e'tibori bilan bir paytda (psixologiya tilida *simultan*) sodir bo'ladi, bu ikki nutqiy hodisa faqat ilmiy tahlil uchungina ajratiladi, xolos.

Inson ma'naviy kamolotga, odatda, eshitish, ko'rish (kuzatish) va, qolaversa, o'qish tufayli erishadi. Axborot to'planishida uchala faoliyat orasida tinglab tushunish eng muhimidir. Qizig'i shundaki, falon tilda tinglab tushunasizmi, savoli berilmaydi, gapira olasizmi, deyiladi. Idrok aqlning o'lchovidir. Gapirish va tinglab tushunish og'zaki nutq demakdir.

Ona tilidagi nutqni tinglab tushunishda shakl va mazmun yaxlit ravishda idrok qilinadi, chet tilda ifoda vositasi (til materiali) va ifodalanmish mazmun (matn) uyg'unlashishi qiyinchilik bilan kechadi. Mazmunni ilg'ash (payqash) uchun leksik-grammatik hodisalarni yaxshi o'zlashtirgan, boshqacha

¹ З. А. Кочкина: 1) Понимание звучащей речи (аудирование). Обзор американских работ. // Вопросы психологии, 1963, № 3; 2) Аудирование как процесс восприятия и понимания звучащей речи. // Иностранные языки в высшей школе: Тематич. сб. / Отв. ред. Г. В. Колшанский. — М., 1964, вып. 3; 3) Аудирование: что это такое? // ИЯШ, 1964 № 5; М. Л. Вайсбург. Обучение пониманию иностранной речи на слух. — М.: Просвещение, 1965.

aytganda, tinglab tushunishning leksik va grammatik ko'nikmalari puxta shakllangan bo'lishi kerak. Shuningdek, chet til tovush tomonini (tovush, tovush birikmalari va ohangni) farqlay olish ko'nikmasi hosil qilinmog'i lozim. Demak, tinglab tushunishning leksik, grammatik va talaffuz ko'nikmalari shakllanishi oqibatida mazkur nutq faoliyati turi bo'yicha malaka hosil qilinadi. Og'zaki matn (audiomatn)ni idrok etib tushunishda leksikani bilish umumiy mazmunni payqashda, grammatikani egallash mazmunni aniq tafsilotlari bilan fahmlashda alohida-alohida ahamiyat kasb etadi.

Tinglovchi (auditor) va so'zlovchi (notiq) qo'llaydigan til birliklari muvofiq tushsa, tushunish osonlashadi. Bu, o'z navbatida, til tajribasi bilan bog'liq masaladir.

Tinglab tushunish uch bosqichli faoliyat bo'lib, umumiy eshituv idroki (akustik appersepsiya), so'zlarning tovush tomonini (fonematik) farqlash va mohiyatni anglash orqasida nutqdagi mazmun idrok etiladi, bilib olinadi va tushuniladi.

Nutq faoliyatining turi va malaka hisoblanmish tinglab tushunish ta'lim maqsadi va vositasi ekanligi (III bobdagi „Chet til o'qitishning amaliy maqsadi“ mavzusidan) ma'lum. Bu o'rinda ikki toifadagi, ya'ni, bir tomondan, so'z orqali (tildagi nutqiy tajribaga suyangan holda) va, ikkinchidan, narsa yordamida (hayotiy tajriba, nutq vaziyatini bilish tufayli) tushuna olishning tegishli farqiga yetish kerak. Binobarin, chet til ta'limining dastlabki bosqichida tavsiya qilinadigan nutq, mavzu va vaziyatlari o'quvchilarga tanish, oldindan ma'lum, til materiali esa ular uchun butunlay yangi, notanishdir.

Tinglash uchun matn (audiomatn)larni tanlashda yoki yaratishda gap ko'p. O'quvchilarning yoshiga mos, qiziqishini uyg'otadigan, mantiqan aniq, nutqning monolog va dialog shaklini o'z ichiga olgan, axborotga boy audiomatn o'z tinglovchisiga yoqib tushadi.

Eshitish sezgisi va analizatori orqali axborot olishning asosiy manbalari sifatida muallim nutqi, auditiv texnikaviy qurollardan magnitofon va grammofon yozuvi hamda radio eshittirish, audiovizual vositalardan ovozli diafilm, kinofilm (yoki undan parcha) va televizion ko'rsatuvlar xizmat qiladi.

Tinglab tushunishning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun quyidagi uch omil nazarda tutiladi. Tinglovchining o'ziga bog'liqlik (eshitish malakasining rivojlanganligi, xotirasi, diq-

qati xususiyatlari), tinglash shart-sharoiti (nutq tezligi, til materiali hajmi va shakli hamda soʻzlanayotgan nutqning qancha vaqt davom etishi) va, nihoyat, qoʻllangan materialning lingvistik jihatlari (tinglovchi til tajribasiga mos kelish-kelmasligi) hisobga olinadi.

Muhim masalalardan yana biri tinglangan matnni tushunish qay sabablarga koʻra osonlik yoki qiyinchilik bilan roʻy berishini aniqlashdir. Qiyinchiliklar va ularning sabablarini bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

1-§. Chet tilda nutqni tinglab tushunishdagi qiyinchiliklar

Nutq faoliyati turlarining har biriga xos qiyinchiliklar mavjud. Tinglab tushunishda sodir boʻladigan qiyinchiliklar birtalay. Ularni bilish chet til oʻrgatishda hal qiluvchi shartlardandir. Idrok etish, jumladan nutqni idrok etib tushunish muammolari jahon ruhshunosligida ancha mufassal ishlab chiqilgan. Chet til oʻqitish metodikasi fani mavjud nazariy mulohazalardan samarali foydalanadi. Maktab sharoitida oʻquvchilarning tinglab tushunishi sohasidagi qiyinchiliklar quyidagilardan iborat:

1. *Tilga oid shakliy qiyinchiliklar.* Maʼnosi har xil, tovush shakli esa oʻxshash soʻzlarni (omofonlarni) yoki chet til feʼlining majhul darajasini tinglash va tushunish murakkablik kasb etadi. Omofon va majhul feʼl bir qarashda tanishga oʻxshaydi, biroq audiomatnning mazmunini payqashda xiyla qiyinchilik tugʻdiradi.

2. *Mazmunga doir qiyinchiliklar.* Olinayotgan axborot qamrovidagi nima, qayerda, kim bilan, qachon boʻlishi kabi dalillarni idrok etish bobida yoki ular orasidagi bogʻlanishni ilgʻab olish, shuningdek, umumiy gʻoyaga taalluqli qiyinchiliklar mavjuddir.

3. *Nutqiy idrok qilishning shart-sharoitidagi qiyinchiliklar.* Bulardan nutq tezligi, ohangi va mexanik yozilgan audiomatnning murakkabligini eslatish kifoya. Shu bilan birga audiomatnni bir marta idrok etish, notanish odamni tinglash, ovoz-dagi oʻziga xoslik kabilar ham tushunishda gʻov boʻlishi tabiiy.

4. *Nutq shakliga oid qiyinchiliklar.* Dialog nutqda javob qaytarish, monologni tinglashda esa uzun jumlalarni eshitish


xotirasida saqlash o'quvchi uchun muayyan qiyinchilik keltirib chiqaradi.

5. *Tilshunoslik nuqtayi nazaridan sodir bo'ladigan qiyinchiliklar*. Ular lisoniy — leksik, grammatik va fonetik qiyinchilik deb ataladi. Leksikada juft tushunchalar (mas. dunyo tomonlarini ifodalovchi so'zlar), ko'p ma'nolilik (polisemiya), turg'un birikmalardagi so'z ma'nosi, yordamchi so'zlar, grammatik jihatdan ona tilida yo'q hodisalar yoki fonetik tarafdin so'zning yozuvda va talaffuzda keskin tafovuti, urg'u va ohangning o'xshamasligi tegishli qiyinchiliklarga sabab bo'ladi.

6. *Audiomatn tuzilishiga oid qiyinchiliklar*. Audiomatnning tuzilishi (kompozitsion-mazmuniy strukturasi) ham qiyinchiliklarga olib kelishi aniqlangan. Chunki bayon etilayotgan axborotni ilg'ab olishga uning bevosita daxli bor. Gapning yoki abzasning bir-biriga mantiqan „yopishishi“, kontekstning yuzaki yoki chuqurligi, notanish leksik birliklar ishtiroki va qator o'xshash kompozitsion-mazmuniy holatlar audiomatnning tushunilish darajasini belgilovchi omillardir.

O'quvchi tinglab tushunishda duch keladigan qiyinchiliklarni e'tirof etishdan maqsad ularning oldini olish choralarni ko'rishdir. Qiyinchiliklar mehnat va vaqt talab qiladi, maxsus mashqlarni bajarish zaruriyatini tug'diradi.

Qiyinchiliklarni o'z vaqtida bartaraf qilish (neytrallashtirish) yo'li bilan ta'lim jarayonini jadallashtirish va o'qitishning eng maqbul (optimal) metodikasini ishlab chiqishga muvaffaq bo'linadi.



Til o'rganishda yoki umuman hayotda voqe bo'ladigan qiyinchiliklar sabab va oqibatning bir-biri bilan bog'liq ravishda aniqlanadi. Qiyinchilikni oldindan aniqlash, uning sabablarini bilish mumkin. Qiyinchilikning yuzaga chiqishi xatolar turi va ko'zlangan natijaga erishish darajasi bilan belgilanadi. O'quvchilarning o'zgaralar nutqini idrok etib, uning mazmunini fahmlay olishlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'lida tinglab tushunishning psixofiziologik mexanizmlarini to'g'ri shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Qiyinchiliklarni bilishning qanday ahamiyati borligini ayting.
2. Tinglab tushunishdagi qiyinchiliklarni sanang va ularni tahlil qiling.

2-§. Tinglab tushunishning psixofiziologik mexanizmlari

Nutq faoliyatining asosiy turlaridan sanalmish tinglab tushunish ham bilishga intilishdir. Har qanday bilish jarayonining esa hissiy va mantiqiy tomonlari mavjud. Tinglab tushinishda mazkur sifatlar uzviy bog'liq holda amal qiladi. Tinglab tushunishning mexanizmlari majmuyi fanda yetarlicha o'rganilgan¹.

Birinchi mexanizmni ruhshunoslar *nutqni idrok etish*, deb nomlaganlar. Muayyan sezgilar qo'zg'alishi nazarda tutiladi. Begona tilni bilmagan kishi uni tushunmaydi ham, balki bu tildagi nutqni eshitish qobiliyatidan ham mahrum (mashhur ruhshunos olim marhum akad. Aleksandr Romanovich Luriya tadqiqotlari shunday xulosani tasdiqlagan).

Ushbu mexanizm *eshitish xotirasi* mexanizmi bilan chambarchas bog'liq. Idrok qilish chog'ida nutqiy parchani yodda saqlash audiomatni tushuna olish imkonini yaratadi.

Ichda gapirish mexanizmi faoliyatiga ko'ra audiomatni idrok etish paytida nutqharakat analizatori ishlaydi (yetuk


¹ *Е. И. Пассов. Основы методики обучения иностранным языкам. — М.: Русский язык, 1977. — 168—170-бетлар; Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. — М.: Русский язык, 1989. — 185—186-бетлар.*

psixolog prof. N. I. Jinkin o'zining til o'rgatish ruhshunosligiga bag'ishlangan yetuk ilmiy ishlarida ushbu fikrni isbotlab bergan). Tushunish darajasi tinglanayotgan nutqni ichki nutqda takrorlashga bevosita bog'liq. Odam eshitayotganini ichida taqlid yo'li bilan qaytarib turadi. Audiomatnning notanish yoki qiyinroq joylarini ichda aytib turadi, til materiali puxta o'zlashtirilgan bo'lsa, ichda takrorlash hajmi kamroq bo'ladi. Binobarin, gapirish va tinglab tushunishni birga qo'shib o'rganish tavsiya etiladi.

Eshitish sezgisiga kelayotgan signallarni xotirada qoliplangan andazaga *solishtirish* mexanizmi. Solishtirish shaxsning avvalgi tajribasiga, uning sezgi va hissiyotiga qarab to'g'ri-noto'g'ri bo'lishi mumkin. Tinglovchi tajribasi deganda, eshitish va nutqharakat sezgilari miyada hosil qilgan iz tushuniladi. Solishtirish oqibatida tanib olishga muvaffaq bo'linadi. Eshituvdan qolgan iz mustahkam bo'lsa, tanib olish mexanizmi (solishtirish va bilib olish mexanizmi deyilgani afzalroq) faolroq amal qiladi. Eshitilayotgan hodisaning to'liq aksi miyada saqlanmaydi yoki tiklanmaydi, uning izi tushadi, xolos.

Navbatdagi mexanizmning nomi *antisipatsiya* deb ataladi. Soddaroq qilib, *oldindan fahmlash* deyish ma'qul. Bu mexanizm ishga tushganda, audiomatnning tuzilishi (jumlar yoki so'zlar shakli)ni yoki uning mazmunini oldindan bilib olish imkoniyati yaratiladi.

Yana bir mexanizm audiomatnni *mantiqan tushunish* deyiladi. Miya faoliyatining analitik-sintetik amali asosida va boshqa imkoniyatlar doirasida anglash, ya'ni mantiqan tushunish ro'y beradi.



Mazkur mexanizmlarni shakl toptirish oqibatida o'quvchilarning tinglab tushunish malakasi hosil qilinadi. Tinglab tushunish malakasi chet tilda zaruriy mashqlarni bajarish tufayligina shakllanadi va rivojlanadi.

Ta'rif-tavsif etilgan tinglab tushunishning psixofiziologik mexanizmlari tahlil uchungina ayrim nomlar bilan ataladi. Nutq faoliyatida esa ular yaxlitlikda namoyon bo'ladi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Tinglab tushunishning psixofiziologik mexanizmlarini ayting va ularni ta'riflab bering.
2. Mexanizmlarni tarkib toptirishdan ko'zlanadigan maqsadni tushuntiring.

3-§. Nutqni tinglab tushunishni o'rgatish va tushunganlikni tekshirish

Yuqorida qayd etilganidek, tinglab tushunishni o'rgatishga maxsus vaqt ajratiladi va muayyan mashqlar bag'ishlanadi. Chet til o'rgatishning birinchi soatidan boshlab, to o'quvchi maktabni tugatgunga qadar tinglab tushunishni o'rgatishga e'tibor qaratiladi.

O'quv dasturining og'zaki nutq qismidan joy olgan umumiy talablardan tashqari faqat tinglab tushunish uchungina mo'ljallangan jumlar ro'yxati ham keltiriladi. Bular o'quvchilar faqat o'qituvchini tinglaganda bilib olishga beriladigan jumlar ekanligini eslatib o'tish joizdir. Gapirish va o'qishda o'zlashtiriladigan leksik va grammatik materialni tinglab tushunishga ham oidligi muallimlarga ayon.

O'quvchilarga tinglash uchun namunaviy bo'lmish muallim nutqi katta ahamiyatga molik. Darsni chet tilda olib borishdek metodik qoidaga rioya qilish zarurdir. Gapirish va o'qish materialini tinglab tushunish yordamida mustahkamlash hamda takrorlash ushbu nutq faoliyati turini ta'lim vositasi maqomiga kiritadi.

Dars boshlanishidagi chet til sun'iy muhitini yaratishga mo'ljallangan mashqlarning ko'p qismi tinglab tushunish bo'yicha bajariladi. Darsning asosiy qismi va yakunida ham tinglab tushunish mashqlari yetakchilik qiladi.

Boshqa nutq faoliyati turlaridan farq qilib, tinglab tushunish chet til o'rgatish davomida ta'lim maqsadi va vositasi

tarzida o'rganiladi. Maqsad sifatida uning amaliy o'rganilishi chet tilda axborot olishni bildiradi. Barcha og'zaki nutq va o'qish mavzulari qamrovidagi mazmun tinglab tushunish orqali o'zlashtiriladi. Gapiriladigan va o'qiladigan paytda o'zlashtirilgan axborot tinglab tushunish uchun ham taalluqli.

Ta'lim vositasi tarzida qaralganda, tinglab tushunishning til materiali (leksika, grammatika, talaffuz birliklari)ni o'rganishda qo'llash nazarda tutiladi. Yangi nutq birliklarining taqdimotini“ mashq qilish, qo'llanilish bosqichlarini tinglab tushunishsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Xullas, nutq faoliyatining to'rtala turidan birortasi ushbu darsda mashq qilinmasligi mumkin, biroq bu qoida tinglab tushunishga tegishli emas. Xohlagan bir mashg'ulotda gapirish yoki o'qish, yoki yozuv mashq qilinmasligi mumkin. Biroq dars bor ekan, tinglab tushunish bo'ladi. Chunki muallim chet tilda gapirish bilan dars boshlaydi, darsni o'tadi va uni yakunlaydi, demak, tinglovchi sifatida o'quvchi gavdalanadi.

Nutqni tinglab tushunishni o'rgatishda nimalarga ahamiyat beramiz. Birinchidan, nimani o'rgatish, ikkinchidan, qanday qilib o'rgatish va, nihoyat, tushunganlikni qaysi yo'l bilan aniqlashni bilish talab qilinadi. Bu uchala masala alohida-alohida ko'rib chiqiladi.

O'quvchiga tinglab tushunish jarayonida quyidagilar o'rgatiladi: so'z va so'z birikmalarining shaklini va grammatik strukturalarni g'ayrushuuriy ravishda farqlay olish; nutq namunasi (jumla)ni tinglab, oldindan fahmlay olish; eshitish xotirasi hajmini o'stirish; o'rganilgan til materialini turli birikmalarda tushuna olish; texnikaviy vositalarga yozilgan nutqni tushunish; bir karra aytilgan fikrni fahmlash; mo'tadil (o'quv dasturida qabul qilingan) tezlikdagi nutqni tushunish; audiomatnda notanish leksik birliklar bo'lishiga qaramay, uning umumiy mazmun va mohiyatini ilg'ab olish; turli yo'nalishdagi (tasviyriy, ertaknamo, ko'p planli) audiomatnni tushunish.

Turli ta'lim bosqichlarida mazkur ishlarning o'rni va bajarilish xususiyati har xil tartibda bo'ladi. Undan tashqari erkak va ayol ovozini eshitish, muallim va boshqalarni tinglash, yosh va qarilar nutqini tinglash, so'zlovchini ko'rib va ko'rmadan tinglash kabilarni amalda qo'llash tavsiya etiladi.

Tinglab tushunishni o'rgatish bo'yicha turli yo'nalishlar amaliyotda qo'llanib kelinadi. Ulardan biri — avvalo til

materialini, keyin nutq faoliyatini o'rgatishdir. Bu metodik g'oyaga binoan so'z, so'z birikmasi, gaplarni bilib olishni mashq qilib, so'ngra o'quvchilar diqqati o'rganilgan materialning mazmun tomoniga tortiladi. Ushbu yo'l bilan tinglab tushunishni o'rgatish samarasi past bo'ladi, unda ortiqcha vaqt sarflanadi, binobarin, u maqbul metodik usul deb topilmaydi.

Muallimlar qo'llaydigan ikkinchi yo'nalishga ko'ra, tinglab tushunish nutq malakalarini shakllantirish bilan bevosita bog'liq holda olib boriladi. Gapirish, o'qish va yozuvni o'rgatish jarayonida o'quvchilar tinglab tushunish bilan shug'ullanishadi, shu bilan bir paytda til materialini o'rgatishga ham e'tibor berib boriladi. Ushbu metodik usul samaraliroqdir.

Ma'lumki, gapirish va tinglab tushunish jarayoni og'zaki nutqning ikki uzviy bog'langan tomonlaridir. Ularda ishlatiladigan leksik va grammatik hodisalar umumiydir. Shuning uchun ham tinglab tushunishni o'rgatishga kirishilar ekan, albatta gapirishni egallash davrida tinglash bilan ham mashg'ul bo'lingani ma'quldir. Bu tinglab tushunishga umuman maxsus e'tibor qaratilmaydi degan ma'noni anglatmaydi. (Muayyan mashqlar haqida 4-§ da gap boradi). Chunki tinglab tushunish mexanizmlarining o'ziga xosligi fanda isbotlab berilgan. Demak, o'quvchi aytadigan har qanday so'z yoki jumla tinglab tushunish chog'ida o'rganib boriladi.

O'qish va yozuvni mashq qilishda ham tinglab tushunish „ishtirok“ etadi. O'qiyotgan yoki fikrini yozma bayon etayotgan kishi qo'llanilgan til materialini tinglab tushuna oladi. Ma'lum bo'lishicha, o'rganilayotgan til birligi tinglash (eshitish sezgisi/analizatori), gapirish (nutqharakat sezgisi/analizatori), yozuv (qo'lharakat sezgisi/analizatori) va o'qish (ko'ruv sezgisi/analizatori) orqali o'zlashtirilganda, puxta dinamik stereotip shakllanishiga olib keladi. Shulardan ayrimlari qatnashmasa, istalgan natijaga erishish mushkul. Olinishi mo'ljallangan axborotni xotirada saqlashning yagona yo'li nutq faoliyati turlarini bir-biriga bog'lab o'rgatishdadir. Ularni o'rganish ta'lim bosqichi, til materiali xususiyati hamda idrok etiladigan mazmun (axborot) bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Gapirilgan, o'qilgan va yozilgan o'quv materialini tinglashdan tashqari maxsus tinglab tushunish uchungina beriladigan matnlar mavjud. Tinglangan matn asosida qolgan uchala nutq faoliyati turlarini ham mashq qilish mumkin.

Tinglanadigan matn tanish til materialida va qisman notanish leksik materialda bo'lishidan qat'i nazar bir marta eshittish va tushunishga mo'ljallanadi. Ikkinchi, uchinchi va keyingi safar tinglanishi uchun albatta yangi topshiriq beriladi. Mas. birinchi marta tinglanganda, „quyidagi savollarga javob toping“, ikkinchisida „falon hodisa (shaxs) haqidagi axborotni sinchiklab o'rganing“, uchinchi tinglashda esa „falon joyiga o'z munosabatingizni bildiring“ va h.k. turli-tuman o'quv topshiriqlarini berib, qayta-qayta eshittirish mumkin.

Tinglab tushunishni amaliy maqsad maqomida o'rgatilishi uchun, birinchidan, audiomatnni tanlash (tuzish), ikkinchidan, uni eshittirish tashkiliy shartlari (sinf, ayrim guruh yoki yolg'iz o'quvchiga tegishliligi)ni aniqlash, uchinchidan, o'quvchilarni tinglashga tayyorlash (til materialini bilishi, audiomatn mazmunining mosligi), to'rtinchidan, necha marta tinglashni tavsiya etish (o'quv topshiriqlarini tayyorlash) va, beshinchidan, tushunganlikni tekshirish kabi tadbirlarni taqozo etadi.

Audiomatn ustida olib boriladigan quyidagi ish tartibi tavsiya qilinadi: muallim audiomatnni o'zi tinglab oladi (o'qib chiqadi), uning qiyin joylarini aniqlab, ularni bartaraf etish usullarini o'ylab qo'yadi, tushunishga tayanch bo'ladigan o'quv vositalarini (rasm, doskaga yozish, magnitofon tasmasi kabilarni) tayyorlaydi, birinchi va navbatdagi tinglashlarga topshiriqlar ishlab chiqadi.

Darsni o'tish chog'ida tinglab tushunishni o'rgatish bosqichlari¹ quyidagilardan iborat. 1) tinglashda kutiladigan qiyinchiliklar bartaraf etiladi; 2) audiomatnni birinchi eshittish bo'yicha ko'rsatma (topshiriq) beriladi; 3) tushunganlik topshiriq yordamida tekshirib ko'riladi; 4) ikkinchi marta eshittishga topshiriq beriladi; 5) tekshirib ko'riladi va h.k. Metodik tadqiqotlar ko'rsatishicha, ikkinchi va uchinchi marta eshittish audiomatnni tushunishga yordam beradi, undan keyingi tinglashlardan unchalik naf ko'rilmaydi. Audiomatn asosida gapirishni tashkil qilsa bo'ladi. Bu ish usuli diafilm va kinofragmentlar materialida ham o'tkazilishi mumkin.

¹ Г. В. Рогова, И. Н. Верещагина. Методика обучения английскому языку на начальном этапе в средней школе. Пособие для учителя. — М.: Просвещение, 1988. — 129-бет.

Audiomatnni tushunganlikni tekshirish muallimdan muayyan metodik mahorat talab qiladi. Tekshirishdan ko'zlanadigan maqsad, tinglab tushunish malakasining shakllanganligi va, oqibat natijada, tinglanganni idrok etib fahmlaganlik darajasini aniqlashdir. Buning uchun idrok etganda, tushunish bosqichlarini bilmoq lozim (A. R. Luriya¹ to'rt bosqichni ajatib bergan): so'z bosqichi, gap bosqichi, murakkab sintaktik birlik bosqichi va matn bosqichi.

So'zni tushunishda aktiv, passiv va potensial (xufiya) lug'at haqida gap boradi.

Gapni tushunishda uning sintaktik xususiyatidan kelib chiqiladi. Sodda gap og'zaki nutqda o'zlashtirilganligi tufayli oson tinglab tushuniladi. Qo'shma gap esa qiyin tushuniladi.

Murakkab sintaktik birlikni tushunish jarayonida uni qismlarga ajratilib, fikrning boshi va oxirini tushunib yetish bilan aloqador amallar bajariladi.

Yaxlit matnni idrok etish gapning predikativ aloqalarini fahmlash, uning kompozitsion-mazmuniy tomonini payqash, uslub va janrini ilg'ash yo'li bilan amalga oshadi.

Mazkur bosqichlar tasnifi audiomatnni tushunishni aks ettiradi, lekin tushunganlikni tekshirish uchun unchalik maqbul emas. Bu maqsadni ko'zlab, tajribali metodist olim Nadejda Ivanovna Gez² quyidagi bo'linishni taklif etadi: 1) yuzaki tushunish; 2) umumiy tushunish; 3) to'liq tushunish; 4) tanqidiy tushunish darajalari. Audiomatnning mazmunini tushungan/tushunmaganlik ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi bosqichlar orqali tekshirib ko'riladi (shu paytda birinchi bosqich ham hisobga olinadi). Umumiy tushunish bosqichida savollarga tanlab javob qaytarish (*multiple choice*), ya'ni javoblarning to'g'risini topish orqali tushunganlik tekshiriladi. Uchinchi (to'liq tushunish) bosqichi tinglanganni qisqartirish yoki to'ldirish yo'li bilan tekshiriladi. Ushbu bosqichda savollarga javob qaytarish, chet til va ona tilida mazmunini aytib berish, gapirish uchun

¹ А. Р. Лурия. Высшие корковые функции и их нарушения при локальных поражениях мозга. — М., 1959.

² Н. И. Гез. Текст лекций по курсу „Методика обучения иностранным языкам в высшей школе“ (раздел „Аудирование“). — М.: МГПИИЯ, 1979. — 55-бет; Обучение аудированию. // Методика обучения иностранным языкам в средней школе. — М.: Высшая школа, 1982. — 241-бет

kengaytirilgan reja tuzish usullaridan foydalaniladi. Tanqidiy tushunish bosqichida esa tinglangan audiomatnning mazmuniga baho berish, asosiy axborotni topish, sharhlash va muhokama qilish kabi muammoli topshiriqlarni ijodiy hal etish bilan mashg'ul bo'linadi.

Bayon etilgandan ko'rinib turibdiki, tekshirish chog'ida an'anaviy usullar qatoriga zamonaviy test ham qo'shiladi. Test bilan bir qatorda nutqiy mashqlar ham samarali ekanligini yoddan chiqarmaslik lozim.

Tinglab tushunishni tekshirishning ta'rif-tavsiflaridan ayon bo'ladiki, bu jarayonda nutq faoliyati turlaridan gapirish, o'qish, yozuv keng ko'lamda jalb etiladi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Tinglab tushunish jarayonida e'tiborni tortadigan tomonlarni ayting.

2. Tinglab tushunishni o'rgatishda mavjud asosiy metodik yo'nalishlarni tahlil qilib bering.

3. Audiomatn ustida o'tkaziladigan tayyorgarlik ishlari va darsda bajariladigan o'rgatish bosqichlarini aytib bering.

4. Tushunganlikni tekshirishga oid maqbul bosqichlarni tahlil eting.

4-§. Tinglab tushunishni o'rgatish mashqlari

Tinglab tushunishga mo'ljallangan (auditiv) mashqlar sistemasi maqsadiga ko'ra ikki turga bo'linadi: maxsus va maxsus bo'lmagan mashqlar.

Maxsus bo'lmagan mashqlarda tinglab tushunish yo'l-yo'lakay o'rgatiladi. Mas. dars boshlanishidagi nutqiy mashg'ulot, so'z ma'nosini ochish chog'ida muallim hikoyasini eshittish, grammatikaning taqdimotidagi muallim gaplarini tinglash, o'zga shaxs nutqini magnit tasmasiga yozish kabilar maxsus bo'lmagan mashqlar jumlasiga kiradi. Chet tilda dars olib borish ham tinglab tushunishni o'rgatishda ajoyib ish uslubidir. O'quvchilar dars davomida ishlatiladigan jummalarni tushunishlari uchun muallim juda ko'p marta takrorlamasligi, o'ta sekin ham aytmasligi, har doim ona tiliga tarjima qila-vermasligi talab etiladi.

Maxsus mashqlar, o'z navbatida, tinglab tushunishga tayyorlov va sof nutqiy mashqlarga bo'linadi. (Birinchisini ayrim mualliflar til (materiali)ga oid mashqlar deyishsa, boshqalari shartli-nutqiy mashqlar nomi bilan ham yuritishadi.) Tayyorlov mashqlarining obyektii akustik signal (ya'ni quloqqa yetkaziladigan so'z, jumla, gaplar majmuyi) bo'lib, nutqiy mashqlarda esa o'quvchi mazmunni egallash bilan band bo'ladi.

Tayyorlov mashqidan ko'zlanadigan maqsad oldindan (matnni tinglashgacha) qiyinchiliklarni bartaraf qilishdir. Tayyorlov mashqlari tilga oid va o'quvchi psixologiyasi bilan aloqador mushkulotning oldini olishda bajariladi. Lisoniy qiyinchiliklarni bartaraf etishda o'zga nutqdagi yangi hodisalarni topib farqlash va tushunib yetish, tovush timsolini ma'nosi bilan bog'lash, so'z yasalishini fahmlab ma'no chiqarish, leksik va grammatik birlikning kontekstdagi ma'nosini ochish, ma'nodosh (sinonim) va zid ma'noli (antonim) hodisalarni tanib olish va anglash singari mashqlar bajariladi. Ular tinglab tushunishning leksik, grammatik va talaffuzni eshitish mashqlari sifatida namoyon bo'ladi. Farqlash va o'xshatishdan iborat bilib olish jarayoni ifodalanadi.

Tayyorlov mashqining psixologik qiyinchilikni oldini olish turi esa o'quvchilarning mazmunni oldindan ilg'ay bilish, xotirani rivojlantirish, tinglash mahoratini oshirish, ichki nutqni qisqartirish singlarida bajarish ma'quldir. Tayyorlov mashqlari tinglab tushunishning dastlabki bosqichi bo'lib xizmat qiladi. Ular til hodisalarini bilib olish va ma'nosini fahmlash ko'nikmalarini shakllantirish, til birliklarining eshituv timsolini hosil qilish, ma'nosi ochilgunga qadar shakllarni oldindan ilg'ash va xotirada saqlashga qaratilgan mashqlardir.

Nutq mashqlari esa kommunikativ (muloqot) vazifani o'tashga mo'ljallanadi. Ularni auditiv faoliyatga yo'llovchi va bu faoliyat bilan shug'ullanish mashqlariga ajratish mumkin. Yo'llovchi (oriyentir) mashqlar o'quvchiga til va hayot tajribasidan foydalanib, audiomatnni tushunishda turli lingvistik va nolingvistik tayanchlarga asoslangan holda ish tutishni o'rgatadi. Kontekstni fahmlash, tajribadagi bilimlarni ishlatish, leksikaning xususiyatini ilg'ash, qiyinchiliklarni yengib matnni tushunish kabilar yo'llovchi mashqlar sirasiga kiradi. Shug'ullanish mashqlari esa sof nutq mashqlari bo'lib, auditiv faoliyatning namunaviy shakli sifatida yuzaga keladi.

Nutq mashqlarining uch bosqichli ekanligi fanda aniqlangan: axborotni eshitishga tayyorgarlik, uni eshitish va eshitganini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ularning har bir qismi alohida vazifalarni o'taydi. Birinchisi (tayyorgarlik) faoliyat yuritish motivatsiyasi (ichki turtkisi)ni aks ettiradi. Muayyan vazifalarni ijro etish bilan bog'liq bosqichdir. Notanish so'zlarni bilsa/bilmasa audiomatn mazmunini fahmlay olish ko'nikmasi shakllantiriladi. Nutq faoliyatining boshqa turlari bilan O'NV yordamida aloqa bog'lanadi. Shu yo'l bilan tinglash (va keyin gapirish) ehtiyoji tug'diriladi. „Eshiting — tushuning“ yoki „Eshiting — savol bering“ tarzidagi topshiriqlardan O'NVning ijobiy farqi shundaki, unda bilishga intilishning muammoli vaziyati tashkil qilinadi. Rasmlar, verbal (so'z bilan tasvirlanadigan) holat hamda ekran vositalari yordamida tinglab tushunish bo'yicha nutqiy mashq bajarishga kirishiladi.

Audiomatnni tinglash bosqichi analiz-sintez qilish va auditiv faoliyatning ijro qismi sifatida namoyon bo'ladi. Bog'lanma matnni tinglash chog'ida asosiy e'tibor mazmunni idrok etib tushunishga qaratiladi. Audioxabarning til tomoniga g'ayri-shuuriy munosabat yuritila boshlaydi. Boshlang'ich davrda ong ishtiroki sezilib turishi tabiiy.

Auditiv mashqlardagi tinglanganning natijalarini tahlil etish qismida audioaxborotni o'zgalarga yetkazish (bayon qilish), oldin o'zlashtirilgan axborot bilan o'xshashligi/noo'xshashligini aniqlash, mazmun tomoniga baho berish, unga qo'shimcha qilish, tahlil etish kabilar amalga oshiriladi.

Tinglab tushunish mashqlarini amalda bajarish bo'yicha ayrim tavsiyalar keltirish joizdir.


Tayyorlov mashqlari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: ustundagi so'zlarni eshiting va takrorlang (muallim qiyin materialni tanlab mashq tuzadi); so'zlarni eshiting (misol keltiradi) va quyidagi so'zlar orasidan toping; qofiyadosh so'zlarni aniqlab, ularni raqam bilan belgilang; gaplarni tinglab, o'xshash va farq qiladiganlarini + (plus) yoki — (minus) belgisi bilan aniqlang; buyruqlarni tez-tez bajaring; quyidagi sifat (fe'l)larni tinglang va ular bilan ko'p qo'llanadigan otlarni ayting; tanish o'zaklardan yasalgan yangi so'zlarni tinglang va tarjima qiling; tayyor jummalarni tinglang va qanday nutq vaziyatida qo'llanilishini aytib bering; mexanik yozuvdagi

matnni tinglang, so'ngra yozma variantdagi bo'sh qoldirilgan joylarni to'ldiring, audiomatn mazmunida noto'g'ri deb topgan fikringizni isbotlang; kim haqida gap borayotganini fahmlab oling; tasvirlangan va tinglangan axborot farqini aniqlang; tushib qolgan jumlaning topib o'rniga qo'yib ayting; audioaxborotni ona tilida yozib bering; alohida berilgan so'zlar ro'yxatini tinglang, ularni yodda saqlang va muayyan mavzuga oidlarini ayting; ikki-uchta qisqa jummalarni tinglang va ulardan gap tuzib ayting; jumlaning eshiting, unga mazmunan mos yana bir gap qo'shib ayting (VIII—X boblardagi mashqlarga ham qarang).

Nutqiy mashqlarga quyidagi namunalarni keltirish mumkin: dialogni tinglang, unga monandini sherigingiz bilan bajaring; dialogni boshlanishini eshiting, suhbatdoshlardan birining oxirgi jumlasini (replikasi)ni kengaytiring, to'ldiring; fonoyozuv (kinoparcha)ni eshitib, undagi voqealarni aytib bering; magnit tasmasidagi dialogni tinglang va uni monolog shaklida so'zlab bering; magnitofondan qator savollarni tinglang, orasida ularga javob berib boring; suhbatdoshlar javoblarini sharhlab bering; dialogning boshlanishini eshitib, juft bo'lib uni davom eting; suhbatdoshlar fikrini tasdiqlang yoki rad eting; diktorga nutqidagi dialogni eshiting, suhbatdoshlar qo'llagan so'z yoki jumlaning ma'nodoshi bilan almashtiring va yangi dialogni ikki kishi bo'lib ayting; audiomatnni tinglang va savollarga javob qaytaring; tinglaganingizda o'rganib olgan fikrlarni aytib bering; tinglaganingizning boshi (oxiri, o'rtasi)ni qisman o'zgartirib ayting; tinglang va sharhlab bering; kinofilm (parcha)ni ko'rib, asosiy g'oyasini aytib bering; audioaxborotdagi mazmunni bo'laklarga ajratib, ularni nomlang; tinglagan axborotingizga sarlavha o'ylab toping; audiomatnni tinglang, unga taqriz tuzing, quyidagi rejadani foydalaning: a) axborot mavzusi; b) ishtirok etganlar; d) mazmunining qisqacha bayoni; e) asosiy g'oyasi; f) tinglangan mazmunga baho berish.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Tinglab tushunish mashqlari sistemasini sinchiklab tahlil eting.
2. „Maxsus/maxsus bo'lmagan“, „tayyorlov/nutqiy“ terminlarining ma'nolarini tushuntirib bering.



3. Audiomatndagi materialni va audioaxborot mazmunini tinglab tushunish haqida fikr bayon eting.

4. Tinglab tushunish mashqlarini o'zingiz bajaring.

XII BOB. GAPIRISHNI O'RGATISH

Gapirish nutq faoliyati turi va malaka sifatida

Gapirish, nutq faoliyatining turi sifatida, og'zaki fikr bayon etish demakdir. Bu — jarayonni bildiruvchi ta'rifdir. Gapirishning psixologik mazmuniga kelganda, uning hosilasi tarzida „fikr“ (mulohaza) ifodalanishini qayd etish zarur. (Mazkur termin inglizcha *utterance*, ispancha *enunciado*, nemischa *Aussage*, fransuzcha *énoncé*, ruscha *высказывание* deb yuritiladi). Soddaroq qilib, „gapirish“ metodik tushunchasi qamroviga (1) fikr bayon etish jarayoni, (2) aytish, (3) og'zaki muloqot, (4) fikr izhori natijasini kiritish mumkin. Gapirish oqibatida fikr aytiladi, ushbu fikrni bayon etish

niyati (ichki turtkisi) esa gapirishga sabab bo'ladi. Savolga berilgan qisqa javob ham, butun bir monolog ham „fikr bayoni“ hisoblanadi.

Chet til o'qitishda yaqin paytlargacha „gapirish“ o'rnida „og'zaki nutq“, hatto „nutq“ terminlari qo'llanib kelardi („nutq“ tilshunoslik lug'atlarida inglizcha *speech, discourse*, ispancha *habla, discurso*, nemischa *Rede, Sprechen*, fransuzcha *parole, discours*, ruscha *речь* so'zlari orqali ifodalanadi). Ona tilida hozir ham „nutqni o'stirish“ deyiladi.

Chet til o'qitish ruhshunoslarining nazariy umumlashmalariga ko'ra¹ nutq muloqot jarayoni emas, gapirish ham emas, nutq — gapirish yanglig' faoliyat chog'ida fikrning ro'yobga chiqish va ifoda qilish usulidir.

Gapirish — biror fikrni izhor etish maqsadida muayyan tildagi leksik, grammatik va talaffuz hodisalarini qo'llashdan iborat. Avval o'yla, keyin so'yla, deyilishi bejiz emas. „O'yla“ qismida fikr paydo bo'lishi, „so'yla“da esa uni nutqharakat sezgisi/analizatori orqali „bayon etish“ tomonlari nazarda tutiladi. Birinchisi — til materialining qo'llanilishidir, ular leksik, grammatik, talaffuz ko'nikmalari deyiladi, ikkinchisi — fikr aytish jihati — gapirish malakasi nomi bilan yuritiladi.

O'quvchilarga chet tilda gapirishni o'rgatish oraliq amaliy maqsad sanaladi, ya'ni ta'limning dastlabki bir necha (taxminan, uch) yili davomida ular gapirish va tinglab tushunishni (og'zaki nutqni) o'rganishadi, o'qish va yozuv (yozma nutq) o'qitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yuqori sinflarda o'qish va tinglab tushunish (retseptiv nutq) maqsad maqomini egallaganida, gapirish o'qitish vositasiga aylanadi. Demak, gapirish uch vazifani o'taydi: aloqa vositasi, o'qitish vositasi va o'qitishning amaliy maqsadi (tinglab tushunish va o'qish ham yuqori sinflarda shunday mavqega egadir. Yozuv esa maqsad emas, faqat vosita vazifasini bajaradi).

Chet tilda gapirishga oid ko'p sonli ilmiy terminlar metodika fanida keng istifoda qilinadi. Ularning muxtasar uslubiy tahlili darkordir.

Gapirishning g'oyat mukammal darajada bo'lishi „spontan“ (o'z-o'zidan beixtiyor sodir bo'ladigan) nutq nomini olgan.

¹ И. А. Зимняя. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. — М: Просвещение, 1978. — 58-бет.

Bir soʻz bilan ifodalaganda, „erkin nutq“ deyilgani maʼqul. Erkin nutqqa yaqin turadigan javob nutqini ham eslatish joizdir. Oʻzga shaxs nutqiga ergashib gapirilganda, u taqlidiy (imitativ) nutq nomi bilan ataladi. Nutqiy matnning biror parchasini aniq tushunmagan holda aytish assotsiativ, stoxastik yoki fikrsiz nutq tarzida namoyon boʻladi. Afsuski, pedagogik amaliyotda u koʻp uchraydi.

Eski metodik adabiyotlarda „tayyorlangan/tayyorlanmagan“ nutq termini uchraydi. Tayyorlanmagan nutq soʻzlanganda, u ekspromt (badiha) shaklida sodir etiladi, yaʼni u oldindan rejalashtirilmagan nutq vaziyati yoki mavzusiga koʻra gapirishdir. Oddiyroq qilib aytilganda, tayyorlanmagan nutq yuritishda, vaqt eʼtibori bilan avvaldan hozirlik koʻrilmaganligi taʼkidlanadi. Tayyorlangan termini orqali nutq vaziyati, mavzusi yuzasidan muayyan til materiali asosida oldin mashq qilingan fikr bayon etish usulini tushunamiz.

Chet tilda gapirish uch qismdan iborat nutqiy faoliyatdir.

Dastavval gapirishga moyillik (motivatsiya) boʻlishi taqozo etiladi. Ushbu til vositasida fikr aytish ehtiyoji tugʻiladi (yoki u maxsus tashkil etiladi). Nutqiy harakatni bajarishga mayl paydo boʻlsa, biror axborot berish, savolga javob qaytarish yoki nonutqiy harakat (mas. iltimos, buyruq)ni ijro qilishga kirishiladi. Gapirishning ushbu qismida aytish niyati (ruscha *интенция*) paydo boʻladi, xolos.

Fikrning izhor qismida esa analiz-sintez amallari ishga tushadi. Buning uchun xotirada tutish (assotsiativ bogʻlanish) xizmat qiladi. Paradigmatik va sintagmatik bogʻlanish mavjud. *Paradigmatik* aloqada ichki bogʻlanishlar soʻzlarning turli belgilariga binoan taqqoslanishi kuzatiladi; aytilishida bir xil va yozilishida farq qiladi (*see — sea, two — too*); maʼnosi yaqin (*big — large*); zid maʼnoli (*go — come, here — there*). Gapirishni oʻrganishda *sintagmatik* aloqalarning ahamiyati ulkan boʻlib, bunda soʻzning turli birikmalarda qoʻllanilishi koʻzda tutiladi.

Gapiruvchi xotirada tayyor turgan soʻzni yoki grammatik birlikni tanlaydi, odatda, ona tili hodisalari xotirada tayyor turadi. Binobarin, interferensiya paydo boʻladi (mas. chet til va ona tilidagi soʻz tartibi bunga yaqqol misoldir).

Gapirishning uchinchi qismi *ijro etish*; fikrni bayon etish, talaffuz qilish, yaʼni tashqi nutqda uni ifodalashdan iborat.

Uchala qismning amal qilishi nutq faoliyati turlaridan gapirishni yuzaga keltiradi. Nutqning sodir bo'lishiga doir ilmiy muammolar zamonaviy psixolingvistik tadqiqotlarda (akad. A. A. Leontyev, akad. I. A. Zimnyaya va boshqalar asarlarida) mufassal yoritilgan.

Fikrni og'zaki bayon etishni (gapirishni) o'rgatish fikrining yozma bayoni, o'zgalar nutqini idrok etib fahmlash (tinglab va o'qib tushunish) kabi nutq faoliyati turlari bilan uzviy bog'langan holda tashkil etiladi.

Fikrni og'zaki ikki shaklda, ya'ni bog'lanma (monolog) nutq va suhbat tarzidagi (dialog) nutqda ifodalash mumkin. Chet tilda monolog va dialogni o'rgatish o'quv dasturining asosiy talablaridandir. Binobarin, ikkala shakldagi nutqning o'ziga xos tomonlarini muallim bilishi kerak. Masalan, monolog uchun to'liq (qisqarmagan) jumlar va ularning nisbatan uzluksiz tizimlarini qo'llash ahamiyatli bo'lsa, dialogda tayyor jumlar, ellips (qisqargan) gaplar ko'proq ishlatiladi. Ona tili va chet tildagi hodisalarning qiyosiy tahlili natijalari ham hisobga olinadi.

Muayyan nutqiy mexanizmlar tarkib topgandagina chet tilda gapirishni o'rganishga erishiladi.

1-§. Gapirishning psixofiziologik mexanizmlari

Barcha nutq faoliyati turlarida bo'lganidek, gapirishning ham o'ziga xos mexanizmlari bor. Gapirish amalga oshishi uchun o'quvchilarda tegishli qator psixofiziologik mexanizmlar shakllangan bo'lishi kerak. (Ular to'g'risida E. I. Passov¹ ma'lumot bergan.) Shunday mexanizmlar haqida muxtasar mulohazalar keltiriladi.

1. *Reproduksiya mexanizmi*. Nutq jarayonida ba'zi elementlar tayyor holda qo'llansa, ayrimlari yangidan yaratiladi. Mas. ingliz tili nutqida tayyor jumlar 25 foizni tashkil etishi aniqlangan (metodist va tilshunos prof. Emmanuil Petrovich Shubin tadqiqotlari buni isbotlagan). Takrorlanadigan (rekurrent) va tasodifiy (okkazional) til hodisalari nutqda ishlatilishi aniqlangan. Nutqni mukammal egallagan gapiruvchi rekurrent

¹ E. И. Пассов. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. — М.: Русский язык, 1989. — 126—128- betlar.

elementlarni kamroq ishlatadi, bo'sh gapiradiganlar esa rekurrent hodisalarni ko'proq qo'llaydilar.

Reproduksiya uch xil ko'rinishda bo'ladi: 1) jumla va mazmunni o'zgarishsiz reproduksiya (qayta qo'llash) odati mavjud (to'liq reproduksiya — o'rganilganni o'zgartirmay aytish); 2) matndan o'zgarishsiz olingan jumlar yordamida mazmunni aytish (qisman reproduksiya); 3) mazmunni yangi jumalarda ifodalash (reproduksiya — transformatsiya).

2. *Tanlov mexanizmi*. So'zlarni hamda nutq namunalari saylab aytishning farqiga borish kerak. So'zlarni tanlab aytishda, assotsiativ aloqalar shakllanganligiga qarab, ularni xotiradan tez yoki sekin „topish“ mumkin. Nutq namunasini xotirada tiklash bobida uning muayyan nutq vaziyatidagi vazifasi va muloqot maqsadiga ko'ra assotsiatsiyaga kirishini bilish zarur.

3. *Birlashtirish mexanizmi*. Gapiruvchi so'zlar va gaplarni birlashtirish jarayonida oldingi til tajribasida uchratmagan yangi birikmalarni shakllantiradi. Bunda, jumladan, yirikroq nutq birliklari, mavzu va ularning bir nechtasi yig'indisi bo'lishi ham mumkin. Birlashtirish birligi qilib, so'z, sintagma, jumla belgilangan. So'z birikmalarini alohida e'tibor berib o'rgatish zarur, chunki, jiddiy qiyinchiliklar shu hodisada yuz beradi. Oldingi ikki mexanizm amali ushbu birlashtirish jarayoniga ko'p tomondan bog'liq. Yaratish qobiliyatiga ko'ra nutq mahsuli (matn) yuzaga keladi. Binobarin, birlashtirish mashqlari nutqiy yo'nalgan bo'lishi kerak.


4. *Tuzish mexanizmi*. Gapirishni malaka maqomida egallagan o'quvchi fikr bayon etishda qoidaga suyanmay nutqiy faoliyat yuritadi. Keng miqyosda yoki qisqartirilgan mavhumotdan foydalanish malakaning rivojlanish darajasi bilan o'lchanadi. Tilni his etish zaminida, shakllangan mavhum qolipga o'xshatish yo'li bilan, lingvistik nazariyani eslamagan holda nutqiy mahsulot (matn)ni tuzish operatsiyalari bajariladi.

5. *Oldindan sezish mexanizmi*. Ravon gapirish uchun nutq oqimida nimani aytishni oldindan sezib borish, uni davom ettirishga tayyor turish zaruriyati tug'iladi. Oldindan sezish mexanizmi ikki ma'noda — til materialini ishlatish va mazmunni „bashorat qilish“da namoyon bo'ladi. Ayrim jumlar orasida uzoq to'xtab qolishni (pauzani) bartaraf etishda ushbu mexanizmning amal qilishi yordam beradi. Mazkur mexa-

nizmni shakllantirish uchun maxsus mashqlarni bajarish, natijada tajriba hosil qilish zarurdir. Mazmuni oldindan ilg'ash nutqiy vaziyatni puxta bilishga bog'liq. Fikr yuritishda „kelajakni ko'ra bilish“ gapiruvchining muhim vazifasi va asosiy burchidir. Demak, yetarli mashqlar bajarishga to'g'ri keladi.

6. *Diskursivlik mexanizmi*. Agar oldindan fahmlab borish yo'li bilan nutqni tayyorlashga erishilsa, diskursivlik yordamida gapirishning uzluksiz borishi jarayoni boshqariladi, gapiruvchining nutqiy taktikasi va strategiyasi amalga oshiriladi. Bu mexanizm mantiqiy fikrlashga asoslangan bo'lib, o'quvchi undan foydalanganda, ongli holda nutqiy vaziyatni chamlaydi, suhbatdoshi fikrini to'g'ri idrok etib va uning noverbal muomalasini (mas. xatti-harakatini) ham ilg'ab, unga munosib javob qaytaradi, gapirish mohiyati va vaziyatiga oid bilimlarini ishga soladi va h.k. Ushbu mexanizm ishida ona tilidagi amallar doimo yordam beravermaydi. Demak, diskursiv (anglab) gapirishga yetarli mashqlar o'tkazish tavsiya etiladi.

Gapirishning psixofiziologik mexanizmlari amalini bilish alohida ahamiyat kasb etadi.



O'quv-metodik topshiriqlar

1. Gapirishning psixofiziologik mexanizmlari nomlarini ayting.
2. Gapirishning psixofiziologik mexanizmlaridan bir-biriga yaqinlarini aniqlang.
3. Atalgan mexanizmlarning mohiyatini tahlil qiling.

2-§. Tilshunoslik va ruhshunoslikda gapirishning tavsifi

Til vositalari yordamida fikrni bayon etish birmuncha qiyin kechadi. Chunki ushbu jarayonda bir yo'la ikki xil nutqiy dasturni bajarishga to'g'ri keladi: biri tafakkurga oid, ya'ni fikr yuritish jihati bo'lsa, ikkinchisi til birliklarini qo'l-

lashdir. Undan tashqari dialog (juftnutq) va monolog (yakkanutq) xususiyatlarida keskin tafovutlar seziladi.

O'quvchining harakati leksika, grammatika va talaffuzni egallashga yo'naltiriladi. Yakkanutqda murakkab sintaktik va leksik shakllar ishlatiladi. Ular, ko'pincha, yozma nutq materialiga yaqin turadi.

Juftnutqda qisqartirilgan birliklar tilning barcha hodisalariga taalluqli bo'ladi. Bu nutqning erkinligidan dalolat beradi. Juftnutqning asosini turli replikalar tashkil etadi. Replikalar gapirishga undovchi va javob jumllaridan iborat bo'ladi. Replikalar birikuvidan dialogik birlik¹ hosil qilinadi. Ulardan savol — javob, savol — savol, xabar — savol, xabar — xabar, xabar — qo'shimcha xabar, gapga undash — xabar, gapga undash — savol singarilar juftnutqda keng tarqalgan.

Juftnutqning asosiy xususiyatlari quyidagilardir: 1) ajralmas ikki replika (dialogik birlik)ning nutqiy vaziyatga mos kelishi; 2) juftnutq faqat savol — javob emas, balki turli replikalarning almashishi natijasidir; 3) dialogik birlikdagi ellips va qisqartmalarning o'z o'rnida qo'llanilishi; 4) suhbatdoshning replikasi sheriginiki bilan mazmunan bog'lanishi. Undovchi (*stimul*) replikani avvalo tushunib, so'ngra javob (*reaksiya*) replikasi aytiladi. Juftnutqda ikki va undan ortiq sheriklar tinglovchi/gapiruvchi sifatida navbatma-navbat axborot almashadilar. Juftnutqni oldindan to'liq tayyorlash imkoniyati yo'q. Nutq oqimida turli-tuman fikrlar almashinadi.

Yakkanutq ham o'ziga xos belgilar bilan farqlanadi: 1) nisbatan uzluksizlik hukm suradi, birdan ortiq jumla aytiladi, binobarin, fikr bog'langan holda bayon qilinadi; 2) mazmunan izchillik kuzatiladi, ifodalanadigan g'oyalar tayanch jumlar vositasida asta-sekin rivojlantirib boriladi; 3) fikr-mulohazaning ma'lum darajada tugallanganligi nutq namunalarida ifodalanadi. Yakkanutq bir kishi nutqi bo'lib, ketma-ket keladigan jumlar mantiqan bog'lanadi, nutq ohangi va mazmuni jihatidan qo'yilgan maqsad sari yo'naltiriladi. Yakkanutq operatsiyalari tushunchasi quyidagilardan iborat: 1) axborot predmeti, ya'ni nima haqida gapirish aniqlanadi (mas. predmet tasviri — narsaning nomi, rangi, turgan joyi kabilar gapiri-

¹ Н. Д. Шведова. К изучению диалогической речи. // ВЯ, 1957, № 2. — 68-бет.

ladi; predmetga munosabat bildirish — yoqadi/yoqmaydi, yaxshi/yomon; sinf, maktab, uy haqida gapirish; o'qilgan yoki tinglangan matn mazmunini gapirish; rasmni tasvirlab berish va h.k.); 2) o'zlashtirilgan til hodisalarining xotira „ombori“dan keraklisini tanlab ishlatishga harakat qilinadi (nimalardir tayyor holda olinadi, boshqalarini almashtirish, kengaytirish, qo'shish, birlashtirish mumkin bo'ladi; 3) mo'l-jalga ko'ra fikrni tashqi nutqda aytish.

Nutqning qator xususiyatlari borasida quyidagilarni bayon etish joizdir (ular ruhshunoslik fanida isbotlab berilgan):

Gapirish jarayon bo'lganligidan, eng avvalo, unda fikr bayon etishga moyillik (motivatsiya) tomoni ko'zga tashlanadi. Gapirish mayli *ichki* va *tashqi turtki* (motiv)lar zaminida paydo bo'ladi. Shu maqsadda O'NV larni tanlash va yaratishning ahamiyati beqiyosdir. O'NV, odatda, *tabiiy* (hayotiy holat) va *sun'iy* (tasavvurdagi holat) bo'ladi. O'NV yaratish chog'ida *vizual* va *verbal* tayanchlar qo'l keladi. Amaldagi O'NV nutq mavzusi doirasida va mavzulararo hamda mavzuga deyarli bog'lanmagan bo'lishi mumkin. O'NVni o'quvchilarga tavsiya etish yo'llari turlicha: so'z bilan tasvirlab berish (verbal vaziyat), ko'rgazmali vositani namoyish etish (vizual vaziyat), matnni teatrlashtirilgan vaziyatga aylantirish (inssenirovka qilish va tabiiy holatni qo'llash (real vaziyat).

Nutq doimo tinglovchiga qaratiladi, auditoriyaga mo'ljal-lanadi. Kim bilandir fikrlashish, kimgadir nimanidir isbot-lash, ularni ishontirish, ulardan iltimos qilish kabilar gapirish chog'ida amalga oshiriladi. (Maktab tajribasida uchraydigan shipga yoki yerga qarab gapirishni, faqat muallimgagina axborot berish odatini tark etmoq lozim.)

Nutq hamisha situativ (vaziyatga bog'liq) bo'ladi. Ga-pirayotganda O'NVni aks ettirishga intilish, uni tasavvur etib fikr aytish maktab hayotida qabul qilingan metodik an'ana-lardandir. Vaziyatga bog'liqlik og'zaki nutqning yetakchi xususiyatlaridan biridir.

Gapirish obyektiga o'z munosabatini bildirish, o'z his-tuyg'ularini ifodalash yana bir belgi hisoblanadi. Nutq maz-muni gapiruvchining holati, fikr-mulohazasi, hayotiy tarzi kabilarga mos tushmog'i lozim.

Xullas, gapirishda moyillik (motivatsiya), tinglovchiga mo'ljallanganlik, vaziyat (situativ) va his-tuyg'uni ifodalovchi xususiyatlar namoyon bo'ladi.

Gapirishga qo'yiladigan talablarning miqdori va sifat ko'rsatkichlari o'quv dasturida keltiriladi. Unda o'quvchining har bir sinfda qaysi mavzu va vaziyatlar bo'yicha nechtdan replika ayta olishi ko'rsatiladi.

Gapirish uchun, avvalo, muayyan shart-sharoit yaratiladi; 1) gapirishga undash maqsadida muallimning mavzu yoki O'NV taklif etishi; 2) o'quvchining nimani gapirishiga oid hayotiy bilimga ega bo'lishi; 3) fikrlash va fahmlashga oid nutq obyektiga o'quvchi munosabatini shakllantirish; 4) fikrni izhor etishdan ko'zlanadigan maqsadni aniqlash (uning ushbu O'NVda dolzarbligi hal qiluvchi ahamiyatga molik); 5) fikr va his-tuyg'ularni ifodalash vositasining shakllanganligi (nutq yuritishda mavjud malaka va ko'nikma ish beradi). Ushbu shartlarining ayrimlari yetarli, boshqalari qoniqarsiz bo'lishi natijasida gapirishda qiyinchiliklarga duch kelinadi.

Nutqning sodir bo'lishi o'ta murakkab aqliy jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham nutq sohasida turli fanlar (tilshunoslik, ruhshunoslik, mantiqshunoslik, ta'limshunoslik)da tadqiqotlar olib boriladi (N. I. Jinkin, V. A. Artemov, B. V. Belyayev, A. R. Luriya, A. A. Leontyev, I. A. Zimnyaya va boshqalar ilmiy asarlarida nutq faoliyatining operatsiya va amallari, ko'nikma va malakalari hamda boshqa ko'plab tushunchalar keng yoritilgan).

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Juftnutqning asosiy xususiyatlarini o'rtoqlaringiz bilan muhokama qiling.
2. Yakkanutqning o'ziga xos belgilarini tahlil eting.
3. O'quv nutqiy vaziyat (O'NV) haqida fikringizni ayting.
4. Juftnutq va yakkanutqning mushtarak va farqli jihatlarini gapirib bering.

3-§. Juftnutq va yakkanutq shaklida gapirishni o'rgatish

Barcha nutq faoliyati turlari, jumladan, gapirish mashqlar bajarish orqali o'rgatiladi. Gapirish mashqlari sistemasi ko'nikma va malakani shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda takomillashtiruvchi omillar vazifasini o'taydi. Demak, gapirish

ko'nikmasini shakllantirish, uni rivojlantirish va malaka hosil qilib, uni takomillashtirish zaruriyati tug'iladi.

Dastlabki bosqichda, og'zaki nutqning ilgarilashi sharoitida, yozma (grafik) matn ishtirok etmaydigan mashqlar zaminida gapirish ko'nikma va malakasi o'stiriladi. Ikkinchi bosqichda og'zaki matn (uning yozma shakli ham bo'lishi mumkinligi)ga tayanib, gapirish mashqlari o'tkaziladi. „Og'zaki“ deyilishiga sabab, gapirish hosilasi xususida gap bormoqda. Oxirgi bosqichda esa nutq materialini mutlaqo yangi O'NVda qo'llanadi, chunki murakkabroq nutqiy vazifalar paydo bo'ladi. Gapirish malaka maqomiga ko'tarilishi sababli, til (verbal) yoki ko'rgazmalilik (vizual) tayanchlaridan endi foydalanilmaydi. Gapirishning faqat mazmuniga e'tibor beriladi.

Lekin ko'nikma va malaka hosil qilish chog'ida yana bir o'zgacha bosqich borki, gapirish bu yerda muloqot vositasi mavqeyini oladi, uni nutqiy aloqa qilishning chinakam davri, deyish to'g'riroq bo'ladi (to'rtinchi bosqich deyilmaydi). Oldingi uchala bosqichda ham muloqot bo'lgan edi, biroq bu muloqot ikkinchi darajalidek tuyulardi, maqsad gapirishning uch bosqichini o'tish edi. O'tilgan uch toifa mashqlar endilikda sof nutqiy mashqlarga o'z o'rnini beradi. Muloqot bosqichida o'qish, tinglab tushunish va yozuv ham aloqa vositasi tarzida o'rgatiladi. Nutq faoliyati turlari yaxlit namoyon bo'ladi. (Uch bosqichli mashqlar bajarish masalasi til materialini o'rgatishga bag'ishlangan VIII—X boblarda ko'rib chiqilgan edi.)

Chet tilda fikr bayon etish uchun reproduktiv yoki produktiv nutq o'rgatilishi davomli munozaralarga sabab bo'lgan. Maktab o'quv dasturida reproduktiv nutqni o'rgatish tavsiya qilingan. Ular haqidagi qizg'in bahslar bayoniga to'xtab o'tirmay, ularni metodik jihatdan quyidagicha ta'riflash va ularga amaliy tavsiyalar berish mumkin: „Reproduktiv nutq“ — ozmi-ko'pmi muloqot darajasiga yetkazilgan chet tilda fikr bayon etish (va idrok etib tushunish)ni bildiradi. Termin nomidan ayonki, oldin o'rganilgan til materialini chegaralangan mavzularda qo'llab, axborot almashish tushuniladi.

„Produktiv nutq“ni egallash esa mavjud til tajribasidan foydalanib, ijodiy nutq yuritish ma'nosini anglatadi. Til birliklari va nutq mavzulari bilan nutqiy vaziyatlar kommunikant (fikr bayon etuvchi va nutqni idrok etib tushunuvchi)

tomonidan ijod qilinadi, yasaladi. Notanish birliklar idrok jarayonida tanib va fahmlab olinadi. Xullas, „produktiv“ deganda, yaratuvchilik, ijodiy yondashish mezoniga ko‘ra ish tutiladi.

Yuqorida zikr etilgan uch bosqichli mashqlar sistemasi amaliyotda reproduktiv nutqni egallashga qaratilgan. Tilga olingan „chinakam muloqot“ uchun mo‘ljallangan mashqlar chet tilda soddaroq produktiv nutqni o‘rgatish imkonini tug‘dirishi mumkin (chinakam, ya’ni produktiv nutqni ona tilida egallash maqsad qilinadi).

Shunday qilib, maktab o‘quvchilari chet til o‘rganish mobaynida reproduktiv nutqni egallashlari rejalashtirilgan, reproduksiya doirasida tayyorlangan va tayyorlanmagan nutq o‘rganadilar. Bu turdagi til o‘rganish retseptiv nutqqa ham taalluqli.

Juftnutq va yakkanutqning amaliyotda birga o‘rgatilishi ko‘proq tarqalgan, biroq ularni o‘rgatish metodikasi alohida-alohida nazariy ko‘rib chiqiladi. Ikkala shakldagi nutqning xususiy belgilari qiyoslanganda ular o‘rtasidagi farq yaqqol ko‘rinadi¹.

| Sohaga aloqadorlik | Juftnutqda | Belgilar | Yakkanutqda |
|--------------------|-------------------|------------------|-------------------|
| kommunikativ | turli yo‘nalishda | ← maqsad | → bir yo‘nalishda |
| informativ | almashish | ← axborot | → yetkazish |
| kibernetik | kuchli | ← aloqa | → kuchsiz |
| ruhshunoslik | muqobil | ← nutqiy faollik | → yo‘nalgan |
| tilshunoslik | qisqartirilgan | ← uslub | → to‘liq |
| paralingvistik | ko‘p | ← situativlik | → kam |
| psixofiziologik | o‘zgaruvchan | ← vazifa | → aniq |

Juftnutqni o‘rgatish. O‘rta umumiy ta’lim maktabida juft-nutqning quyidagi turlarini o‘rgatish tavsiya etiladi:

1. Axborot almashish maqsadidagi juftnutq.
2. Reja-juftnutq (birga faoliyat ko‘rsatishni mo‘ljallaydigan juftnutq).
3. Munozara-juftnutq. Fikr bayon etish bo‘yicha juftnutq. Ularning har qaysisi xususiy til materialini taqozo etadi hamda turli ta’lim bosqichlariga tegishli bo‘lishi mumkin.

¹ Очерки методики обучения устной речи на иностранных языках. / Под ред. В. А. Бухбиндера. — Киев: Высшая школа, 1980. — 75-бет.

Axborot almashish juftnutqida suqbatdoshlar ashyoviy xabarlarni bir-birlariga yetkazadilar. O'zaro yoki bir tomonlama xabardor qilishga qaratilgan bo'lib, bu juftnutq ta'limning ibtidoiy bosqichida qo'llanadi, chunki undan oddiyroq yoki miqdoran kam til materiali asosida ham foydalanish mumkin.

Reja-juftnutq esa shaklan murakkabroq va mazmunan chuqurroq bo'lgani sababli, unda fe'lning kelasi zamonini bilish, buyruq gaplardan xabardor bo'lish, suhbatdosh fikrini rad eta olish va o'zinikini himoya qila bilish kabilar zarur bo'ladi. U ta'limning o'rta bosqichiga mos keladi.

Munozara-juftnutqni bajarishda sabab-oqibat munosabatlari tufayli ergashgan qo'shma gapni o'zlashtirish va modalikning turli vositalarini qo'llay olish talab etiladi. Fikrni dalillash, suqbatdoshni ishontira olish, tanqidiy yondashish, xatoni isbotlash kabilar juftnutqni bajarish chog'ida zarur bo'ladi. So'zlovchi diqqati nutq mazmuniga tortiladi. Nutq malakalari takomillashgan darajaga yetkaziladi. Munozara-juftnutq yuqori sinflarda mashq qilinadi.

Metodikada juftnutq ikki yo'l bilan o'rgatilishi ma'lum: deduktiv (umumiydan xususiya yo'nalgan) va induktiv (xususiyan umumiyga).

Deduksiyada juftnutqning yaxlit namunasiga suyanib ish ko'riladi. Namuna juftnutq birliklari majmuyi sifatida avvalo tinglab tushunishga beriladi, so'ngra u yod olinadi, keyinchalik leksik o'zgarishlar qilib, qism-qism ishlab chiqiladi va, nihoyat, juftnutqni ijro etishga kirishiladi. Mazkur yo'nalish tarafdorlari mulohazalariga ko'ra, tilni tabiiy holda „yuqoridan pastga“ (deduktiv tarzda) o'rganishga odatlanilgan. Biroq bunday yondashishda o'quvchi til materialini nutqda mustaqil qo'llashga o'rganmaydi, g'ayrishuuriy ravishda yodlash va erkin nutq yuritmaslik ko'chasiga kirib qoladi.

Induktiv usulda juftnutqni kichik birliklardan boshlab, mustaqil fikr yuritish mashq qilinadi. Bunda ham qolip — namunadan foydalanish taqiqlanmaydi, lekin yodlash uchun emas, unga taqlid qilish maqsad qilib qo'yiladi. Nutqiy mashqlarni ishlatish bilan birga til materiali (mas. tipovoy va tayyor jumlar)ni ham o'zlashtirishga e'tibor beriladi. Shu niyatda juftnutq birilgini yodlash, jumalarni biriktirib qo'llash, replikalarda grammatik va leksik o'zgarishlar qilish inkor etilmaydi.

Juftnutq, odatda, xabar, savol, gapirishga undashni ifodalovchi luqmalardan boshlanadi. Quyi sinflarda savol va undash qulayroq, o'rtta bosqichda xabar ma'qulroq. Juftnutq ishtirokchilarining nutqiy muomalasi oldindan boshqarilishi — programmaga tushirilgan (algoritmik) yoki boshqarilmasligi erkin savol-javob tarzida (evristik) o'tishi mumkin. Situativ juftnutqda asosiy e'tibor mavzu, maqsad va rollarga qaratiladi. Mavzu haqida gapirganda, nutq predmetini (nima gapirishni) tanlash, gapirish niyati yoki maqsadi deganda, vazifani to'g'ri belgilash va rollar bo'yicha esa suhbatdoshlarni to'g'ri topish anglanadi. Bular muallim zimmasiga yuklanadi. Har bir juftnutq ishtirokchisi tegishli rolning ijrochisidir. Demak, o'quvchi „san'atkor“ bo'ladi, muallim birvarakay rejissor, tinglovchi va suflyor (yo'riqchi)lik vazifasini o'taydi.

Nutq ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish chog'ida qo'llanadigan juftnutq tayyorlov mashqlaridan tashqari uni maxsus nutqiy mashqlar orqali o'rgatish tavsiya etiladi. Juftnutqni o'rgatish qator malakalarni singdirishni taqozo etadi: o'zining nutqiy vazifasini aniq bilish; suhbatning borishini rejalashtirib olish; muloqot davomida nutq rejasida qisman o'zgarishlar qilish; suqbatdoshidan gapirish tashabbusini qo'lga ola bilish; sherigiga o'z vazifasini bajarish uchun imkon tug'dirish; nutqiy vaziyatga qarab, suhbatdoshi fikriga muvofiq munosabat bildirish; suhbatdoshni nutq muomalasiga tortish kabilar.

Mazkur juftnutq malakalari o'quvchilarda rivojlantirilsa, ular fikr almashishga qodir bo'ladilar.

Juftnutqning kengaytirilgan shakli guruhnutq (ikkidan ortiq o'quvchi) ishtirokida ijro etiladi.

Chet tilda juft yoki guruh-guruh bo'lib gaplashish rag'batlantiruvchi omillar ko'magida tashkil etiladi. Bunday omillar tarkibiga ko'rgazmalilik, tinglangan yoki o'qilgan matn, diafilm (kinofilm yoki parcha), slaydlar va, albatta, verbal (so'z bilan ifodalangan) nutq vaziyati kiradi. Bular gapirishni boshlashda, ayniqsa, muhimdir.

Xullas, juftnutqni o'rgatishning **retseptiv**, **reproduktiv** va **konstruktiv** bosqichlari ma'lum (G. V. Rogova). Birinchisida o'quvchi diktor/muallim nutqini tinglaydi (o'qiydi) va tushunib oladi. Reproduktiv bosqichda tinglaganiga/o'qiganiga taqlid qilib o'zi aytadi, matnni uyda yod olishi mumkin, ayrim

joyini o'zgartirib aytadi. Konstruktiv pallada O'NVdan atrofli-cha foydalanib, o'quvchilar mustaqil suhbat quradilar.

Yakkanutqni o'rgatish. Fikrni bayon etishda alohida so'zdan tortib, to matngacha bo'lgan nutqiy materialdan foydalaniladi. (Mas. „Isming nima?“ deganda, alohida aytilgan so'z (ism) javob replikasidir.) Muallim oldida turadigan eng muhim ishlardan biri, maktabda ko'p uchraydigan hodisa — o'quvchilarning mazmunsiz jumlar yig'indisini bahoga „almashtirilishi“ni bartaraf etishdir.

Juftnutq situativ hisoblansa, yakkanutq mavzu yuzasidan gapirish, demakdir.

Mavzu bo'yicha yakkanutqni o'rgatish qator bosqichlardan o'tadi: shaxsiy hayot (shuningdek, til) tajribasini ishga solish; fikr mulohazalarini izchil bayon qilish; aytilayotgan axborotni yaxlit holda keltirish; o'z munosabatini bildirish. Til tajribasini ishga solganda, o'quvchi uning nutqiy, lisoniy va lingvistik taraflaridan zarurlarini qo'llashga intiladi. Demak, fikr izhor qilish uchun til birliklari va ularni nutq amaliga kiritish mavhumotlari safarbar etiladi. Birinchi bosqichda shakllantiruvchi mashqlar bajariladi. Ikkinchi bosqichda rivojlantiruvchi mashqlar qo'l keladi. Hayotdan hikoya qilish, turmushga oid mulohazalarni aytib berish va ularni ketma-ket gapirish mashqlari bajariladi. Rivojlantiruvchi mashqlar nutqiy ko'nikmalardan malakaga o'tish „ko'prigi“ hisoblanadi. Tajribani ishga solishga nisbatan bunda nutq mazmuni bir-muncha chuqurroq ifodalanadi.

Yakkanutq yuritishning navbatdagi bosqichida mavjud axborotlar yaxlitlik (integratsiya) holatiga keltiriladi. Gapirish chog'ida ko'proq mustaqillik paydo bo'ladi, o'quvchi o'qigan va tinglagan nutqidan boy faktlarni jalb etadi. Yangi malakaga erishish pallasidir bu.

Mavzu doirasida gapirishning yuqori bosqichiga ko'taril-gach, bayon etilmish soha bo'yicha faktlar, hodisalar haqida shaxsiy munosabat bildirish, tanqidiy baho berish kabilar mashq qilinadi. Nutq malakasining takomillashuviga erishish pallasiga duch kelinadi. Bu davrda gapirishning axborot eltmaydigan oraliq jumalari (yoki iboralari)dan keng foydalaniladi (mas. chet tilda „menimcha“, „hamma biladi“, „shubha yo'q“, „ishonaman“ kabilar).

Quyidagi aniq bosqichlarni keltirish bilan yakkanutqni o'rgatishni yaqqol namoyish etish mumkin (G. V. Rogova):

1. Muallim yordamida: 1) nutq namunasini qo'llash; 2) uni o'zgartirib aytish: a) ichki leksik almashtirish; b) kengaytirish; d) transformatsiya (shaklini o'zgartirish) va e) tugalash (to'ldirish); 3) mustaqil qo'llash.

2. Muallim yo'llanmasiga ko'ra o'quvchi fikr bildiradi.

3. O'quvchi verbal va vizual nutq tayanchlariga suyanib muallim ishtirokisiz mustaqil fikr bayon qiladi.

Gapirish natijasida o'quvchilar og'zaki bog'lanma matn hosil qiladilar, ya'ni mavzu yuzasidan tugal fikr bayoni ro'yobga chiqadi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Gapirish ko'nikma va malakalarini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish to'g'risida fikr bayon eting.

2. „Produktiv“, „reproduktiv“, „retseptiv nutq“ terminlarini tushuntirib bering.

3. Jadvaldan foydalanib (245-bet), juftnutq va yakkanutq belgilarini qiyosiy tahlil qiling.

4. Juftnutq va yakkanutqni o'rgatish bosqichlarini ta'riflang.

4-§. Gapirishni o'rgatish mashqlari

Har qanday faoliyatni o'rgatish paytida mashq markaziy o'rinni egallaydi. Nutq malakalarini o'zlashtirish deganda, kichik hajmli sodda birliklardan (so'z, so'z birikmasi, gapdan) boshlanib, yirik miqyosdagi murakkab matngacha bo'lgan nutq hodisalarini o'z ichiga olgan mashq bajarish jarayoni tushuniladi. Bularning hammasi oqibat natijada mashqlar majmuyini tashkil etadi. Tayyorlov va nutq mashqlari gapirish ko'nikma va malakasini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish vazifalarini o'taydi. Odatda, ular o'quv mashqlari nomi bilan yuritiladi.

Tayyorlov deganda, gapirishning leksik, grammatik, ta-laffuz ko'nikmalariga daxldor mashqlar bobida so'z boradi. Ularda til hodisalarining shakliy (formal), ma'noviy (semantik), qo'llanilish (funktional) qiyinchiliklarining oldini olishga, sodir bo'ladigan xatolarni to'g'rilashga harakat qilinadi.

Nutqiy mashqlarda esa tayyorlanmagan va tayyorlangan nutq (gapirish) sodir etiladi. O'quv materialini nutq oqimida qo'llash yuzasidan ish olib boriladi.

Tayyorlov yoki nutqiy mashqlarning o'rni o'zlashtirayotgan o'quv materiali xususiyati bilan belgilanadi. Qiyin hodisa ko'p miqdorda mashq qilishga giriftordir. Oson birlikning taqdimotda berilishi uning nutqdagi taqdirini hal qiladi, ya'ni unga kam vaqt va oz kuch sarflanadi. Ikkala toifadagi mashqlar metodik adabiyotda yetarlicha yoritilgan¹. Ulardagi ayrim terminlar nomlari bir-biridan tubdan farq qilsa-da, umumiy ilmiy-amaliy yo'nalishda mushtaraklik hukm suradi.

Juftnutq va yakkanutq maktab sharoitida quyidagi izchillikda o'rgatiladi:

Tayyorlov mashqlari: 1. Taqlid qilish (material o'zgartirilmaydi yoki qisman o'zgarish yuz beradi). 2. Mantiqiy operatsiyalar almashtirish, qayta taqsimlash va shaklini o'zgartirib aytishlarni qo'llash. 3. Jumlani taqlidan yoki mustaqil tuzish. 4. Jumla tuzish va jumalarni guruhlab aytish.

Nutqiy mashqlar. Tayyorlangan gapirish malakalarini o'stirishga mo'ljallangan mashqlar: a) tayanch so'z, gapirish rejasi, sarlavha kabilarga suyanib, fikrni o'zgartirib va to'ldirib bayon etish; b) axborot manbalari (rasm, kino va diafilm, matn kabilar)dan foydalanib, fikr izhor etish; d) o'rganilgan mavzuga asoslanib fikr aytish.

Tayyorlanmagan nutqni o'rgatish mashqlari: a) ona tilidagi hikoya, rasm, ovozsiz film kabi axborot asoslariga tayyib gapirish; b) oldin ko'rgan yoki o'qigan, o'ylagan, xayolidan o'tkazgan fikr-mulohazalardan tarkib topgan hayot tajribasidan kelib chiqib gapirish.

Tayyorlanmagan va tayyorlangan nutqiy mashqlardan namunalar beriladi.

Tayyorlangan juftnutq mashqlariga quyidagilar kiradi: savollarga javob qaytarish (qisqa, to'liq, mufassal javoblar berish), turli savollar berish (mavzu yoki O'NV doirasida); yakkanutq shaklidagi matnni tinglab yoki o'qib juftnutqqa

¹ Гез Н. И., Ляховицкий М. В., Миролюбов А. А. и др. Методика обучения иностранным языкам в средней школе: Учебник. — М.: Высшая школа, 1982. — 257—264-бетлар va boshqa adabiyotlar.

aylantirish; mavzu bo'yicha juftnutq tuzish; yakkanutq matnini rollarga kirib aytish; hikoya (o'quv filmi, diafilmlar) mazmuniga binoan yangi juftnutq tuzish.

Tayyorlangan yakkanutq; mashqlaridan namunalar: bayon etilgan fikrni qisman o'zgartish bilan gapirib berish (boshlanishi/oxirini o'zgartirish, hikoyaga yangi ishtirokchini jalb etish, hikoya tuzilishini o'zgartirib aytish); O'NVni tasvirlash yoki hikoya tuzish (tayanch so'z yordamida, rejaga qarab, ona tilida aytilgan mavzu chet tilda ham bayon etiladi); rasm yoki rasmlar majmuyini tasvirlab berish (karikaturalar, ovozsiz film yoki diafilm ham shunga tegishli); aytilgan so'z va jumlar qo'llanadigan O'NVga oid fikr bayon etish; sarlavha (tili o'rganilayotgan mamlakatga xos narsa yoki hodisani — realiy)ni chet tilda tushuntirish; tinglangan hikoya/radioeshittirish, ma'ruza, nutqning mavzusini aniqlash va muxtasar tushuntirish; axborotni mazmunan ajralib turadigan qismlarga bo'lish va ularni nomlash; matn mazmunini qisqacha va o'z so'zi bilan gapirib berish; tinglangan axborot yoki o'qilgan hikoyani bir nechta jumlada qisqartib gapirish; tinglangan hikoya rejasini tuzish; juftnutqni yakkanutq shaklida aytib berish va h.k.

Tayyorlanmagan juftnutq mashqlari: savollarga asosli javoblar qaytarish; boshqa o'quvchilar ham aralashib turadigan juftnutq yaratish; tayanchlarga suyanib yoki ularga suyanmasdan oldindan tayyorlanmagan juftnutq yaratish; savol-javob o'yini (viktorina) o'tkazish; munozara va tortishuv (disput) shaklida juftnutq o'tkazish.

Tayyorlanmagan yakkanutq mashqlari: hikoyaga sarlavha qo'yish va uni asoslash; o'rganilgan mavzuga daxlsiz notanish rasmlarni tasvirlash; tinglangan yoki o'qilgan mavzuga o'xshash hikoya tuzish; keltirilgan dalillarga o'z munosabatini bildirish; hikoyaning eng muhim joyini aniqlash va asoslash; hikoya qahramonlari (ular yashagan joy, ularning zamoni)ni ta'riflash; tinglangan yoki o'qilgan matn mazmuniga baho berish; muxtasar e'lonlar matnini aytish va h.k.

Tayyorlanmagan gapirish mashqlarining tayyorlanganlardan ijobiy farqi shundaki, birinchidan, ularda nutqiy ehtiyojni qondirishga mo'ljallangan yangi axborot mavjud va ikkinchidan, axborot almashish, mustaqil fikr bayon etish,

munosabat bildirish, baholash, izohlash singari ish turlari nihoyatda qiziqarlidir.

Gapirish jarayonida yo‘l qo‘yiladigan xatolarni nazorat qilish (muallim tomonidan) va o‘z-o‘zini tekshirishning nutq malakalarini egallashda ahamiyati katta. Nutqiy mashqlarni bajarish chog‘ida xatoni to‘g‘rilab turish ma‘qul emas, bu ish fikr bayon etib bo‘lingandan so‘ng qilinadi. (XV bob nutq ko‘nikma va malakalarini tekshirishga bag‘ishlanadi.)

Maktab darsliklarida juftnutq va yakkanutq mashqlari sistemasi ishlab chiqilgan. Mashqlarning berilish tartibi va miqdori muayyan sinf o‘quvchilarining chet tilda hosil qilingan ko‘nikma va malakalari saviyasiga qarab farqlanadi.

O‘quv-metodik topshiriqlar

1. Umuman „mashq“ termini bilan istifoda qilinadigan ta‘limshunoslik tushunchasi haqida fikringizni ayting.

2. Yakkanutq va juftnutq mashqlari orasidagi umumiy va farqli tomonlarni tahlil eting.

3. Tayyorlangan va tayyorlanmagan mashqlarga misollar keltiring.

4. Maktab hayotida qo‘llanadigan (yoki darslikka kirgan) gapirish mashqlaridan bir nechtasini bajaring.

XIII BOB. O‘QISHNI O‘RGATISH

O‘qish nutq faoliyatining turi va malaka sifatida

Chet tilda o‘qishni o‘rganish o‘rta ta‘lim o‘quvchilari uchun yakuniy amaliy maqsad hisoblanadi. „O‘qish“ tushunchasi mazkur sohaga oid ilmiy-metodik ta‘rifga muhtoj.

Muallimlar orasida tarqalgan „o‘qish“ terminining birinchi muhim talqiniga e‘tibor bering: *o‘qish deganda, harfiy belgilarda ifodalangan nutqiy axborotni idrok etish va uning mazmunini payqash jarayoni tushuniladi.*¹ Xuddi shunga monand ta‘rifni chet til o‘qitish ruhshunosligida ham uchratish

¹ Очерки методики обучения чтению на иностранных языках. / Под ред. И. М. Бермана и В. А. Бухбиндера. — Киев: Высшая школа, 1977. — 11-бет.

mumkin¹. Axborot yozma (grafik) kodlar orqali ifodalan-ganda² u o'qib tushuniladi.

Umuman, „o'qish“ tushunchasini ta'limshunoslar keng-roq ma'noda ham bayon etadilar: „grafik koddagi axborotni undan butunlay farq qiladigan kodga (ya'ni tovush kodiga — J.J.) o'tkazish jarayonidir“³. Ushbu ilmiy izohga hayotda uchraydigan o'qish turlarining barchasi kiradi (iyerogliflarni o'qish, piktogrammalarni o'qish, chizmalarni o'qish, o'lchov asboblari (ko'rsatuv)ni o'qish, formulalarni o'qish, notalarni o'qish va h.k.).

Chet til o'qitish metodikasi manfaatini ko'zlab, birin-chidan, harfiy matndagi kod almashinishi (harfning tovushga o'tishi), ikkinchidan, odam bajaradigan tilga oid amal va, uchinchidan, muloqot natijasini yetkazish tarzidagi uch to-monlama jarayon o'qish deyiladi. Birinchisi yozma matnni idrok qilish, ikkinchisi matndagi til materiali „mag'zini cha-qish“ va uchinchisi o'qiyotgan shaxs ruhiy holatida kechadigan o'zgarish (tushunish) bilan bog'liq hodisalarni aks ettiradi.

Metodika fanidagi „o'qish“ tushunchasining tahlili matn ustida olib boriladigan ishlarni belgilovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek tilida „o'qish (va o'qimoq)“ so'zi va undan yasa-ladigan boshqa termin hamda notermin so'zlarning lug'aviy ma'nosini ochishga to'g'ri keladi (chunki ular istifodada aralash-quralash bo'lib ketgan):

o'qimoq — yozilganni tashqi yoki ichki nutqda aytib bermoq: harfni/so'zni/gapni/matnni o'qimoq;

o'qilmoq — (o'qimoq fe'lining majhul nisbati) inglizcha „e“ harfi „pen“ so'zida [e] o'qiladi;

o'qish — 1. Yozilganni aytish (o'qish texnikasi). 2. Matn-ni idrok qilib, mazmunini anglash (nutq faoliyati turi);

o'qilish — harf yoki so'zning o'qilishi (harf-tovush muno-sabati);

¹ З. И. Клычникова. Психологические особенности обучения чтению на иностранном языке. 2-е изд. — М.: Просвещение, 1983, 6-бет.

² Kod — shartli belgilangan sistemadir: Z. I. Klichnikova. Ko'r-satilgan asar. — 6-бет.

³ Очерки методики обучения чтению на иностранных языках. / Под ред. И. М. Бермана и В. А. Бухбиндера. — Киев: Высшая школа, 1977. — 10- бет.

o'qilish qoidasi — harf-tovush munosabatiga oid mavhumot: inglizcha „e“ harfi yopiq bo'g'inda [e] o'qiladi.

Ajratib ko'rsatilgan terminlar va ular ifodalagan tushunchalar chet til o'rgatish metodikasida ma'qul topilgan.

Eslatma: „O'qish (o'qimoq)“ o'zagiga ma'no jihatidan yaqin turadigan (o'qish qoidasi — kitobni o'qiganda uni ko'zdan ma'lum masofada ushlab yoki matnni qismlarga ajratmasdan yaxlitligicha o'qib chiqish; o'qigan — savodli/o'qimishli; o'qitish — ta'lim berish; o'qish — ta'lim olish; o'qish — yoddan aytish; o'qish — duo qilish kabi) ko'p sonli so'z va birikmalar o'qishni nutq faoliyati turi sifatida o'rgatishga daxldor emas. O'qishni o'rgatish ruhshunosligi va metodikasi masalalari alohida ilmiy tadqiqotlarda (I. M. Berman, Z. I. Klichnikova, S. K. Folomkina) va maxsus qo'llanmalarda atroflicha yoritilgan.

O'quvchilarga mazmun (matn nima haqidaligi) va jarayon ichda yoki tovush chiqarib o'qish o'rgatiladi. *Mazmunni (axborotni) yozma matndan olishga qaratilgan nutq faoliyatining turi o'qish demakdir.*

Matndagi axborotni o'zlashtirish ichda (ovoz chiqarmay) o'qish orqali va axborotni o'zgalarga yetkazish ovoz chiqarib o'qish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ovoz chiqarmay o'qiganda ham ichda gapirish (ichki nutq) sodir bo'ladi.

Hozirgi davrda o'qish xuddi ovqatlanish, uyqu, ish singari faoliyat, ya'ni ma'naviy ozuqa olish vositasi bo'lib qoldi. Ilmiy-texnika va boshqa axborotlar asosan o'qish orqali o'zlashtiriladi. O'quvchi chet tildagi darslik matnlari, o'qish kitobi, matbuot xabarlarini o'qib, tili o'rganilayotgan mamlakat hayoti, madaniyati, tarixi, adabiyoti kabilar bilan yaqindan tanishadi. O'qishning shaxs tarbiyasidagi ahamiyati katta. Xalqimiz odobli, bilimdon, ziyoli kishilarga havas bilan „o'qigan“ deb baho berishi bejiz emas, albatta.

Chet tilda o'qish muammolari jahon metodikasida, xususan, rus mutaxassislari tomonidan sinchkovlik bilan tadqiq etilgan¹. Mavjud ilmiy mulohazalarga suyanib, ushbu bobda o'qish masalasining dolzarb mavzulari yoritiladi.

¹ С. К. Фоломкина: 1) Методика обучения чтению на английском языке в средней школе: Доктор. дисс. — М., 1974; 2) Обучение чтению (текст лекций по курсу „Методика преподавания иностранных языков“). — М.: МГПИИЯ, 1980 va boshqalar.

O'qilgan matn axborotini o'zlashtirib olish uchun o'qish malakasiga ega bo'lish kerak. Malaka, ma'lumki, shakllangan: ko'nikmalar asosida rivojlanadi. O'qish malakasi tarkibiga quyidagi ko'nikmalar kiradi: 1) nutq birligi ko'ruv timsolini ning uning eshitish-nutqharakat timsoli bilan aloqaga kirishi ko'nikmasi (nutq birligi: so'z va so'z birikmasi, jumla, hatto, abzas bo'lishi mumkin). Ushbu ko'nikmalar yig'indisi o'qish texnikasini (tovush-harf munosabatini) tashkil etadi va perseptiv ko'nikma (idrok) deb ataladi. Oldin aytib o'rganilgan til materiali yozuvda ko'rinishi bilan munosabatga kiradi, ya'ni og'zaki o'zlashtirilgan hodisa endi yozma o'rganiladi; 2) nutq birligining tovush-nutqharakat timsoli va uning ma'nosi bog'lanishi ko'nikmasi. Bu ko'nikma, o'z navbatida, ikki toifada namoyon bo'ladi: so'z yoki so'z birikmasi tovush timsolini ning uning ma'nosi bilan bog'lanishi (o'qishning leksik ko'nikmasi) va grammatik shaklning ma'no bilan bog'lanishi (o'qishning grammatik ko'nikmasi). Ikkala kichik ko'nikma yaxlit amal qiladi.

O'qish texnikasini bilmagan kishi o'qigan narsasining mazmunini tushunmaydi, shuningdek, o'qilish qoidasini bilishi ham hali ma'noni tushunib yetdi, degan gap emas.

Xullas, o'qish malakasi uch „qirrali“ faoliyat bo'lib, nutq birligining ko'ruv timsoli, uning nutqharakat timsoli va ma'nosidan tashkil topadi. Uchalasini egallab olish o'qish malakasi hosil qilinganidan dalolat beradi. Matnning mazmuni malaka tufayli fahmlanadi. Binobarin, o'qish malakasi yakuniy amaliy maqsad qilib qo'yiladi.

O'qish faoliyat deb qaralganda, uning tarkibi motiv (undovchi sabab) tarzida muloqot yuritish, maqsad sifatida axborot olish, shart-sharoit holida tilning grafik sistemasini bilish hamda axborot olish usullarini egallash, va, nihoyat, natija (oqibat) maqomida o'qilganni tushunib yetish kabilardan iborat. Motiv, maqsad, shart-sharoit va natija to'rtalasi o'qishning uzviy bog'liq tomonlarini tashkil etadi.

O'qish chog'ida ma'no bildiradigan eng kichik grafik birlik bo'lmish so'z idrok birligi deb shartli qabul etilgan. O'qishga kirishayotgan shaxs muayyan so'z boyligini o'zlashtirishi zarur. O'qishda tushuniladigan so'zlar ikki toifada bo'ladi: real-passiv va potensial lug'at. Passiv lug'at deganda, ko'ruv eshitish-harakat timsollari uzoq muddatli xotirada saqlanganligi, ya'ni o'quvchi til tajribasida mavjudligi sababli o'qish

paytida tanib olish mumkin bo'lgan so'zlar anglanadi. Potensial lug'at esa ilgari nutqda sira qo'llanmagan, lekin o'qiganda ma'nosi axborotnomalar yordamisiz ochiladigan so'zlardan iboratdir. Ushbu lug'at ma'nosi kontekst yordamida, morfemalarni (so'z yasovchi elementlarni) bilish tufayli yoki ona tili bilan bir o'zakli so'zlar bo'lganidan fahmlab olinishi mumkin. Lingvostatistika ma'lumotlariga ko'ra, yasama so'zlar va bir o'zakli so'zlar barcha mustaqil ma'noli so'zlarning uchdan bir qismini tashkil etadi (S. K. Folomkina buni batafsil o'rgangan).

1-§. O'qishning psixofiziologik mexanizmlari

Retseptiv nutq faoliyati hisoblanmish o'qishni o'rgatishdagi ta'limiy vazifalardan biri uning psixofiziologik mexanizmlarini¹ shakllantirishdir. Tinglashga oid fikr-mulohazalar o'qishga ham ma'lum darajada taalluqli, chunki ikkalasi ham retsepsiyadir (tinglab va o'qib tushunuvchi retsipiyent deb ataladi). Shunisi borki, bir xil mexanizm tinglash va o'qishda farqli qo'llanadi, chunki nutq ko'rish (grafik matn) yoki eshitish (audiomatn) orqali idrok etiladi.

Antisipatsiya (oldindan fahmlash) mexanizmi o'qishda eng muhimi sanaladi. Strukturani oldindan fahmlash haqida so'z yuritilyapti (hozir gap mazmunni fahmlash borasida borayotgani yo'q). Ushbu mexanizm ataylab rivojlantiriladi.

O'qishda amal qilinadigan **taxminiy fahmlash** mexanizmi ham katta o'rin tutadi. Chunki xotirada yaxshi saqlanmagan yoki ilk daf'a uchrayotgan (potensial) lug'atning ma'nosini „chaqish“ga to'g'ri keladi. Bu xususiyatni muallim tegishli mashqlarda shakllantiradi. O'quvchining faol aqliy harakati taxminan fahmlash uchun zaruriy shartlardan hisoblanadi.

Navbatdagi mexanizmlardan biri **mantiqiy tushunish** deb ataladi. Ko'ruv timsoliga tayanib matnni ma'noviy bo'laklarga shartli ajratish va ularning mazmunini ilg'ab olish talab qilinadi.

¹ „Mexanizm“ termini „tilga oid aqliy operatsiya va amallar yig'indisi“ deb tushuniladi. Qarang: Очерки методики обучения чтению на иностранных языках. / Под ред. И. М. Бермана и В. А. Бухбиндера. — Киев: Высшая школа, 1977. — 23-бет. Zikr etilayotgan mexanizmlar haqidagi ilmiy fikrlar E. I. Passov tomonidan bayon etilgan. Qarang: Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. — М.: Русский язык, 1989. — 197—199-бетлар.

Ta'limning ilk bosqichida ovoz chiqarib o'qishga e'tibor beriladi. Ichki nutqni shakllantirishda uning ahamiyati cheksiz. Bunda ko'ruv va nutqharakat timsollari bog'lanish hosil qiladi. Shunday qilib, nutqko'rish analizatori amal qila boshlaydi. Asta-sekin nutqiy harakatlar qisqarib boradi, ya'ni matnni idrok qilish va tushunish jarayonining *interiorizatsiyasiga* (tashqi harakatlarning ichki harakatlarga aylanishiga) erishiladi. Ovoz chiqarmay o'qiganda, **ichki nutqiy eshituv** mexanizmi ishlaydi. O'qiyotganda go'yo ichda eshitayotganday bo'lamiz. Tez o'qiganda esa ushbu „ichda eshitilayotgan“ so'zlar tayanch leksik birliklar, ya'ni ma'no bildirishda yetakchi so'zlardir.

O'qish faol kechadigan analiz-sintez jarayonidir. Yangi birikmalardagi ko'ruv komplekslariga (idrok birligi va ularning birikmalariga) duch kelgan chog'da idrok etish, solishtirish va tanib olish natijasida axborot olish mumkin bo'ladi. Bularning barchasi o'qish malakasini o'stirishga xizmat qiladigan xatti-harakatlardir.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Tinglab tushunishning psixofiziologik mexanizmlarini yana bir karra eslang.

2. O'qishning psixofiziologik mexanizmlari nomlarini ayting va ularni qisqacha tahlil qiling.

2-§. O'qishni nutq faoliyati turi sifatida o'rgatish

Matnni o'qish metodikasi fanda mukammal ishlanganligiga qaramay, amalda ko'p tushunmovchiliklarga yo'l qo'yilishini bilamiz. O'qishning mazmuniy va texnikaviy tomonlari mavjud. Ushbu paragrafda o'qish — axborot olish maqomida tahlil qilinadi. (Oqishning texnikaviy tomoni keyingi paragrafda bayon etiladi.)

Qator metodik xatolar o'qishni o'rgatish bo'yicha samarali natijalarga erishishga imkon bermayapti. Quyida xato va to'g'ri ishlarning ta'rifi yonma-yon keltirilmoqda: 1) matnni boshdan-oyoq ona tiliga tarjima qilish/tarjima qilmaslik; 2) biror matnni sabab-besabab takroran o'qish/takror o'qimaslik; 3) matnni doimo ovoz chiqarib o'qish/ovoz chiqarmay o'qish; 4) matnni tushunish uchun leksik-grammatik tahlil qilish/

tahlil qilmaslik; 5) notanish soʻz maʼnosini taxminan fahmlab olish mexanizmini shakllantiruvchi mashqlarni kam bajarish/mashqlarni yetarli bajarish; 6) yaxlit matnni axborot olish maqsadida oʻqilganda qismlarga ajratib/ajratmay oʻqish; 7) matn oldi va matndan keyin bajariladigan mashqlarga nisbatan bevosita matnni oʻqish mashqlarini kam/yetarli bajarish; 8) matnni oʻqiganda oʻquvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni oldindan bartaraf etmaslik/qiyinchilikning oldini olish va h.k.

Eʼtirof etilgan va yana boshqa mavjud metodik chalkashliklar maktab sharoitida oʻqishni oʻrgatish ishiga tashkilan gʻov boʻlib turgan xato va qiyinchiliklardir. Koʻrsatilgan sakkizta xato tarkibida chiziq ketidan berilgan ogohlantiruvchi metodik tavsiyalarni qisqacha izohlab oʻtamiz:

(1) mabodo matnni boshidan oxirigacha oʻquvchi tarjima qilsa, unda chet tilda matn berishdan nima foyda, oʻqish oʻrniga oʻquvchilar tarjima kutishadi. Matnning ayrim murakkab oʻrinlarini (jumla, jumlarlar birikmasini) tarjima qilish boshqa gap.

Qoida: Chet tilda hech bir matn toʻligʻicha ona tiliga ogʻzaki tarjima qilinmaydi. Ona tiliga yozma tarjima qilish uchun kichik hajmdagi matnlar berilganda, oʻquvchilarga lugʻat ustida ishlashni oʻrgatish koʻzda tutiladi.

(2) Matnni takror oʻqish xususida aniq metodik fikr aytish mumkin: ikki-uch marta oʻqilganda alohida-alohida oʻquv topshirigʻi berib boriladi.

Qoida: Chet tildagi matn bir marta oʻqiladi (keyingi oʻqishlar tegishli boshqa topshiriqlarni bajarish uchun takrorlanadi).

(3) Matnni ovoz chiqarib oʻqish taʼlimning dastlabki pogʻonasida koʻp bajariladigan oʻqish texnikasini mashq qilishga qaratilgan oʻquv amaliidir. Axborot olish niyatida matn, asosan, ovoz chiqarmay ichda oʻqiladi.

Qoida: Matndan ichda oʻqish orqali axborot olinadi (ovoz chiqarib oʻqish axborot yetkazish va oʻqish texnikasini oʻrgatishga xizmat qiladi).

(4) Matn tahliliga koʻp toʻxtalishga hojat yoʻq, chunki bunday oʻquv-metodik tadbirning oʻzi amaliyotda uchramasligi kerak. Tahlil talab til hodisasini matngacha boʻlgan davrda oʻrgatish tavsiya etiladi. Matnda notanish soʻz uchrashi

mumkin, unda soʻzni mustaqil yoki lugʻat yordamida oʻrganishga toʻgʻri keladi.

Qoida: Matnni oʻqish chogʻida notanish soʻzning maʼnosini ochish, odatda, tahlil „uchquni“ sifatida uchrab turadi (matn interpretatsiyasi (sharhlanishi) maktab amaliyotiga kiritilmaydi).

(5) Taxminiy fahmlash muayyan kuch va vaqt talab etadigan, maxsus mashqlar bajarish bilan oʻrganiladigan ishdir. Notanish leksik birlikning maʼnosini ochishda ushbu mexanizm xususiyati inobatga olinadi.

Qoida: Notanish soʻz maʼnosi bevosita taxminan fahmlab olinadi.

(6) Matn mazmuni matnni bir yoʻla boshidan oxirigacha oʻqish davomida oʻzlashtiriladi. Tilshunoslikda matn turli qismlarga ajratib tadqiq qilinadi. Mazmunni tushunishda matn hajmidan qatʼi nazar (kichikmi yo kattami) berilgan savollarga javob axtaradi. Demak, toʻliq oʻqish talab etiladi.

Qoida: Matnni oʻquvchi boʻlaklarga ajratmay toʻliq oʻqib chiqadi (odatda, matnni tushunganlikni tekshirib koʻrish uchun uni bir necha qismga ajratib oʻqish mumkin).

(7) Matn ustida ishlash uch bosqichli boʻlib, matndan oldingi, matnni oʻqish davrida va oʻqigandan keyin matnni tushunganlikni nazorat qilish uchun mashqlar bajariladi. Har birining oʻz oʻrni va vazifasi bor (ushbu paragrafning „Oʻqish materiali“ mavzusida bu masala mufassal yoritiladi).

Qoida: Matn oʻqishdan oldin va keyin bajariladigan mashqlardan koʻra uni oʻqishga koʻproq ahamiyat beriladi. Uyda va sinfda matn oʻqilishi yuqori bosqichda asosiy ish sanaladi.

(8) Oʻqishga moʻljallangan matnning uch toifadagi qiyinchiligining oldini olish mashqlari oʻtkaziladi. Birinchi qiyinchilik oʻqilish qoidalarini egallashga taalluqli, ikkinchisi til birliklarining ishlatilishiga doir, uchinchisi mazmunni fahmlash yuzasidan kelib chiqadigan qiyinchilik. Matndagi oʻqilish qoidalarini oldindan mashq qildirish muallimning kundalik vazifasidir. (3-§ ga qarang.) Til materialining tanish/notanishligi matn oldi ogʻzaki mashqlarda aniqlanadi. Oʻtilgan leksik grammatik hodisalar matngacha mustahkamlanadi, boʻshroq oʻrganilganlari takrorlanadi. Baʼzi yangi soʻzlar potensial lugʻat maqomida berilsa, uning maʼnosini mustaqil fahmlashga oʻrgatiladi.

Ayrim soʻzlar maʼnolari lugʻat yordamida oʻrganiladi. Xullas, oʻqish jarayonida asosiy diqqat axborot olishga qaratiladi, yoʻl-yoʻlakay potensial lugʻat maʼnosi ham ilgʻab boriladi.

Qoida: Axborot olishdagi qiyinchilik matnni oʻqish paytida bartaraf etiladi. Oʻqish texnikasi va til materiali murakkabligi oʻqishgacha bajariladigan mashqlarda hisobga olinadi.

Matn mazmunini tushunib olish zakovattalab ish boʻlib, malaka yordamida yuzaga keladigan maʼnoviy sintezdir (yaʼni til birliklari maʼnolarining birlashib axborotga aylanishi hodi-sasidir).

Oʻqishni oʻrgatish prinsiplari. Yuqorida (V bobda) didaktik, psixologik, metodik prinsiplar oʻrganilgan edi. Ulardan tashqari oʻqishni oʻrgatishning xususiy prinsiplari ham ilmiy ishlab chiqilgan (Bu prinsiplar S. K. Folomkina tadqiqotlarida oʻz aksini topgan). Ushbu prinsiplar oʻqishning oʻziga xos nutq faoliyati turi hamda chet til taʼlimidan koʻzlanadigan maqsadligini aks ettiradi. Oʻqishni oʻrgatishda quyidagi prinsiplarga rioya qilish tavsiya etiladi:

1. Oʻqishni oʻrgatish — nutq faoliyati turini oʻrgatish deb qaralmogʻi lozim. Ushbu qoidani inobatga olib ish yuritilganda, oʻquvchilarga oʻqish haqida toʻgʻri yoʻllanma beriladi. Tajribada kuzatiladigan metodik xatolardan boʻlmish til materialini oʻzlashtirish yoki matnga yaqin gapirib berishni yagona oʻquv vazifasi qilmasdan, matnni faoliyatda qoʻllash materialiga aylantirish oldingi oʻringa chiqarilishi tavsiya etiladi. Oʻquvchilarga matnni oʻqib axborot olishni mashq qildirish birlamchi yakuniy maqsad amalda tatbiq etilishi kerak. Bunga nutqiy amallarni bajarish bilangina erishiladi, bu jarayonda muayyan natijaga erishish (mazmunni bilib olish, axborotni egallash) koʻzda tutiladi. Matnni oʻqish maʼnaviy boyishga, yangi-yangi axborotlarni olishga qaratilgan oʻquv-metodik tadbirdir.

Oʻquv jarayonida oʻqiganni tushunish boshqariladigan yumushdir: oʻqish oldidan topshiriq berilishi shart va oʻqib boʻlgandan soʻng tegishli metodik usullar qoʻllanib, tushunganlik tekshiriladi. Toʻliq va aniq tushunganlik oʻquvchilar tomonidan vazifani muvaffaqiyatli bajarish hisoblanadi. Xullas, ushbu prinsipga koʻra oʻqishning mohiyati oʻquvchiga axborot yetkazishni qoidalashtirib qoʻyishdir.

2. O'qishni o'rgatish bilish jarayoni sifatida tashkil etiladi. Faqat amaliy faoliyat ko'rsatish bilan chegaralanmasdan, matn o'quvchi (matnxon) bilishga, yangi ma'lumot o'rganishga ham harakat qiladi. Axborot olish — bilish faoliyatini yuritishdir. Bu yerda bilish va nutqiy faoliyatning farqiga borish kerak. Nutqiy faoliyat natijasi bilishga olib keladi. Bino-barin, o'qish materiali (jumladan matn) mazmuniga e'tiborni kuchaytirish talab qilinadi. Mazmun qiziqarliligi o'quvchilarning axborot olishga intilishlarini belgilovchi, ularni maroq bilan o'qishga undovchi omil vazifasini o'taydi.

Matn mazmunida va tilida oqilona me'yordagi qiyinchiliklar bo'lishi o'quvchining aqliy faoliyatini kuchaytiradi, tafakkurini astoydil ishga tushirishga sabab bo'ladi. (Bu haqda atoqli ruhshunoslar¹ tadqiqotlaridan ma'lumotlar olish mumkin.)

Demak, mazkur prinsipga binoan o'quvchilar chet tilda o'qib, ayni chog'da bilish faoliyati bilan mashg'ul bo'ladilar.

3. O'quvchilarning ona tili va ikkinchi tilda to'plagan o'qish tajribalariga suyanib, ularga chet tilda o'qish o'rgatiladi. Dastavval, o'quvchining chet tilda o'qishga munosabati shakllantiriladi. „O'qisam, o'rganaman“ degan naqlga amal qilib ish tutish zaruriyati tug'iladi. Birlamchi shart mana shudir. Til tajribasidagi nutq (o'qish) ko'nikmasining ko'chish hodisasiga duch kelamiz. Chet tilda harf-tovush munosabatlarining o'zlashtirilishi bilanoq o'quvchilarga ichda o'qishni taklif qila boshlash ma'quldir. Bu ikkinchi shart.

Bir so'z bilan aytganda, o'qish mobaynida til tajribasining imkon boricha ishga tushirilishi talab etiladi.

4. O'qiganini tushunish uchun o'quvchilar o'rganilayotgan til strukturasi xususiyatlarini egallab, ularga asoslangan holda ish tutishlari kerak. Til materialini bilish, ya'ni lisoniy ko'nikmalarning hosil bo'lishi tez va to'g'ri o'qib tushunishga zamin yaratadi. Yozuvdagi alohida so'z, uning qismi (morfema), so'zlarning o'zaro joylashishi (so'z tartibi, gaplar zanjiri) kabilardan o'quvchi ko'ruv idrokida tayanch sifatida foydalanadi. Tinish belgilari va bosma harflarga (shriftlarga) qarab va umumiy kontekstdan kelib chiqib, matndagi ohang, to'xtam

¹ П. П. Блонский. Избранные психологические произведения. — М.: Изд-во АПН РСФСР, 1964. — 473-бет.

(pauza) va mantiqiy urg'u haqida tasavvur paydo bo'ladi. Yordamchi so'zlarni bilishning ham o'qishga nafi tegadi.

Bu prinsip o'rganilayotgan til strukturasi bilan yetarlicha xabardor bo'lishni taqozo etadi.

5. O'qishni o'rgatishda nafaqat retseptiv, shuningdek, reproduktiv faoliyat ham ishtirok etadi. O'qish, odatda, retseptiv nutq faoliyati deyiladi. Lekin o'qish jarayoni retseptiv operatsiyalar bilan bir qatorda reproduktiv operatsiyalarni ham o'z ichiga oladi. Grafik material idroki chog'ida ichda gapirish sodir bo'ladi. Binobarin, talaffuz ko'nikmasi o'qish texnikasiga ta'sir qiladi va matnni tushunishga daxldorligi ham ma'lum bo'ladi. Gapirganda, o'quvchi grammatik hodisani ayta olish ko'nikmasiga egaligi tufayli unda matndagi grammatik shakllarni oldindan fahmlash imkoniyati yaratiladi. Ko'rinib turibdiki, retsepsiya va reproduksiya, o'zaro bog'langan nutq hodisalaridir.

O'qishni o'rgatish chog'ida retseptivdan tashqari reproduktiv nutq bilan ham shug'ullanish ushbu prinsip talabidir.

6. O'qish nutq faoliyati turi maqomida xizmat o'tar ekan, uning amal qilish usullarini o'quvchilar egallab olishlari kerak bo'ladi. Faoliyatning jarayon tomonini ta'minlovchi operatsiyalarni bilish zarur. Ulardan birinchisi texnikaviy ko'nikma tarzida idrok etiladigan matnni tushunib yetish bilan bog'liq. Ma'no „chaqish“ usullarini o'quvchi bilib olsa, o'qish tezligi shakllanadi. O'qish tezligi maxsus mashq qilish natijasida oshiriladi. Yagona maqsad o'qish tezligini o'zlashtirish bo'lib qolmasdan analitik (tafsilotlarni ilg'ash) operatsiyalarni qo'llash ko'zlanadi, ya'ni undan mazmunni payqash maqsadida foydalaniladi. Sekinroq va tez o'qish ko'nikmalari axborot olishda o'rni bilan ishlatiladi.

Texnikaviy ko'nikmalar, xususan, tegishli maromda o'qish axborotni o'zlashtirish yo'lidagi zaruriy qadam ekanligi mazkur prinsipdan anglanadigan tushunchadir. Har bir ta'lim bosqichida o'ziga xos xususiyatlar bilan o'qish amaliyoti joriy etiladi. Boshlang'ich davrda tanish material asosida matn, o'rta bosqichda tanish birliklar va qisman notanish so'zlar kirgan matnlar, yuqori bosqichda esa ko'proq potensial lug'at ishtirokida matnlar o'qish tavsiya qilinadi. (Ular to'g'risida keyingi mavzularda so'z yuritiladi.)

O'qish materiali. Avvalo, ikki termin tafovutini aniqlab olish kerak: o'quv materiali va o'qish materiali. Birinchisi ko'pchilikka tushunarli, ta'lim mazmuni ma'nosida qo'llanadigan metodik termindir. Uning mazmuni tarkibiga o'quvchi o'rganadigan til materiali (leksika, grammatika, talaffuz hodisalari va ular zaminida shakllanadigan nutq hosilasi — matn), nutq mavzulari hamda vaziyatlari kabilar kiradi. Ikkinchi termin „o'qish materiali“ tushunchasi qamroviga matn va, qolaversa, uning qismlari bo'lmish so'z, so'z birikmasi, gap, gap birikmasi, abzats ham kiradi. Matn o'qishning nutq faoliyati turi sifatidagi materialidir, ikkinchi toifa birliklar esa o'qish texnikasi uchun manba hisoblanadi.

Turli ilmiy sohalar uchun tadqiqot obyekti bo'lmish matn har xil ma'noni bildiradi. Tilshunoslikda „matn lingvistikasi“¹, „tekstual lingvistika“², „matn grammatikasi“³ singari murakkab terminlar keng istifoda qilinadi. Til o'rgatish metodikasida esa matn lingvodidaktik izlanishlar obyekti hisoblanadi. Matnni o'qish muammolari ko'rib chiqilgan, lekin u ta'limiy termin-tushuncha maqomida ilmiy tekshirilmagan.

Fanda „matn“ ta'rifida ikki yo'nalish kuzatiladi, unga psixologik va lingvistik jihatdan yondashiladi. Har ikkalasida ham mushtarak tomon sifatida matnning nutq oqimining parchasi⁴, deb tan olinishidir.

„Matn“, ya'ni *ingl.* „text“ lotincha „textum“ o'zagidan bo'lib, aynan „aloqa“, „birlashish“ ma'nosini bildiradi („matn“ arabiy kalima bo'lib, „tekst“ bilan sinonim termindir). Lug'atlarda unga qator ta'riflar berilgan: „Yozma yoki bosma shaklda bayon etilgan muallif fikri, ijod mahsuli ...“⁵ yoki (1)

¹ З. Я. Тураева. Лингвистика текста. — М.: Просвещение, 1986.

² Проблемы текстуальной лингвистики. / Под ред. В. А. Бухбиндера — Киев: Высшая школа, 1983.

³ О. И. Москальская. Грамматика текста. — М.: Высшая школа, 1981.

⁴ Т. М. Дридзе: 1) Проблемы чтения в свете информативно-целевого подхода к анализу текста. // Проблемы социологии и психологии чтения. — М.: Книга, 1975; 2) Язык и социальная психология. — М.: Высшая школа., 1980; 3) Текстовая деятельность в структуре социальной коммуникации. — М.: Наука, 1984 va boshqalar.

⁵ Н. И. Кондаков. Логический словарь-справочник. — 2-е изд. — М.: Наука, 1975.

„Nutqiy hosila, (2) Yozuvda qayd qilingan nutq mahsuli“¹ kabilar. Inglizcha leksikografik manbalarda „text“ (1) Kitobda bosma harflar bilan berilgan soʻzlar, (2) Muallif soʻzlari..., (3) Qisqacha parcha, gap va h.k.²“ maʼnolarda talqin qilinadi.

Umuman olganda, turli taʼrif-talqinlardan qatʼi nazar „tekst (matn)“ deganda, „nutqiy hosila“ tushunchasi deyarli barcha olimlar tomonidan eʼtirof etiladi. Taʼlim nuqtayi nazaridan uning lingvodidaktik taʼrifi quyidagichadir: axborot almashishga manba hisoblanadigan nutqiy hosiladir. Lingvodidaktik matn ogʻzaki (gapirishda) va yozma (yozuvda) yaratiladi va axborot eltish xususiyatiga ega. Grafik matn va audiomatn axborot olish uchun asos boʻladi. Shunday qilib, oʻquvchi (matnixon) matnning „ishlab chiqaruvchisi“ va „isteʼmolchisi“ vazifasini bajaradi.

Matndan olinadigan axborot oʻquvchi uchun „bilim“ maqomida boʻlishi yoki uning maʼlum qismi oʻquvchi faoliyatini boshqarish, tartibga solishga xizmat qilishi mumkin. Binobarin, matn (audio va grafik matn) oʻquvchilar uchun, majozan aytilganda, „axborot ombori“dir. Undan bahramand boʻlish meʼyori oʻquvchining oʻziga havola (muallim yoʻl-yoʻriqlari bilan yordamlashadi, albatta).

Taʼlim jarayonida qoʻllanadigan matnning metodik muammolari hozirgacha munozaralarga sabab boʻlib keladi. Masalan, matn va nutq faoliyati turlari degan masalani olib koʻraylik. Produktent (gapiruvchi va yozuvchi) muayyan xabarni nutqiy hosila sifatida yaratib, boshqalarga yetkazishga erishsa, ogʻzaki yoki yozma matn vujudga keladi. Agar u chet tilda gaplar majmuasini aytish va yozish chogʻida til materialini qoʻllab, axborot berishga intilmasa, u holda matnni emas, balki gaplarni aytish va yozish mashqi bajariladi, xolos.

Retsipiyent (tinglovchi va oʻquvchi) matnni idrok etib, yangi yoki shartli tarzda yangi axborot oladi. Endi matn va axborot yuzasidan muxtasar fikr bayon etiladi. Oʻrta umumtaʼlim maktabi oʻquvchilariga moʻljallanadigan axborot oʻquv

¹ О. С. Ахманова. Словарь лингвистических терминов. — 2-е изд. — М: С. Э., 1969.

² А. С. Хорнби. Учебный словарь современного английского языка: Спец. изд. для СССР. / Под ред. А. С. Хорнби, при участии К. Руз. — М.: Просвещение, 1984.

dasturi doirasidagi nutqiy mavzular bo'yicha chegaralab beriladi (yoki kasb-hunar kollejida, aytilganga qo'shimcha, kasbiy axborot ham beriladi. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tegishli axborot yetkazilishi ham ularning o'quv dasturida belgilab qo'yilgan). Informativ yo'nalish matn mazmuni va hajmini belgilovchi mezondir.

Maktab o'quvchisi uch toifa yirik mavzu („Tevarak-atrof“; „Mamlakatimiz“ va „Tili o'rganilayotgan mamlakat“) chegarasida matnlarni o'qiydi.

Matn va mashq tushunchalari metodikada chalkash, mujmal hisoblanadi. Aslida ular alohida ilmiy-ta'limiy kategoriyalarni tashkil etmaydi. Matn mashqning materiali bo'lib, ayni chog'da u o'qish uchun ham materialdir. O'qish mashqining materiali matn, axborot esa o'qishdan olinadigan nutqiy hosiladir, o'quvchi uchun ma'naviy ozuqadir.

Matn tanlashga doir metodik shartlar ishlab chiqilgan, ularning matn mazmuni va tiliga oid ikki guruhi ajratilgan.

O'qishga mo'ljallanmish matn mazmuniga quyidagi talablar qo'yiladi: 1) matnning tarbiyaviy ahamiyati bo'lishi kerak, chet til o'rgatish maqsadlaridan biri tarbiyalashdir, jamiyat axloq qoidalarini singdirish, ya'ni ma'naviy (axloqiy) tarbiya berishga qaratilgan matnlar tanlanadi; 2) o'quvchining hayotiy bilimni oshirish, ya'ni dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladigan matnlar saralanadi. Bu o'quvchining bilish faoliyatini o'stirishda muhim shartlardandir. Aniq ma'lumotlarni aks ettiruvchi matnlarni o'qish umumiy ta'lim olishning ajralmas qismidir. Axborotga boy matnni o'qish har qanday kishida joziba uyg'otishi muqarrar. Chunki inson bolasi bilishga oshiqadi, bilishga moyilligi rag'batlantirilsa, ushbu o'quv predmetiga uning qiziqishi oshadi; 3) o'qishga tavsiya etiladigan matnning mazmuni ilmiy jihatdan sifatli, ya'ni undagi ma'lumotlar voqelikni aks ettiradigan bo'lishi talab qilinadi. O'quvchiga qandaydir faraziy yoki taxminiy ma'lumotlarga asoslangan matnlar o'qitilmaydi; 4) tanlanayotgan matn o'quvchi yoshiga mos tushishi talab etiladi. O'quvchi ehtiyojini qondirish chet tilda nutqiy faoliyatga undashning muhim chorasidir. Xullas, matn mazmuni o'quvchining ma'naviy saviyasiga muvofiq bo'lishi, bilish va hissiy talablariga javob berishi kerak.

Yuqori sinfda o'qiladigan matnlarning eng qiziqarlilari quyidagilar: badiiy adabiyotdan saralangan matnlar; tengdoshlar, do'stlik, muhabbat haqida fikr uyg'otadigan muam-moli matnlar; mazmunan jozibador (yumor, sarguzasht, detektiv, hazil, fantastik) matnlar; tarixiy ma'lumotlar beradigan, kashfiyotlar va sayohatlarga oid „Bilasizmi...?“ toifasidagi matnlar. Mabodo matn mazmuni boshqa o'quv predmetlarining materialini bevosita takrorlasa, undan o'quvchining ixlosi qaytishi hollari tajribada isbotlangan. Yosh xususiyati e'tiborga olinmay o'qitiladigan matnlar ham kutilgan darajada qiziqish uyg'otmaydi.

O'qiladigan matnlar tiliga mansub talablar ham qo'yiladi. Birinchidan, matndagi til materialini tanlangan o'quv minimumiga muvofiq bo'lishi kerak. Leksik va grammatik hodisalarning sinfma-sinf taqsimoti hisobga olinadi. Ikkinchidan, o'quvchilar o'zlashtirgan til birliklari zaminida o'qishlari uchun matn tavsiya qilinadi. Matnni o'qish oldidan undagi texnikaviy va tilga oid qiyinchiliklarning bartaraf etilishi zaruriy metodik tadbirdir. Uchinchidan, matn tilining uslubiy tomoniga qo'yiladigan talab: hozirgi zamon adabiy tili me'yorlari saqlanishi kerak.

Matnlarni tanlash va tuzish o'ta dolzarb metodik masala. Tayyor matnlarni saralash borasida muxtasar to'xtab o'tildi. „Tuzish“ terminining ma'naviy doirasi turli-tuman talqinlarga sabab bo'lmoqda. Avvalo, tuzish va tanlash orasidagi farq aniqlanishi zarur. „Tanlash“ deganda, mazmuni yozuvchi tomonidan shakllangan, til va hajm jihatidan muallim yoki darslik/o'qish kitobi tuzuvchisi maktab sharoitiga moslashtirgan matnlarni saralash tushuniladi. Demak, asliyatdagi material yoki uning moslashtirilgan nusxasi o'qishga taqdim etiladi.

„Tuzish“ termini og'zaki o'rganilgan til materialini asosida va og'zaki nutq mavzulari doirasida muallim yoki darslik/o'qish kitobi muallifi tayyorlagan matnlarga taalluqlidir. Shu munosabat bilan metodikada „tuzilgan“ va „tanlangan“ matn tushunchalari istifoda qilinadi. Har ikkala toifadagi matnlar ham o'qish uchun material vazifasini o'taydi.

„Material“ so'zi ishtirokida hosil qilinadigan „o'quv materialini“, „o'qish materialini“, „til materialini“ terminlari bir-biri bilan „daraxt — mevali daraxt — olma“ga qiyos jins-tur

munosabatini tashkil etadi. O'quv materiali tarkibiga o'qish materiali kiradi, o'z navbatida, unda til materiali bo'lishi turgan gap.

Matn bilan ishlashning uch bosqichi tadqiq qilingan va maktab tajribasida tatbiq etilgan: (1) tayyorlov, (2) o'qib tushunish va (3) matndan keyingi bosqich.

Birinchi, matn oldi tayyorlov mashqlarida leksik-grammatik material va o'qish texnikasi o'zlashtiriladi.

Ikkinchi bosqich matnni o'qib tushunishga qaratilgan bo'lib, axborot olish va tushunganlikni tekshirish mashqlarini o'z ichiga oladi.

Matndan keyingi bosqichda uning leksikasi va axboroti asosida gapirish, tinglab tushunish va yozuv malakalarini o'stirish bo'yicha mashqlar o'tkaziladi.

O'qish turlarini o'rgatish. Axborot olish niyatida o'qish, avvalan, amaliy maqsad va, ikkinchi tarafdin, ta'limiy vosita ekanligi hammaga ayon. O'qish tom ma'nosi bilan ma'naviy ozuqa olish yo'lidagi harakat tarzidir. Chet tilda o'qish turlari esa ushbu amaliy maqsadga erishish yo'lidagi g'oyat murakkab va ayni chog'da muhim metodik masaladir. O'qish jarayonida bajariladigan vazifalar bilan bog'liq aqliy operatsiyalar majmualari xilma-xil bo'lib, ular metodika fanida o'qish turlari deyiladi (S. K. Folomkina ta'rif). O'qish turlari va turchalari miqdori elliktaga boradi (ona tilida qirq beshtaga yetadi).

Ilmiy manbalarda o'qish turlarini aniqlashning bir nechta tartibi mavjud: 1) idrok xususiyati va tushunish jarayoniga ko'ra — analitik/sintetik o'qish; 2) ko'zlanadigan maqsaddan kelib chiqib — tanishuv/o'rganuv/kuzatuv o'qish; 3) oldindan ko'rilgan hozirlik munosabati bilan — tayyorlangan/tayyorlanmagan o'qish; 4) til tajribasi nuqtayi nazaridan — tarjimali/tarjimasiz o'qish; 5) yordamchi vositalar ishlatish zaruriyati tufayli — lug'at bilan/lug'atsiz o'qish; 6) ishlash joyiga qarab — sinfda/uyda o'qish; 7) ishni tashkil etish tarziga binoan — yolg'iz/xor bilan o'qish; 8) ovoz ishtiroki jihatidan — ichda/ovoz chiqarib o'qish va h.k.

Mazkur o'qish turlarini qisqacha izohlab o'tamiz.

Analitik yoki sintetik o'qish deganda, tafakkur shakllari (analiz, sintez) hisobga olinadigan, maxsus tahlil talab joylari mavjud yoki yo'q matnni idrok etish va anglash nazarda

tutiladi. Sintetik o'qishda matn yaxlitligicha idrok etib tushuniladi. Sintetik o'qish intensiv, kursor o'qish nomi bilan ham ataladi. Analitik o'qishda o'quvchi e'tibori til hodisalariga ham qaratiladi. Analitik o'qish ekstensiv va diskursiv o'qish, deb ham yuritiladi.

Gapirish bobida ta'kidlanganidek, o'qishni o'rgatish jarayoni ham tayyorlangan va tayyorlanmagan bo'lishi mumkin. Tayyorgarlik sharti sifatida talaffuz va o'qish texnikasini egallaganlik, urg'u va til uslubidan xabardorlik va leksik-grammatik materialni bilish nazarda tutiladi. O'qish mexanizmi ishlab chiqilganligi, tovush-harf munosabatining ma'lumligi va o'qish tezligi shakllanganligi ikkinchi shart sanaladi. Nihoyat, uchinchi masala tayyorlanganlik, o'quvchining umumiy bilim saviyasi, yosh xususiyati va yirik kontekstni egallash qobiliyati bilan belgilanadi. Ushbu shart-sharoitlar tayyorlangan/tayyorlanmagan o'qishni farqlashga sabab bo'ladi.

Ko'pchilik hollarda analitik/sintetik va tarjimali/tarjimasiz o'qishning farqiga borishmaydi. Analitik o'qishda o'quvchi e'tibori til shakliga qaratiladi, biroq matnni tushunish tarjimasiz bo'ladi. Sintetik o'qishda ham, yangi so'zlar uchrashidan qat'i nazar tarjimasiz va lug'atsiz o'qiladi. Umuman tarjimasiz o'qish vositasida matndan axborot olishga erishiladi. Tarjima qilish yangi leksik birlikning lug'at yordamida ma'nosini ochishdagina maqbuldir, oqibatda bu yerda ham mazmun o'rganiladi. Matndan olingan parchaning tahlili uchun ham tarjimadan foydalaniladi. Shuningdek, o'quvchilarga ikki tillik (chet til — ona tili) lug'at bilan ishlashni o'rgatish niyatida kichik hajmdagi matnni yozma tarjima qildirish ma'qul topiladi. Lug'atdan foydalanib o'qish odatda uyga vazifa qilinadi.

Yolg'iz/xor bilan va ovoz chiqarib/ichda o'qish turlari, odatdagicha, axborot olishga mo'ljallanadi va, ikkinchi tomondan, o'qish texnikasini shakllantirishda xor bilan o'qish va ovoz chiqarib o'qish alohida ahamiyatga molikdir, ya'ni ulardan ta'lim vositasi sifatida ham foydalaniladi.

O'qishdan kutiladigan maqsadni hisobga olib, tanishuv/o'rganuv/kuzatuv o'qish turlari farq qilinadi. O'qishni o'rgatish metodikasida (bu sohaning asoschisi M. Uestdan tortib, to prof. S. K. Folomkinagacha) g'oyat ko'p sonli terminlar istifoda qilinganligi ma'lum. Shular orasida „tanishuv/o'rganuv/kuzatuv“ o'qish nomlari hozirga kelib amaliyotda va

nazariyada barqarorlashdi. Maktab sharoitida o'tgan asrning 70—80-yillari mobaynida ushbu o'qish turlari keng joriy etildi va ijobiy samaralar bermoqda. Ularni amalda qo'llash borasida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Tanishuv o'qish. Ba'zida uni „mazmunni yuzaki tushunish maqsadidagi o'qish“ deb ham yuritishadi. Ushbu o'qish turida matnni to'liq va aniq tushunish kutilmaydi, balki u yoki bu masala yuzasidan nimalar bayon etilganligi o'quvchini qiziqtiradi, chunonchi: „yangi — tanish“, „qiziq — qiziqarli emas“ „tushunarli — tushunmadim“ kabi xulosalar chiqariladi. Demak, o'qilganning umumiy yo'nalishdagi mazmunini o'rganish maqsadida „tanishuv o'qish“ o'tkaziladi. Asosiy axborotni aniq o'zlashtirish va ikkinchi darajali xabarni esa umuman bilish, oqibatda matn mazmunining 70 foizdan kam bo'lmagan qismini egallab olish kutiladi.

Matnlar hajmi kattagina (bir sahifadan kam emas) va tili oson bo'lishi tavsiya qilinadi. Birinchi bosqichda sinfda bajariladigan o'qish, biroz malaka paydo bo'lishi bilanoq uyga beriladi, sinfda esa tushunganlik tekshiriladi. Tekshirishda matnning ikir-chikirigacha e'tibor berilsa, unda o'qishning boshqa (o'rganuv) turiga o'tib ketiladi.

O'rganuv o'qish. O'qishning bu turi yuqori sinflarda ma'qul hisoblanadi. O'quvchi matn mazmunidagi barcha tafsilotlarni o'rganadi. Tushunish darajasi 100 foizga yetkaziladi. Sekin va ayrim joylarni takror o'qish mumkin. Avval sinfda, so'ngra uyda o'qish taklif qilinadi.

Tushunganlikni tekshirish usullaridan biri tarjimadan foydalanishdir. Odatda, matnning murakkab qismi yoki to'li-g'icha ona tiliga yozma shaklda o'giriladi. Matn hajmi nisbatan katta bo'lmaydi. Matn qamrovidagi axborot sinchiklab o'rganiladi. Shuning uchun ham ushbu matnni tanishuv o'qishdan boshlab, ya'ni umumiy mazmunni payqab olib, keyin diqqat bilan uni ichda o'qish ma'qul ko'riladi.

Xullas, o'rganuv o'qish turini bajargan o'quvchi to'liq va aniq axborotga ega bo'lishi va o'rgangan mazmunga o'z munosabatini bildirishi, tanqidiy fikrlashi, izohlay olishi, bilgan narsalari bilan muqoyasa qila olishi lozim. Matn tafsilotlarini aniqlash maqsadida unga yana bir karra ko'z yugurtirib chiqish mumkin. Demak, matn uch marta o'qilganday tuyuladi: tanishuv, o'rganuv va qayta izlanish tarzida o'qilyapti,

biroq yetakchi vazifa o'rganuv o'qish turidir, qolgan ikki turga ham qo'shimcha o'quv vazifasi yuklanadi.

Kuzatuv o'qish. O'z vaqtida buyuk metodist M. Uest ushbu o'qish turini „qaymog'ini olish“ majoziy ma'nosi bilan atab, uni ta'lim amaliyotida mohirona tatbiq etgan.

Matnni o'qishga kirishgan talaba oladigan axborotdan qay yo'sinda hayotda foydalanishni xayoliga ham keltirmaydi. Biroq ayni chog'da mazmunni payqar ekan, o'zicha unga „kerak — nokerak“, „qiziq—noqiziq“ qabilida baho berib boradi. Keraksiz va qiziqarli emasligiga ishonch hosil qilsa, o'qishni to'xtatadi—qo'yadi.

O'qish jarayonida kuzatuv har xil kechadi: o'qilayotgan material qaysi sohaga daxldorligini aniqlash uchun sarlavha va kichik sarlavhalarni ko'zdan kechirishdan boshlab, to'liq, lekin tezlikda o'qib chiqishgacha bo'lgan ish turi bajariladi. Ilmiy-metodik ma'lumotlarga ko'ra, bunday to'liq o'qilganda, axborotning yarmigacha tushunish hollari uchraydi. Kuzatuv vaqti bir sahifa uchun 1—1,5 daqiqa qilib belgilanadi.

Kuzatuv o'qishda til materialini tanish bo'lishi, o'quvchi faqat matndan muayyan mavzuni qidirishi talab etiladi. Bayon etilganlarga qisqacha yakun yasab aytish mumkinki: tanishuv o'qish (*fluently reading*)da tez va yuzaki axborot olinadi, unga shartli qilib, yuzaki o'qish degan qarash mavjud; o'rganuv o'qish (*close reading*)da chuqur, mufassal axborot to'planadi, uni „mutolaa“ deyish ma'qul ko'rinadi; kuzatuv o'qish (*skimming reading*)da esa matnning asosiy g'oyasi o'rganiladi, uni mushohadali o'qish desa bo'ladi.

Amaliyotda qo'llanayotgan uchala o'qish turi ta'lim bosqichlari uchun mana bunday tartibda tavsiya etiladi: boshlang'ich davrda — tanishuv o'qish, bir maromda diqqat bilan o'qish; o'rta bosqichda — o'rganuv o'qish va tanishuv o'qish; yuqori sinflarda esa kuzatuv o'qish, tanishuv va o'rganuv o'qish.

O'qish malakalarini hosil qilish. O'quvchilar barcha o'qish turlarini o'rganishda zarur hisoblanmish asosiy malakalar bilan qurollantiriladi.

1. Avvalan til materialini tushunish malakalari hosil qilinadi, ya'ni o'quvchiga tanish va notanish materialni idrok etish bilan bog'liq malakalar shakllantiriladi.

(1) Tanish til materialini qo'llash malakalari matnning alohida birliklarini anglash va ular orasidagi aloqani aniqlash hamda mazmun keltirib chiqaradigan yirik nutqiy birliklarga jamlash imkonini tug'diradi. So'zning ko'ruv timsoli bilan aytilishi va ma'nosini xotirada saqlash va tiklash mashq qildiriladi. Ularni aniq va tez idrok etish o'rgatiladi.

So'zni tez tanib olishni o'rgatishga uni har xil birikmalarda berib borish va gap mazmuniga mos ma'nosini ilg'ab olish, ya'ni leksik-semantik variantini farqlash orqali erishiladi (ayrim so'zlar tarjimasini, gapdagi bo'sh qoldirilgan joyni to'ldirish, gapda noo'rin qo'llangan so'zni to'g'risi bilan almashtirish, so'zning kontekstual ma'nosini topish kabi aqliy operatsiyalar bajariladi).

(2) O'quvchilarga gapdagi so'zlarning (gaplarning, abzaslarning) ma'no aloqalarini o'rnatish ikkinchi vazifadir. Bu maqsadda tashqi belgilariga qarab, turli shakllarni tanib olish va ularning gapdagi vazifasini aniqlab olish operatsiyalari bajariladi. So'z tanish bo'lishiga qaramay, gap ma'nosi qiyinchilik tug'diradigan hollarda bunday amal ishga tushiriladi (grammatik qoidalarni bilish tekshirilmaydi, faqat nutqda qo'llash mashq qilinadi). Tarjima qilish ham taqiqlanmaydi.

So'zlardan birikmalar hosil qilish, gaplarni aytish mashq qilinadi. Gapdagi birikmalar tagiga chizish/ko'chirish foydali metodik amaldir.

(3) Gapning yaxlit ma'no bildiruvchi birlik ekanligini o'rgatish ushbu malakani shakllantirishda uchinchi vazifadir. Buning uchun ikkita bir yo'nalishdagi gaplarni topish (davomi, inkor etishi, mazmunni to'ldirishi) yoki ikki gapni biriktirish, gapdagi tayanch ma'noli so'zni aniqlash kabilar mashq qilinadi.

(4) Gapda birlamchi va ikkilamchi tomonlarni farqlashni o'rgatish mazkur malakani paydo qilishda oxirgi metodik tadbirdir. Gapdagi so'zlar har xil axborot eltish birligi hisoblanadi. Gapni qisqartirish va kengaytirish mashq qilinsa, samarali natijaga erishiladi. Notanish so'zlarning ma'nosi til tajribasiga suyanib yoki lug'atdan foydalanib ochiladi.

2. Endi matnning mazmunini tushunish malakalarini shakllantirish mashqlari bajariladi. Matnni tushunish undagi mavjud axborotni egallash va uni mulohaza yuritib fahmlab olish amallariga asoslanadi. Yolg'iz faktlarni ilg'ash, ular

orasida bogʻlanish oʻrnatish va yaxlit mazmunga biriktirish natijasida matndan axborot anglab olinadi. Demak, birinchidan, matndagi tayanch soʻzlarga asoslanib, alohida maʼno qismlari fikran ajratiladi, ikkinchidan, bir nechta fikriy boʻlaklar umumlashtiriladi (sintez qilinadi) va oʻzaro aloqalar oʻrnatiladi. Nutqiy birliklarning shakliy koʻrsatkichlari va bayon etilish mantiqi asosida ushbu malaka hosil qilinadi. Uchinchidan esa, matnning katta-kichik maʼno qismlari yaxlit munosabati oʻrnatiladi, yaʼni umumiy gʻoya tushuniladi.

Xulosa chiqarish, umumlashtirish, gʻoyani topish, mazmuniga munosabat bildirish va izohlash singari malakalarni ishga solib, nihoyat, matn tushunib olinadi. Ushbu malakalarni til tajribasidan foydalanib ishga tushirish imkoni mavjud.

Oʻqish malakalarini hosil qilish jarayonida bir qator tashkiliy metodik shartlarga rioya qilish tavsiya etiladi (S. K. Folomkina umumlashtirgan).

Matndan oldin bajariladigan ogʻzaki oʻquv mashqlari matn mazmunini yoritmasligi kerak, aks holda oʻqish chogʻida tushunishga moʻljallangan axborot qolmaydi hamda oʻqishning nutqiy ahamiyati yoʻqoladi.

Matndan keyin bajariladigan mashqlarda tushunganlik takror tekshirib koʻriladi, til materialini bilish darajasi tekshirilmaydi.

Bir matnni takroran oʻqish metodik jihatdan maqsadga muvofiq emas. Nutqiy topshiriq oʻzgartirilib, tushunganlik darajasini aniqlashga qaratilgan chogʻda qayta oʻqish mumkin.

Birinchi safar matnni oʻquvchining oʻzi oʻqiydi, chunki oʻqib axborot olish talabning vazifasidir. Muallim oʻqiganda, oʻquvchilar uchun bu oʻqish emas, balki tinglab tushunish mashqi maqomiga oʻtilgan boʻladi.

Oʻqiladigan matnni boshqa nutq faoliyati turlari (gapirish, tinglab tushunish, yozuv) uchun ham oʻquv materiali qilib foydalanish mumkin.

Bir matnni uyda, ikkinchisini sinfda, lugʻat yordamida va lugʻatsiz oʻqish mashqlarini bajartirish maqsadga muvofiq.

Matnni qismlarga boʻlmasdan, yaxlit nutqiy material sifatida oʻqitiladi.

Matn oʻqish oldidan aniq oʻquv topshirigʻi beriladi. Oʻqish chogʻida uni bajarish bilan mashgʻul boʻlishadi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. O'qishni o'rgatish jarayonida yuz beradigan tashkiliy qiyinchiliklarni ayting va ularni bartaraf etish yo'llarini muhokama qiling. O'qishga oid metodik qoidalarni tahlil eting.

2. O'qishni o'rgatish mezon (prinsip)larini ayting va ularni izohlang.

3. O'quv materiali, o'qish materiali, til materiali metodik tushunchalari farqini va ularning tarkibiy qismlarini aytib bering.

4. O'qish turlarini aniqlang va sharhlang. Tanishuv (yuza-ki), o'rganuv (mutolaa) va kuzatuv (mushohadali) o'qish turlari tafsilotlarini muhokama qiling.

5. O'qish malakalarini hosil qilishning bosqichlarini nomma-nom ayting va ularni maktab amaliyotida tatbiq qilish yo'llarini tushuntiring.

3-§. O'qish texnikasini o'rgatish

O'qishning texnikaviy tomonini o'rgatish, yuqorida e'tirof etilganidek, o'qilgan materialning mazmun tarafini egallash uchun zamin tayyorlaydi. O'qish texnikasi¹ tushunchasi qamroviga quyidagi aqliy operatsiyalar kiradi: 1) harflar va harf birikmalarini ko'ruv sezgi/analizatori yordamida tanib olish; 2) harflar va ularning birikmalarini tanib olish orqali ularni ifodalovchi tovushlar bilan aloqasini o'rnatish; 3) grammatik belgilarni tanib olish, so'zning grammatik shakllarini fikran belgilash va ularni grammatik struktura maqomida birlashtirish; 4) gapdagi yordamchi so'zlarni tanib olish, ma'lum mustaqil so'zlarga ularning daxldorligini payqash va ularni muayyan strukturalarga fikran birlashtirish; 5) o'rganilgan mustaqil so'zlar ma'nolarini fahmlash; 6) notanish yasama va qo'shma so'zlarning morfemalarini tanib olish va ularni yaxlit so'zlar tarzida payqash; 7) grammatik belgilariga ko'ra so'zlarni sintagmatik guruhlariga fikran biriktirish; 8) grammatik belgilarga tayanib, retseptiv ravishda gapning tuzilishini yaxlit

¹ Ayrim psixolog va metodistlar ta'birida „o'qish mexanizmi“ termini qo'llanadi. Qarang: *T. Г. Егоров. Психология овладения навыком чтения. М.: Изд-во АПН РСФСР, 1953; И. А. Грузинская. Методика преподавания английского языка. — М.: Учпедгиз, 1947.*

tasavvur qilish; 9) grafik ifodalangan jumlaning ohangi (intonatsiyasi) va urg'ulari (aksentuatsiya)ni nutqiy jarayonda idrok qilish.

Mazkur operatsiyalar amaliyoti chog'ida o'qilayotgan material mazmuni ham, albatta, e'tiborda bo'ladi, chunki o'qish texnikasini egallash o'qilmish matndan axborot olishga yo'naltiriladi.

O'qish texnikasi tushunchasi, odatda, ovoz chiqarib o'qish bilan fikran bog'lanadi. Aslida esa ichda o'qiganda ham o'qish texnikasi o'rganiladi.

O'qish texnikasini o'rgatishga kirishayotgan paytda muallim jahon metodikasida jamlangan ilmiy-amaliy mulohazalarni o'zlashtirgan bo'lishi va o'z faoliyatida ulardan o'rinli va unumli foydalanishi foydadan xoli emas.

O'qish texnikasini o'rgatish/o'rganish borasida so'z yuritganda, uning g'oyat murakkabligi va fanda atroflicha qarab chiqilmagan jihatlari borligini eslatib, ular haqida maxsus to'xtalib o'tamiz.

Birinchi masala. O'qish texnikasi tushunchasining doirasiga nimalar kiradi? Eng avvalo, aytish kerakki, yozma/bosma harfning tovushga fikran o'tishi (aslida harf tovushning yozuvdagi shartli belgisi), ya'ni harfning tovush ifoda etishi moddiy hodisa bo'lmasdan, so'z bilan ta'riflanadigan til materiali haqidagi mavhumot (qoida)dir. Har qanday qoida — nazariy bilimdir. Shunga ko'ra o'qish texnikasi haqida gap ketganda, doimo ovoz chiqarmay o'qish nazarda tutiladi. Ovoz bilan o'qilganda talaffuz qilinadi. Talaffuzda grafik timsolga tayanish shart emas. Biroq ovoz chiqarib o'qish — yozma tayanchga ko'ra talaffuz etishdir. Ushbu holatda harf (grafema), tovush (fonema) va ularning o'zaro bog'lanishi tufayli yuzaga keladigan o'qilish qoidasi (mavhumot) muammosiga duch kelamiz. Grafema ko'rish sezgisi, fonema nutqharakat sezgisi faoliyati bilan bog'liq holda qaraladigan til hodisalari bo'lib, o'qilish qoidasi fikr yuritish yo'li bilan muayyan ta'rifda ifodalanadigan ikkilamchi hosiladir. Harf-tovush munosabatini bilib olishni osonlashtirish maqsadida maxsus belgilarni fonetik transkripsiya tariqasida qo'llaymiz. Transkripsiya belgisi o'qilish qoidasining eng ixcham shakli hisoblanadi. Bu belgi aytilish va o'qilishda ishlatiladigan tovushni aks ettiradi.

Ikkinchi masala. Ingliz tili harf va harf birikmalarining xususiyatlari tahlil qilinsa, unda o'zbek tiliga mos keladigan va keskin farq qiladigan harf va harf birikmalari mavjudligini ko'ramiz. O'xshash va tafovut qiladigan harflarning o'qilishi alohida mashqlar bajarilishini talab etadi.

O'qilish qoidalari quyidagicha tasniflanadi: unli harflarning to'rtta bo'g'inda kelishi, undosh harflarning o'qilishi, unliharf birikmasi (digraf), undoshlar birikmasi (undosh digraf), unli bilan undosh birikmasining o'qilishi, o'qilmaydigan unli/undosh harflar. Ular, o'z navbatida, qator kichik qoidalarni yuzaga keltiradi.

O'quvchi o'qish materialida keladigan so'zlarning o'qilish qoidalarini ketma-ket o'rganib boradi. Bunda darslikdagi o'qish mashqlari, lug'atdagi so'z transkripsiyasi va muallimning tushuntirishlari unga yordam beradi.

O'tilgan o'qilish qoidalari jamlovchi jadvallarda umumlashtirilib, tartibga solinib takrorlanadi. Notanish so'zlar/o'qilish qoidalarining umumlashtirilgan jadvalini ko'rsatish metodik xatolarga olib kelishini unutmash kerak.

Uchinchi masala. O'qilish qoidalarini o'rgatishda qo'llanadigan so'zlar tarkibiga kelganda, xorijiy mamlakatlar til o'rgatish metodikasida o'qilish qoidasini namoyish qiluvchi misollar tariqasida lug'at boyligidagi so'zlardan tashqari, ushbu tilda mavjud bo'lmagan so'zlar, ya'ni sun'iy tuzilgan harflar yig'indisini berish hollari uchrashini eslatish zarur. Bizning o'rta (va oliy) maktablarimizda o'qilish qoidalariga misol tariqasida olinadigan so'zlar, albatta, joriy lug'atdan tanlanadi. Lekin o'qishda uchraydigan so'zlar o'quv yurti uchun mo'ljallangan lug'at-minimum doirasidan tashqari ham bo'lishi mumkin. Chunki o'quvchi o'rgangan o'qilish qoidasiga rioya qilib, notanish so'zlarni ham o'qiy olishga qodir bo'lishi tavsiya etiladi. Shu munosabat bilan o'qilish qoidasini o'rgatishga oid mashqlardagi so'zlarning ko'pchiligi o'quvchi lug'at boyligiga kirmaydi.

Bunday so'zlar lug'atdan tashqari (novokabular) leksika nomi bilan yuritiladi. Lug'at-minimumga tegishli so'zlar nutq faoliyati turlarida aktivlashtiriladi, novokabular leksik birliklar o'qish texnikasi mashqida uchraydi, xolos.

O'qish texnikasi lug'atini bir jumla bilan shunday ta'riflash mumkin: qoida berish o'quvchi so'z boyligini kengay-

tirish yo'li emas, balki o'quvchi nutqida (mas. o'qishda) uchraydigan so'zlarning o'qilishini oldindan o'zlashtirib olish uchun zaruriy metodik choradir.

Bir qarashda yuqoridagi fikrda ichki ziddiyat bordek tuyuladi, aslida ushbu aksiomatik ta'rifda ikkita bir-biriga muvofiq ilmiy-metodik tezis ilgari surilgan. Birinchisi — o'quvchi qoidani o'zlashtirish orqali yangi leksik birlik bilan tanishmaydi. Qoidani namoyish etadigan so'z harf-tovush munosabatini o'qish jarayonida qiynalmasdan tanib olish ko'nikmasini shakllantirish uchun beriladi, bu esa nutqda zarur bo'ladigan so'zlardan tashqari xohlagan notanish so'zni ham o'qiy olish imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchi fikr o'qish texnikasi mashqiga so'zni kiritish faqatgina qoidani bilib olishnigina ko'zlamaydi, nutqda butunlay qo'llanmaydigan so'zning o'qilishini bilish shart emas. Mabodo muayyan so'z qoidaga rioya qilinmay qoidadan istisno o'qiladigan bo'lsa, uning o'qilishi (transkripsiyasi) lug'at kitobidan topiladi.

To'rtinchi masala. O'qilish qoidalarini o'rgatish metodikasining asosiy qonuniyatlari ishlab chiqilgan. Til o'rganuvchi so'zlar ustunini (ustma-ust yozilgan birliklar yig'indisini) o'qish mashqlarini bajaradi. Bir yoki bir necha ustundan iborat mashqning tarkibida, avvalo, tanish, ular ketidan notanish so'zlar beriladi. Bunday tartibdan kutiladigan metodik muddao o'quvchi biladigan o'quv materialini asosida yangisini mustaqil o'rganish hamda kelgusida notanish so'zni o'zi o'qiy olish texnikaviy ko'nikmasini singdirishdir. Mikro-matnni o'zga shaxs yordamisiz mustaqil o'qish mashqning boshqa bir turidir. O'qilish qoidasini o'rgatishning yetakchi prinsipi, oldin qayd etilganidek, o'quvchi birinchi bo'lib, yangi so'zni tanish qoidaga ko'ra o'zi o'qiydi. Muallim o'qib bergan taqdirda o'quvchi tinglab tushunish mashqini bajargan bo'ladi yoki uning talaffuz ko'nikmasi mustahkamlanadi.

Beshinchi masala. Chet til o'rganishda o'qish texnikasi mashqlarining o'rnini haqida munozarali fikrlar mavjud. Dastavval bu mashqlarni boshqalaridan farqlash kerak. Fonetik mashqlar xususida gapirganda, talaffuzni yo'lga qo'yuvchi mashqlar nazarda tutiladi. Ular grafik timsolga tayanib yoki tayanmay bajariladigan mashqlarga bo'linadi. Birinchisi, o'qish texnikasi materialida o'tkaziladi, ikkinchisi sof talaffuz mashqi

sifatida bajariladi. Bundan tashqari, leksik va grammatik birliklarni o'rgatuvchi mashqlarni bajarganda ham o'qish texnikasiga e'tibor beriladi. Nutq jarayonida o'qish texnikasiga diqqat bo'linmasligi uchun o'qilishga oid har qanday qiyinchilik oldindan bartaraf etilishi maqsadga muvofiqdir.

Matn o'qib chiqilgach, u yoki bu qiyinchilikka sabab bo'ladigan ayrim so'z, gap va abzaslarni o'qish mashqi o'tkazilishi mumkin. Unda o'qilish qoidasi, urg'u, ohang kabilar o'qituvchining diqqat markazida bo'ladi. O'tilgan o'quv materialini ichida ma'lum sababga ko'ra ko'pchilik tomonidan puxta o'zlashtirilmagan lisoniy hodisalarni takrorlash mashqi bajartirilishi mumkin.

Odatda mashq bir marta va turli o'quv topshiriqlari bilan xohlaganicha bajarilishi mumkin.

O'qilish qoidasini o'rgatishda qator metodik muammolarga duch kelinadi: qoida berish sharti, uning ta'rifi, turlari, o'zlashtirish jarayoni bilan bog'liq taraflari va h.k. (Darslikning boshidagi „Chet til qoidasi“ mavzusiga qarang.)

Chet til materialini (lisoniy birliklarni) nutqda o'zlashtirish chog'ida fikran umumlashtirib borish metodikada ishlab chiqilgan¹ masaladir.

Ingliz tilida o'qish texnikasini o'rganish o'ta murakkab vazifa bo'lganligi munosabati bilan birinchi o'quv yilida² o'zlashtirilishi zarur o'qilish qoidalari ro'yxati keltiriladi.

| Dars | Qoida | Dars | Qoida |
|------|--|------|---------------------------|
| 6 | e – pen, pencil* | 40 | sch—school |
| 10 | a – and, Ann ee – see (e – pen, desk) | 43 | or—work (or—corridor, or) |
| 11 | c – car (c – pencil) | 44 | ea—please |
| 12 | a – table (a – and, Ann) e – me (e – en, Ben) | 45 | th—thank (th—the) |
| 15 | th – the | 51 | a+ ll—all |
| 16 | book, note—book oo too | 52 | ey—Hey |
| | | 56 | ow—know (k)* |
| | | 57 | a+ sk—ask y—sorry |
| | | 58 | o—lesson (o)* |

¹ Д. Д. Джалалов, Г. И. Стравчинская. Книга для учителя к учебнику английского языка для VI класса узбекской школы. — Ташкент: Укитувчи, 1973 (va keyingi nashrlari). — 23—27-betlar.

² J. J. Jalolov, G. I. Stravchinskaya. 4-sinf ingliz tili darsligi. Toshkent: O'qituvchi, 1982 (va keyingi nashrlari).

| | | | |
|----|-----------------------|----|-------------------------|
| 17 | u—bus | 59 | z—Uzbek, Zebo (s—is) |
| 18 | i—is, in (i — pencil) | | ng—English (nk—thank) |
| | s—is | 60 | u—bus, Russian |
| 19 | wh—where (h)* | | pens, boys |
| | s—street, bus (s—is) | 61 | -s < |
| 20 | o—on (o—don't; do) | | books, streets |
| | (oo—book; too) | | when, where, what(h) |
| 22 | y—you | 62 | w < |
| | ss—classroom, Bess | | write (w)* |
| 23 | ay—day-book, may | | the, with, mother |
| 25 | o—no (o—not, on) | 63 | th < |
| | (o—come) | | thank |
| | (oo—book; too) | 64 | ch—children, teacher |
| 30 | y—my (y—you, yes) | | pens, boys; streets |
| | (day-book) | 66 | -s < |
| 31 | h—hallo | | Omon's, boy's; Rahmat's |
| 32 | er—sister, brother | 85 | ow—know, tomorrow |
| 33 | sh—shop | 90 | u—buy (u)* |
| 36 | ar—yard, car | 92 | i—bike, I, write |
| 37 | or—corridor, or | | y—my, buy (yes, you) |
| 39 | oy—boy | | |
| | ir—girl | | * — o'qilmaydigan harf |

Yuqoridagi qoidalarni bilish o'quvchilarga birinchi yil ushbu darslik bo'yicha o'rgangan barcha inglizcha so'zlarni o'qiy olish imkoniyatini yaratadi. Boshqa o'qilish qoidalari o'quv dasturiga muvofiq ikkinchi va uchinchi o'quv yilida o'rganiladi. Qoidalar verbal (so'z bilan) yodlanishi shart emas. Keyingi sinflarda yangi so'zlar dastlabki uch yil mobaynida o'zlashtirilgan tanish qoidalar asosida o'qiladi. Xullas, o'qish texnikasi ko'nikmasini hosil qilishda ishtirok etadigan o'qilish qoidalarini bilish orqali o'quvchi matnda uchratadigan har qanday ma'nosi tanish/notanish so'zni mustaqil o'qiy olishi ta'minlanadi.

Maktab tajribasida o'z isbotini topgan og'zaki nutqning oldin o'rganilishi mezoniga binoan birinchi yili o'quvchilar tinglash, gapirish, yozuv, o'qish bilan chet til o'rganadilar, ikkinchi yil og'zaki nutqdan keyin o'qish va yozuv keladi. O'qish texnikasini o'rgatish ushbu sharoitga moslashtiriladi. Sharoit o'zgarsa, o'qish texnikasini o'rgatishda ham o'zgacha usullar paydo bo'ladi.

O'qish texnikasini o'rgatishda turli metodlardan foydalaniladi. Ularning nomlari metodik adabiyotlarda g'oyat xilma-

xildir. Muallimlarda deyarli munozara uyg'otmaydigan, aksariyat ko'pchilik ma'qul topadigan „analiz-sintez“ va „so'zni butun holicha o'qish“ metodlari xalqaro miqyosda keng tarqalgan. Ulardan tashqari, „tovush-harf“ va „bo'g'in“ metodlaridan ham foydalanishadi. Ularning metodik ta'rifini bayon etamiz.

Fanda ma'lumki, yolg'iz harfni idrok etib, uning tovush bilan munosabatini, fikran o'rnatish o'qish amaliga kirmaydi. O'qiganda idrok etilmish grafik belgilar nutqning ma'no ifodalovchi birligi sifatida yaxlit so'zga fikran birlashtiriladi. Ko'ruv-eshitish-harakat bog'lanishi vujudga keladi. So'zni bo'linmas birlik tarzida grafik timsoli o'qishda analiz-sintez qilinadi. Shu bilan bir paytda esa o'qishda talaffuz birligi maqomida so'z emas, balki bo'g'in gavdalanadi.

Aytilganlarga asoslanib, butun so'zni, harfni, bo'g'inni o'qish texnikasi birligi qilib olish tavsiya etib kelinadi. Biroq ular orasida farq borligi ham tadqiq etilgan. Mas. so'zni butunicha o'qish o'quvchilar o'rganadigan barcha leksik birliklarni yakkama-yakka o'rgatishni, ya'ni ularga 200—300 va undan ortiq marta kuch va vaqt sarflashni talab etadi. Harflarni yolg'iz o'qitish esa har bir so'zni harflab o'qishga olib keladi.

Bo'g'inlab o'qish va ayni chog'da tovush-harf tahlilidan foydalanish eng maqbul metoddir. Og'zaki nutqni oldin egalash sharoitida o'qish texnikasini o'zlashtirish so'zning yaxlit timsolidan uni tovush-harf tahliliga va so'ngra sintez qilishga o'tishdir. Bunday o'qish analiz-sintez metodi nomi bilan muallimlarga tanish.

Ingliz tilini o'rgatishda bo'g'in metodi (bo'g'inlab o'qish emas) qo'l keladi, ya'ni uni harflarning to'rt bo'g'in turida o'qilishi mashq qilinadi.

O'qish amaliyotidan tashqari o'qilish qoidalari ham berib boriladi. Qoida taqdimoti, bir tomondan, leksik material hajmiga (ikki va undan ortiq misol bo'lishi) va, ikkinchidan, ushbu mavhumot xususiyatiga bog'liq. Misol uchun „e“ harfining so'z oxirida o'qilmasligini birvarakay tushuntirish mumkin.

Agar „s“ harfi o'qilishining qay biriga duch kelinsa, shu to'g'rida aytiladi, boshqacha o'qilishi hozircha „sir“ tutiladi, chunki hali shunday so'zni o'quvchi ko'rganicha yo'q. So'z-

ning yozma shakli taqdim etilishi bilanoq qoida chiqariladi. Qoidadan mustasno soʻzlar yaxlit oʻqila beradi. Til tizimida muayyan qoidaga rioya qiluvchi soʻz yakka-yagona holatda oʻrganilganida ham vaqtincha qoidasiz oʻqib turiladi. Ikkinchi misol nutqda paydo boʻldi deguncha, qoidasi umumlash-tiriladi. Qoida oʻqish texnikasini egallashni tezlashtiruvchi omildir.

Dastlabki darslarda (ogʻzaki ilgariylash sharoitida) soʻzni butun holicha oʻqitib turiladi, qoidaga boʻysunuvchi misollar toʻplanishi bilan darrov umumlashma yasaladi. Qolgan barcha yangi soʻzlar oʻxshashlik (analogiya) asosida oʻqiy beriladi. Birinchi oʻquv yili inglizcha harflarning alifbodagi nomi emas, balki tovush-harf maqomida, yaʼni qaysi tovushni ifodalasa, shu tovush nomi bilan harf atalishi qabul qilingan. Keyin-chalik alifboda aytilishi ham oʻrganiladi. (Ingliz tili boʻyicha, avvalo, qisman transkripsiya, yaʼni soʻzdagi harfni aks ettiruv-chi tovush belgisi, keyinchalik toʻliq soʻz transkripsiyasi ishla-tilishi mumkin.)

Oʻquv-metodik topshiriqlar

1. Oʻqish texnikasida amal qiladigan aqliy operatsiyalarni aytib bering.
2. Istifodadagi „oʻqish texnikasi“, „oʻqilish qoidasi“, „oʻqish mexanizmi“ terminlarini tahlil qiling.
3. Oʻqilish qoida (mavhumot)lari yuzasidan fikr bayon eting.
4. Oʻqish texnikasini oʻrgatish metodlari haqida gapiring.
5. Maktab darsliklaridagi oʻqish texnikasi mashqlarini amalda bajaring.

4-§. Oʻqishni oʻrgatish mashqlari

Ilmiy manbalarda tavsiya etiladigan va maktab tajribasida qoʻllanadigan mashqlar turli jihatdan tasnif etilishi mumkin: (1) matn bilan ishlash bosqichlari; (2) oʻqish turlari; (3) oʻqish texnikasi va mazmuni bilan bogʻliq mashqlar.

Birinchi tasnifga koʻra leksik-grammatik birliklarni oʻzlash-tirish mashqlarini bajarish tayyorlov bosqichiga kiradi. (VIII va IX boblarda leksika va grammatika mashqlari keltirilgan.)

Matnni oʻqish bosqichida esa quyidagi mashqlar bajariladi: 1. Matn mazmuni bilan tanishish. 2. Matn abzasini gapma-

gap o'qish. 3. Keyingi abzasdagi hikoya qiluvchining grammatik shaxsini o'zgartirib o'qish. 4. Navbatdagi abzasning fe'l zamonini o'zgartirib o'qish. 5. Muallim matnga mos tushmaydigan jumla aytadi, o'quvchi matndan to'g'risini topib o'qiydi. 6. Matn mazmunini navbatma-navbat aytish. 7. Matn mazmuni yuzasidan o'quvchilar bir-birlari bilan savol-javob qiladilar. 8. Matn mazmunini reja asosida gapirib beradilar va h.k.

Matn ustida ishlashning uchinchi bosqichida o'ziga xos mashqlar bajariladi: 1. Yakkanutq yoki juftnutqda ushbu matn va oldin o'tilgan materiallardan foydalanib gapirish mashq qilinadi. 2. Yangi O'NV bo'yicha matndan foydalanib gapirish. 3. Juftnutq mashqlarini bajarish. Matn xusiyatiga ko'ra tushunganlikni tekshirish mashqlari (og'zaki va yozma) bajariladi.

Ikkinchi tasnifga binoan o'quvchilar tanishuv, o'rganuv va kuzatuv o'qishga oid mashqlar bajarishadi.

Tanishuv o'qish mashqlariga quyidagilar kiradi: 1. Matnning umumiy mazmunini tushunib savollarga javob berish. 2. Muallim matndagi ayrim axborotni ataylab o'zgartirib aytadi, o'quvchilar matndan to'g'ri ma'lumotni aytib beradi. 3. Matndan oldingi savollarga javob topish. 4. Muallim fikrini isbotlovchi dalillarni matndan topib aytish va h.k.

Mutolaa (o'rganuv o'qish) davrida matn mazmunini batafsil tushunishga qaratilgan mashqlar bajariladi: 1. Matnni ko'z yugurtirib o'qib chiqish. 2. Diqqat bilan mutolaa qilish. 3. Tushunganlikni tekshirish uchun matnning ayrim joylarini yoki to'liq yozma tarjima qilish. 4. Savol-javob mashqini bajarish va h.k.

Kuzatuv o'qish chog'ida boshqa turlardagi o'qishga qo'shimcha quyidagi mashqlar tavsiya qilinadi: 1) uch-to'rt daqiqa mobaynida matnda nima haqida gap borishini aniqlash; 2) matndan falon narsa haqidagi joylarni topib o'qish; 3) gazetadan falon maqolani topib o'qish va h.k.

Uchinchi tasnif bo'yicha o'qish mashqlari ikki toifada bajariladi: (1) til materialini, boshqacha aytganda, nutqiy faoliyat ko'rsatish vositalarini o'zlashtirishga va (2) matndagi axborotni fahmlash usullarini egallashga mo'ljallangan mashqlar.

Til hodisalarini o'qish jarayonida o'rganish mashqlari: 1) so'zni yozish (ko'ruv timsolini hosil qilish) va o'qish;

2) orfografik belgiga binoan soʻzlarni guruhlab oʻqish; 3) harfi tushirib qoldirilgan soʻzlarni toʻldirib yozish va oʻqish; 4) diktantlar yozish va oʻqish; 5) muayyan harfni oʻz ichiga olgan qator soʻzlarni oʻqish; 6) falon tovushli soʻzlarni oʻqish; 7) qisqa va choʻziq unli ishtirokidagi soʻzlarni oʻqish; 8) qiyoslangan soʻzlar ustunini oʻqish; 9) bir qoidaga rioya qiladigan tanish va notanish soʻzlarni oʻqish; 10) soʻz birikmalarini oʻqish; 11) gaplarni oʻqish; 12) mikromatnni oʻqish va h.k.

Grafemalar (harf va harf birikmalari)ni, soʻz, soʻz birikmalari, gap, mikromatnni sinf dōskasidan, daftar yoki kitobdan va tarqatma materialdan oʻqish mumkin.

Oʻqishdan axborot olish mashqlari: 1) matnning falon tarafini ajratish (asosiy gʻoyasini, biron tafsilotini, muayyan faktni topib oʻqish); 2) falon masalalarni yoritadigan oʻrinlarni topish; 3) voqealar (qahramonlar) orasidagi bogʻlanishni ochish maqsadida oʻqish; 4) mavzuning ibtidosi va intihosini aniqlash uchun oʻqish; 5) oʻqilgan joyni sharhlash; 6) yashirin mazmun (tagmaʼno)ni fahmlash va boshqalar.

Tegishli soʻzlarni topish, feʼl zamonini aniqlash, tayanch jummalarni belgilash, soʻz va jummalarni almashtirish, bir necha jumlani birlashtirish singari til materialiga doir mashqlar ham bajariladi.

Nutqiy mashqlarda ashyoviy koʻrgazmalilik, sujetli rasmlar, flanelegraf kabilardan keng foydalanish mumkin.

Xullas, oʻqishni oʻrgatishda lisoniy (leksik, grammatik, talaffuzga oid) koʻnikmalarni hosil qilish mashqlari va nutq (oʻqish, tinglash, gapirish, yozuv) malakalarini oʻstirish mashqlari bajariladi (2- va 3-§ larga qarang).

Oʻquv-metodik topshiriqlar

1. Oʻqishni oʻrgatish mashqlari tasnifi haqida mulohaza yuriting.

2. Uchala tasnifning farqini tahlil eting.

3. Maktab darsligidagi oʻqish texnikasi va matnni oʻqish mashqlarini amalda bajaring.

Yozuv nutq faoliyatining turi va malaka sifatida

Maktabda o'rganiladigan chet tildagi nutq faoliyati turlari (gapirish, tinglab tushunish, o'qish)dan yozuvning farqi, uning til o'rganishda tutgan mavqeyi bo'lib, u o'qitish maqsadi maqomiga ega emas, balki ta'lim vositasidir („maqsad“ va „vosita“ terminlari haqida III bobning „Chet til o'qitishning amaliy maqsadi“ mavzusida tegishli ma'lumotlar berildi).

Barcha nutq faoliyati turlari va nutqiy malakalar qatorida teng huquqli bo'lgan „yozuv“ tushunchasi qamrovini tashkil etadigan semantik doirasini ochib beramiz. Avvalan, „yozmoq“ (turkiycha o'zak)dan olingan „yozuv“, „yozish“, „yozma“ terminlari izoh talab qiladi. Ikkinchi toifada „yozma nutq“, „yozma muloqot“, „yozish texnikasi“, „yozma mashq“, „yozma ish“, „yozuv ko'nikmasi/malakasi“ va yunoncha „yozuv-chizuv“ni ifodalaydigan, „grafika“, „grafema“, „kalligrafiya“, „orfografiya“ hamda lotincha (dictare — yozish uchun aytish) „diktant“, arabchadan kirgan „bayon“, „insho“ singari terminlar uchraydi. Uchinchi masala „harf“ bilan bog'liq (harfiy timsol, harf birikmasi, digraf, alifbo, alifbe kabi) terminlarni aks ettiradi.

Ma'lumki, o'zbek maktablarida chet til o'qitish metodikasiga oid aksariyat terminlar turli sabablarga ko'ra rus tilidagi adabiy manbalardan o'zlashtirilgan. Ayni chog'da ruscha ayrim terminlarning asliyatda chalkash holda shakllanganligini bilamiz. Mas. письмо — 1) yozuv; 2) yozma nutq; 3) yozish; 4) xat, maktub. Ko'rinib turibdiki, bir termin bir necha ma'noda qo'llanadi, shunday ekan, o'zbekchaga ham bu hol noma'qul ta'sir qilgan (polisemiya tabiiy hodisa, lekin termin, odatda, bir ma'noli bo'lishi shart).

Yozuvni o'rgatishga doir ro'yxatda qayd etilgan terminlarni metodika nuqtayi nazaridan umumlashtirib tahlil qilamiz. Chet tilda yozuv deganda, ushbu til vositalari qo'llanib, yozma shaklda fikr bayon etish tushuniladi.

Yozma nutqda qo'llanadigan lisoniy vositalarni, birinchidan, grafemalar va yozma shakldagi leksik va grammatik birliklar tashkil etsa, ikkinchidan, ularning qo'llanishi (yozi-lishi) yozma nutqning yozish texnikasi sanaladi. Demak,

grafik vositalar va ularning texnikaviy jarayoni haqida soʻz yuritildi. Material va uni qoʻllash tushunilmoqda. Yozish texnikasidan foydalanib, fikr chet tilda yozma bayon etilsa, yozma muloqot yuz beradi.

AQSH chet tillar oʻqitish metodikasining atoqli namoyandalaridan Garvard universiteti professori Uilga M. Rivers fikricha, savodli boʻlish — oʻqish va yozuvni bilish, degan maʼnoni anglatadi¹. Oʻqish va yozuv yozma nutqning ikki „pallasi“dir, birinchisida yozilgan material oʻqiladi, ikkinchisida esa odatda oʻqishda oʻzlashtiriladigan fikr yozma izhor etiladi. Axborotni yozma bayon etish ikki yoʻl bilan roʻyobga chiqariladi: chunonchi (1) oʻz fikrini yozish va (2) aytib (oʻqib) turilgan oʻzga shaxs nutqini yozuvda ifodalash. Har ikkala holatda ham yozma matn yaratiladi.

Ushbu bob nomida istifoda etilgan „Yozuvni oʻrgatish“ termini ikki tushunchani ifodalaydi, yaʼni (1) yozish texnikasini va (2) yozma nutqni (fikrni yozma bayon etishni) oʻrgatish maʼnolarida kelgan. Yozish texnikasi deganda, grafika (tovush-harf munosabati va harfning maʼno bildirish vazifasi), kalligrafiya (husnixat), orfografiya (imlo) nazarda tutiladi. Yozma nutq termini esa grafik tarzda ifodalangan axborot va nutq muloqoti jarayoni maʼnolarini qamrab oladi.

Grafika oʻqish va yozish texnikasi tushunchalari bilan chambarchas bogʻliq. Harf-tovush munosabati koʻzda tutiladi.

Husnixat tushunchasi tarkibiga tovush va tovush birikmalarini yozuvda tasvirlaydigan yozuv-chizuv vositalari majmuasi (harflar, harf birikmalari, harf usti va osti belgilari) kiradi. Imlo — soʻzlarni (gaplarni) yozish va ularga doir qoidalar yigʻindisidir.

Husnixat harf, harf birikmasi soʻz asosida, imlo esa morfema, soʻz (gap) darajasida, yozma nutq esa gap, abzas va bogʻlanma matn materialida oʻrgatiladi.

Yozma nutq boshqa reproduktiv nutq faoliyati turi — gapirish zaminida, yaʼni uning lisoniy materiali va mavzulari doirasida shakllanadi. Yozma nutq tegishli xususiy malakalarga

¹ *Wilga M. Rivers. Teaching Foreign-Language Skills. 2nd ed. — Chicago and London: The University of Chicago Press, 1981, p. 291. (Washington shahrida muhtarama metodist bilan 1990-yil 23-iyulda boʻlgan suhbatimizda mazkur sohada atroflicha fikr almashdik.)*

asoslanadi. Yozuv (ya'ni yozma nutq) malakalari quyidagi ko'nikmalardan tashkil topadi: (1) husnixat ko'nikmasi; (2) imlo ko'nikmasi; (3) tuzish (yozma fikr bayon etish maqsadida gaplarni birlashtirish) ko'nikmasi; (4) yozuvning leksik va grammatik ko'nikmalari kabilar.

1-§. Yozuvning tilshunoslik va ruhshunoslik masalalari

Chet til o'qitish metodikasi yozuv haqidagi ma'lumotlarni yaqin fanlar to'plagan ilmiy yutuqlardan o'rganadi va amalda ijodiy tatbiq etadi. Tilshunoslik tilni sistema maqomida, ruhshunoslik uni faoliyat va malaka sifatida tekshiradi.

Tilshunoslik tadqiqotlariga binoan grafik tizimdagi belgilar turli informativ vazifalarni o'taydi. Bu tizimning eng kichik birligi — grafemalar va orfografik belgi (apostrof, defis (chiziqcha), harf usti va osti belgisi kabi)lardan iborat bo'lib, yozma nutqning shakliy tarafini farqlashga xizmat qiladi. Grafik tizimning katta birligi — morfema va leksema esa nutqiy hosilaning mazmun tomonini ifodalashda ishtirok etadi. Grafema qo'lharakat mexanizmi tufayli yaratiladi va ko'ruv kanali orqali idrok etiladi. Nutq oqimida grafema o'rniga ko'ra (bosh va kichik harflar), yonidagi harflar bilan munosabati tufayli (so'z boshi va o'rtasida kelishi), yozilish xususiyatiga qarab (dastxat, bosma va kompyuter yozuvi harflari) o'zining allograflari (variantlari)ga ega bo'ladi. Grafemalarning sifati jihatidan quyidagi toifalari mavjud: (1) sigmentga oid grafema (harf, harf birikmasi), (2) morfemali grafema (o'zak, qo'shimcha, old qo'shimcha, fleksiya), (3) chegaradagi grafema (so'zning birikishi oralig'ida) va (4) supersegment grafema (tinish belgilari) kabilar.

Yozish texnikasi nazariyada uch tarkibli bo'lgani bilan, amaliyotda ular yaxlitlik kasb etadi. Muallim ularning har biridagi mavjud qiyinchiliklarni tilshunoslik ma'lumolari yordamida bilib oladi. Qiyinchilik tafovut hosilasidir. (Xato esa qiyinchilik oqibatidir.)

Tovush-harf munosabati. Ingliz, ispan, nemis, fransuz tillari tovush-harf bog'lanishi o'quvchilar ona tilidagidan farq qilishi hollariga duch kelamiz:

(1) tovush bilan harf miqdorining mos kelmasligi (chet tilda bir tovushga ikkita (digraf) va uch (baʼzan undan ham koʻp) harf toʻgʻri keladi, ona tilida, „ch, sh, ng“dan tashqari, bu hodisa yoʻq);

(2) harfning turlicha oʻqilishi. Chet tildagi undosh (mas. „s“) oʻrniga qarab, har xil tovushni ifodalaydi;

(3) harflarning bir nechasi bitta tovushni ifodalashi (mas. [k] tovushining s, k, q harflari orqali belgilanishi);

(4) baʼzi harflar chet tilda oʻqilmaydi (shartli *soqov* harf deyiladi).

Tovush-harf munosabati yuzasidan vujudga keladigan qiyinchiliklar oldini olish uchun oʻziga xos mashqlar bajarish tavsiya etiladi.

Husnixatni oʻrganishda oʻquvchilar ona tilidagi tajribalaridan samarali foydalanishlari mumkin. Oʻquvchi yozish chogʻida toʻgʻri oʻtirishni, qoʻl, barmoq va tirsak holatini, daftarni qanday ushlash kabilarni biladi. Qator harflarning yozilishi (mas. e, o, s kabilar) oʻquvchilarga hech qiyinchilik tugʻdirmaydi.

Oʻquvchilar ona tilidagi yozish koʻnikmasi chet til oʻrganishda xalaqit berishi (interferensiya) ham mumkin. Mas. bosma harf oʻxshash, uning yozma shakli keskin farq qiladi yoki qisman oʻxshash harflar, butunlay tafovut qiladigan harflar va h.k.

Imloni oʻrgatish uchun muallim uning tilshunoslikdagi maʼlum mezonlarini bilishi zarur.

(1) **fonetik mezon:** soʻz yozilishi ifodalayotgan tovushga mos keladi (ingl. *pen*; isp. *dama*; nem. *kurz*; fr. *trou*);

(2) **morfologik mezon:** fonetik holatiga qaramay soʻzning maʼno ifodalovchi qismi (old qoʻshimcha, oʻzak, suffiks) yozilishida oʻzgarishsiz qoladi (mas. nem. *Hand* soʻzida oxirgi harf (t) oʻqilsa-da, yozilishi oʻzgarmaydi);

(3) **anʼanaviy (tarixiy) mezon:** fonetik va morfologik imlo qoidasiga boʻysunmaydi, tarixan qabul qilingan tarzda yozilaveradi (ingl. *door*; nem, *vier*; fr. *aube*);

(4) **iyeroglif (ideografiya) mezon:** aytilishda bir xil (omofon) soʻzlar yozilishda oʻzgacha qiyofaga ega boʻladi (ingl. *here—hear*; nem. *Saite—Seite*; fr. *Lant—temps*).

Imlo mezonlariga binoan yozish texnikasi qiyinchiliklari meʼyori aniqlanadi. Fonetik imlo oson hisoblanadi (koʻproq

ispan tilida), qiyinrog‘i an‘anaviy imloda yozish (ingliz va fransuz tillarida). Morfema qismlariga e‘tibor beriladigan morfologik mezonga nemis tili to‘g‘ri keladi. Yozuv jarayoni-ning ruhshunoslikda tahlil etiladigan xususiyatlaridan muallim xabardor bo‘lishi kerak. Ta‘limiy ruhshunoslik (pedagogik psixologiya) fanida ma‘lumki, yozuv mexanizmi harflardan so‘z hosil qilish va ulardan gap tuzish demakdir.

Ruhshunoslikdagi faoliyat nazariyasi bo‘yicha yozuv (gapirishga o‘xshab) fikrni shakllantirish va ifodalash usulidir. Bunda til belgilari qo‘llanadi. Ular bosh miya qobig‘ida yuz beradigan nerv bog‘lanishlarida tamg‘alangan timsollar tarzida „saqlanadi“. Mazkur nutq faoliyati turida ko‘ruv va qo‘lharakat timsollari eshitish va nutqharakatga oidlari bilan birgalikda amal qiladi. Ko‘ruv-grafik va qo‘lharakat timsollari muvoziy tarzda yozish bilan mashg‘ul qo‘lning harakat mexanizmi tomonidan boshqariladi. So‘zning imloviy timsoli esa yoza-yotgan qo‘lning harakat mexanizmida emas, balki nutqiy mexanizmida tamg‘alanadi.

Yozuv, ruhshunoslar ta‘biricha, alifbodagi harflarning grafik jihatdan to‘g‘ri tasvirini (harfiy timsolni) tushirish, ya‘ni ma‘nosini uning tovush, grafik (harfiy) va harakat timsollari bilan fikran bog‘lab, tovush va tovush birikmalarini harf va harf birikmalariga „o‘tkazish“ demakdir. Ikkinchidan, so‘z, so‘z birikmasi va tinish belgilarni imlo jihatdan to‘g‘ri yozish lozim. Uchinchidan, yozma shaklda fikr izhor qila olish kerak. Demak, yozuvni o‘rgatishda tovush, harf, bo‘g‘in, so‘z, so‘z birikmasi, gap, abzas va yozma axborot ustida ish olib boriladi.

Ishtirok etadigan aqliy operatsiyalar miqdori jihatidan yozuv gapirishga nisbatan murakkab nutq faoliyati turidir. Yozayotgan shaxs o‘zining va boshqalarning fikrini yozma bayon etadi.

Psixolingvistika ma‘lumotlarida „kod“ termini har qadamda uchraydi (Bu haqda „O‘qishni o‘rgatish“ bobida ham so‘z yuritilgan). Grafik kodni ishga tushirishda quyidagi operatsiyalar amal qiladi: (1) tovushni tasavvur etish (o‘quvchi yodlagan materialni yozish chog‘ida) yoki tovushni idrok etish (aytib turib yozdirish paytida), yoki tovush tasavvuriga bog‘liq tovush idroki (kitobdan matnni ko‘chirishda); (2) ushbu tasavvur va idrok bilan muayyan grafemalar bog‘lanishini o‘rgatish; (3) yozishda amaldagi ichki nutq bilan bog‘langan harakatni bajarish. Operatsiyalarda ishtirok qiladigan ko‘ruv va harakat

analizatorlari ko'zga tashlanib tursa, tovush va eshitish analizatorlari pinhoniyl va kuchsiz ravishda amal qiladi.

Yozuv murakkab psixofiziologik faoliyat bo'lib, unda nutq analizatorlarining hammasi ishtirok etadi.

Gapirish mexanizmlari yozuvda ham amal qiladi. Yozuvda ma'no, tovush timsoli va harfiy timsol o'zaro bog'lanadi. Ma'lumki, ma'no va tovush timsoli gapirishda amal qiladi, yozuvda ularga harfiy timsol qo'shiladi. Grafik timsol o'zlashtirila borib, nutq (ya'ni yozuv) ko'ruv analizatori nazoratiga o'tadi (gapirish esa eshitish analizatoriga tobe bo'ladi). Ichki nutq tezligidan yozuv sur'ati sekinroq kechadi (gapirishda esa ayni chog'da ichki nutq amal qiladi).

Keltirilgan ilmiy mulohazalarga asoslanib, avval og'zaki, keyin yozma nutq o'rgatiladi. Gapirishda audiomatn, yozuvda grafik matn yaratiladi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Yozuvning texnika tomoni — tovush-harf munosabati, husnixat va imlo haqida bilganingizni ayting.

2. Yozuvga oid quyidagi terminlarni muhokama qiling: yozuv, yozish, grafika, grafema, orfografiya, kalligrafiya.

3. Imlo mezonlarini ayting va ularni tahlil qiling.

4. Yozuvda ishtirok etadigan nutq analizatorlari haqida mulohazalaringizni aytib bering.

2-§. Yozish texnikasi va yozma nutqni o'rgatish

O'rgatish obyekti qilib, tovush-harf munosabati, harflar, imlo singari til hodisalari tanlanadi, ular, ta'kidlab o'tilganidek, yozuvning texnik jihatidir. Yozish texnikasi (texnikaviy ko'nikmalar) asosida yozma fikr bayon etiladi — nutqiy malakalar hosil qilinadi. Qisqasi, „yozuv“ va „yozish“ lingvodiktik termin-tushunchalari doirasi bir-biridan farq qiladi.

O'rgatiladigan G'arbiy Yevropa tillari va o'zbek tili ham lotin grafikasidan foydalanadi. Ikkala grafikaning tafovutlari va o'xshashliklarini hisobga olib, yozish texnikasini o'rgatishga kirishiladi.

Tovush-harf munosabatlaridagi qiyinchilik darajasiga qarab, ularni yozuvda (va o'qishda) o'zlashtirish tartiboti belgilanadi. Mas. tovush va harf muvofiq kelsa va ona tili bilan chalkash-

tirish kuzatilmasa, eshituv-tovush idroki, ko'ruv tasavvuri va yozish amallari orqali grafika nisbatan oson o'rganiladi (D. N. Bogoyavlenskiy tavsiyasi). Bir tovush bir necha harf orqali ifodalanishi yoki bir harf birdan ortiq tovushni bildirishi mushkul vaziyat hisoblanadi: tovush-harf yoki bo'g'in tahlili yordamida o'rgatishga majbur bo'lamiz. Tahlil, bu o'rinda, chuqur nazariy mulohazalar yuritish emas, balki ushbu hodisaga xos xususiyatni sodda tilda aytishdir. Agar transkripsiya (tovushning yozuvdagi belgisi) kiritilgan bo'lsa, undan me'yorida foydalanish mumkin. O'qilish qoidasini namoyish etuvchi misollar kifoya qilsa, mavhumot umumlash-tiriladi. Harflarning alifbodagi nomi o'rganilishi so'zni og'zaki harflab aytish (ingl. *spelling*, nem. *buchstabieren*, fr. *epellation*) mashqini bajarishga zamin tayyorlaydi.

Bosh va kichik harflarni chalkashtirmaslik maqsadida ingliz tili bo'yicha ularni zamon va makonda ajratib o'rgatish tajribasi o'zini oqlagan. Yozma va bosma harflar darsda muvoziy tarzda beriladi. Qirqma alifbodan ko'p foydalanish dastlabki bosqichda samarali natijalar beradi.

O'quvchi til tajribasini hisobga olib, chet tilda husnixat o'rgatiladi. Harflar yozilishi darslikda ko'rsatilgan yo'sinda o'rganiladi. Qiyin o'zlashtiriladigan harflar sinf doskasi va o'quvchilar daftarlarida bo'lib-bo'lib yozib ko'rsatiladi. Ko'rgazmali qurolni namoyish etishning o'zi kifoya qilmaydi. Chiroyli va to'g'ri yozishni muallim amalda yozib ko'rsatgani ma'qul. Binobarin, yozishni o'rgatuvchining xattotlik mahorati, hatto san'ati (musulmon dunyosida tarqalgan ijodiy faoliyat) yuksak bo'lmog'i kerak.

Imloni o'rganish yanada muhim o'quv vazifasidir. Og'zaki nutqda o'zlashtirilgan so'zlarning yozilishi orfografik (imlo) minimum(i)ni tashkil etadi. Faqat o'qish va tinglashdagina uchraydigan leksika imlo minimumiga kirmaydi. Demak, maktabda o'rganilmish barcha leksik-grammatik hodisalarning orfogrammali (imlo birliklari¹)ni yozish shart emas, ya'ni imlo minimumiga rioya qilinadi, xolos. Orfografik hodisalarga

¹ „Imlo birligi“ qamroviga kiradi: harf, harf birikmasi, so'z, so'z yasash unsuri, shakl yasash unsuri, gap tuzilish shakli, so'zning ichki o'zgarishi va o'zgarmasligi kabilar. Qarang: Д. Д. Джалалов. Проблемы содержания обучения иностранному языку. — Ташкент: Фан, 1987. — 100-bet.

alohida e'tibor talab etiladi. Qoidalar mohiyatida, xuddi grammatika va o'qish texnikasida bo'lganidek, amaliy yo'nalganlik mezoni hukm suradi. Qoidaga tushmaydigan imlo birligi (orfogramma) (mas. ingl. *eight, are, you* kabilar)ni ideogramma (yaxlit birlik) tarzida yozilishi o'rganiladi.

Orfografik birliklarning ona tili va chet tilda muqoyasasi oqibatida o'quvchi uchun oson/qiyin imlo birliklari aniqlanadi, har qaysi birlikka oz/ko'p vaqt va kuch sarflanadi hamda mashqlar belgilanadi¹.

Ingliz tili orfografiyasi juda murakkabdir, chunki u o'zining uzoq tarixi (VI—XX asrlar) davomida boshqa tillardan ko'plab so'zlarni o'zlashtirgan. Bu so'zlarning aksariyati o'z talaffuz va yozuv me'yorini saqlab qolgan, ba'zilari esa ingliz tili talaffuz qoidasiga binoan o'zgargan. Ingliz tili imlo birliklarini o'quvchilarning o'zlashtirish darajalariga ko'ra uch turga bo'lish mumkin: 1) qiyinchiligi kamroq imlo birliklari; 2) o'rtacha qiyinchilik tug'diradigan birliklar; 3) o'ta qiyin imlo birliklari.

Birinchi toifaga ingliz imlosining ko'p hodisalari, chunonchi, otlarda ko'plik sonning odatiy yasalishi, hozirgi noaniq zamonda fe'ning 3-shaxs birlik shakli, sifat darajalari va h.k.

O'rtacha qiyin imlo birliklari sirasiga quyidagilar kiradi: bir bo'g'inli so'zlar (ingl. *pen, desk, map*), so'zlarning bosh harf bilan yozilishi (*English, Russian, Uzbek, TV*), hafta kunlari va oylar nomlari va ingliz realiylari (*Monday, March, O.K.*), ko'cha nomlarining (*Usmon Nosir Street, Visol Street*) yozilishi.

Uchinchi — o'ta qiyin imlo birliklari qatoriga bir qancha hodisalar jamlanadi, jumladan: omonimlar (ingl. *sea—see, meat—meet, week—weak, new—knew*), bir fonemaning birdan ortiq, grafemalar yordamida ifodalanishi ([s]—receive, cinema; say, most; [i:]—me, Pete; teacher; street); otlarda ko'plik sonning qoidadan mustasno hollari (man—men, woman—women; child—children, sheep—sheep); gerundiyning yasalishida undosh harfning geminatsiyasi (ikkilanishi) hodisasi (sit—sitting, begin—beginning); so'z boshidagi undosh harfning o'qilmasligi (know; write; hour; who).

¹ Ushbu ilmiy-metodik ma'lumot ingliz va nemis tili muallimasi Manzura To'rayeva (Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanida) va fransuz tili muallimi Hakim Rasulov (Farg'ona viloyati Dang'ara tumanida) ilg'or ish tajribalarida sinovdan o'tkazilgan.

Birinchi turdagi hodisalar morfologik, ikkinchisi fonetik va uchinchi esa tarixiy (an'anaviy) yozilish mezoni bo'yicha o'rgatilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Morfologik prinsip bo'yicha yoziladigan imlo birliklariga, asosan, qoidalar yordam beradi. Fonetik prinsipga binoan yoziladigan orfografik birliklar uchun esa ko'rish va eshitish mashqlari ko'proq qo'llaniladi. An'anaviy yoziladigan birliklar uchun eslab qolish va ko'rish qobiliyati rivojlantirilishi zarur.

Yozma nutqni o'rgatishda yozuv materiali, yozuv ta'lim vositasi ekanligi, yozma ishlar kabi masalalar hal etiladi. O'quvchilarning o'zlashtirgan til materiali va og'zaki nutq mavzulari asosida yozma fikr bayon etishlari amalda tatbiq qilingan. Yuqori sinflar til materiali va o'qish mavzularini qo'llab o'quvchilar yozma nutq bajarmaydilar. Yozuv til materialini puxta o'zlashtirish, og'zaki nutq va o'qish malakalarini o'stirish hamda o'quv materialining o'zlashtirish darajasini tekshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Yozma ishlarni bajarish oqibatida o'quvchilar chet mamlakatdagi tengdoshlariga xat yoza olish malakasini egallaydilar.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Yozish texnikasi tarkibiga kiruvchi hodisalarni o'rgatish xususiyatlarini birin-ketin gapiring.
2. Imlo qiyinchiliklariga o'rganilayotgan chet tildan misollar toping.
3. Maktab darsliklaridagi yozuv materialining oson va qiyin o'zlashtiriladigan toifalariga misollar keltiring.
4. Yozma nutqni vosita sifatida o'rganish oqibatida o'quvchilar erishadigan natijani muhokama qiling.

3-§. Yozuvni o'rgatish mashqlari

Yozma mashqlar tushunchasi doirasiga o'quvchilar sinfda va uyda bajaradigan barcha yozma ishlar kiradi. Yozma mashq deganda, yozuv (yozma ishda fikr bayon etish) va yozish (tovush kodini grafik belgiga o'tkazish) amallari anglashiladi. Birinchisida yozma nutq muloqoti, ya'ni o'zining va o'zga shaxsning fikrini yozma shaklda kimgadir yetkazish, ikkinchisida esa yozish texnikasi (tovush-harf, husnixat, imlo) mashqlari nazarda tutiladi.

Metodik adabiyot sahifalarida yozma mashqlar qator mezonlarga ko'ra tasniflanadi¹: (1) vazifasiga ko'ra — tayyorlov va asosiy („nutqiy“ ma'nosida — J.J.); (2) nutq faoliyatining xususiyatiga qarab — retseptiv va reproduktiv; (3) o'quv amallari jihatidan — til strukturalarini nutqda taqlidan qo'llash, o'zgartirish, birlashtirish; (4) til materialiga munosabat yuzasidan — nutqda aniq bir maqsadda va turli maqsadlarda qo'llash. Ushbu yozma mashqlar yana kichik turlarga ajratilishi mumkin.

Yozuvni o'qitishga bag'ishlangan metodik manbalarda mashqlarning umumiy tasnifi (E. I. Passov) ham keltiriladi. (1) ko'chirish; (2) eshitib yozish (imlo diktanti); (3) erkin va ijodiy diktant (fikr bayon etish); (4) chinakam yozuv mashqi (xat, devoriy matbuotga maqola yozish, biror hodisani tasvirlash); (5) o'yin-mashq (krossvord, chaynvord, topishmoq); (6) hikoya (matn) rejasini tuzish; (7) o'qigan matnning muxtasar bayoni (annotatsiyasi)ni tayyorlash.

Yozma mashqlarning mavjud tasniflarini umumlashtirib, amaliy qulaylik nuqtayi nazaridan yozish va yozma nutq mashqlari sifatida tavsiya etiladi va ularga namunalar keltiriladi.

Yozish mashqlari: falon tovushni ifodalovchi harflarni yozish; matndan falon tovush-harf munosabatini namoyish qiluvchi so'zlarni ko'chirish; matnni ko'chirib, undagi tovush va harf miqdori mos kelmaydigan so'zlarning tagiga chizish; matndagi so'zlar tarkibida uchraydigan o'qilish qoidalarini guruhlash (mas. o'qilmaydigan harfli so'zlar, harf birikmali so'zlar, tovush-harf miqdori to'g'ri keladigan so'zlar va h.k.); bir tovush bir necha harf va harf birikmalari orqali berilishiga matndan misollar topish; o'xshash morfemali so'zlarni matndan ko'chirish; falon tovushni o'z ichiga oladigan so'zlarni (qirqma alifbodan foydalanib) tuzish.

Diktant yozish

Maktab sharoitida quyidagi diktant turlari o'tkaziladi: eshituv, ko'ruv, ko'ruv-eshituv, ogohlantiruvchi diktantlar.

Eshituv diktantida oldin o'rganilgan material aytib turib yozdiriladi. Unda tovush-harf munosabati mustahkamlanadi.

¹ Б. А. Ланудус. Интенсификация процесса обучения иностранной речи (Пути и приёмы). — М.: Высшая школа, 1970.

Ko'ruv diktantida sinf doskasida yozilgan gaplar o'qiladi, ular o'chiriladi. So'ngra muallim aytib turadi. Yoddan yozishadi.

Har ikkala diktant xususiyatini o'zida mujassamlashtirgan ko'ruv-eshituv diktanti chog'ida bir yo'la sinf doskasi va daf-tarlarga yozib boriladi.

O'quvchilar daftarlaridagi yozuvlarini solishtirishadi va xatolarini to'g'rilab, tahlil qilishadi.

Ogohlantiruvchi diktant o'tkazishda muallim avvalo qiyin orfogrammalarni sinf doskasiga yozib tushuntiradi, o'chiradi, so'ngra, ularni aytib turib yozdiradi.

Bulardan tashqari yana yod olingan material (parcha, she'r)ni mustaqil yozish diktanti amalda qo'llanadi.

Imlosi qiyin so'zlarni o'quvchilar, odatda, o'zlariga „qulay qoidalar“ yordamida o'qib-yozadilar. Metodistlar eksperiment-lari ushbu o'qish-yozishni tartibga solib, amalda istifoda qilishni tavsiya etishgan¹. Qiyin imloli so'zlarni orfografik ay-tish/o'qish orqali o'rganiladi.

Texnikaviy mashqlar orasida husnixatni o'rgatishga doirlari ham bajariladi: qo'l harakatini o'rganish; namunaga binoan harf qismlarini yozish; harfni bir necha qator yozish; matnni (parchani) chiroyli qilib ko'chirish; aralash berilgan harflarni juftlari bilan yozish; bosma harfning yozma shaklini yozish; bosma matnni harflar bilan ko'chirish va h.k.

Yozish texnikasi mashqlarini bajarishda ko'chirish, tagiga chizish, to'ldirish, tasniflash (guruhlarga ajratish), tahlil, xato-larni tuzatish kabi ish turlari o'rni bilan keng qo'llaniladi.

Imlo mashqlarini keragida sodda qoidalar ko'magida o'tka-zish ham yaxshi samara beradi. Imlo ko'nikmasining shakl-lanishi yozma nutq muvaffaqiyati garovidir.

O'quvchilar ma'lum darajada texnikaviy ko'nikmani va til materialini (lisoniy ko'nikmalarni) egallagandan so'ng yozma nutq mashqlarini bajara boshlashadi.

Yozma nutq mashqlari

Nutq mashqlariga quyidagilar kiradi: bayon, hikoya, tasvir, insho, xat (maktub) yozish. Avval tinglangan va o'qil-gan mazmunan bog'lanma jumlar guruhini yoddan yozish

¹ В. М. Плахотник. Обучение орфографии трудных слов в английском языке. // ИЯШ, 1978, № 1. — 90—92-бетлар.

yozma nutq mashqlarini bajarishda dastlabki qadam hisoblanadi.

O'qilgan matnni qisqartirish, ya'ni asosiy mazmuni ifodalovchi tayanch jumalarni ajratish. Shu jumalarni ichki qisqartirish navbatda bajariladigan yozma nutq mashqlaridandir.

Endi o'quvchilarga qisqartirish bilan birga mashqning shaklini o'zgartirish tavsiya qilinadi. Matn mazmunini saqlagan holda o'zgacha jumlar bilan yozma bayon etishga o'rgana boshlashadi.

O'zgartirish mexanizmini egallash va matn mazmunini „o'z so'zlari bilan“ yozish orqali bayon mashqini bajarishga o'tiladi. Bayon yozish tegishli tayyorgarlik ishlarini talab etadi: zarur nutq namunalari tanlash, matnni qismlarga ajratish va ularning mazmunini tahlil etish va ketma-ketligini aniqlash kabi mashqlar bajariladi.

Nihoyat, o'qilgan yoki tinglangan matn mazmuniga suyanib, xat (maktub), devoriy matbuotga maqola kabilarni yozma tayyorlash mashq qilinadi.

Ushbu tadbirlar oqibatida eng murakkab ish turlaridan inshoni mashq qilishga o'tiladi. Chet tillar bo'yicha „insho“ shartli tushunilmog'i kerak. Tom ma'nosi bilan insho faqat ona tilida mashq qilinadi. Yuqori sinflarda muayyan mavzu yuzasidan o'z fikrini (munosabatini) yozma bildirish mashqi sifatida insho og'zaki o'rganilgan nutq mavzusi va til materiali asosida yoziladi.

Yozma nutq mashqlarini bajarishning yuksak darajasida xat (maktub) yoziladi. O'quvchilar turmushi bilan bog'liq mazmunda xat yozish haqida gap boradi. O'quvchilar xat yozishlari uchun ularga muallim quyidagilarni o'rgatadi: xatning mazmunini aniqlash; muayyan nutq namunalari va leksik birliklarini tanlash; xatni to'g'ri rasmiylashtirish.

Xatning mazmuni deganda, o'quvchilar og'zaki nutq yuritadigan mavzular doirasida yozma fikr bildirish tushuniladi. O'quvchi o'zi haqida, maktabi, oilasi, shahri/qishlog'i, respublikasi (vatani) to'g'risida yozadi.

Nutq namunalari va leksikani tanlashda epistolar (maktubiy) shakldagi, yozuvga xos nutqiy muomala ifodasi, tabrik, minnatdorchilik bildirish, xatni yakunlash kabilarga doir jumla va so'zlarni daftarga yozib borish zarur.

Xatni rasmiylashtirish bobida uning yozilgan kuni, murojaat shakli, imzo chekish, manzilgohni yozish singari ishlar nazarda tutiladi. (Sinfda xat namunasini ko'rinadigan joyga qo'yish zaruriyati tug'iladi.)

Yozish va yozma nutq bo'yicha amalda joriy mashqlardan namunalar keltirildi, xolos. Har bir sinfda sharoitga qarab, o'quvchilar ko'nikma va malakalarining rivojlanish darajasini hisobga olib, yozuv mashqlarini bajarishning xususiy tartiboti belgilanadi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Yozuvni o'rgatish mashqlarining tasniflanishini aytib bering.

2. Yozuv, yozish, yozma (yozma ish, yozma mashq, yozma shakl, yozma nutq), yozilish kabi terminlar ifodalaydigan metodik tushunchalarni tahlil qiling.

3. Yozish va yozma nutq mashqlari turlaridan namunalar keltiring.

4. Maktab darsliklarida berilgan yozuvni o'rgatish mashqlaridan ayrimlarini bajaring.

XV BOB. NUTQ KO'NIKMA VA MALAKALARINI NAZORAT QILISH

Nazoratning mohiyati

So'zlashuv tilida keng iste'mol qilinadigan notermin „nazorat“ so'zining ma'nosi „ishning/narsaning ahvoli, borishi, kishining yurish-turishini kuzatish, tekshirish, taftish“ demakdir. Bunday tekshiruvdan ish/hodisani ijobiy o'zgartirish kuzatiladi. Demak, oqibat — ayblash yoki xato topish emas, balki tekshiruv zahirida kamchiliklarni bartaraf qilish, xatoni tuzatish, ishni yo'lga qo'yish singari ezgu niyatlar yotadi. Ming afsuski, tekshirish (kontrol) so'zi jamiyatda salbiy tushuncha qo'zg'aydigan bo'lib qolgan.

Terminlardan „tekshiruv“, „nazorat“, „kontrol“ ma'nodoshlik kasb etadi. Ular orasida „nazorat“ tushunchasi doirasi kengroqdir, „tekshiruv“da ozgina salbiylik bordek.

Chet til o'rgatish jarayonida nazorat olib borish uchun uni o'tkazish metodikasini egallash zarur. Nimani, nima

uchun va qanday qilib tekshiriladi va nazorat natijasi qanday o'lchanadi, degan muammolarni metodik tahlil qilamiz.

Ma'lumki, chet til amaliy maqsadda o'qitiladi va nutq faoliyatini egallash uchun uning texnikaviy va lisoniy tomonlari ham o'zlashtiriladi. Qisqasi, chet tilda nutq ko'nikma va malakalari hosil qilinadi. Xuddi shu o'quv-metodik hodisalar nazorat ostiga olinishi o'z-o'zidan tushunarli („Nazoratning obyekti“ nomli 1- § ga qarang).

Metodik adabiyotlarda bilim, ko'nikma va malakani tekshirish haqida ham yozilgan. Chet tilda bilim maxsus tekshirilmaydi, chunki u ko'nikma tarkibida o'rganiladi, binobarin, ko'nikma tekshiriladi.

Shu yerda haqli savollar tug'iladi. Xo'sh, tekshiriladigan narsa/hodisa aniq ekan, nazoratdan kutiladigan muddao nima, uning vazifasiga nimalar kiradi, tekshiruv natijasi o'qitish ishiga qanday ta'sir ko'rsatadi va h.k.

Avvalan, nima uchun nazorat zarur, degan savolga javob berish, ya'ni tekshiruv vazifalarini yoritishga urinib ko'ramiz.

Tekshirishning ta'limiy vazifasi. Oldin o'rganilgan til materiallari (ko'nikmalar) va shakllangan malakalarni takrorlash va mustahkamlash hamda takomillashtirish chog'ida tekshirish mashqlari va topshiriqlari bajariladi. Ularning barchasi ta'limiy ruhdagi o'quv tadbirlari tizimini tashkil qiladi. Nazorat chog'ida ham ta'lim berib boriladi.

Tekshirishning diagnostik (oldini olish) vazifasi. Til o'rganishning natijasi yaxshi/yomonligi o'z vaqtida bilib turiladi va sharoitga qarab navbatdagi ishlar rejalashtirib boriladi. Darsdagi vazifa va mashqlar tartibotiga tuzatishlar kiritiladi. Kamchiliklar sababi ham aniqlanadi. Muallim o'zining pedagogik faoliyatini shart-sharoitga moslab bajarishiga diagnostik nazorat yordam beradi.

Tuzatish vazifasini o'tovchi tekshiruv. Diagnostik nazorat bilan tuzatish birga va muttasil o'tkazib turiladi. Bu tekshiruvda aniqlanadigan o'zlashtirish darajasiga asosan nuqsonlarni to'g'rilash ijobiy samara bergan/bermaganligini muallim sezib oladi. O'qitish usullaridan tashqari tekshirish topshiriqlari ham o'zgartirib boriladi.

Nazorat qilishning boshqaruv vazifasi. Behuda vaqt va kuch sarflamaslik uchun ta'lim jarayonini boshqarishni ta'minlashga

qaratilgan tadbir bo'lib, eng samarali o'qitish usullarini topishga va til materiali hamda nutq malakalarini egallashda bu usullarni qo'llashga urinib ko'riladi.

Tekshiruvni baholash vazifasi. O'quvchining faoliyati baholab turishni talab qiladi. O'quvchining ulgurishi muallim ishining ham mezonidir. Baho qo'yilishi o'quvchining kelajak ishlariga muhim turtki bo'ladi. Ko'nikma va malaka ko'rsatkichlari baholar (ball) bilan o'lchanadi. (Ular haqida quyiroqda to'xtalamiz.) O'quvchi faoliyatini ikki taraflama baholash joriy qilingan: (1) uning mashg'ulotda faol yoki sust ishtirok etishi va (2) qilgan „xizmati“ (ulgurishi) natijasi, ya'ni egalagan ko'nikma va malakasining sifati baholanadi. Ikkala yondashish ham o'quvchi tirishqoqligini oshirishga rag'batlantiruvchi omil sanaladi.

Tekshiruvdan kutiladigan asosiy muddaolardan biri salbiy natijalarning oldini olishdir. O'quvchilar ko'nikma va malakasini nazorat qilishdan tashqari ularning intizomini tergash, o'qishda ichki turtki (motivatsiya)ni hosil qilish va ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishni takomillashtirish singari tekshirish maqsadlari ham ro'yobga chiqariladi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni manfaatlarini ko'zlab nazorat o'tkazib boriladi, tekshirish qancha kam vaqt olsa, uning foydasi shuncha ko'p tegadi.

Tekshiruv chog'ida shu bilan bir qatorda me'yor masalasiga ham e'tibor qaratiladi. Mas. birinchi va ikkinchi o'quv yilida o'qish texnikasini o'rganish hali intihosiga yetmaganligidan o'qish tezligi nazoratning yetakchi ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Keyingi sinflarda mazmun bilan birga o'qish tezligi asosiy ko'rsatkich maqomini egallaydi.

Nazorat qilishning mohiyati (vazifasi, maqsadi, o'rni) aniqlandi, endi nimani tekshirish yuzasidan mulohazalar yuritimiz.

1-§. Nazoratning obyekti

Chet til muallimi oldida nimani tekshiramiz, degan metodik muammo paydo bo'ladi. Tekshiruv obyekti nazariy va amaliy jihatdan puxta o'rganilgan. Muallim va ma'muriyat tomonidan o'rganilayotgan chet tildagi nutq ko'nikma va malakasi nazorat qilinadi.

O'quvchilar qay daraja ko'nikma va malakaga erishgan, qanday qiyinchiliklar mavjud, nimalar ustida qunt bilan ishlashlari kerakligi nazorat qilib boriladi¹.

Maktab o'quv predmetlari ichida chet tilda nazorat obyektining farqi shundaki, nazariy bilimlar tekshirilmaydi, balki gapirish, tinglab tushunish, o'qish va qisman yozuv ko'nikma va malakalari tekshirib boriladi.

Ko'nikmalarni tekshirish paytida leksik, grammatik talafuzni o'zlashtirish saviyasi, nutq faoliyati turlarida ularning qo'llanilish darajasi nazorat qilinadi.

Malakalar tekshirilganda esa nutq faoliyati turlaridan muloqot vositasi sifatida foydalana olish me'yori o'lchanadi. Gapirishda yakkanutq va juftnutqning rivojlanganligi, tinglab tushunishda audiomatni bir marta tinglab mazmunini fahmlay olish, o'qishda esa grafik matndan axborot ola bilish qobiliyati sinovdan o'tkaziladi. Turli o'quv bosqichlarida ko'nikma va malaka darajasi turlicha shakllangan bo'ladi. Ularga qo'yiladigan yakuniy talablar haqida maktab chet til dasturida aniq ma'lumotlar beriladi.

Nutq faoliyati turlarini amaliy egallash ko'rsatkichlari asosiy va qo'shimcha mezonlar bilan o'lchanadi: asosiy mezonlarda faoliyatning quyi chegarasi, qo'shimcha mezonlarda esa yuqoriroq darajasi aniqlanadi.

Chet tilda nutq faoliyati turlarining sifat va miqdor ko'rsatkichlari metodika ilmidan aniqlab berilgan.

Gapirishda sifat ko'rsatkichlari: o'quvchi nutqning mavzuga muvofiqligi va uni bayon etish mukammalligi; gapirganda ijodiy yondashishi; til materialini to'g'ri qo'llay bilishi.

Gapirishda miqdor ko'rsatkichlari: gapirishda ishlatilgan nutq birliklarining hajmi.

Mazkur ko'rsatkichlar maktab birinchi va ikkinchi konsentri uchun sifat jihatidan va miqdoran turlicha qabul qilingan.

¹ Ko'p sonli metodik manbalar orasida nazorat mavzusiga oid alohida ilmiy kitoblar ham chop qilingan: Контроль речевых умений в обучении иностранным языкам. / Под ред. проф. В. С. Цетлин. — М.: Просвещение, 1970; R. Lado. Language Testing, Longmans, 1969; Контроль обучения иностранным языкам в средней школе. Сб. статей: Книга для учителя (Из опыта работы). / Под ред. В. А. Слободникова. — М.: Просвещение, 1986.

Juftnutqqa qo'yiladigan talablar: Birinchi konsentr uchun — juftnutq jarayonida aniq axborot olish/berish, fikr almashish, savol-javob jumllarini qo'llash, taklif etish va javob qilish (rozilik yoki rad javobi berish, ma'lumotni aniqlash) kabilar. Suhbatdoshning har biri juftnutqda 7 tagacha¹ replikani grammatik to'g'ri qo'llay olishi talab qilinadi.

Ikkinchi konsentr uchun — qayd etilganlarga qo'shimcha, juftnutq jarayonida erkin fikrlash. Qo'llanadigan jumllarning eng ko'p miqdori 9 tagacha yetadi.

Yakkanutqqa qo'yiladigan talablar: Birinchi konsentrd: o'zlashtirilgan til materiali asosida berilgan mavzu bo'yicha tayyorlanmagan, ya'ni mustaqil gapira olish, hodisa va faktlarga munosabat bildira olish. Gapirishda 12 tagacha jumlaning to'g'ri qo'llay olishi.

Ikkinchi konsentrd: Aytilgan fikrni asoslab berish, bayon etilayotgan fikrga baho bera olish va shaxsiy munosabat bildirish. Nutqda 15 tagacha jumlaning qo'llay olishi.

Tinglab tushunishda sifat ko'rsatkichlari: idrok etilayotgan audiomatnning xususiyati (mexanik yozuvdagi yoki jonli nutq) va tushunish darajasi (umumiy tasavvur, to'liq fahmlash, aniq ilg'ab olish).

Tinglab tushunishda miqdor ko'rsatkichlari: idrok etib tushunilayotgan nutqning davom etish vaqti va tezligi.

Joriy o'quv dasturidagi tinglab tushunishga qo'yiladigan talablar.

Birinchi konsentrd: tanish leksik va grammatik materialdan tarkib topgan va 1 foizdan ortiq bo'lmagan bir o'zakli (baynalmilal) notanish so'zlar kirgan jonli nutq (yoki mexanik yozuvdagi nutq)ni tinglab tushunish. Audiomatn hajmi 1—2 daqiqada davom etadi, jumllar uzunligi 12 tagacha so'zdan iborat.

Ikkinchi konsentrd: avvalgi talablardan tashqari ma'nosini fahmlab olishga mo'ljallangan 2 foizgacha notanish baynalmilal so'zlar ishtirok etadigan audiomatnni tushunish. Bir daqiqada 500—700 belgi tinglanadi, 4 daqiqagacha davom etadigan audiomatn, jumllar uzunligi 13 tagacha so'zdan iborat.

¹ Ko'rsatilgan raqamlar shartli holda nisbatan to'g'ri, deb qabul qilingan.

O'qishda sifat ko'rsatkichlari: 1) o'qib tushunish xususiyati (umumiy tasavvur, asosiy fikrlarni va axborotni to'liq tushunish, matn mazmunini aniq fahmlash, o'qilganni tarjima orqali yoki tarjimasiz tushunish); 2) matndagi til material xususiyati (faqat tanish yoki bir qismi notanish leksik material), moslashtirilgan/asliyatdagi tekst.

O'qishda miqdor ko'rsatkichlari: o'qish tezligi, matn hajmi.

O'qishga qo'yiladigan dasturiy talablar. Birinchi konsentrdada: lug'atsiz ichda o'qish va tanish leksik va grammatik material asosidagi 3—4 foiz notanish leksikani o'z ichiga oladigan (ularning ma'nosi so'z yasovchi unsurlarga ko'ra fahmlanadi) badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotdan asliyatga yaqin matnlarni o'qib, mazmunini aytib berish. O'qish tezligi — bir daqiqada 500 tagacha so'z.

Ikkinchi konsentrdada: o'rganilgan grammatik material asosida tuzilgan (tanlangan) va 4 foizgacha kontekst yordamida ma'nosi ochiladigan notanish leksika ishtirokidagi badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotdan moslashtirilgan parchani lug'at yordamisiz o'qish; bir daqiqada 500 tagacha so'zni o'qish; lug'at yordamida 10 foizgacha notanish leksika mavjud ijtimoiy-siyosiy (matbuotdan olingan) va ilmiy-ommabop adabiyotni o'qish.

Nazorat qilinmish nutq malakalari (ularning tarkibida ko'nikmalar)ga qo'yiladigan talablarni aniqlash chet til ta'limi mazmunini shakllantirish yo'lidagi metodik tadbiridir. Har bir sinfda malakalar rivojlanishining dasturiy talablari ko'rsatib beriladi. Mazkur ilmiy muammo ko'plab metodistlar diqqatini muttasil jalb qilib keladi¹. Nimani nazorat qilamiz? savoliga lo'nda javob: chet tilni amaliy egallashning ko'nikma va malakalarini tekshiramiz.

Nimani va nima uchun tekshiramiz, degan savollarga muxtasar javob berib, endi qanday qilib nazorat qilish mumkinligi

¹ М. Л. Вайсбурд, А. Д. Климетенко. Требования к речевым умениям. // ИЯШ, 1972, № 3. — 72—80-бетлар; Приказ министра просвещения РСФСР „Об утверждении норм оценок знаний, умений и навыков учащихся по иностранным языкам“ от 4 сентября 1984 года, № 235; Внутришкольный контроль. Иностранные языки. Методические рекомендации (ротопринт). ГУНО Мосгорисполкома. — М., 1985 va boshqalar.

haqida bahs yuritamiz. Chet til nutq ko'nikma va malakalarini tekshirish metodikasida nazorat usullari, turlari, shakllari va baholash tartib-qoidalari ishlab chiqilgan. (Ular haqida 2-§ da so'z boradi.)

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Tekshiruv obyektini sanab bering va asoslashga urinib ko'ring.

2. Nazorat vazifalari (ta'limiy, oldini olish, tuzatish, boshqaruv, baholash) haqida fikr yuriting.

3. Nutqiy ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablarni muhokama qiling.

2-§. Nazorat qilish metodikasi

Nazorat mohiyati ochilib, tekshiriladigan obyekt aniqlangandan so'ng, bevosita tekshiruv jarayonini tashkil qilish masalalari ko'ndalang turadi. Nazorat metodikasida usul, tur, shakl, test va baho (reyting) haqidagi tushunchalarini oydinlashtirish muhimdir.

Tekshiruv usullari muhokamasida qanday yo'l bilan o'quvchi ko'nikma va malakalari nazorat qilinishi qarab chiqiladi. Ma'lumki, chet til mashqlar bajarish jarayonida o'rganiladi. Tekshirish ham mashqlar asosida amalga oshiriladi. Masala shundaki, o'rgatish va tekshirish mashqlari umumiy yoki farqlanadimi? Aksariyat holda har ikkalasi ham bajariladigan mashqlarning umumiyligini taqozo etishi va shu bilan birga ba'zi tekshirish mashqlari ajralib turishi pedagogik amaliyotda ma'lum hodisadir.

Ko'nikma va malakani tekshirish turlari to'rtta: kundalik (doimiy), tematik (mavzuiy), davriy, yakuniy nazorat.

Tekshirish shakllari yakka (individual/yoppasiga (frontal), og'zaki/yozma, bir tilda/ikki tilda o'tkaziladi.

O'quvchilar nutq faoliyatiga besh ballik baho qo'yilishi maktab hayotida qoidalashtirilgan.

Qayd qilingan nazorat metodikasi masalalarini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Nazorat usullari. Ko'nikmalarni tekshirish leksika, grammatika va talaffuz hamda nutq namunalarni bilish va nutqda

qo'llash bilan bog'liq. Malakalarni tekshirish esa nutq faoliyati turlarini egallashga aloqador.

Aktiv leksikani qo'llashni tekshirish usullari: berilgan nutq namunalaridan foydalanib, imkon boricha ko'proq gaplar tuzish; bo'sh qoldirilgan joylarni to'ldirish; otlarga monand sifatlarni tanlab birikmalar tuzish; rasimga oid so'zlarni topish; rasmdagi yoki sinfdagi narsalar nomlarini aytish va h.k.

Passiv leksikani egallaganlikni tekshirish: chet tildan ona tiliga gaplarni o'girish; so'z yasash unsurlarini tahlil qilish; so'zlarni muayyan mezonga ko'ra guruhlash.

Aktiv grammatikani bilishni tekshirishda quyidagi usullar qo'llanadi: kecha nima qilganingiz/ko'rganingiz haqida, yakshanba kunlari nima qilishingiz, bu yil yozda nima qilishingiz haqida faloncha gap ayting (fe'lning hozirgi, o'tgan, kelasi zamonlari ishlatiladi); do'stingiz kecha kechqurun nima qilganini, yakshanba kunlari nima qilishini, yozgi ta'tilda nima qilishini so'rab biling (so'roq gaplar mustahkamlanadi); o'rtog'ingizdan biror narsa berishni yoki biror ish qilishni so'rang (buyruq gaplar qaytariladi); sinfingizda nechta bola/qiz borligini, nechta parta, deraza borligini aytib bering (son va otlarning ko'plik shakli takrorlanadi).

Passiv grammatikaning o'zlashtirilishini tekshirib ko'rish usullari: gaplarda falon grammatik hodisani topish, ularning belgilarini aniqlash; gaplarni chet tildan ona tiliga o'girish.

Chet tildagi gaplar, so'zlar, so'z birikmalari talaffuzini tekshirish nutq namunalarini aytish orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarga muallim o'qishdan keyin qayerga borishlarini aytiradi (zaruriy so'z birikmalarini qo'llash mashqi bajariladi). Ertalab, kunduzi, kechqurun nima qilishlarini aytishadi.

Nutq malakalarini nazorat qilish usullarining ta'rif-tavsifini keltiramiz.

Tinglab tushunish malakalarini tekshiruv usullari: muallim (yoki boshqa shaxs) farmoyishini tushunish (o'quvchining qiladigan harakati tushunganlik/tushunmaganlik alomatidir); muallim rasmni tasvirlash paytida undagi holatlarga nomuvofiq ayrim jummalarni aytadi, o'quvchilar noto'g'ri gaplarga qo'l ko'tarib munosabat bildirishadi; tinglangan materialga oid savollarga javob qaytarish; audiomatn mazmuni

bo'yicha savollar berish; yuqori sinflarda audiomatn mazmunini (ona tili yoki chet tilda) gapirib berish va h.k.

Yakkanutq malakalarini tekshirish usullari: mavzu yuzasidan yoki rasimga oid gaplar tuzish; boshlangan hikoyani davom ettirish; rasm (yoki qator rasmlar)ni tasvirlash; tinglangan qisqa hikoyani aytib berish; mavzu yuzasidan mustaqil gapirish.

Juftnutqni tekshirish usullari: savollarga javob qaytarish va mavzu (va rasm)ga oid savollar berish; O'NVga doir juftnutq yuritish; o'quvchilar biladigan hikoyaning rollariga kirib juftnutq bajarish.

O'qishni tekshirish usullari: ovoz chiqarib matndan parcha o'qish; muallim savoliga matndan javob topish; falon masala haqida fikr yuritilgan joyni matndan topish; muallim fikrini tasdiqlovchi yoki rad etuvchi gaplar (abzas)ni matndan topish; grafik matnga qo'yilgan savollarga javob qaytarish; matn mazmuniga savollar qo'yish; o'qilgan matnga oid reja tuzish; o'qilgan matn mazmunini (chet til yoki ona tilida) aytib berish.

Nutq mashqlari bajarish chog'ida o'quvchilar e'tibori mazmunga qaratiladi. Gapirish mobaynida lisoniy xatolarni to'g'rilash nomaqbuldir, chunki fikr bo'linadi. Muallim o'z daftariga o'quvchilar xatosini yozib boradi, nutq mashqi tugadi deguncha, tegishli savollar berib ko'radi. Mabodo xato e'tiborsizlik oqibatida yuz bergan bo'lsa, o'quvchi to'g'rilab aytganidan ma'lum bo'ladi. Zotan xatolar ko'nikma puxta shakllanmaganidan bo'lsa, muallim tuzatadi, o'quvchi taqldan to'g'rilab aytadi. Muayyan xato ko'pchilikka taalluqli bo'lsa, shu yoki navbatdagi darsda uni bartaraf qilishga maxsus vaqt ajratiladi.

Nazariy tadqiqotlar va maktab tajribasi ko'rsatishicha, sinfda bajariladigan nutq mashqlari jarayonida o'quvchilarni „nazoratchi“ etib tayinlash, ya'ni o'rtoqlari kamchiliklarini topishni buyurish g'ayrimetodik tadbir bo'lib chiqadi. Gap shundaki, „xato axtarish“ga yo'llashning o'zi odob-axloqqa zid ish, qolaversa, o'rtog'i gapirganda nutq mazmuniga diqqat beriladi, „xato ovi“ga shaylansa, mazmunni chetlab o'tadi, muddao o'zgaradi. Ulardan tashqari, xato o'ta e'tibor bilan idrok etilsa, o'quvchi ongida uning tamg'alanishi muqarrar.

Qisqasi, nutq malakalarining nazorati chog'ida egallanadigan mazmuniy marralar aniqlanadi, ochilgan ommaviy nuqsonlar muallim nazaridan chetda qolmasligi shart. Har qadamda tanbeh berish odam bolasini bezdiradi, gap ta'sir etmaydigan qilib qo'yadi, oqibatda xatoni (hatto jinoyatni) pisand qilmaslikka olib keladi. Nutq inson, faoliyati ekan, u xatosiz bo'lmaydi (ta'bir joiz bo'lsa, dono xalqimiz „beayb (ya'ni „bexato“ — J. J.) — parvardigor“ deydi). Demak, xatosiz banda (odam) yo'q. Metodikada shunday qoida borki, muallim o'quvchilar xatolari bilan kurashmasdan, avvalo, ularning paydo bo'lish sabablarini qidiradi. Xullas, til mashqlarini ataylab bajarish orqali xatolar tuzatiladi. Bu esa alohida vaqt va kuch sarflashni talab etadi.

Nazorat turlari. Chet til o'rgatishda o'quvchilar nutqiy ko'nikma va malakalarini tekshirish turlari bizga ma'lum: *doimiy, mavzuiy, davriy, yakuniy* nazorat.

Doimiy nazorat amaliyotda keng tarqalgan va eng samarali, muallim har kuni qo'llaydigan, yuqorida ta'kidlanganidek, tuzatuv vazifasini o'tashga qaratilgan nazorat turidir. Har darsda o'rgatish va nazorat qilish ta'limning uzviy qismlari tarzida namoyon bo'ladi.

Mavzuiy nazorat deyilganda, chet til o'qitishda mavzu yoki darslik paragrafi (mashg'ulotlar majmuyi) o'tib bo'linganda, uni umumlashtirish, takrorlash, mustahkamlash jarayonlarida tekshirish sanaladi. Ma'lumki, chet til materiali (dastlabki bir necha mashg'ulot hisobga olinmaganda) muayyan mavzuda metodik tashkil qilinadi. Bir mavzuga bir yoki bir necha paragraf bag'ishlanadi. Odatda, mavzu tekshiruvi paragrafning oxirgi darsida o'tkaziladi. Kundalik (doimiy) tekshiruv natijalariga qarab, unga oz/ko'p vaqt sarflanadi. Qiyinchiliklar yig'ilib qolganda, tekshirish mashqlari ko'proq va ulgurish qoniqarli bo'lsa, kamroq bajariladi.

Davriy nazorat qilish chorak yoki yarim yilga to'g'ri keladi. O'z-o'zidan ma'lumki, davriy tekshiruvda hajm jihatidan ko'p material qamrab olinadi. Mazkur nazorat sinfdagi o'quvchilarning umumiy ulgurish saviyasini namoyish etadi. Demak, o'quv yilining davrlari oxirida yakun yasalishi uchun ushbu tekshirish turi qo'l keladi. Darslikda davriy nazoratga mo'ljallangan mashqlar berilmasligi tabiiy holdir, chunki yo'l

qo'yiladigan xato yoki paydo bo'ladigan qiyinchiliklar kundalik dars mashqlarida hisobga olinadi, xolos. Binobarin, davriy tekshiruv mashqlarini muallim tayyorlaydi va o'tkazadi. Buning uchun o'tgan davr ichida yoki hozirgacha o'rganilgan barcha til materiali orasidan puxta o'zlashtirilmaganlari takrorlashga beriladi, keyingi darsda nazorat o'tkaziladi. Shunday qilinganda xatoning oldi olinadi.

Yakuniy nazorat o'tkazish, odatda, o'quv yili oxiriga to'g'ri keladi. Yakuniy tekshirish turli shaklda, jumladan, imtihon (joriy yoki bitirish imtihoni) tarzida o'tkaziladi. Qoidaga binoan yakuniy nazorat mazmuni va shakli ma'lum hujjatga ko'ra va Xalq ta'limi vazirligi tayyorlagan material asosida o'tkaziladi.

Imtihon biletiga nutq faoliyati turlari (gapirish, tinglab tushunish, o'qish malakalari) bo'yicha savollar kiritiladi.

Nazorat shakllari. O'quvchilarning chet tildan olgan ko'nikma va malakalari yolg'iz/yoppasiga, og'zaki/yozma, bir tilda/ikki tilda tekshiriladi. Tekshirishning ushbu ko'rinishlari metodik manbalarda tavsiya qilingan va maktab amaliyotida tatbiq etib kelinmoqda.

Gapirishni nazorat qilish shakllari: og'zaki fikr bayon etish malakalari og'zaki shaklda tekshiriladi. Unda o'quvchining chet tilda fikr bildirishga harakati (o'z-o'zidan gapirib ketishi), nutqida qo'llanmish materialning o'zlashtirilgan darajasi (gapirish tezligi), to'xtab/to'xtamay gapirishi, nutq vaziyatiga muvofiq/nomuvofiq fikr bayon etishi kabilar nazorat qilinadi. Nutq mazmunini qisman yozma shaklda tekshirish ham mumkin. Ba'zi metodistlar gapirish malakalarini tekshirish uchun yozma mashqlar berishga qarshi chiqadilar. Bu ilmiy fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi¹, chunki, odatda, yozma ishlar og'zaki

¹ Mazkur metodik masalada ayri gaplar ham uchraydi. Mas. bir paytda chop etilgan (aniqrog'i, terishga berilgan) kitoblarda zid fikrlarni uchratamiz: *Теоретические основы методики обучения иностранным языкам в средней школе.* / Под ред. А. Д. Климентенко, А. А. Миролюбова. — М.: Педагогика, 1981. — 427-бет. („Yakkanutqni tekshirishda yozma usullarga mutlaqo yo'l qo'yilmaydi“): *Тез Н. И., Ляховицкий М. В., Миролюбов А. А.* и др. *Методика обучения иностранным языкам в средней школе: Учебник.* — М.: Высшая школа, 1982. — 315-бет („Gapirishni yozma shaklda ham tekshirish mumkin“).

o'rganilgan til materiali zaminida bajariladi. Demak, gapirish malakasini o'stirishga ko'maklashuvchi yozma mashq, ushbu malakani tekshirishga ham jalb etilishi tabiiydir. Og'zaki fikr bayon qilinayotganda yo'l qo'yiladigan xato va kamchiliklarni ro'yxatga olish ancha mushkul ishdir. Binobarin, ishni osonlashtirish maqsadida texnik vositalar yordamida o'quvchi nutqini yozib olish mumkin.

Gapirish malakalarini yakka, yalpi, shuningdek, guruhiy tekshirish joriy etilgan.

Yoppasiga og'zaki tekshirish doimiy nazorat chog'ida qulaylik tug'diradi. Yoppasiga tekshirish muallim rahbarligida o'tadi va sinf yoki guruhning umumiy ulgurishini aniqlashda ma'qul keladi. Guruhiy nazorat yoppasiga tekshirishning bir ko'rinishi sifatida istifoda qilinadi.

Har qaysi o'quvchining yakkanutqni egallash darajasini bilish maqsadida yakka tekshiruv o'tkaziladi: tayanchlar (O'NV, mavzu, rasm) asosida gapirish, matn bo'yicha gapirish, savollarga javob berish va h. k. Yakkanutqda yolg'iz tekshirish qulay ish shakli bo'lib, sinfdagi boshqa o'quvchilar bekor qolib ketmasliklarining oldini olish maqsadida yoppasiga ishlash/tekshirish tavsiya qilinadi.

Qayd etilgan tekshiruv shakllarining barchasi bir tilda, ya'ni o'rganilayotgan chet tilda olib boriladi.

Tinglab tushunish malakalari tekshirilganda bir xil (chet til)da va ikki til (ona tili va chet til)da og'zaki va yozma mashqlar bajariladi. Nazorat maqsadiga ko'ra ona tilining ishtiroki ham taqiqlanmaydi, mas. tinglangan materialni tushunish to'liq, aniq, chuqur bo'lishi talab etilsa, audiomatnning ayrim joylari tarjima qilinadi. Audiomatn katta hajmda va undagi axborot murakkab bo'lgan taqdirda ham ona tili yordamga „chaqiriladi“. Aks holda, ya'ni umumiy mazmunga fahmlanishi, yuzakiroq tushunilishi ko'zda tutilganda yoki kichik hajmli sodda axborot beruvchi audiomatn tinglanganda, nazorat shakli bir tilli (faqat chet tilning o'zidagina) bo'ladi.

Bir tilli tekshiruvda audiomatn yuzasidan muallim savoliga javob qaytarish (yakka yoki yoppasiga), tinglangan mazmunni aytib berish, o'z so'zi bilan gapirib berish singari nutqiy vazifalar bajariladi. Yakkanutq yoki juftnutqni mexanik yozuv-

dan tushunganlikni tekshirish uchun auditiv texnika vositalari (magnitofon tasmasi)dan foydalaniladi.

Tinglab tushunish malakalari davriy va yakuniy nazoratda yoppasiga yozma shaklda ham tekshirilishi mumkin.

O'qish malakalari tekshirilganda, bir tilda (chet tilda) yakkanutq va juftnutq hamda ovoz chiqarib o'qish yo'li bilan, ikki tilda (tarjima yordamida) ish ko'riladi. Og'zaki nutq, ko'rinib turibdiki, tekshirish (hamda o'rgatish) vositasi vazifasida kelyapti. Ushbu nazorat yakka va yoppasiga bajarilishi mumkin. Ifodali o'qish ham og'zaki tekshirish shakliga kiryapti.

O'qilgan matn yoki parchaning mazmunini yozma tarjima qilish ham ruxsat etiladi („O'qish“ mavzusiga qarang). Boshlang'ich bosqichda bir tilda yoppasiga og'zaki tekshiruv mashqlari ma'qulroq sanaladi, o'rta bosqichda matnning murakkab qismlarini yoppasiga ona tiliga yozma o'girish ham tavsiya etiladi, yuqori bosqichda matnning u yer-bu yerini tanlab og'zaki tarjima qilish, murakkab joylarini yozma tarjima qilish, savol berish, savollarga javob qaytarish, matn mazmunini gapirib berish mashqlari tavsiya qilinadi.

Yozuvni nutq faoliyati turi va malaka sifatida nazorat qilishga kelganda shuni aytilish kerakki, turli yozma ishlarda o'quvchilarning yozma fikr bayon etish darajalari ayon bo'ldi. Yoppasiga yozma mashq bajarish bilan tekshiruv o'tkaziladi. Diktant va ko'chirish chog'ida doimo mazmunga e'tibor qilinadi, leksik-grammatik ko'nikma ham nazarga olinadi, imlo esa ulardan keyingi, navbatdagi masala, deb qaraladi. Dastur talabiga ko'ra yozuv ta'lim vositasi ekanligi ma'lum.

Nutq faoliyati turlari bo'yicha ko'nikma va malakalar tekshirilganda, ko'pchilik metodistlar va ilg'or muallimlar fikricha, birlamchi masala — nutqiy axborotdir, ya'ni e'tibor mazmunga qaratiladi. Texnikaviy va leksik-grammatik ko'nikmalardagi nuqsonlarning nutq muloqotiga xalaqit berish/bermasligi inobatga olinadi. Texnikaviy va til materialiga oid ko'nikmalar bevosita emas, balki bilvosita, ya'ni nutqiy malakalar tarkibida tekshiriladi.

Test o'tkazish. An'anaviy tekshirish shakllari bilan bir qatorda test (inglizcha „tekshirish“, „sinov“ ma'nosini anglatadi) yo'li bilan ham chet tilni o'zlashtirish nazorat qilib boriladi. Test metodikasi leksik va grammatik ko'nikmalarni

tekshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Chet mamlakatlarda, ayniqsa, AQSHda testdan har taraflama foydalanishadi¹.

O'quvchi bilimini (ko'nikmasini) miqdor jihatidan o'lchash (tekshirish)ga mo'ljallangan qisqa muddatli test shaklidagi nazorat har xil bo'lishi mumkin.

Testning tanlov va javobni erkin tuzish shakllari mavjud. Tanlov testi ikkitadan yoki ko'pdan birini tanlab javob berish tarzida namoyon bo'ladi.

Ikkitanidan birini tanlov testida tayyor holdagi birdan ortiq (ikki, uch, to'rt ...) javobning „to'g'ri-noto'g'ri“ shakli tanlab olinadi. Mas. mazmunan to'g'ri gapni tanlab ayting: 1. Amir Temur buyuk harbiy sarkarda sifatida jahonga dong taratgan. 2. Alisher Navoiy genial shoir va harbiy sarkarda bo'lgan. 3. Abdulla Qahhor ajoyib inson va firqa arbobi edi (O'quvchi eng. to'g'risini, ya'ni birinchi javobni tanlab aytadi).

Ko'pdan tanlov testi asosan uch shaklda bajariladi:

1. Tavsiya etilgan so'z yoki gaplardan ma'quli tanlanadi: Amir Temur buyuk... arbob bo'lgan (fanda, adabiyotda, harbiy sohada, tibbiyot ilmida).

2. Berilgan jumla yoki so'zlardan biri, mazmunan to'g'risi tanlanadi: Yo'ldosh Oxunboboyev O'zbekiston Fanlar Akademiyasining prezidenti bo'lgan, Abdulla Qahhor O'zbekistonning prezidenti bo'lgan. Habib Abdullayev O'zbekiston Fanlar Akademiyasining prezidenti bo'lgan.

3. Aralash savollarga keltirilgan javoblardan to'g'risini tanlash.

Ko'rinib turibdiki, tanlash uchun mo'ljallangan material tarkibiga „chalgituvchi javoblar“ ham kiritiladi.

¹ AQSHda ta'lim maqsadlarida test tuzish bilan shug'ullanadigan muassasa ishlab turibdi (Educational Testing Service) va nutqni nazorat qilishga mo'ljallangan jurnal (Language Teaching) nashr etiladi. Testni yorituvchi ko'plab metodik asarlar chop etiladi, mas. *James E. Alatis*, editor. *Language Teaching, Testing and Technology: Lessons from the Past with a View Toward the Future*. Georgetown, University Press, 1989; *John L. D. Clark*, editor. *Direct Testing of Speaking Proficiency: Theory and Application*. Princeton, N. J: Educational Testing Service, 1978; *John W. Oiler*. *Language Tests at School: A Pragmatic Approach*. New York, Longman Inc., 1979; *John W. Oiler*, editor. *Issues in Language Testing Research*. Rowley, MA; Newbury House Publishers, Inc., 1983 va boshqalar.

Maktabda „chalg‘ituvchi“ materialni o‘z ichiga oladigan testlardan ayrimlari qo‘llanadi. Ular nafaqat tekshiruv, shuningdek, ta‘limiy vazifalarni ham bajaradi. Rivojlangan mamlakatlarning ta‘lim sistemasida test metodikasi ham amaliy, ham nazariy puxta ishlangan.

Ko‘nikma va malakalarni baholash. Ruhshunoslik va ta‘limshunoslikda o‘quvchi „mehnati“ni munosib baholash bobida anchagina ilmiy izlanishlar mavjud. Chet til o‘qitish metodikasida ham bu ilmiy-amaliy soha ma‘lum darajada tadqiq qilingan. Mazkur mavzuda chuqur nazariy tahlilga zaruriyat sezilmaydi. Binobarin, chet tilga doir baholash tartibi va baho mezonlarini keltirish bilan kifoyalanamiz¹. Baho qo‘yishning uch davri aniqlangan: dastlabki (o‘quv yili boshida qo‘yiladigan), doimiy (yil bo‘yi) va yakuniy (chorak oxiri, o‘quv yili oxirida) baholash. Baholash davrida muallim e‘tibori quyidagilarga qaratiladi:

Dastlabki baholash. O‘quv yili boshlanishida o‘quvchi ko‘nikma va malakasi „5“, „4“, „3“ bilan baholanganda, baholarni izohlab qo‘yish tavsiya etiladi. Mabodo o‘quvchi qoniqarsiz javob bersa, vaqtincha baho qo‘ymasdan, yotig‘i bilan o‘quvchiga tushuntirgan ma‘qul. Zarur bo‘lsa, yordam berish, uning ko‘nglini ko‘tarish, ijobiy baho olishga yo‘llash maqsadga muvofiqdir. Baholashning rag‘batlantiruvchi vazifasi ana shundan iborat.

Doimiy baholash. O‘quv yili davomida baho qo‘yish oldingidan farq qiladi. O‘quvchi javobi ilgari olgan bahosiga loyiq topilsa yoki bu safar yuqoriroq bahoga sazovor bo‘lsa, muallim tegishli izoh berib, baho qo‘yadi. O‘quvchining bahosi ijobiy (mas. „4“ yoki „3“) hisoblansa-da, oldingisidan past bo‘lsa, bunday ahvolning sababi surishtiriladi, qo‘yiladigan bahoning o‘quvchi kelgusi o‘qish faoliyatiga o‘tkazadigan ta‘siri chamalab ko‘riladi, salbiy natijaga sabab bo‘lmasligiga ishonsa, izoh berib bahoni qo‘yadi. Muallim lozim topsa, o‘quvchi qilishi zarur ishlarni ta‘kidlab o‘tishi, ya‘ni vaqtincha baho qo‘ymasligi joizdir.

¹ Chet til muallimlarining metodik jurnali „Иностранные языки в школе“ sahifalarida qator maqolalar baho masalasiga bag‘ishlangan. Biz quyidagi materiallardan qisman foydalandik: *Г. А. Солдатов. Об оценках. // ИЯШ, 1972, №2. — 100—103-betlar.*

Nutq mashqi bajarilganda o'quvchi yomon baho olsa, buning sababini aniqlaydi. Bu dangasalik yoki mas'uliyatsizlik oqibati bo'lsa, muallim o'quvchiga yomon, ya'ni „2“ qo'yadi. Biroq odob doirasida tanbeh berish va pand-nasihah qilish, toki o'quvchini shunday paytda ham o'qishga ilhomlantirish muallim burchi ekanligi esdan chiqmasligi lozim. O'quvchida uzrli (kasallik, oila sharoiti, kitob yo'qligi) sabab bo'lsa, baho vaqtincha qo'yilmaydi. Shunday qilib, chet til o'rganishga bo'lgan sovuqchilik oldi olinadi, o'quvchi diliga shikast yetmaydi, muallim rasmiyatchilikka yo'l qo'ymaydi. Bunday hollarda ota-onalar bilan bamaslahat yordam tashkil qilinadi.

Yakuniy baholash. Chorak oxirida, o'quv yili tugashida, maxsus tekshirish chog'ida o'quvchilarning ulgurishiga baho chiqarish avvalgilardan butunlay farq qiladi. Chunki bu holatda baholash sof tekshiruv vazifasini o'taydi. Qanday baho olsa, shu qo'yiladi.

Bahoning xolis qo'yilishi o'quvchi taqdiri uchun o'ta ahamiyatlidir. Qo'yilgan baho har qanday vaziyatda ham o'quvchining chet til o'rganishga undaydigan, qiziqishini so'ndirmaydigan va muallim hurmatiga putur yetkazmaydigan bo'lmog'i lozim.

Tajribali muallimlar o'quvchilarning nutqiy malakalarini farqlab baholaydilar va bu yakuniy tarzda umumiy baho chiqarishda osonlik tug'diradi. Quyida shunday farqlab baho qo'yish jadvallaridan birini keltiramiz (E. I. Passov tuzgan):

| Tekshirish obyekti | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|-----------------------------------|-----------------------|-------------------------------|------------------------------|-------------------|-------------|----------------|-------------------|-------------------------------------|-------------------------------------|---------------------------------------|---------------------------------------|-----------------------------------|-------------------------------|-------------------------------|----------------|-----------------------|-----------------------------------|---------------------------|------|----------------|------------|
| Gapirish | | | | Tinglab tushunish | | | | O'qish | | | | Yozuv | | | | | | | | | |
| O'quvchilar familiyasi va ismlari | Savol berish malakasi | Savolga javob berish malakasi | Juftnutqda gapirish malakasi | Tasvirlash | Bayon etish | Gapirib berish | Ta'rif-tavsiflash | Tanish materialni (muallim nutqini) | Tanish materialni (diktora nutqini) | Notanish materialni (muallim nutqini) | Notanish materialni (diktora nutqini) | Qaytadan so'rab berish malakasini | Mazmunini umuman tushuntirish | Mazmunini to'liq tushuntirish | O'qish tezligi | Lug'atdan foydalanish | Yangi so'zning ma'nosini fahmlash | Mazmunni oldindan payqash | Imlo | Yozish tezligi | Xat yozish |

O'quvchining chet tildan tayyorgarligini tekshirishda nutq faoliyati turlariga alohida baho qo'yib boriladi. Darsda bir yo'la ikki va uch turdagi nutq faoliyati tekshirilsa, uning natijasi qo'shma baholanadi. Yakuniy baho (uchala nutq faoliyati turiga) o'quv choragi va yili oxirida yoki imtihonda qo'yiladi.

Baho mezonlari ishlab chiqilib, vazirlik tomonidan e'lon qilib turiladi.

O'quv-metodik topshiriqlar


1. Nazorat qilish metodikasi tushunchasi doirasiga kiruvchi usul, tur, shakl va baho terminlari ma'nosini tahlil eting.

2. Nazorat usullaridan ayrimlarini muhokama qiling.

3. Nazorat turlari (doimiy, mavzuiy, davriy, yakuniy) orasidagi farq va o'xshashliklarni bayon eting.

4. Nazorat shakllari yakka/yoppasiga, og'zaki/yozma, bir tilda/ikki tilda va test haqida sheriklaringiz bilan fikr almashing.

5. Baholash (dastlabki, doimiy, yakuniy) davrlarini asoslang.



Uchinchi qism

CHET TIL O'QITISH JARAYONINI TASHKIL QILISH

XVI BOB. CHET TIL DARSINI VA UNI REJALASHTIRISH

1-§. Chet til darsi

O'qitish jarayoni tushunchasi qamroviga muallim va o'quvchi faoliyati hamda ushbu jarayonning tashkiliy shakllari kiradi. Ta'limshunoslikda bu jarayon o'quv yili, o'quv chora-ragi, dars/mashg'ulot nomlari bilan ataladi. Dars deganda, o'quv faoliyatining ayrim bir bo'lagi tushuniladi. Arabcha dars (Madrasa — dars o'tiladigan joy, diniy maktab; mudarris — dars beruvchi, muallim; tadrīs — dars berish/o'tish kabi so'zlar bilan o'zakdosh) so'zlashuv tilida *mashg'ulot*, *saboq*, deb ham yuritiladi. Mashg'ulot termini esa mashq so'zi bilan bir o'zaklidir. Mashqlar bajarish mashg'ulotni tashkil etadi. Chet til darsi/mashg'uloti mashqlar majmuyidan iboratdir.

Dars masalasi bo'yicha umumiy ta'limshunoslikda son-sanoqsiz kitob-u maqolalar yozilgan, xususiyl ta'limshunoslik bo'lmish chet til o'qitish tadrisi (metodikasi)da esa ko'plab ilmiyl asarlarda boblar va maqolalar bitilgan, yirik risolalar¹ ham nashr qilingan. Chet til o'quv predmeti darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'rganiladi (darsdan tashqari ishlar muallim rahbarligida va mustaqil bajariladi). Dars majburiyl mashg'ulot sifatida qonunlashtirilgan. Fakultativ

¹ Л. З. Якушина. Методика построения урока иностранного языка в средней школе. — М.: Педагогика, 1974; Беседы об уроке иностранного языка. Изд. 2-е. — Л.: Просвещение, 1975; Е. И. Пассов. Урок иностранного языка в средней школе. Изд. 2-е. М.: Просвещение, 1988; Методические рекомендации по проведению педагогической практики в школе (Вопросы планирования, проведения и анализа уроков). — М.: МГПИИЯ, 1978.

mashg'ulotlar bir paytlar darsdan alohida o'tkaziladigan o'quv tadbirlaridan bo'lgan (Hozirda esa uning o'rniga qo'shimcha darslar o'tish tavsiya qilingan).

Dars — pedagogik asardir (M. N. Skatkin). „Chet til darsi“ terminini eshitganda va o'qiganda, uning maqsadi, turlari, bosqichlari va dars rejasi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Ularning muxtasar bayoniga kirishamiz.

Darsning maqsadi. Chet til darsi boshqa o'quv predmetlaridan ikki tarafi, ya'ni dars maqsadi va mazmuni bilan farq qiladi. Ushbu predmet darslarida nutq o'rgatiladi. Chet tilda o'quvchi tayyorlov va nutq mashqlari bajarish bilan band bo'ladi. Chet til darsining asosiy xususiyati uning amaliy, ya'ni nutqiy yo'nalganligidir. Gapisirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuvni amalda egallaydilar.

Ta'lim jarayonining tashkil qilinishi bevosita dars maqsadi bilan bog'liq. Maqsad faoliyat bajaruvchining mayog'idir. Yakuniy amaliy maqsad chet til darsining maqsad va vazifalarini belgilovchi omildir. Darsda amaliy maqsaddan kelib chiqib, xususiy vazifalar yechiladi. Maqsad (vazifa)lar bir darsda birdan uchtagacha bo'lishi mumkin.

Maqsad natija bilan bog'langan, vazifa faoliyat sharoitiga daxldor. Bir maqsad bo'yicha turli vazifalar bo'lishi mumkin. O'quv materialining qiyin/osonligi, qiyinchiliklarni yengish usullari, o'quvchi va muallimning o'zaro birgalikda faoliyat ko'rsatishlari, o'quvchining o'rganishga ichki turtkisi singarilar dars vazifasini belgilash shartlaridir. Qiyin material maxsus o'rganiladi, ya'ni unga bevosita tegishli mashqlar bajariladi. O'quvchi va muallim birga harakat qilishi tushunarli. Ichki turtki tahlil talab masaladir.

Metodik manbalarda ichki turtki (motivatsiya)ning uch toifasi ma'lum: (1) istiqbolga oid (chet elga borish, tilni o'z ish faoliyatida qo'llash), (2) yaqin kelajakka tegishli (kechalar, konkurslar, olimpiadalarda ishtirok etish, devoriy matbuotga maqola tayyorlash) va (3) muallim topshirig'ini bajarishga qaratilgan motivatsiya bo'ladi. Oxirgisini shartli ravishda yaqin motivatsiya deyish mumkin. Dars vazifalarini bajarishda motivatsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir darsda vazifa/maqsad tarzidagi o'quv-metodik hodisalardan nutq ko'nikmasi (til materiali) yoki nutqiy malaka bo'lishi mumkin, ya'ni malaka va ko'nikma darsning

maqsad/vazifalarini belgilovchi omillardir. Mas. falon so'roq gapni nutqda o'rgatish, falon so'z (so'zlar)ni qo'llashni o'rgatish, matnda falon grammatik hodisani fahmlashni o'rgatish va h.k. Yana boshqacha maqsad/vazifa bo'lishi mumkin: falon mavzuda yakkanutqni o'rgatish, falon O'NV bo'yicha juftnutqni o'rgatish, falon rasm yuzasidan gapirishni o'rgatish va h.k.

Aytilganlardan ko'rinib turibdiki, darsning maqsadi ko'nikma yoki malakani shakllantirishga qaratiladi. Maqsadga ko'ra dars turlarini ajratish mumkin (keyingi mavzuga qarang).

Darsning maqsadi birdan ortiq bo'lishi ham mumkin. Buni ta'lim bosqichi, darsning mashg'ulotlar majmuyidagi o'rni, o'quv material, o'quvchilar tayyorgarligi kabilarga qarab hal qilinadi. Mas. muayyan nutq malakasini takomillashtirish boshqa amaliy vazifa bilan birgalikda olib borilishi mumkin (gapirish va leksika/grammatikani o'rgatish; gapirish va o'qish, gapirish va tinglash kabilar).

Maqsadni aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi: 1) darsning asosiy qismi (ayniqsa boshlang'ich va o'rta bosqichlarda) og'zaki nutqqa bag'ishlanadi, ko'proq gapirish mashq qilinadi 2) o'qish texnikasini rivojlantirish uchun ovoz chiqarib o'qiladi, yuqori sinflarda ovoz chiqarib o'qish onda-sonda mashq qilinadi; 3) ichda o'qiganda kitob/matndan axborot olish o'rganiladi. Bunda o'qishga qo'shimcha og'zaki nutq (gapirish) malakasini o'stirish maqsad qilib qo'yiladi; 4) yozuv mashqlari nisbatan kam vaqt talab qiladi, yozish texnikasi bilan yozma tekshiruv bundan mustasno.

Ma'lumki, darsni to'liq og'zaki nutqqa (tinglab tushunish va gapirishga) bag'ishlasa bo'ladi. O'qish va yozuvga butunlay bir dars ajratilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Dars maqsadi/vazifasi ushbu holatni hisobga olishi lozim.

Darsda muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun, avvalo, uning maqsadi qanday bo'lishi (bu maqsad so'z bilan ta'riflanadi) va uning miqdori aniqlanadi. Chet tilning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi tomonlari mavjudligi va ularning ham yana boshqa taraflari borligini nazarga olib maqsad belgilanadi.

Darsning ta'limiy jihatini olib ko'raylik. O'quvchilarda muloqot yuritish malakasini hosil qilamiz. Muloqot vositalari maqomida gapirish, o'qish, tinglab tushunish va yozuv malakalarini o'rgatamiz. Ular, ma'lumki, ko'nikmalarga asoslanadi.

Shunga ko'ra maqsadni aniqlash hollari quyidagicha bo'lishi tabiiy: gapirish/o'qish/tinglab tushunishning leksik/grammatik/talaffuz ko'nikmasini shakllantirish, o'qish texnikasini rivojlantirish, gapirish (yakkanutq, juftnutq) malakasini o'stirish. Ushbu maqsadlar nomlanishi haqqoniy tartibda bo'lishi uchun bir shartga rioya qilinadi: albatta, aniq mavzu/O'NV yoki til materialni nomma-nom sanab ko'rsatiladi. Binobarin, muallim darsning maqsadini mana bunday ifodalaydi: falon leksik birliklar yordamida gapirish malakasini o'stirish yoki falon mavzu (mas. „qishlog'imiz, yoki shahrimiz“) bo'yicha gapirish (yakkanutq yoki juftnutq) malakasini hosil qilish. Muallim tomonidan qabul qilinadigan bunday rasmiylashtirish o'quvchilarga tushunarli shaklda berilmog'i kerak: yangi so'zlar (ular o'rgatiladi) asosida gapirishni o'rganamiz; qishlog'imiz/shahrimiz haqida gaplashaylik.

Dars maqsadining miqdoriy jihati ham aniqlanadi. Bir darsda juda ko'p asosiy maqsad qo'yilishi ma'qul emas. Iloji boricha yetakchi maqsad bitta bo'lib, qolganlari qo'shimcha maqsad bo'lsa, metodik jihatdan to'g'ri yo'l tutilgan hisoblanadi: gapirishning leksik/grammatik ko'nikmasini shakllantirish va talaffuzni o'rgatish; mavzu/O'NV bo'yicha yakkanutq/juftnutq malakasini hosil qilish va yangi leksik/grammatik materialni o'rgatish.

Yuqorida qayd etilganidek, amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar bilan bir dars o'tkazilishi ham qoidalashtirilgan. Dars maqsadini muallim unga tayyorlanish paytida aniqlab oladi.

Muallimning darsga tayyorgarligi. Darsga tayyorlanish muallim pedagogik mahoratining shakllanishida katta ahamiyatga molik. Darsga tayyor bo'lish yo'lida quyidagi tadrijiy metodik choralar ko'riladi: ta'limning maqsadlarini chuqur anglab yetish va dars maqsad/vazifalarini aniqlab olish; zamonaviy dars mohiyatini tushunib yetish, ya'ni unga qo'yiladigan talablarni aniq tasavvur qilish; o'quv til materialini tahlil etish; mashqlar ketma-ketligi (iyerarxiyasi)ni topish, ya'ni ko'nikma va malakalarni shakllantirish/nazorat yo'llarini rejalashtirib qo'yish; darsda ishlatiladigan jihozlarni tanlash; muallim amal qiladigan ta'limiy harakatlarni va o'quvchilar ko'nikma hamda malakalar egallashida kutilmish xatti-harakatlarni oldindan

ko'ra olish; dars turini belgilash; dars va mavzu rejalarini ishlab chiqish¹.

Chet til darsiga muallim tayyorgarligi mazmunining qayd etilgan tarkibiy qismlarini batafsilroq ko'rib chiqamiz. (Darsning maqsadi masalasi oldingi mavzuda yoritib berildi. XV bob nazoratga bag'ishlandi. Dars turlari keyingi mavzuda va rejalar 2-§ da keltiriladi.)

Darsga qo'yiladigan zamonaviy talablarni sanab o'tamiz: 1) chet til haqida qoidalar (mavhumotlar)ni bayon etish emas, ko'nikma va malaka hosil qilish darsning asosiy maqsadidir; 2) nutq amaliyoti (mashqlar)da kommunikativ yo'nalishdagi nutq jarayoniga taqlid qilinadi; 3) darsda chet til materialini metodik tashkil qilish bir butunlik shaklida ro'yobga chiqadi (nutq namunasi barcha mashqlarda asosiy birlik hisoblanadi); 4) har qaysi nutq faoliyati turi o'ziga mos mashqlar tizimi yordamida o'rgatiladi; 5) darsning yagona yetakchi maqsadi va yordamchi maqsadlari bo'ladi; 6) dars samaradorligi o'quvchilar faolligi bilan o'lchanadi; 7) darsda nazorat ta'limiy ruhda bo'ladi; 8) imkon boricha dars chet tilda olib boriladi;. 9) o'quv materialining mazmuni, puxta ishlab chiqilgan metodik usullar va ko'rgazmalilik yordamida o'quvchilarda qiziqish va bilishga intilish uyg'otiladi; 10) dars tarbiyaviy va umumta'limiy vazifa o'tab, o'quvchilar saviyasini ko'tarish, bilish maylini kuchaytirish va tarbiyalash ishlariga ulush qo'shadigan tadbirdir; 11) dars jarayonida o'quvchilarning yoshi va ta'lim bosqichi e'tiborga olinadi; 12) chet til darsi nutq faoliyatini egallashda ma'lum til materialini qo'llashning bir pog'onasidir.

O'quv til materialini tahlil etish. Har bir dars yoki darslar guruhi (paragraf) muayyan til materialini o'z ichiga oladi. Yangi material ma'lum darajada qiyinchilik tug'dirishi ehtimoldan yiroq emas. Buni o'quvchilar til tajribasi „g'alviri“dan lisoniy birlikni o'tkazish orqali aniqlaymiz. Chet til va ona tili

¹ *А. М. Михайлов. Методические указания по организации стажерской практики учителя иностранного языка общеобразовательной школы. — Ленинабад, 1988. — 21-бет; Научно-методическая деятельность учителя иностранного языка и подготовка к ней студентов в педвузе (методические разработки). Выпуски 1 и 2 / Под ред. проф. Г. В. Роговой. — М., 1984.*

(shuningdek, ikkinchi til)ning qiyosiy tahlilini quyidagi jadvalda namoyish qilish mumkin¹:

Chet til va ona tilining qiyosiy tahlili

| Yangi material | Taxminiy qiyinchiliklar | | Qiyinchiliklarning oldini olish yo'llari | | | | | |
|--|----------------------------|--------------------------|--|---------------------------------------|--|----------------|--|---------------------|
| | Til ichki interferensiyasi | Tillararo interferensiya | Ma'no ochish usullari | Oldin o'rganilgan materialga suyanish | Ona tili (ikkinchi til)ga o'xshashlikka suyanish | Ko'rgazmalilik | Materialni metodik tahlil qilish (nutq namunasi, O'NV) | Qoidani bayon etish |
| 1. Leksikaga oid 2. Grammatikaga oid 3. Talaffuzga oid | | | | | | | | |

Chet tilning qiyinchiliklari darslik muallifi tomonidan mashqlar tuzishda hisobga olinadi. Muallim ushbu darsning o'quv materiali bo'yicha tayyorgarlik ko'rganida, ona tili va chet til hodisalari muqoyasasini tahlil qiladi. O'ta qiyin til birliklariga e'tiborni kuchaytiradi, zarur bo'lsa, qo'shimcha mashq kiritadi.

Mashqlar ketma-ketligini ta'minlash. Hozirgacha shakllangan o'quvchilar ko'nikma va malakalarini hisobga olib, darsda bajarilmish mashqlar tartibotini belgilab chiqish yaxshi natija beradi. Taqdim etiladigan va ilgari o'rganilgan o'quv til materialini ko'nikma va malaka tarkibiga kiritish niyatida uch bosqichli — shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillash-tiruvchi mashqlar tavsiya etiladi. Darsning mashqlari talab va materialini muallim sinchiklab tahlil qiladi. Darslikdagi va o'zi

¹ Bu jadvalni K. I. Salomatov va boshqalar tavsiya qilishgan: Первые шаги в профессию учителя иностранного языка: Пособие для студентов. — Л.: Просвещение, 1979. — 45-бет.

beradigan mashqlar bajarilishining eng samarali tartibi ishlab chiqiladi.

Dars uchun *jihozlar* tanlash. Darsga tayyorgarlik chog'ida o'quv vositalarini tanlashga alohida e'tibor beriladi. (Ko'rgazmalilik haqida V bob va o'quv vositalari to'g'risida VI bobda batafsil so'z yuritilgan.) Dars maqsadiga, yangi materialiga, mashqlarga va o'quvchilar saviyasiga qarab yetarli va kerakli jihoz tayyorlanadi. Texnikaviy va oddiy, o'quv-metodik kompleks tarkibidagi va qo'lda yasalgan audiovizual vositalarni ishlatish va ulardan foydalanish usullari o'ylab qo'yiladi. Muallim va o'quvchilarning faoliyatida amal qiladigan xatti-harakatlar darsga tayyorlanishda puxta o'ylab chiqiladi. Muallimda *kasbiy pedagogik malakalar* (rejalashtirish, tadqiq etish, tashkil qilish va tarbiyalash), *metodik malakalar* (o'rgatish, tilni bilish, o'zlashtirish nazariyasini, o'quvchilar yosh va shaxs hususiyatlarini bilish) kabilar shakllangan bo'lishi kerak.

Muallim rejalashtirish malakasini egallab til materialini tanlash, O'NV yaratish, o'quvchilar bilan munosabatda bo'lish, darsni to'g'ri tashkil qilishga qodir bo'ladi.

O'qituvchi ta'limiy malakasi esa dars maqsadi/vazifalarini ro'yobga chiqarish, ko'nikma va malaka hosil qilish bo'yicha o'quvchilar faoliyatini tashkil etish, nutqiy muloqotni o'rgatish va nazorat olib borishni o'z ichiga oladi.

Tashkiliy malakalar deganda, qo'yilgan rejani amalga oshirish, o'quvchilar o'quv ishini tashkil qilish, audiovizual vositalarni ishlatish, o'quvchilarning bilish jarayonini boshqarish tushuniladi. Tarbiyaviy vazifalar orasida darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadini aniqlay olish, qo'shimcha materialni jalb qilish, chet til materialida o'quvchilarga tarbiya berish tadbirlari uchraydi.

Bilish (tadqiqiy) malakalari sirasiga o'quv materialining ilmiy tahlili, shogirdlarining o'quv faoliyatini kuzatishi, o'zining va boshqa muallimlar ish tajribasini tahlil qilish kiradi. Darsga tayyorgarlik chog'ida muallimning *o'qitish malakalari* va o'quvchilarning *o'quv malakalari* atroflicha hisobga olinmog'i lozim.

Dars turlari. Maktabda chet til o'rgatishni tashkil etishning asosiy shakli hisoblanmish dars turlicha tasnif (tipologiya) qilib kelinadi. Ayrim muallimlar darsning maqsadiga ko'ra, ba'zilar dars maqsadi va mazmuniga qarab, yana ba'zi

birovlar darsning maqsadi va mavzusini asos qilib, uning turlari haqida fikr bayon etishgan.

Ilmiy adabiyotlarda darsning turlarini farqlashda uning maqsadi asosiy mezon sifatida va o'quvchilar mustaqilligi qo'shimcha mezon qilib olinadi. Birinchi mezon metodikada yaxshi tahlil qilingan bo'lib, ikkinchi (mustaqil faoliyat) esa muallim rahbarligida ish bajarganda hamda o'quvchi o'zi ko'rsatadigan faoliyatida uning astoydil intilishini hisobga oladi.

Eslatma. Didaktik manbalarda fan asosini o'rgatish nuqtayi nazaridan uy vazifasini so'rash, o'quv materialini tushuntirish va dastlabki mustahkamlash, o'zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish kabi darsning tuzilishi yoritilgan va bir paytlar chet til o'qitishda ham tavsiya etib kelingan. Chet tilni nutq faoliyati nazariyasi (psixolingvistika)ga asoslanib o'rgatish boshlangandan buyon umumiy ta'lim nazariyasidagi bir yoqlama yondashishdan voz kechildi.

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab chet til darslari ikki turga bo'linadigan bo'ldi. Yetakchi metodist olimlar ta'rificha, sof nutq darsi (SND) va aralash nutq darsi (AND) nomlari paydo bo'lgan.

Birinchi tur (SND)ga, o'rganilgan til materiali yuzasidan shakllangan nutq ko'nikmasiga asoslanib, nutq malakalarini rivojlantirishga bag'ishlanadigan darslar kiritiladi. Bu darslarning mohiyati nutq mashqlarini bajarishni tashkil etadi. Muallim va shogirdi faoliyati nutq mavzusi, O'NV yoki matn asosida axborot berish/olishga qaratiladi. Bir yoki birdan ortiq nutq faoliyati turiga oid malaka hosil qilish uchun mashq bajariladi. Til materialiga nisbatan kamroq e'tibor beriladi.

Ikkinchi tur (AND)da esa til materialini qo'llashga doir mashqlar ko'proq bajariladi. Leksik, grammatik, talaffuz materialini o'zlashtirish bilan bir paytda nutq ko'nikma va malakalarini rivojlantirish ham darsning maqsadiga kiradi. Bunday darslarda yangi material taqdimoti, uning qo'llanilishi va nutq amaliyoti birgalikda olib boriladi. Til materiali va nutq amaliyoti birligini ta'minlovchi mashqlar tizimi ishga tushadi.

Biror mavzu/matn yuzasidan yoki muayyan til materialida ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi dars (mashg'ulot)lar yig'indisi darslar tizimi nomini olgan. Dars tizimi bir va bir necha paragrafnii qamrab oladi. Tizim-

ning umumiy maqsadidan kelib chiqib, yolg'iz dars maqsadi aniqlanadi, u AND yoki SND bo'lishi mumkin.

Dars turi (SND va AND) ma'lum ma'noda mavhumot hisoblanib, uning kichik turlari, ko'rinishlari amalda yaqqol namoyon bo'ladi. Nutq darsi terminining o'zi ko'rsatib turib-diki, dars maqsadi nutq malakasini hosil qilishga mo'ljallangan. SNDda matnni o'qish va tushunish, audiomatnni tinglab tushunish, yakkanutq va juftnutq darslari bo'ladi. AND ko'rinishidan misol keltiramiz: yangi nutq namunasini va gapirishni o'rgatish, yangi grammatik hodisani va o'qishni o'rgatish. Demak, o'quv jarayonida nutq faoliyati turi yoki til materialiga qarab, dars turli ko'rinishlarda o'tkaziladi.

Chet til darsining ikki turi (SND va AND)ning 28 modeli (nusxada ko'rinishi) nazariy ishlab chiqilgan va maktabda amaliy joriy etilgan (prof. V. A. Buxbinder tavsiyasi):

AND (aralash nutq darslari).

1. Talaffuzni taqlidan o'rgatish va og'zaki nutqni o'stirish.
2. Talaffuzni tahlil-taqlid yo'li bilan o'rgatish va og'zaki nutqni o'stirish.
3. Nutq namunalarida leksikani taqdim etish va qo'llash.
4. Leksikani o'rgatish va og'zaki nutqni o'stirish.
5. Leksikani o'rgatish va o'qish malakasini rivojlantirish.
6. Leksikaning og'zaki nutqda qo'llanilishi.
7. Grammatikani nutq namunalarida o'rgatish.
8. Grammatikani o'rgatish va og'zaki nutqni rivojlantirish.
9. Grammatikani o'rgatish va o'qish malakasini rivojlantirish.
10. Og'zaki nutqda grammatikaning qo'llanilishi.
11. Husnixat (kaligrafiya)ni o'rgatish va yozuv malakasini o'stirish.
12. Imlo (orfografiya)ni o'rgatish va yozuv malakasini o'stirish.
13. O'qilish qoidalarini o'rgatish va o'qish malakasini o'stirish.

SND (sof nutq darslari).

- 1/14. Nutq namunalari ishtirokida juftnutqni o'rgatish.
- 2/15. Muhokama vositasida juftnutqni o'rgatish.
- 3/16. Rollarda juftnutqni o'rgatish.
- 4/17. O'NV yordamida juftnutqni o'rgatish.
- 5/18. Nutq namunalari ishtirokida yakkanutqni o'rgatish.

- 6/19. Mazmunni ayttirib yakkanutqni o'rgatish.
- 7/20. Hikoya qildirib yakkanutqni o'rgatish.
- 8/21. Tasvirlash orqali yakkanutqni o'rgatish.
- 9/22. Yakkanutqni tinglab tushunishni o'rgatish.
- 10/23. Tinglab tushunishni juftnutqda o'rgatish.
- 11/24. Og'zaki nutqning ilgarilashi sharoitida o'qib axborot olishni o'rgatish.
- 12/25. Tahlil unsurlari bilan mutolaani o'rgatish.
- 13/26. Sintetik tarzda mutolaani o'rgatish.
- 14/27. Tanishuv (mushohadalı) o'qishni o'rgatish.
- 15/28. Yozuvni o'rgatish.

Dars rejasida muayyan model, albatta, aniq o'quv materialı, mavzu, O'NV, matn bilan to'ldiriladi, mas. 4/17-SND (O'NV yordamida juftnutqni o'rgatish)ni olsak, dars maqsadi „Sinfigizda yangi o'quvchi bor, uning kimligini, qayerda turishini so'rab biling, O'NV bo'yicha juftnutqni o'stirish“ deb ifodalanishi mumkin.

Dars bosqichlari. Bir soatlik (akademik soat—45 daqiqa) darsning tuzilishi muammosiga chet til metodikasida turli qarashlar mavjud. Darsning qismlari uchtadan tortib, ko'p sonli bosqichlarga bo'lish hollari uchraydi. Ular orasida yetuk metodistlar ilmiy-metodik jihatdan asoslagan va aksariyat muallimlar tan olgan uch bosqichli dars tavsiya etiladi.

Eslatma. Bir vaqtlar an'anaviy bo'lgan tashkiliy palla (rus. опрмомент), uy vazifasini tekshirish, yangi material o'tish/mustahkamlash/takrorlash kabi ta'limshunoslikda o'zlashtirilgan dars qismlari davr talablariga javob bermay qo'ydi.

Hozirgi chet til darsi uch bosqichdan iborat: darsning boshlanishi, asosiy qism va yakuniy bosqich.

Darsning boshlanishi. Muallim darsga kirib, birinchi qiladigan yumushi sinfda nutq muhitini yaratishdir. Chet tilda o'quvchi darsdan boshqa joyda nutq faoliyati yuritmasligi tufayli sun'iy muhit yaratish bosqichi ajratiladi. Uzoq yillar mobaynida o'tkazib kelingan tashkiliy palla endi alohida bosqich sifatida emas, balki dars boshlanishining kichik qismi tarzida saqlanib qolgan. Darsni boshlashda o'quvchilar juftnutq bajarishlari ijobiy samaralar beradi. Hozirgacha keng miqyosda qo'llanadigan navbatchining xabari (raporti) ham amal qiladi. Navbatchi xabari har safar bir qolipda takrorlana bersa, ahamiyatini yo'qotishi turgan gap. Shuning uchun

uning mazmuni (ayniqsa, til material)ni o'zgartirib, o'rganilgan materialni qo'shib borish ijobiy natija beradi.

Muallimning darsga kirishiga ikki o'quvchi juftnutq tayyorlaydi. Salom-alikdan so'ng „o'quvchi — o'quvchi, o'quvchi — sinf, sinf — o'quvchi“ tarzida 5 daqiqagacha juftnutq o'tkazilib, chet til muhiti hosil qilinadi. Har gal yangicha savol-javoblar bo'lishi zarur. Uy vazifasining tayyor/tayyor-masligi tekshirilib ko'riladi, qanday bajarilganligi esa ba'zida darsda (asosiy bosqichda) yoki muallim tomonidan daftarlar yig'ishtirilib, uyda tekshiriladi.

Darsning boshlanishida rang-baranglik bo'lishi uchun, muallim sinfga kirib, o'quvchilarga chet tilda daftarlarni ochishni, uy vazifasini ko'rsatishni so'raydi, so'ngra sanani yozib, sinf doskasidagi gaplar (so'zlar)ni ko'chirishni buyuradi. Keyingi darsda ko'chirish uchun boshqa material tavsiya qilinadi.

Muallim qiziqarli hikoya aytib berib, dars boshlashi ham mumkin. O'quvchilar chet tilda tinglab tushunish bilan mashg'ul bo'ladilar.

Bular nutq mashqlari hisoblanadi. Darsni talaffuz, o'qish texnikasi, diktant kabilar bilan ham boshlasa bo'ladi.


Xullas, chet til darsi nutq malaka yoki ko'nikmalarini o'stirish bilan boshlansa, dars davomida faol ishlash uchun kerakli zamin yaratiladi. Darsning boshlanishi 45 daqiqa mobaynida bajariladigan ishlarning ibtidosi sifatida o'ta ahamiyatli, asosiy qismda bajariladigan mashqlar samarasini oldindan belgilovchi bosqichdir.

Darsning asosiy qismi. Mazkur bosqichda darsning maqsadi ro'yobga chiqariladi. Darslikdagi hamda muallim tayyorlagan mashqlar bajariladi. Uyda o'qilgan matnning tushunganlik darajasi ham asosiy qismda tekshiriladi. Yangi material taqdimoti, mashq qilinishi va qo'llanilishi shu qism uchun mo'ljallanadi. Ta'limiy va nazorat mashqlari ham shu bosqichda bajariladi. Imkoniyat doirasida gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuv mashq qilinadi. SNDda nutqiy mashqlarga, ANDda til materialini o'zlashtirish va nutq malakalarini shakllantiruvchi mashqlarga o'rin beriladi.

Ushbu darsga mo'ljallangan mashqlar qatorida uyda tayyorlangan mashqlar ham qisman (yoki to'liq) bajariladi.

Darsning yakuniy bosqichi. Muallim darsga yakun yasari ekan, erishilgan natijani qisqacha tahlil etadi, o'quvchilar faoliyatini izohlab baholaydi va navbatdagi darsga vazifalar beradi.

Chet til darsi bilan bog'liq metodik tushunchalar quyidagi jadvalda aks ettirilgan:



(Baholarni izohlash XV bobda yoritilgan). Uyga vazifa berish nazariyasiga oid muxtasar metodik tavsiyalarni keltiramiz.

Uy vazifasi uch toifada¹ bo'ladi: darsdagi ishning davomi; keyingi darsga tayyorgarlik ko'rish; har ikkalasidan farqli uy

¹ П. Б. Гурвич. Коррективно-подготовительный аспект методики преподавания иностранных языков: Учебное пособие. — Владимир, 1982. — 71-бет.

ishi beriladi. Birinchi toifa uy ishini turlicha bajarish mumkin: sinfda qilingan ishni o'zgartirmasdan takrorlash, qisman o'zgartirib qaytarish va mustaqil bajarish. Ikkinchi uy vazifasida mustaqillik ko'proq o'rin egallaydi. Uchinchi turdagi uy vazifasi o'tilgan darsga taalluqli bo'lmagani uchun uni o'quvchi to'plagan til tajribasiga suyanib bajaradi. Uy vazifasi darsga bog'lanmay berilishi ham mumkin, biroq uyga vazifa berilmaydigan dars amalda kam uchraydi.

Uyda, asosan, yozma mashqlar, matnni ovoz chiqarib o'qish mashqlari bajariladi.

Uy vazifasi o'quvchilarning nisbatan mustaqil ishlaridir, lekin u muallim nazoratidan butunlay chetda qolmaydi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Darsning turlari va ularning ko'rinishlarini aytib bering.
2. Dars bosqichlari (qismlari)ning maqsadlarini va darsning maqsadini tahlil qiling.
3. Muallim darsga qanday tayyorgarlik ko'rishini muhokama eting.
4. Chet til darsining boshqa darslardan farqini aniqlang.
5. Darslikdagi biror paragrafning mazmunini o'rganing va uning ta'rif-tavsifini bayon eting.

2-§. Rejalashtirish

Chet til o'rgatishdan ko'zlanadigan maqsadlarning ko'ngildagidek ro'yobga chiqishida o'quv jarayonini to'g'ri rejalashtirish ulkan ahamiyat kasb etadi. Rejalar uch toifada tuziladi. Metodik adabiyotlarda taqvim reja, mavzuiy reja va dars rejasi haqida ma'lumotlar berilgan.

Taqvim (yillik) rejani, odatda, darslik mualliflari tuzadilar (darslik oxirida yoki „Muallim kitobi“da beriladi yoki alohida tuzilib malaka oshirish institutlari orqali tarqatiladi). Unda o'quv dasturi talablari, o'quv-metodik majmua mazmuni va tuzilishi, o'quvchilar yosh xususiyatlari va zamonaviy darslik nazariyasi hisobga olinadi. Yillik rejaning tarkibiy qismlari sifatida yarim yillik va chorak rejaları shakllantiriladi. Ularning tarkibida esa mavzular/paragraflar rejaları ham bo'ladi. Har bir mavzuga ajratiladigan dars soatlari aniqlanadi, ko'nikma va malakalarning taxminiy darajasi ko'rsatiladi, o'tkaziladigan dars

muddati belgilanadi. Yillik rejada yuz beradigan o'zgarishlar yarim yillik/chorak rejalarida o'z aksini topadi. Yarim yillik rejani shahar yoki tuman muallimlar birlashmasi tuzadi. Mavzuiy reja esa maktab muallimi (yoki ularning birlashmasi) tomonidan tuziladi.

Yillik va mavzuiy rejalariga ijodiy metodik o'zgarishlar kiritilishiga ruxsat beriladi (lekin til materialini olib tashlash yoki qo'shish mumkin emas).

Bir soatlik dars rejasini har qaysi muallim o'zi imkoniyatini to'la inobatga olib tuzadi. O'qituvchi o'quvchilar nutq ko'nikma va malakalarini, albatta, hisobga oladi.

Rejalashtirish uch metodik tushunchani qamrab oladi (yillik, mavzuiy, dars rejaları), lekin muallim mavzuiy rejani ko'chirib oladi va dars rejasi (konspekt)ni o'zi yozadi.

Mavzuiy va dars rejasida quyidagi ma'lumot keltiriladi.

Mavzuiy reja. Darslikdagi bir necha soatlik darslar tizimi bo'lmish paragraf yoki nutq mavzusi yuzasidan tuziladigan ushbu reja mashg'ulot-darslarni bir-biriga uzviy bog'laydi. Metodik manbalarda yillik-mavzuiy reja (kalendar-tematik plan) tarzida ham ikkovini birlashtirib tavsiya qilinadi. Aslida yillik rejadan mavzuiy reja hosiladir. Biroq ikkalasi mushtarak emas. Hatto mavzuiy rejalarining tuzilishi turli mualliflarda turlicha. Mavzuiy rejaning bir ko'rinishini keltiramiz (327-bet).

Darslik muallifi va paragraf (yoki mavzu) ko'rsatiladi. Bir nutqiy mavzu bir paragrafda, ikkitasida va undan ortig'ida bo'lishi yoki, aksincha, bir paragrafda birdan ortiq mavzu bo'lishi mumkin. Agar paragraf va mavzu tepada yozilmasa, ushbu rejani chorak, yarim yillik va yillik reja (kalendar-tematik plan) tarzida tuzsa bo'ladi.

Rejaning 1-sonli katagida o'tiladigan darslar beriladi (1, 2, 3,...) va uning ro'parasidagi katak (yoki bir nechasi) to'ldiriladi. Mas. 2, 10, 12, 13, 14-xonalar doimo band qilinadi, 3, 4, 5, 6-lar esa almashtirib turiladi, 7-, 8-, 9- kataklar doimo to'la bo'lavermaydi. 9-xona dastlabki uch o'quv yilida to'la turadi, keyinchalik ahyon-ahyonda materialga ega bo'ladi, xolos. Dars maqsadi nomli 2-katakda ushbu dars oldiga qo'yiladigan maqsad yoziladi (1-§ ning „Darsning maqsadi“ mavzusiga qarang). Ba'zi mualliflar to'rtala maqsadni ham yozishga tarafdorlar (Dars rejasi mavzusida boshqa maqsadlarni ham ko'rsatish haqida to'xtab o'tiladi).

MAVZUIY REJA

Muallim familiyasi va ismi ... — maktab ... -sinf
Darslik ... — § yoki Mavzu ...

| Dars tartibi (soni) | Dars maqsadi | Nutq faoliyati turlari | | | | Til materiali | | | Takrorlash uchun | Qo'shimcha mashqlar | Jihoz | Uyga vazifa | Dars o'tiladigan kun (sana) |
|---------------------|--------------|------------------------|---------------------------|--------|-------|---------------|-----------------|--------------|------------------|---------------------|-------|-------------|-----------------------------|
| | | Gapi- rish | Tinglab tushu- nish | O'qish | Yozuv | Lek- sika | Gram- matika | Tala- fuz | | | | | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 |
| 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 2 | | | | | | | | | | | | | |
| 3 | | | | | | | | | | | | | |
| . | | | | | | | | | | | | | |
| . | | | | | | | | | | | | | |
| . | | | | | | | | | | | | | |

Navbatdagi 3—6-kataklarda to'rtala nutq faoliyati turlari bo'yicha talablar (mas. falon audiomatni tinglash: tinglangan falon matni gapirib berish; mutolaa uchun falon matn va h.k.). Ayrim mualliflar darslik mashqlaridan eng maqsadga muvofiq keladiganlarini ham shu xonalarga yozadilar.

Til materiali bo'limidi (7—9-xonalar) shu darsda yangi hisoblanmish til birliklari ko'rsatiladi, mas. falon so'zlar; falon grammatik hodisa (otning ko'pligi, darak gapda so'z tartibi); falon tovush, tovush birikmasi, falon so'roq gap ohangi va h.k.

Muvoziy sinflarda takrorlash uchun turli material bo'lishi ehtimoldan uzoq emas, sababi — o'quvchilar guruhining o'zlashtirish saviyasi turlicha bo'lishi mumkin. Binobarin, ushbu katakda vaqt-vaqti bilan o'zgarish bo'lib turishi tabiiy holdir. Qo'shimcha mashq(lar) va materialni (11-xonada) ham oldindan belgilash murakkab bo'ladi, chunki avvalgi darslarga qarab, keyingilari ma'lum bo'lib boradi.

Jihozlar masalasiga kelsak, bevosita muallim ixtiyori bilan to'lg'aziladigan katakchadir. Mavjud audiovizual vositalardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Uy vazifasi (13-katak) oldindan belgilanadi. Lekin o'quvchilarning ulgurishiga qarab, u o'zgaruvchan bo'lishi ham mumkin, ya'ni qo'shimcha vazifa berilishi yoki ayrim vazifalar almashtirilishi mumkin.

Oxirgi (14) katak darslar o'tilishiga qarab to'ldirib borilgani ma'qul, oldindan qalam bilan belgilansa ham bo'ladi. Ushbu rejada darslikdagi hamma paragraf qamrab olinishi shart, bundan qat'iy talabni mashqlar tizimiga qo'yish mumkin emas.

Mavzuiy reja (yoki moslashtirilgan yillik-mavzuiy reja) har bir mashg'ulot (dars) mazmunini belgilab beruvchi va umumiy metodik yo'l-yo'riq bo'la oladigan, binobarin, dars rejagasiga zamin yaratuvchi omildir. Lekin dars rejasi alohida tuziladigan zarur o'quv-metodik hujjatdir.

Dars rejasi. Mavzuiy rejaga suyanan holda dars konspekti (rejasi) yaratiladi. Konspekt deganda, darsda muallimning faoliyati va o'quvchilar bajaradigan amallar, o'tkaziladigan mashqlar va boshqa barcha ishlarning aniq tasviri va ularga sarflanadigan vaqt miqdoriy o'lchovi ko'rsatiladigan dars rejasi tushuniladi. Uni darsning borishi haqidagi ssenariy deb ham atashadi.

Rejani tuzishda muallim chet til darsiga qo'yiladigan talablarni hisobga oladi („Muallimning darsga tayyorgarligi“ mavzusiga qarang).

Dars rejasi loyiha tarzida tavsiya etilmoqda, shuning uchun uni „Muallim kitobi“dagi tartibot bilan uyg'unlashtirish kerak bo'ladi.

Rejaning birinchi sahifasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

.... -sinf (sana)

Dars mavzusi ...

Darsning maqsadi (maqsadlari) ...

Qo'shimcha maqsad (maqsadlar) ...

Tarbiyaviy, ta'limiy, rivojlantiruvchi maqsad ...

Jihozlash ...

Darsning borishi:

...

Ko'rinib turibdiki, dars rejasi ikki qism (kirish va darsning borishi)dan iborat.

„Sinf“ deganda, o'quv predmetini egallashdagi ma'lum bosqich va o'quvchilarning yoshi tushuniladi. Har ikkala omil o'quv materialini me'yorini belgilash va uni o'rgatish usullarini qo'llash va tegishli vositalaridan foydalanishda hisobga olinadi.

Dars o'tkazish sanasi til ustida ishlash davrini ko'rsatadi: chorak boshi, oxiri, yil oxiri kabilar. Bunga takrorlash, qo'shimcha qilish, nazorat kabilar muvofiqlashtiriladi. Hatto haftaning qaysi kuni ekanligi ham dars rejasiga ta'sir qiladi.

„Mavzu“ qismida paragrafning dars-mashg'uloti yoki nutqiy mavzu (mas. Maktab, Uy, Ko'cha) ko'rsatiladi.

„Darsning maqsadi“ bo'limi, odatda, „Asosiy amaliy maqsad“, ya'ni gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuv malakalarini o'stirish tarzida idrok etiladi. Qo'shimcha maqsad amaliy maqsad tarkibida berilsa ham bo'ladi, unda ko'nikma darajasida til materialini taqdim etiladi (Ushbu bobdagi „Darsning maqsadi“ mavzusiga qarang).

Amaliy maqsaddan tashqari chet til o'qitishning boshqa uchala maqsadi ham darsda ro'yobga chiqariladi. Ularning barchasi har bir darsda ko'rsatilmaligi ham mumkin, chunki hamma darsda bu uchala maqsad bo'lishi shart emas.

„Jihoz“ masalasiga kelganda, darsning doimiy vositalari (mas. darslik, sinf doskasi) hamma vaqt ko'rsatila bormaydi.

Barcha darsda muntazam qo'llanmaydigan, shu dars uchun zarur audiovizual vositalar ko'rsatiladi, xolos.

Kirish qismidan tashqari darsning metodik ishlanmasi (*rus.* *разработка*) sifatida „Darsning borishi“ nomli asosiy masala yoritiladi. (Uning mazmuni „Dars bosqichlari“ mavzusida o'z aksini topgan.) Har bir bajariladigan mashq yoki undagi ish turiga dars rejasida vaqt belgilab olinadi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Rejalar turlari haqida mulohazangizni bayon eting.
2. Maktab darsligi va „Muallim kitobi“dan foydalanib, bir necha paragrafnings mavzuiy rejasini tuzing.
3. Darsliklardagi bir-ikkitadan mashg'ulotning rejalarini tuzishga harakat qiling.
4. Dars deganda ko'z oldingizga keladigan masalalar bo'yicha muhokama o'tkazing.

XVII BOB. CHET TIL O'QITISH BOSQICHLARI

O'qitish jarayonini bosqichlarga ajratish

O'rta umumta'lim maktabida chet til majburiy o'qitiladigan o'quv predmetlari qatoridan o'rin oladi. Maktab o'quv rejasiga kiritilgan barcha predmetlar o'rganilishi shart, chunki mamlakatimizda ma'lumot olish majburiy qilib qo'yilgan.

Joriy o'quv rejasi va dasturiga binoan chet tildan majburiy kurs (lotinchada *cursus* < *currere* — (yugurmoq, tez yurmoq) V—IX sinflarda o'rgatiladi. Yaqin paytlargacha fakultativ kurs o'tkazib kelingan. Hozir esa qo'shimcha dars o'tilmoqda.

Eslatma. O'quv rejalari o'zgarib turishi munosabati bilan o'rta maktabning V—XI yoki IV—X sinflarida chet til o'qitib kelinganligi, hozir esa V—IX sinflarda o'qitilishi metodika tarixidan ma'lum. O'tgan asrning 30-yillaridan (I. A. Gruzinskaya) beri ta'lim bosqichlari masalasi metodik muhokama mavzusi bo'lib keladi.

Chet til o'quv predmetining majburiy kursi metodik jihatdan turlicha davrlashtirib kelingan. Davrlashtirish, odatda, boshlang'ich (V—VI sinflar), o'rta (VII—VIII sinflar) va

yuqori (IX—XI sinflar) bosqichlar bilan chegaralangan¹. Hozirgi paytda umumiy o'rta ta'lim maktablarida chet tili ikki — boshlang'ich (V—VI) va o'rta (VII—IX) bosqichlarga bo'lib o'rgatiladi. Uchinchi — yuqori bosqich esa akademik litsey va kasb-hunar kollejini qamrab oladi.

Bosqichlarga² ajratishda, bir tomondan, chet tilni o'qitish xususiyati hisobga olinsa, ikkinchi tarafdin, o'quvchilar yoshi nazarda tutiladi. O'quvchining yosh xususiyati ruhshunoslarning teran nazariy va eksperimental tadqiqotlarida atrofli-cha ishlab chiqilgan (L. S. Vigotskiy, A. N. Leontyev, J. Piaje va boshqalar asarlarida mazkur masala aks ettirilgan). Chet til o'qitish jarayonini tashkil qilishda ruhshunoslik va odamshunoslik (fiziologiya) ilmiy manbalariga suyanib ish ko'riladi.

O'quvchilarning yosh va shaxs xususiyatlarini, ya'ni tafakkur, xotira, diqqat, idrok, faoliyat jihatlarini hisobga olib, muallim chet til o'rgatishda ularga farqli yondashadi va oqilona ish ko'radi. Chet til ta'limining uch bosqichga ajratilishi mazkur vazifani bajarishga xizmat qiladi.

Til o'rganishda nutq faoliyatini egallash bosqichlari ham nazarda tutiladi. E'tibor leksik-grammatik material hajmi va nutq faoliyati turlarining o'zaro munosabatiga qaratiladi. Chet til o'rganishning zamini yaratiladi, ko'nikma va malakalar bosqichma-bosqich rivojlantiriladi.

O'rta maktabda chet til o'qitishning maqsadlariga ko'ra, nutq faoliyati turlarini egallash nuqtayi nazaridan ta'lim jarayonini ikki yirik palla (konsentr)ga bo'lish ham mumkin: birinchisi V—VII sinflar va qolgan barcha sinflar ikkinchi konsentr hisoblanadi (III bobning „Chet til o'qitishning amaliy maqsadi“ mavzusiga qarang). Birinchisida gapirish va tinglab tushunish, ikkinchisida esa o'qish va tinglab tushunish amaliy maqsad maqomida o'rgatiladi.

¹ Программа по иностранным языкам (английский, немецкий, французский) для V—XI классов общеобразовательной школы с узбекским языком обучения (проект) / Составители *Х. Сайназаров, С. С. Мурсаганова* и др. — Ташкент: Укитувчи. 1988. — 4-бет.

² Metodik adabiyotlarda davrlashtirishga oid ilmiy terminlarning ma'noviy mushtarakligi saqlangan holda nomlashda har xillik kuza-tiladi: boshlang'ich-dastlabki, kichik-quyi, yuqori-katta, yakuniy-so'nggi; bosqich-davr va h.k.

Xullas, chet til o'qitishni tashkil etishda an'anaviy uch bosqich boshlang'ich, o'rta va yuqori nomlarini olgan. Shu bilan bir paytda, chet tilda nutq malakalarini hosil qilish pallalarini shartli ikki konsentrlı jarayon deb tan olish ham mantiqan maqbuldir. Birinchisida tashkiliy, ikkinchisida esa nutqiy bosqichlarni farqlashga duch kelamiz.

Ruhshunoslik, ta'limshunoslik va o'qitish metodikasi ma'lumotlariga asoslanib, uch bosqichli chet til o'qitish jarayonining tahliliga kirishamiz.

1-§. Boshlang'ich bosqich

Nutq faoliyatiga zamin hozirlovchi ushbu pallaning keyingi bosqichlarda chet til ta'limi samaradorligini oshirishda ahamiyati beqiyosdir. Aqliy va ruhiy rivojlanishda V—VI sinf o'quvchilari bir toifada turadi. Ular yangi o'quv predmetini qiziqish bilan kutib oladilar. Muallimga taqlidan o'rganishni yaxshi ko'rishadi. Ashula, she'r, o'yinlarni yoqtirishadi.

Chet tilda gapirish va tinglab tushunishning kamtarona malakalari bilan birga yozish va o'qishdek til texnikasi ko'nikmalarini o'zlashtirishga sezilarli vaqt va kuch sarflanadi. Ushbu bosqichga o'quv rejasida nisbatan ko'proq vaqt ajratiladi. Sinflar kichik guruhlariga bo'lib o'qitiladi. Bu bosqichda o'quvchilarning barqaror eshituv-talaffuz ko'nikmalari shakllantiriladi. Til birliklarining eshitish-harakat timsollarini hosil qilish yo'lida gapirish va ovoz chiqarib o'qish ko'p mashq qilinadi. Ma'lumki, boshqa nutq faoliyati turlari gapirish orqali o'rgatiladi.

Boshlang'ich bosqichda o'quvchilarning muallim hikoya va ko'rsatmalarini tinglab tushuna olishlari, o'rgangan til materialı asosida rasmga qarab gapirib berishlari, matn mazmunini aytib berishlari, o'tgan mavzular bo'yicha suhbat qura olishlari, matnni o'qib tushunishlari talab qilinadi. Berilgan savolga javob qaytarish, savol berish, taklifga rozilik/qarshilik bildirish, juftnutqda sherigining gaplarini tushunish malakalarini egallaydi. Og'zaki nutq va o'qish mavzulari, asosan, maktab va uy haqida bo'ladi. Leksik-grammatik material aktiv minimum maqomida o'zlashtiriladi.

Birinchi o'quv yilining oxiriga kelib o'quvchi ichda o'qishni ham mashq qila boshlaydi. O'qilish qoidalari odatda leksik-grammatik birliklarni o'zlashtirishga qarab berib boriladi, ikki

va undan ortiq lisoniy misol paydo bo'lgach, tegishli qoida chiqariladi.

Husnixat va imlo ko'nikmalarini VI sinf yakunlanguncha egallaydi (26 harfning hammasini birinchi yil o'rganish shart emas). Uyg'a vazifa qilib yozma topshiriqlar va ovoz chiqarib o'qish beriladi, ular sinfda o'rganilganlarni mustahkamlash maqsadida bajariladi.

Boshlang'ich bosqich metodikasining eng murakkab masalasi — nutq faoliyati turlarini baravar o'rgatish yoki ularni ayrim-ayrim, ketma-ket o'rgatish ma'qul yoki noma'qulligida. Muammoning chigalligi yana shundaki, og'zaki nutqdan o'qishga qarab borish kerakmi yoki aksincha yo'l tutish zarurmi, degan savollarni hal qilish bilan bog'liq.

Metodika nazariyasi va maktab amaliyotida ikkita ilmiy termin tez-tez uchrab turadi: og'zaki kirish kursi va og'zaki ilgarilash. Boshlang'ich bosqichning o'ta dolzarb masalalari shu ikki tushunchaga taalluqli. Mavjud adabiyotlarda mazkur boshlang'ich o'qitish turlari keng ko'lamda yoritilgan.

Ma'lum muddat og'zaki nutqni o'rgatib, keyinroq yozma nutqqa o'tiladigan metodik yondashish og'zaki kirish kursi nomini olgan. Bir chorak (hatto yarim yil) mobaynida og'zaki mashqlarigina bajarish tavsiya qilingan darsliklar mavjud. Qator davlatlarda og'zaki kirish kursining turli ko'rinishlari ishlab chiqilgan va birinchi o'quv yilida joriy etilgan. Ularning har birini metodik sistema shaklida ishonarli qilib, ilmiy asoslab berishgan. Metodikada u haqda ko'p yozilgan.

O'zbekiston maktablarida chet tilni og'zaki ilgarilash metodik mezoniga ko'ra o'qitish qabul qilingan.

Chet til o'qitishning boshlang'ich bosqichida og'zaki ilgarilash terminining ma'nosi shundan iboratki, o'rganilmish leksika avvaldan og'zaki mashqlarda, 1—5-darsdan so'ng (grammatika yana ham kechroq) yozma shaklda egallab boriladi. Bir qarashda nutq faoliyati turlari — gapirish, tinglab tushunish, yozuv va o'qish har bir darsda ishtirok etadi. Dastlabki bir necha darsda (turli chet tillarda 3—8 tagacha) faqat og'zaki mashqlar bajariladi. Masalaga yaqindan yondashilsa, shu narsa ayon bo'ladiki, og'zaki nutq materiali miqdoran yozma nutqdagidan ancha ko'proq. Og'zaki o'rganilgan leksik-grammatik birliklar asta-sekin yozuvda o'rganila boshlanadi. Demak, og'zaki va yozma taqdim qilinadigan materialda farq seziladi.

O'quv yili oxirida barcha material to'rtala nutq faoliyati turida ham o'rganilgan bo'ladi. Dasturiy til materialini avvaldan og'zaki va bir muddat keyinroq yozma shaklda mashq qilish metodik hodisasini og'zaki ilgarilash yoki og'zaki nutqning oldin yurishi deyiladi.

V sinfda og'zaki ilgarilash tufayli tinglab tushunilgan va gapirishda o'zlashtirilgan material avval yozuvda, so'ng o'qishda beriladi, VI sinfda tinglab tushunish va gapirishdan keyin o'qish va oxirida yozuv mashq qilinadi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Chet til o'qitish bosqichlari nomlarini ayting.
2. Bosqichlarga ajratish omillarini so'zlab bering.
3. Boshlang'ich bosqichni tashkil qilishning ikki ko'rishini bayon eting.
4. „Og'zaki ilgarilash“ metodik terminini ifodalovchi tushunchani tahlil qiling.

2-§. O'rta bosqich

O'rta maktabning VII—IX sinflari o'quvchilari tahsil ko'radigan ushbu bosqich, bir tomondan, oraliq davr hisoblanadi, ikkinchidan, chet tilda nutq ko'nikma va malakalarini o'stirishning yangi pallasi sanaladi. Bu palla o'rta umumta'lim maktabining yakuniy bosqichidir. Ayrim o'quv predmetlariga, jumladan, chet tilga qiziqishning so'nishi hol-lari uchrab turadi. Til materialini o'rganishda onglilikka e'tibor kuchayadi.

Ushbu bosqichda aktiv leksik va grammatik materialni o'rganish davom etadi. Og'zaki nutq yetakchi amaliy maqsad va muhim ta'limiy vositalardan biri maqomini saqlab turadi. O'qishning malaka sifatida mavqeyi o'zgaradi, u asosiy amaliy maqsad darajasiga chiqa boshlaydi. Yozma matndan qiziqarli va foydali axborot olishga e'tibor oshadi. Xullas, og'zaki nutq va o'qish malakalariga sarflanmish kuch va vaqt baravarlashadi. VII sinf oxiriga kelib o'qishning amaliy maqsad maqomini egallashiga zamin hozirlanadi.

Ikkinchi (o'rta) bosqichning oxirida o'quvchilar berilgan mavzular bo'yicha og'zaki fikr bayon eta olish, tinglangan yoki o'qilgan matn mazmunini aytib berish, suhbatda qat-

nashish va xat yozish malakalariga ega bo'ladilar. Gapirganda o'z munosabatini bildirish, o'zlarining nuqtayi nazarini asoslash, sabab-oqibat bog'lanishini izohlay olishni mashq qilishadi. Suhbat chog'ida munosib replikalar qo'llay olish, juft nutqda 7 tagacha replika ishlata olish va yakka nutqda 12 tagacha gap ayta olish talab qilinadi. O'qiganda 3—4 foiz notanish so'zli matnni lug'atsiz o'qib tushunish, ularning ma'nosini kontekst yoki so'z yasovchi unsurlar yordamida fahmlab olish, notanish so'z miqdori yuqoridagidan ko'proq uchraganda, lug'at bilan o'qib tushunishga erishadilar.

VIII sinfda hamma aktiv grammatik hodisalar deyarli o'rganib bo'linadi. Avval leksik tarzda (tipovoy jumla maqomida) o'rganilgan grammatik birliklar ham endi, misol yetarli bo'lsa, umumlashtiriladi. Og'zaki ilgarilash bir mashg'ulot ichki chegarasida davom etadi.

O'qishda notanish so'zlarga duch kelish sababli ingliz va fransuz tillarini o'rganuvchilar transkripsiya bilan to'liq tanishadilar. VIII sinfda ikki tillik lug'at ishlatish boshlanadi va lug'at bilan mustaqil ishlashga kirishadilar.

O'rta bosqich tugashida uch daqiqagacha davom etadigan muallim/diktor nutqini tinglab tushunish va darsda hamda chet til xonasida mustaqil eshitish tavsiya qilinadi.

O'qishning salmog'i oshib borishi matn hajmining kattalashishi, o'qishning umumiy ko'lami kengayishi, asosan, uyda ovoz chiqarmay o'qish (sinfda tekshirish) kabilarda namoyon bo'ladi. Tanishuv o'qish shakllantiriladi. Bosqich yakunida tahlil unsurlari bilan mutolaa boshlanadi. Bu davrda uyda o'qib yozma tarjima qilish o'rgatiladi va sinfda tekshiriladi.

Yozuv bo'yicha kichik-kichik insholar mashq qilinadi, sinfda muhokama qilinib, uyda yoziladi. Haftalik o'quv soati kamligi tufayli bu bosqichda mustaqil ishlarga katta o'rin beriladi (Mustaqil ishlar bajarish metodikada yoritilgan¹). Turli-tuman ma'lumotnomalardan foydalanish malakalari o'stiriladi.

V—IX sinfda „Tevarak-atrof“, „Mamlakatimiz“ mavzulari (qisman „Tili o'rganilayotgan mamlakat haqida“ ham) gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuvga asos bo'ladi. O'rga-

¹ V. Jabborov. Studentlarning chet tildan mustaqil ishlari: Ped. institutlari uchun qo'll. / Maxsus muh. J. J. Jalolov. — Toshkent: O'qituvchi, 1987.

nilgan leksik va grammatik material to'lig'icha aktiv minimumni tashkil qiladi.

O'rta bosqichda nutq ko'nikma va malakalarining ma'lum darajada egallash yakunlanadi (XV bobning „Nazorat obyekt“ paragrafida sifat va miqdor ko'rsatkichlari keltirilgan). Xullas, o'rta bosqichda o'rganilgan og'zaki nutq materiali va mavzulari yuqori bosqichda ham gapirish va yozuvga asos hisoblanadi. O'qish bilan bog'liq ta'lim mavzusi navbatdagi paragrafda muhokama qilinadi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. O'rta bosqichning muhim belgilarini sanab bering.
2. O'rta bosqichda o'zlashtirilmish leksik va grammatik birliklarning aktiv yoki passiv minimumga kirishini asoslang.
3. Chet til o'qitishning mazkur bosqichida gapirish va o'qishning o'zaro munosabatini muhokama qiling.

3-§. Yuqori bosqich

Chet til o'qitish o'rta ta'lim kursi yakunlanadigan ushbu davrning ham o'ziga xos xususiyatlari bor. Ta'lim dasturida nutq malakalariga qo'yilgan yakuniy maqsadlar amalga oshiriladi. 16—18 yoshlilarning xususiyatlariga binoan purmazmun matnlarni o'qish birlamchi vazifaga aylanadi.

Bu bosqichni shartli holda ikki davrga ajratish mumkin: birinchi yarim yili (1- va 2- choraklar) va 3-choragidan III kurs oxirigacha bo'lgan vaqt. I kurs o'quvchilari, odatda, turli maktab yoki sinflardan yig'ilishi mumkin. Bilim saviyasi bir xil bo'lmaganligidan ularning nutq malakalarini „tenglashtirish“ga to'g'ri keladi. Yarim yil mobaynida asosan takrorlash davrini boshdan kechiradilar. Har bir litsey va kollejning I kurs o'quvchisining shaxs xususiyatlariga qarab, yakkama-yakka (individual) ishlar bajariladi (mas. tarqatma material ishlatish, uyga alohida vazifa berish, sinfdan tashqari mashg'ulot o'tkazish).

O'rganiladigan grammatik hodisalar endi passiv minimumga kiradi, ya'ni tinglab yoki o'qib tushunish paytida tanib olishga mo'ljallanadi. Ilgari bir ma'noda o'zlashtirilgan, aslida polisemantik so'zlarning yangi-yangi ma'nolari ochib

beriladi. Leksikaning teng yarmi aktiv va qolgan qismi passiv tarzda o'zlashtiriladi.

O'qish birlamchi amaliy maqsad huquqini oladi. Tinglab tushunish va gapirish malakalari o'qilgan material hamda o'qish mavzusi asosida rivojlantiriladi. Aksariyat yakkanutq mashqlari matn mazmuni doirasida bajariladi (juftnutq mashqlari nisbatan kamayadi). Og'zaki nutqning ilgarilashi mezoni bu davrda o'z kuchini yo'qotadi.

Matnlarga qo'yiladigan talablar kuchayadi: matnning tili murakkablashadi, kitobiy uslubdagi yozma matnlar asosiy o'rinni egallaydi, moslashtirilgan parchalardan tashqari asliyatlardagi matnlar o'qiladi. Badiiy adabiyotlardan olingan parchalarda tili o'rganilayotgan mamlakat hayotiga taalluqli ilmiy-ommabop matnlar salmog'i ko'paytiriladi. Matbuot (gazeta, jurnal)dan maqolalar tanlab o'qitiladi. Ular mutolaa turidagi o'qishga mo'ljallanadi.

Uyda o'qish bilan astoydil shug'ullanish boshlanadi. Matn oldi va matndan keyingi mashqlar sinfda bajariladi. Sinfda o'qiladigan matnlar esa hajman kichik bo'lib, ichda o'qish tezligini oshirishni mashq qilish uchun tavsiya qilinadi.

Avvalgi bosqichlarda unchalik kuzatilmagan til o'rganishda onglilik kuchaytiriladi. O'qilish qoidalari, ma'lum ma'noda, nazariy tartibga (oddiy sistemaga) solinadi, yuqori bosqich o'quvchilari yangi so'zlarni mustaqil (yoki lug'atdan foydalanib) o'qiydilar. Grammatik bilimlar ham qoidalarda umumlashtiriladi, turli lisoniy jadvallar tuziladi va amaliyotda qo'llanadi. Grammatik ma'lumotnomalardan foydalanib ish ko'rishadi (biroq qoida verbal tarzda (so'z ifodasida) alohida so'ralmasligi ma'lum).

Yuqori bosqichda „hukmron“ o'qish turi sanalmish tanishuvga ko'plab matnlar berib boriladi (mutolaa qilinishi yuqorida ta'kidlandi). Kuzatuv o'qish ham qisman bajariladi. Kuzatuv o'qishda hajmi katta matnlar (mas. matbuot materiali) olinadi. O'qish turidan qat'i nazar yangi va foydali axborot olish, ya'ni kitobdan haqqoniy hayotda foydalanish mumkin bo'lgan o'qish bilan o'quvchilar mashg'ul bo'ladilar (mas. mamlakatimiz va chet el yoshlari turmushini aks ettiruvchi yangi axborotlarni o'rganishadi).

Chet til ta'limi dasturida qayd etilganidek, o'rta maktabni tugatuvchidan chet tildan o'qish maqsadida kelajakda bemalol

foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi talab qilinadi, binobarin, o'qish yetakchi amaliy maqsad maqomini egallaydi.

Uch bosqichli majburiy ta'lim kursini o'tgan o'quvchi dasturiy talablarga ko'ra gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv malakalarini egallab, hayotiy ehtiyoj tug'ilgan kezlarda o'qib axborot olishga tayyorlanadi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Yuqori bosqichning asosiy metodik belgilarini aytib bering.

2. Leksika va grammatika hodisalarini bu bosqichda o'rgatish borasida fikr bayon eting.

3. Nutq faoliyati turlarining yuqori bosqichda ta'limiy maqsad va vosita ekanligi haqida gapiring.

4. Chet til matnlaridan yangi axborot olish masalasini tahlil qiling.

XVIII BOB. CHET TIL BO'YICHA DARSDAN TASHQARI ISHLAR

Darsdan tashqari ishlar haqida

O'quv jarayoni tarkibiga kiradigan „dars (sinf mashg'uloti)“, „uy ishi“ va „darsdan (sinfdan va maktabdan) tashqari ish“ ta'limiy tushunchalari orasidagi farqlarni aniqlash zarur.

Ta'lim dasturi dars tufayli ro'yobga chiqadi. Dars zamon va makonda chegaralangan ta'limiy hosiladir. Uning mazmunan ajralmas, zamonda esa ajralgan qismi uy ishidir. Dars va mustaqil uy ishi yuz foiz o'quvchilar uchun majburiy mashg'ulotlar hisoblanadi. O'quvchilarning muayyan qismi ixtiyoriy mashg'ulot va darsdan tashqari ishlarda ishtirok etadi.

Darsdan tashqarida, jadvalga kirmaydigan, maxsus o'quv dasturiga ega bo'lmagan, birorta sinf va uy ishlarining uzviy davomi sifatida o'tkaziladigan ta'limiy tadbir darsdan tashqari ish maqomini olgan. Har bir o'quvchi darsga qatnash va uy vazifasini bajarishga majbur, lekin sinfdan tashqari ishlarda ishtirok etishi ixtiyoriy.

Ta'lim jarayoni tarkibiga kiruvchi o'quv tadbirlarining qiyosiy jadvalini keltiramiz (340-betga qarang.)

1-§. Darsdan tashqari ishlar maqsadi va tashkiliy mezonlari

Chet til vositasida o'quvchilar umumiy saviyasini oshirish, o'quv predmetiga qiziqishni kuchaytirish, bo'sh vaqtlardan samarali foydalanib, bilishga qaratilgan ehtiyojlarni qondirish kabi vazifalar hal qilinadi. Dars va undan tashqari ish maqsadlarini ta'riflashda, birinchidan, ular orasidagi sezilarli farq nazarda tutiladi, ikkinchidan, darsdan tashqari ish turlarining xususiyatlari inobatga olinadi va, nihoyat, uchinchidan, o'quv predmeti oldiga qo'yilgan amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar to'lig'icha hisobga olinadi.

Darsdan tashqari ishlarning har bir turining xususiyatidan kelib chiqib, ularga qator metodik talablar qo'yiladi. Talablarni ro'yobga chiqarish darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish mezonlari bilan bog'liq. Quyidagilar muhim mezonlar sanaladi:

1. Ixtiyoriylik. O'quvchi o'z xohish-istagi bilan darsdan keyin mashg'ulotga qatnashadi. Ixtiyoriy tanlagan tadbirlarida „va'daga vafo“ qabilida muayyan topshiriqlarni bajarish majburiyga aylanadi.

2. Muntazamlik va aniq maqsad. Ishlar bir me'yorda (haftada, oyda, yarim yilda, har kuni) bajarib boriladi.

3. Yoshiga moslik. Ishtirokchilarning shaxs xususiyatlarini, ya'ni bilim saviyasi va qiziqishlari kabi ruhiy va ma'naviy jihatlarni nazarga olib, ularga yumush yuklanadi.

4. Uzviy bog'liqlik. Darsda shakllanadigan nutqiy ko'nikma va malakalar zaminida darsdan tashqari ish tashkil qilinadi. O'z navbatida dars jarayoniga ijobiy ta'sir o'tkaziladi.

5. Ommaviylik. Imkon boricha ko'pchilik jalb etilsa, darsdan tashqari tadbirlarning o'quv-tarbiya jarayonini jonlantirishga shunchalik yaxshi erishiladi.

6. Informativlik (axborotga boylik). Darsdan tashqari sarflanadigan kuch va vaqtni zoye ketkazmaslik maqsadida majburiy dastur o'quv materialini takrorlash va mustahkamlash bilanгина kifoyalanmay, rejalashtirilgan tadbirlarning mazmuni sinchiklab tanlanadi. O'quvchiga yangilik berilishi, qiziqarli axborotga oshno etilishi, uning bilish ehtiyoji qondirilishi darsdan tashqari ishlarning informativligi, ya'ni ma'naviy

O'QUV TADBIRLARI

| O'quv jarayoni | Sinfda mashg'ulot sifatida o'tkaziladi | O'quv rejasida bor | O'quv dasturiga ega | Dars jadvaliga qo'yiladi | Qatnashishi | | Qo'shimcha material | Baho qo'yish | Ko'nikma va malakalarini o'stirish |
|----------------------------|--|--------------------|---------------------|--------------------------|-------------|-----------|---------------------|--------------|------------------------------------|
| | | | | | Majburiy | Ixtiyoriy | | | |
| 1. Dars | + | + | + | + | + | + | | + | + |
| 2. Uy ishi | | | | | + | | | + | + |
| 3. Darsdan tashqari ishlar | | | | | | + | | | + |

ozuqaga boyligi orqali ta'minlanadi. Ma'naviy boyish o'quvchini olg'a undaydi, ijodiy faoliyatini qo'zg'aydi, tashabbusini uyg'otadi. Bularning hammasi o'qishga moyillik (motivatsiya) tug'diradi.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. „Darsdan tashqari ishlar“ terminining metodik ma'nosini ta'riflang.
2. Chet til ta'limi jarayonini tarkiban tahlil qiling.
3. Darsdan tashqari tadbirlar nima maqsadda o'tkazilishini aytib bering.
4. Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish mezonlarini muhokama eting.

2-§. Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish

Darsdan tashqari ishlar o'zining maqsad va mazmuniga ko'ra turli shakllarda bo'ladi. Ular, asosan, uch ko'rinishda tashkil qilinadi, ya'ni ommaviy, guruhiy va yakkama-yakka o'tkaziladi. Maktab tajribasida uchalasi, o'z navbatida, yana kichik turlarga bo'linishi ma'lum (ularni quyiroqda mufassal bayon qilamiz).

Chet til muallimi darsdan tashqari ishlarning turlarini o'quvchilarga tavsiya qiladi, material tayyorlaydi va ularni o'tkazish metodikasini ishlab chiqadi (mavjud adabiyotdan keng foydalanadi). Ayrim tadbirlarni u maktab miqyosida muvofiqlashtiradi. Ish turlari bo'yicha o'quvchilarni safarbar etadi, guruhlarga ajratib vazifalarni belgilaydi, topshiriladigan yumushlarning ijrosini nazorat ostiga oladi.

O'quvchilar qatnashadigan darsdan tashqari ishlarning uch toifasini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Ommaviy ishlar. Darsdan tashqari ommaviy ishlarda nisbatan ko'pchilik qatnashadi. Maktab, litsey va kollejda joriy etilgan ommaviy tadbirlar sirasiga quyidagilar kiradi: mavzuiy kecha, viktorina (savol-javob tomoshasi), tanlov, olimpiada, kinofilm (diafilm) namoyish qilish, chet til haftaligi (kuni), ko'rgazma, badiiy havaskorlik, baynalmilal do'stlik klubi (BDK) va h.k.

Kechalar darsdan keyin o'tkaziladigan ommaviy ishlar orasida mazmunan va shaklan turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Quyidagi kechalar pedagogik amaliyotda keng tarqalgan. Unutilmas sanalarga bag'ishlangan mavzuiy kechalar; atoqli kishilar bilan uchrashuv; chet tilda gapiruvchilar (yurtdoshlar, xorijiy talabalar, mehmonlar) bilan uchrashuv; maktab, litsey, kolleжда bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot (to'garak a'zolari) kechalari; madaniyat, san'at, adabiyot, fan-texnika arboblari (yozuvchi, shoir, san'atkor, olim, kashfiyotchi) ijodiga bag'ishlangan kechalar; badiiy havaskorlik hisoboti; chet tilda o'rganilgan asarlar muhokamasiga doir kechalar va h.k.

Har qanday kecha mufassal ssenariy asosida olib boriladi. Kechaning ssenariysi (dasturi)ga ko'ra tantanali, bayramona sharoitda chiqishlar rejalashtiriladi.

Kechani o'tkazish to'rt bosqichni o'z ichiga oladi: 1) dastlabki tayyorgarlik bosqichi — mavzu tanlanadi, o'tadigan vaqti va joyi belgilanadi, material to'planadi, ssenariy tuziladi va bezash ishlari qilinadi; 2) ijrochilar tayyorgarligi bosqichi — dasturga binoan kechaning ijro qismlari maqomida tayyorgarlik (repetitsiya), yakkama-yakka ishlash, kecha haqida e'lon hozirlash kabilar; 3) kechani o'tkazish bosqichi ssenariyga ko'ra nomerlar ijro etiladi, kechaga yakun yasaladi, mukofotlar beriladi; 4) o'quvchilar umumiy yig'ilishida kecha yuzasidan muhokama o'tkaziladi, devoriy matbuotda xabar beriladi, alohida o'rnak ko'rsatganlar ma'muriyat rahmatnomasi bilan taqdirlanadilar.

Kechalarni yil davomida ikki marta, birinchi va ikkinchi yarim yillikda o'tkazgan ma'qul.

Ko'rik chet tilda tashkil qilinadigan darsdan tashqari muhim ish turlaridandir. Unda yakka holda, guruh bo'lib va sinf bilan qatnashishga ruxsat qilinadi. Ko'rikning quyidagi turlari tavsiya etiladi: 1) darslikka kirgan, o'qish kitobidan yoki muallim tanlagan she'r yoki parcha (matn)ni ifodali o'qish; 2) o'quv dasturi mavzusi bo'yicha hikoya qilish; 3) rasmlararo epiyoki diafilmdan lavha (kadr)ni so'z bilan tasvirlash, diafilmga ovoz berish; 4) og'zaki tarjima; 5) yozma tarjima; 6) chet tilda ashula aytish va h.k.

Mazkur tadbirni maktab miqyosida va maktablararo o'tkazish mumkin. Hakamlar hay'ati shaxsiy va guruhiy ijrochilik

mahoratini baholab, g'olibni aniqlaydi va ajratilgan mukofotni topshiradi.

Viktorina (savol-javob tomoshasi) chet til va boshqa o'quv predmetlarini bilish darajasini oshirishda predmetlararo aloqani kuchaytirish yo'lidagi darsdan tashqari muhim ishdir. Mazkur tadbir mavzu jihatidan xilma-xil bo'ladi. Mas. „Tevarak-atrof haqida“, „Qishlog'im/shahrim“, „Tili o'rganilayotgan mam-lakat“, „O'zlashtirgan so'zlarimiz/grammatik material“ singa-rilar yuzasidan savol-javob uyushtiriladi.

Olimpiada shaklida o'tkaziladigan ommaviy ish o'quv-chilarni kasbga yo'naltiruvchi omillardan sanaladi. Shahar/tuman maorif bo'limlarida saqlanadigan maxsus nizomga ko'ra ushbu ta'limiy tadbir o'tkaziladi. Chet til olimpiadasi ishti-rokchilariga qo'yiladigan o'quv talablari matbuotda e'lon qili-nadi (mas. „Ma'rifat“ gazetasi sahifalaridan ularni o'qib olish mumkin).

Odatda olimpiada sinf/maktab/litsey/kollej doirasida, viloyat va, nihoyat, respublika miqyosida o'tkaziladi.

Olimpiada talablarini quyidagicha umumlashtirib ifodalash mumkin: chet til matnini tez va to'g'ri o'qish; ravon talaffuz qilish; savolga tezkorlik bilan javob berish; tabiiy nutq tezligini namoyish etish; savolga berilgan javob mazmunining mavzuga mos tushishi; leksik, grammatik va talaffuzdagi kamchiliklar bor/yo'qligi.

Chet tildan O'zbekistonda (Olmaliq shahrida) 1974-yil ilk da'fa respublika olimpiadasi o'tkazilgan. Biror viloyatda har yili ushbu respublika ommaviy o'quv tadbirini o'tkazish odat tusiga kirgan.

Chet til olimpiadasi g'oliblari orasidan chet til oliy o'quv yurti/fakultetlari talabasi bo'lish huquqini olgan va keyinchalik chet tildan mutaxassis bo'lib yetishib chiqqanlar oz emas. Olimpiada ishtirokchilariga kelgusida o'qishga maxsus tavsiya-noma berilishi qoidalashtirilgan.

Chet til haftaligi yoki *kuni* katta tayyorgarlik bilan o'tka-ziladigan ommaviy ish turlaridandir. „Haftalik o'quv yili mobaynida bir marta, belgilangan vaqtda o'tkaziladi. Haftalik oldidan uzoq muddat hozirlik ko'riladi: tashkiliy guruh tuzi-ladi; muallimlar vazifalarni bo'lib olishadi; dastur yoziladi; maktab, litsey, kollej binosi (zal va koridorlar) bezaladi; „Chet til o'rganuvchiga yordam“ burchagi tashkil qilinadi;

to'garakning ochiq majlisi mavzulari belgilab olinadi; o'yinlar dasturi ishlab chiqiladi; sinf yoki muvoziy sinflar devoriy matbuoti chiqariladi; hakamlar hay'ati saylanadi.

Bir necha kun avval haftalik haqida e'lon osiladi, unda o'tadigan tadbir muddati ko'rsatilgan bo'lib, o'quvchilarni haftalikda faol qatnashishga da'vat etiladi. Devoriy matbuotda ko'riklar bo'yicha uy vazifalari va haftalikni o'tkazish tartib-qoidalari yoziladi.

Chet til haftaligining taxminiy rejasini keltiramiz.

Dushanba. Ingliz/ishpan/nemis/fransuz tilida radioeshittirish. Chet tilda V—VI sinf o'quvchilari uchun ertaklar kechasi.

Seshanba. Chet tilda V—VII sinflar uchun ko'riklar.

Chorshanba. Tili o'rganilayotgan mamlakat atoqli kishisiga bag'ishlangan radioeshittirish. Biror arbob haqida adabiy muhsiqiy kecha.

Payshanba. Muayyan sinflar to'garagining ochiq mashg'uloti.

Juma. Biror arbobga bag'ishlangan radioeshittirish. VIII—IX sinflar ko'rigi.

Shanba. Haftalik yakunlariga oid kecha g'oliblarini taqdirlash.

Badiiy havaskorlik va ko'rgazmalar ko'rik shaklida o'tkazilishi odatga aylangan.

Baynalmilal do'stlik klubi ommaviy tadbir sanaladi. Klub tashkil qilinmagan bo'lsa, to'garaklar tuzilsa ham bo'ladi.

Barcha ommaviy va guruhii hamda yakkama-yakka tashkil etilgan darsdan tashqari ishlarda qatnashgan ilg'or o'quvchilar muallimlarga yaxshi tanish „KVN“ nomi bilan atalgan tadbirda ishtirok etishlari mumkin (uni o'zbekcha „Quvnoqlar va zukkolar“, deb atagan ma'qul).

Guruhii ishlar. Darsdan tashqari ishlarning ushbu ko'rinishiga to'garaklar yoki bo'lim (seksiya)lar kiradi. Doimii o'tkaziladigan guruhii ishlar qatorida og'zaki nutq, o'qish, tarjima to'garaklari, chet ellik do'stlar bilan xat yozishuv, ko'rgazmali qurollar yasash, filatelistlar (marka to'plovchilar), drama, kino to'garaklari ishlaydi. Vaqtincha ishlaydigan to'garaklarda albom yasash, stend tayyorlash, devoriy gazeta chiqarish kabilar tashkil qilinadi.

Og'zaki nutq to'garagi. Bu guruhii darsdan tashqari to'garak tilni taxminan bir xil biladigan o'quvchilardan tashkil topadi. Qatnashchilar gaplashish bilan mashg'ul bo'ladilar.

To'garakning quyidagi turlari keng tarqalgan: rasmlar bo'yicha gapirish, tayanch so'zlar asosida gapirish, berilgan mavzuda gapirish, suhbat, axborot berish, ma'ruza qilish kabilar. Gapirish va tinglab tushunishni o'rgatish (XI—XII boblarning 3- va 4- paragraflari) materiallaridan ushbu to'garakni o'tkazishda foydalanish tavsiya etiladi.

O'qish to'garagi. Kitob/matbuot materiali bilan mustaqil ishlashga, lug'atdan va boshqa axborotnomalardan foydalanishga e'tibor kuchaytiriladi. (Badiiy asarlarning moslashtirilgan nusxalarini o'qish ham tavsiya etiladi).

Muayyan adabiy asar o'qib bo'lingach, to'garak a'zolari konferensiyasi uyushtiriladi.

Tarjima to'garagi. Dastavval shuni ta'kidlash joizki, darsda tildan-tilga o'girish cheklangan ko'lamda mashq qilinadi. Tor ma'nodagi badiiy tarjimani o'rgatish to'garagi atalmish mazkur darsdan tashqari ish turida nasr va nazmdan parchalarni chet tildan ona tiliga o'girishadi. Tarjima badiiy adabiyotga ijobiy munosabatni shakllantiradi, estetik tarbiyaga yo'l ochadi, chet til va ona tili hodisalarini qiyoslashni o'rgatadi (darsda qiyosiy tahlil qilinmasligi ma'lum), ikkala tildagi ifoda vositalarini topishni o'rgatadi.

Xat yozishuv. Xat almashish tili o'rganilayotgan mamlakat hayoti bilan yaqindan tanishtiradi. Xatlarning mazmuni devoriy matbuot va radioeshittirish uchun qiziqarli boy material bo'lib xizmat qiladi.

Ko'rgazmali qurollar yasash to'garagi. Muallimlarning kundalik ish faoliyatida kerakli ko'rgazmali qurollarga ehtiyoj juda katta. Nashriy ko'rgazmalilik odatda mavjud talabni to'liq qondirmaydi. Dars jarayonini jihozlashdan tashqari turli-tuman ommaviy tadbirlarni bezashga ko'rgazmalilik kerak bo'ladi. Ular orasida rasmlar, naqshlar, jadvallar, tarh (sxema)larni atash mumkin.

Filatelistlar to'garagi. O'quvchilarning umumiy saviyasini ko'tarish va tili o'rganilayotgan mamlakatlarga doir ma'lumotlarni to'plash to'garakning asosiy maqsadi sanaladi. To'garak qatnashchilari pochta markalari (va qog'oz pullarni) yig'ish bilan shug'ullanadilar. Muayyan miqdorda to'plangan ashyolarni ko'rgazmaga qo'yish mumkin. Unda malakali sharhlovchilar xizmat ko'rsatadilar. Tomoshabin va to'garakchilarning umumta'limiy saviyasini oshirishda ushbu tadbirning ahamiyati beqiyosdir.

Drama (va musiqa) to'garagi. Qatnashchilar nutq ko'nikma va malakalarini ifodali so'zlash va xatti-harakat qilish imkoniyatiga molik bo'ladilar. Dramatik to'garakdagi tayyorgarliklardagi o'quvchi chet tilda fikrini ta'sirchan ifodalashi, she-rigi bilan sahnada harakat qilishi, oqibat natijada estetik zavq olishi muqarrar. Mumtoz va zamonaviy yozuvchilar jo'shqin asarlaridan parchalar ham ijrochi, hamda tomoshabin e'tibori-ni o'ziga tortadi. To'garak a'zolarining kelgusi hayot yo'llarini tanlashlarida muhim omil bo'lishi ham mumkin. Drama bo'limiga monand musiqa to'garagini tashkil etsa bo'ladi. Tili o'rganilayotgan xalq folkloridan mohirona foydalaniladi.

Kino to'garagi. Ushbu guruhiiy tadbirlardan kutiladigan muddao o'quvchilarning og'zaki nutq malakalarini o'stirishdir. To'garak ishining dastlabki pallalarida diafilm, slayd (rang-surat), otkritka kabilarni chet tilda sharhlash ma'qul topiladi. Ularda tasvirlangan manzaralarni chet tilda ta'rif-tavsif qilish bilan shug'ullanishadi. So'ngra to'garakda kinofilmlarni sharh-lashga o'tiladi.

Dia- va kinofilmlarga ovoz berish, ya'ni chet tilda tushun-tirib borish birmuncha murakkab bo'lsa-da, o'ta qiziqarli va yoqimli ish turi hisoblanadi. Avvalo harakatsiz lavhalarni, keyinchalik harakatdagi filmlarni sharhlay olish malakalari singdiriladi. Bu ishtirokchilarda ma'naviy qanoat hosil qiladigan ta'limiy tadbirdir.

Kinoni turli ommaviy tadbirlar (kechalar, konferensiyalar, ko'riklar)da namoyish etish va unga to'garakchilar ovoz berishlari chet tilga ko'pchilikning qiziqishini tortadi, til o'r-ganishga moyillikni oshiradi.

Vaqtili to'garaklar. Vaqt-vaqti bilan o'tkaziladigan darsdan tashqari guruhiiy ishlardan albom tuzish, stend yasash, devo-riy gazeta chiqarish kabilar keng tarqalgan.

Albomlar mazmuni xilma-xil bo'lib, o'quv dasturidagi mavzularni aks ettiradi. Yozuvlar chet tilda o'quvchilar qo'li bilan amalga oshiriladi. Albom rasmi bo'lib, tag yozuv yoki sahifalar chet tilda yozilgan bo'lishi mumkin.

Stend yasashda to'garak a'zolari rejalashtirilgan mavzularga murojaat etadilar. Bayram (mas. Navro'z)ga atalgan, atoqli kishilar hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi, maktabga bag'ish-langan stendlar ora-sira tayyorlanadigan guruhiiy tadbirlar-dandir.

Devoriy gazeta chiqarish ham guruhiy ishlardan bo'lib, maktabda keng quloch yoygan. Tahrir hay'ati saylanadi. O'zaro vazifalar taqsimlanadi. Devoriy matbuotning soni o'rtacha 2 oyda bir marta chiqariladi. Chet til muallimi o'z maslahatlari bilan yordamlashib turadi. Muhim va qiziqarli maqolalarni o'z ichiga oladigan devoriy matbuot sahifalarida chet tilda quyidagi ruknlar ajratiladi: Maktab/sinf hayoti; Xorijdagi yoshlar/o'quvchilar haqida; Qiziqarli axborot; Hazil na hajv; Xatlar bo'limi va h.k.

Maqolalarni tahrir hay'ati a'zolari tashkil etadilar bezak berishda „Ko'rgazmali qurollar yasash to'garagi“ qatnashchilari muruvvat ko'rsatishlari mumkin.

Yakkama-yakka (individual) ishlar. Yolg'iz o'quvchini darsdan tashqari ishga jalb qilishda a'lochi, ulguruvchi va qoloq toifadagilar hisobga olinadi. Ular bilan ishlash metodikasi farqlanadi. O'quvchilarga qobiliyatlariga yarasha vazifa yuklanadi.

Ushbu turdagi tadbirlar sirasiga ma'ruza tayyorlash, she'r yodlash, ashula o'rganish, maqola yozish, biron rol ustida ishlash, ko'rgazmali qurol yoki albom tayyorlash, kechada chiqishga hozirlik ko'rish singarilar kiradi. Muallim maslahati va rahnamoligida bajariladigan mazkur tadbirlar qatnashuvchilari guruhiy va ommaviy ishlarda ham faol ishtirok etadilar.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Darsdan tashqari ishlarning turlari nomlarini ayting.
2. Ommaviy ishlar jumlasiga kiradigan darsdan tashqari talimiy tadbirlarni tahlil qiling.
3. Guruhiy va yakkama-yakka ishlarning nomlarini atang.
4. To'garak (seksiya)lar haqida fikr yuriting.
5. Doimiy va vaqtli darsdan tashqari ishlarni aytib bering.

XIX BOB. TURLI O'QUV YURTLARIDA CHET TIL O'QITISH

Masalaning metodologik tartibda qo'yilishi

Mazkur ilmiy masalaning kitobga kiritilishining boisi, birinchidan, talabani chet til o'qitish metodikasiga oid fikr-mulohazalaridagi chalkashlikni bartaraf qilish va, ikkinchi-

dan, talaba oliy muallimlik o'quv yurtini tamomlab ish boshlaganda, mabodo, ommaviy o'rta maktabdan boshqa joyga tushib qolsa, qiynalmasdan ishlab ketishiga zamin hozirlashdir. Shu ikkala vajdan XIX bobda muhokamaga turli o'quv yurtlarida chet til o'rgatish metodikasi ilmiy masala qilib qo'yildi.

Tasavvur qiling: katta olomon orasidan bir kimsa sizga dabdurustdan savol bilan murojaat qiladi: „Uyim qayerda?“ Rahm/shafqat yetishmovchiligi davrida so'roq e'tiborsiz qolishi ham ehtimoldan yiroq emas. Biroq siz unga yordam qo'lini cho'zasiz, chunki u najot izlayapti. Muruvvat ko'rsatishni siz o'z zimmangizga olasiz.

Yana bir g'aroyib manzaraga duch keldingiz. „Tilni qanday o'rgansa bo'ladi?“, degan g'ayrimantiqiy savolni daf'atan beradiganlar uchrab qoladi. Ko'rinib turibdiki, so'rovchi muayyan tilni o'rganish yo'llarini surishtirmoqda. Uning gapidan biron yangi (uning uchun) tilni o'rganishga o'zi yoki yaqin kishisi kirishmoqchi, shekilli. Ona tilini emas, o'zga tilni, deb tushunsak bo'lar. Biroq kim o'rganadi, degan jumboqni yechish kerak. Agar o'zi bo'lsa, bilamizki, uning yoshi falonda. Taxminan yoshroq odam o'rganmoqchi. Qaysi tilni va kim o'rganadi, degan gaplar hal bo'ldi, deylik. „O'zga til“ — bu ikkinchi til yoki uchinchi bo'lishi mumkin (to'rtinchi bo'lmasligiga ishonchimiz komil, chunki ona tili, ikkinchi til va chet tilning uchalasini bilsa, u munozarabop savol bermagan bo'lar edi): u kishi ona tilini biladi, qo'shnisi, bir yurtda yashovchi odam tilini so'rayotgandir (mas. 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan O'zbekistonning Davlat tili haqidagi qonuni munosabati bilan o'zbek tilini bilishni avval lozim ko'rmagan, boshqa yerdan kelgan, hozirda yurtdoshimiz endi uni o'rganmoqchidir). Faraz qilaylik, u kishi ona tili va ikkinchi tilni biladi, unday holda chet til haqida so'z yuritayotgan ekan.

Falanchining falon til o'rganishi borasidagi maslahat so'roviga javob berish uchun quyidagilarni aniqlash so'zsis kerak bo'ladi: birinchidan, nimani o'rganadi — tilni, ikkinchidan, qaysi tilni — ona tili, ikkinchi/chet tilni, uchinchidan, qaysi ona tili /ikkinchi/ chet tilni — o'zbek/rus tilini, ingliz/ ispan/nemis/fransuz tilini yoki xorijiy sharq tilini. Aytaylik, ingliz tilini qanday o'rgansa bo'ladi, deb so'rabdi. Masalaning bir tomoni ozgina yorishganday. „Qorong'i“ joylarini aniqlashda davom etamiz.

„O‘rgansa“ deyilganda, kim nazarda tutilyapti? Ko‘rdingizmi, savol savol tug‘diryapti. O‘zi o‘rgansa (demak, 60 yoshlik kishi ingliz tilini bilishga majbur bo‘lib qoldi) — xotirasi sustlashgan, biroq tafakkuri esa yetilgan bu yoshdagi shaxsni hisobga oladigan chet til o‘rgatish metodikasi ishlangan emas. Agar bolasi haqida g‘amxo‘rlik qilayotgan bo‘lsa (aytaylik, u talaba), oliy o‘quv yurtida chet til o‘qitish metodikasi bir-muncha tadqiq etilgan, u haqda maslahat bera olamiz. Ikkinchi masala ravshanlashgandek bo‘ladi: talaba ingliz tilini qanday o‘rgansa bo‘ladi, deb so‘ragandir. Masalaning yana xiraroq joyi qolyapti: talaba chet til oliy o‘quv yurti/fakultetida o‘qimoqdami yoki tildan mutaxassislik bermaydigan o‘quv yurtida tahsil ko‘radimi? (Yoki yoshini bildikku, uning o‘qishi, ishlashini aniqlay olmadik). Xullas, xiralik uch „xona“ga ega bo‘lyapti: talaba/talaba emas, tilchi talaba/tilchi bo‘lmaydigan talaba, o‘quv yurtida ingliz tili o‘rganadi/o‘zi mustaqil o‘rganadi. Ko‘ribsizki, uchala xonaning har birida ikkitadan „xiralik“, yana bir tanlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Aytaylik, so‘ragan kishining yana bir farzandi bor ekan, u hech yerda ishlamas/o‘qimas ekan: 18 yoshli yigitcha ingliz tilini mustaqil o‘rganmoqchi ekan. Maslahat beramiz: inglizchani tez o‘rgatadigan kurslar ochilgan (tafsiloti qo‘shib qo‘yiladi).

Qisqasi, to‘rtta masala oydinlashdi: birinchisi — ingliz tilini chet til maqomida o‘rganmoqchi, ikkinchisi o‘rganuvchi 20 yoshlarda, uchinchisi — bir kishi oliy o‘quv yurti dasturiga binoan va boshqasi intensiv (jadallashtirilgan) kursda o‘qish niyatida, to‘rtinchisi — har ikkala chet til o‘rganishni istovchi (albatta, faraziy tarzda) ikkinchi tilni, ya‘ni o‘zbek tilini bilmas ekan (O‘zbek tilini mahalliy davlat tili sifatida tan olib o‘rganganda edi, uning til tajribasi boyigan va navbatdagi tilni o‘rganishi osonlashgan bo‘lar edi).

Mana shu notamsiliy lavhadan ma‘lum bo‘ldiki, chet tilni o‘rganish/o‘rgatish borasida gap yuritilganda, asosan, to‘rtta ta‘limiy tushunchani e‘tiborga olmoq lozim: 1) chet tilni o‘rganishdan maqsad; 2) chet til o‘rganish sharoiti (qaysi o‘quv yurtida va qay muhitda o‘rganyapti); 3) chet tilni o‘rganish mazmuni (og‘zaki/yozma, ilmiy/hayotiy mavzular); 4) chet tilni o‘rganish yo‘llari, ya‘ni metod va prinsiplar (ixtisos sifatida, gaplashish maqsadida, o‘qib axborot olish niyatida).

To'rt muammo — qayerda (sharoit), nima uchun (maqsad), nimani (mazmun) va qanday qilib (metod) o'rgatamiz, degan savollarga javoblar yig'indisi o'qitish metodikasini vujudga keltiradi (shu o'rinda „Chet til o'qitish metodikasi“ni shakllantiradi).

Xullas, ta'lim sharoiti, maqsadi, mazmuni va metodi tushunchalari yordamida chet tilni turli o'quv yurtlarida o'rgatishni qiyosan tahlil etamiz.

O'qitish metodikasi yaxlit tizim bo'lib, uning asosiy tushunchalari (maqsad, mazmun, metod, sharoit) ni tahlil va tasnif qilish oqibatida turli o'quv yurtlarida chet til o'qitishining mushtarak va tafovutli jihatlarini bilib olamiz.

Metodikalarning o'xshash va farqli unsurlarini ochib berish „qiyosiy metodika“ ilmini o'rganish masalalaridir.

„Qiyosiy metodika“ tushunchasiga doir

Chet til ta'limida deyarli istifoda qilinmaydigan terminlardan „qiyosiy metodika“ni ko'rsatish mumkin¹. Ushbu kitobning I bobida umumiy va xususiy metodika tushunchalari bayon etilgan. Ilmiy manbalarda „Maxsus metodika“ termini ham uchraydi², lekin uning qiyosiy metodikaga daxli yo'q; uch tillilik sharoitida chet til o'qitish, chet til o'rgatishda texnikaviy va notexnikaviy vositalardan foydalanish, tabiiy nutq muhitida chet til o'rgatish kabilarni tekshiradi.

„Qiyosiy metodika“ yaratish zarurligini quyidagicha dalillash mumkin: birinchidan, chet til turli o'quv yurtlarida o'rganiladi, ular uchun xususiy metodikalar yaratilgan, kuzatishlar ko'rsatishicha, o'qitishda keskin farqlar mavjud; ikkinchidan, o'qitish dasturlari talablarini taqqoslaganda, biror o'quv yurti dasturi ikkinchisiga to'la mos tushmaydi; uchinchidan, fanlarda qiyosiy sohalar tadqiq qilinadi, mas. qiyosiy

¹ Ba'zi mualliflarda „сравнительная методика“ termini uchraydi, uni „qardosh o'lkalarda chet til o'qitish regional metodikasi“ ma'nosida qo'llashadi, mas. *М. В. Ляховицкий*. Методика преподавания иностранных языков. — М.: Высшая школа, 1981. — 14-бет; Hatto „республиканская методика“ tushunchasi ham uchraydi. Qarang: Методика преподавания иностранных языков в Узбекистане (библиографический указатель). Часть II / Сост. *Х. С. Саматов*. — Самарканд: СамГУ, 1989. — 3-бет.

² *М. В. Ляховицкий*. Ko'rsatilgan asar. — 14-бет.

pedagogika, qiyosiy tilshunoslik va h.k.; to'rtinchidan, chet til oliy o'quv yurti/fakulteti muallimlari xususiy metodikani biladilar, ular maktab metodikasidan ancha yiroq turadilar, qiyosiy metodik ma'lumotga muhtojdirlar; beshinchidan, chet til ixtisosidagi talabalar o'zlari tahsil olayotgan o'quv yurti muallimlari metodikasini kuzatadilar, ularda tegishli stereotip (fikran tamg'alanish) hosil bo'ladi, maktab metodikasi (o'zlari oldin chet til o'qigan, endi metodikadan nazariy kurs tinglagan va maktab amaliyotida ilk tajriba orttirgan) talabalarda yana boshqacha iz qoldiradi, natijada metodik interferensiya kelib chiqadi.

Xullas, o'quv-tarbiya jarayonida talabaga xalaqit beradigan metodik interferensiya (chalkashlik)ni bartaraf etishga xizmat qiladigan va, qolaversa, maktab/oliy o'quv yurti metodikalari-ning nozik tafovutlarini ilg'ashga yordam beradigan qandaydir o'zgacha ilmiy ko'rsatmalar majmuyiga ehtiyoj seziladi. Uni qondirishga „qiyosiy metodika“ fani ma'lumotlari ko'maklashishi mumkin.

„Qiyosiy metodika“ terminini batafsil izohlash kerak bo'ladi. O'rta maktab misolida metodik tushunchalarni o'rganib chiqdik, ya'ni yakkayu-yagona sharoitni tahlil qildik, xolos. Boshqa muhitlarda bu metodik tushunchalarning turlicha tovlanishlarini payqash uchun mazkur sharoitlarni sanab o'tishga to'g'ri keladi.

Chet til metodikasida „sharoit“ termini qamrovi qayerda, kimlarni, qancha vaqt o'qitish haqidagi ma'lumotlardan tashkil topadi.

Qayerda, degan savolga shunday javob berish mumkin: 1) muayyan o'quv yurti (bolalar bog'chasi/maktab/akademik litsey/kasb-hunar kolleji/oliy o'quv yurti)da chet til o'qitish; 2) chet til nutq muhiti bor/yo'q yerda o'rgatish; 3) intensiv (qisqa muddatli jadallashtirilgan) va ekstensiv (vaqt e'tibori bilan cho'zilgan) ta'lim.

Kimlarni o'qitish savoliga mana bunday javob qaytariladi: 1) falon (10—17, 17—22, 20—30...) yoshlilarni o'rgatish; 2) chet tildan avval faqat ona tilini yoki ona tili va ikkinchi tilni egallaganlar (monolingv — yaktil, bilingv — zullisonayn)ga, ya'ni boy/kam til tajribasi sohiblariga chet til o'qitish.

Qancha vaqt deganda, o'quv rejasidagi haftalik va yillik mashg'ulotlar miqdori (dars soatlari) nazarda tutiladi.

Demak, „ta’lim sharoiti“ tushunchasi umumiy tarzda tahlildan o’tdi. Mana endi ushbu sharoitlar mavjud o’quv yurtlari tizimini ko’z oldimizga keltirishimiz kerak. Ular rasmiy tilda „xalq ta’limi sistemasi“ termini bilan yuritiladi (ushbu bobning 1-§ida alohida mavzu sifatida muhokama qilinadi).

Turli o’quv yurtlarida chet til o’rgatish ma’lumotnomasini „Chet tillar qiyosiy metodikasi“ nomi bilan atay boshladik¹. Masalaning boshqa tomoni ham mavjud, ya’ni „chet til“ — o’quv rejasidagi predmetlardan biri. Barcha predmetlarni o’qitish „Ta’limshunoslik“ fanida tadqiq, qilinadi (Ta’limshunoslik esa gumanitar fanlar sirasiga kiradi). O’quv predmetlari ichida o’ziga xos bir guruhi borki, uni tillar tashkil qiladi. Ona tili, ikkinchi til va chet til uchallasini o’qitish haqidagi fanni „Tillar ta’limshunosligi“ deyish ma’qul (3-§ ga qarang).

Aytilganlarni qisqacha yakunlab, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: 1. Chet tillarni o’qitishning umumiy metodikasi mavjud. Mas. chet tillarni o’qitish umumiy metodikasi o’rta umumta’lim maktabi², o’rta maxsus o’quv yurtlari³ uchun ishlab chiqilgan. 2. Chet tillarni o’qitish xususiy metodikasi teran ishlangan. Mas., rus maktablarida ingliz⁴, nemis⁵, fransuz⁶ tili o’qitish yoki rus auditoriyasida nemis⁷, ingliz tili⁸

¹ *J. J. Jalolov*. Ingliz tili o’qitish qiyosiy metodikasi (magistratura uchun dastur). — Toshkent: TDP, 2006. — 12-bet.

² *Общая методика обучения иностранным языкам в средней школе.* / Под ред. *А. А. Миролюбова, И. В. Рахманова, В. С. Цетлин.* — М.: Просвещение, 1967.

³ *Общая методика преподавания иностранных языков в средних специальных учебных заведениях.* / Под ред. *А. А. Миролюбова и А. В. Парахиной.* — М.: Высшая школа, 1978.

⁴ *Г. В. Рогова.* Методика обучения английскому языку (на англ. яз.). — Л.: Просвещение, 1975.

⁵ *С. Ф. Шатилов.* Методика обучения немецкому языку в средней школе. — Л.: Просвещение, 1977.

⁶ *Л. С. Андреевская-Левенстерн.* Методика преподавания французского языка в средней школе. — М.: Просвещение, 1983.

⁷ *Обучение иностранному языку как специальности (для институтов и фак. иностр. яз.): Учеб. пособие.* — *Бородулина М. К., Карлин А. Л., Лурье А. С., Минина Н. М.* — 2-е изд., испр. — М.: Высшая школа, 1982.

⁸ *И. М. Берман.* Методика обучения английскому языку в неязыковом вузе. — М.: Высшая школа, 1970.

o'qitish xususiy metodikalari. 3. Hanuzgacha chet tillardan qiyosiy metodikaga oid qo'llanma yoki nufuzli ilmiy maqola e'lon qilingan emas. To'g'ri, ayrim mualliflar asarlarida bevosita bo'lmasa-da, ushbu muammoga tegishli ma'lumotlar ahyon-ahyonda ko'zga chalinib qoladi¹.

Turli sharoitda chet til o'qitishga bag'ishlangan metodik adabiyotlarda tarqoq bo'lsa-da, muhim ilmiy fikrlar bayon etilgan. Jumladan, kechki (sirtqi) maktab o'quvchilarini², katta yoshlilarni³, bog'cha bolalarini⁴ o'qitish, qisqa muddatli mashg'ulotlar⁵, sakkiz yillik maktabda chet tilni o'qimaganlarga yuqori sinflarda o'rgatishga⁶ doir metodik qo'llanmalar chop etilgan.

Qiyosiy metodika ikki ma'noni ifodalaydi (ma'lumki, termin aslida bir ma'noli bo'lishi kerak):

1. Turli o'quv yurtlarida chet til o'qitish.

2. Til ta'limshunosligi, ya'ni ona tili, ikkinchi til va chet tilni yoki o'zga (ikkinchi va chet) tillarini o'qitish.

Ikkala metodik tushunchaning farqiga yetish maqsadida chet tilni turli o'quv yurtlarida o'qitishni „Chet til o'qitish qiyosiy metodikasi“ va uch maqomdagi tillarni (ona/ikkinchi/chet tilni) o'qitishni esa „Tillar ta'limshunosligi“ (Lingvodidaktika) deb nomlash ma'qul.

¹ Mas. *И. А. Зимняя*. Психология обучения неродному языку. — М.: Русский язык, 1989. — 15—16-betlar; *К. И. Крупник*. Обучение иностранным языкам на начальном и продвинутых этапах в различных типах учебных заведений: Текст лекций (ротапринт). — М.: МГПИИЯ, 1980 va boshqalar.

² *Ж. Л. Витлин*. Книга для учителя к учебнику немецкого языка для 9—11 классов вечерней (сменной) и заочной школы. 3-е изд., дораб. — М.: Просвещение, 1987; *А. А. Слободчиков*. Книга для учителя к учебнику английского языка для IX—XI классов вечерней (сменной) школы. — М.: Просвещение, 1978.

³ *Ж. Л. Витлин*. Обучение взрослых иностранному языку (Вопросы теории и практики). — М.: Педагогика, 1978.

⁴ *Н. В. Азурава, С. И. Гвоздецкая*. Английский язык в детском саду. — М.: Госиздат, 1963.

⁵ Проблемы краткосрочного обучения русскому языку иностранцев: Сб. статей. / Под ред. *О. П. Рассудовой*. — М.: Русский язык, 1977.

⁶ *Г. В. Рогова*. Книга для учителя к учебнику „Английский язык за два года“. 4-е изд. — М.: Просвещение, 1989.

1-§. Turli o'quv yurtlarida chet til ta'limi tasnifi

Til ta'limi tushunchasini izchil tahlil qiladigan bo'lsak, mantiqshunoslikdagi jins-tur munosabati „elagi“dan o'tkazishga to'g'ri keladi.

Chet til o'qitish til ta'limi tarkibiga kiradi, u esa, o'z navbatida, ta'limga kiradi, ta'lim gumanitar fanlar sirasidan joy oladi va h.k.

„Chet til ta'limining tarkibiy qismlarini ajratganimizda o'rta oliy va boshqa ta'lim darajalarini ko'ramiz. Birgina o'rta ta'limda esa o'rta umumiy, o'rta maxsus ta'lim mavjud. Ta'lim muassasalarining tizimi keng tarmoqli bo'lib, ularning har birida chet til o'ziga xos o'qitiladi, ya'ni ularning xususiy chet til o'qitish metodikalari joriy etiladi. Ma'lumki, xususiy metodikalar bir-biridan farq qiladi.

Ta'lim muassasalari. Ta'lim bilan mashg'ul barcha muassasalarni sanab o'tamiz: maktabgacha tarbiya — bog'cha, yasli; o'rta maktab — o'rta umumiy, o'rta maxsus (chuqur bilim beradigan va jismoniy/aqliy kamchiligi bor bolalar maktablari), o'rta maxsus bilim yurtlari (akademik litsey, kasb-hunar kollejlari), oliy o'quv yurtlari — nolisoniy (texnika, tibbiy, pedagogik, iqtisodiy va b.), lisoniy — filologik (chet tillar instituti, fakulteti/bo'limi) va h.k. Oliy ma'lumotli fuqaro o'qishni ilmiy va o'quv muassasalari qoshidagi aspiranturada (kunduzgi statsionar bo'limda va mustaqil tadqiqotchi sifatida) davom ettirishi mumkin.

Sanab o'tilgan ma'rifiy tashkilotlarda, bog'chadan tortib aspiranturagacha, chet til o'rganish rejalashtirilgan. Biroq ularda chet til o'qitish sohasidagi mushtaraklikdan ko'ra tafovutlar ko'proqdir, ya'ni har birining dasturiy talablari, jumladan ta'lim maqsadi, mazmuni, metodi turlichadir. (Ularni quyiroqda ko'rib chiqamiz.)

Chet til mutaxassislik yoki umumta'lim o'quv predmeti maqomida majburiy kurs qilib o'qitiladi: 1) chet til muallimlik o'quv yurtlari/fakultetida va dorulfunun roman-german va sharq tillari fakultetlarida chet til mutaxassisi yetishib chiqadi, bir qator fakultet (bo'lim)larda chet tildan ikkinchi (qo'shimcha) mutaxassislik beriladi; 2) umumiy ta'lim o'quv predmetlari qatorida o'rgatiladigan muassasalar — ommaviy maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, o'rta maxsus/oliy o'quv yurti, aspirantura.

O'quv predmetidan chuqurlashtirilgan dastur bilan ishlaydigan, ayrim predmetlarni (adabiyot, tarix, geografiyani) o'rganilayotgan chet tilda o'qitadigan maxsus maktablar yoki sinflar turlari ham faoliyat ko'rsatadi.

Chet tilni ixtiyoriy o'qitadigan muassasalardan ayrim maxsus kurslarni eslatib o'tish mumkin.

Chet til o'qitilmaydigan muassasalar ham bor: maxsus (aqliy jihatdan zaif bolalar o'qiydigan) maktablar.

Ulardan tashqari o'qitish kurslari tashkil etilib, ularda turli muddat va xilma-xil dastur bilan chet tilni amaliy egalashadi (odatda ular pullik bo'ladi).

Nomlari keltirilgan ta'lim muassasalarida chet til o'qitish qiyosiy metodikasi ta'lim maqsadi, mazmuni, metodini solishtirish orqali ta'rif-tavsif qilinadi.

Chet til o'qitish maqsadlari tasnifi. Tillar o'qitishda ta'limiy maqsadlar tipologiyasi (tasnifi) masalasi ko'tarilgan emas, chunki qiyosiy-metodik muammolar qo'yilmagan. Maqsad tipologiyasi o'ta chalkash va ayni chog'da dolzarb ilmiy-metodik hodisadir.

Chet til o'rganishdan ko'zlanadigan maqsadlar nomlanishi (III bobga qarang) ma'lum: amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi. Ushbu metodik terminlar deyarli barcha o'quv yurtlari metodikasida qo'llanadi.

To'rtala maqsad o'rta va oliy ma'lumot beradigan o'quv yurtlari dasturida uchraydi. Chet tillarni kasb sifatida tanlagan talabalar uchun qo'shimcha kasbiy (professional) maqsad ham qo'yiladi. Lekin mohiyat-e'tibori bilan muayyan o'quv yurti talabasi uchun maqsadlar har xil talqin etiladi. Amaliy maqsadni olib ko'raylik. Umumiy ma'nosiga ko'ra chet tildan amalda hayot va mehnat faoliyatida foydalanish nazarda tutiladi. O'rganish mavzuyi va undan foydalanish ko'lami jiddiy farq qiladi. Misollar keltiramiz. (O'rta umumta'lim maktabi haqida III bobda batafsil yoritilgan).

Maxsus chet til maktabida to'rtala nutq faoliyati turi (gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuv) amaliy maqsad maqomini olgan¹.

¹ Н. Д. Чебурашкин. Технический перевод в школе: Учебник для учащихся IX—X классов школ с преподаванием ряда предметов на английском языке / Под ред. Б. Е. Белицкого — 5-е изд. — М.: Просвещение, 1987.

Ikkinchi misol. O'rtta maxsus bilim yurtida umum-ta'lim maktabining o'quv dasturi davomi sifatida to'rt maqsadli chet til ta'limi joriy etilgan¹. Unda sohaviy matnlar (mas. texnikaga oid, qishloq xo'jaligi mavzusida) o'qish qo'shimcha qilinadi.

Maxsus adabiyot o'qish kollej va litseylarda vazifa qilib qo'yilgan. Talabalar chet tildagi matnni o'qib tarjima qiladilar.

Yana bir misol. Oliy o'quv yurtlari (chet til ixtisosidan tashqari) dasturi bo'yicha talaba amaliy egallayotgan chet tilni birinchi navbatda umumta'limiy axborot olish uchun sohaviy adabiyot o'qish deb biladi, qolaversa, gapirish, tinglash va yozuv bilan ham shug'ullanadi. Aspirantlar uchun chet tilni amaliy o'rganish — tor ilmiy sohadagi xorijiy manbalarni o'qish demakdir.

Chet til o'quv yurti/fakulteti/bo'limi dasturiy talablari boshqalardan jiddiy farqlanadi. To'rt asosiy nutq faoliyati turidan tashqari qo'shimcha nutq faoliyati turlarini ham talaba o'rganib chiqadi. Ularning nomlarini (oltita) keltiramiz: chet tildan ona tiliga og'zaki/yozma va ona tilidan chet tilga og'zaki/yozma o'girish, o'zga shaxs nutqini aytib turganda yozish, grafik matnning mazmunini boshqalarga yetkazish uchun ovoz chiqarib o'qish. Demak, chet tildan mutaxassislik olayotgan talabaning amaliy o'rganishi olti nutq faoliyati turlarini qamrab oladi. Amaliy maqsad termini bir (yoki ikki) nutq faoliyati turidan (mas. bog'chada yoki qisqa muddatli intensiv kurslarda — gaplashish, xolos) to o'ntagacha miqdorni o'z ichiga olishi mumkin.

Chet til ixtisosini egallamoqchi bo'lgan talaba o'rganilmish til bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradi.

- I. Nutq faoliyati turlari (4 ta asosiy va 6 ta qo'shimcha).
- II. Til materiali (leksika, grammatika, talaffuz).
- III. Lingvistik bilimlar (leksikologiya, grammatika, fonetika).
- IV. Chet til o'qitish metodikasi (nazariy kurs, amaliy mashg'ulot va maktab, litsey va kollejda dars berish — pedagogik amaliyot)².

¹ Ф. М. Рожкова. Вопросы обучения иностранным языкам в средних профессионально-технических училищах. — М.: Высшая школа, 1984. — 9—12-бетлар.

² Педагогическая практика студентов IV—V курсов очного отделения: Методическая разработка для групповых руководителей. / Отв. ред. Д. Д. Джалалов. — Т.: ТГИИЯ, 1977.

Ushbu sohalarning har biri yana kichik guruhlardan tashkil topadi. Grammatikani olaylik: amaliy, normativ, nazariy va qiyosiy grammatikalar. Chet til oliy o'quv yurti muallimi esa bularga qo'shimcha tilshunoslik o'quv predmetlarini o'qitish metodikasini ham egallashi shart¹. Daromadga yarasha buromad deyilganidek, bu o'quv muassasasi sharoitiga qarab mazkur amaliy va nazariy kurslarni mukammal o'rganishga imkon yaratiladi.

Chet til ta'limi maqsadlari tasnifi yuzasidan o'tkazilgan muxtasar tahlildan ko'rinadiki, yagona nom bilan atalmish o'quv yurti sharoitining nozik tomonlarini, albatta, nazarga olish kerak.

O'quv yurtida chet til o'qitish maqsadiga asoslanib, uning sharoitiga mos keladigan ta'lim mazmuni shakllantiriladi.

Chet til o'qitish mazmuni tasnifi. Ta'lim sharoitiga binoan maqsadlarning aniqlanishi bilan tanishib chiqdik. Maqsadlar esa, yuqorida e'tirof qilinganidek, o'z navbatida, ta'lim mazmunining shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Mazmunning tarkibiy qismlari (nutq mavzulari, nutq malakalari va til materiallari) barcha o'quv yurtlari uchun birday taalluqli. Ushbu qismlardagi miqdor va sifat ko'rsatkichlari maqsadga bo'ysundiriladi va o'quv yurti turiga, ya'ni sharoitga qarab farq qiladi.

Nutq malakalariga qo'yiladigan talablar, avval ta'kidlanganidek, o'quv dasturiga sinfma-sinf yoki kursma-kurs yozib qo'yiladi. Nutq faoliyati turlari bo'yicha miqdor va sifat ko'rsatkichlari belgilanadi. O'quvchining nutqiy mashqi tabiiy muloqotga yaqin borishi, bo'lg'usi chet til muallimining nutqini tili o'rganilayotgan xalq nutqi (ingl. *native speaker*) darajasida bo'lishi talab etiladi va h.k.

Nutqiy mavzular o'rta maktab sharoitida („Tevarak-atrof“, „Mamlakatimiz“, „Tili o'rganilayotgan mamlakat“ haqida) chegaralangan bo'lsa, oliy o'quv yurti talabalari mazkur mavzulardan tashqari o'z sohasida ham muloqot yurita olishi kerak. Chet til oliy o'quv yurtida esa nutqiy mavzular chegaralangan emas, chunki talabalar erkin muloqot olib borishni, hatto og'zaki/yozma tarjima qila olishni o'rganadilar.

Malaka va mavzularga qo'yiladigan dasturiy talablar ta'lim mazmunining uchinchi qismi bo'lmish til materialini belgi-

¹ Программа курса „Методики обучения иностранным языкам. / Под ред. Д. Д. Джалалова. (ротапринт). — Т.: ТГПИИЯ, 1982. — 17-бет.

lovchi omildir. Til materiali masalasi metodikada durust ishlab chiqilgan sohadir. Har qaysi o'qitish kursi (maktab, kollej, oliy o'quv yurti) uchun alohida-alohida leksik, grammatik, talaffuz, imlo, so'z yasash minimumlari tanlanadi, tanlash mezonlari umumiy bo'lsa-da, shakllangan til minimumlari miqdoran, binobarin, sifat jihatidan ham, bir-biridan ancha farq qiladi. Misollarga murojaat qilamiz. O'rta umumta'lim maktablarida bir ming atrofida chet til leksik birligi aktiv o'zlashtirilsa, chet til oliy o'quv yurti talabasi besh mingdan kam bo'lmagan aktiv leksikani bilishi talab etiladi. O'quvchilar tilni amaliy o'rgansalar, talabalar ham amaliy, ham nazariy tahsil olishadi, ya'ni nutq malakalarini egallash va tilshunoslikni bilishlari kerak. Yoki boshqa misol. O'quvchi maktab grammatikasini aktiv va passiv shakllarda egallasa, talaba ularni to'lig'icha aktiv o'rganib oladi. Roman-german tillari fakulteti talabasi esa ustiga-ustak tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyotshunosligidan ham filologik ma'lumot oladi.

Xullas, chet til o'quv yurti/fakultetida ta'lim mazmuniga to'rtinchi tarkibiy qism kelib qo'shiladi: til haqidagi bilimlar, bu degani, amaliy, normativ va sof nazariy ma'lumotlar kiritiladi.

Turli o'quv yurtlarining chet til o'qitish mazmunidagi uch tarkibiy qism nomlanishda mushtarak bo'lishiga qaramay, ya'ni yuzaki o'xshashligidan qat'i nazar (chet til o'quv yurtida to'rtinchisi mavjud), ularning ichki mohiyati keskin farqlanadi. Ta'lim mazmunini o'zlashtirish jarayoni ham har bir sharoitda o'ziga xos kechadi (bu haqda „o'qitish metodlari tasnifi“ mavzusida ma'lumot beriladi).

Chet til o'qitish metodlari tasnifi. Ta'limshunoslik fanida o'qitish metodlarining tipologiyasiga katta e'tibor berilgan. Unda metodlar umuman tahlil va tasnif qilinadi. Bu yerda esa faqat chet tildagi metodlar va, undan tashqari, turli o'quv yurtlarida ushbu metodlarning qo'llanilishi muhokamaga qo'yilyapti (Metodlar V bobda mufassal ko'rib chiqilgan).

Barcha ta'lim metodlari tahlilini keltirishga hojat yo'q, chunki ularning chet tilda amal qiladiganlarigina ahamiyat kasb etadi. Binobarin, joriy metodlarga to'xtalamiz. Maktab ta'limida yaqingacha chet til o'qitishning zamonaviylashtirilgan ongli-qiyosiy metodi amalda bo'ldi. Qiyoslash darsgacha, muallim va metodist (darslik muallifi) tomonidan bajarilsa, chet til oliy o'quv yurti/fakultetida darsda ham bu ish turiga ruxsat beriladi. Buning sababi talaba chet tilni kasbiy maqsadda

o'rganayotganligidadir. O'rta maktabda matnni boshdan-oxir og'zaki tarjima qilishga ruxsat etilmaydi. Oliy o'quv yurtida esa tarjima o'qitish metodining zaruriy mezonlaridan biri sanaladi.

Demak, ongli-qiyosiy metodlardan bo'lmish „til tajribasini hisobga olish“ga binoan chet til oliy o'quv yurtida „ikki yoki uch til birliklarini qiyoslash“dan foydalaniladi.

Qisqa muddatli kurslarda esa audiovizual metoddan ham bahuzur foydalanish mumkin. Maktabda uning ayrim elementlari qo'llanadi, xolos.

Metod va uni tashkil etadigan mezonlarning o'ziga hos qo'llanilishi o'quv sharoitiga bog'liq. Biroq o'quv yurtlarida alohida-alohida metodlar bilan dars o'tiladi, degan gap emas, bu. Metodik usullar ham turlicha talqin etiladi. Sharoit taqozosi bilan, mas. o'rta maktabda xor bilan ishlash (ayniqsa, boshlang'ich bosqichda) katta o'rin egallaydi, oliy o'quv yurtida esa ko'proq yolg'iz ishlashga o'rgatiladi.

Ongli-qiyosiy metodning amaliy va nazariy ta'lim uchun turli ko'rinishlarini qo'llash ushbu metodning tasnifi zamirida yotadigan birlamchi o'lchov hisoblanadi (Metodikada istifoda qilinadigan aktiv metod, ongliy-amaliy metod va kommunikativ metod tushunchalari hozircha oxirigacha hal qilinmagan munozarali ilmiy muammoligicha qolmoqda).

So'nggi yillarda umumjahon lingvodidaktikasida chet til o'qitishning zamonaviy metodik yondashuvi bo'lmish tilni kommunikativ o'rgatishga binoan chet til o'rgatish keng joriy etilmoqda.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. Chet til o'qitish qiyosiy metodikasi haqida o'rganganlaringizni aytib bering.

2. Ta'lim sharoiti, maqsadi, mazmuni, metodi tushunchalarini mustaqil tahlil qiling.

3. Turli o'quv yurtlarida chet til o'qitishning mushtarak va tafovutli tomonlarini ochib bering.

4. Metodik tushunchalar tasnifini muhokama qiling.

2-§. Tillar ta'limshunosligi

Metodikaga kiritilgan ushbu termini o'tgan asrning 60-yillarida „Lingvodidaktika“ nomi bilan qo'llay boshlashgan. Uning ma'no qamrovi har xil talqinlarga sabab bo'lib keladi.

Bir tilni o'qitishni ham ayrimlar „Lingvodidaktika“ deb atayveradilar, zotan ushbu soha tekshiradigan obyekt birdan ortiq tillarni o'rgatish, boshqacha qilib aytganda, lisoniy ta'lim hisoblanadi.

Hozirgi zamon til o'qitish ilmidagi ma'lumotlarni umumlashtirib, quyidagi ta'rifni tavsiya etish mumkin: „Tillar ta'limshunosligi“ deganda, yakzabonlik, ikkitillilik — zullisonaynlik va ko'p tillilik — poliglossiyani o'rgatishga doir ilmiy soha tushuniladi. Mazkur ta'rifga ko'ra, qaysi tilni, qay sharoitda, nima maqsadda va qanday qilib o'rgatilishidan qat'i nazar, til ta'limi qonuniyatlarida umumiylik ko'zga tashlanadi. Mas. gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuv malakalarini hosil qilish tilning maqomiga bog'liq emas. Ushbu nutq faoliyati turlari ona tili, ikkinchi va chet tilda o'rganilishi hammaga ayon. Til o'quv predmetlari bo'yicha nutq malakasi va til nazariyasi o'rganiladi. Amaliy malaka va nazariy bilim nisbati nuqtayi nazaridan uchulasi bir-biridan keskin farqlanadi. Ona tilida qoida maqomidagi mavhumotlar tilshunoslik asoslari sifatida beriladi. Ikkinchi tilda (o'zbek yoki rus tilida) nutqqa ahamiyat nazariyaga qaraganda kuchaytirilganday, biroq qoidalar ham kam emas. Chet tilda qoida (mavhumot) amaliy tusda bo'lib, ular malakani shakllantirishga yo'llovchi ko'rsatmalardir. Qoida va nutq mutanosibligi jihatidan ona tili ta'limi chuqur ilmiy-metodik izlanishlarni kutadi.

Har xil maqomdagi tillarni o'qitishda mavjud mushtaraklik va tafovutlarning muxtasar tahliliga o'tamiz.

Ona tilini o'qitish. Ma'lumki, inson bolasi ona tilini hayotiy muhitda o'rganadi, bu degani — oilada, yasli/bog'chada, bevosita odamlar orasida til o'rganib boradi. Ona tili vositasida bolaning tafakkuri shakllanadi, tevarak-atrofnii ona tili yordamida idrok etib tushunadi va boshqalar bilan muloqotga kiradi.

Ona tili termini ma'nosidan ayonki, u ona o'rgatadigan tildir. Rus tilida esa родной язык — o'z tili, tug'ishganlar tili, qarindoshlar tili. Ona tili va „родной язык“ birikmalarining ikkalasi ham inglizcha so'zma-so'z beriladi: *mother tongue*, *native language*. Boshqa tillarda „ona tili“ga to'g'ri keladi: isp. *lengua materna*; nem. *Muttersprache*; fr. *langue maternelle*; tojikcha *zaboni modari* va h.k.

Ona tilini taqlidan o'rganish chog'ida o'xshashlik (analogiya) amal qiladi, o'quvchi qanday idrok etsa, shunday o'zlashtiradi va bilganiga monand gaplar (va so'zlar) yaratadi. Shuning uchun

yosh bola nutqida ko'plab g'aroyib voqealar ro'y beradi, til qoidasiga yot bo'lgan hosilalarning guvohi bo'lamiz. (K. I. Chukovskiy o'zining „От двух до пяти“ kitobida yuzlab misollar keltirgan. Mas. папа курит папиросы, мама — мамиросы). Ko'chma ma'nolarni fahmlamaslik ham bola nutqining bir tomonlamaligidan dalolat beradi. Ona tilidan tajriba ortgan sari nuqsonlar kamayib, xatolar yo'qolib boradi.

Til qaysi maqomda o'rganilmasin, ushbu tilda nutq xato va nuqsonsiz bo'lmaydi. Ularning sabablarini ona tili va boshqa tillar o'qitish metodikasi o'rganadi. Ayrim misollar keltiramiz. Maktabgacha yoshdagi bola ona tilini notashkiliy tarzda, ya'ni maxsus metodik boshqarilmagan muhitda egallaydi. Eshitganni aytib o'rganadi. Shunga ko'ra ayrim nuqsonlar bola nutqida turg'un bo'lib qoladi. So'zni o'z o'rnida ishlatmaslik, jumlani noto'g'ri tuzish, fikrni izchil bayon etmaslik singari o'nlab-yuzlab xatolar sodir etiladi. Agar qo'shnisi yoki mahallasidagi o'zga kimsalarning tilidan xabardor bo'lsa (yohud radio/televizordan eshitib), undan ona tiliga „kurmak“ yanglig' begona so'zlarni qo'shib yuborish tez-tez uchraydigan nuqsondir.

Keyingi yillarda ba'zi o'zbekcha so'zlar nafaqat bolalar tilida, shuningdek, kattalar nutqida, hatto axborot vositalarida ham nojo'ya ishlatilyapti: zo'r (chiroyli, yaxshi, yoqadi kabi ma'nolari bosib ketdi), gap yo'q (xo'p bo'ladi, tushundim, ma'qul singarilar o'rnida qo'llanyapti) va h.k.

O'zbek tili „yovvoyi o'tlar“ orasida qolganligi yaqqol ko'rinib turibdi. Davlat tilini qo'riqlash chora-tadbirlariga ehtiyoj sezila boshlandi.

Ona tilining nisbatan sofliqi so'zlashuvchilar ichki dunyosiga ijobiy ta'sir o'tkazishi shubhasiz. Binobarin, maktabda/oilada/jamoatchilik orasida o'z tilida erkin, ravon, mazmunan tiniq fikr bayon qilish axloq-odobning uzviy qismi deb qaralmog'i kerak. Madaniyat tildan boshlanadi va til vositasida uning yuqori/past saviyasi ta'minlanadi.

Ona tili normasining buzilish sabablarini izlab, o'rganib, tahlil qilib, uni tuzatish, tozalash har bir til egasining muqaddas burchidir. Ba'zi kamchiliklarni sanab o'tamiz: 1) o'zga tilda yoppasiga gaplashish muhitining salbiy ta'sir qilganligi; 2) bolalar va ota-onalarning o'z tilida badiiy adabiyot mutolaa qilmasliklari; 3) nutq madaniyatiga oid tadqiqotlardan fuqarolar ommasi bexabar ekanligi; 4) kitob o'qish o'rniga kino/

televideniye/video/radio eshitish/ko'rish; 5) ma'naviy hayotning moddiy turmushdan ham orqada qolishi; 6) bolalar uchun namuna nutqi yetishmasligi; 7) ona tili o'qitish metodik masalalarining yetarli ishlab chiqilmaganligi va h.k.

Muddao — ona tili ta'limini takomillashtirish va nutq madaniyatini oshirish hamda o'qitish metodikasini puxta ishlab chiqishga jamoatchilik e'tiborini jalb qilishdir.

Ona tili ta'limi maqsadi, mazmuni va metodlari masalasini chuqur tadqiq qilish shu kunning talabidir. Ma'lumki, o'qitish jarayonida nutq o'stirishdan ko'ra u tilga oid bilimlarni singdirishga ko'proq kuch va vaqt sarflanadi. Tilshunoslik ma'lumotlari, afsuski, birlamchi qilib qo'yiladi. Aksincha, nutq ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga e'tibor kuchaytirilsa, manfaatdorlik ancha-muncha oshar edi.

Ona tili o'quv dasturida nutq malakalari va nazariy bilimlarning oraliq (sinfma-sinf) va yakuniy ko'rsatkichlari aniq berilishi kerak.

Ta'lim mazmuniga kelsak, sinfma-sinf va kursma-kurs qancha miqdorda so'z boyligi bo'lishi tegishli raqamlarda o'z ifodasini topishi va keng qo'llanadigan so'zlar ro'yxati ilmiy asoslanishi kerak (ma'lumki, tillarda bir ming atrofida aktiv leksik qatlam mavjud, o'zbek tili materialida I. A. Kissen¹ 1227 aktiv leksemani tanlab, ro'yxatini chop ettirgan).

Ona tili grammatik tuzilishidagi nutq namunalari ro'yxati o'quvchilar xizmatida bo'lishi, grammatik va boshqa qoidalar (nazariy bilim) minimumi sinchkovlik bilan ro'yxatdan o'tkazilishi zamon talabiga aylandi. Bularning hammasi o'quv standarti tarkibidan o'rin oladi.

Arabcha, forsha, yevropacha „kelgindi“ so'zlarning metodik mezonlarga ko'ra maktab lug'at minimumiga tanlab kiritilishi va etimologiyasi yuqori sinflarda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Sinonimiya, antonimiya, omonimiya, polisemiya, frazeologiya kabi ko'plab leksikologik va leksikografik hodisalar ona tilida amaliy, so'ngra nazariy egallanishi yaxshi natijalar beradi.

¹ *И. А. Киссен. Словарь наиболее употребительных слов современного узбекского литературного языка. — Т.: O'qituvchi, 1972. — 4-bet.*

Metodikada qilinadigan tadbirlar talay. Ular ona tilining chin muxlislari tomonidan ishlab chiqiladigan vaqt keldi.

Bir soʻz bilan aytganda, tillar taʼlimshunosligi nuqtayi nazaridan ona tili oʻqitishga sistemali yondashib, uni yuqori pogʻonalarga koʻtarish mumkin.

Ona tilini meʼyorida egallagan shaxsgina ikkinchi va boshqa (ona tili boʻlmagan) tillarni osonlikcha oʻrgana oladi, aks holda, oʻzga tillar qiyinchilik tugʻdirishi muqarrar.

Ikkinchi tilni oʻqitish. Ona tilidan keyingi navbatda oʻrganiladigan har qanday til ikkinchi deb hisoblanadi. Uni oʻrganishda oʻziga xos qiyinchiliklar paydo boʻladi. Oldin oʻzlashtirilgan birinchi tilning yordam berishi (transpozitsiya) yoki xalaqit berishi (interferensiya) hollari yuz beradi. Boshqa tomondan qaralsa, ikkinchi til, oʻz navbatida, ona tiliga, oʻrganiladigan chet tilga ham salbiy yoki ijobiy taʼsir qiladi. Binobarin, ikkinchi tilni oʻqitish metodikasi ham ona tiliga oʻxshab, umumiy nazariya boʻlmish til taʼlimshunosligi „gʻalviridan“ oʻtkazilishi maqsadga muvofiq.

Til taʼlimshunosligidagi oʻqitish sharoiti, maqsadi, mazmuni, metodi tushunchalari orqali ikkinchi til metodikasi tahlil qilinadi.

Sharoit xususida faqat ijobiy gap boʻlishi mumkin: tabiiy muhitda qoʻshni, mahalladosh, „domdosh“, hamyurt tili oʻrganiladi. Uning tilini oʻrganish doʻstlik ramzidir. Axborot vositalari ikkinchi til muxlislari xizmatiga doim tayyor. Tashkiliy ravishda ikkinchi til oʻrganish ham bir qancha qulayliklarga ega til oʻrganish uchun sharoit mavjud va maqsadlar aniq. Taʼlim maqsadlariga koʻra nutq malakalari va tilshunoslik maʼlumotlari oʻrganiladi. Turli oʻquv yurtlari manfaatlarini koʻzlab ushbu tilda dasturiy talablar qoidalashtirilgan. Ona tili va chet til oʻqitish maqsadlari bilan ikkinchi tildagi maqsadlarni muvofiqlashtirish tavsiya etiladi.

Ikkinchi til boʻyicha taʼlim mazmuni muammosi xalqaro miqyosda mukammal ishlab chiqilgan. Binobarin, ikkinchi til oʻrganishni baynalmilal maqomda muvofiqlashtirish mumkin. Ikkinchi til oʻrganish ona tiliga yaqinroq turadi. Taʼlim mazmunini sinfdan/maktabdan tashqarida oʻzlashtirish imkoniyati mavjud. Beixtiyor oʻrganiladigan material tez va puxta oʻzlashtirib olinishi tabiiy. Ushbu tilni egallash shu darajaga yetishi

mumkinki, hatto u ikkinchi ona tili (albatta, bu shartli termin, chunki ona bitta bo'ladi, ikkinchisi o'gay bo'lishi mumkin) degan nomni ham qozona oladi.

Xorijda va mamlakatimizda nashr etilgan til o'qitishga oid metodik adabiyotlar orasida ikkinchi tilni o'rgatishga doirlari nihoyatda ko'p. Demak, masalalarning ishlanganligi, sharoit muhayyoligi va xohish-istak borligi ushbu tilni egallashga keng yo'l ochadi.

Ikkinchi tilni o'rganish ona tilidagi tajribaga suyanishni taqozo etadi va, o'z navbatida, chet tilni egallashga o'zining tegishli ta'sirini o'tkazadi.

Chet tilni o'qitish. Til ta'limida chet til o'quv predmeti filtr („dahana“) vazifasini o'taydi. Oldin o'rganilgan tillarning materiallari va nutq malakalari chet til „suzg'ichi“dan o'tadi. Undan o'tadigan va o'tmay qolib ketadigan til hodisalari ikki toifaga ajraladi: o'tgani — yordam bergani, o'tmagani — xalaqit beruvchisi. Mazkur mulohazaning mohiyati shundan iboratki, chet til muallimi o'quvchilar til tajribasini hisobga olib ish ko'radi (til tajribasi ona tili, ikkinchi til va chet tildan to'plangan nutqiy, til materialiga oid va til qoidalariga doir uch tarkibli metodik tushunchadir).

Til ta'limshunosligi muammolarini yechishda chet til o'qitish umumiy, xususiy va qiyosiy metodikalarining o'rni sezilarli bo'ladi. Chunki chet til o'qitish jarayoni avval to'plangan til tajribasining ko'zgidir. Unda ro'yobga chiqqan maqsadlar, o'zlashtirilgan mazmun va qo'llangan o'qitish metodi ham yaqqol sezilib turadi.

Chet til o'qitishning qiyosiy metodikasi ma'lumotlari va til ta'limshunosligi (ona tili, ikkinchi til bo'yicha) axborotlari qo'shib, yaxlit „Tillar ta'limshunosligi“ vujudga keladi.

Til ta'limi jamlama tasnifi. Tillarni o'qitish metodikalarining barchasini umumlashtiruvchi „Tillar ta'limshunosligi“, fani yutuqlari yig'indisini jamlovchi tipologiya (tasnif) nomi bilan ataymiz. Ona tili, ikkinchi til, chet til o'qitishning har qaysisida qiyosiy metodika ishlab chiqilishi „Tillar ta'limshunosligi“da jamlovchi tasnif yaratishga imkon beradi.

Jamlama tasnifning buniyod etilishiga, yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim sharoiti, maqsadi, mazmuni, metodi kabi ilmiy-metodik hodisalar „suzg'ichi“dan til ta'limini o'tkazish

yo'li bilan erishiladi. Boshqacha aytganda, „Tillar ta'lim-shunosligi“ning negizi sharoit, maqsad, mazmun, metod nomli tushunchalardan tashkil topadi. Ilk ilmiy tajriba yakuni sifatida til ta'limi yuzasidan jamlama tasnif o'tkazamiz.

Ta'lim sharoitiga ko'ra, tillarni o'qitish quyidagicha tasniflanishi mumkin: o'quv yoki tabiiy sharoitda til o'rganish — o'quv sharoitida — sun'iy muhitda chet til o'rganiladi; tabiiy sharoitda ona tili va qisman ikkinchi til egallanadi — qisman sun'iy sharoitda (darsda) ikkinchi til o'qitiladi. Demak, „sharoit“ tushunchasi uchala tilda uch xil ma'no kasb etadi. Ularning turlicha bo'lishi ta'lim metodikalarini o'ziga xos tarzda yaratishga ta'sir etadi. Sun'iy/tabiiy muhitda tillarni o'rgatishdagi tafovutlar jamlama tasnifning birinchi ko'rinishidir: chet til bo'yicha faqat sun'iy muhit va ikkinchi tilda sun'iy (darsda) va tabiiy (jamoatchilik orasida) hamda ona tilida chin muhit muhayyoligi aniqlanadi.

Ta'lim maqsadlariga binoan tillarni o'rganish quyidagicha tasniflanadi: amaliy maqsadda til o'rganish (ona tili, ikkinchi til, chet til); ta'limiy maqsadda til o'rganish (uchala til); tarbiyaviy maqsadda til o'rganish (uchala til); rivojlantiruvchi maqsadda til o'rganish (uchala til); kasbiy (professional) maqsadda til o'rganish (til o'quv yurti/fakulteti/bo'limida uchala tildan mutaxassislik oladilar).

Ushbu beshta turdan faqat bittasi (beshinchisi) yagona o'quv yurti uchun tegishli maqsad hisoblanadi. Qolganlarida ham (1—4 da) mushtaraklik nomiga xolos, aslan bir talay ichki tafovutlar mavjud.

Maqsadlardagi tafovut shundan iboratki, ona tili tafakkur shakllanadigan til, hayotiy tajriba ona tili orqali to'planib boradi, ona tili yetakchi amaliy muloqot vositasi, shuningdek, u barcha o'quv predmetlarini o'rganish vositasidir.

Maqsadlar tasnifida yuzaki o'xshashlik va mohiyatida tubdan farq borligi ta'lim jarayonini tashkil etishda alohida e'tiborga molik.

O'qitish maqsadlarining ro'yobga chiqish „maydoni“ sharoit bo'lsa, ularni amalga oshirish „quroli“ mazmun sanaladi.

Ta'lim mazmuniga qarab tillarni o'qitish quyidagicha tasniflanadi:

I. Nutq mavzulari bo'yicha: 1) nutq mavzulari chegaralanadi (chet tilda, qisman ikkinchi tilda, faqat til o'quv

yurti/fakulteti/bo'limi bundan mustasno); 2) mavzular maktabniki va erkin (ona tilida, qisman ikkinchi tilda, chet til oliy o'quv yurtida); 3) maktab mavzulari hayotiy va oliy o'quv yurtida sohaviy; 4) mavzu qisman chegaralangan va sohaviy (kasb-hunar kollejida); 5) mavzu tor sohaviy bo'ladi (aspiranturada).

II. Nutq malakalarini hosil qilish: 1) chet tilda — gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuv va qo'shimcha turlar (chet til mutaxassisligini beradi); asosiy va qo'shimcha turlar o'quv maqsadida (chet tilda qator predmetlar o'qitiladigan maxsus maktabda); gapirish, tinglab tushunish, o'qish o'quv maqsadida (umumiy ta'lim maktabida, o'rta maxsus kasb-hunar kollejida); o'qish, tinglab tushunish, gapirish (oliy o'quv yurtlarida); o'qish (aspiranturada); o'ta chegaralangan gapirish va tinglab tushunish (bolalar bog'chasida); 2) ikkinchi tilda — to'rtala nutq faoliyati turi (barcha o'quv muassasalarida); gapirish va tinglab tushunish (bolalar bog'chalarida, ayrim oilalarda); to'rtta asosiy va oltita qo'shimcha nutq faoliyati turlari (mutaxassislik beradi); 3) ona tilida — asosiy nutq faoliyati turlari (barcha o'quv muassasalarida).

III. Til materialini o'rgatish (nutq malakalarini o'stirish maqsadida): 1) chet tilda — leksika, grammatika, talaffuz ko'nikmalari (barcha o'quv muassasalarida); ko'nikma va bilim (nazariya) beriladi (mutaxassislik sifatida); 2) ikkinchi tilda — ko'nikma va bilim beriladi (barcha o'quv muassasalarida); faqat ko'nikma shakllantiriladi, hech qanday nazariya berilmaydi (bolalar bog'chalarida, ayrim oilalarda); ko'nikma va chuqur nazariy bilim o'rgatiladi (mutaxassislik beradigan o'quv yurtlarida); 3) ona tilida — bilim va ko'nikma beriladi (maktabda); ko'nikma beriladi (oilada, bog'chada); ko'nikma va sodda bilim (oliy o'quv yurtlarida); ko'nikma va nazariy bilim beriladi (mutaxassislik tarzida).

O'qitish metodlarida esa umumiylikdan ko'ra farq qiladigan sifatlar ko'proqdir. Mas. ona tili o'zga til bilan qiyoslanmay o'rgatiladi, ikkinchi tilda esa, aksincha — ona tiliga tayanib ish boshlanadi. Chet tildan mashq tuzishda ona tili va ikkinchi til xususiyatlari hisobga olinadi, biroq darsda ularni qiyoslash maqsadga muvofiq emas. Nazariy bilimlarni qo'llash xususida juda katta tafovutlar kuzatiladi. Qiyosiy metodikalarda ular to'g'risida batafsil ma'lumotlar to'planadi.

Til ta'limi yuzasidan jamlama tasnif yaratish ilk qadam bo'lganligi va fanda deyarli tadqiq etilmaganligi tufayli ushbu umumlashma o'ta mukammallik kasb eta olmasligi tabiiy holdir. Mazkur dolzarb ilmiy muammoni hal qilish yo'lida ko'p sonli maqola, qo'llanma, darslik va monografiyalar yuzaga kelishi muqarrar.

O'quv-metodik topshiriqlar

1. „Tillar ta'limshunosligi“ fani (sohasi) haqida o'rgangan mulohaza-fikrlaringizni bayon eting.

2. Ona tili, ikkinchi til, chet til o'qitish metodikalarini tillar ta'limshunosligi nuqtayi nazaridan tahlil qiling.

3. Til ta'limi jamlama tasnifining mohiyatini tushuntirib bering.

4. Turli o'quv yurtlarida tillarni o'qitishga bo'lgan o'z munosabatingizni bildiring.

SUMMARY

The textbook has been written for senior students of language institutes/universities, foreign-language (FL) teachers and for all who are interested in effective FL teaching.

Present situation in one of the Newly Independent States — the Republic of Uzbekistan requires new responses from teachers because of contemporary diplomatic and political relations, economic and cultural ties of the state.

Under existing conditions the younger generation of FL teachers need modern methodological ideas to enrich their experience. It is intended that this book will be used in achieving the mentioned object.

We hope that in the materials the courteous reader will be able to know the complete course of methods of FL teaching. Students' studies in the methodology should give them an understanding of useful information on specific problems of teaching/learning FL in Uzbek groups/classes.

The author made an attempt within his powers to take advantage of methodological achievements on the world scale.

The matter embraces a wide range of questions of the teaching programme, i.e. there are nineteen chapters joined in three parts namely: (1) theoretical foundations of FL teaching, (2) teaching language (speech) activity and (3) organization of teaching procedure. Besides, one can find the Introduction and Terminological Dictionary:


The Introduction includes such vital problems as: requirements of the programme (syllabus); speech activity (listening, speaking, reading, writing); techniques of reading, writing, pronouncing; language (linguistic) rules; the system of exercises.

To master FL speech activity is an arduous task and complicated process, especially in an artificial environment. Under limited conditions to teach a FL is a difficult duty for teachers and therefore calls for special knowledge. At

Uzbek schools the final practical aim is to read FL texts, at a linguistic university all speech activities are taught, etc.

The system of teaching exercises is usually being worked out under the following appellation: language and speech exercises (linguistic approach — prof. I. V. Rakhmanov and his followers), motivation, operation and information exercises (psycholinguistic approach — prof. W. A. Buchbinder, 1975) and forming, developing and perfecting (habits and skills) exercises (didactic approach — prof. J. J. Jalolov, 1972):


Table 1



To learn a FL means to fulfil exercises and, finally, in order to store and enrich one's language experience.


Uzbek pupils'/students' language experience (its synonyms in certain sense are language proficiency and language competence) consists of the mother tongue, second language and FL parts. They together include linguistic (knowledge), language (habits) and speech (skills) components.

The first (theoretical) part of the book includes the following topics: Methods of teaching is a pedagogical science; Psychological, didactic and linguistic bases of the methods of FL teaching; Aims of FL teaching; Content of FL teaching; Methods and principles of FL teaching; Means of FL teaching; History of of FL teaching methodology.



The second part of the book contains language habits (vocabulary, grammar, pronunciation), speech skills (listening, speaking, reading, writing) and control of habits and skills chapters.

Table 3




Teaching FL material depends on pupils'/students' native (also second) language experience. It should be selected, distributed, classified and introduced on the basis of special scientific principles. On the other hand, the content of teaching language material differs from school to school, i.e. it depends on the language experience and specific grading phases.

The third (organizational) part of the book consists of four chapters: Lesson and Planning; Stages of Teaching FL; Extra-Curricular Work; Teaching FL in Different Educational Institutions.

At the present time in the Republic pupils/students study on a mass scale European (English, French, German, Spanish, Russian) and Oriental (Arabic, Chinese, Hindi, Persian, Turkish, Urdu) languages as FL. The Uzbek language is being studied as a second language (within Uzbekistan) and a FL (in foreign countries) by non-Uzbeks.

Illustrative examples in the book were given from the above mentioned target languages.

Table 4



ADABIYOTLAR

Андреевская-Левенстерн Л. С. Методика преподавания французского языка в средней школе: Учебное пособие. — М.: Просвещение, 1973. — 222 с.

Бабинская П. К., Леонтьева Т. П., Андреасян И. М., Будько А. Ф., Чепак И. В. Практический курс методики преподавания иностранных языков: Учебное пособие... — Изд. 5-е. — М.: Тетра Системс, 2009. — 288 с.

Бим И. Л. Методика обучения иностранным языкам как наука и теория школьного учебника. — М.: Русский язык, 1977. — 288 с.

Верещагина И. Н., Рогова Г. В., Языкова Н. В. Методика обучения английскому языку: 1—4 классы: Пособие для учителей и студентов педагогических вузов. — 4-е изд. — М.: Просвещение, 2008. — 223 с.

Гальскова Н. Д. Современная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителя. — 2-е изд. — М.: АРКТИ, 2003. — 162 с.

Демьяненко М. Я., Лазаренко К. А., Кислая С. В. Основы общей методики обучения иностранным языкам: Теоретический курс/Под ред. М. Я. Демьяненко — Киев: Вища школа, 1976. — 282 с.

Джалалов Д. Д. Проблемы содержания обучения иностранному языку. — Т.: Фан, 1987. — 110 с.

Zaripova R. A. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma, — Т.: O'qituvchi, 1986. — 184 b.

Зимняя И. А. Психология обучения иностранным языкам в школе. — М.: Просвещение, 1991. — 222 с.

Иностранные языки в школе: Metodik jurnal.

Ляховицкий М. В. Методика преподавания иностранных языков: Учебное пособие. — М.: Высшая школа, 1981. — 159 с.

Методика обучения иностранным языкам в средней школе: Учебник/Гез Н. И., Ляховицкий М. В., Миролубов А. А., Фолломкина С. К., Шатилов С. Ф. — М.: Высшая школа, 1982. — 373 с.

Мильтруд Р. П. Методика преподавания английского языка (на англ.яз.) — М.: Дрофа, 2007. — 256 с.

Обучение иностранному языку как специальности: Учебное пособие/Бородулина М. К., Карлии А. Л., Лурье А. С., Минина Н. М. — 2-е изд., испр. — М.: Высшая школа, 1982. — 255 с.

Общая методика обучения иностранным языкам в средней школе/Под ред. А. А. Миролюбова, И. В. Рахманова, В. С. Цетлин. — М.: Просвещение, 1967. — 504 с.

Общая методика преподавания иностранных языков в средних специальных учебных заведениях: Учебное пособие/Под ред. А. А. Миролюбова и А. В. Парахиной. — М.: Высшая школа, 1978. — 264 с.

Основные направления в методике преподавания иностранных языков в XIX—XX вв./Под ред. И. В. Рахманова. (Авт. / И. В. Рахманов, Н. И. Гез, И. А. Зимняя, С. К. Фоломкина, А. Я. Шайкевич). — М.: Педагогика, 1972. — 320 с.

Пассов Е. И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. — М.: Русский язык, 1989. — 276 с.

Первые шаги в профессию учителя иностранного языка: Пособие для студентов/Саломатов К. И., Волкова Т. А., Добро-нравова Т. Н. и др. — Л.: Просвещение, 1979. — 175 с.

Практикум по методике преподавания иностранных языков: Учебное пособие/Саломатов К. И., Шатилов С. Ф., Андреева И. П. и др. — М.: Просвещение, 1985. — 224 с.

Рогова Г. В. Методика обучения английскому языку (на англ. яз.): Учебное пособие. — Л.: Просвещение, 1975. — 312 с.

Рогова Г. В., Рабинович Ф. М., Сахарова Т. Е. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. — М.: Просвещение, 1991. — 287 с.

Saydaliyev S. S. Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar: O'qituvchi va talabalar uchun qo'llanma. Namangan: NamDU, 2004. — 238 b.

Теоретические основы методики обучения иностранным языкам в средней школе/Под ред. А. Д. Климентенко, А. А. Миролюбова. — М.: Педагогика.

Шатилов С. Ф. Методика обучения немецкому языку в средней школе: Учебное пособие. — Л.: Просвещение, 1977.

O'rtta maktabda chet til o'qitish kursi/Prof. V. S. Setlin tahriri ostida (ruscha 1971-yil nashridan tarjima. Tarjimonlar: Soatov S., Aliyev G.). — T. O'qituvchi, 1978. — 223 b.

O'rtta maktabda chet tillar o'qitish metodikasi kursi bo'yicha pedagogika institutlari programmasi/Mas'ul muharrir J. J. Jalolov. — T.: Maorif ministrligi, 1977. — 29 b.

O'rtta maktab chet tillar (ingliz, ispan, nemis, fransuz tillari) darsliklari (1970-yildan hozirgacha nashr qilinganlari).

Языкова Н. В. Сборник задач и заданий по методике преподавания иностранных языков: Пособие для студентов. — Л.: Просвещение, 1977. — 265 с.

Hoshimov O', Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. — T.: Sharq, 2003. — 302 b.

TERMINLAR IZOHLI ASSOTSIATIV LUG'ATI

Kirish

Chet til ta'limida istifoda qilinadigan sohaviy terminlarning o'zbekcha izohli va assotsiativ lug'ati o'ta muhim qo'llanma sanaladi. Mazkur mikrolug'at bu borada ilk qadamdir. Mavjud metodik lug'atlar ruscha-chet tilcha terminlar tarjimasidan iborat (*G. B. Rogova. Методика обучения английскому языку. — Л.: Просвещение, 1975. — 289—305-betlar — Russian-English List of Words and Expressions Used in Foreign Language Teaching; Л. С. Андреевская-Левенстерн. Методика преподавания французского языка в средней школе. — М.: Просвещение, 1983. — 212—219-betlar — Словарь наиболее употребительных терминов методики (на русском и французском языках); Н. И. Гез, ..., С. Сайдалиев и др. Русско-немецко-узбекский словарь методических терминов (Metodik terminlarning ruscha-nemischa-o'zbekcha lug'ati). — Т.: O'qituvchi, 1989. А. Н. Шукин. Лингводидактический энциклопедический словарь: более 2000 единиц. — М.: Астрель: АСТ: Хранитель, 2007.*

Metodik tushunchalar majmuyini bilish fanning ushbu tarmog'ida chop etilgan ilmiy adabiyotni mutaxassislar tomonidan bir xilda tushunish imkonini yaratadi. Turli mualliflar asarlaridagi ilmiy matnlarning mazmunan uyg'unlashuvini ham ta'minlaydi. Izoh terminning talqinini tartibga soladi. Muayyan termini idrok etganda (o'qiganda yoki tinglaganda) ongda qo'zg'aladigan unga bog'liq tushunchalar tizimi assotsiativ lug'at tarzida beriladi.

Ushbu mikrolug'at tuzilishida o'ziga xos leksikografik tartib shakllandi: (1) yolg'iz so'z lug'at birligi qilib olindi; (2) tushunilishi qiyin terminlarga talababop ta'rif ilova qilindi; (3) fikran bog'lanishli (assotsiativ) lug'at birliklari (ma'nodosh, teskari ma'noli so'zlar, erkin birikmalar) to'plandi.

Leksikografik belgilarning tavsifi quyidagilardan iborat: terminning etimologiyasi o'rta qavsda keltirildi (turkiy o'zak-

lar bundan mustasno); ikki nuqta ushbu lugʻat maqolasida faqat birikma termin mavqeyini olishiga ishora; yakka soʻz maqomidagi barcha terminlar ajratib koʻrsatildi. Yevropacha ikki va koʻp boʻgʻinli terminlarda urgʻu belgisi qoʻyildi, maʼnodosh (sinonim) terminlar orasiga kichkina chiziqcha qoʻyildi; teskari maʼnoli (antonim) terminlar oʻrtasida „va“ bogʻlovchisi yozildi; termin bilan fikran bogʻlanadigan soʻzlar hosil qiladigan birikmalar bir-biridan toʻgʻri chiziq bilan ajratildi; maqola huquqidagi termin oʻrnida ~ (tilda) qoʻyildi.

Lugʻat soʻzligi

Abstraksiya, abstrakt, adabiy, adaptatsiya, affiksatsiya, ajnabiy, akademik, akt, aktiv, aktivizatsiya, aktivlashtirish, aktualizatsiya, akustik, algoritm, algoritmizatsiya, algoritmlash, almashtiriladigan, aloqa, alternativ, amal, amalda, amaliy, amaliyot, analitik, analiz, analizator, analogiya, AND, andaza, anketa, annotatsiya, antisipatsiya, antonim, anʼanaviy, appersepsiya, aplikatsiya, approksimatsiya, aqliy, aralash, artikulatsion, artikulatsiya, asil, asl, asliyat, asosiy, aspirant, assotsiativ, assotsiatsiya, atmosfera, audio, audioaxborot, audiolingval, audiomaterial, audiomatn, audiomashq, audiotekst, audiovizual, audioxabar, audirovaniye, auditiv, auditor, auditoriya, autentik, avtomatizatsiya, avtomatizm, avtomatlashuv, avtor, axborot, ashyoviy.

Badiha, baho, baholash, bajarish, ball, bartaraf, baza, BDK, bildirish, bilet, bilim, bilingv, bilish, birlashma, birlik, bosqich, bosqichma-bosqich, bogʻlanish, bogʻlanishli, bogʻlanma, boshqarish.

Dars, darslik, darsxona, dastur, dasturiy, dasturulamal, davomat, deavtomatizatsiya, deduksiya, deduktiv, definitsiya, demonstratsiya, deprefiksatsiya, desemantizatsiya, desuffiksatsiya, dezaffiksatsiya, diafilm, dialog, dialogik, dialogizatsiya, diapozitiv, diaproyektor, didaktik, didaktika, differensiatsiya, diktant, diktovka, dinamik, diqqat, diskurs, diskursiv, diskursivlik, distributsiya, diplom, doimiy, drill.

Egallash, ekspozitsiya, eksperiment, eksperimental, eksperimentator, eksprom(p)t, ekstensiv, eksteriorizatsiya, ekstrovert, emotsiya, epistolar, etalon, etap, eshitish, eshituv, eʼtimod.

Fahmlash, fakultativ, faol, faoliyat, faollik, fasilitatsiya, fikr, fikran, fikrlash, fikrsiz, film, filologik, flanelegraf, fonema, fonetik, fonetika, fono, fonograf, fonogramma, fonomaterial, forma, formal, frontal, funksional, funksiya.

Gapirish, gipnopediya, gnoseologiya, grafema, grafik, grafika, grammatik, grammatika, grupp, gruppaviy, guruh, guruhiy, guruhlash, guruhnutq, GO'M.

Harakat, harf, harfiy, hissiyot, hodisa, husnixat.

Idrok, ijobiy, ijodiy, ijro, ilgarilash, ilmiy, imitativ, imitatsiya, imlo, immanent, improvizatsiya, imtihon, individual, individualizatsiya, induktiv, informativ, informatsion, informatsiya, initsiativ, inssenirovka, integratsiya, intellektual, intensifikatsiya, intensiv, interaktiv, interferension, interferensiya, interiorizatsiya, internatsional, internatsionalizm, intervyu, intonatsiya, introvert, intuitiv, intuitsiya, iqtidor, ixtisos, iyerarxiya, izchillik, ish.

Jadal, jadallashtirish, jadval, jarayon, javob, jonli, juftnutq.

Kabinet, kalendar, kalligrafiya, kartochka, kasbiy, ketma-ketlik, kibernetika, kinestetik, kinodars, kinoekran, kinofilm, kinokadr, kinolavha, kinomashq, kinoparcha, kirish, kitob, klassifikatsiya, klishe, kod, kognizant, kommunikant, kommunikativ, kommunikatsiya, komparativ, kompetensiya, kompleks, komplekt, komponent, kompressiya, kompyuter, konkurs, konsentr, konsentrik, konsepsiya, konspekt, konsultatsiya, kontakt, kontekst, kontekstual, kontrastiv, kontrol, korrektiv, korrelatsiya, kriteriy, kumulativ, kurs, kursor, kuzatish, kuzatuv, kvalitatif, kvantitativ, ko'nikma, ko'rgazmalilik, ko'rik, ko'rsatma, ko'rsatuv, ko'ruv.

Laboratoriya, latent, leksik, leksika, leksiya, lingafon, lingvistika, lingvodidaktik, lingvodidaktika, lingvofiziologiya, lingvokulturologiya, lingvometodika, lingvopsixologiya, lingvotexnologiya, lisoniy, lokalizatsiya, loyiha, LO'M., lug'at.

Majburiy, makromatn, makrotekst, maktab, malaka, maqsad, material, matn, matnxon, mavhumot, mavzu, mavzudosh, mazmun, mashq, mashg'ulot, ma'naviy, ma'no, ma'nodosh, ma'noviy, metatil, metod, metodik, metodika, metodist, metodologiya, mexanik, mexanizm, mezon, mikromatn, mikrosuhbat, mikrotekst, minimizatsiya, minimum, model, monolingv, monolog, moslashtirish, motiv, motivatsion, motivatsiya, motor, moyillik, muallif, muallim, muammo, muhit,

muhrlanish, muloqot, muomala, multimedia, muqobil, muqoyasa, mustahkamlash, mustaqil, mutolaa, muvoziy, mushohadali, mo'tadil.

Nagruzka, namoyish, namuna, namunaviy, nazariy, nazariya, neytral, neytralizatsiya, niktopediya, normal, novokabular, nutq, nutqharakat, nutqiy.

Obraz, olimpiada, omofon, omograf, omonim, operativ, operatsion, operatsiya, oppozitsion, optimizatsiya, oraliq, orfografiya, original, oriyentir, oson, ovoqli, ovozsiz, og'zaki, ong, ongli, onglilik.

Papka, paradigma, passiv, pauza, pedagogik, pedagogika, persepsiya, perseptiv, plan, planlashtirish, poliglossiya, poliglot, polilog, polisemiya, potensial, pozitsion, praktika, predmet, prefiksatsiya, prezentatsiya, prinsip, produktiv, professional, prognoz, programma, programmalashtirilgan, programmaviy, psixik, psixolingvistika, psixologik, psixologiya.

Qaytarish, qiyin, qiyinchilik, qiyosiy, qiyoslash, qiziqish, qobiliyat, qoida, qolip, qurol, qo'lharakat. qo'llanish, qo'llanma.

Raport, ravon, rag'bat, reaksiya, reaktiv, real, referat, reja, rejalashtirish, repetitor, replika, reproduksiya, reproduktiv, reprodutsent, resipiyent, retrospektiv, retsepsiya, retseptiv, reyting, rezyume, rivojlantirish, rivojlantiruvchi, rol, ruhshunos, ruhshunoslik.

Saboq, salbiy, samaradorlik, sarflash, saviya, savol, semantik, semantika, semantizatsiya, seminar, seriya, sezgi, simultan, sinf, sinonim, sinov, sintagma, sintetik, sintez, sistema, sistemalashtirish, sistemalilik, sistematik, situativ, situatsiya, slayd, SND, sof, sohaviy, spontan, stadiya, standart, stator, stereotip, stimul, stoxastik, strategiya, struktura, student, suffiks, suffiksatsiya, suggestiv, suggestopediya, suhbat, suhbatdosh, sur'at, so'rash, so'roq, so'z, so'zlash, so'zlashuv, so'zlovchi.

Tabaqalash, tadqiqot, tadrijiylik, tadrish, tafakkur, tahlil, tahliliy, tahsil, tajriba, takomillashtiruvchi, takrorlash, taktika, talab, talaba, talaffuz, tamg'alanish, tanishuv, tanlash, taqdimot, taqlid, taqlidan, taqlidiy, taqqoslash, taqribiy, taqsimot, tarbiya, tarbiyalash, tarbiyaviy, tarixiy, tarjima, tarjimali, tarjimasiz, tarqatma, tasavvur, tasnif, tayanish, tayanch, tayyor, tayyorgarlik, tayyorlangan, tayyorlanmagan, tayyorlash, tashkil, tashkiliy, tashkilot, ta'lim, ta'limiy, ta'limshunoslik, ta'rif, ta'sir, teatrlashtirilgan, tekst, tekstual, tekshirish, tekshiruv, tele-

didaktika, televizion, tema, tematik, teskari, test, texnika, texnikaviy, texnologiya, tezlik, til, tilshunos, tilshunoslik, timsol, tipologiya, tipovoy, tinglash, tinglovchi, topqirlik, topshiriq, tovush, traditsion, transkripsiya, transpozitsiya, trenirovka, trening, trilingv, tushunish, tushuntirish, tushuncha, tuzish, TO‘M, to‘xtash.

Umumlashma, umumlashtirish, umumta’limiy, undovchi, uslubiy, uslubiyot, uslubchi, usul, uy.

Varaqa, vazifa, vaziyat, verbal, verbalizatsiya, video, viktorina, vizual, vizualizatsiya, vokabular, vosita.

Xato, xomaki, xorijiy, xorijzabon, xotira, xronometraj.

Yakkanutq, yakuniy, yakzabon, yasalish, yodlash, yondashuv, yordamchi, yozish, yozma, yozuv, yo‘llovchi, yo‘nalganlik, yo‘nalish.

Zaryadka, zachot, zullisonayn.

O‘NV, o‘qilish, o‘qitish, o‘qituvchi, o‘qish, o‘quv, o‘quvchi, o‘rganish, o‘rganuv, o‘rgatish, o‘zlashtirish.

G‘ayrishuuriy.

Shakl, shakldosh, shakliy, shakllantiruvchi, sharoit, shaylik.

Chet (chet til).

LUG'AT

- abstráksiya** [lot. abstractio — uzoqlashish, mavhumlashish] — mavhumot-qoida; grammatik ~-grammatik qoida
- abstrákt** [lot. abstraksiya] — mavhum; ~ tafakkur; ~ tushuncha
- adabiy** [ar.]: ~ talaffuz/til/asar
- adaptátsiya** [lot. adaptatio — moslash, qulaylashtirish] — moslashtirish; ~ qilingan (-moslashtirilgan) matn; metodik ~ (-o'quv predmetni muayyan sharoitga moslab o'rgatish)
- affiksátsiya** [lot. affixus — biriktirilgan] — suffiks, prefiks (-old qo'shimcha), infiks majmuyi; ~ va dezaffiksatsiya *q.*
- ajnabiy** [ar.] — xorijiy *q.* chet *q.*; ~ (-xorijiy, chet) til
- akademik** [yunon. Academeia (mifik qahramon Akadem ismidan)]; ~ soat (45 daqiqaga teng o'quv-dars soati); ~ yoki astronomik (*60 daqiqalik*) soat; ~ grupp (-guruh)
- akt** [lot. acts — xatti-harakat]: kommunikativ ~ (-og'zaki yoki yozma nutq jarayoni; kommunikatsiya *q.* jarayon)
- aktív** [lot. activus — faol, ishchan]: ~ lug'at/leksika/grammatika/minimum/til material; ~ va passiv (*til materialiga taalluqli*)
- aktivizátsiya** [lot. aktiv] — aktivlashtirish *q.* (-jonlantirish, harakatga keltirish)
- aktivlashtirish** [lot.+o'zb.] — kuchaytirish, faollashtirish-aktivizatsiya; faoliyatni/diqqat (-e'tibor)ni ~
- aktualizátsiya** [lot. aktiv] — ishga solish, amalda qo'llash (-o'zlashtirilgan til materialini nutq amaliyotiga tatbiq qilish)
- akustik** [yunon. akustikós — eshitishga oid]: ~ (-tinglashdagi) qiyinchilik; talaffuzda ~, pozitsion, oppozitsion, artikulatsion qiyinchiliklar; nutqning ~ tomoni; ~ appersepsiya *q.* (-eshituv idroki)
- algoritm** [buyuk matematik, astronom Al-Xorazmiy (*780-yil Xivada tug'ilgan, 850-yil Bag'dodda vafot etgan*) nomi lotincha transkripsiyada Algorithmi, Algorismus yoziladi]; til materialining ~i — o'zlashtirish qadami, nutq operatsiyalarini izchil bajarishga oid aniq ko'rsatma); ~ — bu qoida, har qanday qoida ~ emas, chunki qoida umumiy va xususiy (aniq) ko'rsatma shaklida bo'ladi; grammatik ko'nikmalar ~lari; ~ ikki tarkibli bo'lib, tanib olish (*rus. распознающая часть*) hamda topib olish (*rus. разрешающая часть*) qismlaridan iborat
- algoritmizátsiya** [lot. algoritmi] — algoritmlash *q.*

- algoritmlash** [lot. algoritm] — algoritmizatsiya (-qismlarga bo‘lish); o‘quv materialini/o‘quv jarayonini ~
- almashtiriladigan:** tarkibi ~ jadval (*H. Palmer terminida* Substitution table, *rus.* подстано́вочная таблица)
- aloqa** [ar.] — muomala *q.*, munosabat, xabarlashish, bog‘lanish, kommunikatsiya *q.*; nutqiy ~ (-nutq muomalasi, nutqiy kommunikatsiya); nutqiy ~ qilmoq (-kommunikatsiyaga kirmoq); til ~ vositasidir
- alternativ** [lot. alter — ikkitadan bittasi, fr. alternative]: ~ savol (-tanlov so‘rog‘i); ~ test (*nazorat shakli*)
- amal** [ar.]: aqliy ~; leksik/grammatik/nutqiy ~ (-harakat); aqliy ~larni bosqichma-bosqich shakllantirish (*q.* nazariya); ~larni bajarish; ~lar avtomatlashuvi
- amalda** [ar.+o‘zb.]: ~ ishlatish, qo‘llash (*rus.* воспроизведе́ние — esga tushirish — nutq amaliyotida tatbiq qilish, *q.* aktualizatsiya); og‘zaki/yozma/tinglangan/o‘rganilgan materialni ~ qo‘llash
- amaliy** [ar.]: ~ qo‘llanish (*q.* aktualizatsiya); tilni ~ egallash; ~ yondashish/yo‘nalish; ~ mashq/qoida/grammatika/maqsad; ~, ta‘limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, kasbiy maqsadlar; ~ hamda nazariy (*bilimga oid*)
- amaliyot** [ar.]: nutqiy ~; ~ga kiritish (-aktualizatsiya); pedagogik ~ (-pedagogik praktika); ~ (-praktika) bilan nazariya birligi
- analitik** [yunon. analiz] — tahliliy (*tafsilotlarni payqashga oid*) ~ operatsiya; ~ (-ekstensiv, diskursiv, tahliliy) o‘qish; ~ va sintetik o‘qish
- análiz** [yunon. análisis — ajratish, parchalash] — tahlil *q.*, so‘z/fonetik/matn/xatolar/dars ~i (-tahlili); harf-tovush ~i, ~ tovush-harf ~i; ~ va sintez (*tafakkurga oid*); ~ va imitatsiya (*talaffuzga oid*) ~ va sintez metodi; (*ilmiy-tadqiqot metodlaridan*); ~ (-xotiradagi so‘zlardan tanlov) va sintez (-so‘zlarni nutq oqimiga kiritish)
- analizátor** [yunon. analiz]: eshitish/ko‘ruv/qo‘lharakat/nutqharakat ~i; sezgi bilan ~ (*I. P. Pavlov ta‘limoti*)
- analógiya** [yunon. analogia — moslik, o‘xshashlik] — moslik, monandlik, o‘xshashlik, munosiblik; qoida bilan analogiya (*til birligiga oid*)
- an’anaviy** [ar.] — traditsion *q.*, ~ ta‘lim/metod/usul/dars; ~ va zamonaviy (*chet til o‘qitish metodlariga oid*)
- AND** — aralash nutq darsi (*q.* dars)
- andaza** [f-t.] — qolip, mezon, namuna
- ankéta** [fr. enquête — savollar ro‘yxati] — so‘roq varaqasi; ~ o‘tkazish (*ilmiy-tadqiqot metodlaridan*); ~ yordamida so‘rov o‘tkazish
- annotátsiya** [lot. annotatio — mulohaza] — (asar haqida qisqacha ma‘lumot); ~ tuzmoq (-o‘qilgan matn mazmunini qisqa bayon qilmoq)
- antisipátsiya** [lot. anticipatio — oldindan sezish] — harakat natijasini, predmetni, hodisani oldindan sezish (-bilish, payqash) qobiliyati

- (mas. chet til nutqida qo'llanadigan til hodisasini yoki matn mazmunini oldindan bilib olish); ma'no/mazmun/shakl ~si
- antónim** [yunon. ant(i) qarshi; ónyma — nom, ism] — teskari/zid ma'noli til hodisasi (mas. ~ so'zlar); ~, omonim, sinonim
- appersépsiya** [lot. ad — qadar, ... gacha, perceptio — idrok] idrokning avvalgi tajribaga, psixik faoliyatga, individual xususiyatga bog'liqligi (idrok qilinayotgan obyekt (-narsa yoki hodisa) odam tajribasiga qarab fahmlanadi); akustik (-eshituv) ~si
- applikátsiya** [lot. applicatio — ustiga qo'yish] — rasm yopishtirish (*chet til o'qitishda qo'llanadigan metodik vositalardan*), magnit taxtasi yoki flanelegraf (*q.*)ga yopishtiriladigan material
- approksimátsiya** [lot. approxim — yaqinlashapman]: talaffuzda ~ (-chet til talaffuzida taxminiy yaqinlashish); ~lashgan (-taqribiy) talaffuz (*H. Palmer tushunchasi*)
- aqliy** [ar.] — intellektual *q.* ~ amal/operatsiya/mehnat/faoliyat; ~ kamolot; ~ hujum (*ingl. brainstorming*)
- aralash:** ~ metod/dars/mashq; ~ (-omixta) metod (*chet til o'rgatish metodlaridan*); ~ nutq darsi hamda sof nutq darsi (*chet til darsining ikki turi*)
- artikulatsión** [lot. artikulatsiya]: ~ akt (-aytish/talaffuz amali); ~ baza (-talaffuz odati, nutq organlarining ishlash tartibi); ~ qiyinchilik; talaffuzda ~, akustik, oppozitsion, pozitsion qiyinchiliklar
- artikulátsiya** [lot. articulatio < articulare — aniq talaffuz qilmoq] — tovushlarni aytishda nutqiy organlar (a'zolar) ishi; unli va undosh tovush ~si; ~ o'rni/usuli; to'g'ri va noto'g'ri ~
- ashyoviy** [ar.] — narsa (-predmet)ga oid; ~ ko'rgazmalilik *q.*
- asil** [ar.] ~ sof *q.*
- asl** [ar.]: ~iga to'g'ri (-autentik *q.*); ~ nusxa (-original *q.*)
- asliyat** [ar.] — muallif yaratgan nusxa, asli, original; ~ yoki adaptatsiya qilingan (-moslashtirilgan) matn; ~da o'qish
- asosiy** (ar.): ~ vazifa/qism; ~ ma'no/kurs; darsning ~ qismi; ~ va ko'chma ma'no; ~ va korrektiv kurs
- aspiránt** [lot. aspirans (aspirantis) — qo'lga kiritishga intiluvchi] — ilmiy ish tayyorlovchi, oliy o'quv yurtini tugatib tadqiqot bilan shug'ullanuvchi
- assotsiátiv** [lot. assotsiatsiya]: ~ lug'at; ~ nutq (-fikrsiz, stoxastik nutq)
- assotsiátsiya** [lot. associatio — bog'lash, birlashtirish] — fikran bog'lanish (-nutqda idrok etilganni tushuncha bilan bog'lash); muqobil ~ (til birliklarini o'zlashtirishda ularning o'zaro bir-biriga qarshi turishi, g'ov bo'lishi, chalkashlik keltirib chiqarishi); o'xshashlik/yaqinlik/tafovut ~si; ko'ruv/eshituv ~si; mustahkam ~ hosil qilish; o'xshashlik va o'xshamaslik (-tafovut) ~si

- atmosfera** [yunon. atmos — havo+sphaira — shar] — muhit *q.*
- audio...** [lot. audio — eshitaman, tinglayman]: tinglash/eshitish bilan bogʻliq terminlar tarkibiga kiradi (*60-yillar chet til oʻqitish metodikasida isteʼmolga kirib kelgan*)
- audioaxborot** [lot.+ar.] — tinglab tushunish tufayli oʻzlashtiriladigan maʼlumot, audiomatndan olinadigan axborot
- audiolingvál** [lot. audio+lingua til]; ~ metod (*chet til oʻqitish metodlaridan*) ~/ audiovizual *q.* metod
- audiomashq** [lot. audio+ar. mashq] — tinglash mashqi
- audiomatn** [lot. audio+ar. matn] — audiotekst *q.*
- audiomaterial** [lot. audio+lot. material] — tinglab tushunishga moʻljallangan chet til oʻquv materiali
- audiotékst** [lot. audio+tekst] — audiomatn (-tinglab tushunishga moʻljallangan matn) ~ materiali/hajmi/mazmuni/sujeti/leksikasi; ~ni tinglash/tayyorlash/tanlash/tushunish/eshittirish
- audiovizuál** [lot. audio+video] — eshitish hamda koʻrishga oid; ~ vosita (-taʼlimda eshitish va koʻrishga moʻljallangan jihozlar); ~ metod (*chet til oʻqitish metodlaridan*); ~/audiolingval *q.* metod
- audioxabar** [lot. audio+ar. — xabar] — tinglaganda bilib olinadigan yangilik (-maʼlumot)
- audirovaniye** [lot.+rus.] — tinglab tushunish (*nutq faoliyati turlaridan*); ~ (tinglab tushunish), gapirish, oʻqish, yozuv
- auditív** [lot. audio] — tinglashga moʻljallangan; ~ (-eshitiladigan) texnik vosita; ~ mashq/namuna; ~ programma (-dastur)
- audítör** [lot. audio] — tinglovchi (-nutqni tinglovchi shaxs), someʼ (-eshituvchi, tinglovchi)
- auditóriya** [lot. auditorium — tinglash joyi] — darsxona (-leksiya oʻtkaziladigan joy); dars/leksiya tinglovchilar guruhi; oʻzbek ~si (-oʻzbekcha oʻqiydiganlar); ~ mashgʻuloti/ishi/mashqi; ~ va ~dan tashqari mashgʻulot/oʻqish/ish
- autentík** [yunon. authentikós — asliyat] — asliga toʻgʻri, haqiqiy holatga mos, ~ talaffuz (-talaffuz normasi (-meʼyori)ga mos); ~ tekst (-asl nusxaga toʻgʻri keladigan matn)
- avtomatizátsiya** [yunon. automatos — oʻz-oʻzidan harakatga keladigan] — avtomatlashuv (-til birligining nutqda erkin qoʻllanilishi); talaffuzda ~ (-talaffuz koʻnikmasining shakllanuvi)
- avtomatizm** [yunon. avtomatizatsiya] — shakllangan koʻnikma (-ongning bevosita ishtirokisiz bajariladigan harakat (-amal)lar tizimi); nutqiy/grammatik ~
- avtomatlashuv** [yunon. avtomatizatsiya+oʻzb.] — avtomatizatsiya *q.*
- avtor** [lot. au(c)tor — yaratuvchi] — muallif *q.*, tuzuvchi, yaratuvchi
- axborot** [ar.] — informatsiya, maʼlumot, xabar; ~ olish/berish/toʻp-lash/yigʻish/oʻtkazish/eltish; ~ oqimi/manbayi; ilmiy-texnikaviy/

lisoniy/metodik/sohaviy ~ ; yangi/foydali/zarur ~; o'qib/tinglab ~ olish; chet til matni ~ manbayidir; ~ texnologiyasi

badiha [ar.] — eksprom(p)t *q.* (-oldindan tayyorlanmagan), improvizatsiya *q.*

bajarish: vazifani/topshiriqni/mashqni/dasturni/ko'rsatmani ~; uy ishini/yozma ishini ~

baho [f-t.] — bilim, ko'nikma, malakaga qo'yiladigan ball; o'zlashtirish darajasining o'lchovi (*raqam bilan ifodalanadi*); qoniqarli, qoniqarsiz, yaxshi, a'lo, yomon, yuqori ~ ; ~ qo'yish/chiqarish/olish; ~ mezoni (-kriteriyasi); sinov/imtihon/kontrol ish ~si; ~ normasi

baholash [f-t.+o'zb.] — bilim, ko'nikma, malaka darajasini ball bilan o'lchash; dastlabki/doimiy/yakuniy ~; farqlab (-differensiatsiya qilib) ~ ; izohlab ~; o'zlashtirishni/xulqni ~

ball [fr. balle — shar, to'p] — bilim, ko'nikma, malakaga qo'yiladigan bahoni ifodalovchi raqam; besh ~lik baholash sistemasi; yuqori/o'rta/past ~

bartaraf [f-t.+ar.]: ~ etish (-neytralizatsiya *q.*)

bāza [yunon. basis — asos]: artikulatsion *q.* ~ (-talaffuz odati)

BDK — Baynalmilal (-internatsional) do'stlik klubi (-*рус. КИД*)

bildirish — raport; navbatchi ~i (-raporti *q.*)

bilét — imtihon savollari yozilgan varaqa; imtihon ~i ; ~ tuzish/olish/tarqatish/berish; ~ savoli/mazmuni/mavzusi

bilim — shaxsning bilish faoliyati mahsuli (-tasavvur va tushunchalardan iborat ong mazmuni); chet til nutqida leksika, grammatika, talaffuz, o'qilish qoidasi, imloni o'zlashtirish va ularga oid sodda mavhumotni bilish; ~, ko'nikma, malaka; ~ olish/berish; ~ni o'zlashtirish/shakllantirish/baholash/tekshirish; ~ saviyasi/darajasi; sayoz/bo'sh/chuqur/puxta/mustahkam ~; ~ yurti (-o'quv yurti)

bilıngv [lot. bi — ikki+lingua — til] — ikki tilni biluvchi, ikki til egasi, qo'shzabon, zullisonayn, (-ikki tilli); ~ (-ikki tilli), monolingv (-bir til biluvchi), trilingv (-uch tilli), poliglot (-ko'p tilli)

bilish: til ~ (-egallash, o'zlashtirish); ~ nazariyasi (-gniseologiya *q.*, epistemologiya); ~ faoliyati, jarayoni; ~ ga qiziqish/harakat

birlashma: muallimlar metodik ~si; shahar/tuman/maktab metodik ~si; metodik ~ ishi/rejasi/majlisi/qarori

birlik: lisoniy (-til)/nutqiy ~; leksik/lug'at/grammatik/talaffuz ~; kommunikativ ~ ; ma'no ~gi; dialogik ~ (-undovchi va javob replika (jumla)lari yig'indisi)

bosqich — davr, etap, stadiya, palla; dars ~lari (-boshlanishi, asosiy qismi, yakuni); o'qitish/o'rgatish/o'rganish ~chi; ta'lim ~lari (-chet til o'qitishning ibtidoiy (boshlang'ich, dastlabki), o'rta, yuqori ~lari); chet tilni o'zlashtirish ~lari (-tanishish (-taqdimot), mashq qilish, qo'llanish); chet til o'qitish metodikasi tarixi ~lari

bogʻlanish: fikran ~ (-assotsiatsiya *q.*)

bogʻlanishli: ~ nutq/matn (-tekst)

bogʻlanma: ~ nutq (-bogʻlanishli nutq)

boshqarish: faoliyatni/jarayonni/oʻzlashtirishni/guruhni/sinfni ~; chet til oʻqitish jarayonini ~; chet til materialini oʻzlashtirishni ~

dars [ar.] — mashgʻulot, saboq; ~ rejasi/turi/bosqichi/maqsadi/vazifasi/soati/jadvali/mazmuni/vaqt/nazariyasi; ~ rejasi (-konspekti); ~ turlari (-sof nutq ~i — SND; aralash nutq ~i — AND); ~ bosqichlari (-boshlanishi, asosiy qismi, yakuni); ~ning borishi/tuzilishi; ~ ni boshlash/olib borish/yakunlash; ~ga tayyorlanish; ~ berish/oʻtish/kuzatish/qoldirish/qilish/olish; sinov/diplom ~i (*oʻquv-pedagogika praktikasida*); ~dan tashqari ishlar (*ommaviy/guruhiy/yakkama-yakka*); darslikda/sinfda ~; yangi/oʻtilgan/takroriy/ochiq ~; ~ modeli; televizion ~

darslik [ar.+oʻzb.] — oʻquvchi kitobi; elektron ~; maktab/litsey/kollej/institut/universitet uchun ~; maktab ~gi (-oʻquvchi kitobi); institut/universitet ~gi (-talaba kitobi); metodika ~gi; ingliz/ispan/nemis/fransuz/arab/turk tili ~gi; ~ muallifi/paragrafi/materiali/mashqi/matni/tuzilishi/mazmuni/ilovasi/lugʻati; ~, dastur, qoʻllanma, standart

darsxona [ar.+f-t.] — auditoriya *q.* (*oliy oʻquv yurtida*)

dastur [f-t.] — programma *q.*; oʻquv ~i; maktab/oliy oʻquv yurti ~; chet til/metodika ~i; ~ga rioya qilish; ~ni bajarish; ~ tuzilishi/mazmuni/doirasi; ~, darslik, qoʻllanma, taʼlim standarti

dasturiy [f-t.] — dastur (-programma)ga oid; ~ talablar/mavzular/material/maqsadlar/koʻrsatma

dasturulamal [f-t. + ar.] — qoʻllanma, dastur, darslik

davomat [ar.] — qatnash (*darsga*); oʻquvchilar ~i

deavtomatizatsiya [lot. de... — yoʻqolish, ajralish, qaytish maʼnosidagi old qoʻshimcha + avtomatizatsiya]: talaffuz koʻnikmasining ~si (-talaffuz koʻnikmasining yoʻqolishi, soʻnishi); avtomatizatsiya *q.* va ~

deduksiya [lot. deductio — keltirib chiqarish] — umumiydan qisman (-yakka) ga qarab borish (-avval umumiy qoida berib, soʻngra unga misollar keltirish); ~ va induksiya

deduktiv [lot. deduksiya] — deduksiyaga asoslangan; ~ metod (-qoidadan amaliyotga borish); ~ va induktiv metod

definiitsiya [lot. definitio — taʼrif] — taʼrif *q.*

demonstratsiya [lot. demonstratio — koʻrsatish] — namoyish qilish, koʻrsatish (kinofilm/diafilm/diapozitiv/rasm haqida)

deprefiksatsiya [lot. de — yoʻqolish maʼnosidagi old qoʻshimcha + prefiksatsiya] — prefiksning ajralishi (*q. dezaffiksatsiya, desuffiksatsiya*); prefiksatsiya va ~; dezaffiksatsiya (- ~, desuffiksatsiya) usuli

desemantizatsiya [lot. de + yunon. semantikos — maʼno anglatuvchi] —

o‘z ma‘nosini yo‘qotish; ~lashgan so‘z (mas. ko‘makchi fe‘l);
semantizatsiya (-ma‘no ochish), ~ (-ma‘no yo‘qotish)

desuffiksátsiya [lot. de + suffiksatsiya] — suffiksning ajralishi; ~ metodik usuli (-yasama so‘z o‘rganilgan, endi uning suffiksi ajratib berilganda, potensial lug‘at tarzida yangi o‘zak so‘z ma‘nosi mustaqil fahmlanishi kutiladi); suffiksatsiya va ~; dezaffiksatsiya (-depre-fiksatsiya ~) usuli

dezaffiksátsiya [fr. dés — yo‘qolish ma‘nosidagi old qo‘shimcha + lot. affiksatsiya] — affiks (-suffiks yoki prefiks)ning tushirib qoldirilishi, ajralishi; ~ usuli (-tanish yasama so‘zdan affiks qismi ajratilib, undagi notanish o‘zak so‘zning ma‘nosini potensial lug‘at sifatida mustaqil fahmlab olish metodik usuli, mas. teacher — teach; beautiful — beauty; immigrant — migrant; irregular — regular); ~ va affiksatsiya; ~ (-deprefiksatsiya *q.*, desuffiksatsiya *q.*) usuli

diafilm [yunon. dia — orqali + ingl. film] — umumiy mavzuga ega ketma-ket kinotasmadagi tasvirlar (*ta‘limning texnik vositalaridan*)

dialóg [yunon. dialogos < di ikki + logos — so‘z, nutq] — suhbat, juft-nutq, gaplashish (-ikki, ba‘zida undan ortiq shaxs suhbat); ~ nutq; ~ matni/mashqi/namunasi/replikasi/birligi; ~ uyushtirish/(bajarish/boshlash) tuzish; ~, monolog, polilog *q.*

dialogik [yunon. dialog]: ~ birlik (-undovchi va javob replikalari birikuvi)

dialogizátsiya [yunon. dialog] — dialogni uyushtirish, juftnutq yuritish

diapozitiv [yunon. dia — orqali + lot. positivus — ijobiy] — slayd *q*

diaproyéktor [yunon. dia — orqali + lot. projicio olg‘a tashlamoq] — diapozitiv, diafilm kabilar tasvirini ekranga tushiradigan asbob (*ta‘limning texnik vositalaridan*)

didaktik [yunon. didaktika] — didaktikaga oid; ~ prinsip/qoida/o‘yin/tarqatma material; ~, psixologik, metodik prinsiplar

didáktika [yunon. didaktikos — o‘rgatuvchi, pand-nasihat beruvchi] — ta‘lim nazariyasi, ta‘limshunoslik *q*

differensiátsiya [lot. differentia — farqlash] — farqlab yondashish, tabaqalash; baho ~si (-nutq faoliyati turlari, til materiali, til texnikasining har bir qismiga alohida baho qo‘yish); o‘quvchi qobiliyati ~si (-farqlanishi)

diktánt [lot. dictare yozish uchun aytish] — aytib turganda yozish (aytib turib yozdiriladigan ish), yoddan yozish; ~ yozish/o‘tkazish/tuzish; ~ni tekshirish/baholash; kontrol/ta‘limiy ~

diktor [lot. dictator — gapiruvchi] — suhandon; ~ nutqi (-magnit yozuvidagi, televizion, radiodagi nutq)

diktóvka [lot. dicto aytaman + rus.] — tinglovchi yozib olishi uchun ovoz chiqarib aytish (-aytib turish); ~ qilib yozdirish; ~ ostida (-aytib turganda) yozish

dinamik [yunon. dynamikos — kuchli, harakatchan]: ~ stereotip (-fikran tamg‘alanish, muhrlanish); ko‘p marta ta’sirlanish oqibatida bosh miya yarimsharlari qobig‘ida shakllanadigan barqaror shartli reflektor yoki muvaqqat nerv bog‘lanishlari tizimi, mas. artiklni mashq qilishi orqali chet tilcha artikl ko‘nikmasi shakllanadi, ya’ni artiklning ~ stereotipi hosil bo‘ladi („~ stereotip“ terminini I. P. Pavlov 1932-yil ilmiy iste‘molga kiritgan).

diplóm [yunon. diploma — buklangan hujjat]: ~ yozish; ~ ishi/mavzusi/himoyasi/darsi

diqqat [ar.] — faoliyatni/ongni muayyan obyektga qaratilishidan iborat psixik holat; ixtiyoriy va ixtiyorsiz ~; ~ning bo‘linishi; ~ni qaratmoq/chalg‘itmoq/susaytirmoq/kuchaytirmoq/yo‘naltirmoq/aktivlashingtirmoq; ko‘ruv/eshituv ~i

diskúrs [lot. diskursus — fikr, dalil] — nutqiy vaziyatdagi matn („nutqiy hodisa“ — A. N. Shchukin ta’rifi, 2007: 76); diskurs va matn

diskursív [lot. diskurs] — intuitiv emas, ong ishtirokida; ~ o‘qish (-analitik, ekstensiv, tahliliy o‘qish); ~ nutq (-til materialini anglab, nutqiy faoliyat yuritish); ~ va intuitiv

diskursivlik [lot. diskursiv + o‘zb.] — nutqda lisoniy bilimni ishlatish, mulohaza yuritish (-til hodisasi haqida mulohaza yuritish); nazariy tushunchalarni o‘ylab ish ko‘rish, ya’ni nutq faoliyatida qoidalarga suyanish (-til hodisasi haqida o‘zlashtirilgan mavhumotni o‘ylab nutq yuritish), mas. chet tilda qaysi artikl qo‘llanilishini fikran surishtirib jumla tuzish; ~ ko‘nikma tarkibidagi metodik tushuncha

distribútsiya [lot. distributio — taqsimlash] — taqsimot *q.*

doimiy [ar.]: ~ xotira (-uzoq muddatli ~): ~ va operativ *q.* xotira; ~ (-kundalik) nazorat

drill [ingl. drill — mashq] — ma’no yoki mazmunga e’tibor bermasdan, g‘ayrihuuriy tarzda, mexanik (-o‘ylamasdan, fikr yuritmasdan) bajariladigan mashq; trenirovka mashqi (- ~); fonetik ~ (-*rus.* фонетическая зарядка); mashq, ~, trenirovka *q.*

egallash — o‘rganib olish, bilib olish; tilni ~; amaliy va nazariy ~; og‘zaki nutqni ~; nutq ko‘nikmasi, malakasini ~; chet tilni ~ darajalari Umumyevropa sistemasi (Strasburg, 1996)

eksperiment [lot. experimentum — sinash, tajriba] — ilmiy tajriba (*ilmiy-tadqiqot metodlaridan*, mas. laboratoriya ~i); tabiiy/laboratoriya ~; asosiy/yordamchi ~; bir martalik/takroriy ~; ~ o‘tkazish/qilish/olib borish/boshlash; ~ nazariyasi/ishtirokchisi/materiali/natijasi/kechishi (-o‘tishi)/jarayoni; ~ joyi; *q.* tadqiqot

eksperimentál [lot. eksperiment] — eksperiment bilan bog‘liq; ~ tadqiqot/ish/darslik; kontrol (nazorat) va ~ (tajriba) guruh

eksperimentátor [lot. eksperiment] — eksperiment (-ilmiy tajriba) o‘tkazuvchi; ~ ishtirokidagi mashg‘ulot

- ekspozitsiya** [lot. expositio — namoyish etish] — til birligiing nutqda qoʻllanib (aytib, oʻqib, yozib) koʻrsatilishi
- ekspróm(p)t** [lot. exprom(p)tus — tayyor, hozir] — improvizatsiya *q.*, badiha *q.*, oldindan hozirlik koʻrmasdan gapirish (-tayyorlanmagan ogʻzaki nutq)
- ekstensív** [lot. extensivus — kengayuvchan, uzayuvchan]: ~ oʻqish (-analitik *q.*, diskursiv *q.* oʻqish); ~ taʼlim (-vaqt eʼtibori bilan choʻziladigan taʼlim); ~ (-choʻziladigan) va intensiv *q.* (-jadal) taʼlim/kurs
- eksteriorizatsiya** [lot. exterior — tashqi, sirtqi] interiorizatsiya bilan bogʻliq holda tashqi harakatlarning, mas. aytiladigan jummalarning hosil boʻlish jarayoni, ~ va interiorizatsiya *q.*
- ekstravért** [lot. extra — tashqariga + versio — burmoq, qaratmoq] — kishimli, sezgir (-chet tilda soʻzlashni yoqtiradigan); ~ va introvert *q.*
- emótsiya** [fr. emotion < lot. emovere — hayajonlantirmoq, toʻlqinlantirmoq] — tuygʻu, hissiyot, ichki kechinma
- epistolár** [yunon. epistole — xat, maktub] — maktubiy, xatga oid; chet tilda ~ jumlar (-xat yozishda qoʻllanadigan gaplar)
- etalón** [fr. étalon] — qolip *q.*, namuna *q.*, andaza *q.*
- etáp** [fr. étape] — bosqich *q.*
- eshitish** — tovushni ~ sezgisi orqali qabul qilish; ~ sezgisi/xotirasi/analizatori/timsoli; ~ sezgisi (-tovush toʻlqinlari belgi hamda sifatlarining aks ettirilishi); ~ xotirasi (--timsollarini esda qoldirish; mustahkamlash, esga tushirish); ~ timsoli (-tovush qoʻzgʻovchilarini sezish/idrok qilishda hosil boʻlgan obraz); ~ analizatori (--nerv markazi)
- eshituv:** ~ idroki (-tovush toʻlqinlarining yaxlit aks ettirilishi); ~ analizatori (--nerv markazi); ~ diqqati (-narsa va hodisani quloq bilan idrok qilish hamda eslashga oid diqqat)
- eʼtimod** [ar.] — qattiq ishonish, ixlos qoʻyish; ~ muhitini yaratish (-chet til oʻrganish jarayonida sunʼiy nutqiy vaziyatga toʻla moslashish)
- fahmlash** [ar. + oʻzb.] — maʼnoni anglash, topqirlik; kontekstdan ~ (-topish); yangi soʻz maʼnosini soʻz yasovchi unsurlar yordamida ~; lisoniy ~ (-rus. языковая догадка)
- fakultatív** [lot. facultas (facultatis) — mumkinlik, iloj] — ixtiyoriy (-majburiy boʻlmagan); ~ kurs/oʻquv predmeti/mashgʻulot; chet tildan ~ kurs; ~ (ixtiyoriy) va majburiy kurs
- faol** [ar.]: tilni ~ (-aktiv) egallamoq; oʻquvchilar ~ligi (-aktivligi); chet til oʻrganishda/darsda/darsdan tashqari ishlarda ~ qatnashmoq
- faoliyat** [ar.]: nutqiy/aqliy ~; nutq ~i turlari (gapirish, tinglab tushunish, oʻqish, yozuv); oʻquvchi/muallim ~; ~ni aktivlashtirish
- faollik** [ar. + oʻzb.]: ~ (-aktivlik) prinsipi (*didaktik prinsiplardan*)
- fasilitatsiya** [ingl. facilitation] — yordam, yengillashtirish; ~ (transpozitsiya) va interferensiya

- fikr** [ar.]: ~ bayon etish; chet tilda ~ bayon etish; ~ yuritish; ~ ifodalanishi (-gapirish hosilasi); ~ yuritmasdan bajariladigan mashq (-drill *q.*)
- fikran:** ~ bog'lanish (-assotsiatsiya); ~ tamg'alanish (-dinamik *q.* stereotip)
- fikrlash** [ar. + o'zb.] — tafakkur *q.*, mavhum/mantiqiy/ijodiy ~
- fiksiz** [ar. + o'zb.]: ~ nutq (-stoxastik nutq, assotsiativ nutq)
- film** [ingl. film — po'st, po'stloq]: o'quv ~i; ovozli/ovozsiz ~; ~ ko'r-satish/ko'rish/muhokama qilish
- filologik** [yunon. phileó — yaxshi ko'raman + lógos — so'z] — til hamda adabiyotga oid; ~ maqsad (-chet til oliy o'quv yurti dasturi talblaridan); ~ yo'nalishdagi matn; ~ ma'lumot
- flanelégraf** [fr. flanelle — tukli mato + yunon. gráphō — yozaman] — taxtaga rasm yopishadigan matodan tortilib yasalgan o'quv vositasi (*ko'rgazmalilik turlaridan*); ~dan foydalanish
- fonéma** [yunon. phōnēma — tovush] — ma'no ifodalovchi tovush, so'z/morfemaning ma'nosini farqlashga xizmat qiladigan nutq tovushi; ~, grafema, intonema
- fonetik** [yunon. fonetika] — fonetika (-talaffuz)ga oid; ~ zaryadka (-talaffuzni yo'lga qo'yishga xizmat qiladigan mashq); ~ test; ~ drill (-zaryadka); ~ birlik/hodisa/xato/qiyinchilik/mashq/yozuv/ko'nikma; ~ minimum
- fonétika** [yunon. phōnētikós — tovushga oid] — tilning tovush (-talaffuz *q.*) tomoni
- fono...** — [yunon. phōné — tovush]: fonogramma *q.*; fonozal (-tovush yozish/eshitish xonasi); fonomashq (-tilning tovush tomonini mashq qilish); fonoteka (-fonoyozuvlar saqlanadigan joy); fonograf *q.*; fonomaterial *q.*
- fonógraf** [yunon. fono+ grapho — yozaman] — tovush yozish asboblari (*texnika vositalaridan*)
- fonogramma** [yunon. fono + gramma — yozilish, harf]: chet tilda ~; ~dan foydalanish
- fonomaterial** [yunon. fono + lot. material] — tovush yozilgan o'quv vositasi; ~ qo'llash/tayyorlash
- fóрма** [lot. forma — qiyofa] — shakl *q.*, yasaliş *q.*; fe'l ~si; grammatik ~; chet til birligi ~si (-shakli, yasaliş), funksiyasi (-qo'llanishi), semantikasi (-ma'nosi)
- formál** (lot. forma] — forma (-shakl, yasaliş) bilan bog'liq; ~ qiyinchiliklar; til hodisasining ~ (-shakliy), funksional (-qo'llanish), ma'noviy (-semantik) jihatlari
- frontál** [fr. frontal] — yoppasiga, ommaviy; ~ ish/mashg'ulot; individual va ~; ~ tekshiruv; ~, gruppá bo'lib, individual (-yakka) *q.*

funksional [lot. funksiya] — funksiya (-qo‘llanish)ga oid; ~ qiyinchilik; ~, formal (-shakliy), semantik (-ma‘noviy) qiyinchiliklar; til hodisasining ~ (-qo‘llanish), formal (-shakliy), semantik (-ma‘noviy) jihatlari

funksiya [lot. functio — ijro, amalga oshirish] — qo‘llanilish *q.*; chet til birligi ~si (-qo‘llanishi), formasi (-shakli, yasalishi), semantikasi (-ma‘nosi)

gapirish — so‘zlash, so‘zlashish, gaplashish, tildan og‘zaki foydalanish, og‘zaki fikr bayon etish (*jarayon, rus. говорѐние*), og‘zaki fikr ifodalash/aytish, mulohaza bildirish/yuritish, og‘zaki muloqot (*natija, oqibat, nutq hosilasi*); ~ nutq faoliyati turi; ~ning yakka-nutq (*monolog*), juftnutq (-dialog), guruhnutq (-polilog) shakllari; ~ mexanizmi/mashqi/amali/jarayoni; erkin (-spontan) ~; ~, tinglab tushunish, o‘qish, yozuv (-nutq faoliyati turlari)

gipnopediya [yunon. hýpnos — uyqu+paidéia — o‘rgatish] — uyquda o‘qitish (-tabiiy uyqu holatida o‘rgatish, mas. chet tilni)

gnoseologiya [yunon. gnōsis (gnoseos) — bilim+logós — ta‘limot] — bilish nazariyasi (-epistemologiya)

grafema [yunon. gráphō — yozaman] — yozma nutqning eng kichik birligi (-harf, harf birikmasi); ~, fonema, intonema

grafik [yunon. grafika] — yozma, harfiy (yozuvga oid); ~ material/timsol/matn (-yozma tekst)

grafika [yunon. graphikē < gráphō — yozaman] — yozuvning barcha vositalari majmuyi; arab/lotin/rus ~si

grammatik [yunon. grammatika] — grammatikaga oid; ~ ko‘nikma/qu-rilish (-struktura)/tahlil/xato/qiyinchilik/material/harakat (-amal)/operatsiya/mexanizm/hodisa/birlik/minimum/amaliyot/nazariya/qoida/jadval/mashq; ~ test; ~ mexanizm (-ko‘nikma, tayyor material hamda ~ materialga oid umumlashma qismlaridan tashkil topadi); ~ ko‘nikma algoritmi; ~ birlik (-morfologiya/sintaksis birliklari); ~, leksik, talaffuz materiali (-til materiali); ~ -tarjima metodi; nutqning ~ jihatdan shakllanishi (*rus. оформление*)

grammatika [yunon. grammatikē < gramma — harf, yozuv] — tilshunoslikning bo‘limi; ~ni o‘zlashtirish/o‘rgatish/o‘rganish/tushunish; ~ning taqdimoti, taqsimoti, tasnifi; nutqning ~ tomoni; nazariy/amaliy/qiyosiy/pedagogik ~; (*V. S. Setlin (1961) nazariyasi*) birligi/ko‘nikmasi/mashqi/qoidasi/tushunchasi; ~ni o‘rgatish mazmuni (-GO‘M) (*q. kompressiya*); ~ni leksika tarzida o‘rganish; aktiv (-reproduktiv) va passiv (-retseptiv) ~; passiv ~ -o‘qish/tinglash ~si (*P. Xegboldt (1935) terminida* recognitional grammar (-tanib olish ~ si); *H. Dunkel (1948) terminida* visual grammar (-ko‘rish, o‘qish ~si); *M. Uest (1952) terminida* grammar for recognition (-tanib olishga mo‘ljallangan ~); potensial ~/leksika

grúppa [nem. Gruppe] — guruh, tabaqa, toifa (-shaxslar, mas. o'quvchilar, studentlar to'pi); student (talaba)lar/o'quvchilar/muallimlar ~si; ~ bilan mashq bajarish (- ~viy mashq); lug'atni ~larga ajratish (-guruhlash); ~ga bo'linib ishlash; ingliz/nemis//fransuz/ispan/arab/fors tili o'qiydigan ~

gruppaviy [nem.] — guruhiy *q.*

guruh (f-t.) -gruppa *q.*; ~ larga ajratish (-tipologiya *q.*)

guruhiy [ar.] — gruppaviy; ~ mashq (-ko'pchilik ishtirokida bajariladigan mashq); darsdan tashqari ~ ish; ~ ijrochilik (-komanda ishtiroki)

guruhlash [f-t.+o'zb.] — klassifikatsiya *q.*

guruhnutq [f-t.+ar.] — polilog (-ko'pchilik ishtirokidagi gapirish (-suhbat) mashqi); ~, yakkanutq, juftnutq

GO'M — grammatikani o'rgatish mazmuni (*q.* kompressiya); **LO'M**, **GO'M**, **TO'M**

harakat [ar.]: ~ (-motor, kinestetik) sezgisi; grammatik ~ (-amal) (*grammatik mexanizmning tarkibiy qismi*); nutqiy faoliyat, ~, operatsiya; ~ (-motor) sezgisi/analizatori (-qo'lharakat, nutqharakat sezgilari/analizatorlari); ~/eshitish/ko'ruv/verbal xotirasi

harf [ar.] — alfavitdagi belgi, tovushni ifodalovchi grafik timsol; bosh/kichik/bosma/yozma~; ~ birikmasi; ~ -tovush munosabati; ~ni o'qish/yozish/topish; ~ bilan tovush; o'qilmaydigan (-, „soqov“, *rus. немая*) ~ (yozuvda bor, biroq o'qilmaydi, mas. *ingl. know, fr. petit*)

harfiy [ar.] — harf bilan bog'liq; ~ timsol

hissiyot [ar.]: til ~ (-tilning nozik tomonlarini seza olish, tilni his etish, *rus. языковое чутьё*)

hodisa [ar.]: til ~si (-leksik, grammatik, talaffuz ~si); til ~si/materiali/birligi/minimumi; chet til hamda ona tili ~ larini qiyoslash *q.*

husnixat [f-t.+ar.] — chiroyli yozish, kalligrafiya *q.*

idrok [ar.] — sezgilarga narsa/hodisaning ta'siri tufayli ularning ongda aks etishi; eshituv/ko'ruv/motor ~i; ~ birligi; o'qishda so'z ~ birligidir; nutqni ~ etib tushunish (-retseptiv nutq); nutqning ~ etilishi va sodir etilishi (-*rus. восприятие и порождение речи*)

ijobiy [ar.] — foydali, ma'qul, maqbul; ~ ta'sir (-transpozitsiya/fasilitatsiya); ~ va salbiy ta'sir (-interferensiya); malaka/ko'nikmaning ~ ko'chishi/o'tishi

ijodiy [ar.] — ijod etish hamda yaratish bilan bog'liq; ~ mashq/nutq; til o'rganishga ~ yondashish; ~ (-produktiv *q.*) nutq

ijro [ar.]: nutq faoliyatida ~ qismi bilan oriyentir (-yo'llovchi) asosi (*P. Ya. Galperin terminlari*)

ilgarilash: og'zaki ~ (-chet til materialini o'rgatishda og'zaki nutqning yozma nutqdan oldin yurishi); og'zaki ~ prinsipi (*Ch. Friz, R. Lado termini bilan aytganda oral approach, rus. устное опережение*)

ilmiy [ar.] — ilm (-fan)ga oid, ilm-fanga asoslangan; ~ ish/tadqiqot (-tek-

- shirish)/asar/daraja/unvon/soha/xulosa; ~ faraz (-gipoteza); ~ -metodik; ~ mudir
- imitativ** [lot. imitatsiya] — taqlidiy, oʻxshatma; ~ nutq/mashq/yondashish/metod; chet til talaffuzini ~ oʻrgatish; talaffuzni oʻrganishda ~ va analitik yondashish
- imitatsiya** [lot. imitatio — taqlid, oʻxshatish] — taqlid, ergashish; chet til materialini ~ (-taqlid) yoʻli bilan oʻrganish; ~ va analiz (-chet til talaffuzini oʻrgatishdagi yondashishlar)
- imlo** [ar.] — yozish qoidasi, orfografiya; ~ birligi/lugʻati/qoidasi/qiyinchiligi/xatosi; chet til/ona tili ~si; ~ni oʻrgatish/oʻrganish/egallash/bilish; ~ birligi (-harf, harf birikmasi, soʻz, soʻz yasash elementlari, forma yasash elementlari, gap yasash elementlari, soʻzning oʻzgarishi va soʻzning oʻzgarish formalari)
- immanent** [lot. immanentis — odatiy] — bevosita (- ~ tarzda); soʻzni ~ tarzda idrok etish (chet til soʻzi bilan u ifodalayotgan narsa/hodisaning fikran bevosita bogʻlanishi, yaʼni ona tili (tarjima)ning ishtirok etmasligi)
- improvizatsiya** [ital. improvvisazione<lot. improvisus — kutilmagan, nogahoniy, tasodifiy] — badiha, eksprom(p)t (-oldindan hozirlik koʻrmasdan gapirish, *yaʼni chet til metodikasi terminologiyasida „tayyorlanmagan ogʻzaki nutq“*)
- imtihon** [ar.] — sinab koʻrish, sinov, ekzamen, test; ogʻzaki/yozma ~; ~ bileti; ~ olmoq/topshirmoq/qilmoq; oraliq/yakuniy/davlat ~i; ~ savollari/materiali/jarayoni; ~dan oʻtmoq va ~da yiqilmoq; bitirish/joriy ~; ~ komissiyasi/sessiyasi/kitobchasi
- individual** [lot. individum — boʻlinmas, alohida] — bir shaxsga oid, yakka shaxsga taalluqli; ~ ish/yondashish/mashgʻulot/xususiyat/topshiriq; ~ yondashish (-oʻquvchi saviyasini farqlash); ~ yondashish prinsipi; ~ mashgʻulot/ish/mashq oʻtkazish; ~ va frontal *q.*
- individualizatsiya** [lot. individual] — farqlash, tabaqalash, differensiat-siya (-oʻquvchi saviyasini hisobga olib ish koʻrish)
- induksiya** [lot. inductio — undash, qoʻzgʻash] — qisman (yakka)dan umumiyga qarab borish (-avvalo nutq, keyin sodda qoida, yaʼni oldin til hodisasini qoʻllash, soʻngra mavhumotga oʻtish); ~ metodi (-tabiiy hamda toʻgʻri metod); ~ va deduksiya
- induktiv** [lot. induksiya] — induksiyaga asoslangan (yakka (qisman)dan umumiyga borish, amaliyotdan qoida chiqarish, yaʼni nutqda oʻrganilgan til hodisasi xususida mavhumot chiqarish); chet til oʻqitishda ~ metod (-tabiiy hamda toʻgʻri metod); ~ va deduktiv metod
- informativ** [lot. informatsiya] — axborot bilan bogʻliq; ~ nutq/mashq/material; ~ tekst (-axborot eltuvchi matn)
- informatsion** [lot. informatsiya]: ~ mashq (-bilim oʻrgatiladigan mashq); ~, operatsion *q.* motivatsion *q.* mashqlar (*V. A. Buxbinder tasnifi*)

- informátsiya** [lot. informatio — tushuntirish, xabar] — axborot, ma'lumot, xabar; ~ berish/olish/qayta ishlash/o'zlashtirish
- initsiativ** [lot. initiare — boshlamoq] — spontan *q.* ~ nutq (-erkin nutq)
- inssenirovka** [lot. in... da+scena — sahna] — nasriy yoki she'riy asarni teatr talabiga moslashtirish; ~ mashqlari (-teatrlashtirilgan mashqlar)
- integrátsiya** [lot. integer — yaxlit]: til materiali ~si (-leksik, grammatik, talaffuz birliklarini yaxlit tarzda o'rgatish)
- intellektuál** [lot. intellectus — aql, fahm, zehn, uquv] — aqliy *q.*
- intensifikátsiya** [lot. intensiv] — jadallashtirish *q.*
- intensiv** [lot. intensio tezlatishtirish, kuchaytirish] — jadal, qisqa muddatli; ~ mashg'ulot/kurs/egallash; ~ o'qish (-sintetik, tahlilsiz kursor o'qish); ~ ta'lim (-qisqa muddatli jadallashtirilgan o'qitish); ~ va ekstensiv ta'lim/kurs; ~/interaktiv/kommunikativ metod (-metodika)
- interaktiv** [lot. inter — orasida, ichida+activus faol, ishchan] — o'zaro faol nutqiy muloqot bilan bog'liq; ~ metodika (*AQShda joriy etilgan chet til o'qitish uslubiyoti, U. Rivers terminologiyasida* interactive; ~ /intensiv metodika)
- interferension** [lot. interferensiya]: ~ qiyinchilik (-til ichki va tillararo qiyinchilik); ~ (ta'siriy), tashkiliy qiyinchilik
- interferénsiya** [lot. inter — orasida, ichida+ferens (ferentisi) — ko'chiruvchi o'tkazuvchi] — salbiy ta'sir, noma'lum ko'chish, to'sqinlik qilish, g'ov bo'lish (-bilim, ko'nikma, malakaning salbiy natijaga olib borishi); til ichki va tillararo ~; leksik/grammatik/fonetik/orfografik ~; lisoniy ~; madaniy ~; metodik ~ (xususiy metodikalarning chalkashib ketishi); ~ va transpozitsiya (fasilitatsiya) *q.*
- interiorizátsiya** [lot. interior — ichki] — tashqi harakatlarning ichki harakatlarga aylanishi, ya'ni ichki psixik faoliyatning tashqi amaliyotdan hosil bo'lishi (*ruhshunoslar P. Jane, J. Piaje, A. Vallon va boshqalar ilmiy iste'molga kiritishgan*); ~ va eksteriorizatsiya *q.*
- internatsional** [lot. inter — orasida+natio (nationis) — xalq] — xalqaro, baynalmilal; ~ tarbiya; ~ so'zlar (qator tillarda bir o'zakli so'zlar, mas. tennis, broker, prezident)
- internatsiolizm** [lot. internatsional] — o'zakdosh so'zlar (-qator tillarning umumetimologik fondiga kiradigan bir o'zakli lug'at)
- intervýu** [ingl. interview] — musohaba (*publitsistika janri; chet tilda suhbatlashish mashqlaridan*); ~ metodi (*ilmiy-tadqiqot metodlaridan*)
- intonátsiya** [lot. intonare — baland ovoz bilan aytmoq] — ohang (nutqqa oid); baland/past ~
- introvért** [lot. intro — ichkariga+versio — burmoq, qaratmoq] — kamgap, kamsuqum, indamas, ko'p gapirmaydigan (-chet tilda gaplashishga intilmaydigan), damdo'z; ~ va ekstravert *q.*
- intuitiv** [lot. intuitiya] — ong ishtirokisiz, g'ayrishiuriiy, o'ylamasdan, beixtiyor; ~ metod *q.*

- intuítisiya** [lot. *intueri* — diqqat bilan sinchiklab qaramoq] — ichki his, sezgirlik; anglab yoki ~ bilan fahmlash
- iqtidor** [ar.] — qodirlik, layoqat (*q.* kompetensiya); metodik/lisoniy/madaniy ~; ~li o'quvchi/talaba
- ixtisos** [ar.] — mutaxassislik; chet til ~i; ~ni tanlash/egallash/bilish; chet tildan ~ beradigan bo'lim/fakultet/universitet/institut
- iyerárxiya** [yunon. *hieros* — tabarruk, muqaddas+archē — hokimiyat]: mashqlar ~si (-ketma-ket tartiboti); ta'lim maqsadlari ~si
- izchillik** — ketma-ketlik, tadrijiylik, evolutsiya; taqdimotda ~; mashqlarni bajarishda ~; nutqiy operatsiyalar qo'llanilishida ~; nutq faoliyati turlarini o'rgatish-o'rganishda ~; oliy ta'limda ~
- ish:** uy/sinf ~i; sinfdan tashqari ~; yozma ~; laboratoriya ~i; kontrol ~
- jadal** [ar.] — intensiv *q.* ~ kurs; ~ (-intensiv) va ekstensiv *q.* kurs
- jadallashtirish** [ar.+o'zb.] — intensivikasiya; o'quv-tarbiya jarayonini ~; chet til o'qitishni ~; ~ kurslari (-chet tilni qisqa muddatda o'rgatish-o'rganish kurslari)
- jadval** [ar.]: dars ~i (-o'quv ~i); tarkibi almashtiriladigan ~ (*H. Palmer terminida* Substitution Table); grammatik/o'qilish qoidalari ~
- jarayon** [ar.] — protsess; o'quv/pedagogik ~; dars/nutq/ta'lim-tarbiya/o'qitish/o'rganish/egallash ~i; idrok/bilish ~i; ~ metodlari (*q.* metod)
- javob** [ar.]: ~ bermoq/qaytarmoq/tuzmoq/yozmoq; to'liq/bo'sh/mazmunli ~; ~ replikasi (-reaksiya replikasi); ~ va undovchi replika; savol~ mashqi/ishi; savol va ~; savol- ~ o'yini (-viktorina)
- jonli:** ~ nutq (-so'zlovchi yoki notiqning gapi); ~ va mexanik (-texnika yordamida yozilgan) nutq; ~ til (-so'zlashuv, xalq tili); ~ nutq/til
- juftnutq** [f.t.+ar.] — dialog, suhbat, muloqot, so'zlashish; yakka nutq, guruhnutq, ~; ~ uyushtirish/yuritish/bajarish; ~ mashqi
- jumla** [ar.] — gap; tayyor va tipovoy ~; tayyor ~ (-klishe, qolip, yaxlit gap, turg'un so'z birikmasi); tipovoy ~ (-namunaviy gap)
- kabinét** [fr.]: chet til ~i (-xonasi); ~ sistemasi (-har bir o'quv predmetidan xona tashkil qilinishi); metodika ~i (-metodkabinet)
- kalendár** [lot. *calendarum* — *aynan* qarz daftarchasi]: ~ plan (-yillik reja); ~ -tematik (-mavzuiy) reja
- kalligráfiya** [yunon. *kalligraphia* — chiroyli yozuv] — husnixat *q.*
- kártochka** [rus] — qalin qog'ozdan kesilgan varaqcha; tarqatma ~ (-o'quv materiali yozilgan alohida varaqcha)
- kasbiy** [ar.] — mutaxassislikka oid, professional *q.*; ~ maqsad (mas. *chet til oliy o'quv yurtida pedagogik yoki filologik yo'nalish*); ~ (-sohaviy) matn/terminologiya/mahorat/kompetensiya
- kibernétika** [yunon. *kybernetikē* — boshqarish san'ati] — axborotni olish, saqlash, yetkazish hamda qayta ishlash haqidagi fan

- kinestetik** (yunon. kīnema — harakat]: ~ sezgilar (-harakat-motor/ qo‘lharakat/nutqharakat sezgilari)
- kinodars** [yunon. kineó — harakatlanaman+ar.] — kino yoki kinoparcha namoyish qilinadigan dars (kinomashg‘ulot)
- kinoekrán** [yunon.+fr. ékran — parda]; chet til xonasidagi ~
- kinofilm** [yunon.+ingl.] — ekranda ko‘rsatiladigan mazmunan bog‘langan ketma-ket tasviriy kadrlar majmuyi; o‘quv/tematik ~; ~dan foydalanmoq
- kinokádr** [yunon. kinéo+fr. cadre] — kinolavha (-kinodan bir parcha), kinofragment
- kinolavha** [yunon.+ar.] — kinokadr *q.*
- kinomashq** [yunon.+ar.] — kino namoyish qilib bajariladigan mashq
- kinoparcha** [yunon.+f.t.] — kinofragment, kinolavha, kinokadr
- kirish:** og‘zaki ~ kursi; ~ darsi; darsning ~ qismi (-boshlanishi); ~ (-boshlang‘ich, dastlabki) teksti (matni)
- kitob** [ar.]: muallim/o‘quvchi/o‘qish ~i; inglizcha/ispancha/nemischa/fransuzcha/o‘zbekcha ~
- klassifikátsiya** [lot. classis — tur, turkum, guruh] — tasnif *q.*, guruhlash, turlarga ajratish; mashqlar/xatolar/til materiali/qiyinchiliklar ~si (-tasnifi)
- klishé** [fr. cliché]: nutq ~si (-qolip/tayyor jumla)
- kod** [fr. code] — shartli belgi (signal)lar tizimi; harfiy/tovush ~; tovush ~ining harfiy ~ga o‘tishi (-yozish); harfiy ~ni tovush ~iga o‘tkazish (-o‘qish)
- kognizánt** [lot. cognitio — bilim, tushunish] — bilimdon, oqil, omilkor; ~ va kommunikant
- kommunikánt** [lot. kommunikatsiya] — nutq faoliyati yurituvchi (-gapiruvchi, tinglovchi, yozuvchi, o‘quvchi, tarjimon, retsiyent (-tinglovchi, o‘quvchi), reproduksent (-gapiruvchi, yozuvchi); ~ va kognizant
- kommunikatív** [lot. kommunikatsiya] — kommunikatsiya bilan bog‘liq; ~ akt (-nutqiy amal/parcha/jarayon/muloqot); ~ birlik/topshiriq/yo‘nalish/zarurat/muhit/malaka/vazifa(-funksiya)/maqsad/niyat/mashq; ~, intensiv, interaktiv metod (*chet til o‘qitish metodlaridan*); ~ yo‘nalish/metodika/usul; ~-kognitiv/kumulativ metod
- kommunikátsiya** [lot. communicatio — xabar, aloqa] — nutqiy aloqa (-muomala), fikr almashuv, muloqot
- komparatív** [lot. comparo — qiyoslayman]: — qiyoslash (-til ichki qiyoslanishi); ~, kontrastiv *q.* qiyoslash
- kompeténsiya** [lot. competentia<competo — intilaman]: til ~si (-tilga layoqat, til bilishga yaroqlilik, lisoniy (-nutqiy) iqtidor, saviya)
- kómpleks** [lot. complexus — bog‘lanish] — birga qo‘shilgan, bir butun: ~ (-birga qo‘shib) o‘rganish; o‘quv metodik ~ (komplekt ham deyiladi — O‘MK), (*rus.* YMK); O‘MK tarkibi (muallimga, o‘quvchilarga mo‘ljallangan o‘quv vositalari; o‘quv-metodik ~i (-komplekti) — O‘MK

- komplékt** [lot. completus — to'liq], o'quv-metodik ~ (-O'MK — o'quv vositalari majmuyi); o'quv-metodik ~i (kompleksi)
- komponént** [lot. componens (componentis) — tarkibiy, tashkil qiluvchi qism] — tarkib, qism, tarkibiy qism (-tashkil etadigan bo'laklar), so'z ~i (-so'zning qismlari)
- kompréssiya** [lot. compressio — zichlash] — zichlashtirish, ixchamlashtirish, minimizatsiya (-o'quv materialini zichlab tashlash, ajratish, siqiq (-minimum) holga keltirish); o'qitish mazmunini tanlash tadbirlari hamda mahsuli; kvantitativ ~ (-miqdoriy tanlash); kvalitatif ~ (-qayta tanlash, ya'ni minimum sifatini o'zgartirish); til materialini ~ qilish (-til minimumi hamda til o'rgatish mazmuni (-LO'M, GO'M, TO'M)ni tanlash)
- kompyúter** [ingl. computer<lot. computo — hisoblayman, sanayman] — elektr hisoblash mashinasi (-EHM, rus. ЭВМ); ta'limda ~dan foydalanish; ta'lim jarayonini ~lashtirish (-o'qitishda ~dan qo'llanish)
- kónkurs** [fr. concours<lot. concursus — yig'in, to'qnashuv, musobaqa] — ko'rik, tanlov musobaqasi
- konsént** [lot. con — bilan+centrum — markaz]: ta'lim ~i (-pallasi, bosqichi); chet til o'qitishning birinchi/ikkinchi ~i; nutqiy ~
- konséntrik** [lot. konsént] — yondashish (-til materialini umumlashtirib o'rgatish/til materialini nutqiy o'rgatish/~ va sistematik yondashish (*I. V. Raxmanov (1956-yil (177 — 178-betlar) ta'riflagan*); ~ va sistematik yondashish/o'rgatish/o'rganish
- konsépsiya** [lot. conceptio — tushunish, muloqaza] — ilmiy g'oya(lar); chet til o'qitish ~si; „Chet tildan uzluksiz ta'lim ~si“ (*1993-yil 14-mayda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi kollegiyasida qabul qilingan*); chet til o'qitish ~si, standarti *q*, dastur (-programma), darslik, qo'llanma
- konspékt** [lot. conspectus — qisqacha ma'lumot] — dars rejası
- konsultátsiya** [lot. consultatio — maslahatlashish] — o'quvchilarga ko'rsatiladigan yordam; ~ berish/olish/o'tkazish
- kontákt** [lot. contactus — yaqinlashish, aloqada bo'lish] — o'zaro aloqada bo'lish; tillar ~i (-aloqasi, tilshunoslik fanining tarmog'i); ona tili, ikkinchi til, chet til aloqasi (- ~i), (-til o'rganuvchi ongida ushbu tillarning bir-biriga bog'liq bo'lishi, ya'ni ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi)
- kontékt** [lot. contextus — bog'lanish, birikish] — so'z, so'z birikmasi, ibora ma'nosini ochib beradigan yozma yoki og'zaki nutq parchasi; ~ga tayanish; ~ orqali yangi so'z ma'nosini ochish (-*tarjimasiz semantizatsiya usuli*); ~dan ma'noni fahmlash (*rus. догадка*)
- kontekstual** [lot. kontekst] — kontekst bilan bog'liq; ~/lug'aviy ma'no
- kontrastív** [fr. contraste]; ~ qiyoslash (-tillararo muqoyasa); ~ va komparativ *q*. qiyoslash

- kontrol** [fr.] — nazorat, tekshiruv; ~ ish/savol; ~ diktant; ~ guruh; ~ / eksperimental q. guruh
- korrektiv** [lot. correctio — tuzatish, to'g'rilash]; ~ kurs (-takrorlash hamda tartibga solish davri); ~ va asosiy kurs
- korrelatsiya** [lot. correlatio — munosabat] — chet til ta'limi mazmunining mavjud sharoit hamda qo'yilgan maqsadga ko'ra zarur, yetarli darajada tanlanishi hamda o'rgatilishi; ~ prinsipi (*-chet til o'qitishning psixologik prinsiplaridan*); ~, verbalizatsiya prinsiplari (*G. Y. Vedel terminlari*)
- kriteriy** [yunon. kriterion — muhokama, mulohaza, hukm vositasi] — mezon q.
- kroki** [fr. croquis] — xomaki rasm (-kroki uslubida chizilgan rasm); o'quv vaziyatini yaratishning ~ usuli
- kumulativ** [lot. cumulatio — to'planish, yig'ilish, jamg'arilish]: tilning ~ funksiyasi (-xalq madaniyati xazinasini vazifasini o'tashi); ~, kommunikativ funksiya; kommunikativ/~ metod
- kurs** [lot. cursus<currere — yugurmoq, tez yurmoq]: og'zaki kirish ~; ~ ishi (fanlardan talaba yozadigan o'quv-tadqiqot yoki ilmiy-tadqiqot ishi); chet til o'qitish ~; majburiy va fakultativ (ixtiyoriy) ~; televizion ~ (-telekurs); metodika ~i; sistematik/maxsus ~; korrektiv ~ (-takrorlash davri); korrektiv/asosiy ~; propedevtika (-kirish) ~i
- kursor** [lot. kurs]: ~ o'qish (-sintetik q., tahlilsiz, intensiv q. o'qish)
- kuzatish**: ~ metodi (*ilmiy-tadqiqot metodlaridan*)
- kuzatuv**: ~ o'qish (-mushohadali o'qish/muayyan mavzuni qidirib o'qish; (*M. Uest ushbu o'qish turini „qaymog'ini olish“ deb nomlagan*); tanishuv, o'rganuv, ~ o'qish (*o'qish turlari*))
- kvalitativ** [lot. qualitas — sifat, xossa]: so'z birikmasi ~ qiyinchiligi; ~ va kvantativ qiyinchiliklar; ~ kompressiya q.
- kvantitativ** [lot. quantum — qancha, necha]: so'z birikmasi ~ qiyinchiligi; ~ va kvalitativ qiyinchiliklar; ~ kompressiya q.
- ko'nikma**: leksika, grammatika, talaffuz ~lari (-ongli bajariladigan chet tilda nutq malakasining avtomatlashgan tarkibiy qismi); (*A. N. Leontyev*: „*Ko'nikma — mustahkamlangan operatsiya*“); bilim, ~, malaka; ~ hosil qilish/shakllantirish/rivojlantirish/takomillashtirish; o'qish/yozish/so'zlash (-gapirish)/tinglash ~lari; ~ning ko'chishi/o'tishi; lisoniy/nutqiy ~ (*S. F. Shatilov farqlagan*)
- ko'rgazmalilik** — ko'ruv yoki eshitish sezgilari yordamida idrok etiladigan narsa yoki hodisa (-o'quv vositalari); tashqi (-ashyoviy) va ichki (-lisoniy) ~ (-ashyoviy va lisoniy ~); ~dan foydalanish; ~ prinsipi (*didaktika prinsiplaridan*)
- ko'rik** — musobaqa, konkurs q., olimpiada q. chet til bo'yicha ~
- ko'rsatma**: qoida~, qoida-umumlashma
- ko'rsatuv**: televizion ~ (-teleko'rsatuv); o'quv teleko'rsatuvlar tizimi (-teledidaktika)

ko'ruv: ko'rish (ko'z) bilan bog'liq; ~ sezgisi/analizatori/xotirasi/timsoli/idroki/tasavvuri/diqqati; ~ sezgisi (-yorug'lik yoki rangni ~ analizatoriga aks ettirilishi; chet tilda o'qishda ish beradi); ~ analizatorlari (~ sezgilarini hosil qiluvchi nerv mexanizmlari); ~ xotirasi (-ko'rib idrok qilingan narsa yoki hodisani esda qoldirish, mustahkamlash, esga tushirish); ~ timsoli (~ analizatorlari yordamida hosil bo'lgan sezgi, idrok, tasavvur obrazlari tarzidagi ong mahsuli); ~ idroki (-ko'z yordamidagi idrok); ~ tasavvuri (-ko'z bilan idrok qilingan narsa yoki hodisaning ongda tiklanadigan timsoli); ~ diqqati (-narsa yoki hodisani ko'z bilan idrok qilish hamda eslashga oid diqqat)

laboratóriya [lot. laboratorium<laborare — ishlamoq] — mashg'ulot o'tadigan xona; og'zaki nutq ~si; ~/sinf/auditoriya ishi/mashg'uloti/mashqi; ~ eksperimenti (*ilmiy-tadqiqot metodlaridan*)

latént [lot. latens (latentis) — yashirin, maxfiy] — til birligining „yashirin qo'llanish“iga oid; ~ davri (-til birligi (mas. so'z)ning esda saqlanish muddati); ~ davrini ta'minlash (-puxta o'zlashtirish, nutqda ishlata bilish)

leksik [yunon. leksika] — leksikaga oid; ~ ko'nikma/xato/qiyinchilik/material/hodisa/birlik/minimum/mashq; ~ test; nutqning ~, grammatik, talaffuz tomonlari; ~ birlik (-so'z, turg'un so'z birikmasi, tayyor jumla, so'z yasash unsuri — *V. A. Buxbinder tadqiq etgan*); ~, lug'at, imlo birliklari

léksika [yunon. lexikos — so'zga oid<lexis — so'z, ibora] — lug'at (so'z) boyligi, vokabular; tanish va notanish (-yangi) ~; ~ni o'rgatish/o'zlashtirish; nutqning ~ tomoni (-leksik ko'nikma); ~ning taqdimoti, tasnifi, taqsimoti; ~ni o'rgatish mazmuni (-LO'M) *q.* kompressiya; grammatikani ~ tarzida o'rgatish

léksiya [lot. lectio — o'qish] — oliy o'quv yurtida tegishli mavzu yuzasidan og'zaki o'tiladigan nazariy mashg'ulot, o'quv materialining og'zaki sistematik bayoni (o'quv jarayonining tarkibiy qismi); o'quv, obzor (qisqa-qisqa xulosalangan), jamoat oldida (*rus. публичная*) ~; ~ mashg'uloti va amaliy mashg'ulot; ~ tinglovchilar (-auditoriya); ~ tinglash/o'qish/tayyorlash/yozish/tuzish; ~ matni/mavzusi/rejasi/mashg'uloti

lingafón [lot. lingua — til+yunon. phōne — tovush, nutq]: ~ xonasi/kursi

lingvistika [lot. lingua — til] — tilshunoslik *q.*

lingvodidáktika [lot. lingua+yunon. didaktika] — lingvota'limshunoslik (-til ta'limi nazariyasi); ~, lingvometodika *q.*, lingvopsixologiya *q.*, lingvofiziologiya *q.* lingvotexnológiya *q.*

lingvofiziológiya [lot. lingva+yunon. physis — tabiat+logos — ta'limot] — nutq fiziologiyasi (-nutq mexanizmlari haqidagi ilmiy soha); ~, lingvometodika, lingvopsixologiya, lingvodidaktika, lingvotexnológiya *q.*

lingvokulturológiya [lot. lingua+cultura+yunon. logos] — lisoniy madaniyatshunoslik

lingvometódika [lot. lingua+yunon. metodika] — til o'qitish uslubiyoti; chet til, ona tili, ikkinchi til ~ si; ~, lingvodidaktika, lingvofiziologiya, lingvotexnologiya

lingvopsixológiya [lot. lingua+yunon. psixologiya] — til o'rgatish ruhshunosligi (-lisoniy ruhshunoslik)

lingvotexnológiya [lot. lingua+yunon. texnologiya] — til o'rgatish usullari (*J. Jalolov termini*, 2008)

lisoniy [ar.] — tilga oid; ~ tajriba (-til tajribasi); ~ fahmlash (-til topqirligi, *rus. языковая догадка*); ~ ta'lim (-tillarni o'qitish); ~ ruhshunoslik, ~ madaniyatshunoslik; ~ (-ichki) va ashyoviy (tashqi) ko'rgazmalilik; ~/nutqiy ko'nikma (*S. F. Shatilov farqlagan*); dunyoning ~ manzarasi

lokalizátsiya [lot. localis — mahalliy] — mahalliy sharoitga moslashtirish; ~ qilingan (-moslashtirilgan)

loyiha: ~ metodi (*ta'lim texnologiyalaridan*)

lug'at [ar.] — so'zlik, vokabular; ~ boyligi/minimumi/kitobi/daftari/birligi; ~dan foydalanish/topish/ko'chirish; aktiv va passiv ~; vokabular va novokabular ~; reproduktiv va retseptiv ~; potensial (-xufiya) va real (-naqd); ~; ~/leksika/imlo birligi; ~ ustida ishlash

LO'M — leksikani o'rgatish mazmuni (*q. kompressiya*); **LO'M**, **GO'M**, **TO'M**

majburiy [ar.]: ~ ta'lim/kurs/mashg'ulot; ~ va fakultativ (-ixtiyoriy) kurs; ~, maxsus, sistematik, fakultativ kurs

makromatn [yunon. makros — uzun, yirik, katta+ar.] — makrotekst *q.*; ~ va mikromatn

makrótekst [yunon. macros+tekst] — makromatn (-tugal bir asar), ~ va mikromatn *q.*

maktab [ar.] o'rta ~; o'rta umumta'lim/maxsus/oliy/~; o'qish o'zbek tilida olib boriladigan ~; ~ tizimi/ta'limi/yoshi; ~ chet til kursi

malaka [ar.]: — ong ishtirokisiz avtomatlashgan faoliyat (mas. chet tilda nutqiy faoliyat); gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuv ~lari; chet tilda nutq ~lari (-leksik, grammatik, talaffuz ko'nikmalaridan tarkib topadi); ~ oshirish/shakllantirish/rivojlantirish/takomillashtirish; bilim, ko'nikma, ~

maqсад [ar.] — tasavvurdagi (-xayoliy, faraziy) natija; ~ga erishish; ta'lim ~i; chet til o'qitish ~lari (amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, kasbiy); kommunikativ (-amaliy) ~; oraliq va yakuniy amaliy ~; ~, vosita; darsning ~i

material [lot. materialis — ashyoviy]: o'quv ~i; til ~i; til ~ini tayyorlash/o'zlashtirish bosqichlari; nutq ~i; tarqatma ~ (-rasm, kartochna); mashq ~i, leksik/grammatik/talaffuz ~i

- matn** [ar.] — tekst *q.*; ~, makromatn, mikromatn
- matnxon** [ar.+f-t.] — matnni mutolaa qiluvchi (*J. Jalolov termini*)
- mavhumot** [ar.] — xayoliy, mavhum narsa (-fikriy/aqliy hosila); til ~i; grammatik ~; verbal diskursiv ~ (-qoida *q.*); tarkibini taqlidan almashtiriladigan ~ (-nutq, namunasi); til birligiga oid ~
- mavzu** [ar.] — tema *q.*; nutq ~si/vaziyati
- mavzudosh** [ar.+f-t.]: ~ tushunchalar (mas. shimol, janub, sharq, g'arb — dunyo tomonlari yoki ota, ona, aka, opa, amaki, tog'a, xola, amma — oila a'zolari yoki qarindosh-urug')
- mazmun** [ar.]: ta'lim (-o'qitish) ~i; darslik/matn/nutq/mashq ~i; leksikani/grammatikani/talaffuzni o'rgatish ~i (LO'M, GO'M, TO'M); chet til o'qitish ~ hamda til materialini o'rgatish ~
- mashq** [ar.] — chet tilda bajariladigan o'quv amali; tarkibi talab hamda material qismlaridan iborat o'quv birligi; darslik ~lari majmuyi; ~lar turi/tasnifi/tizimi; ~ bajarish/qilish/berish/o'tkazish/tuzish, ~ talabi/materiali/mazmuni; informatsion (-bilim o'rgatadigan), operatsion (-til materialini o'rgatadigan; ko'nikma shakllantiradigan), motivatsion (-nutqiy, ya'ni malaka hosil qiladigan) ~lar (*V. A. Buxbinder tasnifi*); shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi takomillashtiruvchi ~lar (*J. Jalolov terminlari*); til/nutq ~lari; ~ obykti/mahsuli; ~lar iyerarxiyasi (-ketma-ketlik tartiboti); dialog (-juftnutq), monolog (-yakkanutq), polilog (-guruhnutq) ~lari; tanib olish/aytish/takrorlash ~lari; gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuv ~lari; tarjima/tayyorlov/nutqiy ~; leksika, grammatika, talaffuz (-fonetik) ~lari; og'zaki/yozma ~; situativ/kommunikativ/programmalashtirilgan ~; matn oldi/matndan keyingi ~; ~lar tasnifi (-klassifikatsiyasi, tipologiyasi); mexanik (-ong ishtirokisiz, fikr yuritmasdan bajariladigan) ~ (-drill *q.*); trenirovka ~i (-drill *q.*)
- mashg'ulot** [ar.] — dars *q.*, saboq *q.*, leksiya *q.*; amaliy va nazariy ~; seminar/laboratoriya ~i, nutqiy ~ (*rus. речева́я за́рядка/трениро́вка*); sinfdan tashqari ~; fakultativ ~; qo'shimcha ~; ~ o'tkazish; ~ ga qatnashish/qolish/kelmaslik/kelish
- ma'naviy** [ar.] — axloqiy, ichki (-ruhiy) holatga oid; ~ (-axloqiy) tarbiya; g'izo (-ozuqa); ~/ma'naviy jihatlar
- ma'no** [ar.] — so'zning semantik tarkibi; leksik, grammatik ~; lug'aviy/kontekstual ~; ~ maydoni (-semantik doira); asosiy va ko'chma ~; ~ ochish (-semantizatsiya); til birligi ~si (semantikasi), yasalishi (-formasi, shakli), qo'llanishi (-funksiyasi); ko'p ~lilik (-polisemiya *q.* polisemantizm)
- ma'nodosh** [ar.+f-t.] — sinonim *q.*; ~, shakldosh, teskari (zid) ma'noli til hodisalari
- ma'naviy** [ar.] — ma'noga oid; ~ (-semantik) doira; til birligining ~, shakliy, funksional jihatlar; ~/ma'naviy jihatlar
- metatil** [yunon. meta — orasidan, orqali, orqasidan + o'zb.] — asos

til (-biror tilni ta'rif-tavsiflash uchun qo'llanadigan til, ya'ni tillarni qiyoslashda jalb etiladigan til); ta'limshunoslikda/tilshunoslikda ~; ~ sifatida reproduktiv til materialini lingvodidaktik qiyoslashda ona tili, retsepsiyada esa o'rganilayotgan chet til xizmat qiladi (tilshunoslikdagi qiyoslashda metatil qilib istalgan til olinadi)

métod [yunon. *méthodos* — tadqiqot] — maqsadga erishish yoki vazifani o'tash usuli; didaktikada/metodikada/fanda ~; ta'lim (-o'qitish) ~i; „tarixiy“ ~lar (-yo'nalishlar); „jarayon“ ~lari (-faoliyat usullari); tarjima, to'g'ri, aralash, zamonaviy ~lar chet til o'qitishda yo'nalishlardir; zamonaviy chet til o'qitish ~lari; xorijiy mamlakatlarda audiolingval, audiovizual, intensiv, kommunikativ, interaktiv ~lar; intuitiv ~ (-to'g'ri metodning turi, qoidaga murojaat qilmay chet til o'qitish); intensiv (-jadallashtirilgan) ~; ilmiy-tadqiqot ~lari *q.* tadqiqot); intuitiv va deduktiv ~; yondashuv, metod, usul

metodik [yunon. *metodika*] — metodikaga oid, uslubiy; ~ tayyorgarlik; ~ tushuncha (-kategoriya)/termin/bilim/ma'lumot/tavsiya/topshiriq/muammo; ~ yutuq/kamchilik/xato/interferensiya; ~ amal/tadbir/usul/yondashish; ~ to'plam/adabiyot/manba/tadqiqot; ~ kurs; ~ papka *q.*; ~ ishlanma (-*rus.* *пазработка*); ~ tayyorlash (-tanlash, tasnif, taqsimot, taqdimot); ~ adaptatsiya; ~, didaktik, psixologik prinsiplar

metódika [yunon. *methodikē* < *méthodos* — tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot]: — uslubiyot, tadaris (biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari yig'indisi); til o'qitish ~si; ~ kursi/fani/dasturi/darsi; qiyosiy ~; ~ o'quv predmeti; ~ kabineti (-xonasi); chet til/ona tili/ikkinchi til o'qitish ~si; chet el (-xorijda) chet til o'qitish ~si; lisoniy ~; xususiy va umumiy ~; ~, didaktika, psixologiya, tilshunoslik

metodist [yunon. *metodika*] — ta'lim metodikasi mutaxassisi, uslubchi; chet til/ikkinchi til/ona tili ~i; ~ olim/muallim (-o'qituvchi); ~, muallim, tilshunos, ruhshunos

metodológíya [yunon. *metod*+*logos* — so'z, nutq, ta'limot] — ilmiy metod haqidagi ta'limot; tilshunoslik/ta'limshunoslik/ruhshunoslik ~si; chet til ta'limi ~si

mexanik [yunon. *mēchanikē*<*mēchanē*]: ~ (-texnik vositada yozilgan) nutq; ~ va jonli nutq; ~ mashq (-*drill- q.*)

mexanizm [yunon. *mēchanē* — mashina, qurol, asbob]: chet tilda nutqiy/grammatik ~ (-grammatik ko'nikma, material, umumlashma — *V. S. Setlin* nazariyasi, 1961); psixofiziologik ~; gapirish/tinglab tushunish/o'qish/yozuv ~lari; o'qish/yozish/talaffuz ~lari

mezon [ar.] — kriteriya, o'lchov, prinsip; baho ~i (-kriteriyasi); tanlash/taqdim/tasnif/taqsimlash ~i (-kriteriyasi, prinsipi)

mikromatn [yunon. *mikros* — kichik+ar.] — mikrotekst; ~ va makromatn

- mikrosuhbat** [yunon. mikro+ar.] — qisqa (bir necha replika (luqma)dan iborat) suhbat; muxtasar juftnutq
- mikrotékst** [yunon.+lot.] — mikromatn, jumla(lar)ga teng matn; ~ va makrotekst *q.*
- minimizátsiya** [lot. minimum] — kvantitativ kompressiya *q.*; o'rganiladigan til materiali (-leksika, grammatika, talaffuz birliklari)ni minimum miqdoriga keltirish
- minimum** [lot. minimum — eng kam] — o'rganilayotgan til makrosistemasiidan ta'lim maqsadlariga ko'ra tanlanadigan lisoniy mikrosistema; til (-leksika (-lug'at), grammatika, talaffuz (-fonetika), imlo, o'qilish qoidalari) ~lari; tematik (-mavzular), situativ (-O'NV) ~lar
- modél** [fr. modèle <lot. modulus — o'lchov, me'yor, namuna] — namuna, nusxa; nutq ~i (-nutq namunasi; tipovoy jumla; gap); dars ~i
- monolingv** [yunon. monos — bir+lot. lingua — til] — bir tilda so'zlashuvchi, yakzabon; ~ (-bir tilli), bilingv (-ikk tilli, zullisonayn), trilingv (-uch tilli), poliglot (ko'p tilli)
- monológ** [yunon. mónos — bir+lógos — so'z, nutq] — yakkanutq (-yakka shaxsning gapirishi); ~, dialog, polilog
- moslashtirish** — adaptatsiya (-asliyatdagi matnni ta'limiy maqsadda soddalashtirish yoki murakkablashtirish), lokalizatsiya *q.* qilish
- motív** [fr. motif <lot. moveo — harakatlantiraman] — undovchi sabab, ichki va tashqi turtki; nutqiy ~; faoliyat ~i
- motivatsión** [lot. motiv]: ~ mashq (-nutqiy malaka hosil qiladigan mashq); informatsion, operatsion, ~ mashqlar (*V. A. Buxbinder tasnifi*)
- motivátsiya** [lot. motiv] — nutqiy faoliyat ko'rsatishga moyillik *q.*, shaylik *q.*, ichki turtki, nutq mayli; chet til o'rganish ~si
- motór** [lot. motor — harakatlantiruvchi]: ~ (-harakat) xotirasi/analizatori/sezgisi/idroki; *q.* kinestetik
- moyillik** [ar.+o'zb.] — shaylik *q.*, motivatsiya *q.*
- muallif** [ar.] — avtor (-asar/kitob/maqola/ixtiro yaratuvchi/bunyodkori); darslik ~i (-avtori, tuzuvchi); dastur ~i (tuzuvchi); diafilm ~i (yaratuvchi)
- muallim** [ar.] — o'qituvchi *q.*, ustoz; xonaki ~ (-repetitor *q.*)
- muammo** [ar.] — masala, problema; ~li vaziyat/ta'lim/matn/dars/masala; ~li (-muammoviy) leksiya
- muhit** [ar.]: chet til ~i (-atmosfera); ona tili tabiiy (-chin) ~da o'rganiladi; chet til sun'iy ~ini yaratish; tabiiy (-chin) va sun'iy ~
- muhrlanish** [ar.+o'zb.] — tamg'alanish *q.*
- muloqot** [ar.]: nutqiy ~; amaliy/jonli ~; chet tilda ~; ~ niyati/amaliy/jarayoni/natijasi; virtual ~ (rus. виртуальное общение — bavosita ~)
- multimédia** [lot. multum — ko'p+media — vosita] — matn, audio-, video- va animatsion elementlardan iborat ta'lim vositasi

- muomala** [ar.] — soʻzlashuv, aloqa; nutqiy ~; chet tilda ~ qilish
- muqobil** [ar.] — zid, teskari; ~ assotsiatsiya *q.*
- muqoyasa** [ar.] — qiyos(lash) *q.*, taqqoslash *q.*, solishtirish, chogʻishtirish
- mustahkamlash** [ar.+oʻzb.] — oʻtilgan oʻquv materialini yanada puxtalash; dastlabki/doimiy/yakuniy ~
- mustaqil** [ar.]: ~ ish/oʻqish/bajarish
- mutolaa** [ar.] — oʻrganuv (*oʻqish turi*)
- muvoziy** [ar.] — parallel, baravar; nutq faoliyati turlarini ~ tarzda oʻrgatish; ~ sinflar/guruhlar/kurslar
- mushohadali** [ar.+oʻzb.]: ~ oʻqish (-kuzatuv oʻqish)
- moʻtadil** [ar.] — normal, norma doirasidagi; ~ tezlikdagi nutq; oʻqishning ~ surʼati
- nagrúzka** [rus.] — dars soati; muallim ~si (yuklamasi); oʻquv ~si
- namoyish** [f-t.] — demonstratsiya, koʻrsatish; koʻrgazmalilikni ~ qilish
- namuna** [f-t.]: nutq ~ si; nutqiy ~ (*Ch. Friz va R. Lado terminologiyasida* speech pattern)
- namunaviy** [f-t.] — tipovoy *q.*; ~ (-tipovoy) jumla *q.*
- nazariy** [ar.] — nazariyaga asoslangan; ~ fan/bilim/masala; ~ va amaliy mashgʻulot; chet til oʻqitish metodikasining ~ va amaliy masalalari; ~ va amaliy grammatika/tayyorgarlik
- nazariya** [ar.]: til ~si (-til haqidagi bilim); bilish ~si (-gnoseologiya, epistemologiya); sodda va murakkab ~; faoliyat/axborot/kommunikatsiya/taʼlim ~si; taʼlimning umumiy ~si (-didaktika, taʼlimshunoslik); taʼlimning xususiy ~si (-metodika, uslubiyot); nutq faoliyati ~si; ~ bilan amaliyot birligi; ~ni amaliyotga tatbiq etish; shaylik *q.* (moyillik) ~si; aqliy amallarni bosqichma-bosqich shakllantirish ~si (*P. Ya. Galperin tadqiq etgan*)
- nazorat** [ar.] — tekshiruv, kontrol; ~ obykti/vazifasi/turi/maqsadi/oʻrni/shakli/usuli/metodikasi; chet til nutqiy koʻnikmasi bilan malakasi ~ obyektidir; ~ vazifalari (-taʼlimiy, oldini olish, tuzatish, boshqaruv, baholash); ~ turlari (kundalik — doimiy, tematik — mavzuiy, davriy, yakuniy); joriy, oraliq, yakuniy ~ (*reyting tizimida*); ~ shakllari (yolgʻiz/yoppasiga, ogʻzaki/yozma, bir tilda/ikki tilda); oʻz-oʻzini ~ qilish; koʻnikma/malakani ~ qilish; ~ (-tekshiruv) oʻtkazish; tekshiruv ~i (mas. kontrol ish)
- neytral** [lot. neutralis < neuter — bu ham, u ham emas] — xolis
- neytralizatsiya** [lot. neytral] — bartaraf etish; xatolarni ~ qilish
- niktopédiya** [yunon. *ných, qaratqich kelishigida* nyktós — kecha, kechasi + paidéia — oʻqitish, oʻrgatish] — uyquda oʻrgatish; chet tilni ~ yoʻli bilan oʻrgatish; ~ bilan suggestopediya *q.*
- nóрма** [lot. norma — tartib-qoida, qonun-qoida] — meʼyor; fonetik (-talaffuz) ~; baho ~si
- normal** [lot. norma] — moʻtadil; ~ tezlik (*nutq tezligi, oʻqish, tezligiga oid*)

novokabular: ~ lug'at (-chet tilda uchraydigan, biroq o'quvchi lug'at boyligiga kirmaydigan so'z); vokabular va ~ lug'at

nutq [ar.]: og'zaki/yozma ~; og'zaki ~ (-gapirish, tinglab tushunish); yozma ~ (-o'qish, yozuv); ~ ko'nikmasi/malakasi/mexanizmi; ~ faoliyati turlari (-gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuv); dialog ~ (-juftnutq), monolog ~ (-yakkanutq), polilog (-guruh nutq); ~ faoliyati nazariyasi (oriyentir (-yo'llovchi) asos + ijro qismiga oid); ~ oqimi/tezligi (-sur'ati)/amaliyoti/tajribasi/jarayoni/mavzusi; ~/til materiali; erkin (-spontan initsiativ) ~; javob (-reaktiv) ~; assotsiativ (-stoxastik, fikrsiz) ~; tayyorlangan va tayyorlanmagan ~; tayyorlanmagan ~ (-eksprom(p)t, badiha, improvizatsiya); chet tilda (inglizcha, ispancha, nemischa, fransuzcha, turkcha) ~; ichki va tashqi ~; bog'lanishli ~; ~ faoliyati, operatsiya bilan harakat (-amal)dan iborat; jonli va mexanik (-diktir) ~

nutqharakat [ar. + ar.] — motor (-harakat) sezgilari hamda analizatorlari sirasiga kiradi (-rus. речемото́рный); ~ sezgisi/analizatori; ~/qo'lharakat (-rus. рукомото́рный) sezgisi/analizatori

nutqiy [ar.]: ~ amal (-harakat); ~ mashq/namuna/material; ~ yo'nalganlik; ~ iqtidor/layoqat (-kompetensiya q.); ~ mashg'ulot (-rus. речева́я за́рядка/трениро́вка)

óbráz [rus.] — timsol; tovush/harf/imlo ~i; ko'ruv/eshitish/harakat ~i

olimpiáda [yunon. Olympias <qaratqich kelishigida Olympiados] — musobaqa, konkurs, ko'rik; o'quv/o'quvchilar ~si; maktab/tuman/shahar/viloyat/respublika ~si; chet til bo'yicha ~; ~ ishtirokchisi/g'olibi/tashkiliy qo'mitasi/jurisi/topshiriqlari/materiali/shartlari; ~ o'tkazish/tayyorlash

omofón [yunon. homós — bir xil + phónē — tovush] — aytilishda o'xshash, ma'nosi turlicha so'zlar (mas. write — right; hour — our; weak — week); ~ bilan omograf omonimni tashkil etadi

omógraf [yunon. homós — bir xil + gráphō — yozaman] — yozuvda o'xshash, biroq turli ma'nodagi so'z (mas. right — o'ng(tomon) va to'g'ri; leaves — ketadi va barglar); ~ va omofon omonimni tashkil qiladi

omónim [yunon. hómōs — bir xil + ónyma — nom] — shakldosh; ~ (-shakldosh) til birliklari; ~, antonim, sinonim; ~lar omograf hamda omofondan iborat

operatív [lot. operatsiya]: ~ xotira (-qisqa muddatli xotira); ~ va doimiy xotira; ~ (-amaliy) qoida (V. S. Setlin termini, 1961)

operatsión [lot. operatsiya]: nutq faoliyatida ~ (-til materiali qo'llanishi) hamda motivatsion (- fikr bayon etilishi) tomonlari mavjud; ~ mashq (-til materialini o'rgatadigan mashq); informatsion q., ~, motivatsion q. mashqlar (V. A. Buxbinder tasnifi)

operátsiya [lot. operatio — harakat, ish] — faoliyat birligi, harakat

- qilish usuli (*A. N. Leontyev ilmiy iste'molga kiritgan termin*); grammatik ~; aqliy ~, harakat (-amal), faoliyat
- oppozitsi3n** [lot. oppositio — taqqoslash, solishtirish]: talaffuzda ~ qiyinchilik; ~, pozitsion, artikulatsion, akustik qiyinchiliklar
- optimizatsiya** [lot. optimus — eng yaxshi]; mavjud turlarning a'losi] — yengillashtirish, samaradorlik; ta'lim ~si (-o'qitishni eng maqbul darajaga ko'tarish); ~ hamda intensivatsiya *q.*
- oraliq**: ~ maqsad (o'rta maktab ta'limida chet til og'zaki nutqi haqida); ~ (- sinfiy) va yakuniy maqsad; ~ ko'rsatkich (sinflar bo'yicha nutqiy malakalarga oid); ~ tekshiruv (nazorat)/test/maqsad
- orfoqrafiya** [yunon. orth3s — to'g'ri + gr3pho — yozaman] — imlo *q.*, yozish qoidasi
- original** [lot. originalis — tabiiy holdagi, aslan] — asliyat *q.*, asl nusxa, qo'l yozma; ~ asar/matn/darslik/programma (dastur); ~ va adaptatsiya qilingan matn
- oriyentir** [lot. oriens] — *aynan* sharq, ya'ni sharqqa yo'nalish]: nutqning ~ (-yo'llovchi) asosi, nutq faoliyati nazariyasida (*P. Ya. Galperin termini*); nutqning ~ asosi bilan ijro qismi
- oson** [f-t.] — o'zlashtirish uchun kam kuch hamda vaqt talab qiladigan; ~ o'quv material; ~ til (-leksik, grammatik, talaffuz) birligi; ~ hodisa/material/birlik; ~-qiyinlik (-o'quvchi kuchiga moslik) prinsipi; ~ va qiyin til hodisasi
- ovozli**: ~ film; ~ va ovozsiz film
- ovozsiz**: ~ o'qish (-tovush chiqarmay, ichda o'qish); — film; ~ va ovozli film
- og'zaki** — yozma emas; ~ muloqot; ~ nutq (-tovush nutqi, gapirish, tinglab tushunish; -dialog, monolog, polil3g); ~ nutq/mashq; ~ nutq mashqi; ~ imtihon/sinov/nazorat; ~ muloqot/axborot/tarjima; ~ aytish/bajarish/o'zlashtirish/taqdimot; ~ ilgariylash prinsipi (~ nutqning oldin yurishi prinsipi); ~ kirish kursi; ~ va yozma; ~ va yozma nutq/mashq/matn/shakl
- ong**: o'quvchi ~i; ~ ishtirokida/ishtirokisiz (intuitiv *q.*)
- ongli**: ~ o'rganish/o'zlashtirish/ta'lim/harakat/faoliyat; ~-qiyosiy metod; ~-amaliy metod; ~ va ongsiz
- onglilik**: ~ prinsipi (*didaktika prinsiplaridan*); ~ va ongsizlik
- p3pka** [nem.]: metodik ~ (-studentlarning chet til o'qitish metodikasidan jamlaydigan materiallari majmuyi — *ingl. Student's guide book*)
- paradigma** [yunon. par3deigma — o'rnak, namuna] — so'zning turlanish, tuslanish tartiboti (-flektiv o'zgarishlar yig'indisi); ~ va sintagma *q.*; ~tik (-ichki bog'lanish, mas. inglizcha/o'zbekcha/arabcha kitob) va sintagmatik (-so'z birikishi, mas. inglizcha kitob, inglizcha kitob o'qimoq) aloqa
- passiv** [lot. passivus — harakatsiz]: ~ lug'at/leksika/grammatika/minimum/til material; ~ va aktiv (*til materialiga oid*)

- páuza** [lot. pausa <yunon. páusis — to‘xtash] — to‘xtash *q.*
- pedagógik** [yunon. pedagogika] — pedagogikaga oid (-ta‘lim-tarbiyaviy)
- pedagogika** [yunon. paidagógiké <pais (paidos) — yosh bola + ago — yetaklayman, tarbiyalayman] — ta‘lim-tarbiya haqidagi fan, tarbiyashunoslik; ~ tizimi/ta‘limi/tajribasi/eksperimenti/praktikasi; ~ praktikasi (-talabning maktabda dars berishi hamda o‘tkazadigan tarbiyaviy ishlari); umumiy/xususiy/qiyosiy ~; maktab/oliy o‘quv yurti ~si; ~ jamoasi/kengashi
- persépsiya** [lot. perceptio — idrok qilish, qabul qilish] — idrok qilish (-obyektiv voqelikni sezgi organlarimiz orqali bevosita aks ettirish)
- perseptív** [lot. persepsiya]: ~ timsol/idrok/ko‘nikma
- plan** [lot. planum — tekislik, yuza] — reja *q.*; o‘quv ~i; dars/mavzuiy/yillik ~; tilning ifoda/mazmun ~i
- planlashtirish** [lot. plan + o‘zb.] — rejalashtirish *q.*
- poliglóssiya** [yunon. polýs — ko‘p + glóssa — til] — ko‘p tillilik (-uch va undan ortiq tilni bilish)
- poliglót** [yunon. polýs — ko‘p + glóttá — til] — ko‘p tillarda so‘zlashuvchi, ko‘p tilli; ~ (-ko‘p tilli), trilingv (-uch tilli), bilingv (-ikki tilli, qo‘shzabon, zullisonayn), monolingv (-bir tilli, yakzabon)
- polilóg** [yunon. polýs — ko‘p + lógos — so‘z] — guruhnutq (-uch va undan ortiq kishi suhbat), ko‘pchilik suhbat (*metodikaga H. Palmer kiritgan termin*); ~, dialog, monolog
- polisemiya** [yunon. polýs — ko‘p + sema — belgi] — ko‘p ma‘nolilik (-polisemantizm); til birligining ~si
- potensial** [lot. potentia — kuch]: ~ lug‘at (-o‘quvchiga notanish, lekin uchratganda ma‘nosini topish mumkin bo‘lgan so‘z); ~-ichki imkoniyatlari (-xufiya) va real (-naqd) til materiali; ~ va real lug‘at/grammatika
- pozitsión** [lot. positio — vaziyat, holat]: ~ qiyinchilik (*talaffuzda qiyinchilik*); oppozitsion, ~, artikulatsion, akustik qiyinchiliklar
- práktika** [yunon. praktikós — faol] — amaliyot, ish, tajriba; nutq ~si (-amaliyoti); amaliyot (-~) bilan nazariya birligi; o‘quv-tarbiya ~si (-talabalarining maktabda o‘tadigan darslari hamda o‘tkazadigan tarbiyaviy ishlari)
- predmét** [rus.] — narsa; o‘quv ~i (-fan, soha); tadqiqot ~i; ~ (-narsa) bilan hodisa obyekt deyiladi; ~ (-ashyoviy, tashqi) ko‘rgazmaliligi
- prefiksátsiya** [lot. praefixum — oldiga mahkamlangan] — old qo‘shimchasi (-prefiks) qo‘shish; ~ va deprefiksatsiya *q.*
- prezentátsiya** [lot. presentatio — tanishtirish, taqdim etish] — taqdimot *q.* o‘quv materialini o‘zlashtirish yoki o‘rgatishdagi dastlabki qadam; til materialini tanlash, tasniflash, taqsimlash, taqdim (-~) etish
- prínsip** [lot. principum — asos, negiz] — mezon *q.*; o‘qitish ~i (-ta‘lim-

tarbiya jarayonida asos bo'ladigan ta'limiy qonun-qoida); chet til o'qitishning didaktik, psixologik, metodik ~lari; chet til o'qitish metodikasining umumiy, xususiy, maxsus ~lari; tanlash, tasniflash, taqsimot, taqdimot ~lari; ~lardan metod shakllanadi; og'zaki nutqning oldin yurishi ~i

produktiv [lot. productivus — unumli, foydali]: ~ nutq (-chet tilda yuritiladigan ijodiy nutq, chinakam muloqot); ~ (-reproduktiv)/retseptiv nutq (~ bilan reproduktiv terminlari ma'nodosh hisoblanadi, V. S. Setlin, 1992: 5)

professional [lot. professio — o'z ishi qilib olish] — kasbiy q., sohaviy q.

prognóz [yunon. prógnōsis — bashorat, karomat, oldindan bilish] — oldindan aytish, bilish, bashorat, karomat; qiyinchilikni ~ qilish (-oldindan bilish, aniqlash)

programma [yunon. prógramma — bildirish, farmoyish] — dastur q.; o'quv ~si; maktab/oliy o'quv yurti ~si; chet til o'qitish metodikasi ~si; ~ materiali/tuzilishi/talablari; ~ tuzuvchi; chet til o'qitish konsepsiyasi, standart hamda ~, darslik, qo'llanma

programmallashtirilgan [yunon. prógramma + o'zb.]: ~ ta'lim/mashq/o'quv materiali/darslik/test

programmaviy [yunon. programma] — dasturiy q., programmaga oid

psixik [yunon. psychikos — ruhiy]: ~ jarayon (-diqqat, idrok, xotira, tafakkur ~ jarayonlardir)

psixolingvistika [yunon. psychikós — ruhiy + lot. lingua — til] — nutq faoliyatini o'rganadigan fan sohasi

psixologik [yunon. psixologiya] — psixologiyaga oid; ~ ma'lumot; chet til o'qitishning ~ prinsiplari; ~, pedagogik, metodik prinsiplar

psixologiya [yunon. psyché — ruh + lógos — ta'limot] — ruhshunoslik q.; pedagogik ~;/xulq/nutq/ta'lim ~si; chet til o'qitish ~si

qaytarish — takrorlash q.; takrorlash (- ~) darsi

qiyin — mushkul, murakkab (-o'zlashtirish uchun vaqt hamda mehnat/kuch/talab qiladigan); ~ material/leksika/grammatika/talaffuz/hodisa/birlik/matn/so'z/qoida/mavzu; ~ va oson

qiyinchilik — lisoniy tafovut hosilasi (yoki tashkiliy kamchilik oqibati); funksional (-qo'llanish), formal (-shakliy, yasalish), semantik (-ma'noviy) ~; leksik, grammatik, talaffuz ~gi; artikulatsion, oppozitsion, pozitsion, akustik (*talaffuzda*) ~; ~lar tasnifi (-klassifikatsiyasi, tipologiyasi); ~ni yengish/bartaraf etish/oldini olish/tarqatish/oldindan bilish; ~larni tarqatib o'rgatish prinsipi; ~ oqibati — xatodir; interferension q. hamda tashkiliy (-rus. организационная) ~; ~ bilan xato; statik (-nazariyada) va dinamik (-xato) ~; hokim va tobe ~

qiyosiy [ar.]: ~ metodika/pedagogika/tilshunoslik/grammatika/fonetika; ongli~~ metod (*o'qitish metodlaridan*); qiyosiy metodika (*J. Jalolov termini*)

qiyos(lash) [ar. + o'zb.] — taqqoslash *q.*, muqoyasa *q.*, chog'ishtirish, solishtirish; lingvodidaktik/lingvistik ~; lingvodidaktik ~ning kontrastiv *q.* komparativ *q.* turlari; kontrastiv *q.* (-tillararo muqoyasa), komparativ ~ (-til ichki qiyoslanishi)

qiziqish: chet tilga ~; ~/ixlos/e'timod uyg'otmoq; ~ bilan qaramoq/o'rganmoq/shug'ullanmoq

qobiliyat [ar.]: idrok/eslash/o'rgatish/farqlash/ijodiy/umumlashtirish/fahmlash/bilish ~i

qoida [ar.] — nutqda qo'llanadigan til materiali haqidagi mavhumlashtirilgan ko'rsatma yoki umumlashma; ~ ta'rifi; ~-umumlashma va ~-ko'rsatma; umumiy va xususiy ~; ~ bilan analogiya; o'qilish/yozilish (yozish)/artikulatsiya (-aytish, talaffuz) ~si; grammatik ~; yozish ~si (-imlo, orfografiya); verbal yoki vizual ~; til materiali yoki til texnikasi ~si; birlamchi, qiyosiy, yakuniy ~; ~ chiqarish/berish/yodlamalik/so'ramaslik/yozdirmaslik (*maktab ta'limida*); chet til bo'yicha sodda/lo'nda/pedagogik (-didaktik)/amaliy (-operativ) ~

qolip — etalon *q.*, klishe *q.*, tayyor jumla *q.*

qurol: o'quv ~ *q.* (-vositasi *q.*)

qo'lharakat [o'zb. + ar.] — harakat (-motor) (sezgi hamda analizator turlaridan); ~ sezgisi/analizatori; ~, nutq, harakat sezgisi/analizatori

qo'llanilish — funksiya *q.*, ishlatilish (nutq faoliyatining to'rtala turida qo'llanish, ya'ni reproduktiv (-qo'llash) hamda retseptiv (-tanib olish) ma'nolari mujassamlashgan, (*rus.* оперирование, функционирование); ~ (-funksiya), yasalish (-forma, shakl), ma'no (-semantika)

qo'llanma — dasturulamal; o'quv/metodik/ko'rgazmali/didaktik ~; o'quvchi/muallim ~si; ~ darslik, dastur, standart, konsepsiya

raport [fr. rapport < rapporter — qaytarib (olib) kelmoq] — dars boshlanishida navbatchi o'quvchining og'zaki axboroti; navbatchining ~i (-navbatchi bildirishi *q.*)

ravon [f-t.]: ~ gapirish/o'qish/talaffuz

rag'bat [ar.] — stimol *q.*, undash

reaksiya [lot. re — qarshi + actio — harakat]: ~ replikasi (-suhbatdoshning javob jumlasini — luqma); ~ va stimol replikalar (*suhbat chog'ida*)

reaktiv [lot. reaksiya]: ~ nutq, (-javob nutqi)

real [lot. realis — haqiqiy]: ~ lug'at (-avval o'zlashtirilgan, xotirada saqlanmish so'zlar); ~ (-naqd) va potentsial (-xufiya) lug'at; ~ situatsiya (-tabiiy, hayotiy vaziyat); tabiiy (~) va sun'iy vaziyat; ~ lug'at/situatsiya; ~ bilim yurti (*Chor Rossiyasida o'quv muassasasi*)

referat [lot. refero — bayon qilaman] — o'qilgan matn/asarning qisqacha yozma bayoni

- reja** [f-t.] — plan *q.*, o‘quv ~si; dars ~si (konspekt *q.*); yillik ~ (-kalendar plan); mavzuiy ~ (-tematik plan); yillik mavzuiy ~ (-kalendar-tematik plan); dars, yillik-mavzuiy ~lar
- rejalashtirish** [f-t.+o‘zb.] — planlashtirish *q.*; o‘quv jarayonini ~; o‘quv-tarbiya ishlarini ~
- repetitor** [lot. repetitor — takrorlovchi] — uyda chet til o‘rgatuvchi, muallim (-darsdan tashqari mashg‘ulot olib boruvchi); ~ yordamida chet til o‘rganish
- réplika** [fr. réplique] — lo‘nda fikr (-juftnutq ishtirokchilari qo‘llaydigan gapirishga undovchi va javob jumalari); reaksiya (-javob) va stimul (-undovchi) ~lari
- reproduksiya** [lot. re — qaytadan, yangidan+productio — yaratish, yetishtirish] — fikrni og‘zaki yoki yozma bayon etish, axborot berish; ~ va retsepsiya
- reproduktiv** [lot. reproduksiya] — reproduksiyaga oid; ~ nutq (-muloqot darajasiga ozmi-ko‘pmi yetkazilgan chet tilda fikrni bayon etish); ~ lug‘at/leksika/grammatika/mashq/egallash/malaka; ~ (- produktiv) va retseptiv nutq
- reproduksént** [lot. re + producens, *qaratqich kelishigida* producentis — yaratuvchi, yetishtiruvchi] — fikrni og‘zaki yoki yozma bayon etuvchi, gapiruvchi yoki yozuvchi, axborot beruvchi; ~ va retsiyent
- resipiýent** [lot. recipiens, *qaratqich kelishigida* recipientis — qabul qiluvchi] — o‘zga shaxs nutqini tinglab tushunuvchi (-nutqni idrok etib axborot oluvchi); ~ va reproduksent
- retrospektiv** [lot. retro — orqaga + specio — qarayman] — tarixiy, o‘tmish (-moziy) bilan bog‘liq; chet til o‘qitish metodikasini ~ (-tarixiy planda) o‘rganish; ~ tahlil *q.*; ~ (-tanqidiy) ilmiy tahlil
- retsépsiya** [lot. receptio — qabul qilish, olish] — og‘zaki nutqni tinglab yoki yozma matnni o‘qib tushunish (-umuman idrok etib tushunish); ~ va reproduksiya (-produksiya)
- retseptiv** [lot. retsepsiya] — retsepsiyaga oid; ~ nutq (-o‘zga shaxs nutqini idrok etib, ya‘ni o‘qib yoki tinglab tushunish); ~ va reproduktiv/(-produktiv) nutq
- réyting** [ingl. rating] — o‘quvchi/talaba bilim, ko‘nikma, malakalari darajasini aniqlash
- rezumé** [fr. résumé < résumer — ixcham bayon qilmoq] — qisqacha xulosa, yakun; maqola/kitob/dissertatsiya ~si
- rivojlantirish:** xotirani/tafakkurni/qiziqishni/malakani/nutqni ~
- rivojlantiruvchi:** ~ maqsad (*chet til o‘qitish maqsadlaridan*); amaliy, ta‘limiy, tarbiyaviy, ~, kasbiy maqsadlar; ~ ta‘lim/mashq; shakllantiruvchi, ~, takomillashtiruvchi mashqlar
- rol** [fr. rôle): ~ga kirib o‘ynash/gaplashish; *q.* situatsiya, vaziyat
- ruhshunos** [ar. + f-t.] — psixolog, ruhiyatshunos
- ruhshunoslik** [ar. + f-t. + o‘zb.] — psixologiya *q.*; chet til o‘qitish

metodikasining ~ (-psixologik) asoslari; chet til o'qitish ~ prinsiplari (-tamoyillari)

saboq [ar.] — dars *q.*, mashg'ulot *q.*

salbiy [ar.] — ijobiy emas, nomaqbul; ~ ta'sir (-interferensiya); ~ (-interferensiya) va ijobiy (-transpozitsiya, fasilitatsiya) ta'sir; ona tilining chet tilga ijobiy va ~ ta'siri, *q.* interferensiya, *q.* transpozitsiya

samaradorlik [ar. + f-t. + o'zb.] — optimizatsiya *q.*

sarflash [ar. + o'zb.]: vaqt/kuch/mehnat ~; lisoniy qiyinchilikni yengish kuch hamda vaqt ~ni talab etadi

saviya [ar.] — tayyorgarlik *q.*; nutqiy ~ (-kompetensiya)

savol [ar.]: ~ bermoq/tuzmoq/yozmoq/qo'ymoq; yordamchi (yo'lovchi) ~

semantik [yunon. semantika] — semantika bilan bog'liq, ma'noviy; ~ (-ma'noviy) doira; ~ qiyinchilik; til birligining formal (-shakliy, yasalish), ~ (-ma'noviy), funksional (-qo'llanish) jihatlari; ~, formal, funksional qiyinchiliklar

semantika [yunon. semantikós — anglatuvchi, bildiruvchi] — tilshunoslikning tarmog'i; ma'no (-so'z yoki uning qismi ifodalaydigan ma'noviy) tomoni

semantizatsiya [yunon. semantika] — yangi so'z ma'nosini ochish (-tarjimali va tarjimasiz usulda ma'no ochish); ~ (-ma'no ochish) va desemantizatsiya (-ma'no yo'qotish)

seminar [lot. seminarium — ko'chatzor] — oliy o'quv yurtida mashg'ulot turi; metodikadan ~; ~ hamda leksiya mashg'ulotlari; amaliy/~laboratoriya/nazariy (-leksiya) mashg'ulotlari

sériya [lot. series — qator]: darslik/mashqlar/rasmlar ~si

sezgi: ko'ruv, eshitish, nutqharakat, qo'lharakat ~lari; analizator bilan ~

simultán [fr. simultané — ayni bir paytda] — bir vaqtning o'zida yuz beradigan (mas. idrok bilan tushunish/tushunmaslik)

sinf [ar.] — yagona o'quv dasturi bo'yicha o'quv yili davomida shug'ullandigan o'quvchilar jamoasi; bitiruvchi/yuqori/quyi ~; ~dan tashqari

sinónim [yunon. synónymos — nomdosh] — ma'nodosh *q.*; ~ til birliklari; ~, omonim, antonim

sinov — test, imtihon, zachot, tekshirish; talabning ~/diplom darsi (*maktab pedagogika praktikasida*)

sintáγμα [yunon. sýntagma — birlashgan, tutash]: so'zlarning yonma-yon kelishi (mas. so'z birikmasi); ~ va paradigma; ~tik va paradigmatic

sintetik [yunon. sintez]: ~ (-intensiv, tahlilsiz, kursor) o'qish; matnni ~ o'qish (-yozma matnni idrok etib tushunish); ~ va analitik o'qish

síntez [yunon. sýnthesis — birlashtirish, qo'shish] — yaxlit, butun; analiz va ~ metodi (*ilmiy tadqiqot metodlaridan*); analiz *q.* va ~

sistéma [yunon. sýstēma — qismlardan iborat butunlik] — tizim; til (-leksika, grammatika, fonetika) ~si; ta'lim ~si; mashqlar ~si; bi-

rinchi/ikkinchi signal ~si (*I. P. Pavlov ta'limoti*); kabinet ~si; ~li yondashish (chet tildan bo'lg'usi muallimlarga tilshunoslik ma'lumotlarini ilmiy sistemada o'rgatish); ~li (-sistematik) va konsentrik *q.* yondashish

sistemalashtirish [yunon. sistema + o'zb.]: til materialini ~ (-tartibga tushirib takrorlash); ~ metodi (*ilmiy-tadqiqot metodlaridan*)

sistemalilik [yunon. + o'zb.]: ~ prinsipi (chet tilda nutq malakalari tizimini yaratish)

sistematik [yunon. sistema]: ~ yondashish (-til materialini umumlashtirib, sistemaga tushirib o'rgatish); ~ va konsentrik *q.* yondashish; (*I. V. Raxmanov 1956: 177-178 ta'riflagan*)

situativ [lot. situatsiya] — nutqiy vaziyatga oid; ~ nutq (*ingl. role playing*); ~ yondashish; ~ minimum

situatsiya [lot. situatio — vaziyat] — vaziyat *q.*; nutq ~ si/mavzuyi; sun'iy va tabiiy (- real) ~; verbal/vizual ~; teatrlashtirilgan ~ (- matnni inssenirovka qilish)

slayd [ingl. slide] — rangsurat (*ta'limning ko'rgazmali vositalaridan*)

SND — sof nutq darsi (*q. dars*); AND/SND

sof [ar.]: ~ nutq darsi hamda aralash nutq darsi (*chet til darsining ikki turi*); ~ (-asil) nutqiy mashq (*rus. собственно речевое упражнение*)

sohaviy [ar.] — sohaga, biror fanga oid; ~ matn/termin/bilim/axborot; ~ (-kasbiy) maqsad (*-chet til ta'limida*)

spontan [lot. spontaneus — beixtiyoriy] — o'z-o'zidan, beixtiyoriy so'dir bo'ladigan nutq; ~ (- initsiativ) nutq (-mustaqil tashabbus bilan yuritiladigan erkin nutq)

stadiya [yunon. stadion — muayyan masofa] — bosqich *q.*

standart [ingl. standard — me'yor, namuna, nusxa] — ta'limning me'yorlangan mazmuni; o'quv-davlat ~i (-tayanch marrani egalash bo'yicha ta'limiy me'yor); chet til o'qitish konsepsiyasi, ~ hamda programma, darslik, qo'llanma

statar [nem.]: ~ o'qish (-mukammal o'qish)

stereotip [yunon. stereos — qat'iy, barqaror + typos — iz, tamg'a]: dinamik *q.* ~ (- fikran tamg'alanish, muhrlanish)

stimul [lot. stimulus — xalacho'p] — harakatga undash, turtki, rag'bat; ~ replikasi (-suhbatdoshning gapirishga undovchi jumlas); ~ va reaksiya *q.* replikalari

stoxastik [yunon. stochastikos — topa biluvchi, aytib beruvchi] — assotsiativ *q.* / ~ nutq, (-fikrsiz nutq)

strategiya [yunon. strategia < stratós — qo'shin + agō — yetaklayman] — ta'lim jarayonini boshqarish, ya'ni yo'lga solib turish; o'qitish ~si (-umumiy yo'nalish, ta'lim maqsadi); o'qitish ~si, taktikasi *q.*, texnologiyasi *q.*

struktura [lot. structura — tuzilish, joylashish, tartib]: grammatik ~ (-

- grammatik qurilish); dars ~si (-tuzilishi); dastur/darslik/qo‘llanma ~si (-tuzilishi)
- studént** [lot. studeo — urinmoq, tirishmoq, qunt bilan harakat qilmoq] — talaba; institut/universitet/chet tillar fakulteti ~i; ~, bakalavr, magistrant, aspirant
- suffiks** [lot. suffixus — birlashtirilgan] — o‘zakka qo‘shiladigan qo‘shimcha
- suffiksatsiya** [lot. suffiks] — suffikslar qo‘shilishi; ~ va desuffiksatsiya *q.*
- suggestiv** [lot. suggestio — ixlos, ishonch, e‘timod]: ~ metod (*chet tilni jadal o‘qitish metodi, G. Lozanov metodi*)
- suggestopediya** [lot. suggestio — ixlos ...+ paidéia — o‘qitish, o‘rgatish] — ishonchga asoslangan ta‘lim; chet tilni ~ yordamida o‘rgatish; ~/niktopediya *q.*
- suhbat** [ar.] — so‘zlashish, musohaba, guruh, juftnutq (-dialog), guruhnutq (-polilog); ~ qurish/o‘tkazish/tashkil qilish/tuzish; ~ orqali (-savol-javob yo‘li bilan) ilmiy muammoni aniqlash (*ilmiy-tadqiqot metodlaridan*)
- suhbatdosh** [ar.+f.t.] — o‘zaro so‘zlashuvchi ikki va undan ortiq kishi (-dialog/polilog jarayonida sheriklar), kommunikant *q.*
- sur‘at** [ar.] — tezlik *q.*, temp; nutqiy ~ (-temp, tezlik)
- so‘rash:** og‘zaki ~; o‘tilgan/yangi materialni ~; mashq jarayonida ~
- so‘roq:** ~ gap/so‘z/belgisi
- so‘rov:** ~ varaqasi (-anketa *q.*)
- so‘z:** chet tildagi ~; ~ boyligi; ~ning hissiy (-tashqi) va ma‘naviy (-ichki) tomoni; ~ning ma‘nosini ochish; ~ yasash minimumi/unsuri/tahlili; ~ birikmasi; ~ bilan (-verbal) ifodalash; ~larni metodik guruhlash; tanish va notanish ~lar; tayanch ~; alohida/yakka/kontekstda ~; ~/lug‘at birligi/leksik birlik/imlo birligi
- so‘zlash** — gapirish, suhbat; chet tilda ~; ~ va tinglash
- so‘zlashuv:** ~ kitobi (*rus. разговорник*); ~ tili (-og‘zaki nutq)
- so‘zlovchi** — fikr bayon etuvchi; chet tilda ~; ~ va tinglovchi
- tabaqalash** [ar.+o‘zb.] — differentsiatsiya *q.*, individualizatsiya
- tadqiqot** [ar.] — tekshirish, o‘rganish, izlanish; ~ obykti/predmeti/jarayoni/natijasi; ilmiy- ~ metodlari (-eksperiment, kuzatish, tajriba o‘tkazish, anketa o‘tkazish, test, suhbat, intervyu, xronometraj, analiz-sintez, sistemalashtirish); fundamental ilmiy ~; amaliy-ilmiy ~; nazariy/eksperimental ~; muallimlar/talaba (-student)lar ilmiy~~ ishlari
- tadrijiylik** [ar.+o‘zb.] — izchillik, ketma-ketlik; mashqlar bajarishda ~
- tadris** [ar.] — dars berish (-o‘qitish) tizimi, uslubiyot *q.*, metodika *q.* chet til ~i (-chet til o‘qitish metodikasi, *ilmiy iste‘molga J. Jalolov* (1996:268) *kiritgan*)
- tafakkur** [ar.] — fikrlash; ~ shakllanishi; mantiqiy/mavhum (-abstrakt) ~; nutq bilan ~ birligi; ~ verbaldir *q.*
- tahlil** [ar.] — analiz (-til materialini ta‘rif-tavsif etish orqali tushun-

- tirish); grammatik ~; qiyosiy ~; ilmiy-metodik ~; ilmiy adabiyotni retrospektiv (-tarixiy) ~ qilish; retrospektiv/tanqidiy/ilmiy/amaliy (-konstruktiv) ~; ~ (-analiz) va taqlid (-imitatsiya)
- tahliliy** [ar.]: talaffuz o'rgatishning ~ metodi: ~ va taqlidiy usul/metod
- tahsil** [ar.] — o'qish, bilim olish; ~ olmoq (-o'qimoq)
- tajriba** [ar.]: maktab/o'qitish/ish/muallim ~i; til ~si [-lingvistik (-bilim), lisoniy (-ko'nikma), nutqiy (-malaka) qismlaridan iborat (*J. Jalolov tasnifi*) ona tili, ikkinchi til, chet tilda to'plangan tajriba): ilg'or ~; ta'limiy ~ (*ilmiy-tadqiqot metodi*); ~-sinov (eksperiment) o'tkazish (*ilmiy-tadqiqot metodi*); ~ orttirish/o'rganish/to'plash/tarqatish/umumlashtirish; ta'limiy ~, eksperiment (*ilmiy-tadqiqot metodlari*).
- takomillashtiruvchi**: ~ mashq; shakllantiruvchi *q.*, rivojlantiruvchi *q.*, ~ mashqlar (*J. Jalolov tasnifi*)
- takrorlash** — qaytarish *q.*; darsni/materialni/mashqni ~; taqlidan ~ (-drill); ~ darsi
- taktika** [yunon. taktiká — tartibga solish]: chet til o'qitish ~si (-amaliy ishlar, ta'limiy vazifalar: tushunish, fikr bayon qilish, til birligini o'rganish va h.k.); ta'lim ~si/strategiyasi *q.*/texnologiyasi *q.*
- talaba** [ar.]: — student (-oliy o'quv yurtida tahsil oluvchi); institut/universitet/chet tillar fakulteti/bo'limi ~ si; ~, bakalavr, magistrant, aspirant
- talaffuz** [ar.] — tovush/so'z/gap aytilishi; tilning ~ (-fonetik) jihati; gapirishning ~ tomoni; ~ materiali (-fonetik material); ~ birligi (-fonetik birlik); ~ qiyinchiliklari (-artikulatsion, oppozitsion, pozitsion (-artikulatsiya hamda intonatsiya operatsiyalari — *J. Jalolov* (1972) *tasnifi*); ~ materiali (-tovush, tovush birikmasi, fonetik hodisa, intonatsiya); ~ (-fonetik) hodisasi (-tovushning so'z yoki bo'g'indagi o'rniga ko'ra aytilishi); chet tilcha taqribiy (-approssimatsiyalashgan) ~ va ona tilida to'g'ri ~; adabiy ~; ~ o'rgatishning taqlidiy (-imitativ) va tahliliy (-analiz) metodlari; ~ o'rgatish usullari (-tovush alohida, so'zda, gapda aytiladi); ~ni o'rgatish mazmuni — TO'M *q.* kompressiya.
- tamg'alanish**: fikran tamg'alanish (-dinamik stereotip *q.*)
- tanishuv**: ~ o'qish (-mazmunni yuzaki tushunib o'qish, umumiy mazmunni o'rganish (-*ingl.* fluently reading — ravon, jadal, yuzaki o'qish); ~, o'rganuv, kuzatuv o'qish (*S. K. Folomkina tasnifi*)
- tanlash** — saralash, ajratish, saylash, seleksiya; ~ mezoni/manbayi/birligi/tadbiri; til materialini/matnni/mashqni ~; leksikani/grammatikani/fonetikani ~ (-minimum yaratish); ~ tadbiri (-*rus.* процедура); ~, tasnif, taqsimot, taqdimot (*J. Jalolov tasnifi*, 1996)
- taqdimot** [ar.] — prezentatsiya *q.*, o'quv materialini o'zlashtirish yoki o'rgatishdagi dastlabki qadam; statik (-darslikda) va dinamik (-amalda) ~ (*J. Jalolov terminlari*, 1996)

- taqlid** [ar.] — oʻxshatish, imitatsiya (*V. S. Setlin taʼbiri bilan „idrok etilganda oʻxshatib nutqiy harakat qilish“*); ~ va tahlil metodi *q.* imitatsiya, analiz
- taqlidan** [ar.] — taqlidiy yoʻl bilan, oʻxshatib, ergashib; ~ talaffuz qilish/gapirish/oʻqish/yozish; ~ bajariladigan mashq (-drill)
- taqlidiy** [ar.]: talaffuz oʻrgatishning ~ metodi; ~ (-imitatsiya) va taqliliy (-analiz) metod
- taqqoslash** [ar.+oʻzb.] — qiyos(lash) *q.*, muqoyasa *q.*
- taqribiy** [ar.]: ~ (-approksimatsiyalashgan) talaffuz; chet tilda ~ (-approksimatsiyalashgan *q.*) va ona tilida toʻgʻri talaffuz
- taqsimot** [ar.] — distributsiya *q.*, taqsimlash, tashkil etish (-*rus.* организация)
- tarbiya** [ar.] — oʻquv ~ (-taʼlim~~) ishlari/amaliyot/jarayoni/sharoiti/vositasi; ~ berish/olish; maʼnaviy (-axloqiy) ~ ; ~ koʻrgan/bergan/olgan; chet til materialida ~lash; taʼlim bilan ~ birligi
- tarbiyalash** [ar.+oʻzb.]: oʻquvchi/talabalarni chet til materialida ~, taʼlim jarayonida ~
- tarbiyaviy** [ar.] — tarbiyaga oid; ~ ishlar/tadbir/soat; ~ yoʻnalish; ~ maqsad (*chet til oʻqitish maqsadlaridan*)
- tarixiy** [ar.]: chet til oʻqitish ~ metodlari; ~ hamda jarayon metodlari (*q.* metod)
- tarjima** [ar.] — tildan tilga oʻgirish, agʻdarish; ogʻzaki/yozma ~; ~ metodi (*tarixiy metodlardan*); chet tildan ona tiliga ~; ona tilidan chet tilga ~; soʻzma-soʻz/mazmunan ~; matn/jumla/soʻz ~si; ~ mashqi/malakasi; ~ va ~siz usul (*til birligi maʼnosini ochish usullari*)
- tarjimali** [ar.+oʻzb.]: ~ mashq (-chet tildan ona tiliga, ona tilidan chet tilga oʻgirish mashqlari)
- tarjimasiz** [ar.+oʻzb.]: ~ oʻqish (-sintetik oʻqish); ~ va tarjimali usul (*maʼno ochish usullari*)
- tarqatma**: ~ material (-*rus.* раздѣточный материал), *q.* material
- tasavvur** [ar.] — ondagi psixik jarayon; ~ qilish; koʻruv ~i, xotira ~i; ~dagi vaziyat (*nutq vaziyatiga oid*)
- tasnif** [ar.] — tipologiya *q.*, klassifikatsiya *q.*
- tayanch** — til oʻrganishga yordam koʻrsatadigan lisoniy birlik; ~ soʻz (-*rus.* ключевое/опорное слово, *ingl.* key word — *aynan* kalit soʻz); ~ soʻz/maʼno/jumla/matn; verbal/vizual ~; yozma va ogʻzaki ~
- tayanish**: kontekstga ~; ona tiliga/til tajribasiga ~; til tajribasini hisobga olish (*metodik prinsiplardan*)
- tayyor** [ar.]: -jumla (-qolip, klishe, yaxlit gap, turgʻun soʻz birikmasi); ~ va tipovoy jumla
- tayyorgarlik**: darsga ~; umumiy ~ (-saviya)
- tayyorlangan**: ~ nutq (-avval oʻrganilgan til materiali yoki nutqiy mavzu yuzasidan fikr bayon etish); ~ va tayyorlanmagan nutq
- tayyorlanmagan**: ~ nutq (-eksprom(p)t *q.*, badiha *q.*, improvizatsiya *q.*); ~ va tayyorlangan nutq

- tayyorlash:** til materialini ~; til materialini ~ hamda nutq ko'nikma, makalalarini shakllantirish; til materialini ~ bosqichlari (-tanlash, tasnif, taqsimot, taqdimot); metodik ~; dars/vazifa/ko'rgazmalilik ~
- tashkil** [ar.]: ~ etish (-rus. организация); til materialini ~ etish; chet til ta'limini ~ etish; leksikani/grammatikani/fonetikani ~ etish (taqsimlash)
- tashkiliy** [ar.]: chet til o'qitish ~ formalari; metodikaning nazariy hamda ~ masalalari; ~ (-rus. организационный (-darsga kelmaslik, sustlik, zaiflik tufayli) hamda interferensiyon (-ta'siriy—til hodisalarining chalkashishi oqibatidagi) qiyinchiliklar
- tashkilot** [ar.] — til materialini taqsimlash (-rus. организа́ция; ingl. distribútion), *q.* taqsimot
- ta'lim** [ar.] — o'qitish, o'rgatish; xalq ~i; — vositasi/maqsadi/mazmuni/metodi/prinsipi/jarayoni/sharoiti; ~ nazariyasi (-ta'limshunoslik, didaktika); ~ bosqichlari (-boshlang'ich, o'rta, yuqori); ~ bilan tarbiya birligi
- ta'limiy** [ar.] — ta'limga oid; ~ o'yin/nazorat/test; ~ tajriba, (*ilmiy tadqiqot metodi*); ~ maqsad, *q.* umumta'limiy
- ta'limshunoslik** [ar.+f-t.+o'zb.] — didaktika, o'qitish (-ta'lim) nazariyasi; ~ (-didaktika) prinsiplari; chet til o'rgatishning ~ prinsiplari; chet til o'qitish metodikasining ~ asoslari; lisoniy ~
- ta'rif** [ar.] — definitsiya *q.*; qoida ~lari (-til birligining ifodalanishi)
- ta'sir** [ar.]: ijobiy va salbiy ~; ijobiy ~ (-transpozitsiya/fasilitatsiya) va salbiy ~ (-interferensiya)
- teatrlashtirilgan:** ~ situatsiya (-matnni insseniroyka qilish)
- tekshirish** — test *q.*, sinov *q.*, nazorat *q.*, kontrol *q.*; uy vazifasini ~; daftar ~; nutqiy ko'nikmani/malakani ~
- tekshiruv** — nazorat *q.*
- tekst** [lot. textus — to'qima, birikma] — matn *q.*, nutq mahsuli hamda obykti; nutq obykti (-o'qiladigan (-grafik, yozma) yoki tinglanadigan audiotekst) hamda nutqiy mahsulot (-gapirish yoki yozuv hosilasi); magnitofon yozuvidagi/jonli ~; chet tildagi ~; o'qiladigan/tinglanadigan ~; sohaviy/siyosiy/sportga oid ~; darslik ~i; bog'lanishli (-bog'lanma) ~; grafik/og'zaki ~; ~ni adaptatsiya qilish (-moslashtirish, soddalashtirish/murakkablashtirish); ~ tuzish/tanlash/ko'chirish/o'qish/tarjimasi; ~ oldi/~ bo'yicha/~dan keyingi mashq; ~ turlari/mazmuni/sujeti/lug'ati; tanlangan/tuzilgan ~; adaptatsiya qilingan/original/autentik ~
- tekstuál** — tekstga oid; ~ didaktika (-tekst o'qish bilan bog'liq masalalarni yorituvchi ilmiy soha); ~ didaktika/lingvistika
- teledars** [yunon. + ar.] — televizion *q.* dars
- teledidaktika** [yunon. téle + didaktika] — o'quv teleko'rsatuvlar tizimi
- telekúrs** [yunon. + lot.] — televizion *q.* kurs
- televizió** [yunon. téle — uzoq + lot. vizum (video) — qaramoq, tomosha

qilmoq]: ~ kurs (-telekurs); ~ dars (-teledars); ~ orqali o'quv ko'rsatuvlari tizimi (-teledidaktika); ~ muallim (-telemuallim), ~ ko'rsatuv (-teleko'rsatuv)

téma [yunon. thema — (*aynan*) asosiga qurilgan] — mavzu; nutqiy ~; og'zaki nutq/o'qish ~lari; dars ~si; ~ni tayyorlash/aytib berish/o'tish

tematik [yunon. téma] — mavzuiy; mavzudosh; ~ (-mavzudosh) leksika; ~ kecha; ~ tekshiruv; ~ (-mavzuiy) reja

teskari: ~ ma'noli (-antonim); ~/zid ma'noli so'zlar

test [ingl. test — sinov, tekshirish] — sinov, imtihon, tekshirish; alternativ ~ (*nazorat shakli*); tanlab javob qaytarish ~i; diagnostik ~; ~ o'tkazish (*ilmiy-tadqiqot metodlaridan*)

téxnika [yunon. téchne — mahorat, ustalik]: til ~si (-o'qish, yozish, talaffuz, tanib olish ~si); ta'limning ~ vositalari (*ko'rgazmali qurollar*)

texnikaviy [yunon. texnika] — ~ (-o'qish, yozish, talaffuz, tanib olish) ko'nikma; tilning ~ tomoni; ~ va mazmuniy tomon; ~ vositalar; lisoniy ko'nikmaning ~ tomoni

texnológíya [yunon. téchne — mahorat, ustalik + lógos — ta'limot] — muayyan jarayonni yurgizish usullari hamda vositalari; chet til o'qitish ~si; o'qitish ~si/strategiyasi/q./taktikasi q.; axborot ~si

tezlik — sur'at; o'qish/yozish/javob/nutq ~ gi (-sur'ati, tempi)

til — lison; ~ birligi/hodisasi/materiali/tajribasi; ~ birligi (-lug'at, leksik, grammatik, talaffuz, imlo birligi); ~ tajribasi (-ona tili, ikkinchi ~, chet ~dagi bilim, ko'nikma, malaka majmuyi); o'zga/boshqa/begona ~; ~ kompetensiyasi (-layoqat, lisoniy iqtidor); ~ hissiyoti (- ~ni his etish, - *rus. языковóе чутьё*); ~ tajribasini hisobga olish prinsipi; ~lar aloqasi (-kontakti); ona tili (~ tafakkur shakllanadigan ~); ikkinchi ~ (-kelgindilar uchun shu yerning davlat tili, mas. o'zbek tili boshqa tillar sohiblari uchun, o'zbeklar uchun rus tili yoki boshqa xalqlar (qo'shnilar) ~); ~ sistema hamda muloqot vositasi; ~ tajribasi (-lingvistik, lisoniy, nutqiy qismlardan iborat); chet ~ (-xorijiy ~, ajnabiy ~, o'zgalar ~i, boshqa yurt ~i); chet ~ muhiti; chet ~ o'rganish (-chet tilda gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuv malakalarini egallash); chet ~lar instituti/fakulteti/bo'limi/kafedras; chet ~ bilish/o'rganish/o'qitish; chet ~ o'qitish metodikasi; chet ~ o'rgatish psixologiyasi; chet ~ o'qitish jarayoni/masalalari/amaliyoti; chet ~ muallimi/o'rgatuvchi/o'rganuvchi/repetitori (-uyda ~ o'rgatuvchi muallimi)

tilshunos [o'zb. + f-t.] — lingvist, lingvistika (-tilshunoslik) mutaxassisi; ~, ruhshunos, metodist, muallim

tilshunoslik [o'zb. + f-t. + o'zb.] — lingvistika, til haqidagi fan; chet til o'qitish metodikasining ~ asoslari; ~, ta'limshunoslik, ruhshunoslik

timsol [ar.] — obraz q.; tovush (-fonetik) harfiy (-grafik), imloviy (-orfografik) ~; ko'ruv/eshitish/harakat ~i

tipológiya [yunon. týpos + lógos — ta'limot] — tasnif(lash), tiplarga bo'lish, guruhlarga ajratish; lingvistik/lingvodidaktik/lingvometodik ~; xatolar/qiyinchiliklar/mashqlar/matnlar/darslar/til materiali ~si; metodik ~, (-klassifikatsiya q.), distributsiya q, prezentatsiya q.

tipovóy [yunon. typós — tamg'a, iz, namuna + rus.] — namunaviy, andazaviy, asos bo'ladigan; ~ o'quv rejasi/dastur/darslik; ~ jumla (-chet til ~ dasturida berilgan yangi jumlar tuzish uchun asos (-nutq namunasi) darajasidagi gap); ~ va tayyor (-yaxlit) jumla; ~ (-namunaviy) jumlagi asoslanib gaplar tuzish; ~ (joriy/amaldagi) o'quv rejasi/dasturi/til minimumi

tinglash — tinglash hamda tushunish, tinglab tushunish (*rus.* аудиро-вание, *nutq faoliyati turi*); nutqni/diktorni/muallimni ~; ~ ko'nikmasi hamda malakasi; gapirish/tinglab tushunish; ~ (-auditiv) mashqi

tinglovchi — auditor q.; leksiya ~lar (-auditoriya), som'e (eshituvchi, tinglovchi)

topqirlik: til ~ gi (*-rus.* дога́дка)

topshiriq: metodik/o'quv/yakka (-individual) ~; ~ni bajarish; ~ berish/olish/yozish/bajarish

tovush — talaffuz birligi; ~ timsoli/shakli; ~-harf (-fonema-grafema) munosabati (-o'qilish qoidasi)

traditsión [lot. traditio — birovga yetkazish, rivoyat, hikoya qilib berish] — an'anaviy q.; ~ (-an'anaviy) metod/ta'lim/usul/dars; ~ va zamonaviy

transkripsiya [lot. transcriptio — ko'chirib yozish] — yozuvda tovush belgisi, fonetik yozuv; fonetik ~; qisman (-harf yoki harf birikmasi) ~si; to'liq ~ (-so'z, gap ~ si); qisman va to'liq ~

transpozitsiya [lot. transpositio — boshqa joyga ko'chirish] — ijobiy ta'sir, ijobiy ko'chish, yordamga kelish, ko'maklashish (-ijobiy natijaga olib boruvchi bilim, ko'nikma, malakaning ko'chishi); ~ (fasilitatsiya q.) va interferensiya q.

trilingv [yunon. tri — uch + lot. lingua — til] — uch tilda so'zlashuvchi, uch tilli; ~ (-uch tilli), poliglott (-ko'p tilli), bilingv (-ikki tilli, zullisonayn), monolingv (-bir tilli, yakzabon)

tréning [ingl. training] — amaliy mashg'ulot tizimi/rejimi

trenirovka [ingl. + rus.] — mashq qilish (*o'zlashtirish bosqichlaridan*); ~ mashqi (-drill)

tushuncha — fikr formasi, psixik hosila; ~ning shakllanishi/ifodalanishi; metodik/ilmiy/sohaviy/didaktik/psixologik ~; konkret (-aniq, ravshan) va abstrakt (-mavhum) ~

tushunish: tinglab ~; tarjimasiz ~; o'qib ~; idrok etib ~; og'zaki yoki yozma nutqni ~; matn/audiomatn ~

tushuntirish: yangi materialni ~; so'z ma'nosini/grammatik hodisani ~

tuzish: qo'llanma/dastur/o'qish kitobi/mashq/test ~; matn ~, matn tanlash

TO'M — talaffuzni o'rgatish mazmuni, (q. kompressiya); **LO'M**, **GO'M**, **TO'M**

to'xtash — pauza *q.*; nutqda ~; orada ~ (magnitofon yozuvida)

umumlashma — qoida, mavhumot, sodda ta'rif; grammatik ~ (-grammatik mexanizmning tarkibiy qismi); qoida-ko'rsatma va qoida-~
umumlashtirish: tajriba, ~; ilg'or ish tajribasini ~ / tarqatish; o'rganilgan til materialini ~ / takrorlash

umumta'limiy: ~ maqsad (*chet til o'qitish maqsadlaridan*); chet til ~ / ixtisos o'quv predmeti; chet til o'qitishning amaliy, ~, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, kasbiy maqsadlari

undovchi: ~ replika (-stimul replika); ~ (-stimul) va javob (-reaksiya) replikasi, *q.* replika

uslubchi [ar.+ f-t.] — metodist (-o'qitish uslubiyoti mutaxassisi); chet til o'qitish ~si (metodisti)

uslubiy [ar.] — metodik *q.*

uslubiyot [ar.] — metodika *q.*, tadris *q.*; chet til o'qitish ~i (-metodikasi)

usul [ar.]: metodik ~; so'z ma'nosini ochish ~i; talaffuz o'rgatish ~
uy: ~ da o'qish/dars qilish; ~ ishi/vazifasi/mashqi; ~ ga vazifa; ~ ishi/sinf ishi

varaqa [ar.] — anketa *q.*

vazifa [ar.] — topshiriq, yumush; uy ~si; uyga ~ berish; ~sini bajarish/ tekshirish/yozib olish; individual (-yakka tartibda)/guruhiy ~; oson/ qiyin ~

vaziyat [ar.] — situatsiya; nutqiy/sun'iy/tabiiy ~; sun'iy (-tasavvurdagi, xayoliy) ~ yaratish; o'quv-nutqiy ~ (-O'NV); verbal (-so'z bilan ifodalanadigan), vizual (-ko'rgazmali) ~; nutqiy ~ (rol)ga kirish); nutqiy ~, nutqiy mavzu

verbal [lot. verbalis — so'z bilan bog'liq, og'zaki] — so'z bilan ifodalanmish; tafakkur ~dir; ~ qoida (-so'z bilan ta'riflanadigan mavhumot); ~ / vizual tayanch; ~ tayanch/situatsiya/xotira; ~ reaksiya/ stimuly; ~ / vizual ko'rgazmalilik

verbalizatsiya [lot. verbal] — chet til o'rgatishning psixologik prinsipi (-begona tilni og'zaki nutq orqali o'rgatish mezon); ~, korrelatsiya prinsiplari (*G. E. Vedel terminlari*)

video... [lot. video — ko'ryapman, tomosha qilyapman]: videoyozuv (-videomagnitofonga yozilgan ko'rsatuv); videomagnitofon (-tasvirni yozib ko'rsatishga mo'ljallangan texnik vosita); videotasma (-videolenta — videomagnitofon tasmasi); videoteka (-videotasmalar yig'indisi, ular saqlanadigan joy); videofilm (-videomagnitofon yordamida yozib ko'rsatiladigan asar)

viktorina [lot. victoria — g'alaba, yutuq] — savol-javob musobaqasi, o'yini, tomoshasi; chet tilda ~ o'tkazish; ~ da qatnashish/yutish/yutqazish; ~ g'olibi/natijasi

vizual [lot. visualis — ko'rishga oid]: ~ (-ko'rishga mo'ljallangan) narsa/hodisa; ~ vosita (-ta'limning ko'rgazmali vositasi, ~ tayanch (-

ko'rib turib mashq qilishga ko'maklashuvchi o'quv materiali, mas. so'z, so'z birikmasi, jumla, matn, rasm kabilar); ~ qoida (-o'qi-ladigan lisoniy mavhumot turi); ~ situatsiya (-narsa yoki uning tasviri yordamida sodir etiladigan nutqiy vaziyat); ~ stimul *q.*; xotiraning ~ turi; ~/verbal ko'rgazmalilik/tayanch

vizualizatsiya [lot. vizual] — ko'rsatish, namoyish etish (-til birligi yoki vizual vositalardan foydalanish jarayoni)

vokabulár [lot.] — lug'at, so'zlik; o'quvchi ~i (-lug'at boyligi); ~ lug'at (-o'quvchi lug'at boyligini tashkil etadigan so'zlar majmuyi); ~dan tashqari (-novokabular) lug'at (-o'quvchi matnda uchratadigan (tinglaganda yoki o'qiganda), ammo uning ~iga kirmaydigan so'z-lar): ~ va novokabular lug'at; ~ va novokabular, real va potentsial lug'at; darslik ~i (kitob oxiriga ilova qilingan lug'at)

vosita [ar.]: o'quv ~si; texnik ~; ko'rgazmali ~; ta'limning moddiy ~si (-darslik, muallim kitobi, texnik ~lar); ta'lim/texnik/nazorat/aloqa (-muloqot) ~si; yozuv maktab chet til ta'limida ~dir, ya'ni boshqa nutq faoliyati turlarini egallashda yordamchi vazifani o'taydi; nutq faoliyati turi (mas. o'qish) ~ va maqsad

xato [ar.] — nutqda til materialini noto'g'ri qo'llash, lisoniy yoki boshqa qiyinchilik oqibati; leksik/grammatik/talaffuzda/imloviy/o'qishda/nutqiy ~; ~ni o'rganish/bartaraf etish/to'g'rilash; ~ga yo'l qo'ymaslik; ~ qilish/aytish/gapirish/yozish/o'qish/tushunish; ~ va to'g'ri

xomaki [f-t.]: ~ rasm (-kroki *q.*)

xorijiy [ar.] — ajnabiy, chet; ~ til; ~ mamlakat (-ona Vatandan boshqa yurt) tili (*q.* chet til)

xorijabon [ar. + f-t.] — chet tilda so'zlashuvchi; chet til biladigan; ~ talaba/muallim/mutaxassis/mehmon

xotira [ar.]: kuchli ~; ~ni mashq qildirish; ~ning hajmi; qisqa muddatli (-operativ) va uzoq muddatli (-doimiy) ~; ~da saqlash; ~ dan ko'tarilish; eshitish, ko'ruv, harakat, verbal ~

xronometrāj [yunon. chrónos — vaqt + metron — o'lchov] — til ta'limida sarflanadigan vaqtni o'lchash (*ilmiy-tadqiqot metodlaridan*) *q.* tadqiqot

yakkanutq [f-t + ar.] — monolog *q.*; gapirish, so'zlash; ~ mashqi; ~, juftnutq, guruhnutq

yakuniy [ar.]: ~ maqsad (*chet til ta'limida*) ~ hamda oraliq maqsad/ko'rsatkich; ~ ko'rsatkich (-maktab tugashidagi nutqiy malakaga oid), ~ tekshiruv (-nazorat); joriy, oraliq, ~ nazorat

yakzabon [f-t.] — bir tilli, monolingv (-bir tilni biladigan)

yasalish — shakl *q.*, forma *q.*; so'z/grammatik hodisa ~i; ~ (-forma, ma'no (semantika), qo'llanilish (-funksiya))

yodlash [f-t.+o'zb.] — xotirada saqlash, eslab qolish; she'r/ashula/matn/so'z/qoida ~; quruq/tushunib/ongli ~

yondashuv: til o'rgatish yondashuvlari; kommunikativ/kognitiv ~lar

yordamchi: ~ vosita; ~ (-yo'llovchi) savol (-rus. наводящий вопрос); ~ fe'l; ~ va asosiy vosita

yoziq — tovush kodini harfiy kodga o'tkazish (-til birliklarini harfiy timsollar yordamida ifodalash); ~ texnikasi/qoidasi/mashqi; harfni/so'zni/gapni/mashqni/matnni/savolni/maqolani ~; diktant ~; diktovka ostida (-aytib turganda) ~; ~, o'qish, talaffuz texnikasi; ~, o'qish, aytish, eshitish ko'nikmalari; yozuv (-nutq faoliyati turi) malakasi hosil qilinganda, uning tarkibida ~ ko'nikmasi shakllangan bo'ladi; ~ qoidasi (-imlo, orfografiya); ~, yozuv; ~ — texnikaviy, yozuv esa — nutqiy hamda texnikaviy tushuncha

yozma — harfiy timsollar bilan ifodalangan; ~ nutq (-o'qish va yozuv); ~ shakl; ~ nutq/muloqot/mashq/ish/matn/axborot/tarjima; ~ va og'zaki

yozuq — yozma shaklda fikr bayon etish (*nutq faoliyati turi*); ~, yozma; yoziq; ~ ko'nikmasi/malakasi (husnixat, imlo, gap tuzish, yozma, leksik, grammatik ko'nikmalar yig'indisi ~ malakasini tashkil etadi); gapirish, tinglab tushunish, o'qish, ~ malakalari; ~ mexanizmi; mexanik (-magnitofon/grammofon/videomagnitofon) ~

yo'llovchi: ~ (-oriyentir q.) asos; nutqning ijro qismi bilan ~ asosi; ~ (-yordamchi) savol

yo'nalganlik: amaliy ~ (-chet tilni hayotda qo'llash maqsadida o'rganish); kasbga ~ (-kelajakda o'quvchi oladigan ixtisosga intilish)

yo'nalish: kommunikativ (-amaliy) ~; chet til o'qitishda kommunikativ ~; metodik ~

zaryadka [rus.] — mashq, shug'ullanish (-odatda dars boshlanishida bajariladigan nutqiy/til material bilan bog'liq mashg'ulot); fonetik/leksik/grammatik/nutqiy ~; fonetik ~ (-fonetik drill)

zachot [rus.] -sinov q. ~/imtihon/test/sinov topshirmoq/olmoq; ~ (-sinov)/reyting daftarchasi

zullisonayn [ar.] — bilingv, ikki tilli, qo'shzbabon; Alisher Navoiy ~ shoirdir; ~, yakzbabon (-monolingv), ko'p tilli (-poliglot)

O'NV — o'quv-nutqiy vaziyat; O'NV (-tabiiy (hayotiy) hamda sun'iy (-tasavvurdagi, xayoliy) vaziyatni yaratish; juftnutq bilan guruhnutq uchun O'NVni yaratish; O'NV bilan nutqiy tema (-mavzu) q.

o'qilish: ~ qoidasi (-o'qish texnikasi); harf/so'z/matn ~i; ~ da hamda yozilishda; ~, o'qish q.; ~ jarayoni (-o'qish texnikasi)

o'qish — matndan axborot olish, ya'ni matnni idrok etib mazmunini anglash (*nutq faoliyati turi*); yozilganni aytish, ya'ni harf-tovush munosabatining ro'yobga chiqishi (*o'qish texnikasi*); tahsil olish, o'rganish, ta'lim olish; ~ texnikasi (o'qilish jarayoni hamda o'qilish

- qoidalari majmuyi; ~ texnikasi mashqi; ~ tezligi (-sur'ati, tempi); so'zni butunicha (-yaxlit) ~ / bo'g'inlab ~ metodlari/; ~ turlari/mashqlari/mavzulari/ko'nikmasi/malakasi/kitobi/materiali; ~ material hamda o'quv material; ifodali/qo'shimcha/mustaqil/sinfda/uyda/ichda/ovoz chiqarib/lug'at bilan/lug'atsiz ~; ~ turlari: analitik va sintetik (-kursor) ~ (*idrok etib tushunishga ko'ra*), tanishuv, o'rganuv, kuzatuv ~ (*ko'zlanadigan maqsaddan kelib chiqish*), tayyorlangan va tayyorlanmagan ~ (*ko'rilgan hozirlik munosabati bilan*), tarjimali va tarjimasiz ~ (*til tajribasi jihatidan*), lug'at bilan va lug'atsiz ~ (*ona tili aralashuvi*), sinfda yoki uyda ~ (*ishlash joyi*), yolg'iz (-yakka) va xor bilan ~ (*tashkiliy tomoni*), ichda (-ovozsiz) va ovoz chiqarib ~ (*ovoz ishtiroki*); statar ~ (-mukammal ~)
- o'qitish** — ta'lim *q.*, o'rgatish *q.*; ~ metodikasi (-uslubiyoti); ~ qonuniyatlari/qonun-qoidalari/jarayoni/natijasi/nazariyasi/amaliyoti/ishlari; chet til ~ (-o'rgatish, ta'limi); masofadan ~ (rus. дистанционное/дистантное обучение)
- o'qituvchi** — muallim *q.*, domla (*xalq tilida*), mudarris (*madrasada*), muayyan soha yoki fandan saboq beruvchi, ta'lim-tarbiya beruvchi; ~ kitobi/tavsiyasi/metodikasi/tajribasi/malakasi; chet til ~si (-muallimi)
- o'quv:** ~ material/dasturi/rejasi/jarayoni/predmeti/yurti/kursi/guruhi/vositasi/jihozi/qo'llanmasi; ~-tarbiya rejasi/ishlari/praktikasi/jarayoni; ~ -metodik ish/tadbir/adabiyot/hujjat; ~ material hamda o'qish material; ~ televizion dasturi; ~ nagruzkasi (-dars soati/o'quv yuklamasi); ~ jadvali (-dars jadvali); ~ (-o'rganish) birligi
- o'quvchi** — bilim hamda ta'lim oluvchi, tahsil ko'ruvchi, talaba; maktab/akademik litsey/kasb-hunar kolleji ~si; ~ kitobi; a'lochi ~, yaxshi/o'rtacha o'qiydigan ~; qoloq/ilg'or/intizomli ~; ~, talaba (-student), muallim; ~ professiogrammasi
- o'rganish** — bilib olish, egallash *q.*; chet tilni ~; leksikani/grammatikani/talaffuzni/nutq faoliyati turlarini ~; ~/o'zlashtirish/egallash
- o'rganuv:** ~ o'qish (-mutolaa, ya'ni matn mazmunidan barcha tafsilotlarni o'rganib olish, axborotni sinchiklab tushunish, *ingl.* close reading); ~, tanishuv, kuzatuv o'qish
- o'rgatish** — o'qitish *q.*, tushuntirish *q.*, yangi materialni bildirish, saboq *q.* berish; ta'lim berish; chet til ~; o'quv materialini/nutqni ~; ~ va o'rganish *q.*
- o'zlashtirish** — shaxsning ijtimoiy-tarixiy (jumladan lisoniy) tajriba orttirish yo'li; til materialini tayyorlash hamda ~; til materialini ~ bosqichlari (tanishish, mashq qilish, qo'llanish, nazorat); til materialini tayyorlash/~ bosqichlari; puxta ~ (-chet til birliklari yuzasidan barqaror nutqiy ko'nikma hamda malaka hosil qilish); ~ qadami (-algoritm); yuzaki (-bo'sh) va chuqur (-puxta) ~

g'ayrishuuriy [ar.] — beixtiyor, o'ylamasdan, mexanik *q.* tarzda, fikr yuritmasdan, ong ishtirokisiz; ~ tarzda bajariladigan mashq; (-drill *q.*); ~ va ongli

shakl [ar.] — forma *q.*; yasalish *q.*; chet til birligi ~i; chet til birligi ~i (-formasi, yasalishi), qo'llanilishi (-funksiyasi), ma'nosi (-semantikasi); fe'l/sifat/ravish ~ i; yozma va og'zaki ~; grafik (-harfiy), fonetik (tovush) ~i; ~ bilan mazmun birligi

shakldosh [ar. + f-t.] — omonim *q.*; ~, ma'nodosh, teskari (-zid) ma'noli til hodisalari

shakliy [ar.] — shaklga oid; til hodisasining ~, qo'llanilish, ma'noviy jihatlari

shakllantiruvchi: ~ mashq; ~, rivojlantiruvchi, takomillashtiruvchi mashq

sharoit [ar.] ~ holat, vaziyat; ta'lim (-o'qitish) ~i; chet til o'qitish ~i; ~yaratish; ~ bilan maqsad (*chet til ta'limida*)

shaylik — moyillik (-o'rganiladigan obyekt — til materiali/nutqga subyekt (-o'quvchi)ning shayligi (-moyilligi); ~ nazariyasi (*atamatushuncha rus. „установка“ termini D.N.Uznadze tomonidan taklif qilingan*)

chet (chet til) — xorijiy, ajnabiy til; maktabda o'qitiladigan chet tillar (- ingliz, ispan, nemis, fransuz, rus — Yevropa tillari hamda arab, turk, fors, xitoy, koreys, hind, urdu — Sharq tillari); chet tilda nutq faoliyati turlari (gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuv); chet til instituti/fakulteti/bo'limi/kafedrası/muallimi; chet til xonasi (-kabineti); chet tilni kichik yoshdan o'rgatish/o'rganish; chet tilni chuqur o'rgatish (maxsus maktab kursi); chet til, ona tili, ikkinchi til; chet til o'qitish metodikasi, *q.* til

DARSLIKDA ISHLATILGAN QISQARTMALAR

| | |
|---------|--|
| AL | akademik litsey |
| AND | aralash nutq dars(lar)i |
| ar. | arabcha |
| b. | bet |
| DTS | Davlat ta'lim standarti |
| fr. | fransuzcha |
| f-t | fors-tojik |
| ingl. | inglizcha |
| isp. | ispancha |
| ital. | italyancha |
| KHK | kasb-hunar kolleji |
| L. | London |
| lot. | lotincha |
| nem. | nemischa |
| N.Y. | New York |
| q. | qarang |
| rus. | ruscha |
| SND | sof nutq darslari |
| T. | Toshkent/Ташкент |
| DTPI | Toshkent davlat pedagogika instituti |
| DTPU | Toshkent davlat pedagogika universiteti |
| TDCHTPI | Toshkent davlat chet tillar pedagogika instituti |
| yunon | yunoncha |
| O'AVV | o'qitishning audiovizual vositalari |
| O'NV | o'quv nutqiy vaziyat |
| o'zb. | o'zbekcha |
| O'zDJTU | O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti |
| O'zDMU | O'zbekiston davlat milliy universiteti |
| ИЯШ | jurnal „Иностранные языки в школе“ |
| Л. | Ленинград |
| М. | Москва |
| МГПИИЯ | Московский государственный педагогический институт иностранных языков |
| с. | страница |
| ТГПИ | Ташкентский государственный педагогический институт |
| ТГПИИЯ | Ташкентский государственный педагогический институт иностранных языков |

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| Muqaddima | 3 |
| Chet til o'qitish metodikasiga kirish | 8 |
| Chet til o'qitish metodikasi dasturining talablari | 8 |
| Nutq faoliyati turlari | 9 |
| „Til texnikasi“ tushunchasi | 11 |
| Chet til qoidasi | 11 |
| Mashqlar sistemasi | 13 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 15 |

BIRINCHI QISM

CHET TIL O'QITISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

| | |
|---|----|
| I bob. Metodika — chet til o'qitish nazariyasi | 16 |
| Chet til o'qitish metodikasining pedmeti | 16 |
| Metodikadagi asosiy tushunchalar | 17 |
| Umumiy va xususiy metodika | 18 |
| Metodika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari | 18 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 23 |
| II bob. Chet til o'qitishning ruhshunoslik, ta'limshunoslik va tilshunoslik asoslari | 23 |
| Metodikaning boshqa fanlar bilan aloqasi | 23 |
| Chet til o'qitishning ruhshunoslik asoslari | 25 |
| Chet til o'qitishning ta'limshunoslik asoslari | 30 |
| Chet til o'qitishning tilshunoslik asoslari | 33 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 40 |
| III bob. Chet til o'qitish maqsadlari | 41 |
| Chet til o'qitishning amaliy maqsadi | 41 |
| Chet til o'qitishning umumta'limiy maqsadi | 43 |

| | |
|--|------------|
| Chet til o'qitishning tarbiyaviy maqsadi | 45 |
| Chet til o'qitishning rivojlantiruvchi maqsadi | 47 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 51 |
| IV bob. Chet til o'qitish mazmuni | 51 |
| 1-§. Ta'lim mazmunining nazariy masalalari | 51 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 56 |
| 2- §. Chet til o'qitish mazmunining tarkibiy qismlari..... | 57 |
| Nutq mavzulari | 57 |
| Nutq malakalari | 61 |
| Til materiallari..... | 63 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 65 |
| 3-§. Til materialini o'rgatish mazmuni | 65 |
| Leksikani o'rgatish mazmuni..... | 66 |
| Grammatikani o'rgatish mazmuni..... | 69 |
| Talaffuzni o'rgatish mazmuni | 71 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 74 |
| V bob. Chet til o'qitish metodlari va prinsiplari | 74 |
| „Metod“ va „prinsip“ tushunchalariga doir | 74 |
| 1- §. Chet til o'qitish metodlari..... | 75 |
| Chet til o'qitish tarixida metodlar | 75 |
| Chet til o'qitish jarayonida metodlar | 79 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 82 |
| 2- §. Chet til o'qitish prinsiplari | 82 |
| Chet til o'qitishda didaktik prinsiplar | 82 |
| Chet til o'qitishning psixologik prinsiplari | 89 |
| Chet til o'qitish metodikasi prinsiplari | 90 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 98 |
| VI bob. Chet til o'qitish vositalari | 98 |
| 1- §. O'qitish vositalari tasnifi | 98 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 101 |
| 2- §. O'qitishning asosiy vositalari | 101 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 105 |
| 3- §. O'qitishning yordamchi vositalari..... | 105 |
| O'quv-metodik topshiriqlar..... | 108 |
| VII bob. Chet til o'qitish metodikasi tarixi | 108 |
| 1- §. Chet til o'qitish metodlari tarixi | 109 |

| | |
|---|-----|
| O'quv-metodik topshiriqlar | 128 |
| 2- §. Sobiq Ittifoq chet til o'qitish metodikasi tarixi | 129 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 132 |
| 3- §. O'zbekistonda chet til o'qitish tarixi | 133 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 144 |

IKKINCHI QISM

CHET TILDA NUTQ FAOLIYATI TURLARINI O'RGATISH

| | |
|--|-----|
| VIII bob. Leksikani o'rgatish | 145 |
| „Leksika“ va unga aloqador tushunchalar haqida | 145 |
| 1-§. Leksikani metodik tayyorlash | 148 |
| Leksikani tanlash | 148 |
| Leksikaning taqsimoti | 151 |
| Leksikaning tasnifi | 153 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 157 |
| 2-§. Leksik ko'nikmalarni shakllantirish | 158 |
| Leksikaning taqdimoti | 158 |
| Leksika mashqlari | 160 |
| Leksikaning qo'llanilishi | 164 |
| Leksikani o'rgatish prinsiplari | 165 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 167 |
| 3- §. Leksik mashqlardan namunalar | 167 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 169 |
| IX bob. Grammatikani o'rgatish | 170 |
| „Grammatika“ tushunchasiga doir | 170 |
| 1-§. Grammatikani metodik tayyorlash | 173 |
| Grammatikani tanlash | 173 |
| Grammatikaning taqsimoti | 176 |
| Grammatikaning tasnifi | 177 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 180 |
| 2-§. Grammatik ko'nikmalarni shakllantirish | 180 |
| Grammatikaning taqdimoti | 181 |
| Grammatika mashqlari | 185 |
| Grammatikaning qo'llanilishi | 186 |
| Grammatikani o'rgatish prinsiplari | 187 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 194 |
| 3-§. Grammatik mashqlardan namunalar | 194 |
| O'quv - metodik topshiriqlar | 195 |

| | |
|---|-----|
| X bob. Talaffuzni o'rgatish | 196 |
| Chet til talaffuzini o'rgatishning mohiyati | 196 |
| 1-§. Talaffuz materialini metodik tayyorlash | 197 |
| Talaffuz minimumini tanlash | 197 |
| Talaffuz materialining taqdimoti | 200 |
| Talaffuz materialining tasnifi | 202 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 204 |
| 2-§. Talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish | 204 |
| Talaffuz materialining taqdimoti | 204 |
| Fonetik mashqlar | 211 |
| Talaffuzni o'rgatish prinsiplari | 216 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 219 |
| XI bob. Tinglab tushunishni o'rgatish | 219 |
| Tinglab tushunish nutq faoliyatining turi va malaka sifatida .. | 219 |
| 1-§. Chet tilda nutqni tinglab tushunishdagi qiyinchiliklar ,... | 222 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 224 |
| 2-§. Tinglab tushunishning psixofiziologik mexanizmlari | 224 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 226 |
| 3-§. Nutqni tinglab tushunishni o'rgatish va tushunganlikni tekshirish | 226 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 231 |
| 4- §. Tinglab tushunishni o'rgatish mashqlari | 231 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 234 |
| XII bob. Gapirishni o'rgatish | 235 |
| Gapirish nutq faoliyati turi va malaka sifatida | 235 |
| 1- §. Gapirishning psixofiziologik mexanizmlari | 238 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 240 |
| 2-§. Tilshunoslik va ruhshunoslikda gapirishning tavsifi | 240 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 243 |
| 3-§. Juftnutq va yakkanutq shaklida gapirishni o'rgatish | 243 |
| Juftnutqni o'rgatish | 245 |
| Yakkanutqni o'rgatish | 248 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 249 |
| 4-§. Gapirishni o'rgatish mashqlari | 249 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 252 |
| XIII bob. O'qishni o'rgatish | 252 |
| O'qish nutq faoliyatining turi va malaka sifatida | 252 |
| 1-§. O'qishning psixofiziologik mexanizmlari | 256 |

| | |
|---|------------|
| O'quv-metodik topshiriqlar | 257 |
| 2- §. O'qishni nutq faoliyati turi sifatida o'rgatish | 257 |
| O'qishni o'rgatish prinsiplari | 260 |
| O'qish materiali | 263 |
| O'qish turlarini o'rgatish | 267 |
| O'qish malakalarini hosil qilish | 270 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 273 |
| 3- §. O'qish texnikasini o'rgatish | 273 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 280 |
| 4- §. O'qishni o'rgatish mashqlari | 280 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 282 |
| XIV bob. Yozuvni o'rgatish | 283 |
| Yozuv nutq faoliyatining turi va malaka sifatida | 283 |
| 1- §. Yozuvning tilshunoslik va ruhshunoslik masalalari | 285 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 288 |
| 2- §. Yozish texnikasi va yozma nutqni o'rgatish | 288 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 291 |
| 3- §. Yozuvni o'rgatish mashqlari | 291 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 295 |
| XV bob. Nutq ko'nikma va malakalarini nazorat qilish | 295 |
| Nazoratning mohiyati | 295 |
| 1-§. Nazoratning obyekti | 297 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 301 |
| 2-§. Nazorat qilish metodikasi | 301 |
| Nazorat usullari | 301 |
| Nazorat turlari | 304 |
| Nazorat shakllari | 305 |
| Test o'tkazish | 307 |
| Ko'nikma va malakalarni baholash | 309 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 311 |

UCHINCHI QISM

CHET TIL O'QITISH JARAYONINI TASHKIL QILISH

| | |
|--|------------|
| XVI bob. Chet til darsi va uni rejalashtirish | 313 |
| 1-§. Chet til darsi | 313 |
| Darsning maqsadi | 314 |

| | |
|--|------------|
| Muallimning darsga tayyorgarligi | 316 |
| Dars turlari | 319 |
| Dars bosqichlari | 322 |
| Darsning boshlanishi | 322 |
| Darsning asosiy qismi | 323 |
| Darsning yakuniy bosqichi | 324 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 325 |
| 2-§. Rejalashtirish | 325 |
| Mavzuiy reja | 326 |
| Dars rejasi | 328 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 330 |
| XVII bob. Chet til o'qitish bosqichlari | 330 |
| O'qitish jarayonini bosqichlarga ajratish | 330 |
| 1- §. Boshlang'ich bosqich | 332 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 334 |
| 2-§. O'rta bosqich | 334 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 336 |
| 3- §. Yuqori bosqich | 336 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 338 |
| XVIII bob. Chet til bo'yicha darsdan tashqari ishlar | 338 |
| Darsdan tashqari ishlar haqida | 338 |
| 1- §. Darsdan tashqari ishlar maqsadi va tashkiliy mezonlari | 339 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 341 |
| 2- §. Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish | 341 |
| Ommaviy ishlar | 341 |
| Guruhiy ishlar | 344 |
| Yakkama-yakka ishlar | 347 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 347 |
| XIX bob. Turli o'quv yurtlarida chet til o'qitish | 347 |
| Masalaning metodologik tartibda qo'yilishi | 347 |
| „Qiyosiy metodika“ tushunchasiga doir | 350 |
| 1-§. Turli o'quv yurtlarida chet til ta'limi tasnifi | 354 |
| Ta'lim muassasalari | 354 |
| Chet til o'qitish maqsadlari tasnifi | 355 |
| Chet til o'qitish mazmuni tasnifi | 357 |
| Chet til o'qitish metodlari tasnifi | 358 |

| | |
|--|-----|
| O'quv-metodik topshiriqlar | 359 |
| 2-§. Tillar ta'limshunosligi | 359 |
| Ona tilini o'qitish | 360 |
| Ikkinchi tilni o'qitish | 360 |
| Chet tilni o'qitish | 364 |
| Til ta'limi jamlama tasnifi | 364 |
| O'quv-metodik topshiriqlar | 367 |
| Summary | 368 |
| Adabiyotlar | 372 |
| Terminlar izohli assotsiativ lug'ati | 375 |
| Lug'at | 380 |
| Darslikda ishlatilgan qisqartmalar | 423 |

JAMOL JALOLOV

CHET TIL O‘QITISH
METODIKASI

*Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari)
talabalari uchun darslik*

*Qayta ishlangan va to‘ldirilgan
2-nashri*

*„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2012*

Muharrir *L. Jo‘rayev*
Badiiy muharrir *B. Ibragimov*
Texnik muharrir *T. Greshnikova*
Kompyuterda sahifalovchi *K. Hamidullayeva*
Musahhah *T. Mirzayev*

Nashriyot litsenziyasi AI №161. 14.08.2009. Original-maketdan 2012- yil
8- iyunda bosishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90¹/₁₆. Kegli 11,0 shponli.

„Tayms“ garn. Ofset usulida chop etildi. Ofset qog‘ozi.

Shartli b.t. 27,0. Nashr.t. 25,22. 5000 nusxada bosildi.

Buyurma № 107-12.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O‘qituvchi“
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 129. Navoiy ko‘chasi,
30-uy. // Toshkent, Yunusobod dahasi, Yangishahar ko‘chasi,
1- uy. Shartnoma № 07-54-12.

81.2 **Jalolov, Jamol Jalolovich.**

J-22 Chet til o'qitish metodikasi : chet tillar oliy o'quv yurtlari
(fakultetlari) talabalari uchun darslik / J.J. Jalolov. —
Toshkent: O'qituvchi, 2012. — 432 b.

ISBN 978-9943-02-498-4

УДК:372.881.111.1

КБК 81.2ya73

© „O‘qituvchi“ NMIU
100206, Toshkent sh., Yangishahar ko‘chasi, 1.
Tel.: (+99871) 224-04-12
E-mail: info@oqituvchi.uz
Web-site: www.oqituvchi.uz

ISBN 978-9943-02-498-4

